O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA VA YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi

Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari

(V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov muallifligida yaratilgan “O‘zbek dialektologiyasi” darsligining 60 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)

2022-yil 21-may

TOSHKENT – 2022

“O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv” mavzusidagi Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallari / Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent: 2022. 408 bet.

Mas’ul muharrir:
Sh.Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:
S.Ashirboyev – filologiya fanlari doktori, professor
S. Normamatov – filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
B. Abdushukurov – filologiya fanlari doktori, professor
I.Azimov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
T. Enazarov – filologiya fanlari doktori, dotsent
M. Hakimova – filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
N. Ahmedova – filologiya fanlari nomzodi, dotsent
M. Umurzoqova – fil. fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
Sh. Bobomurodova – filologiya fanlari nomzodi
B. Tojiboyev – fil. fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Z. Xidraliyeva – katta o‘qituvchi

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasi tomonidan **“O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv”** mavzusidagi 2022-yil 21-mayda o‘tkazilgan Respublika ilmiy-nazariy konferensiyasi materiallaridan tashkil topgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin.

To‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashi yig‘ilishining 2022-yil 26-maydagi 10-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

1-qism

ILMIY IZLANISHLAR

O‘ZBEK SHEVALARINI O‘RGANISH YANGI BOSQICHDA

Sh.Sirojiddinov,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti rektori,
filologiya fanlari doktori, professor.

O‘zbek dialektologiyasi fan sifatida shakllangandan beri turli bosqichlarni bosib o‘tdi. U turkiy dialektologiya negizida paydo bo‘lgan va taraqqiyotga yuz tutgan. Uning gullagan davrini o‘tgan asrning 20- va 50- yillari bilan belgilash mumkin. O‘zbek dialektologiyasining rivojlanishiga, albatta, buyuk tilshunos Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarining asos bo‘lganligini e’tirof etmasdan bo‘lmaydi, chunki bu genial asar turkiy shevalar, folklor, turkiy qabilalar tarixi va ijtimoiy hayotning turli sohalarini aks ettirganligi bilan turkologiyada hamon ilmiy izlanishlar obyekti bo‘lib kelmoqdaki, so‘zsiz, u o‘zbek tili va shevalrining ham dastlabki tadqiqoti hisoblanadi.

O‘zbek tili mustaqil taraqqiyot bosqichiga o‘tgandan so‘ng to XX asr boshlarigacha o‘zbek shevalarini o‘rganish bo‘yicha jiddiy tadqiqotlarga ega bo‘lmadik. 20-yillarda o‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini aniqlash borasida o‘zbek shevalari qizg‘in o‘rganilganligi barchaga ayon. Bu davrda o‘zbek dialektologiyasining darg‘alari ham paydo bo‘ldi. Ularning boshida millatdoshimiz G‘ozi Olim Yunus turar edi. O‘sha davrda turli munosabatlar bilan Turkistonga kelib qolgan yirik olimlar Y.D. Polivanov, K.K. Yudaxin, A.Samoylovichlar ham bu fanning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan edilar. Keyinchalik O‘zbekistonda V.V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, F. Abdullayev kabi olimlar guruhi bu safga qo‘shildilar. Ayniqsa, o‘tgan asrning 50-80-yillarida o‘zbek shevalari yalpi o‘rganila boshlandi va o‘zbek shevashunoslarining katta avlodi yetishib chiqdi. Ularga umumiy rahbarlik akademiklar V.V. Reshetov va Sh. Shoabdurahmonovlar tomonidan amalga oshirildi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot ilmiy tekshirish institutida o‘zbek dialektologiyasi bo‘limi faoliyat ko‘rsatib keldi, universitetlar va pedagogika institutlari o‘zbek filologiyasi fakultetlarida “O‘zbek dialektologiyasi” fani joriy etildi. To‘g‘ri, bugunga kelib vaziyat o‘zgardi. Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida hozircha bunday bo‘lim tashkil etilmayapti, oliy ta’lim muassasalarida ham o‘zbek dialektologiyasi fanidan saboq beruvchi mutaxassislar kamayib ketdi. Buning asosiy sababi o‘zbek shevalari bo‘yicha tadqiqotlarning kamayib ketganligidir. Bu, albatta, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev e’tiboridan chetda qolmadi va uning o‘zbek tiliga davlat maqomi berilishining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali

marosimdagi “**Milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli**” mavzusidagi nutqida “*... o‘zbek tilining ... shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash”* to‘g‘risidagi fikrlaridan so‘ng o‘zbek shevalarini o‘rganishga bo‘lgan munosabat haqiqatan ham tubdan o‘zgardi. Bu borada universitetimizda davr uchun katta yangiliklar ham amalga oshirildi, ya’ni 2020-2021 o‘quv yilida magistraturada “Folklor va dialektologiya” mutaxassisligi, 2021-2022 o‘quv yilida “Folklor va shevashunoslik” bakalavriat yo‘nalishi ochildi. O‘zbek shevalarini ilmiy asosda o‘rganish va uning oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishi bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni bir tizimga tushirish va bu jarayonni tezlashtirish maqsadida universitetimizda “O‘zbek shevashunosligi markazi” tashkil etildi. O‘zbek shevashunosligiga bag‘ishlangan **3**ta Respublika konferensiyasi tashkil etildi va har qaysisi 250-500 sahifadan iborat to‘plamlar chop qilindi, Xalqaro konferensiyalarda shevalar bo‘yicha 30dan ortiq ma’ruzalar qilindi. “Filologiya va tillarni o‘qitish” bakalavriat yo‘nalishi uchun “O‘zbek dialektologiyasi (2021)” darsligi nashr qilindi, dialektologiya bo‘yicha ilmiy kadrlar (PhD) tayyorlash yo‘lga qo‘yildi va h.k. Ayniqsa, magistratura va bakalavriat talabalariga o‘zbek shevalari bo‘yicha mazvular berilib, himoyalari tashkil etilmoqda. Bu qisqa vaqtdagi amalga oshirilgan ishlardir. Lekin endilikda shevashunoslar oldida muhim vazifalar turganligini ham ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi. Ular quyidagilar:

1.O‘rganilmagan o‘zbek shevalarini tadqiq qilish.

2.O‘rganilgan shevalarni ham turli yondashuvlar asosida qayta o‘rganish, chunki o‘zbek shevalari uzluksiz rivojlanishda ekanligi barchaga ma’lum.

3.O‘zbek tilining areal tadqiqotlari amalga oshirilishi kerak.

4.Shevalarni o‘rganishda ekspeditsiya metodidan foydalanish imkoniyatlari qidirilishi lozim.

5. Shevashunoslik bo‘yicha xalqaro konferensiyalarni tashkil etish vaqti ham yetdi.

6. Xalqaro indeksatsiya qilingan jurnallarda maqolalar e’lon qilishga ham erishish kerak va h.k.

Men bugungi konferensiya ishiga muvaffaqiyat tilab qolaman.

-

1-SHU‘BA

O‘ZBEK ADABIY TILI VA SHEVA MUNOSABATLARI

O‘ZBEK SHEVALARINI O‘RGANISHNING TO‘NG‘ICH KALITI

Ashirboyev Samixon,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari doktori.
E-mail:samixon.ashirboyev@mail.ru
https://orcid.org/ 0000-0002 5202-6494

Annotatsiya. *Har bir fanning o‘z tarixi bo‘ladi, shu jumladan, o‘zbek dialektologiyasining ham o‘z tarixi bor. O‘zbek shevalari dastlab turkiy shevalarni o‘rganish negizida shakllangan bo‘lsa-da, hozirga kelib u rivojlangan fanga aylangan. Ayniqsa, o‘tgan asrning 50-yillarida bu fan rivojlanishida muhim bir davr bo‘ldi va 80-yillarga qadar o‘zbek shevalarini o‘rganishga jiddiy e’tibor berildi. Eng muhimi, bu davrga kelib uning ilk darsligi yaratildiki, bu darslik turkiy olamda ham mashhur bo‘ldi. Ma’lumki, uning mualliflari O‘zbekistonning yirik olimlari – V. V. Reshetov va Sh. Shoabdurahmonovlar edi. 1962-yilda yaratilgan bu darslik keyinchalik boshqa shu tarzdagi darsliklarning yaratilishiga asos bo‘ldi va hamon undan ilmiy xodimlar foydalanib kelishmoqda. Bu darslikning mashhurligi shunda ediki, u nafaqat darslik vazifasini, balki keyingi ilmiy tatqiqotlarning yaratilishi uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan.*

Kalit so‘zlar: *sheva, dialekt, lahja, dialektologiya, fonema, leksika, grammatika.*

Annotation. *Each science has its own history, including Uzbek dialectology. Although Uzbek dialects were originally based on the study of Turkic dialects, they have become a developed science. Especially in the 50s of the last century, this was an important period in the development of science, and until the 80s, the study of Uzbek dialects was given serious attention. Most importantly, by this time, his first textbook was created, which became popular in the Turkic world. It is known that its authors are the great scientists of Uzbekistan – V.V Reshetov and Sh. It was the Shoabdurahmanovs. Created in 1962, the textbook later became the basis for other similar textbooks, which are still used by researchers. The popularity of this textbook was due to the fact that it served not only as a textbook, but also as a methodological basis for the creation of further scientific research.*

Keywords*: dialect, dialect, dialectology, phoneme, vocabulary, grammar.*

O‘zbek shevalarining o‘rganilish jarayoni turli davrlarda turlicha kechdi. Uning dastlabki tadqiqoti sifatida “Devonu lug‘atit turk” asari ekanligi barchaga ayon, garchi uni faqat o‘zbek tili bilangina bog‘lab qo‘yish bir tomonlama bo‘lsa-da, o‘zbek shevalarini o‘rganishning dastlabki namunasi deb qabul qilish lozim, chunki unda bitilgan aksariyat turkiy shevalar xususiyatlari hozirgi shevalarimizda yashamoqda [Ashirboyev, 2021:5; Dadaboyev, 2021:159; Abdushukurov, 2021 174]. Shu davrdan to hozirga qadar yaratilgan barcha tadqiqotlar har bir bir muallifning o‘z tutgan yo‘li, iqtidori, bilim ko‘lamida u yoki bu darajada tushuntirib kelingan. XX asrning I yarmiga qadar o‘zbek shevalarini o‘rganish to‘g‘risida ma’lumotlar yuzaga kelgan bo‘lsa-da, u fan asosiga qo‘yilmagan edi, chunki o‘zbek tilshunosligining o‘zi u davrlarda fan bo‘lib shakllanmagan edi. A.Nurmonovning belgilashicha, o‘zbek ilmiy tilshunosligining shakllanishi 40-yillarga to‘g‘ri keladi [Нурмонов, 2002:165]. Aytish lozimki, o‘zbek shevalarini o‘rganish ishi 50-yillarda izga tushib ketgan bo‘lsa-da, ilmiy o‘zbek shevashunosligini 20-yillardan boshlash o‘rinli bo‘ladi. Bu davrda o‘zbek shevalari maxsus komissiyalarda o‘rganilgan, shevalarning fonetik, grammatik, leksik xususiyatlari to‘g‘risida dastlabki tadqiqotlar e’lon qilingan. Bu ishlar boshida hukumat a’zolari, o‘zbek tili va adabiyoti olimlari, xususan, G‘.O. Yunus, Y.D. Polivanov, K.D. Yudaxinlar turgan. O‘zbek shevalari bo‘yicha tadqiqotlar, yuqorida ta’kidlaganimizdek, 50-yillarda jonlandi va o‘zbek shevalari bir sidra o‘rganildi, 50-70-yillarda o‘zbek shevalari bo‘yicha ilmiy attestatsiyali olimlar guruhi yuzaga keldi. Bular V.V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, S. Ibrohimov, M. Mirzayev, F.Abdullayev, X. Doniyorov, Y.G‘ulomov, O.Madrahimov, N.Nazarov, A.Shermatov kabilardir. Bunday olimlar safi keyinchalik ortib bordi.

Eng muhimi, o‘zbek dialektologiyasi fan sifatida shakllandi va oliy ta’lim muassasalarida o‘quv fani sifatida o‘qitila boshlandi. Bu fanning darsligi esa 1962-yilda yaratildi. Bu davrda 2ta universitetda filologlar, 11ta pedagogika institutlarida o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassislari tayyorlanar edi. V.V. Reshetov va Sh.Sh. Shoabdurahmonovning “O‘zbek dialektologiyasi” darsligi shunday oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilgan. Bu davr an’anasiga ko‘ra, har ikki tipdagi oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik va qo‘llanmalar yaratilar edi.

Bu darslik turkiy tillar dialektologiyasida ham ilk marta yaratilganligi tufayli tez orada u do‘konlardan topilmay qolgan. Bu uning shuhrati baland bo‘lganligi ifodasi edi.

Bu noyob asar faqat darslik vazifasini bajarib qolmay, u aslida keyingi dialektologik tadqiqotlarning dasturulamalini ham o‘tar edi. Ayni o‘rinda bu asar dialektolgik tadqiqotlar uchun metodologiya vazifasini ham bajarishi ko‘zda tutilgan. Shuning uchun ham unda shevalarning o‘rganilishini rejalashtirish, uning dasturi mazmuni, sheva va dialektlar sistemasi, monografik tekshirishning turlari, uning tavsifiy va tarixiy aspektlari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Boshqacha aytganda, bu asar o‘zbek dialektologiyasining ham nazariy, ham amaliy vazifalarini belgilab bergan va unga erishish yo‘llari to‘g‘risida ham mukammal bilim beradi.

Bu darslik asos e’tibori bilan yangi tashabbus va betakror tuzilmaga ega bo‘lgan asar hisoblanadi. U quyidagi o‘ziga xos tuzilmadan iboratdir:

1. Dialektologiyaning asoiy tushunchalari belgilab berilgan. Bu darslikni garchand mualliflar dialektologiya kursi deb atasa ham (14), o‘sha davrdagi dialektologik qarashlardan ancha ilgari ketib qolgan edi. To‘g‘ri, dialektologik tushunchalarni tanlab olish, unga tavsif berishda hali qiyomiga yetmagan o‘rinlar yo‘q emas edi. Eng muhimi, bu ishda *sheva* va *dialekt* terminlari o‘zining terminologik ma’nosiga ega bo‘ldi va o‘zining dastlabki ta’riflarini oldi, ya’ni *sheva biror tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik bir qismi sifatida* ta’rflandi. Shevaning bu definitsiyasi keyingi darslik va qo‘llanmalarda turlicha rivojlantirildi, lekin shevaga berilgan ushbu ta’rif o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q, balki aynan takrorlandi. Jumladan, N.Rajabov ham o‘zbek tilining o‘ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlariga ega bo‘lgan kichik bir qismi ekanligini [Ражабов, 1996:30], B.To‘ychiboev va B.Hasanovlar bu ta’rifni kengaytiribroq berishga harakat qilgan, ya’ni unga “biror til doirasidagi xalq jonli tilining” iborasini qo‘shgan [Тўйчибоев, Ҳасанов, 2004:5] va h.k. N.Murodova va S.Ashirboyev ham “kichik hudud, kichik territoriya” tushunchalari ostida dastlabki ta’rifni kengaytirib berishgan [Муродова, 2019:9; Ashirboyev 2021:12], muhimi, V.V. Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovlarning bu tushunchaga bergan ta’riflari asos sifatida saqlangan.

Dialekt tushunchasi. V.V. Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovlar tomonidan “eng kichik bir qismi” bo‘lgan shevalarning yig‘indisi deb izohlangan (16). N.Rajabov bu terminning lug‘aviy ma’nosini keltirgan holda, shevani “umummilliy tilning yirikroq bo‘lagi” deb yuritadi va unga qo‘shimcha qilib: “Amaliy hayotda esa o‘zaro anglashish va anglashilmaslik hisobga olinadi” [Ражабов, 1996:32] iborasini keltiradiki, uning mohiyatini anglab bo‘lmadi. B.To‘ychiboyev va B.Hasanovlar esa dialektni umumlingvistik ma’noda qo‘llanishini ta’kidlaydilar va uning o‘rnida sheva va lahja terminlarini qo‘llashni tavsiya qiladilar (Тўйчибоев, Ҳасанов, 2004:5]. Demak, ular bu terminni qabul

qila olmadilar. N.Murodova va S.Ashirboyevlar “til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan shevalarni o‘zida birlashtiradi” tarzida izohlaydilar [Ashirboyev, 2016:7; Муродова, 2019:9; Ashirboyev, 2021: 12]. Bu fikrda kichik g‘alizlik bor, ya’ni “til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan sheva” tarzida qo‘llash mantiqan durust emas. Afsuski. V.V. Reshetov va Sh.Shoabdurahmonovlar *lahja* teminini boshqa sahifalarda ishlatadilar va o‘z o‘rnida qo‘llaydilar, lekin uni ierarxik zanjirda bu terminni izohlamaydilar. *Sheva, dialekt, lahja* terminlari shu darslikning ikkinchi nashrida yanada rivojlantirilgan. Unda sheva tushunchasi birinchi nashrdagi definitsiyasi o‘zgarishsiz qolgan. Lahja terminiga izoh berilib, unda shevalar yig‘indisi ma’nosida ta’riflangan, dialekt termini esa konkret ta’riflanmagan va uning sheva ma’nosida ham, lahja ma’nosida ham qo‘llanishi aytiladi [Решетов, Шоабдураҳмонов, 1978;6]. Dialekt terminini izohlashda B. To‘ychiboyev va B.Hasanovlar ushbu fikrni takrorlagan edilar [Тўйчибоев, Ҳасанов, 2004:5]. Albatta, bu tushunchaga bo‘lgan qarashlar keyingi darsliklarda aniq ifodasiga ega bo‘lgan [Ashirboyev, 2021:3].

2. *Dialektologiyaning vazifasi belgilab berilgan.* Bu asarda dialektologiyaga qo‘yilgan vazifalar hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, shevalarning o‘zaro munosabatini, shuningdek, ularning adabiy til va qardosh tillar bilan bo‘lgan munosabatlarini belgilash; o‘xshash xususiyatlariga ko‘ra shevalarning tarqalish chegarasini aniqlash; umumiy o‘xshash lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalarning ma’lum territoriyada tarqalish kartalarini tuzish va shevalarni klassifikatsiya qilish kabi vazifalar tadqiqotchilar tomonidan endigina o‘rganilayotgani barchaga ma’lum. Bu o‘rinda shevalarni kartalashtirish to‘g‘risida gap bormoqda. Garchand, bu masala ushbu darslikda aks ettirilmagan bo‘lsa ham, uning keyingi nashrida “Lingvistik geografiya” degan bo‘lim kiritilgan va unda lingvistik hodisalarning geografik tarqalishi masalasi har tomonlama yoritilgan [Решетов, Шоабдураҳмонов, 1978, 14].

3. *Shevalarni o‘rganish metodikasi ishlab chiqilgan*. Aslida bu mavzu alohida yoritilishi ham mumkin edi, ya’ni uni darslikka kiritmaslik ham mumkin. Lekin o‘zbek shvalarini keng o‘rganish boshlangan, eng muhimi, oliy maktab talabalarining o‘quv rejasiga asosan dialektologik ekspeditsiya amaliyoti joriy qilingan bir vaqtda bunday yo‘riqnomaga ehtiyoj mavjud edi. Bu o‘ziga xos dasturdan dialektologlarimiz unumli foydalanishdi va hozirgi dastur tuzuvchilar uchun esa u metodologiya vazifasini bajarib kelmoqda.

4. *O‘zbek shevalarini o‘rganish uchun yagona transkripsion tizim yaratildi.* Shevalarni yozib olishda transkripsiyadan foydalanish o‘tgan asrning 20-yillaridan boshlab qo‘llana boshlagan edi. Uning G‘ozi Olim tomonidan arab, rus, lotin yozuvida qo‘llagan varianti bor [G‘ozi Olim, 1927:12]. To 50-yillargacha bo‘lgan davrda tilshunoslar sheva bo‘yicha tadqiqotlarida lotin va kirill

yozuvidagi transkripsiyada ijod qilishgan, lekin ular o‘z variantlarini tavsiya qilishgan. Demak, transkripsiyada yagona tamoyilga amal qilinmagan edi. Shunday bir davrda V.V. Reshetov bu holatga yakun yasagan va kirill yozuvi asosidagi transkripsion tizimni yaratdi va shu transkripsiya tizimini ushbu darslikda joriy qildi va u hanuzgacha barcha dialektologlarimiz tomonidan foydalanib kelinmoqda va keyingi avlod darsliklariga asos qilib olinmoqda. To‘g‘ri, bu ishda rus tili grafik tizimiga amal qilinganidan unda rus tili xususiyatlari ustunlik qilardi, jumladan o‘zbek tilidagi **j** (j) transkripsiyada **dj** birikmasida berildi. Bunga hojat yo‘q edi, chunki o‘zbek tilining hech qaysi shevasida sirg‘aluvchi j undoshi yo‘qligi barchaga ma’lum. Albatta, tadqiqotchilar, keyingi davr darslik mualliflari undan ijodiy foydalanib kelishdi.

Ilk bor darslikda shevalar tasnifi tarixi berildi. Unda I.I. Zarubin, K.K. Yudaxin, Y.D. Polivanov, G‘ozi Olim, A.K. Borovkov tasniflari va o‘z tasnifini kiritgan. Ularning eng muhim tamoyillari aks ettirilgan va ular sheva faktlari asosida mustahkamlangan. Shu bilan birga, ushbu darslikka, garchi bevosita aloqador bo‘lmasa-da, turkiy tillar tasnifi ham kiritilgan. Darslikda bu bo‘limning o‘rin olishini ikki sabab bilan bog‘lash mumkin: 1) o‘zbek shevalarining tasnifini turkiy tillar tasnifidan ajratib olib tushunish mumkin emas edi, chunki o‘zbek shevalarining etnik jihatdan 3 manbaga borib taqalishini turkiy tillar tasnifisiz tushuntirish mumkin emas edi; 2) o‘sha davrdagi axborot tizimining rivojlanish darajasi filolog talabalar ommasiga turkiy tillar tarixi va tasnifi masalalarini o‘rganish uchun o‘ta qiyinchilik tug‘dirgan. Ular to‘g‘risidagi adabiyotlar faqat Toshkent, Samarqand va ba’zi kutubxonalardagina saqlangan. Turkiy tillar to‘g‘risidagi ma’lumotlarning berilishi o‘sha davrdagi dialektologiyadan saboq beruvchilar va talabalar uchun shevalar tasnifining asosi bo‘lgan ushbu ma’lumotlar bilan erkin tanishish imkonini bergan.

Darslikda o‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlarini tushuntirishga katta o‘rin berilgan. U 112 sahifani tashkil etadi. Bu bobdagi ma’lumotlar o‘zbek shevashunosligi 60-yillargacha bo‘lgan tadqiqotlar, shu jumladan mualliflarning ham tadqiqotlari natijasidir. Bu bo‘lim fonetikaning shevalardagi nazariy masalalari va jarayonlari to‘lig‘i bilan, ayniqsa, dialektologik faktlar mo‘lligi bilan ajralib turadi. Endi darslikda keltirilgan barcha ma’lumotlar o‘sha davr talabasi bilishi lozim bo‘lganmi, degan savol tug‘iladi. Unga ikki xil javob berish mumkin: 1) undagi nazariy ma’lumotlarni dialektologlar ham, talabalar ham albatta bilishi shart bo‘lgan; 2) keltirilgan dialektologik faktlarning barchasini talabalar o‘zlashtirib olishlari shart emas edi, balki ularning eng muhim o‘rinlarini pedagog tavsiyasiga ko‘ra o‘zlashtirishi, qolganlaridan ijodiy ishlarida foydalanish zarur bo‘lgan. To‘g‘ri, darslikda ayrim fonologik hodisalarni munozara qilish mumkin, jumladan, fonema masalasi. Avvalo, o‘zbek shevalarini

oʻrganishda shevadagi fonematik tarkibni oʻrganish yoki fonemaning variatsiya va variantlarini oʻrganish zarurmi, degan masala hal qilinishi kerak. Hozirgacha ham dialektologlarimizning ayrimlari *fonema* toʻgʻrisida fikr yuritadilar, ayrimlari *tovush* terminidan foydalanadilar. Shundan kelib chiqib, darslikda ham unlilarning choʻziq-qisqaligini alohida fonema sifatida qaraydilar [Абдуллаев,1965:18]. Bu oʻzbek olimlarining fonemaga nisbatan bir tomonlama qarashidan kelib chiqadi, ya'ni uning faqat ma'no ajratish funksiyasinigina e'tiborga olishadi. Aslida fonemaning klassik tushunchasiga koʻra, u tovush tipi boʻlib, kishi ongida saqlanadigan tovush obrazini anglatadi [Languist.ru], u negadir fonemaning bu asosiy xususiyati tadqiqotchilar nazaridan qochadi. Shundan kelib chiqadigan boʻlsak, unlilarning ham choʻziq-qisqaligi alohida-alohida fonema boʻla olmaydi, chunki ular bir tovushning obrazini beradi. Demak, dialektologik tadqiqotlar bu masalada jiddiy muammoga duch kelmoqda.

Shunisi e'tiborliki, unlilardagi birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi (ultra, emfatik) choʻziqliklar ushbu darslik orqali dialektologlarimiz va talabalarimiz orasida ommalashdi.

Fonetika bobida ba'zan ilmiy munozara qiladigan, hali yechimga kelinmagan masalalar ham kiritilganki, ular talabalarni chalgʻitishi ham mumkin, jumladan, darslikda "Qorabuloq va ba'zi Toshkent shevalarida **ayt** soʻzi fonetik ta'sirga uchragan. Bu soʻz qisqarib*, ayt > əyt > yet* shakliga kelib qolgan" deyiladi va bu hodisani **y** undoshi ta'siri deb qaraydi. Aslida ***y*** undoshining bu oʻrinda, ya'ni fonetik jarayondagi ishtirokini asoslab boʻlmaydi.

ɔ, a, ə unlilarining shevalardagi pozitsiyasi masalasi ham yetarli ochiqlanmagan. Ayrim ilmiy manbalarda xato keltirilgan faktlar ham olingan oʻrinlar bor. Masalan, *bermaq, bɔrmaq, chaqmaq, ɔlmaq, arttirmaq* misollari Margʻilon shevasi fakti sifatida keltirilgan. *–maq* affiksli harakat nomi Margʻilon emas, balki oʻgʻuz shevalariga xosligi ma'lum [Ashirboyev, 2021:56]. *ɔ* unlisining tarqalishi boʻyicha ma'lumotlar keltirilmagan.

Darslikning birinchi nashrida **є** unlisi toʻgʻrisida oʻta qisqa ma'lumot bergan boʻlsa, keyingi nashrida bu tovushning kelib chiqishi va qaysi shevalarda bu unlining qoʻllanishda davom etayotgani toʻgʻrisida nisbatan keng ma'lumot berilgan. Albatta, bu unlining taqdiri oʻzbek shevalarida bir xil emas. Hozirgi Iqon va Xorazm shevalarida bu unli **ä** unlisiga singib ketayotganligini kuzatish mumkin. Bu tovushning oʻzbek shevalaridagi holati maxsus tekshirishga muhtoj ekanligini eslatib oʻtish joiz deb hisoblaymiz.

Darslikda shevalardagi undosh tovushlarning xususiyatlariga keng toʻxtalingan va koʻplab misollar keltirilgan. Ayniqsa, soʻzlardagi fonetik oʻzgarishlarga nihoyatda koʻp misollar keltirilgan.

Darslikda tilning boshqa sathlariga qaraganda fonetikaga katta e’tibor berilgan, boshqa sathlar ancha qisqa yozilgan. Ayniqsa, morfologiyaning fe’lga bag‘ishlangan qismi kengroq yoritishga muhtoj edi. Ayrim shakllarga misollar keltirish bilan chegaralanilgan. Hatto uning keyingi nashrida ham fe’l bobining o‘zi ajratilmagan va o‘ta qisqa faktlarni o‘z ichiga olgan. Ayniqsa, leksika bobiga nihoyatda kam o‘rin ajratiligan. To‘g‘ri, keyingi nashrda bu bob birmuncha kengaytirilgan, lekin bu darslik uchun kifoya qilmas edi.

Shuni ta’kidlash joizki, garchand, bu darslik o‘tgan asrning o‘rtalarida yaratilgan bo‘lsa-da, unda areal lingvistik pozitsiya ham aks etgan edi, ya’ni har bir sheva hodisasining tarqalishi bilan bog‘liq fikrlar izchil bayon qilib borilgan. Uning keyingi nashrida esa lingvistik geografiyaga oid maxsus bo‘lim kiritilgan va unda xalqaro doirada bu sohada qilingan e’tiborli ishlar to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Eng muhimi, o‘zbek tili dialektologik atlasini yaratish harakatlari va vazifalari to‘g‘risida mukammal fikrlar aytilgan hamda dialektologik atlasda belgilanishi zarur bo‘lgan izoglossalar tizimini keltirishgan. Ular shevalarning fonetikasi, morfologiyasi, leksikasini qamrab olgan.

Darslikning eng qimmatli o‘rinlaridan yana biri unda amaliy mashg‘ulotlar uchun shevalardan yozib olingan matnlarning berilishidir. Darslikdagi matnlarning asosini xalq og‘zaki ijodi materiallari tashkil etadi. Ular shevalarning eng muhim xususiyatlarini aks ettira oladi, lekin unda har qanday holatda ham adabiy til an’analari ishtirok etadiki, bu o‘quv jarayonida talabalarimizning ba’zan tanqidiy yondashishiga olib kelmoqda. Bu bildirayotgan e’tirozimiz faqat ushbu darslikka emas, balki keyingi davrda e’lon qilingan darsliklarga ham taalluqlidir. Bu, albatta, dialektologlarimiz tadqiqotlarida ko‘proq sheva vakillaridan folklor materiallarini yozib olganligi bilan izohlanadi, shuningdek, talabalar ham bunday matnlarni qiziqib o‘qishlari ham, ehtimol, hisobga olingan. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar uchun 40ta mashq berilganki, talabalar uning shartlarini darsliklardagi materiallar asosida bajarish imkoniyatlariga ega va ulardan hozir ham foydalanish mumkin..

Darslik rasmiylashtirilishida ham hozirgi davrdagi darsliklarga qo‘yiladigan talablarga javob bera oladi: har bir bo‘lim yakunida adabiyotlar ro‘yxati berilgan, unga shevalar lug‘ati ilova qilingan.

Avval aytilganidek, darslik materiallari talabalar (u paytlarda dialektologiya fani 1-kursda o‘tilgan) uchun ancha qiyinchilik tug‘dirgan, uning oldini olish esa mashg‘ulot o‘tuvchi dialektologning mahoratiga bog‘liq bo‘lgan. Bu darslikni didaktik talablarni hisobga olmay yaratilgan deb baholashga asos bo‘lmaydi, balki bu darslik ayni zamonda dialektolog o‘qituvchining nazariy tayyorgarligi uchun manba vazifasini bajargan va davr dialektologik

tadqiqotlarining namunasi vazifasini ham bajargan. Darslik hamon o‘zining qimmatini saqlab qolgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф. Қарноқ шевасининг фонетикасидан // Ўзбек тили ва адабиёти, 1965, № 6.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. - Toshkent: Nodirabegim, 2021.
3. Dadaboyev H. Mahmud Koshg‘ariyning Devonu lug‘atit turk”asarida qo‘llangan qo‘l-oyoq kiyimlari // O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv. -Toshkent, 2021.
4. Abdushukurov D. “Devonu lug‘atit turk” va o‘zbek tili shevalari // O‘zbek shevalari tadqiqotlari: amaliyot, metodologiya va yangicha yondashuv - Toshkent, 2021.
5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
6. Решетов В. В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1962.
7. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
8. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
9. Муродова Н. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Barkamol fayz media, 2019.
10. G‘ozi Olim. O‘zbek tilining tovushlari // Maorif va o‘qitg‘uchi, 1927, 12-son.

JADID ZIYOLILARINING SHEVALARGA MUNOSABATI

Azimov Inomjon,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
inomjon66@mail.ru

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilshunoligi faniga tamal toshini qo‘ygan, uning shakllanishiga munosib hissa qo‘shgan jadid ziyolilarining shevalarga munosabati xususida so‘z yuritilgan. Adabiy til, imlo masalalrini hal qilishda, avvalo shevalarni o‘rganish, tayanch dialekt masalasini hal qilish lozimligini anglagan holda, shevalar bo‘yich ilmiy tadqiqotlar olib borish, lug‘atlar tuzish masalalarini ko‘tarib chiqqan.*

Kalit so‘zlar: *sheva, lahja, dialekt, soyit (unli), somit (undosh), singarmonizm, cho‘zg‘i (unli).*

Annotation. *The article discusses the attitude of Jadid intellectuals, who started the science of Uzbek linguistics and made a worthy contribution to its formation. Literary language, realizing the need to study dialects and the basic dialect in solving spelling problems, raised the issue of conducting research on dialects and compiling dictionaries.*

Keywords: *sheva, dialect, soyit (vowel), somit (consonant), synharmonism, long (vowel).*

O‘tgan asrning boshlarida yashab, o‘zlaridan munosib iz qoldirgan, alifbo, til-imlo masalalarining hal qilinishida faol ishtirok etgan jadid ziyolilarining ilmiy merosi haligacha to‘liq o‘rganilmagan.

Istiqloldan so‘ng jadidlar faoliyatini o‘rganishga ham e’tibor qaratildi. Jumladan, S.Ashirboyev [1], M.Qurbonova [2], M.Yo‘ldoshev [3], Y.Sayidov [4], Sh.Bobomurodova [5], T.Tog‘aev [6], K.Kadirov [7], Y.Sayidov [8], N.Yangibayeva [9], S.Normamatov [10], I.Ermatov [11], F.Bobojonov [12] kabi tilshunoslarning ilmiy tadqiqotlarida Fitrat, Cho‘lpon, Ashurali Zohiriy, Elbek kabi sanoqli jadidlarning ijodiy merosi, ilmiy faoliyati, bu davr tilshunosligi, lug‘atshunosligi, gazeta va jurnallardagi maqolalar, yaratilgan darsliklar tahlili kabi masalalar tadqiq etildi. A.Nurmonov [13], N.Mahmudov [14], H.Jamolxonov[15]lar mazkur davr tilshunosligi haqida ma’lumot bergan. Ayniqsa, H.Jamolxonov va A.Umarovlar arxiv materiallari asosida jadid ma’rifatparvarlari tomonidan matbuotda e’lon qilingan maqolalarini jamlab, majmua sifatida e’lon qilishi ham bu davr tilshunosligini o‘rganish bo‘yicha muhim manba bo‘ldi [16].

Jadid ziyolilari oldida turgan eng asosiy vazifa o‘zbek tilining qonun-qoidalarini ishlab chiqish, o‘qitish tizimini takomillashtirish, ilmiy, amaliy lug‘atlar tuzish, ilmiy tadqiqotlar olib borish edi. Chunki “ilmiy axtarishlar bo‘lmag‘uncha bunlarning birtasi ham bo‘lajaq emasdir” [16:141]. Buning uchun xalqimizning og‘zaki va yozma manbalarini chuqur tahlil qilish, ularni o‘zaro solishtirib, ilmiy xulosalar qilish va shu orqali o‘zbek adabiy tili qoidalarini yaratish zarur edi: “Tilimizdagi tovushlarning sonlarini, cho‘zg‘i o‘runlarini ilmiy suvratda yaxshig‘ina aniqlab qo‘yayiq. Tilimizning iste’dodli, boy bir til bo‘lg‘anini qichqirib so‘yladiq; “bu til daqqidir(qo‘poldir), buning o‘rnig‘a turkchaning adabiy bir shevasini olayiq” degan til bilmaslar bilan kurashdik – unlarni yengdik. Biroq hanuz tilimizning belgili qoidalarini maydong‘a qo‘ya olmadiq. Yozuvlarimizning shakliga “birlik” yangi yozg‘uchilarimizga qulayliq

bermak uchun tilimizning qat’iy qoidalarini bildirish kerak. Hamadan burun u qoidalarni o‘zimizning-da bilishimiz lozimdir.

Tilimizning sof shaklini daladag‘i el-aymoqlarimizda ko‘ra olamiz. Dalada yashag‘an el-aymoqlarimiz orasida unlarning jon ozig‘i bo‘lib turg‘an dostonlar, ashulalar, matallar, laparlar, qo‘shiqlar bor. Shunlarning hammasini buyuk bir diqqat bilan yozib olish kerak, el-ulus orasida yozuv doirasig‘a kirgan ...kabi aristo‘krat shoirlarimizning asarlari bor. “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq”, “Devoni lug‘atit turk”, “Muqaddimatul adab” kabi eski vasiqalar bor. Shunlarning hamasini qilni qirq yorib tekshiraylik; bir-biriga solishtirib, kelishtirib, tekli, tubli natijalar olayiq. Mana shu yo‘lda, shu shaklda yaraqlanib maydong‘a chiqg‘animizda ko‘rilgan ishlar, olingan natijalar – ilmiy bo‘lib chiqadir. Kimsaning-da lom-mim deyishiga yo‘l qolmaydir” [17: 141-142].

Ma’lumki, o‘zbek tili ko‘p shevalarga asoslangan til, shuning uchun adabiy tilga tayanch dialekt belgilash masalasi ham ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘ladi. Professor Polivanov 6 unlili Toshkent shevasini asos qilib olish taklifini Toshkentning asosiy madaniy markaz ekanligi bilan asoslashga harakat qiladi, lekin bu taklifga Abdulla Alaviy, Otajon Hoshim, Elbek, Ashurali Zohiriy kabi ko‘plab tilshunoslar qarshi chiqadi. Shahar shevalari adabiy tilga asos bo‘la olmasligi, chunki ular fors tili ta’sirida eronlashgani, o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini to‘la ochib berolmasligini aytishadi. Bu haqda Abdulla Alaviy shunday yozadi: “Lokin bu ham turli shevalarda turlichadir, shuning uchun aslan to‘qquz bo‘lg‘an soyitalar ba’zi shevalarda oltig‘a, ba’zi shevada yetti, sakkizga kelib qolmishdir va ba’zilarida to‘qquz soyita saqlanib qolsa-da, ularning qo‘shmachalarg‘a ta’siri ozaymishdir. Shung‘a ko‘ra biz shevalarni eronlashuv darajasiga qarab mana bunday bo‘la olamiz:

Ortuq darajada eronlashqon: Samarqand shevasi – 6 soyita (unli), fors “alif ”i, maf ’ul fiyaning yeriga maf ’ul aliya ishlatilishi.

Bundan ozroq eronlashqon: Toshkand shevasi – olti soyita, turk “alif (a)” sig‘a yaqin. Alifi maf ’ul fiyaning borlig‘i.

Undan ozroq eronlashqon: Farg‘ona shahri shevasi – yetti-sakkiz soyita.

Undan ham ozroq : anjan shevasi – to‘qquz soyita, bir oz eronlashqon” [18].

Otajon Hoshim ham bu fikrga qarshi chiqib, Samarqand, Toshkent shahar shevalari o‘zbek tilining milliy xususiyatlarini aks ettira olmasligi, adabiy til uchun ko‘pchilik so‘zlashadigan singarmonizmli shevalarni asos qilish lozimligini aytadi: “Shuni ham aytish kerakki, faqat Tashkent, Samarqanddagina singarmo‘nizmg‘a bir az rioya qilmaydilar. Shunday bo‘lsa ham, bu shaharlar shevasini o‘zbek tili asosig‘a olishi va bu asosda o‘zbek sarfiy (professo‘r Palivanuf kabi) tuzish yanglishdir. O‘rtaq profeso‘r Palivanuf “O‘zbek tili” deb yozg‘an kitabini “Tashkent sarfi” desa, bir az to‘g‘ri bo‘lar edi. O‘zbek tili va latin

alifbasini singarmo‘nizmni saqlag‘an o‘zbek shevalarig‘a asas qilish kerak. Chunki bunday shevalar bizda ko‘bchilikni tashkil qiladi. Bunday shevalarda ba’zi shaharlar va butun qishlaq o‘zbeklari, qishlaq ammasi so‘zlaydi. Mana bu ko‘bchilikni ko‘zda tutish kerak. Chunki tilni biz bir qancha ziyalilar uchungina emas, balki keng amma uchun tuzamiz” [19: 54-60]. G‘ozi Olim hozirgi tilimiz Chig‘atoy gurungi tilidan farqsiz ekanini, ko‘p sheva va lahjalarga javob bera olmasligini so‘zlab, o‘zbearda asosab 3 lahja borligini aytadi: 1-shahar lahjasi,

2-o‘zbek-qipchoq to‘dasi (bular, masalan, “tag‘”ni “tav”, “aqar”ni “ag‘ar”, “alayliq”ni “alayiq” deb so‘zlaydirlar. Bularda singarmanizm ruchli: hatta qardamchi so‘zlar ham bashag‘i so‘zg‘a tabe bo‘ladi), 3-xorazm shevasi. U adabiy til tuzishda mahalliychilik qilmay, tirik xalqni ko‘zda tutib ish ko‘rish kerakligini aytadi [16: 425].

Bekjon Rahmonov Xorazm shevalarining hozirgi adabiy tildan farqlari xususida so‘zlab, shu vaqtgacha adabiy til jihaticha Xorazmga ahamiyat berilmay, tashlab kelinganini, holbuki Xorazmning adabiy til tuzish to‘g‘risida ancha hissalar bera olishini aytadi [16: 426]. Shokirjon Rahimiy ham uning fikrlarini quvvatlab, adabiy til uchun barcha shevalardan shakllar olish tilni boyishiga xizmat qiladi deydi: “O‘zbekiston kabi ko‘p shevali mamlakatda adabiy til tuzish qiyin, buning adabiy tilimiz barcha shevalarni o‘z ichiga olishi, shu shevada gapiruvchilar uchun tushunarli bo‘lishi kerak. bu kungi adabiy tilimizning nuqsonlari ko‘b. Ko‘b ishlashni talab qiladi. Masalan, kelar zamonni qat’iy ifoda etg‘uchi sig‘amiz yo‘q. Holbuki, adabiy tilimizning bir rukni bo‘lg‘on xorazm tilida (shevasida) **“joq – jak”** qo‘shimchalari borki, buni olish bilan bu kamchilikni yo‘qotish mumkin” [16: 405].

Ashurali Zohiriy adabiy til uchun tayanch dilaekt haqida gapirar ekan, Farg‘ona shevasini taklif qiladi, hozir qo‘llanilayotgann yozma til aynan Farg‘ona shevasi ekanini aytadi: “Adabiyotimizning asosi jonli til (xalq adabiyoti) bo‘lishi lozim, dedik. Shundoq bo‘lg‘ach, men Farg‘ona (vodiysi) shevasini taqdim etsam, xato qilmag‘an bo‘lurmen. Bunda «qo‘ng‘uz oppog‘im», «kirpi yumshag‘im der» degandak bo‘ldi, deb mendan kulmasdan, balki so‘zimni quvvatlaydurg‘anlar ko‘brak bo‘lur. Chunki bu kungi o‘zbak adabiyotining (basma so‘zining) tili (undag‘i ba’zi bir mahalliychilikni e’tibarg‘a almag‘animizda) Farg‘ana shevasining o‘zidur. Shevaning o‘zi basma so‘zni va uning tevaragidagi amillarni tabiiy ravishda o‘ziga tartqan. Endi biz uning ichiga bashvaqsizliq yaki mahalliychilik ta’siri astida kirib qalg‘an va qaladurg‘an so‘zlar to‘g‘risida bir fikrga kelib alsaq, ham yana tag‘in saddalashtirish, xalqqa yaqinlatish, ishchi, dehqan аммаси ичидан алинған so‘zlar bilan bayitish charasini ko‘rsak bo‘ldi” [20].

S.Ibrohim o‘g‘li barcha shevalarni tadqiq qilish, o‘rganish, har bir sheva xususiyatini o‘rganish, shu asosda til-imlo masalalarini hal qilish lozimligini aytadi. U o‘zbek urug‘laridan biri bo‘lgan Saroy urug‘i haqida gapirib, O‘zbekistonning (hatto Qirg‘izistonning) har bir joyida yashashi, tili sodda, o‘zbek tili xususiyatlarini bir qadar buzmay kelayotgan sheva sifatida ta’tiflaydi. Alifbo-imlo masalalari bo‘yicha muntazam tashkil qilinib borilayotgan anjumanlarga quyidagi takliflarni beradi:

1. “Bizda ko‘bchilikni qishlaq xalqlari tashkil qilg‘anlig‘ini e’tibarg‘a alib, til, imla konferensiyasida hal etiladurg‘an masalalar qishlaq shevalarini tekshirish natijasida qo‘lga kiritilgan matiriyallar asasida yechilsin.

2. O‘z so‘zlarimizda singarmo‘nizm singarmo‘nizmning tugal saqlang‘anini va chet so‘zlarga xalqda riaya qiling‘anini e’tibarga alib, singarmo‘nizm qanuni asas qilib alinsin.

3. Hazirg‘i 9 cho‘zg‘i bizni qandira almaydi. Ular ko‘paytirilsin.

4. Somit tavushlarimizdan ŋ (n+g) shaklini qalin ŋ(n+ɑ) tavushi uchun ishlatib bo‘lmag‘anini nazarg‘a alib, shu ŋ(n+ɑ) uchun alahida bir shakl alinsin.

5. Qishlaq shevalarida hazirda ham лаб аҳангининг сақланғани назарга алиниб, лаб аҳанги қануни сақлансин” [16: 432].

Abdulla Avloniy ham hozirda ishlatilib kelinayotgan til shaharning aralash-quralash tili ekanligi, tilimizni qishloq ahli tushunadigan holatga keltirish taklifini ilgari suradi: “Hazirg‘i adabiy tilimiz – shaharning “ma’junlashgan” (aralash) tilidir. Bu halda ketish bizning qishlaq bilan alaqamizni uzib qo‘yadi. Adabiy tilni qishlaqqa yaqinlatish albatta ag‘ir masala, lekin ag‘ir deb qo‘rqib qarab qalmasdan, istiqbalni o‘ylabishga kirishmak kerak. Juda maynalashgan shahar tilini “qo‘palraq” qilib xalqqa yaqin qilayliq” [16: 428].

“Hazirg‘i adabiy tilimizni qishlaq tushunmaydi, - deydi Anqaboy, - qishlaqning ko‘bchilgini esa “yo‘q”ni “jo‘q” deb aytaturg‘an o‘zbeklar tashkil etadi. Ularda yazma adabiyat yo‘q deyarik bo‘lsa-da, xalq adabiyati juda bay. Ulardan faydalanish, matiriyallar yig‘ish kerak. “Yo‘qchiliq”ni qishlaqqa nisbatan o‘zgartirish lazim” [16: 425].

Elbek ham hozirgi adabiy til shahardagi kabinet tilida to‘xtalib qiolganini, adabiy tilni “yo‘qchilar” tilida tuzish zarurligini, lekin “jo‘qchilar”ning umumlashgan so‘zlarini adabiy tilga olish zarurligini aytadi [16: 429]. Shokirjon Rahimiy Elbekning fikrlarini ma’qullaydi: “bizda adabiy til masalasida singarmo‘niyali, singarmo‘niyasiz tillar (shevalar), “jo‘qchilar”, “yo‘qchilar” borlig‘i ma’lum. Dokladchilarning fikrlari 9 cho‘zg‘ini o‘z ichiga olg‘on singarmo‘niyali va “yo‘qchilar” tomonidalar, chunki hozir ishlanib turg‘on adabiy tilimiz (yo‘qchilar)ni olib, o‘rnig‘a “jo‘qchilar” adabiy tilini tuzsak, bir

qancha yillik muvaffaqiyatlar otib tashlangan bo‘ladi. Agar aslini surishtirganda, jo‘qchilar bilan yo‘qchilar o‘rtasidagi farq ma’no emas, savtiy ayirmadurki, bu unchalik muhim emas” [16: 406].

Berdiyev degan jadid ham Maorif komissarligi tomonidan boshlangan til tadqiqotlarini davom ettirish, ishni tezroq bitirmoq uchun maxsus kishilarni boshqa ishlardan ozod qilib, asosiy ishga yo‘naltirish, jonli shevalar lug‘atlarini tuzish, shevalarning amaliy sarf-nahv loyihalarini tuzib, ularni turkshunos olimlarga ko‘rsatish, ma’qul topilsa, amaliyotga joriy etish kabi taklilarni aytadi [16: 456].

O‘zbek tilshunosligi endi shakllanayotgan bir davrda fikrlar xilma-xilligi, ilmiy xulosaalar chiqarishda yanglish qarorlar, ba’zan fikrlardan chekinish holatlarining bo‘lishi, tabiiy, albatta. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, shevalarning o‘rganilish zarurat ekanligini ta’kidlagan holda, shevalar lug‘atlarini tuzish, ilmiy tadqiqotlar olib borish takliflari, bu yo‘ldagi dastlabki harakatlar jadidlarning e’tirofga loyiq ishlari hisoblanadi. Bu davr tilshunosligini to‘liq tadqiq qilish, shu orqali o‘zbek tilshunosligi tarixining kemtik joylarini to‘ldirish tilshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аширбоев С. Ўзбек тили грамматик қурилишининг ўрганилиш тарихидан (1875-1917 йиллардаги рус туркологлари асарлари асосида) Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 1975.
2. Қурбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 1993. – 120 б.
3. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати (“Кеча ва кундуз” романи мисолида). Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2000. –120 б.
4. Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси. Филол. фан. номз. дисс... – Бухоро, 2001. – 204 б.
5. Бобомуродова Ш. Ўзбек тилшунослиги ривожида Элбекнинг роли. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2002. – 132 б.
6. Тоғаев Т. Ашурали Зоҳирий ва унинг тилшунослик мероси. Филол. фан. номз. дисс... авторефер. – Тошкент, 2005. – 120 б.
7. Кадиров К. Ўзбек тили морфологик тизимининг ўрганилиши тарихидан (20-йиллар ўзбек тилшунослиги материаллари асосида). Филология фанлари номз.дисс... – Тошкент, 2007. –161 б.
8. Сайидов Ё. Жадид бадиий асарлари лексикаси. Филология фанлари доктори (DSc) дисс... – Бухоро, 2016. – 302 б.
9. Янгибаева Н. XX асрнинг 20-йилларида ўзбек тилшунослиги жараёни. Филология фанлари номз. дисс...автореф. – Қарши, 2019. – 47 б.

10. Нормаматов С. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожида жадид маърифатпарварларининг ўрни. Филология фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 69 б.

11. Эрматов И. Ўзбек тилшунослик терминларининг шаклланиши ва тараққиёти. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) автореф. – Тошкент, 2019. – 53 б.

12. Бобожонов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари. Филология фанлари номз. дисс... – Самарқанд, 2002. – 48 б.

13. Нурмонов А. Танланган асарлар. 2-жилд. – Тошкент: Академнашр, 2012. – 448 б.

14. Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослиги тараққиёти. //Ўзбек тили ва адабиёти, 2001, № 4. –7-10-б.

15. Жамолхонов Ҳ., Сапаев Қ. Имло муаммолари. – Тошкент, 2008. – 80 б.

16. Жамолхонов Ҳ., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи. Мажмуа. 1- китоб. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2017. – 460 б.

17. Фитрат. Танланган асарлар. ИВ жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 336-б.

18. Ўзбек янги алифбосини тузишда асослар (араб ёзувида), тузувчи – А.Алавий. – Ўзбекистон давлат нашриёти, Тошкент – Самарқанд, 1927.

19. Отажон Ҳошим. Тил, атама, имло баҳслари // Маориф ва ўқитғучи. – Тошкент, 1927. – № 7-8. – Б.54-6.

20. Ашурали Зоҳирий. Тил, атама ва имло баҳслари // Қизил Ўзбекистон. – Тошкент, 1929, 30, 31 март.

SAMARQAND O‘GUZLARI NUTQIDAGI SO‘Z HOSIL BO‘LISHINING AYRIM XUSUSIYATLARIGA DOIR

Abdiyev M.- *Sh. Rashidov nomidagi SamDU professori,*
Rahmonov S. - *Sh. Rashidov nomidagi SamDU o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Samarqand shahri o‘g‘uzlari shevalari yuzasidan kuzatishlar bayon qilingan. Jumladan, ularnig og‘zaki nutqiga xos so‘z va terminlarning lug‘aviy ma’nolari xususida fikr yuritilgan.*

Kalit solar: *sheva, lahja, o‘g‘uz, eroni(eronlik), og‘zaki nutq, milliy til.*

Annotation. *This article describes the observations on the dialects of Oguz of the city of Samarkand.In particular, their oral speech is thought about the lexical meanings of specific words and terms.*

Keywords: *dialect, dialect, Oghuz, Iranian(Iranian), oral speech, national language.*

Ma’lumki, shevalar adabiy tilimizni boyituvchi, uning oziqlantirib boruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, ularga xos materiallarni zudlik bilan o‘rganib, lug‘atlarga kiritishimiz –bugungi kunda o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xalq shevalarining bir qismini o‘zida mujassam etgan xalq og‘zaki ijodi ma’naviy manba sifatida xalq hayotida muhim ahamiyatga molik ma’naviy boylik hisoblanadi. Shu bois tadqiq etilayotgan xalq shevalari ham xalq og‘zaki ijodining mahsuli sifatida uning tarkiibiy qismiga daxldorligi bois dialektologiya fanida o‘rganilishi milliy tilning rivojida va uning bardavomligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Til doimo nafaqat olinma so‘zlar hisobiga, balki ichki imkoniyat asosini tashkil qiluvchi so‘z yasalish usullari bilan ham boyib boradi. So‘z hosil qilishning eng faol usuli so‘zlarni affiksatsiya usulida hosil qilish hisoblanadi. Xalq shevalarida ham bunday so‘z yasalishining bu usuli ancha faol hisoblanadi. Adabiy tilda yasalgan so‘zlar ma‘lum qolip asosida o‘z ifodasini topgan bo‘lsa, shevalardagi so‘z yasalishi biroz erkinroq, ya’ni xalq so‘zlashuv tiliga yaqinroq shaklida yuzaga keladi.

Biz ushbu maqolamizda Samarqand shahrida istiqomat qiluvchi o‘guz shevasida so‘zlashuvchilar nutqiga xos jarayonlarni imkon darajasida yoritishga harakat qilamiz. Samarqand shahrida istiqomat qiluvchi o‘g‘uzlar mahalliy aholi nutqida eronilar(ularning avlodlari asli eronlik - ozarlar hisoblanadi), urganjilar (asli urganchliklar), turkmanlar (bularning bir qismi asli Gurlan tumanililik bo‘lib, ma‘lum bir sabab bilan Turkmanistonning Xidirali degan joyiga ko‘chib o‘tib, keyin Samarqandga kelganlar, ikkinchi qismi esa Ashxobod atrofidan kelgan turkmanlar) singari nomlar bilan ataladi

Mazkur shevalar vakillarining til xususiyatlari yuzasidan olib borgan kuzatishlarimiz davomida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, ularda so‘z yasalishi doirasi juda keng bo‘lib, turmushning turli jabhalari shu bilan birga taom nomlari, to‘y marosimlar, qarindoshchilik singarilar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ularning hosil bo‘lishida ijtimoiy hamda kundalik ehtiyojni ifodalovchi asl turkiy so‘zlar bilan bir qatorda noqardosh tillarga xos o‘zlashma so‘zlarning hissasi ham ma‘lum darajada qo‘shilganligini ta‘kidlash o‘rinlidir. Biz quyida ularning ayrimlari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Eronilar shevasidagi ogʻa: tugʻishgan, yaʻni bir onadan tarqalgan ogʻa – inilar sifatida, ikkinchisi qondosh va hurmat maʻnosida aka maʻnosida qoʻllanadi. Bu xususiyat barcha oʻgʻuzlar uchun umumiy boʻlib, turk, turkman va ozar tillarida ham shunday maʻnoda qoʻllanadi.

Samarqand eronilari nutqida yana shunday soʻzlar borki, ularning ma'nosi bir xil boʻlsa-da, yasalishida omonimik qoʻshimchalar ishtirok etadi, yaʻni juftlashish asosida yasaladi: isti-bisti – turgan-bitgani, Samarqand turkmanlari nutqida esa bir necha variantda: turan-biteni, duran-durushi va boshqa shaklda qoʻllaniladi. Yoki taom nomlarining yasalishi: moshshovla – moshdan yasalgan quyuq yoki suyuq ovqat. Eronilar shevasida moshichiri, boshqa yuqoridagi ikki oʻgʻuz shevasida ham shunday holda va moshova yoki qisqa kichiri tarzida qoʻllaniladi. Shuningdek, bir oʻsimlikni ifodalovchi shunday nomlar ham borki, mazkur shevalarda ularning oʻrni almashtirilib qoʻllaniladi. Masalan, eronilar shevasida yasama soʻz boʻlgan oʻsimlik nomi xalq orasida ikki xil mʻno ifodalaydi: nozboʻy, ya'ni noz, nozik yoqimli, boʻy - hid soʻzlaridan yasalgan soʻz uning turdoshi rayhon nomi bilan ishlatishadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Samarqand eronilari nutqida shunday yasama taom nomlari borki, u boshqa oʻgʻuz shevalarida uchramaydi: boʻroni(boʻron+i=boʻroni) – moyda qovurib pishirilgan koʻkatlardan iborat ovqat turi, lublo shurak – tuz solib qaynatilgan loviya va makkajoʻxori, hulba shula – hilba solib pishirilgan shavla, jigʻ-jigʻ halbo – qovurib pishirilgan, moyi chiqib turgan shilimsimon halvo, chorma fatir – mayda qilib toʻgʻralgan kadi (qovoq) qoʻshib pishirilgan fatir non, boyinjon murobbo – shakar va murch solib, yongʻoq va baqalajondan tayyorlangan murabbo, pamdor murobbo – maxsus poʻsti qalin pomidor solib pishirilgan murabbo va boshqa.

Ayrim jonivorlar nomiga oid soʻzlarning yasalishida ham turli xillik mavjud. Masalan: kaltakesak- yasama soʻz boʻlib, koʻpgina oʻgʻuzlar shevasida oʻzlarining tovush oʻzgartirish varianti bilan geltekesek, gesreti tarzda qoʻllansa, eronilarda piskalpasta tarzida qoʻllaniladi hamda hazil aralash haqorat maʻnosida ham qoʻllanadi. Adabiy tildagi asalari mazkur shevada asalzombir, turkman shevasi esa aselari yoki ikkinchi variant boʻlgan ori tarzida qoʻllanishi uchraydi.

Ayrim kiyimlar, marosim liboslari va taqinchoqlarning nomlanishida ham farqlanadi. Eronilar shevasida: nuqra poʻpak – kelinchaklarning oʻrilgan sochiga uzun ip bilan taqiladigan, yurganda shiqillab ovoz chiqaradigan kumush taqinchoq, gupponcha – paxtalik nimcha – ma'nosiga koʻra ichiga paxta solingan, qalinligi va issiqligiga nisbatan olingan. Turkman va urganji oʻgʻuz shevalarida nimche tarzida qoʻllaniladi. Kaltacha – ayollarning motam marosimida kiyadigan chekkalari zeb berib bezatilgan uzun ustki kiyimi, bu oʻgʻuzlarda keltecha tarzida ishlatilib yuqoridagi nimche bilan bir xil narsa sifatida koʻriladi. Eronilarda bazak

koʻrpacha – bezakli, quroq koʻrpacha boshqa oʻgʻuz shevalarida esa quroq goʻrpe tarzida ishlatiladi.

Marosimlar bilan bogʻliq soʻzlarda ham shunday holatni koʻrish mumkin: eronilarda gʻuncha yubormoq – nikoh toʻyi kuni yoki toʻydan bir-ikki kun oldin kelin tomondan kuyovga yuboriladigan kuyovlik liboslarini joʻnatish marosimi. qoʻlba-qoʻl\\ dastba-das – toʻy kechasi oynada kelin va kuyovni bir-biriga koʻrsatib, shar'iy tanishtiruv marosimi, hinobandon – qiz tomonida oʻtkaziladigan nikoh toʻyi (yaqin oʻtmishda), pushtaboshi – kishi vafot etgach ikkinchi juma kuni marhumga yaqin qarindosh ayollarning toʻdalashib marhum qabrini ziyorat qilishga chiqish marosimi.

Shuningdek, gug girmoq (koʻk kiymoq) – kishi vafot etgach unga yaqin qarindosh ayolning yil marosimi nishonlangunga qadar koʻk libosda yurishi, bu boshqa oʻgʻuz shevalarida goʻk giymoq yoki qora giyinan kishi tarzida, qirxa oʻtirmoq (qirqqa oʻtirmoq) – kishi vafot etgach unga yaqin qarindosh ayolning qirq marosimi nishonlangunga qadar koʻk libosda yurishi.

Samarqand turkmanlari oʻgʻuzlari shevasida uchrab boshqa oʻgʻuz shevalarida, xususan, eronilar nitqida uchramaydigan yasama soʻzlardan quydagilarni namuna sifatida keltirishimiz mumkin: Samarqand Turkman qishloq urganji shevasida koʻcha joʻra- ulfat ma'nosidagi soʻz, xidireli va urganji mahallasi shevasida birgalikda qoʻllanuvchi shapat pul – katta pul ma'nosida qoʻllanadi. Gartak - ozgina bu soʻz sodda soʻzday qurilmada koʻrinsa-da, tarkibiy jihatdaan yasama soʻz hisoblanadi ya'ni narsaning qismi gard va ikkinchi qismidagi -ak qoʻshimchasi -gina qoʻshimchasining maʻnodoshi sifatida qoʻllangan. Bu soʻzning qoʻllanilish doirasi urganji va xidireli turkmanlarida ikki xil variantda xidireli turkmanlarida gartak boʻlsa, urganjiliklar gitek tarzida ishlatadi. Bundan tashqari bu soʻz boshqaa oʻzbek shevalarida ham faol qoʻllaniladi: masalan, qipchoq shevasida girtak tarzida uchrasa, boshqa qarluq shevalaarida jindey, gitek shaklida ishlatiladi. Kurtik- xamir ovqat (zogʻara undan qilinadi) bu soʻz unning sifatiga nisbatan olingan soʻz va taomni istʻemol qilinishidagi oʻziga xos xususiyatiga nisbatan olinib, ya'ni kurt asos va -ik qoʻshimcha qoʻshilishidan hosil boʻlgan. Mazkur soʻz qipchoq shevalarida shamol boʻlishi oqibatida qorning chuqur joylarga toʻplanib qolish jarayoni maʻnosini ifodalaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, oʻzbek adabiy tilining muhim tarkibiy qismini tashkil qiluvchi oʻgʻuz lahjasi va uning shevalari materiallarini har tomonlama va keng qamrovli oʻrganish dialektologiya fani oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, Samarqand viloyati va shahri oʻgʻuz shevalarini zudlik bilan oʻrganish ham fikrimizning yaqqol dalili boʻla oladi.

Shu bois ham ularni nafaqat leksik, balki grammatik jihatdan ham keng tadqiq etish muhim vazifalardan biri bo‘lmog‘i lozim.

FOYDALANILGAN MANBALAR:

2019 - 2021 YILLARDAGI DALA MATERIALLARI

SHEVALARDAGI LAKUNAR BIRLIKLAR – TIL BOYLIGINI KO‘RSATUVCHI MANBA

Zulxumor Xolmanova,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. *Maqolada shevalardagi lakunar birliklar, ularning adabiy tilni boyituvchi manba sifatidagi ahamiyati ko‘rsatilgan. “Lakuna” tushunchasining fanga kirib kelishi, hodisaning nazariy asoslari, bu borada olib borilgan tadqiqotlar haqida fikr bildirilgan. Alisher Navoiyning lakuna nazariyasi asoschisi sifatida maydonga chiqqani, “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida lakuna hodisasini birinchilardan bo‘lib ilmiy jihatdan asoslab bergani ta’kidlangan. Ajdodlarimiz tomonidan biz hozirda yangilik sifatida baholayotgan bir qator hodisalar bundan ko‘p asrlar avval talqin qilingani faktik ma’lumotlar asosida ko‘rsatib berilgan. Lakunar birliklar lug‘atining milliy til lug‘at fondini o‘z qatlam hisobiga oshirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sheva so‘zlari, lakuna, lakunar birlik, lakuna turlari, leksik lakuna, kommunikativ lakuna, lingvokulturologiya, subyektiv lakuna, stilistik lakuna, sinxron tahlil, diaxron tahlil.*

Annotation. *The article shows lacunar units in dialects, their significance as a source that enriches the literary language. Introduction of the concept of a gap in science, the theoretical foundations of the phenomenon, and research conducted in connection with this. It is noted that Alisher Navoi was the founder of the doctrine of the lacuna, and in the work "Muhokamat ul-lugatayn" he was one of the first to scientifically substantiate the phenomenon of the lacuna. On the basis of actual data, it is shown that our ancestors interpreted a number of events that we now consider as novelty. The role of the vocabulary of lacunar units in replenishing the vocabulary of the national language at the expense of its own layer is shown.*

Key words: *dialect words, lacunae, lacunae, types of lacunae, lexical lacunae, communicative lacunae, linguoculturology, subjective lacunae, stylistic lacunae, synchronic analysis, diachronic analysis.*

Lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqot nazariyasiga oid tadqiqotlarda tillar va madaniyatlardagi farqlarni tahlil qilishda “lakuna” (lotincha lakuna, fransuzcha lakun – “bo‘shliq”, “chuqurlik”, “bo‘sh joy”) terminidan foydalaniladi. Lakuna hodisasining tadqiq doirasi juda keng, xususan, xorijda tilshunoslik, etnopsixolingvistika, lingvokulturologiya, tarjima nazariyasi kabi yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Masalan, O.B.Pilayeva evenklarda uzoq va sovuq qishda kiyiladigan piyma – oyoq kiyimining turlarini ifodalovchi bir nechta leksemalar mavjudligini ta’kidlaydi: *kulpike, lugdar* – tizzagacha bo‘lgan piyma (bahorgi-kuzgi), *kupuri* – qishki mo‘ynali piyma, *bakari* – qishki mo‘ynali va biser ornamentli piyma, *lokomil* – kalta, tekis yozlik piyma, *olochi* – oldi ochiq, kalta, ish uchun mo‘ljallangan piyma. Bu lakunar birliklar rus tilida lakunalarni hosil qiladi, ya’ni rus madaniyatida piyma – oyoq kiyimi va uning nomi uchraydi, biroq uning turlarini ifodalovchi leksemalar mavjud emas [Pilayeva,2005:103]. Lakunar birliklar boshqa tildagi tushunchaning so‘z ko‘rinishidagi ifodasi mavjud bo‘lmasligi natijasida yuzaga keladi. Lakunar birliklar muayyan madaniyatda mavjud tushunchani nomlaydi, bu tushuncha boshqa madaniyatda ham mavjud, biroq shu tushuncha leksik birlik sifatida o‘sha madaniyatning tilida voqelanmaydi.

Adabiyotlarda “lakuna” terminining ilk bor kanadalik tilshunoslar J.P. Vine va J.Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgani haqidagi ma’lumot va hodisa ta’rifi keltiriladi: “Bir tildagi so‘z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o‘rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi” [Vinay,1958:10; Xolmanova,2018:41-49]. “Lakuna” atamasi ilmiy manbalarda, xususan, lug‘atlarda XX asrning 70-80-yillaridan boshlab qo‘llanganini kuzatish mumkin.

Aslida lakuna hodisasiga oid dastlabki qarashlar qayd etilgan davrdan qariyb olti asr avval, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul lug‘atayn” asarida uchraydi. Bu esa til va madaniyat munosabatlariga doir mulohazalar dastavval Sharq ilmida shakllanganligini asoslaydi. “Muhokamat ul lug‘atayn”ning turkologiya tarixida, xususan, o‘zbek tilshunosligi taraqqiyotida ham amaliy, ham nazariy qiymatga ega bo‘lgan manba sifatida e’tiborga molikligini ko‘rsatadi.

Alisher Navoiy *lakuna* terminini qo‘llamagan, lekin ayni hodisaga alohida to‘xtalgan. “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy tillar va sart (fors-tojik) tilini solishtirar ekan, turkiy tildagi ayrim tushunchalarning fors-tojik tilida ifodalanmasligi, madaniy bo‘shliq hosil qilishi (ta’kidlanganidek, zamonaviy tilshunoslikda bu hodisa *lakuna* termini bilan yuritiladi) haqidagi mulohazalarini bayon etgan. Sart tilida nomlanmagan tushunchalarni ifodalovchi turkiy leksemalar lakunar birliklar hisoblansa, tushunchaning sart tilida nol ko‘rsatkichga ega ekanligi lakunani hosil qiladi. Navoiy shaxs xati-harakati, holatini ifodalovchi yuzta turkiy fe’lni qayd etadi. Bu fe’llar ifodalagan

tushunchalarning sart tilida so‘z shakliga ega emasligini ta’kidlaydi: *quvormoq, quruqshamoq, usharmak, jiyjaymoq, o‘ngdaymoq, chekrimak, do‘msaymoq, umunmoq, o‘sanmoq, itirmak, egarmak, o‘xranmak, toriqmoq, aldamoq, arg‘adamoq, ishastmak, iglanmak, aylanmoq, erikmak, igranmak, ovunmoq, qistamoq, qiynamoq, qo‘zg‘almoq, sovrulmoq, chayqalmoq, devdashimoq, qiymanmoq, qizg‘anmoq, nikamak, siylanmoq, tanlamoq, qimirdamoq, serpmak, sermamak, ganorgamak, sig‘riqmoq, sig‘inmoq, qilimoq, yolinmoq, munglanmoq, indamak, tergamak, tevramak, qingg‘aymoq, shig‘aldamak, singramoq, yashqamoq, isqarmoq, ko‘ngranmak, uxranmoq, siypamoq, qoralamoq, surkanmak, kuymanmak, ingramoq, tushalmaq, mung‘aymoq, tanchiqamoq, tanchiqlamoq, ko‘ruksamak, bushurg‘anmoq, bo‘xsamoq, kirkinmak, sukadamak, bo‘smoq, burmak, turmak, tomshimoq, qahamoq, sipqormoq, chicharkamak, jurkanmak, o‘rtanmak, sizg‘urmoq, gurpaklashmak, chuprutmoq, jirg‘amoq, bichimoq, qikzanmoq, singurmak, kundalatmak, qumurmak, bikirmak, ko‘ngurlamak, kinarkamak, kezarmak, do‘ptulmoq, chidamoq, tuzmak, qazg‘anmoq, qichig‘lamoq, gantiramak, yadamoq, qadamoq, chiqanmoq, ko‘ndurmak, so‘ndurmak, suqlatmoq*. Bu yuz lafzdurki, g‘arib maqosid adosida tayin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlarki, barchasi muhtojun ilayhdurki, takallum chog‘ida kishi anga muhtoj bo‘lur [Navoiy,2001:9].

Sipqarmoq (simirmoq), *tomshimoq* (“lazzat topa-topa, oz-oz ichish”); *yig‘lamsinmoq* (“yig‘lamsinur-u ko‘ziga kelmas yosh”), *ingramoq, singramoq, siqtamoq* (“yig‘lashning kuchli darajasi”), *o‘kurmak* (“haddan ortiq hayajon, to‘lg‘onish bila yig‘lash”), *inchkirmak* (“ingichka un bilan yig‘lamoq”), *hoy-hoy yig‘lamoq* (o‘zni otib yig‘lash), *bo‘g‘izni qirib yig‘lash* birliklari ifodalagan ma’noni anglatuvchi birliklar sart tilida mavjud emasligi orqali lakuna hodisasining mohiyati ochib berilgan.

Og‘a (aka), *ini* (uka), *egachi* (opa), *singil, opag‘a* (otaning og‘a-inisi), *tag‘oyi* (onaning og‘a-inisi) kabi bir qator qarindoshlik atamalarining sart tilida mavjud emasligi aytilgan: “Va uluq qardosh va kichik qardoshni ikkalasin – “barodar” derlar va turklar ulug‘ni – “og‘a” va kichikni “ini” derlar, va alar ulug‘, kichik qiz qardoshni ham “xohar” derlar. Va bular ulug‘ni – “egachi” va kichikni “singil” derlar. Va bular otaning og‘a-inisin “opag‘a” derlar. Va onaning og‘a-inisin – “tag‘oyi” (derlar). Va alar hech qaysig‘a ot ta’yin qilmaydurlar va arab tili bila "em" va "xol" derlar va *ko‘kaltosh*ni turkcha til bila derlar. Va *atka* va *enaga*ni ham bu til bila ayturlar [Navoiy,2001:9]”. Sart tilida shu tilda muqobili bo‘lmagan turkiy tildagi qarindoshlik atamalari qo‘llanishi qayd etilgan.

V.Muravyov lakunalarni ikki til leksikasini o‘zaro qiyoslaganda ulardan birining semantik kartinasida kuzatiladigan bo‘shliqlar, bo‘sh joylar, “oq dog‘lar” deb ataydi. O‘tgan asrning 70 – 80 - yilllarda Rossiya Vladimir pegagogika institutida fransuz va rus tili leksikasi materiallari asosida “Leksik lakunalar” nomli maxsus kurs o‘qitilgan. Ushbu maxsus kurs uchun tayyorlangan “Leksik lakunalar” nomli qo‘llanmasida V.Muravyov lingvistik lakunalarni *absolyut lakunalar* – so‘z mutlaqo mavjud bo‘lmagan lakunalar *(“Доброе*

утро!”, “С приездом!”, “На здоровье!”), nisbiy lakunalar – so‘z holida mavjud, ammo sezilmaydigan lakunalar *(“каблук”, “лоб”, “хотя*”), *vektor lakunalar* – semantik ko‘lami jihatdan mos kelmaydigan lakunalar (*parter,sigan*), *stilistik lakunalar* – uslubiy jihatdan farqlanuvchi lakunalar (театр одного актёра) kabi guruhlarga ajratgan. Bularni sof lingvistik lakunalar sifatida qayd etish mumkin [Muravyov,1975:24]. Etnografik lakunalarning absolyut etnografik lakunalar, vektor etnografik lakunalar, assotsiativ lakunalar kabi turlari ham qayd etilgan.

V.Muravyov lakunalarni faqat sinxron nuqtayi nazardan emas, balki diaxron nuqtayi nazardan ham o‘rganish kerakligini aytadi.

N.Dun sinxron lakunalarning ikki xil bo‘lishini ta’kidlaydi: tilararo lakunalar va tilning ichki lakunalari (introlingval lakunalar). N.Dun G.V.Bikova tomonidan introlingval lakunaning 16 ta turi qayd etilgani haqida ma’lumot bergan:

1. Tizimli (potensial) lakunalar. Bunday lakunalar ikki xil: leksik lakunalar; yasalma lakunalar.
2. Kommunikativ lakunalar.
3. Subyektiv lakunalar.
4.Stilistik lakunalar.
5.Tizimlararo lakunalar.
6. Shakl hosil qiluvchi lakunalar.
7.Uzual (me’yoriy) lakunalar.
8.Segment lakunalar.
9.Transnomitsion lakunalar.
10.Giperonimik va giponimik lakunalar.
11.Absolyut lakunalar.
12.Motivlangan va motivlanmagan lakunalar.
13. Nisbiy lakunalar.
14. Latent lakunalar.
15. Turkum lakunalari.
16.Lingvokulturologik lakunalar [Dun,131-141].

Tillarda lakunalar alohida lug‘at holida nashr qilinmagan. Lakunalarning izohli lug‘ati tadqiqotlarda, qo‘llanmalar tarkibida keltirilgan. V.Muravyov “Leksik lakunalar” o‘quv qo‘llanmasiga “Ruslar uchun absolyut lingvistik lakunalar, iboralar”, “Fransuz tili uchun absolyut lisngvistik lakunalar, iboralar”, “Rus tili uchun absolyut etnografik lakunalar, frazeologizmlar” hamda Fransuz tili uchun absolyut etnografik lakunalar, frazeologizmlar” lug‘atini ilova qilgan.

Lakunani ichki va tashqi lakunaga ajratish mumkin. Bir til materiali asosidagi lakunalar ichki lakuna hisoblanadi. Til ichidagi lakunar birliklar kam o‘rganilgan. I.A.Sterninning ta’kidlashicha: “Har bir tilda ko‘p sonli til ichidagi lakunar birliklar mavjud, ya’ni garchi ma’nosiga ko‘ra yaqin leksemalar mavjud

bo‘lsa-da, tilning leksik tizimida bo‘sh, to‘ldirilmagan joylar uchraydi”[Sternin,1999:210]. Ikki va undan ortiq tillardagi lakunalar tillararo lakunani, ya’ni tashqi lakunani yuzaga keltiradi.

Tadqiqotchi L.K.Bayramova [Bayramova,2005] tillararo lakunar birlik va lakunalarni o‘rganib, lakunalarning vujudga kelishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ikki asosiy omil mavjud ekanligini ta’kidlaydi:

- lingvistik omillar (obyektiv dunyoni tilga oid ravishda ajratishning o‘ziga xosligi va til tizimlari rivojlanishida o‘zaro mos kelmasligi);
- ekstralingvistik omillar (xalqlarning tarixiy, madaniy va ma’naviy an’analari, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy turmush sharoitlari xilma-xilligi, turli xalqlar urf-odatlari, mentalitetining o‘ziga xosligi).

Bir til doirasidagi lakunalar adabiy til va shevalar o‘rtasida kuzatiladi.

O‘zbek adabiy tili va shevalar o‘rtasidagi lakuna alohida tadqiqot mavzusi bo‘la oladi.

O‘zbek tilida shunday tushunchalar borki, adabiy tilda nomlanmagan, ammo shevalarda mazkur tushunchalarni nomlovchi so‘zlar mavjud. Bu holat, bir jihatdan, shevalarning olis tarixiy davrlar nafasini so‘z semantikasida saqlab kelayotgan xazina ekanligini ta’kidlasa, ikkinchi jihatdan shevalarning adabiy tilni boyituvchi ichki manba sifatidagi xususiyatini asoslaydi.

O‘zbek shevalarida mavjud bo‘lgan lakunar birliklarning izohiga bag‘ishlangan “O‘zbek shevalaridagi lakunar birliklar lug‘ati”ni yaratish tilning lug‘at boyligini ko‘rsatish, o‘zbek adabiy tilining lug‘at fondini ichki manba hisobiga oshirish, milliy qadriyatlarning muhim qirralarini alohida ta’kidlab ko‘rsatishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Алишер Навоий. “Муҳокамат ул-луғатайн”. –Тошкент, 2011; www.ziyouz.com.
2.VinayJ.P., Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de 1'anglais. –Paris: 1958.
3.Дунь Н.Л. Интролингвальные лакуны в лексической системы русского языка. Вісник СумДУ. Серія філологія.
4.Муравьёв В.Л. Лексические лакуны. –Владимир,1975.
5.Пылаева, О. Б. Относительные этнографические лакуны // Лакуны в языке и речи: сб.науч. тр. Вып. 2 / под ред. проф. Ю. А. Сорокина, проф. Г. В. Быковой. – Благовещенск: БГПУ, 2005.
6.Z.Xolmanova, O.Saidaxmedova, O.Nurullayeva. Lingvokulturologiyaga oid tushunchalar tadqiqi. –Toshkent: Navro‘z, 2018.

O‘ZBEK XALQ SHEVALARINING DIALEKTAL LEKSIKASI VA LEKSIKOGRAFIYASIGA YANGICHA YONDASHUV

Enazarov Tolib Djumanazarovich,
ToshDO‘TAU
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek xalq shevalarining leksikasi va leksikografiyasi masalalariga e’tibor qaratilgan. Bugungacha bu ikki masalaga jiddiy e’tibor berilmagan. Ularga e’tibor berish uchun ko‘rsatib o‘tilgan masalalarga yangicha yondoshuv lozimligi haqida gapirilgan. Unda o‘zbek xalq shevalarining dialektal leksikasi va leksikografiyasiga oid termin va tushunchalarni tavsiflab, tasniflash masalasi ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *sheva; dialektal matn; shevalar leksikasi; dialektal leksika turlari; dialektal leksika turlari tasnifi; dialektal leksikografiya; dialektal leksikografiyaga xos lug‘atlarning tasnifi; dialektal leksika va dialektal leksikografiyaga yangicha yondoshuv.*

Annotation. *This article focuses on the lexicon and lexicography of Uzbek folk dialects. To date, these two issues have not been taken seriously. They were told that a new approach was needed to address these issues. It describes and classifies terms and concepts related to the dialectal lexicon and lexicography of Uzbek folk dialects.*

Keywords: *dialect; dialectal text; lexicon of dialects; types of dialectal lexicon; classification of dialectal lexical types; dialectal lexicography; classification of dictionaries of dialectal lexicography; a new approach to dialectal lexicon and dialectal lexicography.*

Ayni paytda “O‘zbek dialektologiyasi” sohasida to‘liq o‘rganilmasdan qolib ketayotgan mavzularga shevalar leksikasi va leksikografiyasi misol bo‘ladi. Albatta, bu ikki kichik sohalarda ham anchagina termin va tushunchalar faol ishlatiladi. Demak, ularga yangicha yondoshuvni amalga oshirishimiz shart. Ammo ularning orasida tasnif yoki tasniflash degan termin ham bor. U boshqa terminlardan e’tibor, e’tirof etilishi va ilm ahliga ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Mana qarang: shevalar tasnifi, unli va undoshlarning tasniflari tasnif so‘zi qatnashtirilgan holda amalga oshirilgan. Biroq shevalar leksikasi hamda dialektal leksikografiya nomli kichik sohalarning maqsadi va vazifalari, predmeti, obyektlari haligacha ham rasman tavsiflanmagani uchun mazmunan yaqinroq

bo‘lgan bir necha xil fikr bildirilmoqda. Ularni hech kim bizga tavsiflab va tasniflab bermaydi.

Mutaxassismimiz, demak, ularning tasnifiga kirishishimiz lozim, ma’lum bir vaqtdan so‘ng esa tasniflarimizni prof. K. K. Yudaxin [Ashirboyev, 2021:113-114.] va prof. A. K. Borovkov kabi mukammallashtirib, amalga oshirilgan tasnifning ikkinchi bir variantini yaratish ham mumkin bo‘ladi[Ashirboyev, 2021: 116-117. Enazarov, 2021:40-41.]. Lekin dialektologik jarayon, termin va tushunchalarni bugun tasniflamasak, ertaga boshqa bir mutaxassis olim kelib, qilib bermaydi. Chunki olib chiqilayotgan tasnif(tadqiqot)ning nazariy va amaliy asoslarini yaxshi o‘zlashtirish ham lozim bo‘ladi [Shermuxamedova, 2014: 5-483.]. Shuningdek, bir mavzu yohud bir masalani bir necha mutaxassis olim tomonidan qayta-qayta tasnif qilinganligi ham ilmiy manbalarda o‘z ifodasini topgan.

Dialektal matn va dialektal so‘z turlari masalasining talqini. Oldinlari faqat dialektal so‘zlardan sof dialektal so‘zlarni savol-javob mazmunidagi anketalashtirish usuli bilan yig‘ishga va ulardan foydalanishga e’tibor qaratilgan. Shuning uchun ham XX asrning 40-70-yillarida sheva vakillari nutqidan yozib olinib, yig‘ilgan dialektal matnlar tahlil va talqinsiz, ya’ni o‘rganilmasdan kitoblarda va qo‘lyozmalarda qolib ketgan. Shuningdek, dialektal so‘zlarning asosiy qismlaridan biri bo‘lgan onomastik birliklar, ya’ni xalq tilida faol qo‘llanadigan atoqli otlar va joy nomlari oldin dialektal so‘zlar hisoblanmagan. Xalq vakillari qo‘llaydigan barcha so‘zlar, aniqrog‘i, dialektal so‘zlarning o‘nta turi (ular quyiroqda berilgan) hamda mavjud barcha nomlar dialektal so‘zlar ekanligi ilmiy tadqiqotlarda asoslab bergan.

Hozirgi kunda sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektlogik matnlar asosida sheva materiallarini yig‘ish, jamlash, tavsiflash-u tasniflash bo‘lishi maqsadga muvofiq. Dialektologik matnlar va so‘zliklarda nafaqat sheva so‘zlari, shular bilan birga xalq ongi-yu dili va tilidagi ma’naviyat, ma’rifat, madaniyatga tegishli bilim, malaka hamda tajribalar o‘z ifodasini topgan. Shuning uchun mazkur sohada talabalar emas, balki dialektal so‘zlarning ma’no majmuini tahlqin-u tahlil eta oladigan magistrlar, magistr darajasidagi mutaxassislar, yetakchi mutaxassislar, dotsent va professor hamda endigina ilmiy ishini boshlagan tadqiqotchilar faoliyat olib borishlari o‘rinli. Shuning uchun ham bu sohada “Dialektologik ekspeditsiya” dialektologik tadqiqotlar markazi bilan kelishgan holda yilning istalgan davrida o‘rganilayotgan hududda olib borilishi o‘rinlidir.

Ayni vaqtda Til, adabiyot va folklor institutida dialektologiyadan tadqiqot olib boradigan olimlar faoliyat ko‘rsatayotgani yo‘q. Shu bilan birga (achchiq haqiqat) talabalar tugul olimlar ham negadir umumiste’mol so‘zlari bilan dialektal

so‘zlarni farqlamaydigan holga kelib qolishgan. 1971-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”dagi [Ўзбек халқ шевалари луғати, 1991:3-407.] *dialektal so‘zlar* sof dialektal so‘zlar nuqtayi nazaridan saralab olingan, dialektal so‘zlar va dialektal leksikografiyaning umumfilologik masalalari yoritilgan ilmiy adabiyotlarga e’tibor berilmagan. Xullas, shu kungacha dialektal so‘z masalasi har tomonlama mukammal ochib berilmagan.

Dialektal so‘z turlari tavsifi va tasnifi. Haligacha dialektal so‘z turlari qancha degan savolga aniq javob berilmagan. 1971-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”dagi *dialektal so‘zlar* uchun qoida, me’yorlar haqida fikr bildirilmagan. Chunki, unda foydalanilgan adabiyotlar (66ta) asosan o‘zbekcha bo‘lib, ular sof dialektal so‘zlar nuqtayi nazaridan saralab olingan [Ўзбек халқ шевалари луғати, 1991: 3-11], xolos.

Ahmad Ishayevning “Shevalar lug‘atiga kiritiladigan so‘zlar” nomli maqolasida sof leksik-dialektal so‘zlar, etnografik-dialektal so‘zlar, leksik-semantik dialektal so‘zlar, leksik-fonetik dialektal so‘zlar, leksik-derivatsion dialektal so‘zlar, morfologik-dialektal so‘zlar, frazeologik-dialektal iboralarni kiritish mumkin deydi [Ishayev, 1988: 37-42.]

Shuning uchun biz o‘ttiz yil davomida “O‘zbek dialektologiyasi” bo‘yicha bir qancha nazariy va amaliy xarakterdagi ilmiy adabiyotlar bilan tanishib, ularni ham tanqidiy, ham qiyosiy o‘rganib, shevalarda dialektal so‘z turilarning quyidagi turlari borligini aniqladik. Bular dialektolog olimlarning asarlarida u yoki bu darajada qayd etilganligini manbalar asosida kuzatib, quyidagi turlari borligini ta’kidlab, ularni bu tarzda tasniflashni o‘rinli bilamiz (Birinchi tur dialektal so‘zlardan boshqalari o‘zbek dialektal leksikografiyaga birinchi marta olib kiritilishi asoslangan):

1) sof leksik dialektal so‘zlar;
2) leksik-semantik dialektal so‘zlar;
3) leksik-fonetik dialektal so‘zlar;
4) morfologik-fonetik dialektal so‘zlar;
5) morfologik-leksik dialektal so‘zlar;
6) leksik-derivatsion dialektal so‘zlar;
7) frazeologik (dialektal iboralardan iborat) dialektal so‘zlar;
8) atoqli otlar shaklidagi dialektal so‘zlar;
9) etnografik dialektal so‘zlar;
10) ba’zi bir umumistemol so‘zlarining *dialektal ma’no*ga ega bo‘lishidan shakllangan dialektizmlar.

Odatda, dialektal so‘zlar bir necha xil bo‘lishini e’tiborga olib, turli dialektal lug‘atlar tuzish uchun mukammal ko‘rsatmali ko‘rinishidagi dialektal leksikografik qo‘llanmalar tayyorlashni amalga oshirish lozim. Faqat Ahmad

Ishayevning “Ўзбек диалектал лексикографияси” nomdagi monografiyasi bor [Ishayev, 1989: 3-67-]. Unda asosiy e’tibor oldin amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida ilova shaklida berilgan dialektal so‘zlarga e’tibor qaratgan. Sababi dialektal lug‘atlar tuzish uchun mukammal ko‘rsatmali qo‘llanmalarsiz tayyorlangan lug‘atlar qo‘lyozma darajasidagina ahamiyatli hisoblanadi. Ular uchun mukammal o‘quv qo‘llanmalar tayyorlansa, bunday dialektal lug‘atlarni turli mavzularda yaratish ham mumkin.

So‘zsiz, DL (dialektal lug‘at) tuzish uchun shevalardan maxsus so‘roqlik yoki savolnoma asosida yig‘ilgan dialektal materiallar kerak, degan fikr ham bor. Ammo ular yig‘iladigan dialektal materiallarning miqdori pasayib, umumiy saviyani tushurib yuboradi. Shuning uchun dialektal materiallarni yig‘ishni sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlarni to‘plashdan boshlash lozim. Chunki yozib olingan dialektal matnlardan shevaning fonetik, leksik, morfologik va sintaksisi bo‘yicha asosiy ma’lumotlarni olish mumkin. Albatta, bular maxsus metodika, metodilogiya va metodlarni talab etadi. Lekin shevalarni o‘rganmasdan tayyorlangan lug‘at va so‘zliklardan ehtiyot bo‘lish shart. Sababi, bugungacha shevalarni o‘rganish metodikasi hamda metodlari; shevalarimizni tadqiq etish metodikasi; lahja va shevalarni ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy asoslardagi tadqiqining metodologiyasi kabi dolzarb masalalariga e’tibor juda kam bo‘lgan.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlarning tahliliga tayanilgan holda tuziladigan dialektal lug‘at(lar) ikki xil holda bo‘lishi mumkin. Biri umumiy dialektal lug‘at, ikkinchisi esa shu dialektal lug‘atning o‘quv lug‘ati. Masalan, 1) leksik-fonetik dialektal lug‘at; 2) leksik-fonetik dialektal o‘quv lug‘ati. Albatta, oldin o‘quv lug‘ati tayyorlanadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, *“O‘zbekiston toponimlarining etimologik lug‘ati”* nomli o‘quv lug‘ati yakunlandi, *“O‘zbek shevalari frazeologizmlarining o‘quv lug‘ati”*ga dialektal materiallar to‘planmoqda.

Bular esa mazkur fanning *dialektal leksikografiya* nomli bo‘limi borligini ham asoslab turibdi. Quyidagi terminlar esa dialektal leksikografiyaning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi: *O‘quv dialektal leksikografiya* – dialektal leksikografiyaning dialektal o‘quv lug‘atlarini yaratishning nazariy va amaliy masalalari bilan shug‘ullanuvchi sohasi. *Dialektal o‘quv lug‘ati* – ta’limiy maqsadda yaratilgan dialektal lug‘at. *Dialektal o‘quv lug‘atchilik* - o‘quv lug‘atlarini yaratish bilan shug‘ullunuvchi dialektal leksikografiyaning alohida sohasi.

To‘plangan dialektal matn va dialektal so‘zlardan faqat dialektal lug‘at tuziladi, deyish bizningcha, sal noaniqroq mazmunga ega. Chunki yig‘ib, to‘planib, tavsif va tahlil etilgan dialektal matnlarning lingvoma’naviy va lingvomadaniy tahlilida ajratilgan dialektal so‘zlar dialektal lug‘atlarning quyidagi turlarini yaratishga asos bo‘ladi, deyish javob sanadi. Shuning uchun

shevalardan jamlangan dialektal so‘zlarning turlariga qarab, ulardan shakllangan lug‘atlarni quyidagicha holda tasniflash maqsadga muvofiqdir. Ular quyidagilar (berilayotgan lug‘atlarning ko‘p qismini mavjud dialektal materiallar bilan tuzsa bo‘ladi, ba’zilarini esa o‘zbek xalq shevalari to‘liq o‘rganilgandan keyingina tuzish mumkin. Shuning uchun bu yerda lug‘atlarning to‘liq miqdorini keltirdik. Ehtimol, ularning miqdori yana ham ortar.):

1.Sof dialektal so‘zlarning o‘quv lug‘ati.
2.Sof dialektal so‘zlarning lug‘ati.
3.Sof dialektal so‘zlarning mukammal lug‘ati.
4.Morfologik dialektal so‘zlarning lug‘ati.
5.Morfologik dialektal so‘zlarning o‘quv lug‘ati.
6.Leksik-derivatsion dialektal so‘zlarning lug‘ati.
7.Leksik-derivatsion dialektal so‘zlarning o‘quv lug‘ati.
8.Leksik-fonetik dialektal so‘zlarning lug‘at.
9.Leksik-fonetik dialektal so‘zlarning o‘quv lug‘ati.
10.Dialektal frazeologik so‘zlarning lug‘at.
11.Dialektal frazeologizmlarning o‘quv lug‘ati.
12.Dialektal frazeologizmlarning mukammal lug‘ati.
13.Leksik-semantik dialektal so‘zlarning lug‘at.
14.Leksik-semantik dialektal so‘zlarning o‘quv lug‘ati.
15.Leksik-semantik so‘zlarning mukammal dialektal lug‘at.
16.Etnografik dialektal so‘zlarning lug‘at.
17.Etnografik dialektal so‘zlarning o‘quv lug‘ati.
18.Etnografik dialektal so‘zlarning mukammal lug‘ati.
19.Chappa dialektal lug‘at.
20.Chappa dialektal o‘quv lug‘ati.
21.Dialektal sinonimlar lug‘ati.
22.Dialektal sinonimlarning o‘quv lug‘ati.
23.Dialektal omonimlar lug‘ati.
24.Dialektal omonimlarning o‘quv lug‘ati.
25.Dialektal antonimlar lug‘ati.
26.Dialektal antonimlarning o‘quv lug‘ati.
27.Dialektal paronimlar lug‘ati.
28.Dialektal paronimlarning o‘quv lug‘ati.
29.Dialektal laqablar lug‘ati.
30.Dialektal laqablarning o‘quv lug‘ati.
31.Badiiy asarlardagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
32.Badiiy asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.
33.Tarixiy badiiy asarlardagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.

34.Tarixiy badiiy asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.

35.Tarixiy asarlardagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.

36.Tarixiy asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.

37.Dramatik asarlardagi dialektizmlar o‘quv lug‘ati.

38.Dramatik asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.

39.She’riy asarlardagi dialektizmlar o‘quv lug‘ati.

40.She’riy asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.

41.Nasriy asarlardagi dialektizmlar lug‘ati.

42.Folklor asarlaridagi dialektizmlar lug‘ati.

43.Maxsus dialektizmlarning (toponimik) o‘quv lug‘ati [Dialektologik lug‘atlar sirasiga onomastikaga bag‘ishlangan lug‘atlar ham kiradi, chunki nomlarni xalq vakillari ishlatadi. Qarang: Бегматов, Улуқов, 2006: 103. Бегматов, 2007: 606)].

44.Maxsus dialektal (toponimik) lug‘at.

45.Maxsus dialektal (antroponimik) lug‘at.

46.Maxsus dialektizmlarning (antroponimik) o‘quv lug‘ati.

47. Dialektal maqollarning o‘quv lug‘ati.

48. Dialektal maqollar lug‘ati.

49.Dialektal qarg‘ishlar lug‘ati.

50.Dialektal tez aytishlarning o‘quv lug‘ati.

51.Dialektal tez aytishlar lug‘ati.

52.Zoonimlarning o‘quv dialektal lug‘ati.

53.Zoonimlarning dialektal lug‘ati.

54.Ortotonim(qush nom)larning o‘quv dialektal lug‘ati.

55.Ortotonim(qush nom)larning dialektal lug‘ati.

56.Fitonimlarning dialektal o‘quv lug‘ati.

57.Fitonimlarning dialektal lug‘ati.

58.Fitonimlarning dialektal mukammal lug‘ati.

59.Dialektal qo‘shimchalarning o‘quv lug‘ati.

60.Dialektal qo‘shimchalarning mukammal lug‘ati.

61.Dialektizmlarning etimologik lug‘ati.

62.Dialektizmlarning etimologik o‘quv lug‘ati.

63. O‘zbek shevalarining etimologik lug‘ati.

64. O‘zbek shevalarining mukammal etimologik lug‘ati.

65.Xalq dostonlaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.

66.Xalq dostonlaridagi dialektizmlar lug‘ati.

67.Xalq maqollaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.

68.Xalq allalaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.

69.Xalq allalaridagi dialektizmlar lug‘ati.

70.Xalq topishmoqlaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
71.Xalq topishmoqlaridagi dialektizmlar lug‘ati.
72.Xalq ertaklaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
73.Xalq ertaklaridagi dialektizmlar lug‘ati.
74.Xalq lirik qo‘shiqlaridagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
75.Xalq lirik qo‘shiqlaridagi dialektizmlar lug‘ati.
76. Askiyalardagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
77. Askiyalardagi dialektizmlar mukammal lug‘ati.
78. Loflardagi dialektizmlarning o‘quv lug‘ati.
79. Loflardagi dialektizmlar mukammal lug‘ati.
80. Konchilik terminlarining dialektal o‘quv lug‘ati.
81. Konchilik terminlarining mukammal dialektal lug‘ati.
82. Konchilik terminlarining dialektal mukammal lug‘ati.
83. O‘zbek dialektologiyasi terminlarining o‘quv izohli lug‘ati.
84. O‘zbek dialektologiyasi terminlarining izohli lug‘ati.
85. O‘zbek dialektologiyasi terminlarining mukammal izohli lug‘ati.
86. O‘zbek shevalarining elektron o‘quv dasturiy lug‘ati.
87. O‘zbek shevalarining elektron dasturiy lug‘ati.
88. O‘zbek shevalarining elektron mukammal dasturiy lug‘ati.

Bunday lug‘atlarning har biri bitta ilmiy loyihaga asos bo‘lishi mumkin. Ammo sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlar majmuisiz bunday miqyosi keng va katta ishlarni boshlab bo‘lmaydi. Shu o‘rinda quyidagi bir fikrni ta’kidlashni istardim: O‘zbek adabiy tili qoidalari rasman maxsus tasdiqlanguncha bo‘lgan XI asrdan XX asrning ikkinchi yarmigacha o‘zbek tilida yaratilgan lug‘atlar, so‘zsiz, tarixiy dialektologiya bo‘lganidek tarixiy dialektal lug‘atlarning bo‘lishi ham tabiiydir.

Endi o‘zbek dialektologiyasi tarixining yangi sahifasini ochishi kerak, ya’ni bu sohada tayyorlab, amalga oshiriladigan ilmiy loyihalar, albatta, dialektal matnlarsiz bo‘lishi mumkin emas. Va yana quyidagi “O‘zbek xalq shevalarining dialektologik atlaslari”ni yaratish ham sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlarsiz hamda ularning mukammal tahlillarisiz amalga oshirib bo‘lmaydi: 1) o‘zbek shevalarining o‘quv dialektologik atlaslari: 2) o‘zbek shevalarining dialektologik atlaslari; 3) o‘zbek shevalarining mukammal dialektologik atlaslari.

Xullas, ko‘tarilgan masalaning dolzarbligini hisobga olib, dialektal leksika va leksikografiyaga oid bahsli masalalarga yangicha yondoshuv lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. -B. 113-114.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. -B. 116-117.
3. Enazarov T. O‘zbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot. –Toshkent: Mahalla va oila, 2021. –B.40-41.
4. Шермухамедова Н. А. Илмий тадқиқот методологияси. –Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2014. –B. 5-483.
5. Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан, 1991. –B.3-407.
6. Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан, 1991. –B.3-11.
7. Ишаев А. Шевалар луғатига киритиладиган сўзлар. Ўзбек тили ва адабиёти. 1988. 2-сон. 37-42-бетлар.
8. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. –Тошкент: Фан, 1990. –B. 3-67 (140 b).
9. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. -Наманган, 2006. 103 б. Бегматов Э.Ўзбек исмлари. 14600 исмлар изоҳи. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2007. 606 b.

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA NAMANGAN SHEVALARINING O‘RGANILISHI

Darvishov Ibrohim,
Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD
Email: ibmofifar@bk.ru

Annotatsiya. *Maqolada Namangan viloyati shevalarining o‘rganilishi tarixi va darajasi haqida fikrlar bildirilgan. Shevalarni o‘rgangan olimlar chiqargan xulosalarga munosabat va mulohazalar bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *til, dialekt, lahja, sheva, shevalar tarixiy genezisi, sheva areali, sheva tasnifi, fonetik, leksik, grammatik unsurlar.*

Annotation. *The article presents views on the history and level of study of the dialects of the Namangan region. The views and comments of scientists who studied dialect are described.*

Key words: *language, dialect, dialect, dialect, historical genesis of dialects, dialect area, dialect classification, phonetic, lexical, grammatical elements.*

Ma’lumki, o‘zbek tili ko‘p shevalidir. Ayniqsa, Namangan shahar shevasi boshqa o‘zbek shevalaridan o‘ziga xos lisoniy jihatlari bilan tubdan farq qiladi. Namangan shahar dialekti haqida ayrim fonetik, leksik va grammatik belgilar, ayniqsa, jahon tillarida ham kam kuzatiladigan holatlar, “tilmi bu yoki shevami?” [Nalivkin, Nalivkina, 6] kabi savollarning qo‘yilishi tilshunoslarni qiziqtirib qoldi va uni jiddiy o‘rganishga kirishildi. Natijada Namangan shevasi bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar amalga oshirildi.

Viloyatning ma’muriy markazi Namangan shahar shevasining o‘ziga xos shakllanish jarayonlarida nafaqat turkiy, balki fors-tojik tilining fonetik, leksik va grammatik belgilari muhim rol o‘ynagan. Shu jihatlari bilan boshqa o‘zbek shevalaridan farq qiluvchi Namangan shahar shevasining o‘ziga xos lisoniy xususiyatlarini yetuk dialektologlardan Ye.D.Polivanov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, G‘.O.Yunusov kabi olimlar o‘rgandilar, tasnifladilar va tahlil qildilar. Natijada shevaning lingvistik xususiyatlari haqida asosli to‘xtamlarga kelindi.

Namangan shahar shevasi va uning fonetik va morfologik xususiyatlari tilshunos olimlar S.Otamirzayeva [4.18; 5.3-191] va S.Tulyakovlar [12.19] tomonidan, Uychi shevasi professor A.Yu.Aliyev tomonidan o‘rganildi [1.18]. A.Yu.Aliyev o‘zining doktorlik dissertatsiyasida [2.52] Namangan viloyati shevalarining fonetik, leksik va morfologik jihatlariga umumiy tavsif bergan holda, Namangan shahar hududi va unga yaqin joylarda yashovchi aholi shevalarini batafsil yoritishga harakat qilgan. H.Sharipov nomzodlik ishining [13.18] ayrim o‘rinlarida Qirg‘iziston janubiga qo‘shni bo‘lgan Yangiqo‘rg‘on tumanining ba’zi qishloq shevalari haqida qisman ma’lumotlar mavjud.

Ta’kidlash lozimki, Namangan viloyatidagi dialektlar haqidagi ilk ma’lumotlar V.Nalivkin va M.Nalivkinalar tomonidan yaratilgan lug‘atda qayd etilgan [2.52]. Bu lug‘at o‘zbek dialektologiyasi sohasida, xususan, Namangan shevasi bo‘yicha qilingan birinchi ish bo‘lgani uchun ahamiyatlidir. A.Aliyev va S.Tulyakovlarning ta’kidlashicha, Nalivkinlar lug‘atida sheva xususiyatlari aniq transkriptsiya belgilari bilan berilmaganligi uchun Namangan shevasiga xos o‘rinlarni ajratib olish qiyin [Aliyev,31-40]. Ishga o‘sha davr nuqtayi nazari bilan yondashish o‘rinlidir.

Shved turkshunosi Gunnar Yarringning Namangan dialektiga kiruvchi Qilich shevasiga bag‘ishlangan ingliz tilidagi kitobchasi 1937 yilda (Jarring G. The Uzbek Dialect of Qilich. (O‘zbek tilining Qilich shevasi) Leipzig, 1937) chop etiladi. Ishda, tilshunoslarning e’tiroficha, hozirgi Chust tumaniga qarashli Qilich (hozirgi Uzun qishlog‘i) shevasining ayrim fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarining tasviriy bayoni keltirilgan.

“Gunnar Yarring O‘zbekistonda, jumladan, uning atrofidagi joylarda, Namangan shahrida bo‘lgan emas, – deydi A.Yu.Aliyev. – Matnlar, muallif ma’lumotiga ko‘ra, Qilich qishlog‘idan Afg‘onistonga qochib o‘tgan bir mullaning o‘g‘li Ahmadjon degan kishidan yozib olingan. Gunnar Yarring ana shu kishidan yozib olgan sheva materiallariga asoslanib, 1937 – yilda “O‘zbek tilining Qilich shevasi” kitobchasini nashr qildirgan. Kitobda so‘z boshidan tashqari, o‘zbek shevalari xususiyatlarini ko‘rsatuvchi bo‘limlar bilan birga shevaga xos matnlar ham berilgan”. A.Yu.Aliyevning yozishicha, G.Yarring sheva vakilidan yozib olgan “Bilaguzuk” qo‘shig‘i va “Uch yolg‘ondan qirq yolg‘on” ertagiga tayanib, o‘z izlanishlariga xulosa yasagan [3.37-42].

Professor A.K.Borovkov “umlautli” yoki “uyg‘urlashgan” shevalar tasnifiga doir” maqolasida Namangan, Uychi, Chortoq, Koroskon, Uchqo‘rg‘on, Qayqi kabi shevalardagi umlaut hodisasining vujudga kelish sabablarini misollar bilan izohlaydi. Bundan tashqari, Uychi qishlog‘i vakillaridan yozib olgan bir necha maqollarni ilova qiladi [6. 29-31]. Olim 1944 yilda amalga oshirilgan dialektologik ekspeditsiya davrida to‘plangan materiallari asosida “Namangan viloyatidagi o‘zbek shevalari” nomli maqolasini yozadi [Borovkov,31-59]. Maqolada Namangan viloyatining bir qator hududlaridagi o‘zbek shevalarining ayrim fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini ko‘rsatib berilgan. Ish Namangan guruh shevalarining tarixiy genezisi, ularning tasnifi masalalari haqida kengroq tasavvur hosil qilish uchun juda ahamiyatli.

A.K.Borovkov tasnifi Namangan viloyatidagi barcha o‘zbek shevalarini to‘laligicha qamrab olmagan. Shunga qaramay, tasnifda ko‘rsatilgan ayrim shevalarni, ayniqsa, Namangan shahar va unga yaqin joylashgan hududlar qarluq shevalarini ham kichik guruh qipchoq shevalarini ham shahar tip “umlautlashgan” shevalar tarkibga kiritgan [Borovkov,58-74]. Olimning Namangan shahar sheva xususiyatlariga asoslanib, viloyatning barcha hudud shevalarini “umlautlashgan” shevalar toifasiga kiritganligiga qo‘shilib bo‘lmaydi. Chunki viloyatning aksariyat shevalari qipchoq lahjasiga mansubdir. Bizningcha, olimning bunday xulosaga kelishining sababi ilmiy ekspeditsiya suronli urush davrlariga to‘g‘ri kelganligi, viloyat markazidan olisdagi aholi yashash manzillariga yetib borish imkoniyati chegaralanganligida bo‘lsa kerak. Bu boradagi olimning ilmiy jasorati va faoliyati e'tirofga loyiq.

Professor Y.D.Polivanov ham o‘zbek shevalari tasniflashda Namangan dialektiga kiruvchi Namangan shahar va unga yaqin joylashgan Chortoq, Uychi hamda Shahand (To‘raqo‘rg‘on tumanidagi qishloq) aholi punktlari shevalarini eronlashgan shevalarning uyg‘urlashgan yoki umlautli 4-a tipiga kiritgan [Polivanov, 54]. Olimning Namangan shahri, Chortoq, Uychi tumanlari shevalarini eronlashgan tip shevalar guruhiga kirishi haqidagi fikrlariga qo‘shilish

mumkin. Lekin qipchoq lahjasining tipik vakillari istiqomat qiluvchi yirik Shahand qishlog‘i shevasining bu tipga kiritilishi munozaralidir. Chunki bu eng qadimiy aholi yashash joyida azaldan “y”lovchi va “j”lovchi qipchoq urug‘lari (saroy, olchin, qotog‘on, qurama kabi) yashab keladilar.

Professor G‘ozi Olim esa faqat Namangan shahar shevasini nazarda tutib, butun Namangan viloyatidagi shevalarni Turkbarlos lahjasiga kiritadi [Yunusov,21]. Bu tasnif ham Namangan viloyati dialektlarini to‘la qamrab ololmaydi. Olim ishlarida Namangan shevalariga batafsil va sinchikovlik bilan to‘xtalmagan. Ma’lumki, o‘zbek shevalarining aksariyatida turkbarlos shevalari unsurlari mavjud.

Professor V.V.Reshetov “O‘zbek tilining Namangan shevasi haqida” maqolasida Namangan shahar shevasining tarixiy shakllanishi, uning fonetik va morfologik xususiyatlarini birinchilardan bo‘lib batafsil ilmiy asoslab berishga harakat qilgan [Reshetov, 216].

Olim Namangan dialektiga kiruvchi shevalarni sanab qo‘ya qolmay, ularning boshqa turkiy tillar va o‘zbek shevalaridagi tutgan o‘rnini, lingvistik xususiyatlarini tarixiy qiyoslab, boshqa tilshunoslar tasnifiga nisbatan batafsilroq tahlil qilib bergan [Reshetov,216]. Namangan shahri, Yangiqo‘rg‘on tuman markazi, Uychi, Chortoq tumanlari shevalarini qarluq lahjasining umlautlashgan shevalar guruhiga kiritib, asosli tasniflagan. Namangan viloyatining boshqa dialektal areallari haqidagi fikrlarini shevalardagi lisoniy unsurlar asosida umumlashtirib, misollar orqali qarluq yoki qipchoq tip lahjalarga ajratish mumkinligini tarixiy faktlar asosida tavsiflagan.

Shunday qilib, ildizlari uzoq o‘tmishga, turli etnogenezisga ega bo‘lgan Namangan viloyati shevalari bir qator tilshunoslarning diqqatini tortdi. Ularning o‘zbek shevalarni o‘rganish borasidagi izlanishlari o‘zbek dialektologiyasining shakllanishi va rivojlanishida muhim manba bo‘lib xizmat qilgan va hozirda bu jarayon davom etmoqda.

To‘g‘ri, Namangan viloyatining ko‘plab dialektal areallari, ularning o‘ziga xos lisoniy jihatlari olimlarimizning yuqorida tilga olingan ilmiy izlanishlarida, tilga olinmagan bo‘lsa-da, bugungi kunda viloyat dialektal areallarida istiqomat qilayotgan aholi o‘zining turli rang va jilosiga ega bo‘lgan o‘zbek shevalarida aloqa qilmoqdalar. Ular o‘z shevalarida eng qadimgi turkiy til unsurlarini saqlab kelmoqda. Shuning uchun ham Namangan dialektal areali bugungi kunda yana qayta monografik tadqiqotlar obyektiga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алиев А. Ю. Уйчинский говор узбекского языка. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1960. – 24 с.

2. Алиев А.Ю. Наманганская группа говоров узбекского языка: Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Тошкент, 1975. – 52 с.
3. Aliyev A.Yu. Namangan dialekti haqida. O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. – Toshkent: Fan. 1967. – B. 37-45.
4. Атамирзаева С. Звуковой состав Наманганского говора узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Л., 1963. – 19 с.
5. Атамирзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. – Ташкент, 1974. – 195 с.
6. Боровков А.К. К характеристике узбекских “умляутных” или “уйгуризованных” говоров // Белек – Малову. – Фрунзе, 1946. – С. 29-31.
7. Боровков А.К. Узбекский говоры Наманганской области. – Ташкент, Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент, 1963.
8. Боровков А.К. Вопросы классификатсии узбекских говоров // Изв. АНУз ССР. – № 5. – 1953. – С. 58-74.
9. Наливкин В., Наливкина М. Русско-сартовский и сартовско-русская словарь общеупотребительных слов с приложением краткой грамматики по наречиям Наманганского уезда. – Казань, 1884. – С. 6.
10. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933.
11. Решетов В.В. О наманганском говоре узбекского языка. Сб. Академику В.А.Гордлевскому. – М., 1953. – С. 216.
12. Тулаков С. Морфологические особенности наманганского говора: Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Ташкент, 1965.
13. Sharipov H. Janubiy Qirg‘iziston o‘zbek shevalari: Avtoref. dis. ... kand. fil. nauk. – Toshkent, 1967. – 21 s.
14. Yunusov G‘.O. O‘zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. – Toshkent: O‘quvo‘zdavnashr, 1936.

XORAZM SHEVASIDAGI DIALEKTAL SEMEMALAR TAHLILI

Ahmedova Nargiza Shixnazarovna,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.
E-mail: ashnargiza@gmail.com

Annotatsiya*. Ushbu maqolada o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasida gaplashuvchi Xorazm shevasidagi hozirgi o‘zbek tili bilan bir xil ishlatiladigan,*

ammo ma’nosi har xil bo‘lgan so‘zlar – dialektal sememalar tahlil qilingan. So‘zlar ma’nosi qisman o‘zgarishga uchragan, butunlay farqlanuvchi ma’noga ega so‘zlarga ajratilib tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: *turkiy tillar, qadimgi turkiy til, til tarixi, tarixiy manbalar, adabiy til, o‘g‘uz lahjasi, sheva so‘zlari, etimologik tahlil, fonetik o‘zgarish.*

Annotation*. This article analyzes dialectical semantics of words used in the Oghuz dialect of Uzbek, which are used in the same way as modern Uzbek in Khorezm dialect, but have different meanings. The meanings of words are described in terms of words that have partially changed meanings and that have completely different meanings.*

Keywords: *Turkic languages, ancient Turkic language, language history, historical sources, literary language, oghuz dialect, dialects, etymological analysis, phonetic change .*

O‘zbek tili turkiy tillar ichida ko‘p lahjaliligi bilan ajralib turadigan, shevalari bir-biridan keskin farqlanadigan tillardan biridir. O‘zbek tili qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga mansub shakllarga ega bo‘lib, asosan o‘g‘uz lahjasiga kiruvchi Xorazm shevasi boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik jihatlariga ko‘ra farq qiladi. O‘zbek shevalarining leksikasini o‘rganish hozirgi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Xorazm shevasi ikkita: qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga mansub bo‘lib, shundan o‘g‘uz lahjasi Xiva, Xonqa, Shovot, Hozarasp, G‘azovot, Urganch singari shevalarni qamrab oladi. Bız ushbu maqolada o‘zbek adabiy tilidan farqli ma’no anglatadigan Xorazm shevasiga mansub ayrim leksemalarning tarixi va tahliliga e’tibor qaratdik.

Xorazm shevasiga mansub so‘zlarni ikki guruhga ajratib o‘rganish mumkin:

1. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lmagan, shevada ishlatiladigan so‘zlar, ya’ni dialektizm leksemalar: *qarïnža, dajï, čavaq, kirpi, qapï, baldïz, ĵağış, űgrä / ű:rä.*

2. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud, ammo shevadagi ma’nosi farqlanadigan so‘zlar: *űkä, äkä, lägän, apa, tuxum, oqshom, kasa, täkä, osh, kishmish, toza.*

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida mavjud, ammo shevadagi ma’nosi farqlanadigan so‘zlar dialektizm-semema deyiladi. Dialektizm-sememaning ifoda plani (nomemasi) adabiy tildagi leksema nomemasining o‘zidir (Jamolxonov, 2013:36). Bunday so‘zlar adabiy tilida ham mavjud, ammo shevadagi ma’nodan farqlanadigan ma’no anglatadigan so‘zlardir.

Bunday dialektizm sememalarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Umumturkiy qatlamga oid dialektizm sememalar: *uka, aka, opa, ota, ona* (ena, ana), so‘kmoq.

2. Arabiy qatlamga oid dialektizm sememalar: vaj, sadaf.

3. Forsiy qatlamga oid dialektizm sememalar: kosa, toza, tuxum, lagan, osh.

Qarindoshlik nomlari hisoblangan *uka, aka, opa, ota, ona* (ena, ana) kabi so‘zlar o‘zbek adabiy tilida ham mavjud bo‘lib, bu leksemalarning ma’nosi adabiy tildan butunlay farqlanadi, ya’ni dialektizm semema hisoblanadi. Masalan, adabiy tilda “bir ota-onaning kichik o‘g‘il farzandi” ma’nosini anglatuvchi *uka* leksemasi shunday leksemalar qatoriga mansub bo‘lib, u “qadimgi turkiy tilda “kichik farzand” ma’nosini bildirgan, keyinchalik ma’no torayishi yuz berib, “kichik o‘g‘il farzand” ma’nosini anglata boshlagan” (Rahmatullayev, 2000:386). Xorazm shevasida ushbu leksema ham o‘g‘il, ham qizga nisbatan ishlatiladigan so‘z hisoblanadi, singil leksemasi shevada mavjud emas. Bu leksemaning til tarixida anglatgan ma’nosi aynan shevada saqlanib qolgan.

Shevadagi aka leksemasi “o‘zidan katta o‘g‘il farzand” ma’nosida deyarli ishlatilmaydi, bu ma’noni ifodalovchi og‘a so‘zi mavjud. Aka so‘zi asosan dada ma’nosida ishlatiladi, sababi ota leksemasi asosan bobo ma’nosida ishlatiladi. Opa leksemasi esa ona ma’nosida, “o‘zidan katta qiz farzand” ma’nosi esa apka leksemasi orqali ifodalanadi. Demak, yuqoridagi qarindoshlik ma’noli so‘zlar semantik dialektizm sanaladi.

Lagan leksemasi adabiy tilda “quyuq taomlar solish uchun mo‘ljallangan, tarelkadan katta yassi idish” ma’nosida ishlatilsa, shevada “xamir qorish, kir yuvish va boshqa maqsadlarda ishlatiladigan katta chuqur to‘garak idish” ma’nosida ishlatiladi, bu ma’nodagi tog‘ora so‘zi shevada mavjud emas.

Kosa so‘zi forscha bo‘lib, o‘zbek tilida “piyoladan kattaroq, asosan suyuqlik va turli ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish” ma’nosida ishlatilsa, Xorazm shevasida “piyola” ma’nosini bildiradi. Bu so‘z “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da fors tilida “katta chashka” ma’nosini bildirishi aytib ‘o‘tiladi va aynan shevada fors tilidagi ma’nosi bilan bir xil ma’noda qo‘llanilishini ko‘rish mumkin. Suyuq ovqatlar suziladigan ma’noda esa lavob kosa leksemasi ishlatiladi.

Toza so‘zi, asli, tojikcha bo‘lib, “Kir, chang, ifloslik va sh.k. dan xoli (xoli qilingan), ozoda, pokiza” ma’nosini anglatib, Xorazm shevasida “yangi” so‘zining ma’nodoshi sifatida faol ishlatiladi. (Abdullayev, 1961:85)

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da tuxum so‘zining birinchi ma’nosi urg‘ochi parranda, toshbaqa va boshqa ba’zi hayvonlarning bola ochish uchun qo‘yadigan, qobiq bilan o‘ralgan yumurtqasi; ikkinchi ma’noda jinsiy hujayra, uchinchi ma’noda urug‘ (oshqovoqning tuxumi); to‘rtinchi ma’noda (ko‘chma)

nasl, avlod, zurriyod ma’nolari qayd etilgan. Navoiy asarlari lug‘atida tuxum so‘zining urug‘ ma’nosida ishlatilishi aytib o‘tiladi. Xorazm shevasida bu so‘zning urg‘ochi parranda, toshbaqa va boshqa ba’zi hayvonlarning bola ochish uchun qo‘yadigan, qobiq bilan o‘ralgan mahsulot ma’nosi ishlatilmaydi, yumurtqa(yumurta) so‘zi bu ma’noni bildiradi, tuxum leksemasi esa asosan urug‘lik ma’nosida qo‘llanadi. Bundan tashqari, shevada bu so‘zning nasl, avlod, qarindosh-urug‘ ma’nolari ham bor. F.Abdullayevning ishida tuxum so‘zining Gurlan, Mang‘it, Yangibozorda уымырта; Shovotda yumыrtqa; O.Madrahimovning ishida o‘g‘uz shevalarida yumurta; ozarbayjon tilida yumurta, eski o‘zbek tilida yumurtqa; A.Ishayevda уымыртqа//уымырта//yumurta tarzida ekanligi qayd qilingan.

Oqshom leksemasi o‘zbek tilida “quyosh botishi bilan tun boshlanishi o‘rtasidagi g‘ira-shira yorug‘ payt”; “kech, kechqurun” ma’nolarida ishlatilsa, shevada “bugundan oldingi kun”ma’nosini ifodalaydi. Demak, bu so‘z adabiy tilda mavjud bo‘lsa-da, shevadagi ma’nosidan farqli ma’noga ega. Kecha leksemasi esa shevada “yarim tun” ma’nosida qo‘llaniladi.

Vaj so‘zi arabcha so‘z bo‘lib, “biror narsa, hodisa va sh. k. ni keltirib chiqaruvchi asos; sabab, bahona” hamda “muayyan maqsadga mo‘ljallangan narsa” ma’nolarini anglatadigan omonim so‘z hisoblanadi. Xorazm shevasida bu so‘z faol so‘z hisoblanib, “narsa” ma’nosida ishlatiladi.

Osh so‘zi fors tilida “yovg‘on sho‘rva, xo‘rda; ovqqat” ma’nosini bildirib, o‘zbek tilida “pishirilgan issiq ovqat”, umuman, har qanday ovqat, taom” ma’nosida qollanadi. Xorazm shevasida esa bu leksema har qanday ovqat turini emas, balki “yovg‘on sho‘rva, xo‘rda” ma’nosini anglatadi.

Tomoq so‘zi “bo‘yinning engak osti (tumshuq osti) qismi”, qizilo‘ngach bilan kekirdak boshlanadigan yer; bo‘g‘iz, ma’nolarini adabiy tilda anglatsa, shevada shu ma’nolar bilan birga katta yoshli aholi tomonidan “taom, ovqat” ma’nosida ham ishlatiladi: tomoq pishirmoq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘zbek tilining Xorazm shevasida ishlatiladigan ayrim so‘zlar adabiy tilda anglatgan ma’nosidan farqli ma’no bildiradi. Bunday so‘zlarning aksariyati umumturkiy so‘zlar hisoblansa, ayrimlari fors-tojik yoki arab tilidan kirib kelgan leksemalardir. Bunday leksemalarning ayrimlari ma’no kengayishi yoki torayishiga uchragan holda hozirgi kungacha yetib kelgan. Tilimiz boyligi bo‘lgan bunday umumturkiy so‘zlarni o‘rganish va saqlab qolish globallashib borayotgan bugunning dolzarb masalalaridan biriga aylanmog‘i zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev F. Xorazm shevalari. – Toshkent, 1961.

2. Ismoilov M. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – Toshkent, 1966.

3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (Turkiy so‘zlar). 1-qism. – Toshkent, 2000.

4. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2013, 306-b.

O‘ZBEK SHEVALARINING ADABIY TIL LEKSIKASIDAGI BO‘SHLIQLARNI TO‘LDIRISH IMKONIYATLARI

Hasanov Abdumannon Majidovich,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
abdumannonhasanov3137@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tili leksikasidagi bo‘shliqlar va ularni to‘ldirishda sheva so‘zlarining imkoniyatlari haqida munozara yuritiladi. Sheva so‘zlarining o‘zbek adabiy tili leksikasini boyitish imkoniyatlari taom va ovqatlanishga doir so‘zlar misolida talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar*: bo‘shliq, leksik bo‘shliq, sheva, shevaga xos so‘z, adabiy til, leksika.*

Annotation. *This article discusses the gaps in the lexicon of the Uzbek literary language and the possibilities of dialect words in filling them. The possibilities of enriching the vocabulary of the Uzbek literary language of dialectal words are interpreted on the example of words related to food and nutrition.*

Key words: *gaps, lexical gaps, dialect, dialectal word, literary language, lexicon.*

Barcha mavjudlik shakllari kabi til ham muayyan strukturaga ega ekan, uning ichki tuzilishida ham bo‘shliqlarning borligi tabiiy. Binobarin, “bor va yo‘q orasidagi tafovutni farqlash juda oddiy ko‘rinadi, biroq aslida unisi ham, bunisi ham o‘zaro mustahkam bog‘langan va shuning uchun ularni bir-biridan ajratish juda mushkul” [Sossyur, 2019: 16]. Bugungi zamonaviy fan uchun shu narsa aniqki, har qanday narsa va predmet mavjudlik-bo‘shliq komponentlarining uyg‘unligidan tashkil topadi. Til strukturasini mufassal o‘rgangan olimlar ham unda mavjud birliklar bilan bir qatorda mavjud bo‘lmagan, o‘rni bilinib turadigan bo‘shliqlar ham borligini qayd etadi. Shuningdek, ular bu holat tilning leksik sathida yaqqolroq namoyon bo‘lishini ham e’tirof etadilar. Xususan, F.Gumbolt

[Gumbolt, 1985: 300-304], F.de Sossyur qarashlarida [Sossyur, 2019: 133-134] til leksikasidagi “bo‘sh katakchalar”, leksik tizimdagi ba’zi paradigmalarda ikkinchi qutbning mavjud emasligi haqida jiddiy munozaralar yuritilgan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida bo‘shliq so‘ziga quyidagicha tavsif beriladi: 1. Ma’lum chegaralar bilan o‘ralgan bo‘sh joy; havol joy. 2. Cheksiz olam, fazo, osmon; cheki yo‘q bo‘sh joy. 3. Bo‘sh yotgan er, joy. 4. fiz. Havosiz joy, vakuum. [O‘TIL, 2020: 1, 424-425]. Mazkur izohdagi to‘ng‘ich semema sifatida “ma’lum chegaralar bilan o‘ralgan bo‘sh joy” tushunchasi o‘zbek tilida so‘zlashuvchilar uchun kundek ravshan. Shu tushuncha asosida shakllanuvchi leksik bo‘shliq tushunchasi ham leksik sistemadagi bo‘sh o‘rinni atashga xizmat qiladi.

Bizning ushbu maqolada bahs yuritiladigan leksik bo‘shliq tushunchasi yuqorida tavsiflangan izohga asoslanadi, unga ko‘ra leksik bo‘shliq – leksik tizimdagi muayyan yacheykaga mos keladigan va uning to‘kisligiga xizmat qiladigan nomemasiz tushuncha. Ya’ni, leksik tizimdagi boshqa birliklar bilan o‘zaro munosabatdagi (ma’lum chegaralar bilan o‘ralgan) nomsiz (bo‘sh) tushuncha (joy, o‘rin) leksik bo‘shliq hisoblanadi.

Tilda u yoki bu so‘zning paydo bo‘lishi zaruriyat va tasodifning o‘zaro bog‘liqligi asosida sodir bo‘ladi. Bu jarayonda zaruratning mavqeyi bir qadar ustuvor: muloqot jarayonida zarur ifoda uchun izlanayotgan, ammo topilmayotgan (hatto “tilning uchida turgan”) so‘z (nom) ham kommunikativ maqsad ro‘yobiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Garchi bunday tushunchani izoh yoki sharhlar orqali tushuntirish mumkin bo‘lsa-da, so‘zlovchi uchun ayni o‘sha tushunchaga mos til birligining mavjud bo‘lishi nutqiy zaruratga aylanadi.

Ongning tinimsiz taraqqiy etishi natijasida shakllanuvchi lisoniy ehtiyoj tilning barcha tushunchalarni nomlash borasidagi imkoniyatlari cheklanganligi natijasida yuzaga keladi. Til egalarining uzluksiz ijtimoiylashuvi, mehnat bilan shug‘ullanishlari, tabiat sir-sinoatlarini bilishga intilishlari natijasida tafakkur ham tez sur’atlar bilan rivojlanadi. Tafakkurda kechadigan in’ikos va anglash, bilimlarni umumlashtirish jarayonlari ongda har bir tushunchaning nomlanishini taqozo etadi. Ayni shu jarayonda ongda kechadigan kognitiv faoliyatni tilda ifodalashga intilish natijasi o‘laroq kommunikatsiya jarayonida lisoniy ehtiyoj aniq seziladi, bu ehtiyoj til va tafakkur birliklarining lakunar munosabatidan shakllanadi.

Til taraqqiyoti mazkur leksik bo‘shliqlarning tezroq to‘ldirilishini taqozo etadi [Quan-zhi, 2017: 751]. Shu bois yangi tushunchalar tezroq nomlanishga muvaffaq bo‘ladi. Til egalari nomlash kechimida yangi tushunchani atashda tilning ichki imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanishga intiladi. Zero, yangi tushunchaning jamoa uchun tushunilishi va ommalashuvchan bo‘lishi shu jihatga bog‘liq.

Borliq va undagi tushunchalarni idrok va in’ikos etilishida tafakkurning asosiy quroli bo‘lgan til muomala, muloqot jarayonida “ongning tarjimoni” sifatida barcha hissiy, aqliy tushunchalarni ifodalay olishda mukammallikka intilaveradi. Tafakkurning rivoji til rivojiga turtki berib turadi va o‘z navbatida tilning rivoji ham tafakkurning izchil rivojlanishiga yordam beradi [Gumbolt, 1985: 159]. Ammo tan olish kerakki, til harchand taraqqiy etsa-da, insonning cheksiz tafakkur va taxayyul olamini to‘la-to‘kis akslantirishga to‘laqonli erisha olmaydi. Shu nuqtayi nazardan, tilning taraqqiy etganlik darajasi unda tafakkurga xos tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarning etarlicha ekanligi bilan tavsiflanishi kerak. Biroq shu narsa aniqki, tafakkur tildan bir qadam oldinda taraqqiy etadi va shu sabab ham tilda uzluksiz ravishda leksik bo‘shliqlar paydo bo‘lib turadi. Bu leksik bo‘shliqlarning to‘ldirilishi ham jarayonni to‘xtatmaydi: tafakkurda yana yangi-yangi tushunchalar paydo bo‘laveradi.

Adabiy til leksikasidagi bo‘shliqlarni sheva so‘zlari bilan boyitishda dialektolog olimlardan Sh.Shoabdurahmonovning xizmatlari beqiyos. Olimning o‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari munosabatiga bag‘ishlangan tadqiqotlari bu boradagi boshqa tadqiqotchilarning ishlariga dasturulamal bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, turli o‘zbek shevalari leksikasini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlarda ham Sh.Shoabdurahmonovning tashabbuskorlik va rahbarlik roli bor.

Sh.Shoabdurahmonovning “So‘z xazinasi” nomli maqolasida ta’kidlanganidek, o‘zbek shevalarida adabiy tildagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘lgan minglab so‘zlar bor [Shoabdurahmonov, 1993: 26-30]. Biroq ularni adabiy til leksikasi uchun ahamiyatliligini asoslash va ommalashtirish, pirovardida me’yoriy lug‘atlarga kiritish oson kechmaydi. Chunki o‘zbek adabiy til leksikasining muayyan davridagi rivojlanish oqimi va jamiyatdagi lisoniy ehtiyojlar o‘zgacha tendensiyalar shakllanishini ham yuzaga keltiradi.

So‘zlashuv nutqining spontan tarzda kechishi, unda tuzatish va izohlash imkoniyatlarining kengligi, qolaversa, leksik birliklarning nutqda turlicha ma’noda qo‘llana olishi sabab til leksikasidagi bo‘shliqlar “osongina” bartaraf etiladi. Garchi shunday bo‘lsa-da, ayrim o‘rinlarda so‘zlovchining o‘z fikrini ifodalashga so‘z topolmay qolishi ham kuzatiladiki, bu yuksak darajada ongi taraqqiy etgan insonning barcha tushunchalarini ifodalovchi lingvistik birliklarning etarlicha mavjud emasligini yaqqol ko‘rsatib turadi.

Ayni shu kabi vaziyatlarda so‘zlovchi tilning barcha imkoniyatlaridan, hatto noadabiy va nofaol so‘zlardan ham foydalanishga majbur bo‘ladi. Ayniqsa bu vaziyatda so‘zlovchining o‘z shevasida mavjud bo‘lgan so‘zdan ham beixtiyor foydalanishi tabiiy hol. Zero, shaxsning lisoniy idroki uning shevasi muhitida

shakllangan va barcha tafakkur birliklari shu sheva prizmasidan o‘tib reallashadi.

Umuman tilning, uning adabiy shaklining ham leksik tarkibi bevosita umumiste’moldagi va keng ommaga tushunarli so‘zlardan tashkil topishi [Murodova, 2006: 112], birinchi navbatda, millat vakillarining so‘zlashuv (muloqot, suhbat) jarayonini optimallashtirish (qulaylashtirish) ehtiyojidan yuzaga keladi. Demakki, bu o‘rinda so‘zlashuv uslubiga xos birliklarni, ularning shakllanish va ommalashish xususiyatlarini e’tiborga olmasdan turib, tilning adabiy shakli, me’yoriy xususiyatlarini tavsiflash mumkin emas.

Til leksikasidagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirishni maqsad qilgan har qanday ziyoli, birinchi navbatda, mazkur leksik bo‘shliqni to‘ldirish imkoniyatiga ega bo‘lgan so‘zni tilning ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda bartaraf etishga intiladi. N.Mahmudov haqli ta’kidlaganidek, “xalq shevalaridan, ayni paytda o‘zbek tilining o‘z xolis yasalish imkonlaridan foydalanib ish ko‘rilsa, tilimizning tabiiy takomilini ta’minlamoq mumkin bo‘ladi” [Mahmudov, 2012: 77].

Tan olish kerakki, hozirgi kunda leksik bo‘shliqni so‘z yasalish tizimi orqali bartaraf etish ancha samarali va ommalashgan usul sanaladi. Shevaga xos so‘zlardan bu borada foydalanishning nisbatan nofaol ekanligi leksik bo‘shliqni individual tarzda to‘ldirishga harakat qilayotgan kishida etarli darajada dialektologik bilimlarning mavjud emasligi bilan ham bog‘liq. Qolaversa, adabiy til birliklari asosida va so‘z yasalish tizimining imkoniyatlari asosida “yaratilgan so‘z” nisbatan tez tushunilish va ommalashish imkoniyatlariga ega bo‘ladi. Biroq xalq shevalarida etarlicha ifoda imkoniyatiga ega bo‘lgan tub so‘zlar mavjud bo‘la turib, yangi-yangi yasalmalar bilan leksikani to‘ldirish ham maqsadga muvofiq emas.

Tahlillardan sezish mumkinki, til leksikasining boyishida tafakkur hamda tilning mutanosib rivojlanishini ta’minlovchi va taqozo etuvchi leksik bo‘shliqlar muhim ahamiyatga ega. Aynan leksik bo‘shliqlar til sohibi (va iste’molchisi)ga bo‘shliqlarni to‘ldirish zaruratini eslatib turadi. Mazkur bo‘shliqlarning to‘ldirilish mexanizmlari tilning ichki imkoniyatlari va qonuniyatlari asosida tartibga solinadi.

Barcha tillardagi kabi o‘zbek tilida ham maishiy turmush, shaxsga xos xususiyatlar va harakatlar, ijtimoiy munosabatlar, asosiy xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq so‘zlar kundalik nutqda faol qo‘llanadi. Bu esa mazkur leksik-semantik guruhga oid so‘zlarning nutq jarayonidagi, demakki, til leksikasidagi ahamiyatini tavsiflashga xizmat qiladi. Adabiy tildagi leksik bo‘shliqlarni to‘ldirishda ham mazkur jihatlarga e’tibor qaratish katta ahamiyatga ega. Bu bir tomondan, til leksikasini to‘ldirishga, to‘kislashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan to‘ldirilayotgan leksik bo‘shliqning dolzarbligini, muhimligini tavsiflaydi.

Ayniqsa, adabiy tildagi leksik boʻshliqning shevaga xos soʻzlar bilan toʻldirilishi adabiy tilning til egalari lisoniy ehtiyojlariga yanada muvofiqlashishini ta’minlaydi.

Matn hajmi cheklangani bois biz ushbu maqolada oshxona va ovqatlanish bilan bogʻliq adabiy tildagi ayrim leksik boʻshliqlarni toʻldiruvchi shevaga xos soʻzlar xususida mulohazalarimizni bildiramiz**.** Kundalik soʻzlashuv jarayonida faol qoʻllaniluvchi til birliklarining muayyan qismini oshxona va ovqatlanish bilan bogʻliq soʻzlar tashkil etadi. Quyida oʻzbek adabiy tilda uchramaydigan, biroq muhim ahamiyatga ega boʻlgan shu sohaga oid ayrim shevaga xos soʻzlarga diqqat qaratamiz.

Non tandirdan uzib olingach, uni maydalab toʻgʻrab, ozroq saryogʻ qoʻshib aralashtirib, gʻijimlab tayyorlanadigan egulik Oʻzbekistonning turli hududlaridagi aholi uchun tanish. Mazkur egulikni ayrim qarluq tip shevalarda *chəŋŋɔl* [Nafasov, 2011: 87]. deb atashsa, aksar qipchoq shevalarida *jənchm’ch* [Joʻraev, 2011: 87], *gʻijm’ch* [Nafasov, 2011: 107] deyishadi. Biroq koʻpchilik uchun tanish va tansiq bu taom nomi adabiy til leksikasi uchun leksik boʻshliq hisoblanadi.

Ma’lumki, “hamma davrlarda ham nom qoʻyish tamoyili umumxalq tili va uning vositalarini ma’lum turmush doiralariga jalb qilish asosida yuzaga kelgan” [Xudayarova, 2009: 55]. Yuqorida tavsiflangan taomni nomlovchi *jənchm’ch* soʻzi *yanchmoq* fe’li bilan aloqador. Biroq yanchmoq fe’li, odatda, qattiq narsalarni maydalashni ifodalaydi [OʻTIL, 2020: 5, 113].

Changol soʻzi fors-tojik tilidan oʻzlashgan. Shuningdek, bu soʻz panja, chang ma’nolariga ham egaki, u qush va hayvonlarning ham “ushlash” a’zosini ifodalay beradi [OʻTIL, 2020: 4, 454]. Ayrim qipchoq shevalarida qoʻllaniluvchi *gʻijmish* soʻzi esa mazkur egulikni tayyorlash usuliga ancha mos tarzda shakllangan va yuqoridagi variantlardan birmuncha ustunlikka ega. Shu oʻrinda gʻijim, gʻijimlamoq soʻzlari yasalishiga asos boʻlgan va eski oʻzbek tilida mavjud boʻlgan *gʻijimoq* [Rahmatullaev, 200: 592] fe’lining ayrim shevalarda hali ham qoʻllanayotganligini ta’kidlash lozim.

Xalq pazandachiligining oʻziga xosligi shundaki, unda muayyan masalliq(lar) bilan turlicha taomlar tayyorlash mumkin. Biror masalliqning taomga koʻp yoki kam solinishi ham ovqat turining farqlanishini keltirib chiqaradi. Xususan, osh (palov) hamda shavlaning farqlanishi bunga dalil. Shuningdek, taomning tayyorlanish jarayoni, usuli, uning nima bilan iste’mol qilinishi, qaysi fasl (mavsum)da tayyorlanishi kabilar ham ularning bir-biridan tafovutlanishini yuzaga keltiradi. Tabiiyki, bu tafovut taomlarning nomida ham oʻz aksini topadi.

Qovoqni sutda qaynatib tayyorlanadigan taom – *sh’rkəd’* (QOʻXS, 371),

yupqa orasiga sutli atala surtib tayyorlanadigan egulik – *g‘əlb’nd’* [Murodova, 2006: 157] guruchni ayronda qaynatib tayyorlanadigan taom – *shull’ɔsh* [Jo‘raev X., 1981: 142] kabilar ham muayyan farqli jihatlari bilan boshqa o‘ziga o‘xshash taomlardan farqlanadi. Bu taomlarning tayyorlanishidagi hududiy farqlanish ularning nomlanishiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, bu taomlar tarkibining (va mazasining) juz’iy o‘zgachaliklari ularning bir-biridan farqlanishini taqozo etadi.

Sut va sut mahsulotlaridan tayyorlanadigan taom turlari o‘zbek xalqida ancha ko‘p. Yuziga saryog‘ qo‘shib tanavvul qilinadigan qurtoba O‘zbekistonning turli hududlari uchun tanish. Yuqori Qashqadaryo shevalarida bu xil qurtoba *shərtəbə* [Jo‘raev, 2011: 159], *dɔq* [Jo‘raev, 2011: 130] kabi nomlar bilan ataladi. Bizningcha, bu xil taomni *shirtoba* deb atash qulay. Chunki bu so‘z qurtobani eslatishdan tashqari shir (sut) bilan ham aloqador. Shuningdek, yuziga saryog‘ qo‘shib suziladigan (iste’mol qilinadigan) sut ham shevalarda alohida nomlangan. Turk-kaltatoy shevalarida uni *sh’rrɔg‘an* (TKSh, 142) deb atashadi.

Nikoh to‘yida yangi so‘yilgan qo‘yning to‘shidan tayyorlanadigan *təsh* [Xudayarova, 2009: 82] nomli taom nomi ko‘pgina shevalarda uchraydi. Shu nom asosida yasalgan *təshl’k** (“kelinning yangalari tomonidan to‘shni olib borish; kuyov tomonidan jo‘ralariga to‘y oldidan uyushtiriladigan ziyofat”) so‘zi ham shu shevalarda faol qo‘llanadi. Garchi to‘y marosimi bilan bog‘liq va maxsus tayyorlanuvchi taom bo‘lsa-da, to‘sh aksariyat shevalar uchun tushunarli. Bu esa uning aqalli to‘sh so‘zining sememasi sifatida O‘TILda qayd etilishiga imtiyoz beradi.

Ayrim ovqatlarning pishirilish jarayonidagi yarim tayyor holati ham o‘zbek shevalarida o‘z nomiga ega. Ayrim suyuq ovqatlar uchun qovurilgan go‘sht, piyoz va boshqa masalliqlarning suv solinguncha bo‘lgan yarim tayyor holati Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalarida *jəz* [Muhammadjonov, 1981: 67] deb ataladi (taqqoslang: *zirbak*). Mazkur so‘zning qovurish jarayoni bilan bog‘liqligi uning tushunilishini ham osonlashtiradi, albatta.

Kishining ovqatni kam, ko‘p yoki me’yorida iste’mol qilishi uning ta’bi, didi va ovqatlanish madaniyatiga bog‘liq.

Ovqatning muayyan xohish bilan eyilishi tananing huzurlanishi, shuningdek, ovqatning oson hazm bo‘lishi uchun ham juda zarur. Ayrim kuchli (yog‘li) va badhazm ovqatlar tezda ta’bga salbiy ta’sir qiladi. Shu bois bu xil ovqatlar biror egulik bilan birgalikda, qo‘shib iste’mol qilinadi. Bu tarzda ovqatga qo‘shib tanovul qilinadigan engil ovqatni Janubiy Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida *kəpsh’r* [O‘rozov, 1978: 94] deb atashadi. Mazkur tushuncha pomidor, bodring kabi sabzavotlardan tayyorlanadigan salatlardan, shuningdek, ichgulikdan keyin eyiladigan gazakdan muayyan tafovutga ega. Bu esa mazkur

tushunchani adabiy til leksikasiga olib kirish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

Ovqatlanish jarayonida dastlab suyuq va tez hazm bo‘luvchi taomni eyish lozimligi qadimdan ma’lum. Shunday xususiyatli birinchi taomni nomlovchi *p’rsətənə* (TVO‘Sh, 90) so‘zi ham adabiy til uchun leksik bo‘shliq hisoblanadi.

Aksar o‘zbek xonadonlarida bir mahal nonushta uchun ikki xil ovqat pishirish noodatiy hisoblansa-da, to‘yxona, restoran va boshqa ovqatlanish joylarida, shuningdek, xonadonlarda tashkil etiladigan ziyofat va marosimlarda ikki xil ovqat tayyorlanishi va dasturxonga tortilishi odat tusiga kirgan. Bu esa mazkur jarayon uchun muhim bo‘lgan pirsatana so‘zining adabiylashuviga lisoniy-nutqiy ehtiyoj mavjudligini anglatadi.

“Ovqatni eng saralarini (yoki faqat muayyan turini) eyuvchi” ma’nosida qo‘llaniluvchi *gultɔmɔq* so‘zi ham aksar shevalarda faol qo‘llaniladi. Bu so‘z qiltomoq so‘zi bilan ma’nodoshdek tuyulsa-da, muayyan kasallikni emas, “ta’bi nozik”likni kesatib ifodalashga xizmat qiladi.

Buxoro, Navoiy hududlaridagi ayrim shevalarda mazaxo‘rak bo‘lib qolish *sh’nn’kmɔq*//*sh’rn’kmɔq* [G‘aybullaev, 2017: 154] so‘zi orqali ifodalanadi. “Biror yoqimli egulikning mazasiga o‘rganib qolish”dan tashqari umuman, “qulay, oson, yoqimli holatga o‘rganib qolish”ni ham ifodalovchi bu so‘z adabiy til uchun leksik bo‘shliqdir. Bu tushunchani mazaxo‘rak bo‘lmoq [O‘TIL, 2020: 2, 525] tarzida ifodalashdan ko‘ra yaxlit so‘z bilan ifodalash qulay, albatta. Shu ehtiyojdan kelib chiqib mazkur so‘zni adabiylashtirish mumkin.

Ovqatning xushta’m, mazali chiqishida unga solinadigan masalliqlar, xususan, ziravorlarning ahamiyati katta. Pazandachilikda qo‘llaniluvchi murch, zira kabi ziravorlar orasida qalampirning maydalanganini (tolqonini) nomlovchi *səbzək* [Suvonova, 2019: 20] so‘zi ayrim qipchoq shevalarida uchraydi. Ko‘pchilik murchni qalampirning tolqoni sifatida tushunishi mumkin, biroq u boshqa o‘simlik mahsuloti. Shu boisdan sabzak$_{(s)}$ so‘zini mazkur tushunchalarni farqlovchi birlik sifatida adabiylashtirish zarur.

Ovqat masalliqlari orasida yormaning ham o‘z o‘rni bor. O‘g‘uz shevalarida yormani tayyorlash, ya’ni bug‘doy, sholi kabilarni kelida tuyib, qovuzidan tozalash *kɵ:zəmək* [O‘XShL, 1971: 149] *ko‘vzəmɔq* [Allaberdiev, 2018: 190] so‘zlari orqali ifodalanadi. O‘TILda bu tushunchani ifodalash oqlamoq so‘ziga yuklatilgan. Bizningcha, bu tushunchani oqlamoq so‘zi etarlicha aniq va to‘kis ifodalay olmaydi. Shu bois bu tushunchani ko‘vzamoq so‘zi bilan ifodalash lozim. Bu so‘zning qovuz bilan aloqadorligi ham uning adabiylashuviga imtiyoz beradi.

Ovqatni pishirish jarayonida uning qanday mazaga ega bo‘layotganini aniqlash ham juda muhim. Shu bois pazanda ovqat pishirish jarayonida bir necha bor uning ta’mini tekshiradi. Shuningdek, mazkur jarayonda u ovqatni boshqa

kishiga tottirib, uning fikr-munosabatini bilishi ham mumkin. Bu pazandachilik tajribasi juda uzoq tarixga ega. Shuningdek, mazkur jarayonda qo‘llaniluvchi *chəshnə* so‘zining ham uzoq qo‘llanilish tarixi bor.

Bu so‘z O‘TILda qayd etilmagan bo‘lsa-da, undan yasalgan chashnachilik, chashnagirlik so‘zlariga izoh berilgan [O‘TIL, 2020: 4, 465]. Bizningcha, ko‘pgina shevalarda qo‘llaniluvchi *chəshnə* so‘zi ham adabiy til birligi sifatida tan olinishi kerak. Chunki bu so‘z fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lsa-da, o‘zbek xalqining ko‘pchiligiga tushunarli va muhim ahamiyatga ega. Hatto ayrim shevalarda uning ko‘chma ma’noda “oldi bilan beriladigan bo‘nak, avans” [Jomonov, 1991: 174] ma’nosida qo‘llanilishi ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Yuqorida tahlilga tortilgan so‘zlarning o‘zi ham o‘zbek xalq shevalarining adabiy til leksikasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirishda qanday imkoniyatga ega ekanligini ko‘rsatib turibdi. Bu imkoniyatlarni chuqur o‘rganish va tilimiz rivoji uchun safarbar qilish yosh tadqiqotchilardan tizimli izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Mazkur tadqiqotlarning amaliy ahamiyat kasb etishi va joriylanishida etuk shevashunoslarimizning rahnamoligi va xayrixohligi ham zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Allaberdiyev A. Buxoro o‘g‘uz shevalari leksikasi: Fil.f.f.d (PhD) diss. –Toshkent:, 2018. – 239 b.

2. Гумболдт В. Язык и философия культуры. –Москва, 1985. С.300-304.

3. Жомонов Р. Ўзбек тилининг изоҳли луғати учун диалектизмлардан сўз танлаш принциплари ва уларнинг берилиши: Филол. фанлари номзоди... дис. –Тошкент, 1991. – 203 б.

4. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари (тасниф, текстлар ва луғат). –Тошкент: Фан, 1969. – 168 b.

5. Жўраев Х. Ўзбек тили турк-калтатой шевасининг фонетик ва лексик хусусиятлари (Самарқанд, Жиззах, Сирдарё областлари материаллари асосида). –Тошкент: Фан, 1981. – 144 b.

6. Йўлдошев Р. Тошҳовуз вилоятидаги ўзбек шеваларининг лекцик хусусиятлари: Филол. фан.номз. дисс. –Тошкент, 2002. – 155 б.

7. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig‘i. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi NMIU, 2012.

8. Муродова Н. Ўзбек тили Навоий вилояти шеваларининг лингво-ареал талқини: Филол. фан.д-ри...дисс. –Тошкент, 2006. – 236 б.

9. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари (қарлуқ ва қипчоқ тип материаллари асосида). –Тошкент, 1981. – 179 b.

10. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. –Тошкент: Муҳаррир, 2011. – 468 б.

11. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. –Тошкент, 2000.

12. Suvonova R. Qipchoq shevalariga xos so‘zlar lug‘ati. – Samarqand: SamDU, 2019. – 58 b.

13. Ferdinand de Sossyur. Umumiy tilshunoslik kursi (fransuz tilidan I. Mirzaev tarjimasi). –Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019.

14. Худаярова М. Ўзбек тилидаги таом номларининг лингвистик таҳлили (Қорақалпоғистон ҳудуди материаллари асосида): Филол. фанлари номзоди... дис. –Тошкент, 2009. – 134 б.

15. Шоабдураҳмонов Ш. Сўз хазинаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1993 йил. – №5-6. – Б. 26-30.

16. Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лекцикаси: Филол. фанлари номзоди... дис. –Тошкент, 1999. – 174 б.

17. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. (ЎТИЛ) –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. 5 жилдлик.

18. Ўзбек халқ шевалари луғати (ЎХШЛ). –Тошкент: Фан, 1971. – 409.

19. Ўрозов Е. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978. – 136 б.

20. Ғайбуллаев С. Қоракўл шевасининг таровати. –Тошкент: Ниҳол, 2017. –196 б.

BOYSUN TUMANI SHEVASIDA FONETIK DIALEKTIZMLAR

Xolova Muyassar Abdulhakimovna,
TerDU tayanch doktoranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek shevashunosligi tarixiy taraqqiyoti haqida fikrlar keltirilib, dialektologiya sohasida rus olimlar amalga oshirgan tadqiqotlarga to‘xtab o‘tiladi. Boysun tumani shevasining o‘zbek dialektologik guruhlar tarkibidagi tutgan o‘rniga munosabat bildirilgan. Shu bilan birgalikda tuman shevasida mavjud fonetik dialektizmlar misolida fonetik tarkibi hamda o‘zgarishlar haqida xulosalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar*: O‘zbek shevashunosligi, dialektologiya sohasida rus olimlari, qipchoq shevasi, Boysun tumani, fonetik dialektizmlar, polisemantik ma’no, til oldi, til orqa, qattiq talaffuz qilish, yumshoq talaffuz qilish, transkripsion belgilar.*

Annotation. *This article examines the historical development of Uzbek dialectology and the research conducted by Russian scientists in the field of dialectology.The role of the Baysun district dialect in the structure of Uzbek dialectological groups is discussed.At the same time, conclusions are drawn about the phonetic structure and changes on the example of existing phonetic dialectisms in the nebulous dialect.*

Keywords: *Uzbek dialectology, Russian dialectologists, Kipchak dialect, Baysun district, phonetic dialectisms, polysemy, pre-language, back of the language, hard and soft pronunciation, transcription features.*

Shevashunoslikka oid tadqiqotlar XX asrning 20–30-yillarida boshlangan bo‘lsa, bu ishlarni Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, I.I.Zarubin singari rus olimlari tomonidan amalga oshirilganligini e’tirof etmaslik mushkul. Sobiq SSSR davrida o‘zbek tili yetarli darajada keng imkoniyatlarga ega bo‘lmasa-da, rus tilshunoslari, xususan, shevashunoslar tomonidan ilmiy asoslarga tayanilgan holda tilimiz va uning ichki boyish manbasi bo‘lib xizmat qiluvchi shevalarimizni o‘rganish uchun sa’y-harakatlar olib borildi. Rus olimlari o‘z ilmiy ishlarida o‘zbek adabiy tilini me’yorga keltirish ularning shevalarini atroflicha o‘rganish orqali amalga oshishi mumkinligini ta’kidladilar. O‘zbek tilshunosligida shevalarning fonetik, leksik, grammatik, xususiyatlariga oid T.Yo‘ldoshev [6, 34], S.Ibragimov [5, 56], Q.Muhammadjonov [7, 44], N.Rajabov [16, 30], olim X.Doniyorov [4, 28] o‘zbek xalqinining shakllanishida qipchoqlar asosiy o‘rinni egallagan deb hisoblaydi va Vahobovning fikriga qo‘shilgan holda, o‘zbeklar va ularning shevalarining yuzaga chiqishining uch guruhga bo‘lib ko‘rsatadi [19, 57]: 1. turk-o‘zbeklar; 2. qipchoq-o‘zbeklar; 3. o‘g‘uz-o‘zbeklar. Qipchoq shevasi qadimgi qipchoq tili ta’sirida yuzaga kelgan bo‘lib, qipchoq tili qipchoq qabilalari tili hisoblanadi va turkiy tillar guruhiga kiradi. Umumiy dashti qipchoq nomi bilan mashhur bo‘lgan Yevroosiyo mintaqalarida tarqalgan bu til XIII asrdan boshlab Oltin O‘rdaning o‘zaro muloqoti uchun mo‘ljallangan til bo‘lgan, vaqt o‘tishi bilan qorachoy-bolqor, tatar, qozoq, boshqird, qoraqalpoq kabi tillarning ham asosiga kirib o‘zlasha borgan. Tadqiqotchi A.M.Mamatov 1928-yillarda qrim-tatar adabiy tilning asosini fonetik va leksik sath doirasida qipchoq shevasi egallaganini aytib o‘tgan[8, 38]. Qipchoq shevasining fonetik tarkibidagi ba’zi fonetik o‘zgarish elementlarining nafaqat qrim-tatar tarkibidagi shevalar tarkibida qo‘miq, qorachoy-bolqar, qarayim kabi g‘arbiy hududda, tatar, boshqir kabi shimoliy va qozoq, qoraqalpoq, qirg‘iz kabi sharqiy hudud kuzatilishini aytib o‘tadi. Qipchoq tillari o‘z navbatida g‘arbiy va sharqiy tillariga bo‘linadi.

G‘arbiy va sharqiy qipchoq tillarining o‘ziga xos farqi au diftongi rivojlanishi hisoblanadi: g‘arbiy qipchoqlarda u saqlangan (ta^{u} – “tog‘”, masalan, qozoq

tilida), sharqiylarda qadimgi darajada “oᵘ”ga o‘zgargan (qirg‘izcha toᵒ, janubiy oltoycha tuᵘ, shevalarida toᵘ) [23]. Boysun shevasi “ǯ”lovchi vakillarining shevalarida esa aynan g‘arbiy qipchoq tillarida mavjud taᵘ\ taᵛ [tog‘] shaklida talaffuz etilishini kuzatish mumkin.

O‘zbek adabiy tili hozirgi bosqichga qadar uzoq taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tgan. Uzoq o‘tmishda urug‘-urug‘, qabila-qabila bo‘lib hayot kechirganlaridan so‘ng asta-sekin elat, xalq bo‘lib tashkil topib, shu hududda yashovchi millatlarning tillari ham ushbu jarayonni boshdan kechirgan. Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiy xalqlar turli qabilalar tillarining umumiy va farqli jihatlariga, differensatsiya [24] va integratsiyasiga [25] to‘xtalib o‘tadi. O‘zbek dialektlari o‘zbek adabiy tilning ichki boyish manbayi hisoblanadi. Xususan, Boysun dialektal birliklariga e’tibor qiladigan bo‘lsak, Zarubin o‘zbek shevalarinini to‘rt guruhga bo‘lib, O‘zbekiston hududining katta qismida yashovchi qipchoq shevalarini hisobga kiritmagan, Yudaxin avval o‘zbek shevalarini boshqa (tojik) shevalar bilan munosabatiga ko‘ra tasniflasa, keyinroq mufassal tanishgan holda shevalarni 5 guruhga: 1. Toshkent. 2. Farg‘ona. 3. Qipchoq. 4. Xiva (Xiva o‘g‘uz). 5. Shimoliy o‘zbek shevalariga bo‘lib, Boysun shevasini qipchoq guruhiga kiritadi. Prof. Ye.D.Polivanov o‘z tasnifida metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) va gibridizatsiya (tarkibiy jihatdan turli tillarning chatishuvi)ni hisobga olib, eronlashgan va eronlashmagan guruhlarga bo‘lib chiqadi. Boysun tumanining markazga yaqin bilingvizm ta’siridagi hududlar shevasi 1-tip Samarqand–Buxoro shevasiga, “ǯ”lovchi shevalar esa uchinchi dialekt O‘rta o‘zbek shevalariga kiritiladi. Ammo Sh.Shoroabdurahmonov Y.D.Polivanovning nazariyasi tashqi faktorlarga bog‘lab tushuntiril-ganligi, o‘zbek tilining shevalarida ro‘y bergan ichki taraqqiyot natijalari hisobga olmaganligini ta’kidlab, ayrim nazariy xulosalarida chalg‘ish borligini aytib o‘tadi. A.K.Borovkov [18, 55] tasnifiga ko‘ra sheva Shayboniy – o‘zbek yoki “ǯ”lovchi dialektlar tipiga, G‘ozi Olim tasnifi bo‘yicha o‘zbek-qipchoq guruhiga, V.V.Reshetov [1, 7] tasnifiga asosan, o‘zbek tilining shimoliy-g‘arbiy guruhining qipchoq lahjasiga kiradi. Tilning rivojlanish jarayonida uning lug‘at tarkibi (leksikasi) boshqa sohalarga qaraganda sezilarli, jiddiy o‘zgarishlarga uchraydi. 2006-2008 yillar oralig‘ida nashr etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” tarkibida milliy tilga kiruvchi adabiy til va shevaga oid 80 000 dan ortiq leksikaning izohi berib o‘tilgan, vaholanki, xalqning o‘zligini namoyon qiluvchi dialektal barqaror birliklar tilimizdagi lisoniy birliklarning shakl va mazmuniy imkoniyati keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi.

Har qanday xalq hayotida paydo bo‘ladigan voqea-hodisalar dastlab tilning leksikasida, undan so‘ng fonetik va grammatik tizimida kuzatiladi. Shu sababli leksika til tizimini tadrijiy rivojlanuvchi, xalq maishiy hayoti va saviyasini

belgilovchi me’yordir. O‘zbek xalqi o‘zining tarixiy taraqqiyot jarayonida g‘oyat murakkab va turli bosqichlarni o‘z boshidan kechirdi [15], turli xalqlar bilan ijtimoiy, siyosiy va madaniy munosabatda bo‘lib, nafaqat o‘z leksikasini, balki til strukturasidagi boshqa sohalarini ham boyitdi. Shu sababli o‘zbek tilining lug‘at tarkibi, til tizimi uzoq davrning mahsuli bo‘lib, shu xalqning barcha a’zolari uchun tushunarli, iqtisodiy-ijtimoiy turmushda ko‘p qo‘llaniladigan, aniq ma’no bera oladigan, so‘z yasalishi va yasash uchun asos bo‘ladigan juda boy leksema, so‘z va so‘zshakllariga, frazeologik birliklarga egadir.

Hozirga qadar tadqiqotlarni kuzatgan holda aytish mumkinki, aksariyat tadqiqotlar shevalarning mavzuviy bo‘linuvchanligi boshqa turkiy til oilalariga qiyoslash orqali [17, 67] olib borilgan. B.I.Tsintsius [22, 4] shevaga oid lug‘at ma’lumotlarini qayta ishlashda mavzuviy guruhlashning bir necha bosqichlarni taklif qiladi. A.G.Shayxulov [21] esa shevalarni mavzulashtirib o‘rganishdagi ahamiyatini ta’kidlash maqsadida, leksik-tematik tasniflash etnogenetik jihatdan boshqa turk tillari bilan bog‘liq tegishli leksik tuzilmalarning semantik xususiyatlarini o‘rganishga imkon berishini aytib o‘tadi.

Bu boradagi K.M.Musaev [9, 25] hamda R.Abdina [2, 107] fikrlarini ham hisobga olgan holda biz Boysun shevasiga xos so‘zlarni quyidagicha tasniflashni taklif etamiz. Bular: 1. Fonetik dialektizmlar. 2. Leksik dialektizmlar. 3. Semantik dialektizmlar. 4. Grammatik dialektizmlar.

Fonetik dialektizmlar. Dialektizmning ushbu turiga adabiy til me’yorlaridan fonetik tarkibiga ko‘ra farqlanuvchi, ammo semantik qurilishiga ko‘ra bir ma’noda qo‘llanuvchi so‘zlar kiradi. M.: Ǯűgän [jugan] ~ yugan (ad.t): – Saman otini berib edi. Nuqra juganlari bilan...Huv, opto‘ymas, yebto‘ymas ekan bu hukumat. [Sh. Xolmirzaev. Qadimda bo‘lgan ekan. – B. 207.]; čälvār (cholvor) ~ shalvar (ad.t): Butlari blr qarichcha yirtiq *cholvorimni* kiydim. *Cholvorimni* atayin yirtib qo‘yibman. [T.Murod. От кишнаган оқшом. –B.14.]; šāvdiramāq (shovdiramoq) ~ shaldiramoq (ad.t): So‘ng shamol tomorqadagi daraxtlarni silkitdimi, tom ustiga *shovdirab* yomg‘ir suvi to‘kildi. [Sh.Xolmirzayev. Ўн саккизга кирмаган ким бор. – Б. 3.]; – *Baqqa* qara!-“Ha-a!” degan ingichka ovoz va xotin kishining tegajaklik qilib kulgani eshitildi. [Sh.Xolmirzayev. Ўн саккизга кирмаган ким бор.–Б. 9.]; tuvāq (тувоқ) ~ товоқ (ад.т): Muslima buvi t*uvoqni* qozon chetiga joylashtirib qo‘ydi-da... [Sh.Xolmirzayev. Ўн саккизга кирмаган ким бор. – Б. 27.] Boysun tumanida 1970-yillar bilan 2020-yillar oralig‘idagi fonetik so‘zlashuv jarayoni haqida keksalardan so‘ralganda, ular yosh avlodning hozirga kelib deyarli “ǯ” tovushini qo‘shib gapirmaslikka intilishlarini ta’kidlashdi. Vohada (ayniqsa, tumanning ichidagi arallalar “Gaza”, “Ariq usti”, “Poygaboshi”, “Tuzbozor”, “Obi”, “Kosiblar”, “Toqchi”, “Chorchinor”) bu tumanga kelin bo‘lib kelgan vakilalar (“Pulhokim”, “Dashtig‘oz”, “Inkobod”,

“Ko‘lqamish (Kofrun)”, “Boshrabot”, “Chilonzor”, “Xo‘jabulg‘on”, “Danajom (Dahnaijom)”, “Shifobuloq”, “Qizilnavr”, “Tillakamar” “ǯ”lovchi sheva mahallalaridan) bilan bo‘lgan suhbatda ham ular vaqt o‘tishi bilan o‘z shevalarini unutayotganlarini aytib o‘tishdi[14]. Tumanlar shevasiga qiyosan o‘rganilganda shevadagi fonetik-leksik elementlarning adabiy til bilan farqlanishi barobarida XV asrda amalda bo‘lgan eski o‘zbek adabiy tili bilan umumiyligini saqlab qolgan. Fikrimiz dalili sifatida Navoiy asarlari lug‘atida keltirilgan ba’zi so‘zlardan misol keltiramiz. I tom:

gilä-gila [20, I, 401] (gina), gögird-go‘gird [20, I, 407] (gugurt), dājïmγï – dayimg‘i [20, I, 497] (doimgi), jeti – yeti [20, I, 528] (etti), ajāγlan – ayog‘lan [20, I, 48] (oyoqyalang) älälmān – alamon [20, I, 77] (olomon), āǯrïγ – ajrig‘ [20, I, 54] (ajriq), azā – azo [20, I, 60] (aza), ämānat – amonat [20, I, 87] omonat, bűltűrγï – bulturg‘i [20, I, 293] bulturgi, äččïγ – achchig‘ [20, I, 150] achchiq, äjāγlïq – ayog‘liq (engiltaklik) \ äjāγlïq – ayog‘liq (oyoqqa kirmoq, oyoqda yurmoq) [20, I, 48], ävqāt – avqot (ovqat)/avqot (vaqt) [20, I, 34], ändäk – andak [20, I, 94] (ozgina), ālqāmāq – alqamoq [20, I, 82] (olqishlamoq), beǯon – bejon [20, I, 258] (quvvati yo‘q); II tom: jïrtuq – yirtuq [80] (yirtiq), känāb – kanab [20, 96] (kanop), kārvān – korvon [20, II,128] (karvon), kättägärān – kattagaron (bu so‘z tumanda yoshi ulug‘larga nisbatan qo‘llanilsa, “Xazoyin ul-maoniy” asarida bu so‘z og‘ir-vazmin ma’nosida ishlatilib, polisemantik ma’no ifodalagan) [20, II,399] kabilar.

S.Rahimov Surxondaryo shevalarini tadqiq qilar ekan, “j”(y)lovchi shevalarni ikkiga bo‘lib, viloyat hududining janubi-g‘arbiy va shimoliy-g‘arbiy hududlarga tegishli tuman qishloqlaridan Rabot (hozirda Boshrabot), Kofrun (hozirda Ko‘lqamish), Bandixon (hozirda alohida tuman maqomiga ega), To‘da, Xo‘jabulg‘on, Tillakamar, Munchoq, Dashtig‘oz, Pulhokim, Pudina, Padang kabi qishloqlarni birinchi “ǯ” (j) lovchi sheva vakillari istiqomat qilishini va bunda so‘z, co‘zshakllar va qo‘shimchalarning qo‘llanishida til oldi yoki til orqaliligi yoki qattiq yumshoq talaffuz qilinishi, affiks va qo‘shimchalar tarkibiy qismiga bog‘liqligini ta’kidlaydi (barcha misollar iloji boricha kontekst tarkibida berilishiga harakat qilindi). M.: sovib~sävűb//qurib~qurub: *sāvub tārtkan bűjrini Tāvlar tāšin közläjdi* [3, 260] *yoki Befarzändni bāuvri bölädi kāvāb, Söz ajtmāqlik ätägä bölädi savāb* [3, 235]*, Bäländ tāylar tävriga ǯerlär titrär ǯāvrigä…*[3, 258]. Ushbu misollarda kāvāb [kavob, kabob (ad.t)], yāvr [jovr, jabr (ad.t)] kabi shevaga xos birliklar tarkibida spirintizatsiya kuzatiladi.

Quyida Boysun shevasining fonetik tarkibiga oid ayrim qaydlarni ko‘rib o‘tish mumkin [26]. Boysun tumani barcha qipchoq sheva vakillari uchun qayd etilgan lotin grafikasiga asoslangan prof. S.Ashirboev[1, 25] tasnifiga asoslanilganda ichida *ä, a, ā; e, є, ö, o, i, i:, ï, ï:, i, u, ű; i:, ï:* kabi unlilar

tizimi mavjud[1, 33]. Transkripsion belgilar jahon standarti bo‘yicha lotin grafikasiga asoslangani holda undoshlar tizimida quyidagicha transkripsion belgilarda farqlar seziladi: y ~ j; g‘ ~ γ; j ~ ǯ; ch ~ č; sh ~ š; ng ~ ŋ va hokazo. J ~ y (y) tovushi o‘rniga ǯ ~ j (j) tovushi qo‘llanishi o‘rinlidir. M.: Öŋ qolniŋ sāqasidäj, **ǯilqiniŋ** mālqasidäj,.. **ǯājlāvdan** qājtqan qozidaj, Kākillär täjläb **ǯürišing**[3, 226]. Dashtig‘oz, Pulhokim, Inkabod, Ko‘lqamish (Kofrun), To‘da, Chilonzor, Xo‘jabulg‘on, Danaijom, Qizilnavr, Tillakamar unlilar juftligida singarmonizm birinchi planga chiqadi: kändir (kendir) / täkä (echkining erkagi) / bäjbiččä (boybichcha) / čāri (to‘rt yoshli kichik tuyoqli mol) / qāntār (qantor, ya’ni ayiq) / āvuš (og‘ish). Unlilar qo‘llanishi orqali so‘zlar omonimligini yuzaga kelishi (bunda kontekstdagi boshqa so‘zlar tarkibidagi unlilar ta’sirini ham unutmaslik darkor) kuzatiladi: **āvqātni suz** (dasturxonga ovqat tortmoq) / **mämäŋdi sijir süzipti** (ozor bermoq); **käpä** (vaqtinchalik uy, boshpana), **käpä** (og‘izga ma’lum bir miqdorda, kaftga teng miqdorda solmoq, kapalamoq), **siz** (olmosh), **si:z** (suv sizmoq). Gumatak, Qayroq, Boshrabot, Shifobuloq kabi qishloqlarida **a ~ ä** va **i ~ i** kabi til oldi, lablanmagan tovushlarining til orqa **o ~ ā** tovushi kabi talaffuz qilinishi kuzatiladi: jāl**ā**nγāč (yal**a**ng‘och). Bālādan *b**ā**šqā* batärdi[r], Körmägän xāvfu xātardi[r] [3, 197].

A ~ a (a) til orqa, lablanmagan, quyi keng va **o ~ ā** (o) til orqa, lablangan, quyi keng unlilarning bir-birining o‘rnida kelish holatini ko‘rishimiz mumkin (tovushlar o‘zgarishini to‘laqonli ko‘rsatish maqsadida transkripsiya orqali berilishi ma’qul topildi) akabirxān [ak**a**birxon], ājil [**o**yil], ǯübardi [yub**a**rdi], esan [es**a**n], sāri [s**o**ri], qālanib [q**o**lanib]. M.: Tāγlār bashi xüčči-xüčči, gäzälär vöndän qānča kičči, āstiŋda minib ǯürgän ätiŋ öjinči, **dārbāzäniŋ** haqi öŋ betiŋdän beš müčči[3, 199].

A ~ a (a) til orqa, lablanmagan, quyi keng va **o ~ ā** (o) til orqa, lablangan, quyi keng hamda **o‘ ~ ö (o‘)** til oldi, lablanmagan, yuqori tor **a** (a) til orqa, lablanmagan, quyi keng unlilarning o‘rin almashishi: šājtan/ naxöt/ tārlan. M.: Hö, kelin šājtanga haj ber! … šājtanga haj berib Aväz aččiγidan tüšdi; Jekklā naxöt tartiŋ, vej bäräkäsini bersin (bozordan). **i (i) < u (u) // i (i) > u (u)**: **Uyqisidä** äŋlajverdi bek Aväz, Aydarhādaj tolγānib Aväz türdi ǯājidan. **Sāvub** tārtkan büjrini Tāγlar täšin közläjdi[3, 210]. Asos va qo‘shimchalarda lab singarmonizmi: Qāmči qojdi **qušiγā**…Minib keldim menäm Tārlan *bözimdi…* **ojlaγānda** ojidan, Tötidäjin böyidän. ..,bü gäpiŋ **“üstämčägä bistämčä”** böldi dep, Avazxān **šāšganidän** Mäǯnünkökni törbäsi bilän minib,…; **b (b) > p (p) / b (b) < p (p)** …quv källä pālaxmānniŋ täšidäj ötärpidiŋ üstidän **šānγillap** ötib ketdi [3, 199], qorqqanläriŋ läškärlär, äkä deb qāšima **kepsän-ä** [3, 263]**. H (h) / š ~ sh (sh) / γ ~ g‘ (g‘) / g (g)** kabi tovushlarning **j ~ y** (y) tovushiga almashishi kuzatiladi. M.: Qānlār āqsin ilā**j**(h)im,../ täjlädi: ättän täppä *täj[sh]lädi,* ātni qāziqqā bāj[g‘]lādi, 40 zināli

ješikdän kirib mejmänxānaga yājladi, Qirqinqiz yāzdi dāstirxāndi, täj[sh]lädi nändi, tökdi pistä bādāmdi [3, 197]; **Meymänäm** keldi [12, 228]. **V (v) < b (b) / v (v) > b (b)**: Avazxān šäšgänidän Mäynünkökni **törbäsi** bilän minib, izidän quvib ketdi; Qoraga kelib baš ürdi, **tābānini** täšh ürdi. So‘z boshida t tovushi o‘rnida d tovushi qo‘llanadi. S.Rahimov so‘z boshida **[n (n) // t (t) // d (d)]** holatini o‘g‘uz shevalar guruhiga, ya’ni g‘arbiy shevalar guruhiga [16, 16] xosligini ta’kidlaydi. Āt üstidä söräjäpti bir kiši, Bir kelingä bārdi Avazxānniŋ **dāvuši** [3, 243]; **Diligiŋni** täšgä qojib čāpadi, Bir darjāsi jeti tāv äjlänib āqadi [3, 248]. **H (h)** tovushi **k (k)** tovushi bilan birga kelganda **k** singari talaffuz qilinadi: Šikār bärsäm, quruq qajtmagan āvlarim, Ötāv tütsäm, **mäkkäm** tütgän bāγlarim. “J”lovchi sheva so‘zlashuvida f tovushi o‘rnida deyarli p tovushi ishlatiladi, Pasurxi, Qoraboyin, Shifobuloq, Sarg‘iyoz kabi bilingvizm ta’s. va tojik tilida to‘liq so‘zlashuvchilar bilan aralash hududlarda f tovushining ishlatilishi xarakterlidir): Men bāγlajin belläriŋgä **pötäŋni**…[3, 209]; – Odil aka, sizni tanimay qoldim: o‘lay agar, tirnoqcha **parqlaring** bo‘lsa [12, 228]. So‘z boshida **b (b)** tovush **p (p)** tarzida qo‘llaniladi: …közi āsmānga **pitib…** … astidä öjnäjdi **pirāγi** (Buroq oti) [3, 208]. “**g‘**” ~ **γ** tovushi so‘z boshida, o‘rtasida va so‘z oxirida fonetik o‘zgarishga uchraydi: Tön kijsäŋiz ǯäräšädi ǯāγaŋiz [3, 218].

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Boysun tumanining etnografik xaritasini ko‘rib chiqar ekanmiz, uning Surxondaryo xaritasida anchayin katta hududni egallaganligini va unda yashovchi aholi bir-biridan masofaviy uzoqligi va transportlarning aloqasida murakkabliklarni ko‘zda tutgan holda mazkur hududda ko‘proq uch shevaning tarqalish hududini quyidagicha: ko‘proq qipchoq (markazdan uzoq) va qarluq (markaz atroflari), qisman o‘g‘uz sheva elementlari ishlatilishini (hudud jihatdan keng bo‘lishiga qaramay, bu holatni aholining markaz atrofida siqiq va aralash holda yashashi bilan bog‘lab tushuntirib o‘tish mumkin,) va oxirgi 20-yillarda anchayin aholining shevalarida o‘zgarish kuzatilganligini ta’kidlash joizdir. Shunday bo‘lishiga qaramasdan ushbu hudud shevalariga biror-bir aniq chegarani qo‘yib olish mumkin emas, chunki sheva tarkibidagi qipchoq shevasidagi “j” va “ǯ”lar shevalar tarkibiy jihatdan umumiylikning va kam holda juz’iy farqlilikni kuzatish mumkinligi o‘z nazariy asoslarini topgan [10, 101].

To‘da, Chilonzor, Xo‘jabulg‘on, Danaijom, Qizilnavr, Dashtig‘oz, Pulhokim, Inkabod, Ko‘lqamish (Kofrun), Tillakamar kabi qishloq shevalarida unlilar tizimida juft qo‘llanishi va singarmonizm kuzatiladi. Gumatak, Qayroq, Boshrabot, Shifobuloq kabi qishloqlarida ko‘chish va yangi maktablar qurilishi, qishloq infratuzilmasining o‘zgarishi asta-sekin aholi shevasiga qisman o‘z ta’sirini ko‘rsatgan, ya’ni bu hududlarda “ǰ / ǯ” (j) tovushi o‘rniga “J / j” (y) lashish holati ko‘proq kuzatilmoqda. Boysun hududi shevalar tarkibida XV

asrlar[20, I, 4] da eski o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan til tovushiga oid elementlarning ko‘plab saqlab qolinganligini hududning tog‘li zona bo‘lganligi va internet tizimining u yerda yaxshi ishlamasligi bilan shahar shevasining u darajada kirib bormaganligi bilan tushuntirib o‘tish mumkin [13]. Shevalarning leksik-mavzuviy klassifikatsiyasi Boysun shevasining nafaqat o‘zbek tilidagi, balki boshqa tillardagi yaxlit hamda alohida, o‘ziga xos xususiyatlarini qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Yuqorida leksik-mavzuviy turlar uchun qo‘llangan terminlar o‘zbek shevalaridan tashqari turli tilga oid bo‘lgan boshqa shevalar uchun ham umumiy ko‘rsatkich vazifasini o‘taydi va bu bilan tillararo shevalarning bir mavzuviy-leksik turlarga va kundalik-maishiy hayotga doir bo‘lgan leksikalarning shevalar tarkibida katta o‘ringa egaligini ko‘rsatib o‘tadi. Boysun tuman shevasini fonetik, leksik, semantik, grammatik dialektizm turlarga bo‘lib o‘rganish shevaning zamonaviy shakllari sifatida tilshunoslikning shevashunoslik va tarixiy-qiyosiy turkiy tillarga munosabatlarini ochib berishda qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Navro‘z, 2017. – B. 98.

2. Абдина Р.П., Белоглазов П.Е., Каскаракова З.Е., Кызласов А.С. Принципы лексико-тематической дифференциации диалектной лексики хакасского языка // Мир науки, культуры, образования. 2018. -№1 (68). – С. 104-120.

3. Болтаев Ш. Малла савдогар. – Тошкент: Академнашр. 2019. – Б. 398.

4. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 28.

5. Ибрагимов С. Фарғона шевалари касб-ҳунар лексикаси. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 56.

6. Йўлдошев Т. Тожикистондаги ўзбек шевалари морфологияси (феъл). – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 34.

7. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистон ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 44.

8. Меметов А.М. Ф фонетико-морфологические и лексические особенности диалектов крымскотатарского языка. // Ж: Ученые записки 9.Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского Филологические науки. Том 1 (67). № 2. 2015 г. – С. 35–42.

10. Мусаев К.М. Лексикология тюркских языков. – Москва. Наука, 1984. – С. 25.

11. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистон ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 101.

12. Фозилов Э.И. раҳ. ост. Навоий асарлари луғати. IV томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 4.

13. Холмирзаев Ш. Ўн саккизга кирмаган ким бор. Тўплам. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. – Б. 228.

14. Холова М. А. Шевалар корпусининг жанрий теглашнинг лингвистик асослари // Международный журнал искусство слова. – 2021. – Т. 4. – №. 4.

15. Холова М.А. Boysun shevasi korpusi:ibtido (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) // Инновации в педагогике и психологии. – 2020. – №. SI-2№ 5.

16. Холова М. А. O‘zbek shevalarining standart tilga munosabati va til tizimidagi o‘rni (Boysun tumani “j” lovchi shevalar misolida) //Международный журнал искусство слова. – 2020. – Т. 3. – №. 5.

17. Ражабов Н. Ўзбек шеваларида феълнинг морфологик тузилиши. – Тошкент: Фан, 1990. – Б. 16.

18. Раҳимов С. Сурхондарё вилояти ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1985. – Б. 17.

19. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.

20. Санақулов У., Каримов С. Қипчоқ этноними профессор Х. Дониёров талқинида // Илмий ахборотнома. – Самарқанд, 2017. № 2. – Б. 56-62.

21. Фозилов Э.И. раҳ. ост. Навоий асарлари луғати. IV томлик. – Тошкент: Фан, 1983 (Барча маълумотлар шу китобдан олинди).

22. Шайхулов А.Г. Историческая и диалектная лексика тюркоязычных народов Волго-Камско-Уральского региона (Аспекты системной характеристики). – Уфа, 1988.

23. Цинциус В.И. Проблемы сравнительно-исторического изучения лексики алтайских языков. – Ленинград: Наука. 1979. – С. 4.

24. https://enc.for.uz/wiki/Qipchoq_tili

25. https://uz.wikipedia.org/wiki/Differensiatsiya

26. https://uz.wikipedia.org/wiki/Integratsiya

27. https://dialect.uz/

XORAZM DIALEKTAL ZONASINING TURKMAN TILLI AREALLARIDA QARATQICH KELISHIGINING QO‘LLANILISHI

(QO‘SHKO‘PIR TUMANI MISOLIDA)

Alimardanov Elyor Ilxom o‘g‘li,
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya. *O‘zbeklar yashovchi manzillar (massiv) dialektal zonalarga ajratilishi areal lingvistikada o‘rganilgan. Shunday dialektal zonalardan biri bo‘lgan Xorazm dialektal zonasida o‘zaro aloqada (kontaktda) bo‘lgan tillardan biri turkman tilidir. Turkmanlar Xorazmda g‘uj bo‘lib yashaydi va ularning shevasi Xorazm o‘zbek shevalariga va aksincha o‘zbek shevalari turkman shevalariga o‘zaro ta’sir etadi, natijada o‘ziga xos oraliq hodisani hosil qiladi. Ushbu maqolada Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani Shix qishlog‘idagi turkmanlar shevasiga o‘zbek shevalarining ta’sirini qaratqich kelishigi misolida o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili (shevasi), turkman tili (shevasi), o‘g‘uz lahjasi, Xorazm dialektal zonasi, sheva, affiks, affikslar variantlari, kelishik.*

Annotation. *The division of Uzbek settlements into dialectal zones has been studied in areal linguistics. Turkmen is one of the languages in the Khorezm dialectal zone, which is one of such dialectal zones. Turkmens live in large numbers in Khorezm, and their dialect Khorezm interacts with Uzbek dialects, and vice versa, Uzbek dialects create a distinctive intermediate phenomenon. This article examines the influence of Uzbek dialects on the Turkmen dialect in Shikh village, Kushkupir district, Khorezm region.*

Keywords: *Uzbek (dialect), Turkmen (dialect), Oghuz dialect, Khorezm dialectal zone, dialect, affix, affix variants, cases.*

Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani (Shix qishlog‘ida) turkman tilli aholi istiqomat qiladi. Muloqot jarayonida ular turkman tilidan foydalanadilar. Lekin bu yerdagi turkmanlar tiliga o‘zbek tilining kuchli ta’siri bor. Albatta bu jarayon mazkur ikki xalq vakillarining shu hududdagi o‘zaro aloqasi (kontakti) ekanligini e’tiborga olish zarur. Ular shevasidagi o‘zaro ta’sirni tilning har qanday unsurlari orqali asoslash mumkin. Maqolada bu hodisani ko‘rsatilgan tillar shevasidagi qaratqich kelishigining qo‘llanilishi misolida tahlil qilamiz.

Shix qishlog‘i turkmanlari shevasida qaratqich kelishigining **-ïŋ, -iŋ; -uŋ, -üŋ; -nïŋ, -niŋ; -nuŋ, -nüŋ; -nï, -ni** shakllari qo‘llaniladi. Turkman adabiy tili va markaziy shevalarida qaratqich kelishigining **-ïŋ, -iŋ; -uŋ, -üŋ; -nïŋ, -niŋ; -nuŋ, -nüŋ** shakllari qo‘llanilishi xarakterlidir. Qishloq turkmanlari shevasida **-nï, -ni**

qaratqich kelishigi shakllarining qoʻllanilishi oʻzbek tilining ta’siri natijasida yuzaga kelgan.

Qaratqich kelishigi otga qoʻshilib, oʻzi bogʻlanib u bilan moslikni hosil qiladi. Yuqoridagi qaratqich kelishigi affikslarining **-ïŋ, -iŋ; -uŋ, -üŋ** variantlari undosh tovush bilan tugagan otlarga qoʻshiladi, **-nïŋ, -niŋ; -nuŋ, -nüŋ; -nï, -ni** variantlari esa, unli tovush bilan tugagan otlarga qoʻshiladi.

-ïŋ shakli orqa qator unli ishtirok etgan, undosh tovush bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi: *ba:vamïzïŋ a:dï, oruslarïŋ ќamalï* ***(ќ*)****, a:damïŋ ʒorasï, bularïŋ tupraġï* ***(ġ*)****, xa:nïŋ huzurï, sïzïŋ ustïŋïz, Xarazïmïŋ tövöröġündä, bïzïŋ övlät, xa:nïŋ a:damlarï, a:damïŋ üji* kabi.

-iŋ shakli old qator unli ishtirok etgan, undosh tovush bilan tugagan soʻzlarga qoʻshiladi: *biziŋ elat*, di:niŋ a:damï, ʒünäjidiŋ äjilesi, Bedergäniŋ ќa:lasï, i:tiŋ güni, ši:xiŋ na:nï* kabi.

Ma’lumki, turkiy tillardagi qaratqich kelishigi **-niŋ** (turli fonetik koʻrinishlari bilan) **n** tovushidan kelib chiqqan [Рамстетд, 1957:33]. Bu tovush oldidagi **i** tovushi “bogʻlovchi” sifatida paydo boʻlgan. **-in** affiksining soʻnggi tovushi **ŋ** formasida talaffuz etiladi. **-iŋ** koʻrinishi Oʻrxun-Enasoy yozuv yodgorliklarida ham qoʻllangan [Богородицкий, 85-86]: ***su*** (qoʻshin), ***suŋ*** (qoʻshinning); ***ev*** (uy), ***ebiŋ*** (uyning).

Qaratqich kelishigining **-iŋ** varianti Mahmud Koshgʻariyning “Devon”ida ham, “Qissasul Rabgʻuziy”da ham qoʻllangan [Боровков, 1949:25]. Prof. V.A.Bogoroditskiyning fikriga koʻra, qaratqich kelishigi ***men, sen*** kabi kelishik olmoshlarining soʻnggida ***n*** tovushining qoʻshilishi orqali morfologik qayta boʻlinish natijasida hosil boʻlgan [Богородицкий, 1933:85-86]. 1969-yilda nashr qilingan “Qadimgi turkiy til lugʻati”da qaratqich kelishigining qadimgi turkiy til davrida **-ïŋ, -iŋ; -uŋ, -üŋ** koʻrinishlari qoʻllanganligi qayd etiladi [ДТС, 659]. A.Shcherbakning rekonstruksiya qilishicha, qaratqich kelishigining umumturkiy birlamchi etimologik formasi ham **-ïŋ** dir [Щербак, 1977:61]. Oʻzbek tili Xorazm shevalari tarkibiga kiruvchi Hazorasp-Yangiariq shevalarida ushbu affikslar hozirda ham qoʻllanib kelmoqda. Shuningdek, Qoraqalpogʻiston Respublikasidagi Shoʻraxon, Chimkent viloyatidagi Iqon, Qorabuloq, Qarnoq, Qizil qishloq, Qorakoʻl [Шоабдураҳмонов, 1984:40] hamda Xoʻjayli-Qoʻngʻirot

---

* Ushbu fonema chuqur til orqa k tovushini ifodalaydi va turkman dialektologiyasiga oid adabiyotlarda turlicha belgilar bilan keltiriladi: къ, къ (Nartyýew N. Türkmen dialektologiýasy. – Aşgabat: 2010. – B. 56.; Аразкулиев С. Гарагалпагыстан АССР-ның Дөртгүл районындакы түркмен геплешиклери. – Ашгабат: 1961.; Бердиев Р., Куренов С., Шамурадов К., Аразкулиев С. Очерк диалектов туркменского языка. – Ашхабад, 1970.)

* Ushbu fonema turkman tiliga xos boʻlib, til orqa, sirgʻaluvchi, jarangli tovushni ifodalaydi va turkman dialektologiyasiga oid adabiyotlarda turlicha belgilar bilan keltiriladi: gъ, гъ (Yuqoridagi manbalar).

* Mazkur holatda singarmonizmning buzilish holati kuzatiladi, bu haqda alohida tadqiqotlarda toʻxtalib oʻtamiz.

tumanlarida ham kelishikning **-ïŋ, -iŋ** shakllari qo‘llaniladi [Иброҳимов, 1974:33-34].

Aytish joizki, qaratqich kelishigining **-ïŋ, -iŋ** shakllari mazkur dialektal zonada yashovchi o‘zbeklar, asosan, Hazorasp tumani [Жуманазаров, 1961:39-40], shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Sho‘raxon, Chimkent viloyatidagi Iqon, Qorabuloq, Qarnoq, Qizil qishloq, Qorako‘l [Шоабдураҳмонов, 1984:40] hamda Xo‘jayli-Qo‘ng‘irot tumanlarida ham qo‘llaniladi [Иброҳимов, 1974:33-34].

-nïŋ varianti orqa qator, unli tovush bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi: *Ĝajïb* ***(ĝ*)*** *aġanïŋ a:tï, sahabanïŋ hurmatï, dozzahnïŋ ḱapïsï, E:ranïŋ šä:ri, Ïsmamït a:tanïŋ ši:xläri* kabi.

-niŋ varianti old qator, unli tovush bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladi: *övlijä:niŋ övlätläri, özïniŋ šä:girti* kabi.

Ba’zi o‘rinlarda, undosh tovush bilan tugagan so‘zlarga ham qaratqich kelishigining **-nïŋ//-nïŋ** shakllari qo‘shiladi: *biznïŋ obadan, biznïŋ ši:x elatï*. Bu holatni To‘rtko‘l turkmanlari shevasida ham uchratish mumkin: *ĝïzïŋ > ḱïznïŋ, jigidiŋ > jigitniŋ, paġtalarïŋ > paxtalarnïŋ* [Аразкулыев, 1961:90].

Qaratqich kelishigining **-uŋ, -üŋ; -nuŋ, -nüŋ** shakllari markaziy, umuman, Turkmaniston Respublikasi turkman shevalaridan farqli o‘laroq, qo‘llanish darajasi juda passiv bo‘lib, buni o‘zbek tilining ta’siri natijasi deb qarash mumkin: *onïŋ oġlonlorï, šunïŋ üjindä* kabi. Umuman, Shix qishlog‘i turkmanlari shevasiga o‘zbek tilining ta’siri o‘ziga xos bo‘lib, buni shartli ravishda 2 (tomonlama) ga ajratish mumkin:

1. Bevosita – o‘zbek adabiy tili ta’siri;
2. Bilvosita – o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi ta’siri.

O‘zbek adabiy tili bilvosita kishilarning o‘zaro suhbati ta’sirida emas, balki ommaviy axborot vositalari, radio-televideniye, internet kabilar yordamida bevosita ta’sir etadi va adabiy til unsurlari turkmanlar shevasiga singib boradi.

Bilvosita esa, mahalla atrofi o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasiga mansub aholi bilan o‘rab olingan bo‘lib, yaqin qo‘ni-qo‘shnichilik, quda-andachilik, qavm-qarindoshlik asosida o‘g‘uz lahjasi turkmanlar shevasiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.

Qishloq turkmanlari shevasiga o‘zbek adabiy tili ta’siri natijasida qaratqich kelishigining turkman tili markaziy shevalaridan farqli ravishda undosh tovushdan keyin keluvchi **-nïŋ//-nïŋ** affikslarini keltirish mumkin. Bu holat

*Ushbu fonema turkman tiliga xos bo‘lib, til orqa, portlovchi, jarangli tovushni ifodalaydi va turkman dialektologiyasiga oid adabiyotlarda turlicha belgilar bilan keltiriladi: Gъ, Гъ (Yuqoridagi manbalar).

mahalla atrofidagi o‘zbeklar shevasida ham, Turkmaniston turkman shevalarida ham uchramaydi.

O‘g‘uz lahjasining ta’siri sifatida mahalla turkmanlari tilida keyingi davrda faollashgan qaratqich kelishigining **-nï//-ni** shakllarini keltirish mumkin: *meni janïma, seni hakḱïŋ, aġasïnï tärbijäsi, Ĝajïb aġanï eẑäsi, Nurẑan ahunnï elindä* kabi.

Aytish joizki, mahalliy turkmanlar shevasida qaratqich kelishigini olgan kishilik olmoshlaring o‘zbek adabiy tili va o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi ta’sirida xilma-xil qo‘llanilishi xarakterlidir. Masalan, *meniŋ//däniŋ; meni//däni; seniŋ//säniŋ; seni//säni; onïŋ//onï; biziŋ//bizniŋ; siziŋ//sizniŋ; olarïŋ//olarnïŋ* kabi.

Xulosa shuki, Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumani Shix qishlog‘ida turkman tilli aholi istiqomat qiladi.

1. Ularning shevasiga o‘zbek tilining ta’siri kuchli.
2. Mahalla turkmanlari shevasida qaratqich kelishigining **-ïŋ, -iŋ; -uŋ, -üŋ; -nïŋ, -niŋ; -nuŋ, -nüŋ; -nï, -ni** variantlari qo‘llaniladi.
3. Shix qishlog‘i turkmanlari shevasiga o‘zbek tili ikki yoqlama ta’sir etib, uni quyidagicha keltirish mumkin: bevosita, adabiy til ta’siri orqali va bilvosita o‘g‘uz lahjasi orqali.
4. O‘zbek adabiy tili ta’sirida mahalla turkmanlari shevasida unli tovushdan so‘ng keluvchi **-nïŋ//-niŋ** affiksi undosh tovush bilan tugagan ismga qo‘shiladi: *bizniŋ obadan, bizniŋ ši:x elatï.*
5. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi ta’siri orqali Shixobod turkmanlari shevasida qaratqich kelishigining o‘g‘uz lahjasida faol qo‘llanuvchi **-nï//-ni** affikslari qo‘llaniladi.
6. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi ta’sirida Shixobod turkmanlari shevasida qaratqich kelishigini olgan kishilik olmoshlari turlicha qo‘llaniladi: *meniŋ//däniŋ; meni//däni; seniŋ//säniŋ; seni//säni; onïŋ//onï; biziŋ//bizniŋ; siziŋ//sizniŋ; olarïŋ//olarnïŋ* kabi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аразкулиев С. Гарагалпагыстан АССР-ның Дөртгүл районындакы түркмен геплешиклери. Ашгабат, 1961.
2. Бердиев Р., Куренов С., Шамурадов К., Аразкулиев С. Очерк диалектов туркменского языка. Ашхабад, 1970.
3. Джураев А.Б. Теоретические основы арельного исследования узбекоязычного массива. Ташкент, «Фан». 1991.
4. Древнетюркский словарь. Л, 1969.

5. Жуманазаров Ю. Ўзбек тили Ҳазорасп шевасининг морфологик хусусиятлари. Дисс. Филол. фан. номз. 1961.

6. Иброҳимов Й. Ўзбек тили Хўжайли-Қўнғирот шеваларининг морфологияси. Дисс. Филол.фан.ном. Тошкент, 1974.

7. Рамстетд Г.И. Введение в алтайское языкознание, Изд. Иностранной литературы. М., 1957.

8. Богородицкий В.А. Этюды по татарскому и тюркскому языкознанию, Татгосиздат, Казань, 1933.

9. Боровков А.К. очерки истории узбекского язқка/ Сб. Советское востоковедение, т. У1, 1949, М. – Л.

10. Решетов В.В. Об одном узбекском падеже. Тюркологический сборник. I, М. – Л. 1951.

11. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. Тошкент, “Фан”. 1984.

12. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков. Л., 1977

DENOV SHEVASINING TASNIFLARDAGI O‘RNI

Turdialiyev Anvarbek Xusinovich
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti
anvarbekturdialiyev@list.ru

Annotatsiya. *O‘zbek shevalari tasnifi ilk bor Polivanov, G‘.Olim Yunus, Borovkov, Reshetovlar tomonidan amalga oshirilgan. Bu tasniflarda Surxondaryo viloyati sheva xususiyatlari haqida ham ma’lumotlar bor. Surxondaryo viloyat shevalari A. Mamatqulov (1961), X. Alimurodov(1974), S. Rahimov (1985), A.Ishayev, Sh. Nosirov, K. Shoniyozov, G.Blagova, X. Doniyorov, D. Abdurahmonovlar tomonidan o‘rganilgan. Bu maqolada Denov tuman shevalarini o‘rgangan dialektologlaring ishlari tahlilga tortildi. Surxondaryo shevalari tasniflarda “ǯ” lovchi sheva guruhiga kiritiladi, biroq viloyatning shimolida istiqomat qilayotgan qarluq guruh sheva vakillari haqida ma’lumotlar berilmaydi. Biz maqolada shu hududda yashovchi aholi shevasi haqida qilingan ishlar va ilmiy maqolalarni tahlilga tortdik va o‘z munosabatlarimizni bildirdik. Maqolada kuzatish, tahlil qilish va qiyoslash metodlaridan foydalanildi.*

Kalit so‘zlar: *dialektologiya, lingvistika, sheva, unli, “j”lovchilar, qarluq, kaltatoy, barlos, aralash sheva, tojik tili, shahar shevasi.*

Annotation. *The classification of Uzbek dialects was first carried out by Polivanov, G. Olim Yunus, Borovkov, Reshetov. These classifications also contain information about the features of the Surkhandarya region. Surkhandarya regional dialects A. Mamatkulov (1961), H. Alimurodov (1974), S. Rakhimov (1985), A. Ishayev, Sh. Nosirov, K. Shoniyozov, G. Blagova, H. Doniyorov, D. Abdurahmanov. This article analyzes the work of dialectologists who have studied the dialects of the Denau district. Surkhandarya dialects are included in the "ǯ" hunting dialect in the classifications, but no information is provided about the Qarluq dialects living in the north of the region. In the article, we analyzed the work and scientific articles about the dialect of the people living in the area and expressed our views. The article used observation, analysis and comparison methods.*

Keywords: *dialectology, linguistics, dialect, vowel, "j" hunters, qarluq, kaltatoy, barlos, mixed dialect, Tajik language, urban dialect.*

O‘zbek shevalari o‘zining turli tumanligi bilan boshqa turkiy tillardan farq qilib turadi. Buning sababi o‘zbek shevalari yirik uch lahja qarluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq va o‘guz lahjalaridan iboratligidir. Har bir lahjaning o‘z dialektal xususiyati va o‘ziga xos so‘z boyliklari mavjud. Shevalarning dialektal xususiyatlarini kengroq o‘rganish shu shevaning leksik va grammatik jihatdan o‘ziga xos tomonlarini ochib beradi.

O‘zbek shevalarining o‘rganilishi 1920-30-yillardan adabiy tilning tayanch shevalarini aniqlash maqsadida o‘rganilib boshlangan. Dialektologik tasniflarda Surxondaryo viloyatining shevalari "ǯ"lovchi shevalar deb tariflanadi. Ammo Surxondaryoning Denov, Sariosiyo, Uzun, Boysun, Termiz va Oltinsoy tumanlarida "j" lovchi sheva vakillari yashaydi. Quyida biz dialektologik tasniflarda Denov shevasining o‘rni va lingvistik xususiyatlari haqida ma'lumot olamiz

G.F.Blagova va X.D.Doniyorov "Говоры "тюрков" узбекистана в их отношениях к языку староузбекской литературы" nomli maqolasida Surxondaryo viloyati Denov(Qiziljar qishlog‘i), Sariosiyo(Toxchiyon qishlog‘i) tumanlarida yashovchi ***"turk-barlos", "kaltatoy", "turk", "musobozori"*** urug‘lari shevasining eski o‘zbek adabiy tili va eski o‘zbek adabiyoti tiliga ta'siri haqida to‘xtalib, hudud shevasining unlilari sonini 6ta (**э, ъ, у, ö, ə, ɔ**) ekanligini, orqa qator **"o"** va old qator **"ö"** ni farqlanmay talaffuz qilish bor (***–бöлдь*** shaklida) ekaligini yozadi. Agar orqa qator **"o"** unlisi saqlansa unlilar soni 7ta bo‘ladi, - deb yozadi [Вопросы языкознания,1966:93].

O‘zbekistonning turli hududlariga dialektologik ekspeditsiyalar uyushtirib o‘rganilmagan hudud shevalarini o‘rganib o‘z kuzatishlarini e'lon qilgan o‘zbek

dialektologlaridan iborat delegatsiya (Ishayev, Muhammadjonov, Mamatov, Nosirov) Surxondarayo viloyatidagi navbatdagi ekspeditsiyada Sariosiyo, Denov, Qumqo‘rg‘on, Sho‘rchi, Boysun tumanlarining bir qancha qishloqlarida bo‘lib sheva elementlari bilan tanishganlar. Bu hudud shevalari qarluq-chigil-uyg‘ur va qipchoq lahjasiga mansub bo‘lib bularning har biri o‘z leksik, grammatik, fonetik xususiyatiga ega ekanligini ta’kidlaydi.

Qipchoq shevasi vakillari qo‘ng‘irot, juz(yuz), do‘rmon urug‘lariga mansub bo‘lib, leksik, morfologik, fonetik xususiyatlari bilan boshqa qipchoq shevalari bilan birlashadi; ayrim jihatlari bilangina farqlanadi. Qipchoq lahjasi unlilari umumiy o‘zbek qipchoq lahjasi unlilariga mos ekanligini ma’lum qiladi. **и, ы, у, γ,, е(э), о, ө, а, ә, ɔ.**

Qarluq lahjasiga mansub sheva unlilari Samarqand-Buxoro tip shevalari unlilari bilam moslashadi. **u{ь}, y{γ}, e, o{ө}, ə {a}, ɔ.** Qarluq tip shevalar lingvistik xususiyatlariga ko‘ra Samrqand-Buxoro shevalari bilan birlashsa-da, o‘zaro ichki farqli tomonlari ham bor ekanligini haqida yozadi. M. Nosirov asosan Sariosiyo, Sho‘rchi(hozirgi Oltinsoy hududi), Qumqo‘rg‘on tumanlarida joylashgan qishloqlar nomlarini keltirib Surxondaryo shevalari haqida ba’zi mulohazalarni beradi. Qarluq lahjasida uchraydigan ba’zi qipchoq elementlarini misol qilib keltiradi:

a) sheva **“j”**lovchi bo‘lsa-da sporadik ravishda **“ǯ”**lashish hodisasi ham uchraydi(asosan keksalar nutqida);

b) so‘z o‘rtasida **γ>v** hodisasi ***to‘g‘ri ~ tuvrä, tug‘di ~ tuvdi, tog‘ ~ tāv;***

v) so‘z oxirida ***“q”*** tovushining ***tushishi: sariq ~ säri, qattiq ~ qattï.*** Diftonglashish hodisasi turkiy tillarning qipchoq guruhi vokalizmi uchun eng xarakterli belgilardan biri ekaligini ta’kidlab hudud qipchoq shevalari tarkibida uchraydigan elementlardan misollar keltiradi: ***йенди-endi, йески-eski, ena ~ йенә, o‘g‘ri ~ вoғри, o‘zim ~ возим.*** Diftonglashish hodisasi hududning qarluq tip lahjalaridagi ko‘rinishini quyidagicha tasniflaydi:

o‘t ~ вот, o‘n ~ вэн, ezib ~ йезиб, o‘nta ~ вонтә, o‘n beshta ~вомбештә, o‘roq ~ вораг, eshik ~ йешиг, eshikni och ~ йешигди ач, tomning eshigi ~ тамди йешиги.

Bundan tashqari Qarluq lahjasidagi shevalarda o‘rin-payt kelishigi **“-da”** o‘rnida jo‘nalish kelishigi **“-ga”** fonetik varianti bilan qo‘llanadi;

fe’llarda shaxs-zamon yasovchi **“-di”** affiksi, **“-l”** bilan tugagan fe’l o‘zaklariga qo‘shilganda to‘liq assimilatsiyaga uchrab ***“bo‘ldi ~ bolli, qildi ~qilli”*** shaklida qo‘llanib Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo shevalari bilan birlashadi [Носиров, 1979:67].

Qipchoq lahjasi shevalarida hozirgi zamon formasini yasovchi – ***йатыр-джатыр,*** affiksi bilan birga ***–йәпти*** formasi ham qo‘llanadi. Bu adabiy til va

shahar tip sheva vakillarining ta’siridir. Hozirgi-kelasi zamon fe’li so‘roq formasining qo‘llanishi bo‘yicha ham ayrim qarluq shevalarida xarakterli farq kuzatildi. “***–mi”***so‘roq yuklamasi qo‘llanishida izchillik buzilgan. ***– билмәймисән? Сен возинг билмәймисән?*** [Носиров, 1979:69].

Hudud shevalari adabiy til va ***“ǯ”lovchi*** shevalardan leksik jihatdan ham farq qiladi:

Juzlarda: ***bo‘la ~ бөлә*** opa-singilni, aka-ukaning bolasi;

qo‘ng‘irotlarda: ***bo‘la ~ бөлә*** opa-singilni bolasi;

qarluqlarda: **pori ~ pāri;** qipchoq: **go‘ng ~ göŋ;**

Gazarak va Denov shevalarida: ***yo‘qotdim ~ (itirdim) итирдим, tuya chumoli ~ оттмурча, мөрчә, nikoh to‘y ~ иджап, иджап той*** [Носиров, 1979: 69].

O‘rganilayotgan hudud shevasidagi bu ko‘rinish hozirgi kun qarluq va qipchoq guruh shevalarida saqlanib qolgan. Mualliflar keltirgan ma’lumotlar aynan Denov tumani shahar va shahar atrofi hududi shevasi haqida ma’lumot berib o‘tadi.

Surxondaryo shevalarini o‘rgangan S.Rahimov bu hududdagi sheva faktlarini va yozilgan maqolalarni tasnif qilib, shevani ko‘p asrlik tarixi, moddiy va madaniy hayotni aks ettirgan til faktlarini saqlaganligini tarixiy-tavsifiy, lingvogeografik joylashuvlarini tahlil qilib uch guruhga ajratadi:

1. ***ǯ*** **-** lovchi o‘zbek shevalari (qipchoq lahjasiga xos shevalar);
2. ***j*** **-** lovchi o‘zbek shevalari (qorluq lahjasiga xos shevalar);
3. ikki tilda so‘zlashuvchi shevalar [Раҳимов, 1985:13].

Birinchi guruh shevalari **“ǯ”lovchi** shevalarining hammasi o‘zining til xususiyatlari jihatidan butun territoriya bo‘yicha bir xil emas. Qipchoq lahjasi ikki guruhga ajratiladi: Birinchi guruh sheva vakillari hudud jihatdan viloyatning janubiy-g‘arbiy va shimoliy-g‘arbiy tomonida: Boysun tumanidagi Rabot, Yomchi, Pitov, Kofrun, Bandixon, Istara, To‘da, Xo‘jabulg‘on, Munchoq, Tillakamar, Chilonzor, Kalamozor, G‘o‘rjak, Xo‘jaulkan, Dashtig‘oz, Pulhokim, Pudina, Sariqamish, tengimush, Xomkon, Padang, Besherkak; Jarqo‘rg‘on tumanidagi Minor, Oqtepa, Ismoiltepa, Qizilmozor, Cho‘pon, Quyun, Boymoqli, Chinobod; Qumqo‘rg‘on tumanidagi Halaki, Azlarsoy, Elboyan, Yantoqli, Achamoyli, Qarsakli, Xo‘jamulki, Zarkamar, Lalmikor, Yangi yer, Bo‘ston, Guliston, Qumqo‘rg‘on, Sayqon, Taypan, Paxtakor, Ulus; Angor tumanidagi Tallimoron, Taqiya, Gilambop, Angor; Sherobod tumanidagi Qulliqsho, G‘urjak, Xo‘jaqiya, Chuqurko‘l, Talashqon, Yaxtiyo‘l, G‘o‘rin, Achomayli, Loyliq, G‘ambo‘r, To‘g‘iz, Oqqurg‘on, Bobotepa; Termiz tumanidagi Dehqon, Ozod, Yangiariq; Gagarin rayonidagi Beshqo‘ton kabi qishloq va aholi yashash manzillarida yashaydi. Bu guruhdagi shevalarda singarmonizm hodisasi (palatal

yoki tanglay garmoniyasi) kuchli. So‘z va so‘z formalarining o‘zak negiziga qarab affikslarning qattiq-yumshoqligi o‘zgaradi. Masalan: ***bu yoqqa ~ мынажаққа, borgan ekan ~ барғанақан, otamga ~ атамға, onamga ~ иэнәмгә, hazilga ~ жўртәккә, aytibmikan ~айтиппаққан, kelganmi ~ кэгәммә***. Shevada ***[y,ү]*** kabi lablanuvchi unlilar o‘rnida [ы,и] singari lablanmagan unlilarni ishlatish xarakterlidir. Masalan: ***bultur ~ былтыр, bulamiq ~ быламиқ, supurgi ~шипиртки\\шивирги, suvoq ~ шыбақ, и yoqqa ~ ыйаққа,*** **bu yoqqa ~** ***быйаққа*** kabi. Bu xususiyati bilan Yuqori Qashqadaryodagi 1-tur qipchoq shevalariga birmuncha yaqinroq.

Qipchoq lahjasiga xos ikkinchi guruh sheva vakillari viloyatning shimoliy-sharqiy qismida Sariosiyo tumanining Chimildiq, Boybo‘ri, Bakati, Konikon, Fayzovo, Oqostona, Qo‘rg‘ona, Bobotog‘, Malik, Oqmachit, Tolto‘g‘ay, Xursan, Galamulla, Qumpaykal, Jarobod, Qo‘rg‘oncha; Denov tumanidagi O‘zgarish, Oqtom, Yangiqishloq, Baxt, Shamoli, Eshako‘ldi, Zartepa, Tegirmonboshi, Chuqurqishloq, Bugajil, Saksontepa, Qarsagon, Chimovul, Boyovul, Obodon, Do‘rmon, Chorxona, Xushchekka, Qoraxon, Qizilsuv, G‘alaba, Hayrobod, Dahana, Zardaqul, Xursan, Qizilsuv, Frunze; Sho‘rchi tumanidagi Ipoq, Jobi, Mo‘minqul, Qarsagon, Obshir, Kakan, Mirshodi, Dalvarzin, Obodon, Jindibuloq, Katmon, Qizilgul kabi qishloqlarida yashaydi. Bu guruh shevalarida (tanglay ohangdorligi) singarmonizmni saqlagan bo‘lsa-da, ayrim o‘rinlarda bu hodisaning buzilishi kuzatiladi: so‘z boshida **“ж”** o‘rnida ko‘pincha **“й”** ishlatilish seziladi: **pochcha ~ жеззэ||йезнэ, yo‘l ~ жол//йол, yaloq ~ жалақ\\йалақ, uzum жузум\\йузим, ip ~ жип\\йип** singari; adabiy tilda **“ж”** bilan aytiladigan so‘zlar shevada ***yung ~ ӂun*** tarzida talaffuz etilishini uchratish mumkin; **emoq** to‘liqsiz fe’lidan yasalgan komponentlarga singarmonizm ta’sir etmaydi: **bor ekan ~ бэр экэн, yo‘q ekan ~ йэғ әкән, borib edik ~ бэрвудик, borar emish ~ бэрәймиш, kelar emish ~ келәймиш;** qaratqich va tushum kelishigi, o‘rin-payt va jo‘nalish kelishigini farqlamasdan qo‘llash kabi hollar uchraydi. Bu guruh shevalarining fonetik xususiyatlari akademik V.V. Reshetov qayd etgan 9-10 **(и,ы, у,ү, э,е, о, ө, а,ә, ɔ)** unli fonemadan iborat. Kontrast juft unlilarning ma’no farqlashi va boshqa ma’lumotlar berilgan. ***“ӂ”lovchi*** shevaning morfologik va leksik o‘ziga xosliklariga to‘xtalib o‘tiladi[Раҳимов.1985.15].

Hududning qarluq lahjasiga xos ***“й”lovchi*** o‘zbek sheva vakillari viloyatning shimoliy-sharqiy tomonida, asosan, Sariosiyo tumanidagi Dashnobod, Gazarak, Xonim, Shoshqishloq, Turkqishloq, Vardisoy, Chang‘aloq qishlog‘i va Uzun posyolkasida; Denov shahar markazi, Denov tumanidagi Vaxshivor, Ilonsoy, Mirishkor, Xo‘jasoat, Yurchi, Hazarbog‘; Boysun tumanining shimoliy qismida Kentala, Machay va janubiy-g‘arbiy tomondagi

Xatak, Xo‘janqo, Laylagon; viloyatning janubiy tumanlarida Sherobod tumanining g‘arbiy qismida Maydon, Qorabog‘, janubiy-g‘arbiy tomonida Xo‘jchi, Navbog‘,Chig‘atoy; Termiz shahar markazi va uning atrofidagi Manguzar, Salovat; Qumqo‘rg‘on tumanidagi Jaloyir; Sho‘rchi tumanidagi Qorluq kabi qishloqlarda yashaydi. Bu sheva unli fonemalari viloyatning janubiy qismida yashaydigan aholi shevasi Quyi Qashadaryo viloyat shevalari (6-7 unlilar) unlilari bilan birlashadi. Viloyatning shimoliy qismidagi qorluq lahjasiga xos shevalar lingvistik belgilariga ko‘ra Samarqand-Buxoro shevalariga o‘z lingvistik xususiyatlari jihatidan o‘xshash va ayrim farqli tomonlarga ham ega. Bu sheva unlilari **u{ъ}, y{ү}, э{e}, o{ө}, a{ə}, ɔ** [Раҳимов,1985:20]. Hudud **“j”**lovchi sheva vakillari morfologiyasi va leksikasidagi o‘ziga xos farqli xususiyatlarga egadir.

Ikki tilda so‘zlashuvchi shevalar Surxondaryoning shimoliy va shimoliy g‘arbiy qismida, asosan, Sariosiyo, Toqchiyon, Buyrapo‘sh, Poshxo‘rt, Zarabog‘, Ariqusti, Poygaboshi; Boysun shahar markazida joylashgan aholi yashash manzillarida aniqlangan. Ushbu sheva vakillari “ikki tilda” ham (tojik va o‘zbek tillarida) ikki tilning so‘zlarini aralashtirgan holda gaplashadilar, ularning talaffuzi ham tojik tiliga yaqindir. **u{ъ}, э{e}, y, o‘, a, ɔ.** Bu shevaning o‘ziga xos fonetik, leksik va morfologik xususiyatlari bilan atrof sheva vakillaridan farq qiladi[Раҳимов,1985:24]. S. Rahimov tasnifi hudud shevasining tasnifida dialektal xususiyatlarining o‘ziga xosliklarini ochib bergan va hudud shevasini atroflicha o‘rgangan ilk dialektologik asar hisoblanadi. Izlanishlar jarayonida shular aniq bo‘ldiki, S. Rahimov sheva vakillarini yashash joylarini sanaganda Dahana qishlog‘ini **“ǯ”**lovchi sheva vakillari hududiga kiritadi aslida esa bu hududda tojik tilli aholi va kam sonli kaltatoy, barlos hamda musobozorilar istiqomat qiladi

Janubiy Surxondaryodagi qipchoq shevalari morfologiyasini o‘rgangan X.Alimurodov hudud shevasi haqida quyidagicha fikr bildiradi. O‘rganilgan shevada ko‘plikni ifodalovchi **–lar**, qo‘shimchasining quyidagi variantlarini bergan**: -lər, -нəр, -əр, (-ақ, -ағ) o‘zlaring shu yerdan teraveringlar ~ возынəр шуйирдəн тербериноəр**, **o‘zlaring o‘qinglar ~ возынəр воқынəр, bu yil ekinlarning barakasi bo‘madi ~ быйыл йəгинəрдинг гуры бомады**, **sizlar boringizlar ~ сизақ барынгызақ, bobonglarga ayt ~ бəббəннəргə əйт**[Алимуродов, 1982:22-24].

Surxondaryo viloyati shevalari haqida Do‘stmurod Abdurahmonov o‘zining “Qorluqlar va ularning tili” nomli maqolasida qarluq shevasining muhim xusussiyatlarini bayon qilib shevaning unli fonemalar soni **6ta** (ə, e, ɔ, ъ, ө (o), y) ekanligi va hududlarda tarqalishi haqida so‘z yuritib sheva vakillari joylashgan hududlarda quyidagicha ma’lumot bergan. So‘zlarning bir va ikkinchi bo‘g‘inida

[**ə-ɔ**] modelida tarqalgan deb ***somon ~ səmɔn, yomon ~ jəmɔn, borot ~ bərɔt, avlodimiz ~ əvlɔdъmъz, qallidi ~ qəllɣdъ, mozori ~ məzɔrъ*** kabi misollarni keltiradi. Bu tovushlarning so‘z bo‘g‘inlarda shu tarizda tarqalishi Parkent, Piskent shevalarida, Jizzax, G‘arbiy Samarqand (Samarqand, Urgut, Kattaqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on, Paxtakor, Payshanba, Qarnob) shevalarida, Buxoro, Qarshi, Beshkent, Shahrisabz, Kitob shevalarida, Surxondaryo **“j”**lovchi (qorluq) shevalarida, Tojikistondagi o‘zbek shevalari, Afg‘onistondagi **“j”**lovchi shevalarda qayd etilganligini ko‘rsatadi. Maqola muallifi **“j”**lovchi shevaning morfologiyasi haqida ham ma’lumot beradi[Абдураҳмонов,1987:31].

Olib borilgan kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, S.Rahimov Surxondaryo shevalarini o‘rganish asosini yaratib, hududda yashovchi sheva vakillari haqida asosli ma’lumotlarni bergan. Biz o‘rganayotgan Denov tuman shevalari ana shu tadqiqotninng bir bo‘lagi bo‘lib xizmat qiladi. Denov shevasida S.Rahimov tasnifidagi barcha guruh sheva vakillari istiqomat qiladi. Shu bois ham Denov shevalari areal juhatdan biroz murakkab dialektik hudud hisoblanadi. Tumanda qarluq, kaltatoy, barlos, musabozori, turk, kichik kaltatoy, jaloyir, no‘g‘ay, juz(yuz), qo‘ng‘irot, nayman, do‘rman, kall, pirsayz, chelaki, ochamayli, kenagas, merket, beshtentak, sherbachcha, xo‘ja, toqchi, aymog‘, va tojik tilli(tojik tilini ham 2 xil shevasi farqlanadi[1]) aholi yashaydi va ularning o‘zaro bir-biriga ta’siri bor. Denov tumani hududida tojik, qarluq, va qipchoqlar zich yashaydigan joylarda tojiklar shevasining qarluq va qipchoq lahjasiga ta’siri va aksincha, qipchoq, qarluq shevasining tojik tiliga ta’siri bor hamda ayrim hududlarda ikki tillilik vujudga, bu ta’sirni Denov shahar shevasiga taalluqli deb bo‘lmaydi. Denov shahar shevasiga adabiy tilning ta’siri hamda iqtisodiy muhim nuqta bo‘lganligi, logistikaning rivojlangan sabab shahar shevasi qishloq shevalaridan farq qiladi. Hududda qarluq shevasi tojik tili va qipchoq shevasiga nisbatan dominantlik qiladi. Bizga ma’lumki, qarluq lahjasi singarmonizmni saqlash va saqlamaganligiga qarab ikki guruhga ajratiladi. Singarmonizmni saqlamagan shahar shevalari va singarmonizmni saqlab qolgan shimoliy o‘zbek shevalari. O‘rganilayotgan hududda qarluq lahjasining singarmonizmni yo‘qotgan shahar shevalari o‘rganildi.

“j”lovchi o‘zbek sheva vakillari Denov tumanining Denov shahar, Cho‘n-tosh, Qoraxon, O‘shor, Oybarak, Sohibkor, Yangiobod, Sanoatchilik, Nurli manzil, Z.M.Bobur, Bahariston, Ibn Sino, Bog‘inav, Guliston, Quyoshli yurt, Istiqbol, Mehr- oqibat, Qizil Farg‘ona, Oqlar, O‘zbekiston, Yurchi, Cho‘ntosh mahallalari va qishloqlarda istiqomat qiladi. Denov shevasining morfologik va leksik xususiyatlari quyidagicha.

[1] Tojik tilli aholi ko‘chib kelgan hududiga qarab shevasida farq qiladi

Morfologik belgilari:

Olmoshlar tuzilishi o‘ziga xoslik kuzatiladi

u yer ~ or, oqqä, äqä, äγdä // äγgä, äner;

bu yerga||bu yerda ~ ber, bergä, bäqä, bäγdä, beqä;

shu yerga||shu yerda ~ šer, šerga, šäqä, šäγdä, šeqä;

hozirgi zamon davom fe’lida **– *āp*** affiksi ishtirok etadi***: bārāpti, kelāpti, qilāpti, äjtāpti;***

- *lär* ko‘plik qo‘shimchasi ko‘plik, hurmat va ta’kid ma’nosida **– lä, - älä, -lär** shaklida qo‘llanadi: ***bobo||bova ~ bāvāmlä, bāvämälä, bāvāmlä; tog‘a ~ tāg‘ämlä, tāg‘ämälä, tog‘amlar; amaki ~ ävämlä, āvämlä // āvämlä, āvämälä – ova; dada ~ dädämlä, dädämälä, dädämlär*** (**“ävä”** Oybarik qishloq shevasi**,** ***“āvä” (amaki),*** O‘shor qishlog‘i shevasida);

- *älä* qo‘shimchasi jamlovchi qo‘shimchadan tashqari O‘shor qishloq shevasida hurmat ma’nosini ham ifodalaydi;

Oybarik va Cho‘ntosh qishloq shevasida diftonglashish hodisasi mavjud: ***- ʸellik, - ᵛundän, - uᵛtirib, - ʸekki;***

Leksik jihatdan ham o‘ziga xos farqli xususiyatlarga ega. Masalan: ***zāmir - qāvāγäri, goŋ - pāri, buzāv - buzoq, sigir // inägᵏ // mol, amakvachcha - (o)ävävāççä, zirā:t- dehqonchilik, häqqul-kurushka, uzum||lälä- tutning mevasi.***

O‘rganilayotgan hudud shevasi fonetik, leksik va morfologik jihatdan areal o‘rganish talab etiladigan dialektik zona hisoblanadi. Bu hududda o‘zbek adabiy tilining qipchoq guruh sheva vakillari ham istiqomat qiladi. Keyingi ishlarimizda bu haqda ma’lumot beramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b

2. Раҳимов С. Сурхондарё Ўзбек тили шевалари луғати (Фонетикаси, Лексикаси). – Тошкент: Фан, 1995.

3. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари (Фонетикаси, Лексикаси). – Тошкент: Фан, 1985.

4. Боровков А.К. Вопросы классифкации узбекиских народных говоров. Известия АН УзССР, Ташкент, 1953,

5. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси.- Тошкент: Ўрта ва олий мактаб, 1962.

6. Yunusov G‘.O. O‘zbek lahjalarini tasnifda bir tajriba.- Toshkent, 1935

7. Джураев А. Б. Теоретические основы ареалного исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: ФАН, 1991.

8. Пугаченкова А., Ртвеладзе Э.В., Северная Бактрия — Тохаристан, Очерки истории и культури, Т., 1990

9. Шониёзов К., Қарлуқ давлати ва Қарлуқлар, Тошкент-1999.

10. Джураев Х. Фонетико-морфологические и лексические особенности узбекских говоров, носящих этническое название “турк-калтатай"(по материалам Самаркадской, ДЖизакской и Сырдаринской областей УзССР). АКД, Ташкент, 1975.

11. Носиров М. Сурхондарё шевалари буйича айрим кузатишлар (диалектологик экспедиция материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти. 1979. № 5. Б. 67 - 69 .

12. Шоабдураҳмонов Ш. Карлукское наречие узбекского языка. – Тошкент: Фан, 1983.

13. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967.

DARDOQ SHEVASIDA UNLILARNING CHOʻZIQ TALAFFUZ QILINISHI

Alimbekova Vazira Xalimjon qizi
ToshDOʻTAU “Lingvodidaktika” kafedrasi stajyor-oʻqituvchisi
vaziraalimbekova96@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oʻzbek tilining dardoq shevasidagi unlilar choʻziqligining adabiy tildan farqli oʻrinlari koʻrsatib oʻtilgan.*

Kalit soʻzlar: *sheva, adabiy til, unli, birlamchi choʻziqlik, ikkilamchi choʻziqlik, emfatik choʻziqlik.*

Annotation*. This article shows the differences between the lengths of vowels in the Dardak dialect of the Uzbek language in the literary language.*

Keywords: *dialect, literary language, vowel, primary length, secondary length, emphatic length.*

Turkiy tillarda va ularning dialektlarida birlamchi choʻziq unlilarning bor-yoʻqligi yuzasidan sharqshunos olimlar orasida turlicha fikrlar mavjud. Ularning baʼzilari turkiy tillarda birlamchi choʻziq unli yoʻq, ammo boshqa tillardan olingan soʻzlardagi ayrim tovushlar va boʻgʻinlarning qisqarishi, yigʻilishi hisobiga choʻziq unlilar paydo boʻladi deydilar. Baʼzilari turkiy tillarda birlamchi choʻziq unli qadimgi zamonlardan beri bor deb qaraydilar [Иброҳимов,1967:21].

Finlandiyalik sharqshunosi M.Ryasyanen choʻziq unlilar turkiy tillarga boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlar talaffuzda ayrim tovushlarning qisqarishi

hisobigagina yuz beradi hamda unlilardagi urg‘u holatlarida ham ko‘rinadi deydi [Рясянен, 1955:75] Faqat o‘zlashgan so‘zlardagina emas, sof turkiy so‘zlarda ham unlilarning cho‘ziq talaffuz qilinishi uchraydi. K.K. Yudaxin o‘zbek tilining qorabuloq shevasida birlamchi cho‘ziq unlilar borligini ta’kidlagan [Юдахин, 1927]. Shu bilan bir qatorda xorazm shevasida ham sof turkiy so‘zlarda ham unlilar cho‘ziq talaffuz qilinadi. Ammo o‘zbek tilining andijon shevasida birlamchi turkiy cho‘ziq unlilar kam uchraydi. Shunday bo‘lsa ham, so‘z tarkibidagi unlilar boshqa guruh shevalariga qaraganda ancha cho‘ziq talaffuz qilinadi. Bu holat deyarli eliziya va sinerezis hodisalari bilan bog‘liq.

O‘zbek shevalarida cho‘ziq unlilarning uch xil turini kuzatishimiz mumkin:

Birlamchi cho‘ziqlik. Turkiy tillarning dastlabki davrlarida so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida unlilar cho‘ziq talaffuz etilgan. Bunday cho‘ziqlik so‘zdagi fonetik hodisalar, tovush tushishi(eliziya), sinerezis hodisalar bilan aloqador emas, ularning ta’sirida yuz bergan emas, balki qadimgi turkiy tilning tabiati bilan bog‘liqdir. Unlilarning bunday cho‘ziqligi hozirgi Xorazm, Forish va shimoliy o‘zbek shevalarida uchraydi. Aslida bu kabi unlilarning cho‘ziqligi urg‘u bilan bog‘liq. Masalan: tu:š(tush), a:d(ot, ism), du:z(tuz)… Qadimgi turkiy tilda urg‘u so‘zning dastlabki bo‘g‘iniga tushgan.

Ikkilamchi cho‘ziqlik. So‘z tarkibida biror undosh tovushning nutqda talaffuz qilinmasligi natijasida unli tovush cho‘zilishi mumkin: sändu(sandiq), ortā: (o‘rtoq). Bunday cho‘ziqlik ikkilamchi cho‘ziqlik deyiladi. Shevalarda bunday cho‘ziq unlilar ko‘pincha h undoshining tushib qolishi bilan yuz beradi: Ä:mät(Ahmad), dä:lïz, me:r (mehr), qä:r (qahr). Ikkilamchi cho‘ziqlik sinerezisga ham olib keladi. Ma’lumki, intervokal pozitsiyadagi undoshning nutqda iqtisodga uchrashi natijasida yonma- yon kelib qolgan ikki unli o‘zaro singishib, nutqda cho‘ziq unlini hosil qiladi. Bu fanda sinerezis hodisasi deyiladi. Shevalarimizda bunga misollar ko‘plab topiladi: zä:r (zahar), šä:r(shahar), u:l (o‘g‘il), sä:t (sihat).

Uchlamchi (emfatik) cho‘ziqlik. Bunday cho‘ziqlik Namangan shahar shevasining hozirgi-kelasi zamon fe’lida yorqin ko‘rinadi, ya’ni bu fe’l shaklidaqatnashadigan ravishdosh ko‘rsatkichi -ä unlisi va boshqa shakllarda ishtirok etgan – ä unlisi odtdagiga nisbatan cho‘ziq talaffuz etiladi yoki uning bo‘lishsiz shaklida -j(y) zamon qo‘shimchasi tushib qolishi ham mumkin va bo‘lishsizlik affiksidagi -ä unlisi ham ikkilangan cho‘ziqlikka ega bo‘ladi: bïlmä:(j)mä:, bomä:(j)di [Ashirboyev, 2016:30-31]. S. Ashirboyevning cho‘ziq unlilarning bu kabi tasnifidan uchinchi turi- emfatik cho‘ziqlik andijon shevasida deyarli kuzatilmaydi, shunday bo‘lsa ham Paxtaobod tumani aholisi shevasida ba’zan uchrab turadi. Bu holat uyg‘ur xalqi nutqida uchraydi(o‘zbekcha so‘zlaganida). S. Ibrohimov andijon shevasida ba’zi bir so‘zlarda bir qadar

choʻziq va oʻrni bilan yarim choʻziq unlilar uchraydi, deydi. Te:rï (ter soʻzining III shaxs egalik qoʻshimchasi bilan turlangan shakli), qä:ri, to:ri (uyning toʻrisi) kabi soʻzlar bunga misol boʻla oladi. Andijon shevasida ikkilamchi choʻziq unlilar gapda ekspressiv maʼnolarni ifodalashda, chetdan oʻzlashgan soʻzlar tarkibidagi urgʻuli boʻgʻinlarda, sheva soʻzlarining ichki oʻzgarishi natijasida yuzaga kelishini aytib oʻtgan. Andijon viloyati dardoq shevasida choʻziq unlilarni quyidagi hollarda uchratishimiz mumkin:

- birlamchi turkiy choʻziq unlilar: bä:rï, qä:rï, mo:rï, tö:rï, sö:rï, nä:munä, cho:rï, te:rï, be:rï, nä:rï, i:mon, i:mom, qo:ri(qalb qoʻri), bā:ri, qori(diniy masalalar bilan shugʻullanuvchi), dā:ri(tibbiyotdagi dori-darmon)… Bunday ushbu shevada kam uchraydi.

- his-tuygʻuni (shodlik, quvonch, qoʻrquv, hayratlanish, norozilik, ajablanish, taajjublanish) ifodalashda unlilar choʻzib talaffuz qilinadi.Masalan, E::(oʻta choʻziq), räsvā qïpsänu kijïmlärijnï, bāläm. O:: (oʻta choʻziq), minčä čïrā:jlij qïp bezab qojïpsïlar kelïn keläd ïɣā: ujdï. Bu turdagi choʻziqlikda unlilarning qay darajada choʻziq talaffuz qilinishi, avvalo, his-hayajonning kuchliligiga bogʻiq va urg ʻu bilan ham aloqadordir.

- rus tili va rus tili orqali yevropa tillaridan kirib kelgan soʻzlar, arabiy, forsiy oʻzlashmalarning urgʻuli boʻgʻinlari choʻzib talaffuz qilinadi. Masalan, pämïldā:rï, pämädä:ri, kämbä:jn, gäze:tä, Ä:rāfïdïn, Nādi:rä, Mohi:rä (qipchoq shevalarida Mā:hïra, Nā:dïra tarzda talaffuz etiladi).

- shevaning fonetik qonuniyatlariga koʻra soʻzdagi tovus va boʻgʻinlarning kuchsizlanishi va tushib qolishi, eliziya, sinerezis hodisalari sababli choʻziq va baʼzan oʻta choʻziq unlilar hosil boʻladi. Choʻziqlikning bu turda hosil boʻlishi andijon shevasida juda koʻp uchraydi. Dardoq qishlogʻi shevasida Ā: ä: unlilarini koʻp uchratamiz. Qä:dä (qayerda), mä:da (mana bu yerda), mā: (mana bu), mānā: (manavi), qïpqä:man (qilib qoʻyaman), jāzā:raman (yozaveraman), ä:štä (oʻshada), ā:rijäppä (ogʻriyapman), do::rmä (deyaverma), bu:m (buvim), bunä: (bunaqa), ene: (keyin), to:rïsï (toʻgʻrisi), āpā:dädä(opoqdada,bobo), qäjmä: (qaymoq), särjä: (saryogʻ), qïšlä: (qishloq), e::tämätändä (ertalabda), Qāzā:stān (Qozogʻiston).

Shevada choʻziq(ikkilamchi choʻziq)unlilar quyidagi hollarda yuz beradi:

- gapda ekspressiv maʼnolar (shodlik, norozilik , hayronlik, tan berish kabi) baʼzi soʻzlar ohangi orqali berilib, ayrim unlilar oʻz normal holatlaridan choʻzib talaffuz qilinadi. Shu bilan u unli choʻziq holatga kiradi. *E:: qoʻysengchi.*(e:: ortiq choʻziq). Bu hol urgʻu hodisalari bilan ham maʼlum darajada bogʻliqdir.

- choʻziq unlilar, yana,soʻzlarning (asosan boshqa tillardan oʻzlashtirilgan soʻzlarning)urgʻuli boʻgʻilarini choʻzibroq aytish bilan ham yuz beradi. Chunochi: qori (qor soʻzining III shaxs egalik bilan turlangani : togʻdi qori), qo:ri

(Qur’onni yoddan o‘quvchi), Sho:gird, no:rasida, Xadi:cha, huku:matimiz, sho:pir(<shafyor). Bu xil so‘zlarning urg‘uli bo‘g‘inini cho‘zmay aytish hollari ham uchraydi.

Odatda, so‘zni gap ichida emotsional holatga kiritib aytganda ikkilamchi cho‘ziqlik yuz beradi. E::, do‘sim(<do‘stim), e::, bo‘magan(<bo‘lmagan) gap, he::, shuna:(<shunaqa) degin kabi.

Biror voqeani ortiq ta’kidlab bildirganda ne:-ne: kishilar o‘tip ketti.

Bo‘g‘in yo so‘z oxirida e dan so‘nggi undoshning qisqaruvi hisobiga: te:madi(< tegmadi.ad.orf). Bu so‘zni talaffuz etganda *g* juda noaniq holatga kiradi *e* cho‘ziladi [Иброхимов,1967: 51]. Ammo o‘zbek tilining dardoq shevasida deyarli *g* undoshi umuman talaffuz qilinmaydi. Ke : (< Kel), be : ke (< beri kel), be: me:ysa:mi (< bermeysammi). Sobirjon Ibrohimov “O‘zbek tilining Andijon shevasi” deb nomlangan kitobida (bermaysizmi) so‘zi be:mə:ssïmï tarzida talaffuz qilinadi deyilgan, Dardoq shevasida be:missmï tarzida talaffuz qilinadi. *Mānāvïnï(<mana bu) pärmä de:mïz(<deymiz)* Dardoq shevasida deymiz so‘zi tarkibidagi e unlisi cho‘zib talaffuz qilinadi. Buning natijasida y harfi tushirib qildiriladi. Yana ayrim insonlar nutqidi bu so‘zning *di:miz* tarzida talaffuz qilinishi ham ancha faol. Ayiruv bog‘lovchilaridan biri bo‘lmish goh … goh bog‘lovchisi ham dardoq shevasi vakillarida *go:…go:* tarzida talaffuz qilinadi. Masalan, *go:undey, go: bundey* (<goh unday, goh bunday). Ba’zida leksemasiga ma’nodosh bo‘lgan gohi, gohida leksemalari ham sheva vakillari nutqida *ga:gi, ga:gida* tarzida talaffuz qilinadi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, cho‘ziq unlilarni yana insonlar nutqidagi emotsional holatlarda uchratishimiz mumkin. Shevalarimizdagi cho‘ziq unlilarning talaffuz qilinishi so‘zlarga o‘ziga xos qo‘shimcha ma’no yuklashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Иброхимов С. Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 19.
2. Ashirboyev S., O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2019. – B. 30
3. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. —Тошкент: Фан, 2005.
4. Муродова Н. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: 2019. -Б. 182.
5. Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. -Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2016. –B. 80.

2-SHU‘BA
SHEVALARNING STRUKTURA XUSUSIYATLARI

SHEVALAR LEKSIKASINING TARAQQIY ETISHIDA KASB-HUNAR TERMINLARINUNG O‘RNI

Ibragimov Y.M.,
professor, filol. fan. doktori,
N.E.Musayeva,
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI magistranti

Annotatsiya. *Maqolada shevalar leksikasining taraqqiyotida kulolchilik, kashtachilik, zargarlik, duradgorlik, temirchilik, ovchilik kabi kasb-hunar sohasiga tegishli leksikaning taraqqiyotidagi o‘rni, ularning majoziy ma’nolarni ifodalab kelishi, makon va zamonda so‘z ma’nolarining kengayishi, iste’moldan chiqib qolish sabablari tavsif etiladi*

Kalit so‘zlar: *kasb-hunar, terminlar, majoziy ma’no, sohalar leksikasi*

Annotation. *This article describes the role of vocabulary connecting hunting, pottery, embroidery, jewelry, blacksmithing in the society progress, the expression, of the allegorical meanings, expension in any positions and any moments, the reasons of being no longer in use.*

Key words: *craft, term, figurative meaning, field lexicon*

O‘zbek xalqi qadimdan turli kasb-hunar bilan shug‘ullanib keladi. Shuning uchun O‘zbekistonning har bir viloyat, tumanlarida kasb-hunar tarmoqlari taraqqiy etgan. Masalan, kulolchilik, kashtachilik, duradgorlik, temirchilik, ovchilik, chorvachilik, kosibchilik, zardo‘zchilik va hokazolar. Kasb-hunarning turli tarmoqlarida mehnat jarayonida xalqimiz tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan maxsus terminlar umumxalq tilining lug‘at tarkibida boy bir qatlamni tashkil qiladi. Ba’zilari ishlatilishdan qolib, tarixiy terminlar qatoriga o‘tadi, ba’zilari esa yangi vazifa va yangi ma’nolar kasb etib, iste’moldan qoladi. Kasb-hunar terminlari umumiste’molga, vaqtlar o‘tib folklorga va yozma adabiyotga kiradi **[**2, 2007:196**]**.

Xalq kasb-hunar terminlari umumadabiy tilimizning hamda shevalarimizning leksik tarkibini boyituvchi muhim manbadir.

Masalan, hozirgi murakkab mashinalarning anchaginasi insoniyat tomonidan eng qadimgi zamonlarda yaratilgan sodda texnikaning rivojlana borib, yuksak darajaga erishuvining natijasidir. Kishilik jamiyatining ilk davridagi kichik, sodda uylarning eshiklari ham, hozirgi zamonning yuksak texnikasi

samarasi bo‘lmish reaktiv samolyoti yoki so‘nggi rusumdagi avtomashinalarning, suvosti kemalarining eshiklari ham hozirgi og‘zaki va adabiy tilimiz leksikasida eshik deb yuritiladi. Quldorlik tuzimi davri ixtirosi bo‘lmish kulollik charxining yoki odditiy suv tegirmonining parra va o‘qlari hamda hozirgi zamon samolyot, vertolyot kemalarining o‘sha xil qismlari shu nom bilan yuritilad **[**5,2010:147**].**

Demak, eski texnika elementlari va ularning nomlari har choq texnikaning keyingi taraqqiylashgan yangi shakllariga ham o‘tadi.

Shuningdek, mehnat jarayonida yaratilgan so‘z-terminlar fanning qariyb hamma tarmog‘iga oid leksikasini doimo to‘ldirib kelgan. Kasb-hunar ahllari tomonidan ishlab chiqarilgan rang-barang mahsulot xalqning isre’moliga o‘tishi, uni jamiyatning turli tabaqasi ishlatishi natijasida ularning nomini ifodalovchi maxsus terminlar ham umumiste’mol so‘zga aylanib ketadi. Ular ishlatila-ishlatila majoziy ma’nolarga kiradi, har xil o‘xshatishlar uchun asos bo‘ladi, maqol, matal, doimiy va frazeologik iboralar tarkibida qo‘llanila boshlaydi [3, 2019**],** lug‘at tarkibini boyitadi. Masalan, tikuvchilik asboblaridan birining nomini ifodalovchi *iyna* termini: *,,ipidan iynasigacha’’*- butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha batafsil; *,,iyna minan quduq qazuv’’* – juda qiyin, bajarilishi amrimahol bo‘lgan ish; *,,Iynaday gapni tuyaday qildi’’* – mubolag‘a qilib, bo‘rttirib yubordi. Yana *tesha* so‘zi *,,tesha tiymagan so‘z’’*- hazil-mutoyiba yo‘li bilan aytiladi, yangi fikr ma’nosida; *bo‘zchi, moki* so‘zlari - *,,bo‘zchining mokisidek’’* – tez-tez qatnab sarson bo‘lish ma’nosida; o‘roq, ketmon so‘zlari *,,o‘tkanning o‘rag‘in, ketkanning ketmanin aluv’’* – urushqoq, boshqalarni bezor qiluvchi shaxslar haqida aytiladi, *,,ketmani uchdi’’- omadi keldi’’* – omadi keldi ma’nosida; *tegirmon* so‘zi *,,degirmanga tushsa, putun chig‘adi’’* – har qanday qiyin sharoitdan ham qutulish yo ‘lini topa oladi ma’nosida; *temir* so‘zi *,,temirni qizig‘ida bos’’* – biror ishni ayni vaqtida qil ma’nosida; *temirchi* so‘zi esa ,,ota-bobong temirchi o‘tganmi’’ – sergap, gapni ortiqcha cho‘zuvchi kishiga aytiladi. Buning sababi shuki, temirchi temirni qizdirib, bolg‘alab *choz‘a*-cho‘za buyum yasaydi, bunda gapni cho‘zish temirni cho‘zishga ox‘shatiladi. Bu misollardagi, aslida, kasb-hunar leksikasiga *oid igna, tesha, bo‘zchi, moki, temir, o‘roq, ketmon* terminlari so‘zlashuvimizda majoziy ma’nolar va turlicha o‘xshatishlar uchun xoslashib qolganini ko‘ramiz. Ba’zan shunday ham bo‘ladiki, iste’moldagi so‘zlar biror kasb ahllari tomonidan kasb-hunar hayotidagi ayrim voqea va hodisalar bilan bog‘lanib, maxsus ma’nolarda ishlatiladi va o‘sha xos ma’nolarida yana umumiste’mol leksikaga qaytadi. **[**1, 2021:176**]**.

Kasb-hunar terminlarining ko‘chma ma’nolarda ishlatiladiganlardan yana *zarshunos* terminini keltirish mumkin. *Zarshunos*, aslida, *za*r (oltin)ni (umuman nodir metallni) sifat jihatdan ajrata oladigan mutaxassis ma’nosida bo‘lsa-da, so‘zlashuv tilida yaxshi narsani yomondan ajrata biluvchi, biror ish va hodisaga

nozik qaray biluvchi kishi ma’nosida qo‘llanilib kelgan va shu ma’noda adabiy tilga ko‘chgan **[**3, 2019:12-14**].** Umumiste’moldagi va asosiy lug‘at tarkibidagi ayrim so‘zlar kasb-hunar leksikasida maxsus narsa va tushunchalarni ifodalovchi terminga aylanishi va shu ma’nosi bilan tilga qaytishi mumkin. Bunga tanqidiy g‘arch so‘zi misol bo‘la oladi. Kosiblar oyoq kiyimni kiyib, yerni bosganda g‘irchillagan ovoz chiqarishi uchun uning tovoniga yoki tagcharm bilan patak orasiga qirqilgan mayda charmlar qo‘yib yuboradi. Shu bo‘lakni g‘arch, oyoq kiyimni esa *g‘arch etik* deb yuritadilar. Bu nom kosiblar leksikasidan so‘zlashuv tiliga, undan adabiy tilga ham kirib singib ketgan. Masalan, shoir Zavqiy bu so‘zni shu ma’noda o‘z she’rida ishlatgan:

Davlat-u izzu sharaflar mardi bodunyoniki,

Bu zamonda g‘arch kavush kiygan silliq salloniki. **[**4, 2019: 234**].**

Shoir bundagi ,,g‘arch kovush kiygan’’ iborasini boy, boyvachcha, savdogar ma’nosida ishlatgan va o‘z zamonasining sinfiy munosabatini ochish uchun bu iboradan foydalangan. Bu so‘z Hamza Hakimzoda Niyoziy asarlarida ham uchraydi:

“Poshnasi past amirkon etikcha, g‘arch qo‘yilgan qoshiqday kovushlar yer yuzidagi bor kinnalarni o‘ziga chaqirib oladi, xolajon”.

Hozir *g‘arch* so‘zining shu ma’nosi asosiy lug‘at tarkibiga ham kirgan. Yana *egov* so‘zi ham majoziy ma’noda uchraydi. Kishining joniga tegib, asabini buzuvchiga qarata: “Sen buncha egov bo‘lding?”, “U juda egov-da!” deyiladi.

Xalqning og‘zaki ijodi, shevalari singari yozma adabiyot ham har doim o‘z lug‘at tarkibini turli-tuman kasb-hunarga oid so‘z va terminlar hisobiga boyitib kelgan. O‘tmishda ham, hozirgi kunda ham yozuvchi va shoirlarning ijodida xalq kasb-hunar terminlari ko‘plab ishlatilgan. Bu hol yozuvchi ijodida fikrlar, voqea va hodisalarning ijtimoiy hayot va mehnat bilan bog‘lanishi, asarda ishlab chiqarish manzarasini paydo etish va personajlarni so‘zlatish natijasida yuz beradi. Kasb-hunarga oid so‘z-terminlarning ana shunday shevalar va og‘zaki adabiyotlarda ishlatilishi va iste’moldagi leksikada keng qo‘llanilishi natijasida ular tilning asosiy lug‘at tarkibidan o‘rin oladi. Masalan, metallsozlikning deyarli hamma tarmog‘ida ishlatiladigan sandon (temirchi, miskar va zargarlarning qizdirilgan metallga ishlov berish (bolg‘alashda) uning ostiga qo‘yadigan asbobi, temir kunda) umumxalq tilida juda keng qo‘llaniladi, folklorga, yozma adabiyotga kirgan, asosiy lug‘at tarkibidan o‘rin olgan. O‘zbek xalq maqollari orasida ham uchraydi:

Ish yurishsa, shisha sandon sindiradi,

Ish yurishmasa, bulamiq dandon sindiradi **[**6,1989:511**].**

Badiiy asarlarda ham bu so‘zni uchratamiz: “Qudrat yarim vayrona do‘konda beligacha chuqurga tushib olib, uzun temir qisqichda qisilgan bir yumaloq temir cho‘g‘ni sandonda bog‘lamoqda edi”.

Yuqoridagi misollar kasb-hunar leksikasining umumxalq tili, adabiy til va asosiy lug‘at tarkibi bilan o‘zaro munosabatda rivojlanishini yaqqol ko‘rsatadi.

Xullas, shevalar va adabiy til lug‘at boyligini boyitishda kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, zargarlik, kashtachilik, etikdo‘zlik, ovchilik kabi kasb-hunar atamalarining o‘rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Ashirboyev. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b .

2. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 196 b.

3. A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021.

4. Zavqiy. Tanlangan asarlari. Ajab zamona. – Ziyouz.com kutubxonasi, 2019. – 234 b.

5. Murzakalom Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha. – Toshkent: Sharq, 2010. – 258 b.

6. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. –501 b.

QIPCHOQ SHEVALARIDA HARAKAT FE’LLARI

Suvonova Rohila Akramovna,

Samarqand davlat universiteti dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qipchoq shevalariga xos harakat fe’llarining ayrim xususiyatlari haqida fikr yuritildi. Harakat fe’llarining ko‘p qirrali ekanligi va ularning holat fe’llaridan farqlanishi ko‘rib o‘tildi va harakat fe’llariga misollar keltirildi.*

Kalit so‘zlar: *lahja, qipchoq shevasi, harakat fe’llari, dialekt va misollar.*

Annotation. *In this article, it was conceived some features of the specific action verbs in Kipchak dialects. The universality of action verbs and their difference from condition verbs were considered and examples of action verbs were given.*

Key words: *Lahja, Kipchak dialects, action verbs, dialects and examples.*

O‘zbek adabiy tilining rivojlanish zaminida dialektizmlar muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tili uch lahjadan tashkil topgan bo‘lib, uning shakllanishida qarluq, o‘g‘uz va qipchoq urug‘-qabila uyushmalari barobar ishtirok etgan va yagona umum o‘zbek tilini vujudga keltirgan.

Qipchoq shevalarida harakat bildiruvchi so‘zlarning hududiy joylashuviga va ularning valentliklari, harakat bildiruvchi so‘zlar bilan bog‘liqligi bo‘yicha semantik guruhlarga ajratib o‘rganish mumkin. Shevaga xos harakat bildiruvchi so‘zlarga oid dialektizmlarga misollar to‘plandi va tahlil qilindi. Qipchoq shevasiga bo‘lgan qiziqish va yangi ilmiy tadqiqotlar kundan-kunga ortib bormoqda. Bu kichik maqolamiz ham ushbu mavzuga bag‘ishlanadi.

Ma’lumki, shevashunoslikning tamal toshini A.Fitrat, G‘.O.Yunusov, D.E.Polivanov, S.Ibrohimov kabi zabardast olimlar qo‘yib bergan. O‘zbek shevashunosligi fani ham o‘zining ko‘p yillik tarixiga ega.

Filologiya fanlari doktori, professor Xudoyberdi Doniyorov tilimizning lahja va shevalarini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan, tilimizni yot ta’sirlardan saqlagan va shevalardan oziqlanib boyib borishining otashin tarafdori va targ‘ibotchisi bo‘lgan buyuk shevashunos olimdir.

O‘zbek tilshunoslarining hozirgi avlodi hur va ozod Vatanda va davrda yashamoqdalarki, endilikda ustoz orzu qilgan tadqiqotlarni amalga oshirish, ya’ni adabiy tilimiz hamda lahja va shevalarimizni bir butun holda o‘rganish, bir-birini suyagan, to‘ldirgan, boyitgan, go‘zallashtirgan ikki tafakkur, madaniyat va ma’naviyat bulog‘i sifatida o‘rganish vaqti keldi.

Bugungi kunda, shevashunos olim, professor Samixon Ashurboyev dialektologiya sohasida katta ilmiy ishlar olib bormoqda va shevaga xos so‘zlarning yangi qirralarini ochmoqda.

Xalq shevalari va dialektlarni ichki imkoniyat sifatida adabiy tilimiz bilan bog‘lab o‘rganish sohasida ham keyingi vaqtlarda jiddiy ishlar qilinmoqda. Tilshunosligimiz uchun bunday ishlarning ham benihoya zarurligi shubhasizdir. Chunki u yoki bu dialektning, u yoki bu guruh shevalarning adabiy tilimizga qo‘shgan hissasi va unga beradigan imkoniyatlarini o‘rganmasdan turib, adabiy tilimizning istiqbolini belgilash, uning kelajagini ta’minlash ancha qiyin.

Masalaga shu nuqtayi nazardan qaraganda, professor Y.D.Polivanov, G‘ozi Olim, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, B.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, S.Ibrohimov hamda U.Tursunov, M.Mirzayev, A.Aliyev, G.F.Blagova, B.Jo‘rayev va boshqalarning xalq shevalarini tasnif qilish va ularni adabiy tilimiz bilan bog‘lab o‘rganish sohasida qilgan ishlarining ahamiyati tilshunosligimiz va shevashunoslik uchun benihoya katta ishdir. Uch lahja ichida

keng masshtabni qipchoq lahjasi egallaydi. Qipchoq lahjasiga xos harakat fe'llari kundalik nutqimizning asosini tashkil etadi.

Qipchoq shevasidagi ayrim harakat fe'llarini ko'rib o'tamiz: **qo'zg'adi, chayqadi, juvutti, quritti, ko'pchitti, taradi, sovdi, juvdi, jildirdi, chaydi, jaydi, osti, sog'inni, kuydi-jondi, shipirdi, suv septi, kulli, ovdardi, jomadi, kalladi, zingraydi.**

Keltirilgan harakat fe'llarini xalq og'zaki ijodida quyidagi misollar tartibida ko'rishimiz mumkin.

1. U nimagadir norizo bosh **chayqadi.**
2. Kech bo'lsayam siyirdi **sovdi.**
3. U enasini judayam **sog'inni.**
4. Qiz miyig'ida **kulli**, aybini ukasiga **ovdardi.**
5. Solivoy nima qilishini bilmay **zingraydi.**
6. Hajaroy aybini tan olmay otasiga qarab **cho'pchidi.**

Shunday qilib, shevalar o'zbek tilining so'z xazinasi bo'lib, bu hol ayniqsa ularning harakat bildiruvchi leksik tarkibida ko'rinadi.Shuningdek, o'zbek jonli tili o'ziga xos bo'lgan tub leksik qatlamga ham ega. Ayni vaqtda bu umumiy leksik fond o'zbek tili lug'at boyligining asosini tashkil qiladi.

Qipchoq shevalariga xos so'zlarni o'rganish hozirgi kun talabi bo'lib, yoshlar unutib qo'yadigan shevaga xos so'zlarni kengroq tahlil va targ'ib qilish, yanada izlanishlarni davom ettirish bugungi kun talablaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дониёров Х. Ўзбек халқининг шажара ва шевалари. –Тошкент: Наврўз, 2017.
2. Аширбоев С. Ўзбек диалектологияси. Тошкент, 2018.
3. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Фан, 1978.
4. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. Тошкент: Фан, 1969.
5. Сувонова Р. Қипчоқ шевасига хос сўзлар луғати. СамДУ, 2018.

O'ZBEK SHEVALARIDA SO'Z YASALISHI
(NAVOIY VILOYATI SHEVALARI MISOLIDA)

Raxmonov Navro'z Sattorovich,
Navoiy davlat pedagogika instituti
katta o'qituvchisi,
f.f.f.d. (PhD) *navruz_nspi@mail.ru*

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘zbek shevalarida so‘z yasalishi masalalariga bag‘ishlangan. Unda so‘z yasalishi va tuzilishi, so‘z yasalish qoliplari, so‘z yasovchi qo‘shimchalarning dialektal xususiyatlari yuzasidan Navoiy viloyati o‘zbek shevalari materiallari tahlili asosida muayyan xulosalar chiqarilgan. Hudud shevalaridagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar o‘zbek adabiy tili va boshqa o‘zbek shevalari materiallari bilan qiyoslanib, ularning areal tavsifi berilgan. Shuningdek, maqolada shevalardagi ayrim so‘z yasovchi qo‘shimchalarning etnolisoniy vosita ekanligi xususida ham mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *so‘z yasalishi, morfologik usul, yasama so‘z, so‘z yasovchi qo‘shimcha, areal, etnolisoniy.*

Annotation. *This article deals with word formation in Uzbek dialects. It draws certain conclusions on the basis of the analysis of materials of Uzbek dialects of Navoi region on word formation and structure, word formation patterns, dialectal features of word-forming suffixes. The word-formative affixes in the regional dialects are compared with the Uzbek literary language and materials of other Uzbek dialects and their area description is given. The article also argues that some word-formative suffixes in dialects are ethnolinguistic.*

Keywords: *word formation, morphological method, artificial word, word-forming adverb, area, ethnolinguistics.*

O‘zbek shevalarida so‘z yasalishi masalalari S.Ibrohimov, M.Mirzayev, Q.Muhammadjonov, T.Yo‘ldoshevlarning ishlarida atroflicha o‘rganilgan [Иброҳимов, 1967: 260. Йўлдошев, 1986: 99. Мирзаев, 1965: 461. Муҳаммаджонов, 1983: 166.]. Shunga qaramasdan, mazkur muammoni yetarli darajada tadqiq qilingan deb bo‘lmaydi. Qolaversa, so‘z yasalishining lingvoareal, etnolisoniy jihatlariga ham ko‘proq e’tibor qaratish va ilmiy asoslarda o‘rganish soha taraqqiyoti uchun yangi materiallar berishi shubhasiz. Zero, “So‘z yasalishi muammosining tadqiqi dialektlarni o‘rganish bilan uzviy bog‘liq. O‘zbek so‘zlashuv nutqi materiallari o‘zbek tili so‘z yasalishida hali aniq bo‘lmagan ayrim masalalarning yechimi uchun foydali ma’lumotlar bera oladi” [Гулямов А.К. К некоторым вопросом аффиксации в узбекском языке // Ғуломов, 2005: 15]. Shevalarda o‘zbek adabiy tili va yozma yodgorliklar tilida qayd etilmagan o‘ziga xos yasama so‘zlar, so‘z yasovchi qo‘shimchalar, so‘z yasalish qoliplari mavjud. Bunday birliklar lingvistik material bo‘libgina qolmay, balki xalqning turmush tarzi, madaniyati, kasb-kori, voqelikni idrok etishdagi tasavvurlari kabilar xususida ham qimmatli ma’lumotlar bera oladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagidek shevalarda ham morfologik usul (affiksatsiya) da so‘z yasalishi eng faol usul hisoblanadi. Buning o‘ziga xos

tomonlari shundaki, affiksatsiya usuli boshqa tillarga mansub so‘zlardan yoki boshqa turkumga oid so‘zlardan so‘z yasashga keng imkoniyatlar beradi. “Yasama so‘zning har biri o‘ziga xos mohiyatga ega bo‘lgan ikki qismdan – so‘z yasalish asosi va so‘z yasovchidan tarkib topadi” [Ҳожиев А., 2010. 77]. Yasama so‘zning ma’nosi shu so‘z tuzilishidagi yasovchi asos va yasovchi qo‘shimchaning ma’nosi asosida kelib chiqadi. O‘zbek adabiy tilidagi yasama so‘zlar bilan shevalardagi yasama so‘zlarning yasalishida, ichki komponentlarining semantik bog‘lanishida o‘xshash, umumiy jihatlar bo‘lsa-da, ayni paytda shevalarning o‘zigagina xos bo‘lgan xususiyatlar ham mavjud. Buni Navoiy viloyati o‘zbek shevalaridan to‘plangan lisoniy dalillar ham tasdiqlaydi.

Shevalarda muayyan so‘z ma’lum bir so‘z yasovchi qo‘shimcha vositasida yasama so‘zga aylanib, barcha shevalarga tarqalib, umumiste’moldagi so‘zga aylanishi, shu bilan birga, faqat muayyan birgina hudud shevasi doirasida uchrashi mumkin. Masalan, *tandir* so‘ziga *-chi* qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasalgan *tənd’rch’* (*tənγrchi // tənөrch’*) so‘zi barcha o‘zbek shevalariga, jumladan, o‘zbek adabiy tiliga ham xos. Biroq Navoiy viloyati qipchoq tip shevalarida keng iste’molda bo‘lgan *uyutqi* so‘zi o‘zbek adabiy tilida uchramaydi. Bu tushunchani ifodalashda esa o‘zbek adabiy tilida *tomizg‘i, achitqi* so‘zlaridan foydalaniladi. *Uyutqi* dialektal so‘zi *ivitmoq* fe’lining fonetik o‘zgargan shakli – *uyutmoq* fe’lining asosiga *-qi* qo‘shimchasini qo‘shish asosida yasalgan: *“qatiq tayyorlashda, ya’ni ivitishda kerak bo‘ladigan oz miqdordagi qatiq yoki suzma”*. *Tomizg‘i* – qatiq ivitish uchun sutga solinadigan achitqi [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2007. 140]. *Achitqi* – achitma hosil qiladigan narsa; ivitqi, turush, xurush [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 2006: 122]. Bu so‘zlar shevalararo ham turli ko‘rinishlarga ega. Qiyos. Xorazm: *aqliq*, *damizliq*; Qashqadaryo: *damizdiriq;* Surxondaryo: *undirgi.*

Navoiy viloyati shevalari bo‘yicha to‘plangan lisoniy dalillar shuni ko‘rsatadiki, shevalarda muayyan qolipda yasalgan so‘zlarning shevalararo qo‘llanilish darajasi ko‘p hollarda bir xil emas. Masalan, *-ma* qo‘shimchasi vositasida, o‘zbek adabiy tilidagidek, shevalarda ham fe’llardan narsa otlari yasaladi. Biroq bu yasalmalarning tarqalish areallari turlicha bo‘lishi mumkin. Masalan, *jilitma* (isitilgan taom) so‘zi Xatirchi tumanining qipchoq tipli Toroma, Sayyod, Qozoq, Qrim qishloqlari shevalarida uchragani holda biroz kengroq arealni tashkil etsa, *-ma* qo‘shimchasi vositasida yasalgan *uyurma* (qatlama) so‘zi esa qipchoq tipli Xatirchi tumanining Xuddon qishlog‘i shevasidagina qayd etildi. Shevalardagi yana bir muhim jihat. Birgina hudud shevasidagina qayd etilgan so‘z yasovchi qo‘shimcha yoki yasalma masofa jihatdan ancha uzoq bo‘lgan hudud shevalarida aynan yoki fonetik farq bilan uchraydi. Fikrimizning dalili sifatida dialektal *jarg‘ы* (arra) so‘zini keltiramiz. O‘zbek adabiy tilida

[fe'l+ -g'i = narsa oti] qolipida *chalg'i* (uzun dastali o'roq), *burg'i* (parma) kabi yasama so'zlar yasalgan. Shu qolipning mahsuli sifatida yasalgan dialektal *jarg'ы* so'zi Navoiy viloyatining Xatirchi tumani hududidagi qipchoq tipli Sayyod, Toroma, Qozoq qishloqlari o'zbek shevalaridagina uchraydi. Shu bilan birga, mazkur so'z Navoiy viloyatining qipchoq tipli boshqa shevalarida qayd etilmagani holda Tojikistondagi qipchoq tipli o'zbek shevalarida fonetik jihatdan farqli holda – *yarg'ы* shaklida uchraydi: *yarg'ыla* (arrala) [Йўлдошев, 1986: 76].

Narsa oti yasovchi *-gich / -g'ыch* qo'shimchalari shevalararo turli so'zlarning tarkibida kelishi bilan tavsiflanadi. Chunonchi, *-gich* qo'shimchasi ishtirokida Xatirchi tumanining qipchoq tipli Oltinsoy, Qrim qishloqlari shevalarida uchraydigan *yɔvg'ch* (qozon qopqog'i) so'zi tarkibida fe'ldan narsa oti yasalgan. Ayni so'z Shahrisabzning Sho'rqul, Bashqob qishloqlari shevalarida *jɔvg'ыch* tarzida ham uchraydi [Жўраев, 1969: 132]. Shuningdek, bu qo'shimchalar ishtirokida yasalgan so'zlarning qoliplari o'zbek adabiy tili hamda shevalararo ham tafovut qiladi. Masalan, qipchoq tipli Sayyod, Toroma shevalarida *[fe'l+-g'ich =narsa oti]* qolipida yasalgan *jɔpыng'ыch* (yopinchiq) so'zi mavjud. Mazkur qolip o'zbek adabiy tili uchun ham xos. Biroq bu qo'shimcha qipchoq tipli Xuddon qishlog'i shevasida uchraydigan *chɔyg'ыch* (choy qaynatishda foydalaniladigan idish, oftoba) so'zi tarkibida esa narsa otidan narsa oti yasagan. So'z yasashning *[narsa oti+-g'ich =narsa oti]* qolipi esa hudud shevasigagina xos. Xatirchi tumanining Mirdosh qishlog'i hamda qo'shni Samarqand viloyati Narpay tumanining Mehrjon qishlog'i shevalarida "*kinnachi, suq chiqaruvchi shaxs"* ni ifodalashda *ilgir* so'zi qo'llaniladi. Bu so'zning yasalishi ham mazkur hudud shevalarigagina xos bo'lib, o'zbek adabiy tilida so'z yasashning *[fe'l + -gir = shaxs oti]* tarzidagi qolipi mavjud emas. Bu kabi lisoniy dalillar tadqiq etilayotgan shevalar so'z yasalishining o'ziga xos bo'lgan ichki taraqqiyot yo'li mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiq etilayotgan Navoiy viloyati o'zbek shevalarida turli kasb-hunar egalariga taalluqli bo'lgan shaxs otlari *-chi* qo'shimchasi vositasida yasaladi: *shuvɔxch'* (suvoqchi), *tey'rmɔnch'* (tegirmonchi), *tannurch'* (tandir yasaydigan kishi), *nəmətch'* kabi. Bunday so'zlarning shevalarda ko'plab uchrashi qator omillar bilan izohlanadi. Hudud aholisi qadimdan hunarmandchilikning turli sohalari bilan shug'ullanishgan. Shu sababli shevalarda ham *-ch'* affiksi so'z yasalishida faol qo'shimcha hisoblanadi. Shuningdek, tadqiq etilayotgan hududning qipchoq tipli shevalarida uchraydigan *ɣshəkch'* (g'iybatchi), *ətr'kch'* (yolg'onchi), *jɣpkərch'* (gap tashuvchi) kabi so'zlar tarkibidagi *-chi* yasovchi qo'shimchasi lisoniy ong mahsuli bo'lgan so'z yasalish qoliplarining ancha qadimiy hodisa ekanligini, shevalarda tilning ko'hna holati saqlanib kelinayotganining isbotidir. Shevashunos X.Doniyorov Samarqand sharqiy

qipchoq shevalarida qadimgi turkiy til davriga xos *o‘tirik* (yolg‘on) so‘zi saqlanganligini qayd etadi [Дониёров,1979: 92].

Navoiy viloyatining Qiziltepa, Nurota tumanlarida ikki tillilik (o‘zbek-tojik) hodisasining mavjudligi sababli o‘zbek shevalari tarkibida ko‘plab tojikcha so‘z yasovchi qo‘shimchalar ham uchraydi. Jumladan, shaxs oti yasovchi *-do‘z* qo‘shimchasi, barcha o‘zbek shevalarida bo‘lgani singari, tadqiq etilayotgan shevalarda ham turli xil kasb bilan shug‘ullanuvchi shaxs otlarini yasaydi: *yərmədөz (jiyak tikuvchi), kəshtədөz, giləmdөz, zərdөz, etikdөz, jɔmədөz (chopondo‘z), kənədөz (eski poyabzallarni ta’mirlovchi usta)*.

Hududning o‘zbek-tojik ikki tilli G‘azg‘on, Nurota, Dehibaland shevalarida o‘zbek adabiy tilidagi *chakich* so‘zi *xɔlzanak, naxsanak* kabi so‘zlar vositasida alohida nomlanadi. *Xɔlzanak* (fors-tojikcha *xol + zan* (*urmoq* fe’lining II shaxs buyruq shakli) + *-ak* (narsa oti yasovchi qo‘shimcha), ya’ni *xol* (*doira) shaklidagi chakich*ni; *naxzanak* (*naqsh* + *zan* (*urmoq* fe’lining II shaxs buyruq shakli) + *-ak* (narsa oti yasovchi qo‘shimcha), ya’ni *nonning yuza qismiga naqshli iz qoldiradigan chakich*ni ifodalaydi. Novvoylik atamalarining bu xilda atalishi qadimdan Nurota hududida mazkur sohaga alohida e’tibor qaratilgani va uning rivoj topganligini anglatadi. Shuningdek, o‘zbekcha-tojikcha ikki tilli Qiziltepa shevalarida keng tarqalgan *pərpərə* (g‘ira-shira, kechki payt), *chuqchuqa* (chakich) so‘zlarida *-a* qo‘shimchasi taqlid so‘zdan ot yasagan. Bunday lisoniy dalillar ayni paytda qondosh o‘zbek va tojik xalqlarining o‘zaro moddiy-maishiy, madaniy-ma’rifiy munosabatlaridagi mushtaraklikning chuqur ildizlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Shuningdek, tadqiq etilayotgan shevalarda adabiy tildagi *supurgi* so‘zining *shuutki, shibirtki, shibirtqi, shipirgi* kabi yasama fonetik ko‘rinishlari bo‘lib, ularning shevalararo turlicha qo‘llanilishi o‘zining ma’lum dialektal asoslariga ega. *Shuutki, shibirtki, shibirtqi, shipirgi* so‘zlari tarkibidagi *-gi // -ki // -qi* qo‘shimchalari fe’ldan narsa oti yasagan.

O‘zbek adabiy tilidagi *-lik, -liq* qo‘shimchalari ham o‘zbek shevalarida, shuningdek, tadqiq etilayotgan shevalarda turli ma’noviy guruhlarga mansub otlarni yasaydi: qipch. *mɔylыq* (moy artish uchun sochiq), *ɔylыq* (maosh), *do‘stlыq, yamanlыg‘, dөngsəl’k / dөngl’k* (tepalik), *ch’rg‘l’k* (otning abzalini tayyorlashda foydalaniladigan mato; *ch’rg‘ – otni egarlashda otning sirtidagi ter (nam)ni o‘ziga qabul qilish uchun kigiz solib qavilgan va egar ostidan qo‘yiladigan jihoz* [Мирзаев, 1991: 99]. Shuningdek, hudud shevalarida quyidagi qo‘shimchalar vositasida ham otlar yasaladi:

-ɣch: t’rnəɣch (panshoxaning bir turi), *tɣyrɔɣch* (ad.til. *to‘g‘nag‘ich*; tuyramoq – qadamoq).

-ыq: *tutantыgыq* (olov yoqish uchun to‘plangan xas-xashak).

-ək: b'ngək (kichik sariq ari), *xɔm'shək* (pashsha turi). *B'ngək* so‘zi qipchoq tipli shevalarda keng tarqalgan. *Xɔm'shək* dialektal so‘zi qarluq tipli Qiziltepa, Karmana shevalarida keng qo‘llaniladi. Qiyos. Shahrisabz, Yakkabog‘: *xɔmishək* [5, 106].

-machɔq // -machalɔq: yashinmachɔq // yashinmachalɔq (bekinmachoq).

-'nd': chaqir'nd'. Qiz uzatilgach, uning ota-onasi tomonidan qizi va u bilan hamroh bo‘lib kelganlarga ziyofat berish maqsadida tashkil etiladigan marosim nomi. Bu so‘z Xatirchi tumanining qipchoq tipli ko‘pgina o‘zbek shevalarida uchraydi.

-uv: *p'chuv* (unashtiruv). Xatirchi tumanining qipchoq tipli barcha shevalarida uchraydi. Qo‘shni Samarqand viloyati Narpay tumanining Mehrjon qishlog‘i shevasida *p'char* tarzida uchraydi.

-ыq: *jarыq* (yoriq joy). Xatirchi tumanining Sayyod, Toroma, Qrim, Qozoq qishloqlari shevalariga xos.

O‘zbek shevalaridagi sifat yasovchi qo‘shimchalar o‘zbek adabiy tilidagidek bo‘lsa-da, muayyan darajada farqlanishga ham ega. O‘zbek adabiy tilidagi *-li* sifat yasovchisi Navoiy viloyati o‘zbek shevalarida turli variantlari bilan qo‘llaniladi. Ma'lumki, ***-li*** affiksi *-liq // -lig‘ // -lik // -lig* affikslaridan rivojlangan [Абдураҳмонов, Шукуров, Маҳмудов, 2008:119]. Tadqiq etilayotgan hudud o‘zbek shevalarida faqatgina *-li* qo‘shimchasi emas, *-lik* va uning barcha ko‘rinishlari ham sifat yasashda ishtirok etadi. Masalan: *gul**li** ko‘ylak // gul**lik** ko‘ylak; uyutqi**liq** suzma, mani**lig‘*** odam kabi. Bu holat tadqiq etilayotgan hududning qarluq, qipchoq, aralash tipli shevalarida uchraydi. Shuningdek, sifat yasovchi *-li* va *-lik* (barcha variantlari bilan) qo‘shimchalarining farqlanmay almashinib qo‘llanishi Andijon, Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalarida ham uchraydi: And. *aq'll'g, ch'rɔ:l'k (ad.til. aqlli, chiroyli)*; JQO‘Sh: *balalыq, kəl'nn'k // kəl'nl'k (ad.til. bolali, kelinli)* [Иброҳимов, 1967: 178; Муҳаммаджонов, 1983: 42-43].

Tadqiq etilayotgan hudud shevalarida sifatlar, asosan, quyidagi yasovchi qo‘shimchalar vositasida yasaladi:

-k: mγrr'k (murigan, so‘ligan) so‘zi (yasalish asosi *muri* fe'li) tadqiq etilayotgan hududning qarluq va aralash tipli shevalarida uchraydi. Qiyos. Xiva: *mγrr'k* (burishgan, tirishgan; meva, qovun) [Абдуллаев, 1961:68].

-v'ch: *tөylɔv'ch* (to‘y-hashamga borishni xush ko‘radigan), *shɔxlɔv'ch* (suzag‘on) mɔl.

-xor: *qasamxor* (firibgar). Qipchoq tipli Xatirchi tumanidagi barcha shevalarda keng tarqalgan.

-kɔr: *xasыmkɔr* (buzg‘unchi, vayronkor). Qiziltepa, Karmana tumanidagi qarluq tipli shevalarga xos.

-lыqы: *bытlыqы* (bit bosgan). Qarluq, qipchoq, aralash tipli shevalarda uchraydi.

-k': *'lakk', ɔlakk'* (ilgarigi, oldingi). Qarluq tipli shevalarda keng tarqalgan bo‘lib, paytga xos belgi ifodalovchi sifatlar yasagan.

-g‘ы: qipchoq tipli Xonaqa, Oltinsoy, Uchqora, Chuya, Jarma shevalarida *burung‘ы, bɔynag‘ы* so‘zlari tarkibida payt ravishlaridan sifatlar yasagan.

-', -y' qo‘shimchalari ikki tilli (o‘zbek-tojik) hudud shevalarida

bəhɔr', t'rəmɔy' kabi so‘zlar tarkibida payt otlaridan sifatlar yasaydi.

O‘zbek adabiy tilidagidek, o‘zbek shevalarida, jumladan, Navoiy viloyati o‘zbek shevalarida ham sodda yasama fe’llar fe’l bo‘lmagan so‘zlarga so‘z yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shish orqali yasaladi.

Tadqiq etilayotgan hudud shevalarida ham *-la* faol so‘z yasovchi qo‘shimcha sifatida turli fe’llarni yasashga xizmat qilgan*: pang‘lamɔq // pang‘ызlamɔq* (pang‘ – mog‘or; mog‘orlamoq), *kəshshələmɔq* (ishkal chiqarmoq), *p'tələmɔq* (payvandlamoq), *sh'məngləmɔq* (pisib qaramoq), *berk'shləmɔq* (yashirmoq), *shɔvang‘lamɔq* (baqirmoq), *seltənglamɔq* (vaqtini behuda o‘tkazmoq), *pindыqlamɔq* (kurtak chiqarmoq), *pəp'rləmɔq* (katta gapirmoq) kabi.

Shuningdek, hudud shevalarida quyidagi qo‘shimchalar vositasida ham fe’llar yasaladi:

-lan: s'rqɔvlanmɔq (holsizlanmoq), *zыqlanmɔq* (zerikmoq).

-illə: bu qo‘shimcha taqlid so‘zlarga qo‘shilib, fe’l yasaydi: *d'ng‘lləmɔq* (sakramoq; ko‘chma. o‘zidan ketmoq), *j'k'lləmɔq* (maqtanmoq), *solqыllamɔq* (tashlanib turmoq; matoga nisbatan) kabi.

-(ə)r: bu qo‘shimcha ayrim sifatlardan fe’l yasaydi: *ɵngərmɔq* (kiyimni o‘ng qilmoq), *kənərmɔq* (eskirmoq). *Kənərmɔq* so‘zining yasalish asosi tojikcha bo‘lsa-da, (ko‘na – tojikcha *eski*) qipchoq tipli shevalarda, jumladan, Xatirchi tumani shevalarida keng tarqalgan.

-ay: *dog‘aymɔq* (o‘dag‘aylamoq). Xatirchi tumanining qipchoq tipli Toroma, Sayyod, Qrim qishloqlari o‘zbek shevalarida uchraydi.

O‘zbek adabiy tilidagidek, shevalarda ham bir yasovchi vositaning bir necha o‘zaro ma’nodosh asoslarga qo‘shilib so‘z yasashi kuzatiladi: *jənjəl**kəsh**, mɔjərɔ**kəsh*** kabi. Ba’zan esa bir yasovchi asosga birdan ortiq ma’nodosh so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilib keladi: *fɔydə**dɔn**, fɔydə**gər**, fɔydə**ch'**; jilit**ma**, jilit**qi*** kabi.

Navoiy viloyati o‘zbek shevalari bo‘yicha to‘plangan va o‘rganilgan sheva materiallari morfologik usulda yasalgan so‘zlarni quyidagicha guruhlash va tasniflash imkonini berdi:

1. Yasalish asosi ham, yasovchi vosita ham o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lgan, biroq adabiy tilda uchramaydigan yasama so‘zlar. Masalan, *ilgir (kinnachi, suq chiqaruvchi shaxs)* so‘zidagi yasovchi asos (il – fe’l) va yasovchi vosita (-gir) o‘zbek adabiy tilida mavjud, ammo ularning birikuvidan hosil bo‘lgan so‘z adabiy tilda uchramaydi. Xatirchi tumanining Langar shevalarida *qozon qopqog‘i* ma’nosini ifodalovchi *yovgich* so‘zining yasalish asosi (*yov –yop* fe’lining fonetik varianti) va yasovchi vosita *(-gich)* o‘zbek adabiy tilida ma’lum, biroq *yovgich* yasalmasi adabiy tilda uchramaydi.

2. Yasalish asosi o‘zbek adabiy tilida mavjud, ammo yasovchi vositasi shevaga xos bo‘lgan sodda yasama so‘zlar: *yashinmachaloq* (yashirin+machaloq; ad.orf. bekinmachoq), *achqamoq* (och+qa; ad.orf. och qolmoq) kabi.

3. Yasalish asosi shevaga xos bo‘lib, adabiy tilda uchramaydigan, yasovchi vositasi adabiy tilda mavjud bo‘lgan sodda yasama so‘zlar. Masalan, o‘zbek adabiy tilidagi *mog‘orlamoq* so‘zini tadqiq etilayotgan hudud shevalarida *panglamoq, pang‘izlamoq* fe’llari ifodalaydi. Ushbu fe’llarning yasalish asosi (*pang, pang‘iz)* o‘zbek adabiy tilida mavjud emas.

4. Qismlarining har ikkalasi (yasashga asos qism va yasovchi vosita) o‘zbek adabiy tilida mavjud bo‘lib, shevada aynan yoki fonetik jihatdan farqli holda qo‘llaniladigan sodda yasama so‘zlar. Masalan, *jilitma* so‘zi (isitilgan ovqat) so‘zining yasalish asosi dialektal *jilimoq* (ad.orf. ilimoq) fe’lining orttirma nisbat shakliga *-ma* yasovchi vositasini qo‘shish orqali yasalgan. *Uyutqi* (ad.til. achitqi) *uyut* (*ivimoq* fe’lining dialektal orttirma nisbat shakli) + *-qi* (narsa oti yasovchi) qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan.

5.Qismlarining har ikkalasi yoxud biri tojik tiliga mansub bo‘lib, ikki tilli shevalarda yasalgan, biroq o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan morfemalarga ajralmaydigan so‘zlar. Masalan, *bəndək* (ad.til. to‘g‘nag‘ich), *xɔ lzənək, nəxzənək* (chakich turlari) kabi.

6.Yasovchi vositasi adabiy tilda ma’lum, biroq yasalish asosi mustaqil ma’no bildirmaydigan so‘zlar. Masalan, *mujiriq* (nimjon), *seltanglamoq* (vaqtini behuda o‘tkazmoq), *shimanglamoq* (pisib qaramoq) kabi. Bunday so‘zlarning tadqiq etilayotgan hudud shevalarida ko‘plab uchrashi kelajakda o‘zbek dialektlarida so‘z yasalishi yuzasidan jiddiy tadqiqotlar olib borish zaruriyatini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. –Тошкент: ЎзФА, 1961. –348 б.

2. Абдураҳмонов Ғ., Шукуров Ш., Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент, 2008. –526 б.

3. Гулямов А.К. К некоторым вопросом аффиксации в узбекском языке // Аюб Ғуломовнинг илмий мероси. –Тошкент, 2005.

4. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. –Т.:Фан,1979. – 158б.

5. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. –Т.: Фан, 1969. – 168 б.

6. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси (фонетика ва морфология). –Тошкент: Фан, 1967. –260 б.

7. Йўлдошев Т. Тожикистондаги ўзбек шевалари морфологияси (Феъл). –Тошкент: Фан, 1986. –99 б.

8. Мирзаев М. Ўзбек тилининг Бухоро группа шевалари: филология фанлари доктори дисс. – Тошкент, 1965. –461 б.

9. Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. –Т.: Фан, 1991. –119 б.

10. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари морфологияси. –Тошкент: Фан, 1983. –166 б.

11. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. –Т.: Фан, 2010. –255 б.

12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. –Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – 679 б.

13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. IV жилд. –Тошкент: ЎзМЭ, 2007. –606 б.

IQON SHEVASIDA OLMOSHLAR XUSUSIDA

Xidraliyeva Zoxira,
ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Maqolada Iqon shevasida qo‘llanadigan olmoshlar va ularning turlanishi hamda murakkab olmoshlarni hosil qilishda yuzaga keladigan turli fonetik o‘zgarishlar, o‘ziga xosliklar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *sheva, adabiy til, lahja, olmosh, ko‘plik, kelishik, affiks, fonetik o‘zgarish.*

Annotation. *The article discusses the pronouns used in the Ikan dialect and their variations, as well as the various phonetic changes and peculiarities that occur in the formation of complex pronouns.*

Keywords: *dialect, literary language, pronoun, plural, affix, phonetic change.*

Shevalarda olmoshlar adabiy tildan jiddiy farq qilmaydi. Kishilik olmoshlari aynan yoki qisman fonetik o‘zgarish bilan qo‘llanadi [Ashirboyev, 2021: 69]. Iqon shevasida kishilik olmoshlari turkiy tillar [Щербак, 1977:124] kabi män, sän, u(l), bizär, sillär, ular tarzida qo‘llanadi.

Kishilik olmoshlari kelishiklar bilan quyidagicha turlanadi:

№	Kelishiklar	Adabiy tilda	Shevada
1	Bosh kelishik	*män, sän, u*	*men, sen, u*
2	Qaratqich kelishigi	*me:ŋ, se:ŋ, unïŋ*	*mening, sening, uning*
3	Tushum kelishigi	*me:ni, se:ni, unï*	*meni, seni, uni*
4	Jo‘nalish kelishigi	*maŋa//ma:, saŋa//sa, uŋa,*	*menga, senga, unga*
5	O‘rin-payt kelishigi	*me:ndä, se:ndä, unda*	*menda, senda, unda*
6	Chiqishi kelishigi	*me:ndin, se:ndin, u:ndïn*	*mendan, sendan, undan*

Ta’kidlash lozimki, kishilik olmoshlarining I va II shaxs birlikda bosh kelishikdagi *men, sen* shakli shevada *män, sän* hamda jo‘nalish kelishigida Xorazm shevalari kabi [Абдуллаев, 1961:157] *maŋa, saŋa* tarzida qo‘llanadi, lekin qaratqich, tushum, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari bilan turlanganda *me:ŋ, se:ŋ; me:ni, se:ni; me:ndä, se:ndä; me:ndin, se:ndin* tarzida shu bilan birga, men bilan ~ *me:m b^{i}läm,* sen bilan ~ s*e:m b^{i}läm* kabi ikki so‘zning talaffuzi jarayonida sandhi hodisasi yuzaga keladi, ya’ni oldingi so‘z nihoyasidagi tovush *n* (til) undoshi ikkinchi so‘zning birinchi tovushi *b* (lab) undoshiga moslashadi. Shu bilan birga *män, sän* olmoshlari tarkibidagi *ä* unlisi *e* ga moslashishi kuzatiladi.

KO‘PLIKDA

№	Kelishiklar	Shevada	Adabiy tilda
1	Bosh kelishik	*bizär, sillär, ular*	*biz, siz, ular*
2	Qaratqich kelishigi	*bizäriŋ, silläriŋ, ularïŋ*	*bizning, sizning, ularning*
3	Tushum kelishigi	*bizärni, sillärni, ularnï*	*bizni, sizni, ularni*
4	Jo‘nalish kelishigi	*bizärgä, sillärgä, ularγa*	*bizga, sizga, ularga*
5	O‘rin-payt kelishigi	*bizärdä, sillärdä, ularda*	*bizda, sizda, ularda*

6	Chiqishi kelishigi	*bizärdin, ulardïn*	*sillärdin,*	*bizdan, sizdan, ulardan*

I va II shaxs *biz, siz* olmoshlari ko‘plikda *bizär, sillär* tarzida qo‘llanadi, ya’ni *-lar* ko‘plik shakli bilan birga ifodalanadi, adabiy til va ba’zi shevalardagidek *biz, siz* tarzida qo‘llanmaydi [Иброҳимов,1967:156]. Shevada *siz* shakli II shaxs birlikning hurmat ma’nosini ifodalaydi, *sillär* esa ko‘plikni.

Iqon shevasida ko‘rsatish olmoshlaridan: *änä, mänä, u(l), bu(l), šu(l), anov, manov* olmoshlari qo‘llanadi, *o‘sha, ushbu* olmoshlari umuman qo‘llanmaydi.

u(l), bu(l), šu(l) olmoshlari kelishiklar bilan quyidagicha turlanadi:

№	Kelishiklar	Shevada	Adabiy tilda
1	Bosh kelishik	*u, bu, šu*	*u, bu, shu*
2	Qaratqich kelishigi	*unïŋ, munïŋ, šunïŋ*	*uning, buning, shuning*
3	Tushum kelishigi	*unï, munï, šunï*	*uni, buni, shuni*
4	Jo‘nalish kelishigi	*uŋa, muŋa, šuŋa*	*unga, bunga, shunga*
5	O‘rin-payt kelishigi	*unda, munda, šunda*	*unda, bunda, shunda*
6	Chiqish kelishigi	*undïn, mundïn, šundïn*	*undan, bundan, shundan*

Tadqiq etilayotgan shevada ham boshqa o‘zbek shevalari kabi [Шоабдураҳмонов, 1976:44] *u(l), bu(l), šu(l)* ko‘rsatish olmoshlari *yer, yoq* so‘zlari bilan qo‘shilganda, kuchli fonetik o‘zgarishga uchraydi: u yer ~ *e:, bu jer ~ be:, shu yer ~ še:;* u yoqqa ~ *jaqa, bu* yoqqa ~ *bʲja:qa, shu* yoqqa ~ *šʲja:qa.* U yerda nima ish qilasan? ***~ E:dä*** *ni:š qïlasa?* Bu yerga kim o‘tirdi ~ ***Be:*** *kim o:tïrdï?* Kuni *bo‘yi shu yerda bo‘ldim. ~ Küni bʲläm še:dä o:dïm.* U yoqqa, bu yoqqa jura bermay, ishingni qil ***~ Jaqa, bʲja:qa*** *jürä be:mäj, i:šiŋni qï.* Shu yoqqa hech kim o‘tmadimi ***~ šʲja:qa*** *he:š kim ö:tmädinä?*

Murakkab ko‘rsatish olmoshlarda ham turli fonetik o‘ziga xosliklar uchraydi: mana bu yerga ~ *mänäjgä,* mana bu yerda ~ *mänäjdä,* mana bu yerdan ~ *mänäjdin;* ana u yerga ~ *änäjgä,* ana u yerda ~ *änäjdä,* ana u yerdan ~ *änäjdin.* Mana bu yerga kel ~ *Mänäjgä kä.* Mana bu yerda men izlagan narsa bor ekan. ~ *Mänäjdä män izlägän nä:sä ba:r äkä.* Mana bu yerdan ~ *mänäjdin.* Shu bilan birga, ko‘rsatish olmoshlariga *-day, -dek* affikslari qo‘shilganda ham shevaga xos fonetik o‘zgarishlarga uchraydi: unday ~ *undaq, b*unday ~ *mundaq, sh*unday ~ *šundaq;* undek ~ *undaqa, b*undek ~ *mundaqa, sh*undek ~ *šundaqa.*

So‘roq olmoshlari. Shevada so‘roq olmoshlari adabiy til va boshqa shevalardagi ma’nolarga mos keladi, faqat, turli affikslarni qabul qilganda va so‘z birikmalarini hosil qilganda, o‘ziga xos fonetik o‘zgarishlarni ko‘rish mumkin:

kim, nima ~ *ni, qajsï //qaj*, qanday ~ *qandaq, qalaj, qanča, qajsï,* nimaga ~ *ni:gä,* nimada ~ *ni:dä,* nimadan ~ *ni:din,* qayoqqa ~ *kʲjaqqa,* qayoqda ~ *kʲjaqta,* qayoqdan ~ *kʲjaqtïn,* qayerga ~ *ke:gä,* qayerda ~ *ke:dä,* qayerdan ~ *ke:din,* nima qildi, ~ *niqïdï,* nima bo‘ldi ~ *nio:dï, qača:n, qanï, nechuk ~ näčik,* nima uchun~ *ni:üčün* so‘roq olmoshi ayrim o‘rinlardagina uchraydi ushbu olmosh, asosan, *ni:gä* yoki *hi:*olmoshi orqali ifodalanadi: Oyim kecha senikiga nima uchun kelmabdi? ~ *A:jam ke:čä se:ŋkä hi: kämäpti?* Nima uchun hamma *seni chaqiradi? ~ Hi hä:mmä se:ni ča:qïradï?* Nima uchun baqirding? ~ *Hi ba:qïrdïŋ?*

O‘zlik olmoshi. O‘zlik olmoshida shevaga xoslik kuzatilmaydi, adabiy til va boshqa shevalar bilan bir xil.

Gumon olmoshlaridan shevada *alla* elementi yordamida hosil qilingan gumon olmoshlaridan faqat *älläqandaq, biräv//birävlär* olmoshi va *pala:nča, tü:länčä* kabi olmoshlar uchraydi, ammo *-dir* elementi yordamida hosil qilingan gumon olmoshi, umuman, qo‘llanmaydi. Allaqanday bo‘lmasdan, aytib bergin. ~ *Älläqandaq o:labe:mäj e:däbe:säj*. Qilgan ishingni birov bildi deysanmi? ~ *Qïγan i:šiŋni biräv bildi de:jsänä? Uŋa da:jïm pala:nča bʲlän tü:länčä qarašadï, šu:lar bʲlän pitädi, unïŋ i:ši.*

Birgalik olmoshilaridan *hä:mmä, bä:ri, bütün* olmoshlari faol qo‘llanadi: *hä:mmä ba:llar, hä:mmä kädi, bä:ri baradïna, bä:ri kä:pti, bʲtu:n ö:jdin izlädim, bä:r i:šni qïdïm.* Shunisi xarakterliki, shevada birgalik olmoshi *butun* so‘zi tarkibidagi *b* tovushi o‘z pozitsiyasida mustahkam, ammo *butun olma, butun non* kabi so‘z birikmalarida *b ~ p* mosligi kuzatiladi, ya’ni *pü:tʲn alma, pü:tʲn na:n* kabi.

Bo‘lishsizlik olmoshilari ham adabiy tildan kichik fonetik farqlar bilan qo‘llanadi: *he:š kim, he:š nä:sä, he:š ke:gä, he:š kedä he:š ke:din, he:š qandaq, he:š bä:lä. Hech nima* olmoshi o‘rnida salbiy ottenkasi kuchli bo‘lgan *he:š bä:lä* olmoshi shevada ko‘p qo‘llanadi: Hech narsadan xabari yo‘q ~ *He:š bä:lädin xa:barï joq.* Hech narsa qolmabdimi? ~ *He:š bä:lä qa:maptïna?* Boshini qattiq urib oldi, hech narsa qilmadimi? ~ *Ba:šïnï qa:ttïq u:rïb a:dï, He:š bä:lä qa:maptïna*

Xulosa shuki, Iqon shevasida olmoshlar affikslar bilan qo‘llanganda, o‘ziga xos qator xususiyatlari bilan adabiy til va o‘zbek tilining boshqa shevalaridan farq qiladi.

Ayniqsa, ko‘rsatish olmoshlari *u yer, bu yer, shu yer, u yoq, bu yoq, shu yoq* kelishik affikslarini qabul qilganda, soddalashish va kuchli fonetik o‘zgarishlar o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961. –Б. 157.

2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 69.

3. Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967. – Б.156.

4. Шоабдураҳмонов Ш. Тошкент области ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.44.

5. Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюрских языков. – Ленинград: Наука, 1977. – С. 124

MINGBULOQ SHEVASINING O‘ZIGA XOS LEKSIK XUSUSIYATLARI

Usmonov Musurmon Mamirali o‘g‘li,
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi
musulmonusmonov3004@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada Mingbuloq tuman shevasi leksik birliklarining o‘ziga xos leksik-semantik jihatlari yoritilgan va ularning qo‘llanish areallari belgilangan.*

Kalit so‘zlar: *leksik birlik, semantik xususiyat, fonetik hodisalar, transkripsiya, dialekt, fonetik xususiyatlar, vokalizm, konsonantizm, kontrast unli*

Annotation. *The article describes the specific lexical-semantic aspects of the lexical units of Mingbulak district dialect and identifies the areas of their use.*

Keywords: *lexical unit, semantic feature, phonetic phenomena, transcription, dialect, phonetic features, vocalism, consonantism, contrast vowel*

Ma’lumki, shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi, hamda u milliy-ma’naviy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda, sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarurati ortib boraveradi. Zero, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning: “Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir”, degan so‘zlarni bejiz ta’kidlamagan edi [3:123]. Shubhasiz, o‘zbek shevalarini o‘rganishda shevalarga xos xususiyatlarni birgina tasviriy-tavsifiy jihatdan emas, balki aniq tarixiy-etimologik, turkiy va boshqa tillarning faktik elementlari asosida qiyosan tadqiq qilinishi va shu nuqtayi nazaridan baholanishi ko‘plab tarixiy-lingvistik, dialektologik, lingvogeografik, arealogik va hozirgi adabiy tildagi nazariy va amaliy muammolarning yechimini topishda juda katta yordam beradi [2:16].

Namangan viloyati, ayniqsa, Namangan shahar shevasi, o‘zining turfa xilligi va o‘zgacha jilosi bilan yurtimizdagi boshqa o‘zbek shevalardan fonetik, leksik, grammatik jihatdan tubdan farqlanadi. Shu bois ham tilshunoslaridan A.K.Borovkov, E.D.Polivanov, G‘ozi Olim Yunusov, V.V.Reshetov A.Aliyev, S.Otamirzayeva, S.Tulyakov, I.Darvishovlarning Namangan shevalari tadqiqiga bag‘ishlangan ishlari maydonga keldi.

Amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar o‘rganilishi natijasida ma’lum bo‘ladiki, Namangan shahar va Uychi, Uchqo‘rg‘on, Yangiqo‘rg‘on, Chortoq va Pop tuman shevalarining lingvistik xususiyatlari boshqa hududlarga nisbatan kengroq o‘rganilgan [6:54.]. Viloyatning aksariyat sheva areallari batafsil o‘rganilmaganligi uchun ular haqida fikrlar kam.

Mingbuloq tuman shevalari ham o‘zining fonetik, leksik, grammatik, xususiyatlari bilan boshqa shevalardan farqlanib turadi. Sheva areali shimolidan Chust va To‘raqurg‘on, shimoli-sharqdan Namangan, shimoli-g‘arbdan Pop tumanlari, janubi-sharqdan Andijon viloyatining Ulug‘nor, janubiy va janubi-g‘arbdan Farg‘ona viloyati Buvayda tumani bilan chegaradosh. Hududda 130000 ga yaqin aholi istiqomat qiladi [5:1]

Mingbuloq shevasi o‘zbek shevalarining kichik bir bo‘lagi sifatida umumturkiy va umumo‘zbek shevalarining leksik strukturasidagi mavjud unsurlarning o‘xshashligi kuzatiladi, biroq ayrim leksik-semantik xususiyatlari quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

I. Adabiy tilda uchramaydigan, faqat shevaga xos so‘z-terminlar:

Dog‘ocha [döγăča] – Mingbuloqning Rakasoviskiy qishlog‘ida kosa shaklidagi ichi chuqur idishga nisbatan ishlatilgan so‘z. Adabiy tilimizda bunday idish tovoq deb ataladi. Tovoq – yuzi yoyiq, biroz yalpoq, kosa shaklidagi chuqurroq idish (turli o‘lchamda spool, chinni, metal ba’zan marmardan tayyorlanadi) Sopol tovoq. Chinni tovoq. Tunuka tovoq.[1:130]

Bormovuch, bormoguch [bărmăvüč, bărmăgüč] – bormaydigan bo‘lib qolmoq. Boramiz deb kimnidir (masalan: shopirni) ishontirgan, lekin boradigan paytga kelganda bormaydigan bo‘lib qolingan vaziyatga nisbatan aytiladi. Bormovuch, bormoguch [bărmăvüč, bărmăgüč] so‘zi ishlatilganda borishiga ishontirilib qo‘yilgan shaxs bormaydigan bo‘lib qolgan shaxsga nisbatan xafa bo‘lmaydi.

Ovxir [ăvxir] – ot, sigir, qo‘ylarga o‘t, hashak berish uchun qilingan joyga nisbatan aytiladi. Ovxirga o‘t tashladim.

Malla [mällä] – yoyilgan xamirni dog‘ qilingan qozonda yaxshilib pishirilganiga aytiladi. Adabiy tilimizda bunday taomga qatlama deyiladi. Qatlama – oddiy xamirdan yupqa yoyib, yog‘da pishiriladigan taom.[5:261]

Surguruch[sürgürünč] – sutga guruch solinib pishiriladigan taom. Surgurunch[sürgürüč] degan variantlarga ham ega. Shirguruch – guruchni sutda pishirib tayyorlangan shavlasimon quyuq taom. [4:579]

Engsa [jєŋsä] – tandirga non yopishda qo‘li kuymasligi uchun kiyib olinadigan kiyim. Engcha – englik. Onasi tandir oldida qo‘liga engcha kiyib, loladek qip–qizil kulcha betiga suv sepyapti.[2:14]

Katta dada, opadada, oppoq dada [kättä dädä, ăpädädä, ăppăqdädä] – otasining akasiga nisbatan ishlatiladi. Opadada so‘zi oppoq dada so‘zining fonetik hodisaga uchragan shakli. Amaki – otaning akasi yoki ukasi. Katta amaki, kichik amaki.[1:76]

Oppoqaya, katta aya [ăppăqayä, kättä ayä] – katta amakisining xotini shevada shunday nomlaydi. Adabiy tilda kelinoyi deyiladi. Kelinoyi – akaning xotini. Yoshi o‘zidan katta bo‘lgan qarindosh yoki yaqin kishining xotini va shu xotinga murojatni bildiradi.[2.346]

So‘ppi [soppi] – oq rangli do‘ppi. So‘filar kiyadigan oq rangli do‘ppiga nisbatan olingan. Boshqa sheva vakillarida so‘fi do‘ppi deb ham yuritiladi. Mingbuloq shevasida fonetik o‘zgarishga uchragan.

Solcha, sholcha, doroshka [sălčä, šălčä, dărăškä] – gilamdan yupqa, oyoq ostiga solinadi. Doroshka so‘zi o‘zining ma’nosini yoqotgan.

Japs, jamati [ǯäps, ǯämäti] – qarindash, urug‘. Qarindosh-urug‘chilik munosabatlari. Japs[ǯäps] so‘ziga jips yoki yaps (yopish) so‘zi asos bo‘lib fonetik o‘zgarishlarga uchragan. Jamati [ǯämäti] so‘ziga jam, jamlik so‘zlari asos bo‘lib fonetik o‘zgarishlarga uchragan.

Bosolda [bäsăldä] – chamasi, taxminan, ehtimol degan ma’nolarni anglatadi.

Tindoq, tinnoq[tindăq, tinnăq] – tirnoq. Fonetik o‘zgarishga uchragan. Tirnoq – barmoqlar uchining orqa tomonidagi etga yopishgan, barmoqlarni himoya qiluvchi, shoxsimon moddadan iborat tuzilma, qoplama.[3:113]

Chovdish, chovgin, ovdasta [čăvdiš, čăvin, ăvdästä] – qo‘l yuvish va choy qaynatish uchun ishlatiladigan idish – obdasta. Obdasta – ro‘zg‘or buyumi; yuz–qo‘l yuvish uchun ishlatiladigan uzun va ingichka jo‘mrakli, qorni keng, bo‘g‘zi tor idish.[3:71] Ovdasta fonetik o‘zgarishga uchragan. Chovgun – o‘tda choy qaynatish uchun moslangan idish, choydish, qumg‘on.[4:502] Chovdish, chovgin so‘zlari fonetik hodisaga uchragan choydish, chovgun so‘zlaridir.

Do‘mba, do‘mpa, tepaliq [dombä, dompä, tepäliq] – tekis yerga nisbatan balandroq bo‘lgan joyga nisbatan aytiladi. Tepa – yer sathidan baland, do‘ng joy. Tepalik, balandlik. [3:66] Do‘mba va do‘mpa so‘zlarida fonetik o‘zgarish bor. Asosi “do‘m” bo‘lyapti. Do‘m – do‘mboq, do‘mpaymoq so‘zlari bilan aloqasi bo‘lishi mumkin. Do‘mboq – 1. Do‘mpaygan, do‘mpayib chiqqan. 2. Do‘mpayib,

koʻtarilib turgan joy yoki narsa.[1:674] Doʻmpaymoq – doʻmbaymoq. Katta tut yogʻoch koʻlankasida doʻmpaygan yangi qabrni quchib, soatlarcha yigʻlab, tinkalari qurigandan soʻng qaytishdi.[1:674]

II. Nomemasi adabiy tildagi soʻzlardan farq qilmasa-da, lekin shevada boshqa maʼno anglatuvchi soʻzlar:

Koʻtarma [kötärmä] – mol, qoʻy, ot, eshak boqiladigan va turadigan binoga nisbatan yaʼni molxona, qoʻyxona, otxonaga aytiladi. Izohli lugʻatda: Koʻtarma – koʻtariladigan, koʻtarib qoʻyiladigan qilib qurilgan. Koʻtarma koʻprik. [2:474]

Bostirma [băstirmä] – mol, qoʻy, ot, eshak boqiladigan va turadigan binoga nisbatan yaʼni molxona, qoʻyxona, otxonaga aytiladi. Bostirma asosan yoz kunlarida uy hayvonlarini saqlash uchun qurilgan joy hisoblanadi. Izohli ligʻatda: Bostirma – toʻrt tomoni yoki ikki yoni va old tomoni ochiq, usti yengilgina yopilgan qurilma.[1:325]

Lagan [lägän] – Mingbuloq shevasining qipchoqlar yashaydigan hududlarida ichi chuqur idishga nisbatan qoʻllanilgan boʻlsa, Mingbuloq tumanining janubi va janubi-gʻarbiy hududlarida ichi sayoz idishga nisbatan ishlatiladi. Izohli lugʻatimizda quyidagicha berilgan: Lagan – togʻora, idish; shamdon [quyuq taomlar solish uchun moʻljallangan, tarelkadan katta yassi idish. Mis lagan. Sopol lagan. Chinni lagan. Anvar oʻrtaga dasturxon yozib, ikki lagan manti chiqarib qoʻydi.

Toyloq [tăjlăq] – oyoq toyadigan va sirpanadigan joyga nisbatan aytiladi. Dala yomgʻirdan soʻng siygʻonchiq boʻlib qoldi. Izohli lugʻatda Toyloq – kichkina toy, toycha. [3:134] maʼnosini anglatadi.

Opa[ăpä] – onaga nisbatan ishlatiladi. Opa – bir ota–onadan tugʻilgan farzandlar ichida oʻzidan kichiklariga nisbatan katta qiz.[3:128]

Ariq [ariq] – ekin ekish uchun tuproqni ikki yonidan uzun qilib uyib chiqilgan joyga nisbatan aytiladi. Izohli lugʻatda ariq soʻzi boshqa maʼno anglatadi. Ariq– sunʼiy ravishda hosil qilingan suv yoʻli, oʻzani va undagi suv.[1:98] Shevada esa ariq soʻzi marza, pushta soʻzlariga sinonim tarzda ishlatilmoqda.

III. Adabiy tildagi shakliga nisbatan kuchli fonetik oʻzgarishga uchragan soʻzlar:

Taqlam, talam [taqläm, ta:läm] – qattiq yoki yumshoq narsalarning ustma–ust joylashganiga nisbatan aytiladi. Izohli lugʻatda taxlam deb berilgan. Taxlam – terib, taxlab qoʻyilgan narsa va uning bir toʻpi. Bir taxlam kitob.[3.15]; Mingbuloq shevasining “y” lovchi vakillarida: [taqläm] yaʼni chuqur til orqa, sirgʻaluvchi, jarangsiz undosh tovush oʻrniga chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz

undosh tovush almashgan bo‘lsa, “j” lovchilarda: [ta:läm] ya’ni chuqur til orqa, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh tovush tushirib qoldirilgan.

Tapt, tavt [täpt, tävt] – insonning barmoqlari joylashgan qo‘l qismining ichkari tomoniga nisbatan aytiladi. Tavtingni peshonasiga boschi? Arini tapti bilan bosib o‘ldirdi. Izohli lug‘atda taft so‘ziga boshqacha tarif beriladi. Taft – issiqlik manbai yoki qizib turgan narsadan urayotgan issiq, harorat. Tandirning tafti.[3:14] Lab tish, sirg‘aluvchi, jarangsiz undosh lab-lab, portlovchi, jarangsiz undoshga, lab–tish, sirg‘aluvchi, jarangli undoshga almashgan.

Qallama[qallämä] – yoyilgan xamirni dog‘ qilingan qozonda yaxshilib pishirilganiga aytiladi. Adabiy tilimizda qatlama deyiladi. Qatlama – oddiy xamirdan yupqa yoyib, yog‘da pishiriladigan taom.[5:261] Bu so‘zimizda regressiv assimilatsiya hodisasi yuz bergan. Qatlama so‘zidagi til oldi jarangli sirg‘aluvchi tovush til oldi portlovchi jarangsiz tovushni o‘ziga to‘liq o‘xshatib olyapti.

Holvaytal [hälväjtäl] – holvaytarga nisbatan ishlatiladi. Shevada fonetik hodisalarga uchragan. Holvaytar – dog‘ qilingan yoqqa un solib, sal qizarguncha qovurib, ustidan shakar eritilgan suv quyib tayyorlanadigan shirin taom.[4:550] So‘z oxiridagi titroq tovush til oldi jarangli sirg‘aluvchi tovushga almashdi.

Alvali[älväli] – shevada olchaga nisbatan aytiladi. Izohli lug‘atda olcha va olxo‘riga nisbatan olvoli deyilgan. Olvoli – olcha, olxo‘ri. [3:109] Orqa qator, quyi keng unli o‘rniga oldi qator quyi keng unli almashgan.

Har bir ma’muriy-hududiy birlikda shevaga xos so‘zlar leksik-semantik jihatdan quyidagi o‘ziga xosliklarga ega:

Mingbuloq tumanining Dehqonobod (avvalgi nomi Rakasoviskiy) qishlog‘ida tovoq (ichi chuqur idish) döγăča deb nomlansa, Alami, Gulbog‘, Tegirmonboshi, Tegirmon, Gigant kabi qishloqlarda “tovoq” deyiladi.

Molxona – ăγil, kötärmä, băstirmä. Alami, Gulbog‘da mölxănä, ăγil so‘zlari faol ishlatiladi. Qorashahar, Jiydaqishloq, Momoxon, Qirqchek, Yakkatolda molxona, ăγil, kötärmä, băstirmä so‘zlari ishlatiladi.

Bormaydigan – bărmăvüč. Dovduq, Gurtepa, Ingichka, Terak, Tolliovul, Uzuntepa, Mulkobod, Sho‘rsuvda bormaydigan so‘zi bărmăvüč, bărmăvöč tarzida ishlatilsa, Yangi Gulbog‘, Tegirmon, Momoxon, Qorashahar, Qolg‘andaryo, Jomoshov, Jiydaqishloq, Gulbog‘, Alamilarda bărmiydigän, bărmiydiγän.

Taxlam – taxläm, taqläm, taläm; Yangi Gulbog‘, Tegirmon, Momoxon, Qorashahar, Qolg‘andaryo, Jomoshov, Jiydaqishloq, Gulbog‘, Alamilarda taxläm, taläm; Dovduq, Gurtepa, Ingichka, Terak, Tolliovul, Uzuntepa, Mulkobod, Sho‘rsuvda taxläm, taqläm, taläm.

Taft – täft, täpt, tävt; Yangi Gulbog‘, Tegirmon, Momoxon, Qorashahar, Qolg‘andaryo, Jomoshov, Jiydaqishloq, Gulbog‘, Alamilarda täft, täpt; Dovduq, Gurtepa, Ingichka, Terak, Tolliovul, Uzuntepa, Mulkobod, Sho‘rsuvda täft, täpt, tävt.

Sirpanchiq – sirpänch(i)q, sirqančiq, tăjlăq. Yangi Gulbog‘, Tegirmon, Momoxon, Qorashahar, Qolg‘andaryo, Jomoshov, Jiydaqishloq, Gulbog‘, Alamilarda sirpänch(i)q, sirqančiq, tăjlăq; Dovduq, Gurtepa, Ingichka, Terak, Tolliovul, Uzuntepa, Mulkobod, Sho‘rsuvda sirpänch(i)q, tăjlăq.

Holvaytar – hălväjtäl. Rakasuviskiyda hălväjtäl. Yangi Gulbog‘, Tegirmon, Momoxon, Qorashahar, Qolg‘andaryo, Jomoshov, Jiydaqishloq, Gulbog‘, Alamilarda hălvätär.

Sigirga o‘t tashlanadigan joy – oxir, ăγil. Yangi Gulbog‘, Tegirmon, Momoxon, Qorashahar, Qolg‘andaryo, Jomoshov, Jiydaqishloq, Gulbog‘, Alamida oxir, ăγil.

Gilamcha –sălčä, šălčä, dărăškä. Yangi Gulbog‘, Tegirmon, Momoxon, Qorashahar, Qolg‘andaryo, Jomoshov, Jiydaqishloq, Gulbog‘, Alamida –sălčä, šălčä, dărăškä.

Qatlama – qallämä, mällä. Alamida qallämä, mällä.

Amaki – kättä dädä, ăpädädä, ăppăqdädä (otasidan kattasiga nisbatan). Alamida kätä:dädä, ăpädädä; Yangi Gulbog‘, Tegirmon, Yakkatol, Momoxon, Qorashahar, Qolg‘andaryo, Jomoshov, Jiydaqishloq, Gulbog‘da kättä dädä, ăppăqdädä, ämäki.

Kelinoyi – ăppăqaya, käta:ya(otasidan katta amakisining xotiniga nisbatan). Alamida käta:ya; Yakkatolda ăppăqaya

Ona – opä, aya, ϵnä. Yangi Gulbog‘, Tegirmon, Yakkatol, Momoxon, Qorashahar, Qolg‘andaryo, Jiydaqishloq, Alami opä, aya, ϵnä.

Qarindoshlik – ʒäps, ʒämäti. Yakkatolda ʒämäti, Gurtepada ʒäps.

Pushta (marza, jo‘yak) – ʒojak, ariq, mărzä; Alami, Gulbog‘da ariq.

Mingbuloq shevasi leksikasi tarkibida boshqa bir qancha shu kabi so‘zlarning ko‘rinishlar bilan turli belgilarga ega ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek shevalari hozirgi adabiy tilda uchramaydigan ayrim grammatik shakllar, leksik birlik elementlarini saqlab qolganki, ularni asosli ravishda ilmiy o‘rganish juda muhim tarixiy-lingvistik xulosalarni chiqarishga imkon tug‘diradi. Yaratilajak yangi qarash va ilmiy nazariyalarning maydonga kelishiga poydevor bo‘ladi. Qat’iy bir qonuniyat asosida tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlayotgan izlanuvchiga juda qimmatli material beruvchi manba bo‘lishi shubhasiz va shu bilan bir qatorda,

bunday fonetik, leksik-grammatik faktlar – asoslar qadimgi yodgorliklarni tushunish va lingvistik tahlil qilishda amaliy qo‘llanma vazifasini ado etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. I-V jildlar.

2. Алиев А.Й. Уйчинский говор узбекского языка. Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Ташкент, 1960.

3. Darvishov, I. Areal tilshunoslik: janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. – Toshkent, 2019.

4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2016.

ЖОҒАРЫ ШЫРШЫҚ ҚАЗАҚ ГОВОРЛАРЫНЫҢ ФОНЕТИКАЛЫҚ ЕРЕКШЕЛІКТЕРІ

Сайфуллаев Бауыржан Нұрымбетұлы
Низами атындағы ТМПУ
оқытушы
bauirjan_sayfullayev96@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biz qozoq dialektologiyasi haqida shuningdek, Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani qozoq shevasining fonetik xususiyatlari va uning yasalishi haqida qisqacha ma’lumotlar beramiz.*

Kalit so‘zlar: *dialekt, govor, xalq, xalq tili, adabiy til, fonetik xususiyat.*

Annotation. *In this article we give a brief overview of Kazakh dialectology, as well as the phonetic features of the Kazakh dialect of Yukori Chirchik district of Tashkent region and its structure.*

Keywords: *dialect, dialect, people, vernacular, literary language, phonetic features.*

Диалектология ғылымы – белгілі бір тілдегі диалектілік яғни жергілікті ерекшеліктерді зерттейтін тіл ғылымының бір саласы. Диалектологияның зерттейтін нысаны – жергілікті тіл ерекшеліктерін тексеру. Диалект, говор деп халықтық я ұлттық тілдің өзіндік ерекшеліктері бар жергілікті тармақтарын, бөліктерін айтамыз.[Сарыбаев, Нақысбеков,1990: 4].

Қай тіл болмасын оның ішіндегі диалектілік ерекшеліктерді жинап, зерттеудің маңызы зор. Жергілікті ерекшеліктердің құрамында көне тілдің

сарқыншағы, көрінісі ретінде сақталып қалған ертедегі тайпалық тілдердің қалдықтары бар. Оның құрамында қазақ халқының әр түрлі дәуірлерде көрші халықтармен қарым-қатынасынан туған кірме сөздер де бар.

Ол жалпы тілге тән ортақ белгілер деп өзгеше ерекшеліктерді қамтиды. Қазақ тіл білімінің жас саласы деп есептелсе де, диалектологиялық зерттеулерге назар аударылғаны 70 жылдан астам уақыт өткен. Қазақстанның барлық облыстарына қазақ тілінің жергілікті ерекшеліктері жиналып, бірте-бірте Қазақстаннан тыс жерлердегі қазақтар мекендейтін аймақтардан материалдар жинала бастады. Соның негізінде арнайы ғылыми жұмыстар қолға алынып, мақалалар мен монографиялар, құнды-құнды еңбектер жазылды. Түрлі аймақтарда тұратын қазақтардың тілі сәл болса да өзіндік айырмашылығымен ерекшеленеді. Диалектология мәселесіне айтулы ғалымдар С. Аманжолов, Н. Сауранбаев, Ж. Досқараев, Ш. Сарыбаев, Ғ. Қалиев, Ә.Нұрмағамбетов, С. Омарбеков, О. Нақысбеков, Ж. Болатов, Н. Жүнісов, Т. Айдаров, Ш.Бектұров, Б. Бекетов т.б. айрықша көңіл аударғанын айтып өткеніміз жөн.

Халық тілінде кездесетін жергілікті тіл ерекшеліктері – тіл зерттеушілерінің назарын ертеден аударып келе жатқан құбылыстардың бірі. Қай тілден болмасын осы жергілікті деп аталатын тіл құбылыстарын кездестіреріміз анық әрі кездестіріп жүрміз де. Бірінде аз, бірінде көп деген сияқты, әйтеуір, мұндай жергілікті өзгешеліктердің барлық тілде бар екені даусыз. Қазақ тілі де осы сияқты, қазақ жұрты тараған өлкелердің бәрінде де сол жердің әрқайсысындағы қазақтардың тіліне тән сөз ерекшеліктерінің бар екені байқалып жүрген жайт. Мұны ғылымда диалектілік құбылыстар деп атайды.

Диалектілік құбылыстар – халық тілінің жемісі, халық тілі дамуының кезеңі тудырған тіл құбылыстары. Әрбір өлкеде тұратын қазақтардың тілінде кездесетін бұл секілді тіл айырмашылығының пайда болуының тарихи сыры бар.[Айдаров, 1975: 28] Мәселен, біз осы еңбекте сез еткелі отырған Ташкент облысы Жоғары Шыршық ауданында тұратын қазақтардың тіліндегі диалектілік айырмашылықты алатын болсақ, олардың көбінің-ақ түптеп келгенде із-өкшесі өзбек тілінің әсері бар екенін көреміз. Мұның себебін тусіну онша қиын емес. Бұл жерде тұратын қазақтардың ежелден өзбек халқымен іргелес, қоныстас, ағайындас ел болғанымен байланысып жатыр. Ұзақ жылдық тілдік қарым-қатынас нәтижесінде осы аймақ қазақтарының тіліне аталған тілдерден ауысқан сөздер де аз емес. Ол сөздер өздері енген тілге әбден етене болып, сіңісіп кеткен. Демек, мұндағы біздің айтайық дегеніміз – қазақ тілінде де жергілікті тіл айырмашылығы бар екендігі, сосын оның өзі кездейсоқ пайда болмағандығы, белгілі тарихи

дамудың нәтижесінде туған тіл құбылыстары екендігі. Әрине, бұл құбылыстардың көлемі барлық өлкенің қазақтары тіліне ортақ құбылыстармен салыстырғанда әлдеқайда аз. Бірақ көлем жағынан қанша шағын болғанымен, бұл өзгешеліктерді ескермеуге де болмайды. [Қошабаева, 1994: 41].

Ю.Абдувалиев зерттеу жұмысына көз жүгіртіретін болсақ, түрлі тарихи-экономикалық жағдайда ескерте келіп, сол тұрғындардың қоныстауының тарихи кезеңдеріне, олардың өзбектермен аралас немесе бөлек жеке ауыл болып отыруына, қазақ тіліндегі жергілікті баспасөздің болу-болмауына және қазақ балаларының ана тілінде оқу-оқымауына байланысты жергілікті тұрғындар тілінің лексикалық құрамы дыбыстық жүйесі, грамматикалық тұлғалардың бір-бірінен аз да болса, ерекшелігінің қолданылуына қарай, шартты түрде бұл сияқты өзгешеліктерді 3 ке бөліп қарайды.[Нақысбеков 1982:168].

Бірінші топқа ертеден отырықшылық өмірге көшкен, балалары өзбек тілінде оқитын, қазақ тілінде аудандық баспасөзі болмаған Жаңа жол, Калинин, Орта Шыршық, Бөке, Аққорған аудандарының бірсыпыра елді пунктерді және қалада тұратын қазақтардың тілдері жатады.

Екінші топқа Жоғары Шыршық, Төменгі Шыршық, Бостандық аудандары мен бірінші топтағы кейбір елді мекендердегі балалары қазақ мектептерінде оқитын өзбектермен аралас отырған қазақтар тілі кіреді.

Үшінші топқа Жоғары Шыршық, Төменгі Шыршық, Бостандық тәрізді 1962 жылға дейін газеті болып келген, балалары қазақ мектебінде оқып келген қазақтар тілін жатқызады.

Енді, Жоғары Шыршық ауданы қазақтарының тілдік ерекшелігіне мән беретін болсақ, біріншіден, фонетикалық ерекшеліктер туралы. Ташкент облысы кейбір аудандарын мекендейтін қазақтардың тіліндегі фонетикаға байланысты кездесетін ерекшеліктер Қазақстан территориясындағы говарлардың фонетикалық ерекшеліктерімен салыстырғанда әлде қайда мол. Бұл говорға тән дыбыстар құрамы жағынан қазақ әдеби тіліндегі дыбыстардан онша алшақ кетпейді. Дегенменде, кейбір дыбыстардың айтылуында өзгешеліктер кездесіп те қалады.

Белгілі бір тілдегі диалектілер мен говорлар сол тілге тән жалпы белгілерді сақтай отырып, бір-бірінен фонетикалық, морфологиялық, синтаксистік және лексикалық жағынан түрліше ерекшеліктерге ие болады. Ташкент облысы Жоғары Шыршық ауданында мекендейтін қазақ тұрғындары тілінде ғана қолданылатын осы жерге ғана тән фонетикалық құбылыстар көптің қасы. Аталмыш, осы аудан қазақтарының тілдік өзгешеліктері дауысты дыбыстарға, дауыссыз дыбыстарға, кейбір

дыбыстардың тұрақсыздығы, сонымен қатар, фонетикалық ерекшеліктер, лексикалық ерекшеліктер, грамматикалық ерекшеліктер көп кездеседі. Бұл айтып отырған тұрғындар тілінде кездесетін дауысты дыбыстарға байланысты ерекшеліктер дауыстылардың бірінің орнына екіншісінің қолданылып, алмасуымен және кейбір дифтонг дыбыстың ықшамдалып, әдеби тілдің өзгешеленіп келуімен сипатталады. Дыбыс алмасу құбылысы тек қана қазақ тілінің жергілікті сөйленісіне тән құбылыс емес екендігі баршаға аян. Атап айтқанда, біз сөз етіп отырған осы аудан говорының қазақ тілінің басқа говорларынан тыс өзіне тән дыбыстық ерекшеліктерін аңғаруға болады. Мысалы, дауыссыз дыбыстарда ***ж*** орнына аффрикат ***дж*** қолданылады, ***ш*** орнына палатальды ***щ*** (ащы-әщі-әтші-әтчі) фонемасының жұмсалуымен ерекшеленеді. Сондай-ақ, өзбек тілімен жиі қарым-қатынастың нәтижесінде туған дыбыстық ерекшеліктердің бірі – қысаң ***е*** дауыстының орнына ашық **ә** дыбысының жұмсалуы. Бұл құбылыс өзбек тіліне тән болып саналады. Мысалы, әдеби тіліміздегі кем, кесел, мейлі, кептер, кесе, дерек, т.б. ***е*** арқылы дыбысталатын сөздер Жоғары Шыршық говорында кәм (өзбекше kam), кәсәл (өзбекше kasal), мәйлі (өзбекше mayli), кәсә (өзбекше kosa), дәрәк (өзбекше darak) ***ә*** дауыстысы арқылы айтылады.

Араб-иран тілдеріндегі ұяң ғ-дан басталатын көптеген сөздер қазақ әдеби тілінде қатаң қ-мен айтылады. Зерттеліп отырған Жоғары Шыршық говорында да ***ғ*** – арқылы көптеген сөздер айтылады. Негізінен бұлай қолдану өзбек тілінде араб тіліндегі сөздердің сол тілдің өзінде дыбысталғанындай, ұяң ***ғ*** арқылы айтылуы қабылданған болатын. Сондықтан бұл құбылысты да өзбек тілінің әсері деп тануға болады. Мысалы, ғаз (өзбек тіліндегі g‘oz) – қаз; ғайрат (өзбек тіліндегі g‘ayrat) – қайрат; ғам (өзбек тіліндегі g‘am) – қам; ғоза (өзбек тіліндегі g‘o‘za) – қоза т.б.[Абдувалиев, 1967: 9].

Біз сөз етіп отырған Жоғары Шыршық аудан қазақ тұрғындарының тілінде тағыда дауыссыз дыбыстарға байланысты ерекшеліктердің бірі – тіл алды **ж** ның жартылай дауысты **й** мен алмасуы, яғни, бұл құбылыс негізінен, бір сөз ішінде емес, екі сөз аралығында да кездесетін өзгешеліктер де кездеседі. Яғни, қай, ол, бұл, сол, мына тәрізді есімдіктерден соң жақ, жер, сөздері келгенде және бара, келе, әкеле етістіктерімен тіркескен жатыр көмекші етістігінің басында **ж** дауыссызы **й** ге алмасатын жәйттар көп кездеседі. Мысалы, **бүйер** – бұл жер, **ойер**-ол жер, **сөйер**-сол жер, **ойер//өйер**-ол жер, **қайер**-қай жер, **мынайер**-мына жер, **ойақ//ұйақ**-ол жақ, **бұйақ**-бұл жақ, **сойақ**-сол жақ, **қайақ**-қай жақ, **барайатыр**-бара жатыр, **келайатыр**-келе жатыр, **әкелейатыр**-әкеле жатыр т.б. көптеген осындай диалектілік өзгеріске ұшыраған сөйленістер көп кездеседі.

Жоғарыда сөз болған дыбыстық алмасулардан басқа дауыссыз дыбыстар жүйесіндегі ерекшеліктердің бірі сөз ортасындағы дыбыстардың түсіріліп қалуы әсіресе, «**л**» дыбысына байланысты. Жергілікті тұрғындар тілінде кездесетін дыбыстық ерекшеліктердің бірі – дауыссыз дыбыстардың түсіп қалуына байланысты.

Л дыбысының тұрақсыздығы қазақ тілі сөйленістерінің бәрінде бірдей жиі кездесетін құбылыс деп айтуға болмайды. Диалектологиялық зерттеулерге қарағанда, бұл ерекшелік қазақ тілінің басқа түркі тілдерімен қоныстас, аралас отырған, жиі қарым-қатынаста болған әсіресе, Өзбекстандағы қазақ тұрғындарының тілінде молырақ ұшырайтыны мәлім болып отыр.

Үнді **л** ның түсіп қалу құбылысы зерттеліп отырған Жоғары Шыршық ауданындағы қазақ тұрғындарының тілінде кең тараған сипаты ерекшеліктердің бірінен саналады. Бұл дауыссыздың түсіп қалуы екі түрлі жағдайда кездеседі. **Біріншісі**: ол, сол, бұл тәрізді сілтеу есімдіктер құрамындағы ойақ, (ол жақ), бұйақ (бұл жақ), сойақ (сол жақ) түрінде айтылғанда, сондай-ақ атау тұлғасынан басқа септіктерде бұлған бұған, солган – соған, олған – оған және дауыссыз дыбыстан басталатын анықталушы сөздің алдында келгенде – о(**л**) жер, бұ(**л**) жер сөзімен тіркескенде **л** дыбысының түсіп қалатыны әдеби тілде де кездесіп қалатын құбылыс екені дәлелденген. **Екіншісі**: ал, бол, кел, сол, әкел етістіктерінің құрамындағы дыбысының түсіп қалуы. Ол мынандай жағдайда кездеседі:

а) **шартты рай формасында айтылғанда**: а(л)са – **аса**, бо(л)са – **боса**, ке(л)се – **кесе**, қа(л)са – **қалса**, са(л)са – **саса**, әке(л)се – **әкесе**.

б) **болымсыз түрде айтылғанда**: а(л)май – **амай**, ке(л)мей – **кемей**, қа(л)май **– қамай**, са(л)май – **самай**, әке(л)мей – **әкемей**.

с) **қалау және бұйрық рай райдың үшінші жағында айтылғанда**: бо(л)сын – **босын**, ке(л)сін – **кесін,** қа(л)сын – **қасын**, са(л)сын – **сасын**, әке(л)сін – **әкесін**.

Сонымен қатар, аудан тұрғандарының тілінде;

П орнына **у** ның жұмсалуы тауған-тапқан**,** шаудым-шаптым**,** кеуген-кепкен т.б.

Б ның орнына **п** жұмсалуы бәйрам-мейрам, дарақ-ағаш т.б.

Ғ ның түсіп қалуы алым-ғалым**,** ажайып-ғажайып әсірет-қасірет т.б.

Н орнына **ң** жұмсалуы өлен-өлең**,** қалын-қалың, ертен-ертең**, қ**айын-қайың, қалын-қалың т.б.

С ның орнына **ш** қолдануы мысық-мышық, есек-ешек, **қ**остау-қоштау**,** сорпа-шорпа, самал-шамал**,** бесақа-пешақа**,** бейсенбі-пейшенбі т.б.

Т нің түсіп қалуы ештеңке-ештеңе т.б. сияқты көптеген фонетикалық ерекшеліктер кездеседі.

Ауызекі сөйлеу тілінде ***ал, бол, кел*** тәрізді етістіктердің соңындағы л дыбысы түсіп қалып ***асайшы (алсайшы), босайшы (болсайшы), кесейші (келсейші)*** түрінде айтылу кездеседі.

Қорыта айтқанда, тіліміздегі диалектілік ерекшеліктерді айқындау – тек әдеби тілді қалыптастырып, нормалау үшін ғана емес, сонымен бірге, оның тіл тарихы үшін де маңызы зор болмақ. Осы себептен де тілдері ғылыми тұрғыда зерттеле бастаған халықтардың барлығы да өз тілінің диалектілік ерекшеліктерін зерттейді. Ташкент облысы Жоғары Шыршық ауданы қазақ тұрғандарының тіліндегі жоғарыда келтірілген дыбыстық ерекшеліктер осы құбылыс та аралас отырған өзбек тілінің әсері деп айтуға болады. Жалпы біз қарастырып отырған аудан қазақ тұрғындарының тілін зерттеулер әлі де аздық етеді. Өйткені, Жоғары Шыршық ауданы халқының орташа тығыздығы 1км2 ге 256 адам, қала тұрғындары саны 12950, ауыл тұрғындары саны 99550 ге тең, көп ұлтты аудан қатарына кіреді. Халқының негізгі бөлігін өзбектер, кейінгі орында қазақтар, корейстер, орыстар, татар және басқа ұлт өкілдері құрайды. Бұл мақаламызда біз аудан тұрғандары тілінің фонетикалық ерекшеліктеріне қысқаша шолу жасадық. Әлі аудан тұрғындарының сөйленісіндегі диалектлік қыруар зерттеу жұмыстары – өз зерттеушілерін күтуде.

ПАЙДАЛАНҒАН ӘДЕБИЕТТЕР:

1. Сарыбаев Ш., Нақысбеков О.. Қазақ тілінің аймақтық лексикасы. – Алматы: Ғылым, 1990.

2. Айдаров Т. Қазақ тілінің лексикалық ерекшеліктері. – А,1975. – 123с

3. Абдувалиев Ю. Фонетико-морфологические особенности Ташкентского говора казахского языка. Автореферат дисс. канд.фил. наук., 1967. – С.36.

4. Қошабаева О. Өзбекстандағы қазақтар. Автореферат дисс. канд. фил. наук. – А:, 1994. 26-б.

5. Нақысбеков О. Қазақ тілінің оңтүстік говорлар тобы. – А.: Ғылым, 1982. – 168 б.

3-SHU‘BA

O‘ZBEK SHEVALARINI AREAL O‘RGANISH VA TARIXIY DIALEKTOLOGIYA

BOLTA JO‘RAYEV – YUQORI QASHQADARYO SHEVALARINING ZUKKO VA ZAHMATKASH TADQIQOTCHISI

Jabborov Xo‘jamurod Jabborovich,
Qarshi DU professori,
filologiya fanlari doktori
Elektron manzil: Xujamurod @ list.ry

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek dialektologlaridan biri B. Jo‘rayev to‘g‘risida, uning o‘zbek tilshunosligi va o‘zbek dialektologiyasi oldidagi xizmatlari haqida fikr yuritilgan. Bu olim Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalarini ilmiy tadqiqqa torta olgan tajribali va bilimli tadqiqotchilardan biridir. Uning Kitob shahrida tug‘ilgani, Samarqandda ikki marta o‘qishi, so‘ngra Toshkent shahridagi Til va adabiyot institutida ishlab, o‘zbek shevalarining xususiyatlarini yorituvchi tadqiqotlar yaratgani to‘g‘risida o‘rinli fikrlar bor.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbek shevalari; Yuqori Qashqadaryo, Yuqori Qashqadaryo dialektal zonasi; o‘zbek shevalarining tasnifi; shevalarni qiyosiy o‘rganish; dialektal leksika, shevalar leksikasini to‘plash, guruhlash; dialektal lug‘atlar.*

Annotation. *This article discusses one of the Uzbek dialectologists B. Juraev, his services to Uzbek linguistics and Uzbek dialectology. This scientist is one of the most experienced and knowledgeable researchers who was able to involve the Upper Kashkadarya Uzbek dialects in scientific research. It is believed that he was born in Kitab, studied twice in Samarkand, and then worked at the Institute of Language and Literature in Tashkent, where he created research on the features of Uzbek dialects.*

Keywords: *Uzbek dialects; Upper Kashkadarya, Upper Kashkadarya dialectal zone; classification of Uzbek dialects; comparative study of dialects; dialectal lexicon, collection of dialect lexicon, grouping; dialect dictionaries.*

O‘zbekiston Respublikasi hududlarida, xususan, Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalarining tasnifi, ularning bir-biriga qiyosi, shevalar leksikasini to‘plash, guruhlashtirish kabi masalalar bilan o‘z vaqtida tilshunos – dialektolog olimlarimizdan G‘ozi Olim, Y.D.Polivanov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonovlar Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘ tumanlari va barlos, saroy, kenagas singari urug‘-aymog‘ nomlari haqida shug‘ullanganlar. S.Ibrohimov Shahrisabzning kulol, kashtachi va boshqa hunarmandlari tilidan kasb-hunar terminlari ham Chiroqchi tumanidagi qipchoqlarning til xususiyatlaririga oid ayrim materiallar to‘plagan [Jo‘rayev, 1969: 5].

Umuman olganda, bugungi kungacha Qashqadaryo o‘zbek xalq shevalarini o‘rganilishida Y.D.Polivanov, A.Shermatov, T.Nafasov, BJo‘rayev, D.Abdurahmonov, T.O‘rinov, T.Qudratov, N.Mirzaev, Q.Xurramov, K.Usmonov, T. Enazarov, X. Jabborov, K. Markayev, E. Jabborov, N. Shoimova, O.O‘rinova (adabiyotlar ro‘yxatiga qaralsin) lar ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan. Mazkur tadqiqotchilar bu hudud shevalari leksikasini o‘rganish bo‘yicha amalga oshirgan tadqiqotlari doirasida ko‘pgina kitoblar, lug‘atlar, maqolalar nashr ettirishgan.

Yuqori Qashqadaryo xalq shevalar leksikasining o‘rganilishida esa bevosita B. Jo‘rayev, T. Nafasov, T. Qudratov, T. Enazarov kabi shevashunos olimlarning xizmatlari kattadir. O‘zbekistonda, xususan, Qashqadaryo o‘zbek xalq shevalarini o‘rganishni birinchilardan bo‘lib boshlab bergan, bu hudud shevalarini har tomonlama sinchiklab o‘rgangan olim professor Y.D.Polivanovdir. U 1020-37-yillar davomida Qarshi, Samarqand, Toshkent kabi shahar shevalari bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borib, juda qimmatli asarlar yozdi.

Uning 1928-yilda nashr etilgan Qarshi shevasi bo‘yicha “Образцы несингармонистических (иранизованных) говоров узбекского языка. Каршинский говор” // “Qarshi shevasi. O‘zbek tili nosingarmonizmli (eronlashgan) shevalaridan namunalar” [Polivanov, 1928:92-96] maqolasi fikrimizning dalilidir. Uning 1933-yilda bosilib chiqqan “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” degan asarida o‘zbek shevalarining turli-tuman ekanligi o‘sha davrda alohida qayd etilgan edi.

Mavzu doirasida yondashadiga bo‘lsak, Yuqori Qashqadaryo shevalarining leksikasini tadqiq etish bo‘yicha salmoqli tadqiqotlar olib borgan zukko va zahmatkash olimlardan birini hech ikkilanmay shevashunos Bolta Jo‘rayevdir, - desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Gap shevashunos Bolta Jo‘rayevning Qashqadaryo xalq shevalarini zukko va zahmatkash tadqiqotchisi ekanligida borar ekan, bu o‘rinda albatta olimning qisqacha tarjimai holiga to‘xtalish joiz.

Bolta Jo‘rayev 1928- yilda Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida tug‘ilgan. 1947 yili Kitobdagi Chkalov nomidagi 1-o‘rta maktabni tamomlab, 1949 yilda Samarqand O‘qituvchilar institutining til va adabiyot fakultetini bitirgan. 1949-1950 yillarda Kitobdagi 10-maktabda ilmiy mudirlik qilgan. U 1950-1955 yillarda Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetida Navoiy stipendiati sohibш sifatida ta’lim olgan.

B. Jo‘rayev universitetni tugatgan yili sobiq SSSR Fanlar akademiyasi Tilshunoslik institutiga aspiranturaga kiradi va A. D. Koklyanova rahbarligida 1959-yilda “O‘zbek tilining Shahrisabz shevasi” bo‘yicha kandidatlik

dissertatsiyasini yoqlaydi. U o‘zining lingvistik faoliyati davomida dialektologiya bo‘yicha o‘ndan ortiq ilmiy ish e’lon qilgan. Uning katta hajmdagi “Shahrisabz shevasi” (1964) nomli monografiyasi va “O‘zbek adabiy tili va o‘zbek dialektlari” (1963) broshyurasi bosilib chiqqan.

B. Jo‘rayev O‘zSSR Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining ilmiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari vazifalarida faoliyat ko‘rsatgan. U 1970-yili vafot etgan.

Uning “Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari leksikasi // O‘zbek shevalari leksikasi” (1966), “Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari (1969), “O‘zbek adabiy tili va o‘zbek dialektlari” (1963) kitoblari, “Шахрисабзкий говор узбекского языка” (1959) nomli dissertatsiyasini alohida qayd yetis’h mumkin.

O‘zbek shevashunosligining zahmatkash va sinchkov shevashunosi A.Ishayev B.Jo‘rayevning shevashunoslik bo‘yicha olib borgan faoliyatini e’tirof etar ekan, u kishi haqida quyidagicha fikr bildirgandi: “bu o‘rinda shu faktni faxr bilan qayd yetish lozimki, o‘zbek dialektologiyasida Yuqori Qashqadaryo shevalarining o‘rganilishi, tadqiq yetilishi va lug‘atlarining tuzilishida B.Jo‘rayevning xizmatlari benihoya katta. U bu region shevalari bo‘yicha faktik materiallarni sinchkov tadqiqotchi sifatida qunt bilan to‘plagan, ularni benuqson transkripsiyada yozib olgan. B.Jo‘rayev Yuqori Qashqadaryo shevalarining “... “faqat o‘ziga xos so‘z boyligini birmuncha qamrab oladigan qilib yaxlit lug‘at tuzish ishini keyinroq amalga oshirmoqchimiz”,-degan yedi. Afsuski, shafqatsiz o‘lim bu niyatni amalga oshirishga imkon bermadi.

Umuman, bu zahmatkash olimning “O‘zbek shevalari leksikasi” (1966) to‘plamida hamda so‘ngi monografiyasida (1969) nashr yetilgan lug‘atlari bir-birini takrorlamaydi, aksincha, biri ikkinchisini to‘ldiradi. Shunga ko‘ra, ikkala lug‘at ham o‘zbek shevalarining katta hajmdagi dialektal lug‘atlarini tuzishda eng asosiy manbalar sifatida xizmat qiladi, bunga shak-shubha yo‘q” [Ishayev, 1990: 62-64].

A. Ishayevning “O‘zbek dialektal leksikografiyasi” (1990) kitobida B. Jo‘raevning ilmiy ishlari misollar asosida keng va atroflicha o‘rganilgan va tahlil etilgan [Ишаев, 1990: 140.]. Shu sababli biz B. Jo‘rayevning ishlariga batafsil to‘xtalmaymiz va ba’zi bir ishlariga e’tiboringizni qaratmoqchimiz. B. Jo‘rayev “Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari leksikasi” (O‘S’hL., 1966) mavzusidagi yirik tadqiqotida (160-292) 1385 so‘zni lug‘at (182-292) qilib bergan. Lug‘at leksikografik talablarga javob berarli darajada tuzilganligi va bosh so‘zlarning qariyb barchasi misollar bilan ta’minlanganligi, lug‘atning ilmiy jihatdan yaxshi fazilati shundaki, unda kelib chiqishiga ko‘ra boshqa tillarga oid bosh so‘zlarning deyarli barchasiga yetimologik qaydlar berilganligi, ularning etimologik jihatdan qaysi tilga (tojik, fors-tojik, arab kabi tillarga) taalluqli yekanligi aniq

koʻrsatilgan: **əzzə** (ar. arabcha shakli yozilgan) ariza... (183). **jəvrənnən** (ar....) nohaqdan, gunohsiz (2 misol berilgan - 207). **pətərət** (ar...) vayrona (misol berilgan - 241). **bөyimjon** (toj. bodimchon) baqlajon. **Bolgʻundor** (f-t. bologʻundor) taxmon (misol berilgan - 191). B. Joʻrayev Yuqori Qashqadaryo shevalaridagi ayrim soʻzlarning kelib chiqishi jihatdan arab, fors-tojik tillariga oidligini qayd etgan (Joʻrayev B., 1966: 182-292): əddisər (fors-tojik *az du sar*) boʻlsa-boʻlmasa, bari bir, albatta.... əzzə (ar...) ariza....əvgʻa (toj.*agʻba*) togʻ choʻqqisidan oshib oʻtiladigan qatnov joy, dovon... (183). qas (toj. *qars*) belbogʻ.... (280).

B.Joʻrayev "Qashqadaryo oʻzbek shevalari leksikasi" (OʻShL, 1966) mavzusidagi maqolasiga ilova etilgan lugʻatda dallollar va qassoblarning "sirli" nutqidagi ba'zi soʻzlarni qayd etgan. Masalan: əre-bir; biyɔz-ikki; gʻre-uch; gəpə-toʻrt, nimsər-besh, kəpəre-olti; kəbiyɔz-yetti; biyɔskɔm-sakkiz; ərikəm-toʻqquz; səre-oʻn (B. Joʻrayev., 1966,186) .

B. Joʻrayevning "Yuqori Qashqadaryo shevalari" monografiyasida (1969) oʻsha regiondagi mavjud shevalar guruhi boʻyicha tekstlar berilgan: qipchoq shevalari (31-72); oraliq shevalar (83-104); shahar tip shevalari (112-123). Ushbu monografiyada tekstlarning koʻp va xilma-xil boʻlishi, tekstlardagi shevalarga xos xususiyatlarning aniq va mufassal izohlanganligi alohida diqqatga sazovor.

Shu oʻrinda aytish lozimki, Yuqori Qashqadaryoning Shahrisabz, Yakkabogʻ, Chiroqchi, Qamashi tumanlari shevalari materiallari asosida B.Joʻrayevdan boshqa tadqiqotchilar ham ilmiy ishlar olib borishgan. Jumladan, T. Qudratov "Oʻzbek tilining oraliq shevalari" mavzusidagi (T. Qudratov, KD., (1968) nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Ishda shevalarning fonetik, morfologik xususiyatlari yoritilgan. Ilova tarzida ba'zi leksik xususiyatlar haqida ma'lumotlar hamda qisqacha lugʻat berilgan (AKD., 1968, 4). Kuzatishlar shuni koʻrsatdiki, Yuqori Qashqadaryo shevalariga nisbatan Quyi Qashqadaryo shevalari boʻyicha lugʻatlar kamroq tuzilgan. Professor T.Nafasovning "Qashqadaryo oʻzbek xalq soʻzlari" (2011) lugʻati, K. Usmonovning "Oʻzbek tili shevalarida fe'lning hozirgi zamon shakllari" (2005), "Oʻzbek shevalarida fe'lning oʻtgan zamon formalari" (1991), N.Shoimovaning "Qashqadaryo oʻzbek qipchoq shevalari leksikasi" (2000), "Oʻrta Qashqadaryo "je"lovchi qipchoq shevalari leksikasi" (1999), Oʻzbek shevalari leksikasini oʻrganishning dolzarb masalalariga doir (Qashqadaryo vohasi materiallari asosida (2009) kitob va maqolalarda Yuqori Qashqadaryo shevalari haqida qimmatli fikrlar mavjud.

Umuman olganda, B. Joʻrayevning Yuqori Qashqadaryo oʻzbek shevalari boʻyicha olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarini oʻrganish natijasida Shahrisabz, Yakkabogʻ, Chiroqchi, Qamashi tumanlari shevalari materiallari asosidagi ilova lugʻatini kitob holida nashr ettirish bugungi kun davr talabidir hamda ilova

lug‘atda boshqa dialektologlarimizning asarlarida qayd etilmagan ko‘pgina so‘zlarning mavjudligi, hajm jihatdan kattaligi (1400 so‘z), lug‘at tuzish prinsiplariga rioya etilganligi, reestr so‘zlarning aksariyati misollar bilan ta’minlanganligiga ko‘ra umumo‘zbek shevalarining katta dialektal lug‘atlari uchun qimmatli manbadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Ўқитувчи,1988. – 288 б.

2. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. -Тошкент: Муҳаррир, 2011. -Б. 466.

3. Нафасов Т.Носиров Ш. Ўзбек диалектал лекцикографияси // Ўзбек тили ва адабёти, 1993,1-сон, 69-72- бетлар.

4. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990. 139 б.

5. Поливанов Е. Д. Образсы несингармонистических (иранизованных) говоров узбекского языка Каршинский говор. Доклады АН СССР. – Ленинград: 1928, №5 стр. 92-96.

6. Усмонов К. Шевалар бағрида туғилган номлар тадқиқчиси. Номшунос олим. – Қарши: 2008. – Б.78-79.

7. Усмонов К. Ўзбек тили шеваларида феълнинг ҳозирги замон шакллари. -Қарши: Насаф, 2005. –Б. 142.

8. Усмонов К. Ўзбек шеваларида феълнинг ўтган замон формалари. -Тошкент: Фан, 1991. –Б. 165.

9. Хуррамов Х. Узбекские народные географические термины, обозначающие рельеф Южного Узбекистана. АКД. –Ташкент, 1981. – 23 с.

10. Шерматов А. Қарши шевасининг баъзи морфологик хусусиятлари // Ўзбек диалектологиясидан материаллар. –Тошкент: 1961. 2-китоб.178-213 б.

11. Шерматов А. Қашқадарё ўзбек шевалари. -Тошкент: 1972.

12. Шерматов А. Ўзбек халқ шеваларидан материаллар. -Тошкент: 1975.

13. Шерматов А. Қашқадарё областидаги ўзбек халқ шевалари. -Тошкент: Фан, 1978.

14. Шерматов А. Қашқадарё областидаги ўзбек халқ шевалари атласи. -Тошкент: Фан, 1979.

15. Шерматов А. Узбекские народные говоры Кашкадаринской области. -Ташкент: Фан, 1978. –Б. 144

16. Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. -Қарши: Насаф, 2000. –139 б.

17. Шоимова Н. И. Ўрта Қашқадарё “же”ловчи қипчоқ шевалари лексикаси. Автореферат. –Тошкент: 1999. –Б. 25.

18. Хуррамов К. Узбекские народные географические термины, обозначаюшие релеф Южного Узбекистана. АКД. -Тошкент: Наука, 1981. -28 с.

19. Эназаров Т. Шевашунослигимиз ҳақида ўйлар // “Айюб Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари” . – Тошкент: 2008. – Б.19-22.

20. Эназаров Т. Ўзбек диалектологияси: назария ва амалиёт (ўқув қўлланма). -Тошкент: Маҳалла ва оила, 2021. 230 б.

21.Ўринова О. Ўзбек тили чорвачилик лексикасининг лексик-семантик тадқиқи. –Тошкент: Фан, 2011. -85 б.

“O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI”DAGI DIALEKTAL SO‘ZLAR

Shofqorov Abdishukur Musayevich,
filologiya fanlari nomzodi, Chirchiq davlat pedagogika instituti dotsenti
a.shofqorov@cspi.uz

Annotatsiya. *Maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da dialektal so‘zlarning berilishi va ularning ma’no xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, izohli lug‘atda berilgan ot so‘z turkumidagi dialektal so‘zlarning ma’no guruhlari farqlangan.*

Kalit so‘zlar: *leksikologiya, lug‘at, dialektizmlar, sheva, ma’no guruhlari, turlari.*

Annotation. *The article discusses the meaning of dialect words and their semantic features in the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language. The semantic groups of dialect words in the nominal phrase given in the dictionary are also different.*

Key words: *lexicology, dictionary, dialectisms, dialects, groups of meanings, types.*

Har qanday tilning so‘z boyligi u tarixiy yoki zamonaviy tusda bo‘lmasin, insonlar tomonidan tuziladigan rang-barang lug‘atlarda ma’lum darajada aksini topadi. Bugungi kunda muayyan tilshunoslikning qay darajada rivojlangani, takomil topgani ayni tilda yaratilgan lug‘atlarning turi, miqdori va sifati bilan

o‘lchanmoqda. Hozirgi kunda leksikografiya masalalari, lug‘at tuzish an’analari, til o‘rganishning o‘ziga xos qulay va samarali, sinovdan o‘tgan usullarini joriy etish kabi masalalar tilshunoslar e’tiborini tortmoqda.

Hayot, turmush tarzi, taraqqiyot va kashfiyotlar yangi-yangi so‘zlar, tushunchalarni dunyoga keltiradi, ba’zi so‘zlar esa eskirib, iste’moldan chiqadi. Buning ta’sirida lug‘atshunoslik ham rivojlanib, boyib boradi. Ma’lumki, muayyan yozuv yoki tilni lug‘atlarsiz to‘la ma’noda o‘zlashtirish qiyin. Lug‘atshunoslik lug‘at tuzish ishi sifatida turli xalqlarda yozuv taraqqiyotining ilk bosqichlarida u yoki bu tushunarsiz so‘zning qanday ma’no anglatishini bilish ehtiyoji natijasida paydo bo‘lgan. Dastlabki tuzilgan lug‘atlar umumlashgan, universal xususiyatga ega bo‘lgan. Lug‘atlarning turli shakllari, ko‘rinishlari soha taraqqiyotining keyingi davrlarida yuzaga kelgan.

“O‘zbek tili leksikografiyasi o‘n uch asrlik taraqqiyot tarixiga ega, unda davrlar osha katta miqdor va sifat o‘zgarishlari sodir bo‘lgan. O‘zbek leksikografiyasi o‘zining bir qancha taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Shunday bo‘lsada, bugungi kunda o‘zbek tilining zamonaviy lug‘atlarini tuzish vazifalari dolzarb masalalardan biri bo‘lib turibdi”. [Shofqorov, 2021: 58].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-sonli Farmoni bilan 2020-2030 yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiyada lug‘at tuzish ishlariga yangicha yondashish, sheva so‘zlarini o‘rganishni takomillashtirish alohida ta’kidlangan.

O‘zbek tilshunosligida leksikografiya rivojlanmoqda. Bu lug‘atlarning eng cho‘qqisi sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (O‘TIL)ni ko‘rsatish mumkin. Ushbu lug‘at bugungi kungacha uch marta nashr qilindi. 1981 йилда oltmish ming so‘z va birikmalarni qamrab olgan ikki jildli lug‘at, 2006-2008 yillarda sakson mingdan ortiq so‘z va so‘z birikmalarini qamrab olgan besh jildli lug‘at yuzaga keldi. Ushbu besh jildli lug‘at 2020-yilda qayta nashr etildi.

Sakson mingdan ortiq so‘z va so‘z birikmalarini qamrab olgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan dialektal so‘z va birikmalar ham o‘rin olgan. Besh jilddan iborat O‘TILga 850 dan ortiq dialektal so‘z va so‘z birikmalari kiritilgan. Ushbu so‘zlarning asosiy qosmini ot so‘z turkumidagi so‘zlar tashkil qiladi. Ya’ni O‘TILda 450 ga yaqin ot, 190 ga yaqin fe’l, 130 dan ortiq sifat va 80 ga yaqin ravish so‘z turkumlaridagi so‘zlar berilgan. Shuningdek, izohli lug‘atda kam miqdorda bo‘lsa ham olmosh, son, taqlid so‘z turkumidagi so‘zlar hamda dialektal birikmalar mavjud.

Yuqorida berilgan raqamlardan ma’lumki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da eng ko‘p berilgan dialektal leksika ot so‘z turkumiga mansubdir. Ushbu dialektal so‘zlarni bir qancha mavzuiy guruhlarga ajratish mumkin. Bular:

qarindoshlikni bildiruvchi so‘zlar: *bibi* - buvi, *ada* - ota, *acha* - buvi, *yazna* - pochcha, *doda* - buva, *moma* - buvi, *qayliq* - qalliq, *biyi* - buvi, *bika* - beka, *bova* - buva, *buvak* - chaqaloq, *doda* - buva, *doyi* - tog‘a, *ena* - ona, *jezna* - pochcha, *jujuq* - go‘dak, chaqaloq, *moma* – buvi, *checha* – yanga, kelinoyi, *chaqa* – bola, farzand;

oziq-ovqat nomlarini bildiruvchi so‘zlar: *kurdik* - xamir ovqatning bir turi, *ko‘mirchak* - qirmoch, *qurtova* - parhez ovqat, *qayish* - xamir ovqatning bir turi, *chalob* - suzma;

inson a’zolari nomlari*: iyin* - yelka, *jinjiloq* - jimjiloq, *jombiz* – oyoqning tizza orqasidagi bukik joyi, taqim, *sirg‘aliq* - quloqning sirg‘a taqiladigan qismi, *chimchaloq* – jimjiloq, *buyur* – och biqin, *bebilchak* – oyoq ustining do‘ng joyi;

qurilish mollari nomlari*: jarg‘i* - arra, *qirg‘i* - randa, *yorg‘i* - arra;

hayvonlar: *tayxar* - ikki yoshli eshak, *ko‘shak* - bo‘taloq, *dusoq* - ikki yoshli qo‘y, *davshan* – quyon, *tuvcha* – bir-ikki yoshli echki;

qush va hashoratlar: *olapopish* - popishak, *olahakka* - zag‘izg‘on, *po‘ngqarg‘a* - qoraqarg‘a, *sinchalak* - chittak, *o‘rgamchi* - o‘rgimchak, *yorqanot* – ko‘rshapalak;

meva nomlari: *maymunchak* – malina, *olvoli* – olcha, *olmurut* – nokning bir turi, *olu* – olxo‘ri, *parmanchak* – maymunjon, *potinjon* – pomidor;

narsa-buyum nomlari*: zangi* – narvon, *shipirgi* – supurgi, *yarg‘ichoq* – yorg‘ichoq, *ko‘gan* – qo‘zi-uloqlar qator qilib bog‘lab qo‘yiladigan ilmoqli arqon, *nahal* – nag‘al va boshqalar.

Ko‘rinib turibdiki, O‘TILga kiritilgan 450 dan ortiq ot so‘z turkumidagi so‘zlarni bir qancha mavzuiy guruhlarga ajratish mumkin. Lug‘atda qo‘llangan boshqa turkumdagi so‘zlarni ham mavzuiy va semantik jihatdan turlicha guruhlash mumkin.

O‘TILda berilgan ba’zi dialektal so‘z va birikmalarning adabiy tilda muqobili mavjud emas. Bular:

КЎГАН шв. Қўзи-улоқлар қатор қилиб боғлаб қўйиладиган (қўй-эчкини соғишда ишлатиладиган) илмоқли арқон; чилвир. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-жилд, 443]. **ЖЕЛАК** шв. Нимча, енгсиз юпқа кийим. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-жилд, 80]. **УВИЗ** шв. Оғизнинг икки чети. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-жилд, 262]. **БЕГИМ КУНИ** шв. Белгиланган бозор кунларидан бошқа кун. [O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-жилд, 204].

Xalq jonli so‘zlashuv tilida shu kabi adabiy tilda muqobili mavjud bo‘lmagan yuzlab so‘zlarni uchratish mumkin. “O‘zbek tilshunosligining bugungi

kundagi eng muhim vazifalaridan biri hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksik lakuna (bo‘shliq)larni to‘ldirish, bu borada shevalardagi so‘zlarni adabiy tilga olib kirish va shu asosda til leksikasini boyitishdir. Bu borada ayrim ishlar amalga oshirilgan bo‘lsada, til leksikasining lakunar bo‘shliqlari va uni sheva so‘zlari bilan to‘ldirishga alohida diqqat qaratilmagan”. [Ҳасанов, 2020: 317].

Aslida xalq jonli so‘zlashuv tilida, ya’ni shevalarda minglab so‘zlarni uchratish mumkin. S.Ashurboyev “O‘zbek dialektologiyasi” darsligida Sh.Shoabdurahmonovning adabiy tilda o‘z o‘rnini topishi kerak bo‘lgan bir qator so‘zlar mavjudligi haqidagi malumotni berib, bir qancha dialektal so‘zlarni keltirib o‘tadi. [Ashirboyev, 2021: 101].

Dialektal leksikani shu tilda so‘zlashuvchi barcha uchun tushunarli so‘zga aylantirish uchun, avvalo, bu boradagi tadqiqot ishlarini ko‘paytirish, ularni lug‘atlarda aks ettirish lozim. Xususan, o‘quv lug‘atlariga, O‘TILga ko‘plab dialektal leksikani kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shunday ekan O‘TILni yanada zamonaviylashtirish, yanada boyitish, yanada mukammallashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki o‘zbek tili jamiyat a’zolarining keng ehtiyojlarini qondirish sari rivojlanib, hayotning turli sohalarida innovatsion jarayonlar kechmoqda, fan-texnika rivojlanib, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar jadallik bilan ilgarilamoqda. Bu esa o‘zbek tili lug‘at tarkibiga tobora yangi so‘zlarning kirib kelishiga olib keladi. Bunda dialektal leksikaning adabiy tilga singish jarayonini jadallashtirish, dialektal so‘zlar ma’nosi izohlangan o‘quv lug‘atlari sononi ko‘paytirish va ularni o‘quvchiga va keng kitobxonga yetkazish, dialektal so‘zlar izohli lug‘atlarini tuzish ishlarini amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni adabiy tilning boyishda ichki manba bo‘lgan dialektizmlar hisobiga boyitish eng asosiy vazifalardan biridir. Bunday lug‘atlardagi so‘zlarning izohlanishini lingvistik tahlil qilib borish esa ularning takomillashish kaliti vazifasini bajarishi tabiiydir.

Fan-texnika yuksak darajada taraqqiy etayotgan shiddatli va tezkor davrda o‘zbek tilshunosligining barcha sohalari kabi leksikografiyada ham eng so‘nggi yutuqlardan foydalanib, zamonaviy, ta’lim sifati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi lug‘atlarni yaratish davr taqozosi hisoblanadi. Bunday lug‘atlarni dialektal leksika bilan boyitish muhim hisoblanadi. Bu esa dialektal leksikaning yashovchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, tilning lug‘at boyligini oshiradi, adabiy tilning ichki manba hisobiga boyishiga xizmat qiladi.

Ayniqsa, dialektal tadqiqotlar va izlanishlar dialektizmlarning adabiy til leksikasidan joy olishida muhim omil hisoblanadi. Bu boradagi izlanishlar natijasida tilimizning bebaho boyligi saqlanadi, tilda butun millat uchun tushunilishi oson bo‘lgan so‘zlar salmog‘i ortadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2021. B.175.

2. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. – Toshkent:O‘qituvchi, 1996 .

3. To‘ychiboyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2004.

4. Umarov E. Eski o‘zbek lug‘atlari. – Toshkent, 1992.

5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / A.Madvaliyev tahriri ostida. 5 jildli, 1-5-jildlar. – Toshkent, 2020.

6. Shofqorov A. O‘zbek leksikografiyasi tarixidan / Academic research in educational sciences. Volume 2. Issue 2. 2021. pp. 355-359.

7. Ҳасанов А. Диалектизмлар билан тил лексикасини бойитиш мезонлари / Ўзбек ва тожик филологиясининг долзарб масалалари мавзусидаги конференция. – Хўжанд, 2020. - Б. 316-324.

4-SHU‘BA

DIALEKTOLOGIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

DIALEKTIK LEKSIKANI O‘RGANISH – LINGVOMADANIYATSHUNOSLIKNING ASOSIY YO‘NALISHLARIDAN BIRI

Duysabayeva Dilbar Uskanovna,
TDPU Qozoq tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
d.duysabayeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "kompetentsiya" va "lingvomadaniy kompetensiya" tushunchalari muammolari haqida so‘z boradi. Shuningdek, bo‘lajak qozoq tili va adabiyoti o‘qituvchilarini tayyorlashda lingvomadaniy kompetentsiyani shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *kompetensiya, kasbiy va didaktik kompetensiya, lingvomadaniy kompetensiya, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi.*

Annotation. *This article talks about the problems of the concept of "competence" and "linguocultural competence". The modern approaches to the formation of linguocultural competence in the preparation of teachers of the Kazakh language and literature are considered.*

Key words: *competence, professional and didactic competence, linguocultural competence, professional training of teachers.*

Mavzuning dolzarbligi: Ma’lumki, hozirgi qozoq tilshunosligida tilshunoslik va madaniyat sohasidagi asosiy yo‘nalish til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatdir. Darhaqiqat, tilning asosiy ijtimoiy vazifasi ana shu uzluksizlikka asoslanadi. Binobarin, har qanday xalqning madaniyatini boshqalardan ajratib turadigan narsa, uni idrok etishi va tevarak-atrofdagi dunyoga moslashishi pirovard natijada milliy jamoa vakilining moddiy va ma’naviy qadriyatlarni egallash va egallashdagi faol ishtiroki bilan belgilanadi. Shu bilan birga, til madaniy boylik yaratish vositasi bo‘lmasa-da, til orqali madaniyat manbayi millat hayotining ko‘zgusi sifatida namoyon bo‘ladi. Turli tarixiy-ma’rifiy manbalardan avloddan avlodga o‘tib kelayotgan milliy qadriyatlar majmuini to‘plash va tahlil qilish, hududiy va kasbiy qo‘llanmalardan til xazinasi sifatida foydalanish, til orqali millatning tabiatini tan olishga xizmat qiladi. Shu maqsadda mintaqaviy

dialektal lug‘at lingvomadaniy tadqiqotlar jarayonida madaniyatning lingvistik qiyofasini to‘ldiradigan ma’naviy-ijtimoiy axborot o‘rinlaridan biridir.

Asosiy qism: Taniqli filolog D.S.Lixachev “Insonni, ya’ni uning ruhiy kamolotini, axloqiy qiyofasi, xarakterini bilishning eng yaxshi yo‘li – uning so‘zlariga quloq solishdir. Shunday qilib, xalq tili va shaxs tili uning madaniyatining belgisi, shaxsiy fazilatlarining belgisi sifatida xalq tilidan foydalanadigan insonning fazilatlari hisoblanadi»[Лихачев, 2000: 355].

Shunday qilib, xalqning tili ham, shaxsning tili ham madaniyatning aksi bo‘lib, xalq madaniyatining ko‘rsatkichlari hisoblanadi. "Til madaniyati" atamasiga kelsak, u "til" va "madaniyat" tushunchalari bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘pincha "til madaniyati", "nutq madaniyati" yoki bu tushunchalarni almashtirish uchun sinonim sifatida ishlatiladi va bu atamalarning uyg‘unligiga qarab ularning ma’nosi o‘zgaradi. Shuning uchun mazkur atamalardan foydalanish uchun ularning ta’riflarini to‘g‘ri aniqlash kerak. Lingvomadaniyatshunoslik bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, "til madaniyati" iborasining ta’riflari juda ko‘p emas. Shunday qilib, Y.O.Oparina til madaniyatini "til tizimiga ham, nutqqa ham, nutq xatti-harakatlarining ijtimoiy-madaniy jihatdan asosli xususiyatlariga ham taalluqli keng doiradagi hodisalar" deb ta’riflaydi [Опарина, 1999: 89].

Ona tilini o‘qitishda ham lingvomadaniy kompetentsiyalarni shakllantirish - madaniy savodxonlikni rivojlantirish, qadr-qimmatini hurmat qilish va til ko‘nikmalarini shakllantirish nuqtayi nazaridan ta’lim mazmunini rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy maqsadi – mahalliy til birliklarining madaniy semantikasini, dialektik leksikani o‘rganish.

Mahalliy til birliklarining madaniy semantikasini o‘rganish, ya’ni dialektik leksikani adabiy leksikadan ajrata bilish - fikrni bayon qilishda gap tuzish jarayonining asosiy vazifalaridan.

Qozoq tilshunosligida dialektologiya sohasidagi dastlabki tadqiqotlar J.Aymautov maqolasi bilan boshlanib, J.Dosqarayev, S.Amanjolov, N.Sauranbayevlar izlanishlari bilan davom etdi. Keyingi yillarda dialektologiyaga oid yana bir qancha izlanuvchilarning maqolalari chop etildi. 1952-yildan keyin bu boradagi ilmiy izlanishlar faollashdi. O‘sha davrdagi yosh tadqiqotchilarning yangi to‘lqini bugungi kunda qozoq dialektologiyasining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan Sh.Sh.Saribayev, G.Kaliev, S.Omarbekov, A.Nurmagambetov, J.Bolatov, O.Naqisbekov, T.Aydarov kabi ustoz-olimlar turkiy tillar ichida qozoq dialektologiyasini oldingi qatorlarga olib chiqdi. Olimlar qozoq dialektologiyasining dolzarb yo‘nalishlarini belgilab berdi va murakkab masalalar bo‘yicha, xususan, Sh.Sh.Saribayev qozoq tilining mintaqaviy

leksikografiyasi, J.Bolatov qozoq tili sharqiy govorlarining tizimi, G.Kalievning qozoq tilidagi dialektal so‘z yasalishi haqidagi tadqiqotlari, T.Aydarov mintaqaviy tilshunoslik fanini chuqur o‘rganib, doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan, monografiyalar chop etilgan. Akademik Sh.Sh.Sariboyev qozoq tilshunosligining alohida sohasi sifatida dialektologiyani professional darajaga ko‘targan, ilmiy-uslubiy asos yaratgan yirik olimlardan biridir [Сарыбаев, 2000: 55].

Qozoq leksikasi tarkibida dialektal so‘zlarni o‘rgangan akademik Sh.Saribayevning ilmiy tamoyillar asosida mahalliy til birliklarining madaniy semantikasini, dialektik leksikani o‘rganib, hozirgi bosqichda ona tili xizmati ko‘lamini rivojlantiruvchi kanallarni modernizatsiya qilish va ochish bilan bog‘liq bilimlarni yangi bosqichga ko‘tarishda alohida ahamiyatga ega.

Masalan, olim ko‘rsatgan, asosan, janubiy govorlarda qo‘llanadigan *-хана* (-hana) affiksi keyinchalik ko‘plab mashhur otlarning yasalishida namuna bo‘lganini bilamiz:

Janubiy govorlarda	*Adabiy normada*
атхана, дәнхана, мұзхана, қозыхана, пешехана, түрмехана/қамақхана, балахана, әскерхана т.б.	мейманхана, наубайхана, қасапхана, кітапхана, асхана, шайхана, жатақхана, аурухана, шеберхана, қымызхана, сырахана, дәріхана, перзентхана т.б.

Akademik I.Kenesbayevning fikricha, bu arab-eron so‘zlarini qozoq tiliga kirib kelishda asosiy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili va mazkur tilda gapiradigan insonlar bilan muloqot qilishi bilan bog‘liq.

Ko‘rinib turibdiki, zamonaviy til tadqiqotining antropotsentrik paradigmasida so‘zning lingvomadaniy mazmuniga alohida e’tibor qaratilgan. Shu munosabat bilan dialektik lug‘atni umumiy lug‘at tarkibining tizimliligidan kelib chiqib tan olinishiga amal qilgan akademik Sh.Sariboyev dialektikani neologizm, arxaizm, kasbiylikdan alohida deb hisoblamaydi.

Shubhasiz, qozoq tilining dialektal, so‘zlashuv tarkibini aniqlash, ularning tabiati, xususiyatlari, tarixiy asoslarini aniqlash muammolarini faqat mahalliy xususiyatlarni har tomonlama ko‘rib chiqish, ularni to‘plash va chuqur o‘rganish orqali hal etish mumkin.

Izlanuvchi talabalar dialektologik amaliyot davomida mahalliy (dialekt) til xususiyatlarini to‘plash bilan bir qatorda mazkur mintaqa aholi punktining joylashuvi va tarixi, geografik xususiyatlari va tabiiy yashash tarzi, xalq xo‘jaligi va mashg‘ulotlari haqida batafsil ma’lumot ham to‘plashlari kerak. Shundagina talabalar tomonidan to‘plangan mahalliy tildagi materiallar aniq va to‘g‘ri bo‘lib, o‘sha joyning tabiiy til xususiyatlarini to‘liq ochib berishga yagona asos bo‘ladi.

Tilimizdagi dialektizmlar milliy meros manbayi bo‘lib, ular xalqimiz, ajdodlarimizning turmush tarzidan, hayotiy ehtiyojlardan, turmush, kasb-hunar, turmushning turli jabhalaridan kelib chiqadi. Ularning milliy adabiy tilimizga ta’siri katta. Milliy adabiy til bilan dialektizmlar o‘rtasidagi uzluksizlik va bog‘liqlik, tafovutlar doimo saqlanib qoladi. Umuman olganda, tilimizning mahalliy xususiyatlari tilimiz boyligini tahlil qilish va rivojlantirishda, hamda tilimizning rivojlanish tarixidan zarur lingvistik ma’lumotlar, materiallar bilan ta’minlash, adabiy tilimizni boyitishda bitmas-tuganmas manba ekanligi ma’lum.

Leksik dialektal xususiyatlar tilimiz lug‘at boyligini boyitishning yagona sababidir. Xalq tilining mahalliy o‘ziga xosliklari, dialektizmlar, zaruratga ko‘ra, adabiy tilimizga kirib boradi, uning boyishiga salmoqli hissa qo‘shadi deb hisoblash mumkin. Adabiy tilimizning boyib borishi ko‘pincha tilda eng ko‘p uchraydigan dialektal leksik xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Demak, tilimizning leksik xususiyatlari adabiy tilimizni boyitish kanali va manbalaridan biridir. Tilimizning leksik bazasini boyitib turuvchi manbalardan biri sheva xususiyatlaridir.

Dialektologik amaliyot davomida har bir talaba sinchkovlik bilan ishlanish, to‘plangan til materiallarini tizimlashtirish va tartibga solish, amaliyot hujjatlari va mashg‘ulot kundaligini o‘z vaqtida to‘ldirishi kerak.

Yuqoridagi masalalarni tizimlashtirishga kelsak, quyidagi muammolar yuzaga keladi: Hozirgi zamon dialektologiyasining vazifasi, asosan, ikki sohadan iborat: birinchidan, govorlar til tizimining barcha tomonlarini tavsiflovchi maxsus tadqiqot olib borish; ikkinchidan, govorlarning munosabatini, aloqasini, hududini belgilab, to‘liq tasnifini yaratish.

Xulosa: dialektal lug‘at til egasining butun ma’naviy-moddiy madaniyatini, boyligini, millatning mazmun-mohiyatini, hayotini saqlab turuvchi til obrazining eng boy manbalaridan biridir. Til va madaniy kompetensiya - bu lingvistik va madaniy elementlardan kontekstda foydalanish, madaniy, tarixiy va maxsus milliy ma’lumotlardan lingvistik aloqada foydalanish, lingvistik bilimlar tizimi, millat tarixi, an’analari va madaniyati haqidagi bilimlardan oqilona foydalanish, nutq madaniyatini rivojlantirish.

Nafaqat chet tili, balki, ona tilini chuqur o‘zlashtirish uchun ham dunyoning etnomadaniy qiyofasi, lisoniy ongi, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari to‘g‘risidagi tushuncha shakllanishi kerak.

Shu sababli, "til va madaniyatni birgalikda o‘rganish" prinsipi ona tilida til birliklarining madaniy semantikasini o‘rganishda ham joriy etila boshlandi. "Madaniyat va til"ni lingvomadaniy birliklar (lingvokultura) majmuyi sifatida ko‘rib chiqish doirasida lingvomadaniy yondashuv natijasida ona tili va adabiyoti yo‘nalishi talabalarida ham lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish

maqsadida konkretlashtirilgan vazifalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni kafolatlash bugungi kunda dolzarbligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Сарыбаев Ш. Ш. Қазақ тіл білімі мәселелері. – Алматы: Арыс, 2000. 624 б.
2. Апресян Ю.Д. Избранные труды. Т. II. Интегральное описание языка и системная лексикография. – М. Языки рус. культуры, 1995. – 767 с.
3. Лихачев Д.С. Русская культура. – М.: Искусство, 2000. – 440 с.
4. Опарина Е.О. Язык и культура. Языковая культура как предмет общественного интереса [Электронный ресурс] . Сб. обзоров – М.: ИНИОН, 1999. – 109 с.
5. Оразов М. Қазақ тілінің семантикасы. – Алматы: Рауан, 1991. –211 б.
6. Сыздықова Р.Г., Хусайын К.Ш. Қазақша-орысша сөздік. А.: -2001.
7. Қалиев Ғ. Студенттердің диалектологиялық практикасын өткізуде пайдаланатын көмекші құрал. – Алматы, 2005.
8. Иманғазина А.Ә., Сұлтан Ж.И., Әбдірова Ш.Г. Студенттердің диалектологиялық практикасы. (Оқу бағдарламасы) – Ақтөбе, 2007.
9. Мұхамбетов Жомарт. Қазақ тілінің диалектологиясы: Оқу құралы. – Алматы, 2006.
10. Тасымов А. Қазақ диалектологиясы: Университеттердің филология факультеттеріне арналған оқу құралы. – Алматы: Қазақ университеті, 2005.

XORAZM QIPCHOQ SHEVALARI LEKSIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI TAHLILI

Alimova Shahnoza Maqsudovna
UrDU mustaqil izlanuvchisi
shahnozaalimova91@mail.ru

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm qipchoq shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida atroflicha ma’lumot berilgan. Xususan, o‘rganilayotgan sheva leksikasining fonetik, leksik hamda grammatik xususiyatlari misollar vositasida asoslab berilgan. Keltirilgan misollar boshqa shevalardagi variantlari bilan qiyoslangan.*

Kalit so‘zlar: *sheva, lahja, qipchoq, tasnif, fonetik xususiyatlar, leksik xususiyatlar, morfemik xususiyatlar, singarmonizm.*

Annotation. *This article provides detailed information about the peculiarities of Khorezm kipchak dialects of the Uzbek language. For instance, the phonetic, lexical and grammatical features of lexis in the under research dialect are highlighted basing on the examples. The given examples are compared with the options in other dialects.*

Key words: *dialect, dialect, kipchak, classification, phonetic features, lexical features, morphemic features, singormonism.*

Til xususiyatlariga koʻra oʻzbek tilining qipchoq lahjasiga mansub kishilar asosan Xorazm viloyatining Gurlan, Yangibozor, shuningdek, Shovot va Bogʻot tumanlarining ayrim qishloqlarida, Qoraqalpogʻiston Respublikasining Beruniy, Amudaryo, Xoʻjayli, Qoʻngʻirot va qisman Shumanay tumani, Nukus tumanining Nazarxon qishloqlarida yashaydilar. Mazkur shevalar ayrim lingvistik belgilariga koʻra bir-biridan maʼlum darajada farqlanadi. Shu sababli tadqiqotchilar ularni Beruniy-Mangʻit, Xoʻjayli-Qipchoq va Qoʻngʻirot shevalari deb tasnif qiladilar. (Ishayev, 1977:5). Ushbu tasnifda Xorazm viloyati hududida joylashgan Gurlan-Yangibozor shevalari, shuningdek, boshqa tumanlardagi sheva vakillari eʼtibordan chetda qolgan. Tadqiqotchi A.Ishayev bu shevalarning toʻliq tasnifini boshqa bir ishimizda mufassal yoritamiz, deb qayd qilgan boʻlsa ham negadir hech qayerda nashr qilinmadi. (Ishayev, 1977:5).

Mazkur tadqiqot Xorazm viloyatidagi qipchoq shevalari boʻyicha olib borgan kuzatishlarimiz natijasi boʻlib, masalaning mukammal yechimiga daʼvo qilmaydi.

Prof. F. Abdullayev Xorazm shevalarini atroflicha tekshirgan, uni butun borligʻicha dunyoga tanitgan, bu shevalar boʻyicha ajoyib nazariy fikrlarni bildirgan, Xorazm shevalarining ancha mukammal lugʻatini birinchi boʻlib yaratgan mashhur shevashunos olimdir. Ammo vaqt oʻtishi bilan, hamma sohalarda boʻlgani kabi, shevalarda ham har xil sabablarga koʻra oʻzgarishlar sodir boʻladi.

Bunda ayniqsa, maktab-maorif, jamiyatda sodir boʻlayotgan oʻzgarishlar, ilm-fanning rivoji, ommaviy axborot vositalarining taʼsirini alohida taʼkidlash kerak boʻladi. Bundan tashqari, Xorazmda domla F. Abdullayev faoliyat koʻrsatgan davrdagidan viloyatning hududi ancha oʻzgardi. Bir paytlar Xorazm viloyati tarkibida boʻlgan Amudaryo tumani keyinchalik Qoraqalpogʻiston Respublikasi tarkibiga oʻtkazildi. Bunday oʻzgarishlarning hammasi endilikda Xorazm qipchoq shevalarining tasnifiga hamda bu hududda yashovchi aholining tiliga oʻz taʼsirini koʻrsatishi tabiiy edi.

Biz tadqiqotimiz obyektiga Xorazm viloyatining Gurlan va Yangibozor tumanlarini kiritdik. Xorazmning shimolida joylashgan Gurlan tumanining

Amudaryo tumani bilan chegaradosh bo‘lgan qishloqlarida, aniqrog‘i, Do‘simbiyda j-lashishning elementlariga duch kelinadi.

Bir paytlar Shimoliy Xorazm aholisi, hatto O‘rta Xorazm, jumladan, Gurlan tumanidagi o‘zbeklar ham j-lashgan shevada gaplashganlar. O‘rta Xorazm shevalari o‘g‘uzlar ta’sirida j-lashishni yo‘qotib, y-lashishga o‘tganlar. (Polivanov, 1935:42). Bunga o‘xshagan fikrni Toshhovuz viloyatidagi o‘zbek shevalari leksikasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan tilshunos olim R. Yo‘ldoshev ham bildirgan. (Yo‘ldoshev, 1993:5-6).

Shimoliy Xorazmdan Xiva tomon borgan sari “j”lashishning kamaya borishining asosiy sababi hozirgacha viloyat bilan chegaradosh tumanlarda “j” lovchilarning yashashi, qolaversa qardosh qoraqalpoq tilining ta’siri deb tushunish kerak. (Ishayev, 1977:12).

Bundan tashqari, F. Abdullayev tomonidan shevashunoslikka qipchoq guruh shevalarining uchinchi tipi sifatida kiritilgan “ä” lovchi shevalardir.

F.Abdullayev bunday tip shevalarning uncha ko‘p emasligini, ularning, asosan, Gurlan tumanidagi Shang‘i, Qang‘li qishloqlarida, shuningdek, Urganch tumanidagi Qipchoq qishlog‘ining arablar yashaydigan joyida, Shovot tumanining Monoq, Bog‘otning Nayman, Qo‘shko‘pirning Qatag‘on, Xazoraspning Qang‘li (Pitnak) qishloqlarida yashashlarini, ushbu sheva uchun xarakterli xususiyat – bu so‘zning birinchi bo‘g‘inidagi e o‘rniga ä tovushining doimiy ishlatilishi ekanligini (käl-kel, tamir-temir) ta’kidlaydi. (Abdullayev 1961:265-266). Ko‘rinib turganidek, a-lashgan shevalar Shimoliy Xorazmda ham mavjud ekan. Bulardan tashqari bu tip sheva vakillari Yangibozor tumanining O‘yrot ovulida ham istiqomat qiladi.

Demak biz tadqiq qilayotgan sheva vakillari y-lovchi shevalarga mansub bo‘lib, uchinchi tip shevalarga xos bo‘lgan ä-lashish , shuningdek ayrim so‘zlarda “j”-lovchi shevalarga xos bo‘lgan diftonglashish hodisasini ba’zi so‘zlarda saqlagan qipchoq lahjasi shevalari hisoblanadi.

E.D.Polivanov Xorazm qipchoq shevalaridagi [dj]lashishning mavjudligi, so‘z boshida [x] undoshining saqlanmaslik belgilariga ko‘ra “qozoqlashgan” shevalar deb ataydi. (Polivanov, 1934:5). Haqiqatan ham, Xorazm qipchoq shevalari o‘ziga xos bir qator lingvistik xususiyatlari bilan qozoq tilidan tubdan farq qiladi. Ayniqsa, o‘zbek, qozoq va qoraqalpoq xalqlari aralash yashagan joylarda bu holat yaqqol seziladi. Qiyos qiling: shevada *Yumirtov, yilanli* kabi.

Gurlan, Yangibozor, shuningdek, Amudaryo tumaning Qilichboy, Halimbek kabi aholi punktlari va qishloqlarida “qozoqlashish” xususiyati umuman yo‘q. Bu dalilni sheva materiallari ham tasdiqlaydi. Qiyos qiling: shevada *Yumirtov, Yilanchi, Xitoy, Xo‘jaqal’a, Xalimbek, Charvaq* kabi joylari.

Bu muammoga shevashunos A.Ishayev haqli ravishda e’tiroz bildirgan edi. Mahalliy qozoqlar tilida *Djumurtov, Djilanli, Qitay, Qojaqal’a, Qalembek, Sharvak* shaklida qo‘llanadi. Ya’ni so‘z boshidagi y//dj, x//q, ch//sh undoshlari mosligini kuzatish mumkin.

Shuni qayd qilish kerakki, Xorazm qipchoq shevalarida singarmonizm saqlangan, shu sababli unlilar til oldi va til orqa (yumshoq, qattiq) variantlariga ega. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, bir paytlar Shimoliy Xorazm aholisi ba’zi o‘rta xorazm o‘zbeklari j-lovchi shevada gaplashgan. Ammo ular o‘g‘uzlar ta’sirida j-lashish xususiyatini yo‘qotib y-lashishga o‘tgan. Shunga yaqin fikrni R.Yo‘ldoshev ham qayd qilgan edi. (Yo‘ldoshev, 1993:5-6).

F.Abdullayevning fikricha, Xorazm qipchoq shevalarining uchinchi tipi sifatida “a”-lovchi shevalar ham qayd etiladi. Bunday shevalar aholi soniga unchalik ko‘p bo‘lmay, Shang‘i, Qang‘li (Gurlan), Qipchoq (Urganch), Nayman (Bog‘ot), Monoq (Shovot), Qatag‘on (Qo‘shko‘pir), Qang‘li (Pitnak), O‘yrot (Yangibozor) qishloqlarida yashaydilar. Mazkur tip sheva tilining xususiyatlaridan biri so‘zning birinchi bo‘g‘inida (e) o‘rnida (a) tovushining muntazam ishlatilishidir: *käl – kel, tamir – temir* kabi.

Ayrim holatlarda shevada tarixiy etimologik [y] tovushi saqlangan: *yil- jil, yuzum, yilon/jilon* kabi. Shuningdek, so‘z o‘rtasida [y] tovushining orttirilishi kuzatiladi. Masalan: *Miybozor, Biyvatan, biychora, diyvana, biybi* va boshqalar.

So‘z boshida *r, l* tovushlari uchramaydi. So‘z boshida r, l tovushi bor so‘zlar albatta oldida protetik unli paydo bo‘ladi. *O‘rozboy* (Ro‘ziboy), *Irajab* (Rajab), *O‘ris* (rus), *Ilay* (loy), *Ilaqqa* (laqqa), Ilanpachi (Lanpachi) va boshqalar.

O‘rganilayotgan shevada ayrim leksikologik o‘ziga xosliklar ham mavjud. Jumladan, men, sen, u, shu olmoshlari jo‘nalish kelishigi (-a) bilan turlanganda boshqa turkiy tillardan farqlanadi: men+ga (моңа), senga (соңа), unga (вуңа), shunga (шуңа) Qiyos qiling: qoz. *sog‘an,* qoraqalpoq. *sog‘an,* no‘g‘ay. *sog‘a* kabi. So‘zlarning torayish shakllari ham (*minan*- bilan; *apki*-olib kel, *apkit*-olib ket) ayrim formalar, jumladan *–djaq* (*keladjaq,bordjaq*) kabi shakllar ancha faoldir.

Umuman, Xorazm qipchoq shevalarida, adabiy tilda ham, boshqa turkiy tillarda ham deyarli o‘zgarmaydigan formalar mavjud. Shevada ayrim tilshunoslarning e’tiborini tortgan *bag‘alar* formasining vujudga kelishidir. E.D.Polivanov *bolalar* so‘zining *bog‘alar* shaklida talaffuz qilinishi dissimilatsiya hodisasining natijasi deb qaraydi: *(-lal->g‘al*) (Polivanov, 1933:17).

F.A.Abdullayev bu holatni shunday izohlaydi: *bolalar* so‘zidagi o‘zakdan l undoshi tushganda cho‘ziqlik ham, ikki unlining qator kelishi ham qipchoq shevalariga xos emas. Shunga ko‘ra o‘zakdagi a- unlilari o‘rtasida bir nafas

tovushi h tovushi paydo bo‘lib, so‘ng u jaranglashgan: *bolalar >baalar> bohalar > bog‘alar* bo‘lgan (Abdullayev, 1961:146).

A.G‘.G‘ulomovning fikricha, *bola* so‘zining ko‘plik (-lar) qo‘shimchasini olgandagi *bag‘alar* formasi ham odatdagi kabidir, biroq farq shundaki, bu o‘rinda u bola so‘zining mongolcha formasiga qo‘shilgan (*bag‘alar- bolalar)* (Polivanov, 1935:12).

Ahmad Ishayev *bala* so‘zining mongol, *buryat*–mongol tillarida *baga* (bag‘a) shaklining mavjudligi va *–lar* qo‘shimchasi ushbu shaklga qo‘shilgani hamda hozir *bag‘alar* shaklida shevada saqlanib qolganini yozadi. (Ishayev 1977:31).

Hozirgi davrda barcha sohalarda bo‘lgani kabi tilning integratsiyalashuv jarayoni davom etmoqda. Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi, insonlar orasida aloqaning turli vositalar, xususan, elektron vositalarning vujudga kelishi mahalliy dialektlarning yaqinlashuviga olib keldi. Biz o‘rganayotgan hududlarda o‘zbeklar, qoraqalpoqlar hamda turkmanlar, qozoqlar va boshqa millat vakillari uzoq vaqtdan beri hamkorlikda yashaydilar. Shu sababli sheva vakillari nutqida bu jarayon aks etmoqda. Ularning tillarida qozoq, turkman, qoraqalpoq tillariga xos so‘zlar uchraydi. Ular turli fonetik o‘zgarishlar bilan qo‘llanilmoqda va sheva vakillari talaffuziga moslashgan. Xorazmdagi turkman shevalarini barcha lisoniy aspektlar bo‘yicha o‘rgangan shevashunos S. Arazkuliyev turkmanlarning ig‘dir, dusji, go‘klan urug‘lariga o‘zbek tilining ta’siri kuchli ekanligini qayd etadi. ...ikkinchi gruppa shevada tilning chegarasi asta - sekin yo‘qolib bormoqda, o‘zbek tilining shevasiga aylanmoqda. (Do‘simov, 1985:5-17).

Xullas, o‘zbek shevalari ham asta-sekin o‘zining dastlabki xususiyatlarini ham yo‘qotib, adabiy tilga yaqinlashmoqda. Bu esa ayni vaqtda shevalarning boy materiallarini to‘plash masalasini kun tartibiga qo‘ymoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. 1. Ўзбекистон ФА нашриёти, Тошкент, 1961.

2. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. «Фан»,Тошкент, 1979.

3. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. «Фан», Тошкент, 1985.

4. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. «Фан», Тошкент, 1977.

5. Йўлдошев Р. Тошҳовуз вилоятидага ўзбек шеваларнинг лексик хусусиятлари. НД, Тошкент, 2002.

LINGVOKULTUROLOGIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Oripova Kamolaxon Erkinjon qizi
Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
kamolaxon.oripova@gmail.com
Qudratova Shaxzoda Anvarovna
Farg‘ona viloyati Uchko‘prik tumani
8-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada lingvokulturologiyaning paydo bo‘lishi, tilshunoslikdagi o‘rni va vazifasi, o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *antroposentrik, kommunikatsiya, lingvokulturologiya, vosita, konsepsiya, faktor.*

Abstract: *This article is devoted to check the emergence of linguoculturology, its place and function in linguistics, its specific features.*

Keywords: *anthropocentric, communication, linguoculturology, tool, concept, factor.*

Lingvokulturologiya – madaniyat va tilning qo‘llanish jarayoni maqomidagi o‘zaro ta’sirlashuvlarni o‘rganuvchi fandir. Lingvokulturologik tadqiqotlar sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, lingvomamlakatshunoslik, madaniyatshunoslik va boshqa shunga yaqin sohalararo miqyosda olib boriladi. Lingvokulturologiyaning tarixi haqida mulohaza yuritilganda, u uch davrga ajratilishini aytish lozim. Birinchi davr - V.Gumboldt, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi olimlarning tadqiqotlarini o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi davr esa lingvokulturologiya faning mustaqil tadqiqot sohasiga aylanish davridir. Hozirgi paytda lingvokulturologik izlanishlarning qat’iy rivojlanayotganligini ta’kidlovchi ba’zi tilshunoslar, jumladan, V.A.Maslova yana bir bosqichning, ya’ni uchinchi davrning paydo bo‘lganligini taxmin qiladi. Tilshunos fikricha, hozirgi paytda lingvokulturologiya umumiy tilshunoslikdagi boshqa sohalar bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, alohida fan sifatida shakllanmoqda.

Lingvokulturologiyada tilda murakkab qadriyatlarni o‘rganish bilan birga dunyoning madaniy tasvirini ko‘rib chiqish talab qilinadi. Dunyoning madaniy tasvirini o‘rganishda lingvokulturologiyaning mutaxassislari (Terebixin N.M., Toporova V.N., Gachev G.D.) qator holatlarni keltiradilar:

- Tilda dunyoning madaniy tasviri o‘z ichiga umuminsoniy va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini qabul qiladi.
- Dunyoning madaniy tasvirida tilda saqlanuvchi va qo‘llaniluvchi madaniyatga xos bo‘lgan ma’nolar, madaniy-qadriyatli dominantlar, madaniyatning ma’lum turlarini hosil qiluvchi tushunchalar mavjud bo‘ladi.
- Dunyoning madaniy tasviri bir til madaniyati qolipida yagona tasavvurni ifodalamaydi, chunki turli millat vakillari turli qadriyatlarga ega bo‘lishi mumkin.
- Dunyoning madaniy tasviri nafaqat individual balki jamoaviy ongda mavjud bo‘ladi [Karasik, 1996.].

Ma’lumki, hozirgi vaqtda tilshunoslik fanida til birliklarini o‘rganishda antroposentrik yondashuv alohida o‘rin egallaydi. Ushbu yondashuv jihatidan ‹‹inson omili›› til birliklarining shakllanishi va rivojlanishida birlamchi faktorlardan biri hisoblanadi. Ushbu antroposentrik qarashning rivojlanishi natijasida tilshunoslikda bir qator yangi fanlar, jumladan, lingvokulturologiya fani paydo bo‘ldi. Lingvokulturologiya lingvistika va kulturologiya uyg‘unlashuvi natijasida yuzaga kelgan, tilda aks etgan va ifodasini topgan, o‘z semantikasida milliy-madaniy ma’noni aks ettiradigan til birliklarini o‘rganuvchi fandir. Lingvokulturologiyada tilga madaniyatning asosiy umumlashtiruvchi qismi va jamoaviy malakalarning bebaho xazinasi sifatida qaraladi hamda madaniyatning tilga, shuningdek, tilning inson tafakkuri va dunyoqarashiga ta’sirini o‘rganish nazarda tutiladi. V.V.Vorobyevning ta’riflashicha, lingvokulturologiya sintezlashgan tipga mansub murakkab ilmiy yo‘nalish bo‘lib, til va madaniyatning o‘zaro bog‘liq munosabatini tizimli metodlar yordamida til birliklarida aks etishini tadqiq etadigan fandir [Vorobev, 2008, 32].

Fanda madaniyat tushunchasiga ko‘plab yondashuvlar bor. Keng ma’noda madaniyat ‹‹obyekt va qat’iy belgilangan tartib-qoidalar yig‘indisi bo‘lib, insonning xulq-atvori, hatti-harakatlari, olgan bilimlari, o‘zlikni anglash, dunyoning ramziy ma’nolarini tushunish va bilish shakllarini o‘z ichiga oladi›› (Levit, 1998). N.Sp.Gallyamova esa madaniyatni insonni inson sifatida shakllanishining asosiy omili, usuli deb hisoblaydi. Shu o‘rinda qayd etish joizki, til va madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘langan: til madaniyat negizida paydo bo‘ladi, rivojlanadi va aynan uning ifodalovchisi hamdir. Har qanday madaniyat qat’iy emas, u o‘zini o‘rab turgan muhit bilan hamohang va bog‘liq ravishda doimo harakatda va o‘zgarishda bo‘ladi (Maslova, 2001, b.19). Bu o‘rinda, til ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, avloddan avlodga yetkazib berish vazifasini bajaradi. Shu sababli, lingvokulturologiyada tilni nafaqat bilish va kommunikatsiya vositasi sifatida, balki aniq bir xalqning milliy madaniyati kaliti

sifatida ham qaraladi. Bu qarashning nazariy asoslari V.Gumboldt, A.A.Potebnya va boshqa tilshunoslar asarlarida ham belgilab berilgan. V.Gumboldt nazariyasiga ko‘ra, til – xalq ruhiyati va madaniyatining bebaho xazinasi bo‘lib, xalq milliy madaniyatini, shaxsning ichki va tashqi dunyosi munosabatlarini qamrab oladi. Shuning uchun ham har bir til o‘zi tegishli bo‘lgan xalq irodasi, dunyoqarashini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, til milliy qadriyatlarning asosiy aks ettiruvchisi sifatida millatning dunyoning ko‘rishi, anglashi va idrok etishida ko‘zgu vazifasini o‘taydi. V.Gumboldtning izdoshi ishlarida ham ushbu konsepsiya davom ettirilgan. Olim E.Sepir til “madaniyatning umumiy holda taraqqiy etishining zaruriy sharti hisoblanadi. Til madaniyatdan tashqarida, alohida mavjud bo‘la olmaydi. Til milliy madaniyatning shakllanishi va rivoj topishiga bevosita ta’sir ko‘rsatish qobiliyatiga ega” (Sepir, 1993, b. 223). “Madaniyatni o‘sha jamiyat kishilarining fikrlash usullari, xatti-harakatlari yig‘indisi sifatida tushunish mumkin” (Sepir 1993, b.193) deya ta’kidlagan. Shunday qilib, V.Gumboldt, A.A.Potebnya va yangi gumboldtchilar maktabi namoyondalari (Veysgerber L., Sepir E., Uorf B) ‹‹inson››, ‹‹til›› va ‹‹madaniyat›› tushunchalarini o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganib, til insonning o‘z-o‘zini va dunyoni anglashida muhim va alohida o‘rin egallashini qayd etadilar.

Adabiyotlar:

1. Артемова О.Е. Лингвокультурная специфика текстов прецедентного жанра “лимерик”: На материале английского языка: Дис… канд. филол. наук. – Уфа: БашГУ, 2004. – С. 24.
2. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие. – М.: Academia, 2001. – С. 5.
3. Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. – М.: Academia, 2000. – С. 128
4. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.

5-SHU‘BA
DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, TOPONIMIYA VA TERMINOLOGIYA

DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA MUAMMOLARI

Abdushukurov Baxtiyor Bo‘ronovich,
ToshDO‘TAU professori,
filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. *Bu maqolada o‘zbek dialektal leksikografiyasi muammolari haqida to‘xtalingan. O‘zbek dialektal leksikografiyasi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ot-it turk” asari bilan boshlangan. “Devon”dagi ma’lumotlar yordamida ayrim iboralar va paremalarning izohidagi muammoli jihatlarga ham oydinlik kiritilgan. O‘zbek xalq shevalari katta uchta lahja asosida rivojlanib kelayotgani misollar bilan ko‘rsatilgan. Ushbu sohada qilingan ishlar kamligi, ko‘p ilmiy tadqiqotlar uchun dialektal leksik manbalarning mavjudligi ta’kidlangan.*

Kalit so‘zlar*: shevalar leksikasi, dialektal leksika, dialektal leksikografiya, “Devonu lug‘ot-it turk”, lug‘at, dialektal lug‘at, dialektal leksikografiya, dialektal leksikografiya muammolari, hozirgi leksikografik talablar, shevalarning til xususiyatlarini diaxron va sinxron aspektda o‘rganish.*

Annotation. *This article discusses the problems of Uzbek dialectal lexicography. Uzbek dialectal lexicography began with Mahmud Kashgari's Devonu lug‘ot-it turk. Devon's information also clarifies the problematic aspects of the interpretation of some phrases and paradigms. Examples show that Uzbek dialects are developing on the basis of three major dialects. The lack of work in this area and the availability of dialectal lexical sources for many scientific studies have been noted.*

Keywords*: dialect lexicon, dialectal lexicon, dialectal lexicography, “Devonu dictionary-it turk”, dictionary, dialectal dictionary, dialectal lexicography, problems of dialectal lexicography, current lexicographic requirements, dialectal and synchronous features of dialects study in aspect.*

Ma’lumki, shevalar leksikasida xalqning ko‘p asrlik tarixi, madaniyati, urf-odat, an’analari barcha mahalliy ko‘rinishlari bilan birga o‘zining yorqin ifodasini topadi. Shu ma’noda, barcha shevalar leksik boyligini o‘z ichiga qamrab olgan dialektal lug‘atlar o‘zbek xalqining noyob xazinasi sanaladi. Kezi kelganda aytish

joizki, turkiy, shu jumladan, o‘zbek dialektal leksikografiyasining tarixi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ot-it turk” asariga borib taqaladi [Koshg‘ariy, 1967:544]. Ushbu lug‘atda o‘zbek tilining nafaqat fonetik, leksik, grammatik, shuningdek, o‘z davridagi dialektlarning leksik xususiyatlariga doir muhim ma’lumotlar aks etgan. Turkologiya fanining asoschisi sanalgan Mahmud Koshg‘ariy so‘zlarni izohlar ekan, o‘rni bilan ularning muayyan dialektlar uchun umumiy jihatlari, qaysi dialektga mansub ekanligi, dialektlardagi o‘ziga xos ma’no hamda stilistik xususiyatlari singari muhim tomonlari haqida to‘xtalib o‘tadi. Shuningdek, “Devon”dagi ma’lumotlar yordamida ayrim iboralar va paremalarning izohidagi muammoli jihatlarga ham oydinlik kiritish mumkin. Masalan, bugungi kunda “to‘g‘ri, halol odam bo‘lsang, bexavotir bo‘lasan, har kimdan cho‘chib, hadiksirab yurmaysan” deb izohlab kelinayotgan *“Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich”* (Halollik va tekinxo‘rlik haqida maqollar ruknida) maqoli “Devonu lug‘otit turk”da Sartning azuqi arig‘ bo‘lsa, yo‘l uza yer - *“Savdogarning yeguligi toza (pokiza) bo‘lsa, yo‘l ustida yer* shaklida keltirilgan. Asarda bu maqol aytgan so‘zining ustidan chiqa olmagan, quruq maqtanchoqlarga nisbatan qo‘llanganligi ta’kidlangan.

Darhaqiqat, bu kabi lug‘atlar o‘zbek tili tarixi, hozirgi o‘zbek adabiy tili, shuningdek, adabiy til va shevalarning o‘zaro munosabatlarini yoritish, adabiy til, badiiy asarlarda ifodalangan dialektizmlar ma’nosi, ularda parallel qo‘llanayotgan dubletlarning dominantlarini aniqlash, shevalardagi ayrim so‘zlarni adabiy til lug‘atlariga kiritish, shevalar atlasini tuzish, dialekt va adabiy tildagi leksemalarning etimologiyasini ochishda alohida o‘rin tutadi. Qolaversa, mazkur lug‘atlar umumturkiy tillar yuzasidan amalga oshirilayotgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar uchun manba bo‘lish barobarida, xalq og‘zaki ijodi namunalari, o‘zbek xalq maqol va matallarining qaysi hududda, qaysi sheva, dialekt vakillari tomonidan yaratilganligini belgilashga, ularning ma’nolarini aniqlab olishga yordam beradi. Fikrimizning isboti sifatida bir misolga murojaat qilaylik: 1981-yilda nashr qilingan “O‘zbek xalq maqollari” kitobida [O‘zbek xalq maqollari, 1981: 380] “*Cherchidan podsho bo‘lsa, in’omi igna bo‘lar”* maqolidagi *cherchi//charchi* so‘zi *“kir, ko‘ngli kir odam”* deb noto‘g‘ri izohlangan. Achinarli jihati bu xato 2016-yilda nashr yuzini ko‘rgan “O‘zbek xalq maqollari” kitobi hamda 2021-yil iyun oyida internetga joylashtirilgan “O‘zbek xalq maqollari to‘plami” (Baxillik va xassislik ruknida beriladi)da ham aynan takrorlangan. F.Abdullayevning Xorazm shevalariga bag‘ishlangan lug‘atida [Абдуллаев, 1961: 280] mazkur so‘z Urgut, Xiva, Xonqa, Hazorasp shevalarida *“attor”* ma’nosida qo‘llanganligi qayd etilgan. Demak, *cherchi – attor*. Attorgina ignani biror kimsaga sovg‘a qilishi mumkin.

Dialektal lug‘atlar talabalar, ona tili va adabiyoti o‘qituvchilari uchun nihoyatda zarur. Chunki oliy o‘quv yurtini tugatgan mutaxassislar sheva xususiyatlari tiliga chuqur singan o‘quvchilarga dars beradi. Ular o‘quvchilar nutqidagi dialektal tafovutlarni yo‘qotish uchun xilma-xil usullardan foydalanadi. Hozirgi kunda talabalar, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma adabiy til me’yorlarini puxta o‘zlashtirishi, ular nutqidagi dialektal xatolarni bartaraf etish muhim masala hisoblanadi. Shu bois o‘qituvchi, pedagoglarning o‘zlari yashayotgan hududdagi sheva xususiyatlaridan boxabar bo‘lishida dialektal lug‘atlar yordamchi manba vazifasini o‘taydi. Ayni paytda, amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar va o‘z yechimini kutayotgan muammolar borki, ularni bartaraf etish o‘zbek dialektologiyasi taraqqiyotini ta’minlaydi.

Taniqli shevashunos Ahmad Ishayevning yozishicha [Ishayev, 1989: 140], o‘zbek dialektologiyasi bo‘yicha 1988-yilga qadar 9 ta doktorlik, 56 ta nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan bo‘lsa, ularning 25 tasida katta-kichik hajmdagi lug‘atlar ilova tarzida berilgan. Qayd etilgan nomzodlik dissertatsiyalarida 15.100 ta, doktorlik dissertatsiyalarida esa 24.900 ta so‘z keltirilgan. Ushbu so‘zlarning bir qanchasi adabiy tilda ham, shevada ham mavjud bo‘lsa-da, 1971-yilda o‘zbek shevashunosligi tarixida birinchi marta e’lon qilingan qariyb besh ming so‘zdan iborat, bir jildli “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” uchun asosiy material sanalgan [Ўзбек халқ шевалари луғати, 1991: 3-407.].

Mustaqillik yillarida 6 ta nomzodlik, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD), 1 ta doktorlik dissertatsiyasi yoqlangan.

Bugungi globallashuv sharoitida fan va texnologiyalarning rivojlanishi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hamda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, xalqimiz orasida kitobxonlarning ko‘payishi, internet, televidenie, ommaviy axborot vositalari, uyali aloqa vositalarining kundalik samarali ta’siri adabiy til bilan shevalarimiz o‘rtasidagi tafovutlarning, xususan, arxaik, tarixiy va etnografik dialektizmlarning kamayib borishiga olib kelmoqda. Bugungi keksalarimiz bilgan va qo‘llayotgan so‘zlar, terminlar va iboralarni ularning nevaralari bilmasligi, ishlatmasligi mumkin. Shuning uchun ham respublikamiz hududidagi shevalarga xos leksik materiallarni to‘plab, tizimlashtirib, hozirgi leksikografik talablarga javob beradigan hududiy lug‘atlar tuzish lozim.

O‘zbek lahjalarining keng territoriyada tarqalganligi, ularning muayyan hududlarda aralash yashayotganligi, natijada ular tilida uchala lahja uchun mushtarak so‘zlarning mavjudligi har bir lahja uchun dialektal lug‘at tuzish ishini qiyinlashtiradi. Shu sababli o‘zbek shevalarining dialektal lug‘atlarini ma’lum region, hududlar obyektlarini ko‘rsatib, zarur o‘rinlarda ayrim so‘zlarning o‘g‘uz, qipchoq va qarluq yoki aralash lahjaga oid ekanligini qayd etgan holda tuzish

maqsadga muvofiq. O‘zbek xalq shevalari va biror regiondagi dialektlar bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar adabiy til, izohli va ikki tilli lug‘atlar hamda sohalarga doir terminlar lug‘ati uchun qimmatli material bo‘lishi bilan birga, o‘zbek tili, o‘zbek leksikografiyasi, o‘zbek adabiy tili rivojiga xizmat qiladi.

Mutaxassislarga yaxshi ayonki, *o‘zbek adabiy tili leksik jihatdan biror shevaga emas, balki o‘zbek dialektlarining barchasiga asoslanadi va ulardan zarur so‘zlarni qabul qiladi”.* Binobarin, shevaga oid so‘zlar so‘zlashuv, filolog olimlar, yozuvchi, shoirlarning asarlari va ommaviy axborot vositalari orqali adabiy tilga kirib keladi. Ammo badiiy adabiyotlar, matbuotda qo‘llangan dialektizmlarning aksariyati adabiy tilda mustahkam o‘rnashib qolmaydi. Davr o‘tishi bilan ularning ko‘pchiligi adabiy tilda turg‘unlashsa, ba’zilari eskirgan, tarixiy so‘zlar qatoriga o‘tadi yoki shevalarning o‘zida ishlatiladigan bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham og‘zaki va yozma nutqimizda adabiy tilni boyitadigan sheva so‘zlariga ko‘proq murojaat qilishimiz, ularning qo‘llanish doirasini kengaytirishimiz kerak. Masalan, 20-asr boshlarida *kupe* so‘zi o‘rnida *bo‘lma*, *avans* so‘zi o‘rnida *bo‘nak*, *mardikor* o‘rnida *kunlukchi, samovar* so‘zi o‘rnida *o‘ziqaynar atamasi qo‘llangan* yoki bo‘lmasa, *jadid adabiyoti bilimdoni,* professor B.Qosimov *“inersiya”* so‘zi o‘rnida *“saldam”*ni ishlatgan edi.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, ma’lum davrda shevada faol ifodalangan leksemalarning ayrimlari keyinchalik passivlashishi, so‘ngra davr talabi bilan yana qayta tiklanib, shevada ham, adabiy tilda ham faol qo‘llanadigan so‘zlar sirasiga kirishi mumkin. 20-asr boshlarida o‘zlashgan *pudrat, firma, mulkdor, kredit* so‘zlari 50-60-yillarga kelib eskirgan so‘zga aylangan. Vaqt o‘tishi bilan mustaqillik yillarida ular faol so‘z sifatida qo‘llana boshladi.

O‘zbek shevalari bo‘yicha S.Ibrohimovning “Farg‘ona shevalarining kasb-hunar leksikasi” (1959), B.Jo‘rayevning “Yuqori Qashqadaryo shevalari lug‘ati” (1969), F.Abdullayevning “O‘zbek tilining Xorazm shevalari” (1961), “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” (1971), A.Ishayevning “Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari” (1977), Nasiba Shoimovaning “Qashqadaryo o‘zbek qipchoq shevalari leksikasi (2000), B.To‘ychiboyev, Q.Qashqirlining “Zomin so‘zligi qomusi” (2008), T.Nafasovning “Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari lug‘ati” (2012), Alijon Allamberdiyevning “Buxoro o‘g‘uz shevalarining leksik qatlami” (2016) kabi bir qator lug‘at va monografiyalar e’lon qilingan bo‘lsa-da, ular o‘zbek xalq shevalarining ko‘p jildli lug‘atini nashr qilish imkonini bermaydi. Shu bois shevalarning hududiy lug‘atlari, fonetik dialektizmlar lug‘ati, dialektal frazeologizmlar, omonimlar, sinonimlar, antonimlar va terminologik lug‘atlar, o‘zbek shevalarining qiyosiy lug‘atlari, chappa hamda chastotali lug‘atlar tuzish o‘zbek shevashunosligi oldida turgan vazifalardan sanaladi. Albatta, bunday lug‘atlarning har biri bitta ilmiy loyihaga asos bo‘lishi mumkin. Ammo sheva

vakillaridan yozib olingan dialektal matnlar majmuisiz bunday miqyosi keng va katta ishlarni, xususan, dialektal lug‘atlarni tayyorlab bo‘lmaydi.

Bundan tashqari, shevalarning fonetik, leksik, grammatik (jumladan, boshqa davlatlardagi o‘zbek shevalarining) xususiyatlarini tadqiq etish borasidagi izlanishlarni jonlantirish, qolaversa, “O‘zbek dialektologiyasi” nomi ostida taqdim etilayotgan darslik va o‘quv qo‘llanmalarda dialektal leksikografiya bo‘yicha batafsil ma’lumotlar o‘rin olishi zarur. Zero, shevalarning til xususiyatlarini diaxron va sinxron aspektda o‘rganish lingvistik ahamiyat kasb etish barobarida etnogenetik muammolarni hal etishda, dialektlarning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini aniqlashda alohida qimmatga ega.

Umuman olganda, qayd etilgan vazifalar, muammolarni barataraf etish hozirgi lug‘atchilik talablariga javob beradigan o‘zbek xalq shevalarining ko‘p jildli lug‘ati, kompyuter lug‘atlarini yaratish, o‘zbek adabiy tili, o‘zbek dialektologiyasi, o‘zbek leksikografiyasi, xususan, dialektal leksikografiyaning rivoji uchun keng yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. -Тошкент: Фанлар академияси нашриёти, 1961. 280 b.

2. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Индекс луғат. –Тошкент: Фан, 1967. 544 b.

3. Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан, 1991. –B.3-407.

4. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. –Тошкент: Фан, 1990. –B. 3-67 (140 b).

JANUBIY OROLBO‘YI O‘ZBEK SHEVALARI LEKSIKASIDAGI AYRIM SO‘ZLARNING ETIMOLOGIK TALQINI

Ibragimov Yuldash, *NukusDPI* ***professori, f.f.d.***

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tili ikki va besh tilli izohli lug‘atlarida yevropa, arab, fors-tojik va boshqa eroniy, mo‘g‘ul, hind-dravid tillaridan o‘zlashgan ayrim o‘zlashma so‘zlarning o‘zbek tilining ikki va besh jildli izohli lug‘atlarida aks etishi, manba tillardai ma’lum darajada fonetik, grammatik va leksik-semantik o‘zgarishlarga uchraganliklari, zarur o‘rinlarda eski o‘zbek adabiy tili bo‘yicha turli davrlarda tuzilgan lug‘atlarga qiyos qilindi.*

Tayanch so‘zlar: *lug‘at, izohli lug‘at, etimologik ma’lumot, ibora, o‘zlashma so‘z, manba til.*

Annotation. *In the article was analyzed Uzbek, bilingual and five-language annotated dictionaries in European, Arabic, Persian-Tajik and other Iranian languages learned from the Mongol, Indo-Dravidian languages, reflection of some borrowed words in two- and five-volume annotated dictionaries of Uzbek language to some extent phonetic, grammatical and lexical-semantic changes in source languages where necessary from an etymological point of view by comparing dictionaries of the old Uzbek literary language compiled at different times.*

Keywords: *dictionary, explanatory dictionary, etymological information, phrase, assimilation word, source language.*

O‘zbek adabiy tili va xalq shevaariga so‘z o‘zlashish jarayonida ma’nosi keskin yoki sezilarli darajada o‘zgargan yoki yangi ma’no kasb etgan o‘zlashma lug‘aviy birliklarni aniqlashda izohli lug‘atlarning o‘rni benihoyat kattadir. Izohli lug‘atga kiritilgan har bir so‘z yoki termin bosh so‘z hisblanib, bosh so‘z va unga tegishli materiallar alohida lug‘at maqolasini tashkil etadi. So‘zlarni etimologik talqin etishdan asosiy maqsad muayyan so‘zning qachon, qaysi tilda, qanday so‘z yasalish qolipi bo‘yicha, qaysi til materiali asosida, qanday shaklda va qanday ma’no bilan hosil bo‘lganligini aniqlash demak. Etimologik talqin bilan bog‘liq bunday masalalar bevosita muayyan so‘zning nega shunday shaklda ekanligi, uning qanday yuzaga kelganligi yoki qaysi tilga mansubligi, manba tildagi ma’nosining o‘zlashtiruvchi tilda kengayishi yoki torayishi yoyinki, tamoman boshqa ma’noga almashinishi kabi muammolar, nafaqat, filologlarni, balki boshqa mutaxassislarni ham qiziqtirib, o‘ylantirib qo‘yyadi. Shu boisdan So‘zlar etimolgiyasini belgilashning nisbatan qiyin va birmuncha oson tomonlari ham mavjud. Masalan, Maxmud Koshg‘ariy davrida «bir turli mis» ma’nosida qo‘llangan *chozin* ‘cho‘zin’ so‘zining qachon va qanday qilib hozirgi *«cho‘yan»* holatiga kelib qolganini yoki qarg‘aning turlarini ifodalovchi *chumuq, chumchuq chumg‘uq* [Кошғарий, 1967:387].

So‘zlarining qaysi vaqtdan beri hozirgi «chumchuq» ma’nosiga ega bo‘lganini aniqlash uchun bir necha sheva ma’lumotlariga, ko‘pgina yozma manbalarga, izohli lug‘atlarga murojaat qilish, tarixan sodir bo‘lgan fonetik hamda leksik-semantik, grammatik o‘zgarishlarni taqqoslash va chuqur tahlil etishsha to‘g‘ri keladi.

Chunki muayyan bir til (masalan, o‘zbek tili) uchun o‘zlashma hisoblangan so‘zlarning dastlabki, birlamchi etimologiyasini aniqlash unchalik qiyin emas. Chunki hozirgi o‘zbek tilida qo‘llanilib kelayotgan *maktab, qalam, qandil va iqlim* so‘zlarining o‘zbek tiliga arab tilidan, arab tiliga esa o‘z navbatida yunon tilidan o‘zlashganini, ularning yunon tildagi dastlabki ma’nosi va shaklini aniqlash uchun arab va yunon tillariga taalluqli lug‘atlarni taqqoslash, ushbu

so‘zlarning tillararo «sayohati»ni kuzatish, manba tilga oid yozma yodgorliklarini sinchiklab tahlil etish natijasida amalga oshadi.

Xuddi shuningdek, tilimizda juda qadimiy, eski zamonlardan beri ma’nosida ishlatiladigan *daqyonus (daqqiyunus)dan qolgan; almisoqdan qolgan* kabi iboralar tarkibidagi *daqyonus (daqqiyunus), misoq (almisoq)* so‘zlari etimologiyasini, ya’ni ularning qaysi tilga mansubligi va manba tilda qanday ma’no anglatishini osongina aniqlash mumkin. Biroq mazkur iboralarning nega aynan shu shakllarda qo‘llanilishini, nega qadimiyligining ifodalashini, ya’ni iboralarning etimologiyasini aniqlashda dinlar tarixidan, “Qur’oni karim”ning o‘nlab suralaridan, xususan, uning “Kahf”, “G‘or” surasidan, Rim imperiyasi tarixidan yaxshi xabardor bo‘lish talab qilinadi.

Birinchi ibora Qur’oni karimning “Kahf” surasida zolim imperator Daqyonus, ya’ni qadimgi Rim imperatori Diokletaning Sharq xalqlari o‘rtasidagi nomining zulmidan qochib, Ollohga bo‘lgan imon-e’tiqodlarini saqlab qolish maqsadida g‘orga yashiringan yosh yigitlar (ularning nechta ekanligi – 3 ta, 5 ta yoki 7 ta ekanligi yolg‘iz ollohga ma’lum) va ularga ergashgan bir itning Ollohning xohish-irodasi bilan g‘orda 309 yil uxlab yotganligi va uyqudan uyg‘ongan yigitlar uchun bu muddat kunning bir qismidek tuyulgani, och qolgan yigitlardan biri taom keltirish uchun o‘z zamonasining puli bilan shaharga borgani hikoya qilinadi.

Yigitning qo‘lidagi pulni ko‘rgan shaharliklar (vaqt o‘tishi bilan ular ham imonga kelgan ekanlar). «Ie, bu pul Daqyonus zamonidan qolgan pul-ku!», - deb hayratga tushadilar. Demak, iboraning kelib chiqish tarixi ham, o‘zi bildirgan ma’no kabi uzoq tarixga ega.

Shu boisdan, o‘zbek tilining besh jildli izohli lug‘atida *almisoq* so‘zi berilib, uning manba tili(arab tili)dagi asl ma’nosi – *ahd, qasam, shartnoma, bitim* kabilar etimologik ma’lumot tarzida ta’kidlangan. Shundan keyin «*almisoqdan beri yoki buyon»* va *«almisoqdan qolgan»* iboralari qayd etilgan. Ikkinchi izohdagi «daqyonusdan qolgan» birikmasi iboralar etimologiyasiga bir qadar oydinliklar kiritilsa ham, ayni shu ibora nega shu shaklda va o‘sha ma’noda ishlatilishi qo‘shimcha izoh talab qiladi. Buning uchun yana “Qur’oni karim” suralariga murojaat etish joiz “Baqar”, “Ol-Imron”, “Niso”, “Moida”, “A’rof”, “Anfol”, “Ra’d” kabi suralarda turli grammatik shakllarda 30 martaga yaqin ishlatilgan *almisoq (misoq)* so‘zi mazkur suralarda taalluqli turda *ahd, bitim, shartnoma, ittifoq* va *ont, qasam* singari ma’nolarda qo‘llangan [Ислом. Энциклопедия, 2004:24]. Bular Olloh bilan Bani Isroil qavmi o‘rtasidagi, Olloh bilan nasorolar o‘rtasidagi, Olloh bilan payg‘ambarlar: Nuh alayhissalom, Ibrohim alayhissalom, Muso alayhissalom va Iso alayhissalom o‘rtasidagi

ahdlashuv va bitimlar, qavmlari, xalqaro shartnomalar, o‘zaro ittifoqlar va boshqalardir. Muhimki, bu *ahdlashuv, bitim, shartnoma, ittifoq* va *ontlar, misoqlar* juda qadim zamonlarda, ya’ni Islomgacha bo‘lgan davrlarni o‘zida ifodalagan “Qur’oni karim” suralarida batafsil bayon etilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, juda qadimdan mavjud bo‘lgan, nihoyatda eskirgan narsa-buyumlar va voqea-hodisalarga nisbatan ularning holatini tasvirlashda xalqimiz *almisoqdan beri, almioqdan qolgan* iboralarini ko‘p qo‘llaydilar.

Ma’lumki, etimologik ma’lumot esa, o‘zbek tiliga qarindosh bo‘lmagan noturkiy tillardan o‘zlashgan so‘zlarga o‘zbek tilining ikki jildli va besh jildli izohli lug‘atlarida bosh so‘zlarga etimologik izoh berilgan. Izohli lug‘atlarda xorijiy so‘z(atama)ning qaysi tilga qarashli ekanligi shartli qisqartmalar vositasida ko‘rsatiladi. Masalan: ***a*** *– arabcha,* ***f*** *– forscha,* ***f-t*** *– fors-tojikcha,* ***r*** *– ruscha,* ***lot.*** *lotincha,* ***yun.*** *yunoncha,* ***ingl.*** *inglizcha* va boshqalar. Masalan:

VELOSIPED (***fr.*** *vellocipede<* ***lot.*** *velox* - tez + *pedis* – oyoq).

HADIS (***a*** *– so‘z, suhbat, hikoya, rivoyat).*

G‘AZAL (***a***.- *xotin-qizlarning ko‘nglini olish, erkalash, lirik she’r)***.**

TILOVAT (***a*** *– (ovoz chiqarb) o‘qish, o‘qib chiqish*) [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Тошкент: 2008 -693 б.].

Agar so‘z tarkibiy qismlaridan, mustaqil ma’noli so‘zlardan tashkil topgan bo‘lsa, yangi lug‘atda bu holat ham qayd etilgan:

AKKREDITATSIYa akkreditlash (lot, akkredo – ishonmoq, ishonch bildirmoq).

ANTOLOGIYa (yun. anthologia<anthos - gul+ legos – terish: gullar dastasi).

Agar so‘zning tarkibiy qismlaridan biri (masalan, prepozitiv termin element) yoki har ikkala qismi alohida lug‘at maqolasi cifatida etimologik ma’lumot berilgan bo‘lsa, bu holat ham lug‘atda tegishlicha aks ettirilgan. Masalan: ARTROLOGIYa (yun. arthro(n) – bo‘g‘im+logos - ta’limot, fan).

ARTERIOSKLEROZ (arteriya + yun. scerosis – qotib qolish).

GULISUMBIL (gul+sumbul) [Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1981: 632. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, Тошкент: 2008. -693.].

Bir so‘z yasalish asosidan hosil qilingan yasama so‘zlarga etimologik ma’lumot berilmaydi. Faqat so‘z yasalishiga asos bo‘lgan so‘zgagina etimologik ma’lumot beriladi. Masalan, *anarxiya, anarxizm, anarxist, anarxistik anarxiyachi* so‘zlaridan faqat *anarxiya* so‘ziga yoki *didaktizm, didaktik, didaktika* so‘zlaridan faqat *didaktika* so‘ziga etimologik ma’lumot beriladi.

Shunisi ayonki, Yevropa tillariga taalluqli juda ko‘p so‘zlar o‘zbek tiliga rus tili orqali o‘tgan. O‘zbek tilining ikki jildli izohli lug‘atida ham muayyan

o‘zlashma so‘zga etimologiya belgilashda, u so‘z qaysi tilga mansub bo‘lishidan qat’iy nazar, uni rus tili orqali o‘zlashganligiga, oxirgi manba rus tiliga ishora qilingan: *(r<grek, r<lat, r<ingl. r<fr.* tarzida). Masalan, AMFITEATR (r<grek. amphitheatron – ikki tomonlama tomosha): 1. Qadimgi Yunon va Rimda ommaviy tomoshalar, teatr spektakllar ko‘rsatadigan mahobatli bino. 2. Tomosha zali (teatr, sirk)dagi yoki auditoriyadagi yarim doira shaklida qiya ko‘tarilib boruvchi o‘rindiqlar.

Lekin O‘zbek tilining besh jildli izohli lug‘atida bunday usul qo‘llanilmay, so‘zning qaysi tilga mansubligi ko‘rsatilgan. Chunki etimologik ma’lumotda so‘zning qaysi til orqali o‘zlashgani emas, balki bu so‘zning qaysi tilga mansubligi izohlanadi. Shu boisdan ushbu so‘zlrning etimologiyasi yangi lug‘atda quyidagicha beriladi:

AMPULA (lot. ampula - bo‘g‘ini tor, qorni katta, qo‘shquloqli shisha yoki sopol idish) [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-том. 1981: 632].

Etimologik ma’lumotlarda so‘zlarning kelib chiqishini belgilashda o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan to hozirgi kungacha nashr etilgan ikki tilli lug‘atlardan (arabcha-ruscha, ruscha-arabcha, arabcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-arabcha, forscha-ruscha, ruscha-forscha, forscha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-forscha, lotincha-ruscha, inglizcha-ruscha, fransuzcha-ruscha, nemischa-ruscha, hindcha-ruscha, mo‘g‘ulcha-ruscha va b.) xorijiy so‘zlar lug‘atlaridan, tojik tilining izohli lug‘atidan, zarur hollarda esa eski o‘zbek adabiy tili bo‘yicha turli davrlarda tuzilgan lug‘atlardan foydalaniladi va barcha o‘zlashma so‘zlarga imkon qadar etimologik ma’lumot beriladi.

O‘zbek tilining besh jildli izohli lug‘atida so‘z va terminlarga beriladigan etimologik ma’lumotlarda manba tillardagi so‘zlarning boshqa tillarga o‘xshashishida kishini hayron qoldiradigan darajada ma’no o‘zgarishlariga uchraganini kuzatildi. Masalan, yunon tilidagi *apteka* (apotheke) so‘zi dastlab “ombor, qaznoq” ma’nosini anglatgan. Keyinchalik mazkur atama tildan tilga o‘tish jarayonida (yunon>lotin> rus>o‘zbek) yangi – *dori ombori, dorixona* ma’nosiga ega bo‘lgan. Fransuz tilidan rus tili orqali o‘zbek tiliga o‘zlashgan *arsenal* so‘zi esa aslida arabcha so‘z bo‘lib, manba tilda *dorussanda* shaklida va karxona *«ishxona, korxona*» ma’nosida ishlatilgan. Yoki harbiylar yotib davolanadigan joy ma’nosidagi lotincha gospital (*hospitalis*) atamasi ilk bor «mehmondo‘st» ma’nosida ishlatilgan. Lug‘atni varaqlagan o‘quvchilar, *banan, bank, bankrot, velosiped, vermishel, vrach, gazeta, galaktika, gimn, granata, kafedra, dejur, zenit, magazin* kabi ko‘plab baynalmilal so‘zlarning tildan tilga o‘tishida qanchalik ma’no o‘zgarishlariga uchraganini ularga berilgan etimologik ma’lumotlardan bilib oladilar.

Yangi izohli lug‘at (O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 tomli)ni mutolaa qilgan, undan foydalangan kitobxonlar bir necha o‘nlab so‘z va atamalarning atoqli otlar (antroponim va toponimlar)dan hosil bo‘lganini bilib olishadilar. Bordi-yu, maktab o‘quvchilari, oliy o‘quv yurti talabalari o‘quv dasturiga kirgan fanlarni o‘rganish borasida *amper, bessemer, vatt, volt, galvani(k), daltanizm, darvinizm, pasterlash, rentgen, selsiy* kabi terminlar va o‘nlab kimyoviy elementlar nomlarining kelib chiqish manbai atoqli otlar ekanini yaxshi bilsalar ham o‘quvchilar bilan bir qatorda keng kitobxon ommasi lug‘atni mutolaa qilish natijasida *akademiya, badminton, banoras. batist, boykot, brauning, brusellyoz, vatman, venerologiya, vokzal, vulkan, gabbro, gaymorit, galife, gobelen, gigena, dizel, dalomit, iroqi (sovun), kanifol, konyak, lampochka, limuzin, lo‘ttiboz, makintosh, mauzer. melxior, nikotin, olimpiada, patefon, plomber, regbi, reglan, toifi(uzum)* kabi so‘z va terminlarning ham atoqli otlar asosida sodir bo‘lganini tushunib yetadilar.

Arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar ma’nosida ham ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Masalan, *basir* so‘zi manba tilda, ya’ni arab tilida *ko‘rish qobiliyati yaxshi, narsalarni yaxshi farqlovchi, o‘tkir zehnli* ma’nolarini bildirsa, hozirgi o‘zbek tili va shevalarida umumiste’molda *yaxshi ko‘ra olmaydigan, ko‘r* ma’nolarini bildiradi. Hozirgi kunda ham ayrim ota-onalarning o‘z farzandlariga “*Basir”, “Basira”* deb ism qo‘yishlari ularning arab tilidan, shu so‘zning dastlabki ijobiy ma’nosidan yaxshi xabardorligini anglatadi. Yoki yana bir arabcha so‘z – *kasal* so‘zi manba tilida *dangasalik, dangasa, ishyoqmas* ma’nolarida ishlatilsa, hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida “*bemor, betob, xasta», “shikastlangan»* ma’nolarida qo‘llanadi.

Shuningdek, O‘zbek tilining ikki jildli izohli lug‘atda *ehrom* so‘zi ko‘p ma’nolidir.

EHROM a - 1 esk. ayn . piramida 1,2.

2.Piramida shaklidagi *bino, inshoot.*

3. din [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-том,1981. 632. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. Тошкент: 2008 -693 б.]. Mazkur so‘zning kelib chiqishi yuzasidan kuzatishlar esa, uning ko‘p ma’noli bitta so‘z emas, balki o‘zaro omonim bo‘lgan ikkita so‘z ekanligidan darak beradi: arab tilida so‘z tarkibidagi *x* tovushi (harfi)ning ikki xil (xoi hutti - *x* va hoi havvaz - *h*) yozilishi ushbu so‘zning manba tilda shaklan va talaffuz jihatdan tamoman bir-biriga o‘xshamagan ikkita so‘z ekanligini ko‘rsatadi. Bu holat yangi izohli lug‘atda o‘z ifodasini topgan:

EHROM 1 (a – musulmonlarning haj davrida muqaddac hududga kirishi va ehrom kiyishi: 1. Makkaga haj safariga otlangan kishilarning ma’lum vaqt davomida ayrim narsalardan foydalanishdan (mas., *atir sepish, soqol-mo‘ylov,*

*tirnoq olish)*dan o‘zini tiyish [Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-том, 1981. 632. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. Тошкент, 2008: 693.].

O‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida ma’nosi keskin yoki sezilarli darajada o‘zgargan yoki yangi ma’no kasb etgan arabcha so‘zlar qatoriga yana *ayol, azamat, azan, ayyuhannos, arava, aroq, askiya, asfalasofilin, ashaddiy. aqalli, aqida, bayoz, bashara, baqbaqa, bid’at, bisot, vajohat, irq, kasofat, kuppayakum, lahm, nafosat, piysabillo, tilovat* kabi forscha so‘zlar qatoriga esa *abgor, abzal, astoydil, badbin, boqimanda, darbadar, dardisar, zimiston, xudbin* kabi juda ko‘p lug‘aviy birliklar kirib, o‘zlashib, singishib ketgan. Shu bilan birga shevalarda yuqorida qayd etilgan so‘zlarning ko‘pi fonetik, leksik-semantik o‘zgarishlarga duch kelgan.

Shuningdek, arab tilida ko‘plik shaklida bo‘lgan bir qancha so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tili va uning shevalarida ko‘plik ma’nosida emas, balki birlik ma’nosida qo‘llanayotganini ham izohli lug‘atdagi etimologik ma’lumotlardan ayon. Birgina ***A*** harfi bilan boshlanadigan bunday so‘zlar 20 dan ziyod. Asosan, *avliyo* (birligi *valiy*), *avlod* (birligi - *valad*), *ayyom* (birligi – *yavm*), *alvon* (birligi – *lavn*), *anhor* (birligi – *nahr*), *arbob* (birligi – *rabb*), *arvah* (*ruh*), *asbob* (birligi – *sabab*), *askiya:azkiyo* (birligi – *zakiy*), *axlat* (birligi – *xilt*), *ashyo* (birligi – *shay’*), *a’zo* (birligi – *uza*) kabi so‘zlar hozirgi o‘zbek tili va shevalarida birlik sondagi so‘z sifatida tushuniladi va ayni ma’noda qo‘llanadi yoki umuman qo‘llanmaydi.

Aniq bir tilda yoki shevalarida qo‘llanib kelayotgan o‘zlashma so‘z va atamalarga etimologik ma’umot berish nihoyatda murakkab va qiyin ish. Masalan, fors va tojik tillari bo‘yicha yaratilgan lug‘atlarda ***ko‘shk*** so‘zi shu tillarning o‘z so‘zi tarzida ifoda etilgan, ya’ni ushbu lug‘atlarda ***ko‘shk*** so‘zining boshqa bir tilga tegishliligi, biror tildan kirib kelganligi to‘g‘risida hech qanday ishora yo‘q. Yuqorida zikr qilingan chet tillar so‘zlari lug‘atlarida ham bu so‘z forscha deb ko‘rsatilgan. Shularning ta’sirida bo‘lsa kerak, o‘zbek tilining ikki jildli izohli lug‘atda ham ***ko‘shk*** fors-tojikcha so‘z sifatida tavsiflanadi. Besh jildli izohli lug‘atda esa mazkur so‘z ikkilanish bilan turkiy-forsiy deb qayd etilgan. Biroq M.Fasmerning “Рус тилининг этимологик луғати”da *kiosk* so‘ziga berilgan etimologik tavsifda u turk(iy)cha deb izohlangan: «Kiosk to‘g‘ridan to‘g‘ri turkcha *koyk* “Pavilon”dan emas, balki nemischa *Kiosk* yoki fransuzcha *kiosque* co‘zidan o‘zlashtirilgan [Кошғарий, 1967: 215]. Turk tili bo‘yicha yaratilgan lug‘atlarda ham ushbu so‘z forscha deb berilmagan. Shuningdek, Maxmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turki”da ***koshik*** *(yopish, bekitish, yopinchiq)* so‘zi va u bilan bog‘liq *(soya yer, ko‘lankali yer)* birikmasi ham uchraydi [Кошғарий, 1960:187,44,66]. Bizningcha, bu holat *ko‘shk* so‘zining

etimologiyasini aniqlashda shoshilmaslikni, ushbu so‘z tarixini o‘tmishda yaratilgan yozma yodgorliklar tili asosida sinchiklab o‘rganish lozim. Jobo‘shda *kөshk (*ko‘shk) so‘zi qadimda badavlat kishilarni taxtadan zambar yasab, tepasiga soyabon qilib to‘rt yoki olti kishi ko‘tarib yuradigan zambil. Yoki podshohlar yoki qizlari o‘tiradigan *kөshik* taxti ravon.

O‘zbek tilida sharq va arab tillaridan o‘zlashgan, o‘zlashish jarayonida ma’nosi keskin o‘zgargan yuqoridagi so‘zlar yangi besh jildlik izohli luatda ularga anchagina tegishli ravishda zaruriy etimologik izohlar berilgan.

Ayni yuqoridagi holat *ash* (osh) so‘zining etimologiyasida ham kuzatiladi. Mazkur so‘z ham fors va tojik tillari yuzasidan yaratilgan lug‘atlarda ushbu tillarning o‘z so‘zi sifatida qaraladi hamda uning o‘zga tilga mansub ekanligiga bironta ishora yo‘q. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, o‘sha lug‘atlarda mazkur so‘zning munosabatdoshlari *oshpaz, oshpazxona, oshxona* so‘zlari ham qayd etilgan. Shuning ta’siri ostida avval ikki jildli, so‘ng besh jildli izohli lug‘atda *ash* so‘zi forscha so‘z sifatida ta’kidlangan. Lekin turkiy manbalarga murojaat qilinganda, buning aksi bo‘lib chiqadi. Maxmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘atit turk» asarida *osh* so‘zi va u bilan munosabatdosh boshqa talaygina so‘zlar keltirilgan. Masalan, *ash//a:sh* – oziq-ovqat. *osh, taom, ovqat; ashatti – osh yegizdi, oshatni; ashliq* 11 – oshxona; *ashlaq* –dasturxon; ***ashich*** – qozon; *ashadi* – ovqat, osh yeyishni istadi; ***ashsatti*** – osh yeyishga ishtaha qo‘zg‘atdi [Кошғарий, 1967:29-30,35]. Shuningdek, K.K.Yudaxinning “Қирғизча-русча луғати”da [M.,1965], katta hajmli “Туркча-русча луғат”da [M,1977:79] ham ***osh*** so‘zining forscha ekaniga hech bir ishora yo‘q, ya’ni mazkur lug‘atlarda ***osh*** so‘zi turkiy so‘z sifatida talqin etiladi.

Chunonchi, o‘zbek tilining izohli lug‘atida yuqorida talqin etilgan *ko‘shk, osh* so‘zlari va boshqa ularga o‘xshash ba’zi so‘zlarga berilgan shubhali etimologik ma’lumotlarga aniqlik kiritish uchun taalluqli manbalarni sinchkovlik bilan har tomonlama tadqiq etish zarur. O‘zbek tilidagi izohli lug‘atlarning keyingi nashrlarida bunday noaniqliklar bartaraf etilib. ishonarli etimologik ma’lumotlar talqinga tortilishi maqsadga muvofiq. O‘zbek tili va uning shevalaridp *ko‘shk* va *osh* leksemalarining faol qo‘llanilishi turkiy tillar foydasiga hal bo‘ladi.

Xullas, so‘zlarni etimologik tahlil qilishdan asosiy maqsad muayyan til lug‘at tarkibining shakllanish manbalari va jarayonini o‘rganish hamda tilning qadimgi davr lug‘at tarkibi, so‘zning qachon, qaysi tilda, qanday so‘z yasalish qolipi bo‘yicha, qaysi til materiali asosida, qanday shaklda, qanday ma’noda hosil bo‘lganini qayta tiklashdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «Абушқа» луғатайн. (В.В.Вельяминов-Зернов нашри). –СПб.1851.1148 с.

2. Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. –Москва: Гос. изд – во иностр. словарей.1977. 1186 с.

3. Головин Б.И. Введение в языкознание. –Москва, 1956. 487 с.

4. Кошғарий Махмуд. Девону луғат-ит турк. Уч томлик I-том. -Тошкент: Фан.1960.-В. 386, 387, 466.

5. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғат-ит турк. Индекс-луғат. -Тошкент: 1967. –В. 29-30, 35.

6. Ислом. Энциклопедия. -Тошкент: Фан. 2004. –В. 24.

7. Лингвистический энциклопедический словарь. –Москва,1990. -596 с.

8. Реформатский А.А. Введение в языковедение. –Москва, 1988. -С.107.

9. Содиқов А., Абдуазизов А., Ирисқулов М. Тилшуносликка кириш. -Тошкент: Ўқитувчи, 1951.-Б.110.

10. Фаранги забони тожик. Ибрат аз ду жилд. –Москва, 1960. -253.

11. Фасмер М. Этимологический словарь русского языка в 4-х томах.Т. II.M.Bpl. FY СССР. 1967.-С.235.

13. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. -Тошкент: Фан, 2002.136 б.

14. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томли. I-том. –Москва: Русский язык, 1981. 632 б.

15. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. -Тошкент: 2008. -693 б.

QO‘QON SHEVASIDA POLISEMIYA HODISASI

Hakimova Muhayyo Karimovna,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU dotsenti, f.f.d.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilining Qo‘qon shevasidagi so‘zlardagi polisemiya hodisasi o‘rganilgan. Asosiy e’tibor metafora asosida shakllangan ko‘chma ma’nolarga qaratilgan. Ushbu ma’nolarning adabiy tilga munosabati tahlil qilingan. Shevaga oid so‘zlardagi ko‘p ma’nolilik hodisasi ushbu sheva vakillarining turmush tarzi va etnomadaniyati bilan shartlagan ekanligi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Qo‘qon shevasi, ma’noviy taraqqiyot, polisemiya, metafora, kognitiv metafora, etnomadaniyat, etimologiya.*

Annotation. *This article examines the phenomenon of polysemy of words in the Kokand dialect of the Uzbek language. The main attention is paid to metaphorical meanings. The relation of these meanings to the literary language is analyzed. It was revealed that the phenomenon of ambiguity in the dialect is due to the way of life and ethnic culture of the representatives of this people.*

Key words*. Kokand dialect, spiritual development, polysemy, metaphor, cognitive metaphor, ethnoculture, etymology.*

Ma’lumki, so‘zning ma’noviy taraqqiyoti murakkab jarayon bo‘lib, u bir qator lisoniy va nolisoniy omillar bilan shartlangan bo‘ladi. So‘z bir ma’nodan boshqa ma’noni anglatar ekan, ular o‘rtasida ma’lum bir bog‘liqlik bo‘lishi ma’lum. Mazkur bog‘liqning tabiati xalqning lisoniy topag‘onligidan tashqari turmush tarzi, hayotiy falsafasi, madaniyati bilan shartlangan bo‘ladi. Qo‘qon shahrining qadim madaniyati, adabiy muhiti nafaqat yozma yodgorliklarda, balki og‘zaki so‘zlashuvda ham namoyon bo‘ladi.

Qo‘qon shevasi o‘zining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu shevada polisemiya hodisasi ham kuzatiladi. Kuzatishlarimiz natijasida metafora asosida shakllangan ma’no taraqqiyoti ko‘proq uchrashi ma’lum bo‘ldi. Quyida ko‘p ma’noli so‘zlarning ayrimlarini tahlilga tortamiz.

Бъкър so‘zi. Ushbu so‘z qo‘qon shevasida bosh ma’noda “mustahkam” ma’nosini anglatib, narsaga va shaxsga nisbatan qo‘llanadi. Narsaga nisbatan qo‘llanganda, asosan, imoratlarning mustahkam ekanligini ifodalaydi: *Juda bikir qurilgan uy.* Ushbu fikrlar Sh.Nosirovning “O‘zbek tilining Qo‘qon shevasi” nomli dissertatsiyasida ham qayd qilib o‘tilgan. Sh.Nosirov bu so‘z aslida qadimgi o‘zbek tilidagi “yopiq va mustahkam” ma’nosidagi berk so‘zidan tug‘ilganligini ta’kidlaydi [Nosirov, 1965, 276]. Insoniyat tabiat va dushmanlardan to‘liq himoyalanmagan bir davrda berk narsalar mustahkam bo‘lishi xususidagi hayotiy falsafa *berk* so‘zi semantikasida aks etgan. Bu so‘z mustahkam o‘ralgan qal’a ma’nosida ham ishlatilgan. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra Orenburg, Peterburg kabi joy nomlaridaga “burg” tashkil etuvchisi “berk”dan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin.

Demak, *bikir* so‘zi imoratlarga nisbatan va insonga nisbatan “mustahkam” ma’nosini beradi va bu ma’no o‘zbek tilining izohli lug‘atida qayd etilgan. Izohli lug‘atda shevaga oidligi belgilanmagan bo‘lsa-da, qo‘qonlik adib Sobir Abdullaning asaridan namuna uchun keltirilgan parcha ham ushbu so‘zning qo‘qon shevasiga oidligini ta’minlaydi. Jumladan, quyidagi gap keltirilgan:

*Do‘stmuhammad meshkobchi o‘rta bo‘yli sariq mo‘ylov, bikir yigit bo‘lib.. boshqa meshkobchilardan ko‘proq mehnat qilar edi. (*S. Abdulla, Mavlono Muqimiy.)

Xonlik markazi bo‘lgan bu qadim shaharning o‘ziga xos arxitekturasi mavjud bo‘lgan. Atrofi tog‘liklar bilan o‘ralgan bu shaharda shamol juda ko‘p bo‘ladi va nisbatan chuqurlikda joylashganligi uchun ham namlik me’yordan ortiqroq. Mazkur tabiiy omillar qurilishlarning mustahkam bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Hozirgacha saqlangan Hudoyorxon saroyi devorlaridan yarim metrga yaqin yog‘ochlar chiqib turadi. Sababi mazkur yog‘ochlar binodagi namlikni tortib, tashqariga chiqarib turar ekan. Xuddi mana shunday mastahkam qurilgan imoratlarga nisbatan *bikir* so‘zi ishlatilgan va hozirda ham keng qo‘llanadi.

Bugungi kunda Qo‘qon shevasida insonning jismoniy baquvvatligiga nisbatan *bikir* so‘zini ishlatish kam uchraydi. Bu ma’no arxaiklashib borayotgan ma’nolardandir.

Ushbu shevada *bikir* so‘zining “badavlat” ma’nosi ham mavjud. Bu ma’no bosh ma’nodan metafora orqali shakllangan bo‘lib, insonning moliyaviy baquvvatligi jismoniy baquvvatlikka o‘xshatilmoqda.

Xonlik markazi bo‘lgan Qo‘qon shahrida boylar juda ko‘p bo‘lgan. Bugungi kunda ham qo‘qonliklar tabiatida “tinim bilmay mehnat qilish”, uddaburonlik, tadbirkorlik kabi o‘ziga xos streotiplar mavjud. *Bikir* so‘zi har qanday boy odamga nisbatan qo‘llanmaydi. Xususan, birdaniga boyib ketgan yangi boylarga nisbatan ishlatilmaydi. U bir-ikki avlodi o‘ziga to‘q bo‘lgan oilaga yoki insonga nisbatan qo‘llanadi. Muayyan avlodning mustahkam, pishiq moddiy asosi imoratning mustahkam poydevoriga o‘xshatiladi: *bu yigit juda bikir oiladan.*

Qo‘qon shevasida fors-tojik tilidan o‘zlashgan *shakarob (ɯəкəpān)* so‘zi pomidor va piyoz aralashtirib tayyorlanadigan salat, achchiq-chuchukni ifodalaydi. Mazkur so‘z “aralash” degan ma’noni anglatib, *shakarop qilib suv sepmoq, shakarop soya* kabi qo‘llanishlari ham mavjud edi. So‘nggi paytlarda ushbu ma’no taraqqiy etib, raqamlarning aralash-quralashligiga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan, *Muncha shakarop nomer obsiz, tuzukrog‘i yo‘g‘mikan?* Bu ma’no telefon va mashina raqamlariga nisbatan qo‘llanadi. Ayni paytda telefon kompaniyalar “oltin raqamlar”, “kumush raqamlar” va “oddiy raqamlar”ni turli narxlarda sotishadi va, asosan, xizmat turlari ingliz tilidagi “golden”, “silver” kabilar bilan nomlanadi. Bu o‘rinda shevaga xos bo‘lgan *shakarob* so‘zidan ham foydalanish mumkinki, bu birinchidan o‘zlashgan so‘z bo‘lsa-da, lug‘at tarkibdan o‘rin olgan, o‘zbek tilida ma’noviy taraqqiyotga erishgan, fonosemantik nuqtayi nazardan xaridorga ta’sir qila oladi. *Shakarob* so‘zidagi sezilar-sezilmas salbiy ottenka marketologiyada unga zid qo‘yilgan qimmatbaho raqamlarni olinishiga

yoki aksta’sir tufayli aynan arzon raqamlarning sotilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, 910077707 raqami Bilayn kompaniyasining “oltin raqami”, 919023574 esa “shakarob raqam”. Ushbu nom ko‘chish usuli ham metaforaga asoslangan.

Тәрвәңләп so‘zi. Qo‘qon shevasida ***тәрвәңләп*** so‘zi asosan yurishga nisbatan ishlatiladi. U odatda semiz kishilarning ikki yonga tashlab yurishini ifodalaydi. Ushbu so‘z mazkur ma’nosi bilan Sh.Nosirovning dissertatsiyasida ham qayd etilgan. Lekin uning ko‘chma ma’nosi keltirilmagan. U yana nutqda “boy bo‘lib kibrlanish”, “bosar-tusarini bilmay qolish” kabi ma’no ham anglatadi. Masalan, *Voy-bu, kechagina boy bo‘lib, bugun tarvanglab qolibdi. Ko‘pni ko‘rgan eski boylar ham yuribdi jimgina.* Ushbu ma’no ham metafora asosida shakllangan. Bu kabi metaforlar kognitiv metaforalar deb yuritiladi. Bunda xalq mavhum tushunchalarni konkret tushunchalarga o‘xshatib, ularning andozasi asosida murakkabroq tushunchani aniqroq tasavvur qiladi *[Xakimova, 2020, 92].* Ya’ni, boy odamlar juda kibrlanishi, uning o‘zini tutishidagi, xarakteridagi, hatto qadam bosishidagi o‘zgarishlar osongina semiz odamning yurishiga o‘xshatilgan.

Ispan adibi Xose Ortega-i-Gassetning fikricha, inson uchun jismoniy xarakterdagi narsalar, ularning jismoniy o‘lchovlari tabiatan yaqin. Chunki inson tafakkuri jismoniy narsalarni aniq tasavvur qiladi. Abstrakt psixik holatlar esa insoniyat tafakkurining keyingi bosqichlarida shakllangan bo‘lib, uni tasavvur qilish oson kechishi maqsadida inson jismiy narsalarga solishtiradi. Masalan, olim men so‘zini aytayotganda insonlarning ko‘kragiga qo‘li bilan urib gapirishlari, har bir inson o‘z *“menini”* alohida abstraksiyalashda baribir jism bilan bog‘lashini ta’kidlaydi *[Ortega-i-Gasset X. 1990, 70-71].*

Qo‘qon shevasida “ko‘k choy” *oq choy* deb nomlanadi. Bunga choy rangning och ekanligi sabab bo‘lgan. Ma’lumki, o‘zbek xalqi oq so‘zini nafaqat rostmona oqqa, balki och rangga nisbatan ham qo‘llaydi. Masalan, *oppoq qiz* deganimizda qizning rangi oq emas, bug‘doy rangdan ochroq. *Qora odam* qo‘llanishida esa bug‘doy rangdan to‘qroq. Xuddi shu assotsiatsiya choyga ham o‘tgan. Och rangli choy qo‘qon shevasida *oq choy*, to‘qrog‘i esa adabiy tilda qora choy. Lekin qora choy Qo‘qon shevasida *pamil choy* deb nomlanadi.

Oq choy qo‘llanishida reallashgan ma’no ham metaforaga asoslangan. Buni quyida *oq* leksemasining ma’no taraqqiyoti asosida ko‘rib chiqamiz. «Oq» leksemasining leksik ma’nolari:

1. *sft. Qor, sut, paxta rangidagi. Oq doka. Oq non. Oq qog‘oz.*
2. *Oq tusga moyil, tiniq. Oq badan. Oq yuzli.*
3. *Oqlik. Oqqa etmoq.*
4. *Aroq. Oqidan ichmoq.*
5. *Ko‘k choy. (*Qo‘qon shevasida). *Achchiqqina ko‘k choy charchoqni yaxshi oladi.*

6. *Oxirgi, toza (qo‘ldan chiqarish yoki pardozlash uchun qilingan oxirgi ish haqida). Oqqa ko‘chirmoq.*
7. *Gunohsiz, sha’niga dog‘ tushmagan; to‘g‘ri, haqiqat. Tekshiramiz: oqni oqqa, qorani qoraga ajratamiz.*
8. *Oqargan tuk, mo‘y. Sochning oqi.*
9. *Ko‘zning qorachiqni o‘ragan, tiniq rangli, shaffof qismi.*
10. *Tuxumning oqsil moddasi. Oqini emoq.* (O‘TIL, 5 jildli, 3-jild, 187-bet).

Oq leksemasining ma’no taraqqiyotini shartli ravishda quyidagicha belgilash mumkin. Zero, millatning qaysi ma’noni qachon va qanday bog‘liqlik asosida hosil qilganini aniqlash mushkul va hatto, ilojsizdir.



Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon shevasi juda boy qadim va ayni globallashuv davrida ham taraqqiy etayotgan shevalardan biridir. Mazkur shevani adabiy til bilan taqqoslab yangicha nazar bilan tadqiq etish va undagi so‘zlar hisobiga adabiy tildagi ayrim lakunalarni to‘ldirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nosirov Sh. O‘zbek tilining Qo‘qon shevasi. Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1965.

2. Xakimova M. O‘zbek tilida abstrakt nomlar semantikasi. Monografiya. – Toshkent, 2020.

3. Ortega-i-Gasset X. Dve velikie metaforы / Teoriya metaforы. – M: Progress, 1990.

FORISH TUMANI MILLIY XALQ O‘INLARI LEKSIKASIGA DOIR

Abdiyev M: *SamDU professori,*
Nabiyev R: *JizXTXQTMI HM o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada qadimiy tarixga ega bo‘lgan xalq o‘yinlari haqida fikr yuritilgan. Jumladan, Forish tumaniga xos xalq o‘yinlari turlari va ularning o‘ziga xos leksik xususiyatlari haqida mulohazalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *sheva, xalq o‘yini, mavsum, leksik qatlam, guruh, lug‘aviy ma’no, tadqiq etish.*

Annotation. *This article discusses folk games with ancient history. In particular, comments were made on the types of folk games typical of Forish district and their specific lexical features.*

Keywords: *dialect, folk game, season, lexical layer, group, lexical meaning, research.*

Ma’lumki, juda ham qadimiy tarixga ega bo‘lgan madaniyatimiz bir bo‘lagi bo‘lgan milliy o‘yinlarimizning tarixi ham uzoq. Ibtidoiy jamoa tuzumi davridayoq shakllangan xalq o‘yinlari dastlab insoniyatning oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash barorida bolalarni mehnatga o‘rgatish ehtiyoji negizida vujudga kelgan. Ya’ni, yoshi kattalarning mevalarni terishda qiyinchiliklarga duch kelishida meva terishni ish sifatida emas, balki bolalarga o‘yin shaklida o‘rgatish samaraliroq bo‘lgan. Boshqa qabila va urug‘lar o‘rtasida serhosil yerlar uchun kurash doimiy ravishda bo‘lib turgan. Bu jarayonning madaniy shakli sifatida musobaqa sifatida kurash olishuv musobaqalari vujudga kelgan. Shuningdek, qabilalar o‘z muammolarini janjal bilan emas, tinchlik yo‘li bilan hal qilish maqsadida qo‘shnilarini mehmonga chorlagan holda pantomimik o‘yin-raqslar shaklida ifodalagan.

Temirga ishlov berish jarayonidayoq meva terish musobaqasi, tarbiyaviy o‘yin-mashg‘ulotlar, sardorlar olishuvi, pantomimik o‘yin-raqslar shakllana boshlaydi. Ovchilik bilan shug‘ullanganda, xususan, ovda o‘lja bilan qaytayotganda xursand bo‘lib, ov jarayonini imo-ishora, maxsus harakatli o‘yinlar shaklida takrorlashga harakat qilishgan. Bu holat ovdan oldin va keyin

ham tayyorgarlikni tekshirish, unga ruhiy va jismoniy shaylanish maqsadida o‘tkazilgan.

Asta-sekinlik bilan ov natijasida qo‘lga kiritilgan hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish jarayonlari boshlanishi asosida chorvachilik hamda dehqonchilik vujudga kela boshlagan. Masalan, bahorda yer haydash uchun ho‘kizni boqish “Xush-xush”. Shoxlarni bo‘yash “Shoxmoylar”, qo‘sh haydash “Qo‘sh hayda”, otni mingi qilib egar solish “ Qaysar ot” o‘yinlar qo‘shiq aytib o‘ynalgan. Asta-sekinlik bilan qo‘y –echki junlarini olish, terini iylash, po‘stin tikish, jun yigirish, kiyim tikish singari an’analar bilan bog‘liq o‘yin shaklidagi qo‘shiq-raqslar ham vujudga kela boshlagan.

Xalq o‘yinlarini o‘rganishda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” muhim manba vazifasini o‘taydi. Unda xalq o‘yinlarining 150 dan ortiq turlari qayd etilgan.

Asarda “Qoronguni”(qorong‘ida qo‘rg‘on olish), “Bandol”(asir olish),”O‘tish-o‘tish”(davra o‘yini), “Mungiz”(suv o‘yini), “Chavgon”(to‘p o‘yini), “O‘t bandal”(tayoq o‘yini), “Oq so‘ngak”, “Jangli –mangli” . “Tirandozlik” singari nayzadorlik, qilichbozlik, o‘q otish hamda “Poyga”. “Qazot”, “Yuk tashish” kabi ot o‘yinlari haqida ma’lumot berilgan.

“Alpomish” dostonida ham kurash,nayza sochish, qilichbozlik, kamondan o‘q otish, merganlik, uloq singari o‘yinlarning berilishi orqali yosh avlodni jismoniy komilikka , jasurlik, jangovarlik, oriyatlilik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Amir Temur ham o‘yin-mashqlarda chiniqqanligi sababli o‘z qo‘shinining harbiy jangovarligini oshirishda undan foydalangan.

O‘zbek tilshunosligida tili shevalarining leksik qatlami bo‘yicha S. Ibrohimov, X.Doniyorov, R. Doniyorov, E. Begmatov, D. Bozorova singari bir qator olimlarning tadqiqotlari mavjud. O‘zbek xalq o‘yinlari leksikasi bo‘yicha esa ilk tadqiqot E. Jabborov qalamiga mansub bo‘lib, unda o‘zbek xalq o‘yinlarining bir qismi Janubiy O‘zbekiston materiallari asosida E. Jabborov tomonidan o‘rganilgan[1.].Unda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlariga xos materiallar asosida o‘zbek xalq o‘yinlari leksikasining shakllanish tarixi va uning nomlanishi, tematik tasnifi hamda ularning lug‘aviy-ma’noviy xususiyatlari atroflicha yoritilgan.

Yurtimizga xos bo‘lgan xalq milliy o‘yinlari tahlili quyidagi mazmuniy guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkinligini ko‘rsatmoqda:

Mavsumiy xalq o‘yinlari: bahorda “Tol bargak”(daraxtlar barg yozayotgn paytda o‘ynaladi), “ Gul o‘yini”(dala gullari ochilganda o‘ynaladi),”YOmg‘ir yog‘aloq”(inson ruhiy holat bilan bog‘liq holda o‘ynaladi), “Suvda quvlashish”, “Tez suzish”, “ Suv ostida suzish”(cho‘milish mavsumida o‘ynaladi), mevalar pishganda esa danak va yong‘oq o‘yinlari, yog‘ingarchilik boshlangan paytda esa

oshiq, qoziq tosh o‘yinlari o‘ynaladi. Qor yoqqan paytlarda esa “Tez aytish”, “Kim aytdi”, “Uloq” singari o‘yinlar o‘ynaladi.

Turli yoshlarga xos o‘yinlar: yosh bolalarga xos “Uy-uy”,”Ona-bola”,”Qo‘shni-qo‘shni”, o‘smirlaga xos “Bekinmachoq”, “Chillak”, “Suyak o‘yin” kabilar.

Mehnat qilish hamda turli mashg‘ulotlar bilan bog‘liq o‘yinlar: “Xirmon-xirmon”, “Podachi”, “Sartarosh”, “Kashtachi” “Asir olish” kabilar.

Jizzax viloyatining Forish tumani nafaqat tabiati, balki turfa xil shevalari bilan ajralib turadigan maskan hisoblanadi. Mustaqillikdan keyin Respublikamizda “Xalq o‘yinlari bayrami” ilk marotaba 1991-yilda shu tumanda o‘tkazilgan edi. Tuman xalq o‘yinlari bo‘yicha olib borilgan kuzatishlar va tahlillar ularning xilma-xil ekanligini ko‘rsatdi.

Tuman hududida xalq milliy o‘yinlaridan quyidagilari ancha ommalashganligi ekspeditsiya davomida bir necha barobar guvohi bo‘ldik. Ularni dastlab ikki guruhga: oddiy va marosim o‘yinlarga bo‘lib o‘rganish mumkinligini to‘plangan materiallar tahlili ko‘rsatdi.

Oddiy o‘yinlar: toshlar bilan o‘ynaladigan o‘yinlar (“Jambil” o‘yini, “Besh tosh” o‘yini, “Tosh ko‘tarar” o‘yini), yog‘och yoki suyaklar bilan bajariladigag o‘yinlar (“Chillik o‘yini”, “Oq suyak”, “Oshiq o‘yin”), hayvonlar nomi bilan bog‘liq o‘yinlar (“Xo‘rozlar jangi”, “ Podachi”, “Eshak mindi”, “Ilon dumi”, “Poda lov-lov”) va hakoza.

“Besh tosh” o‘yini quyidagicha o‘tkaziladi: o‘yinda ikki yoki undan ortiq ishtirokchi qatnashishi mumkin. O‘yin 10 ta shartga qadar davom ettiriladi. Bir shakldagi besh dona tosh tanlab olinadi. O‘yinni kim birinchi boshlashi uchun ishtirokchilardan birining qo‘l kaftiga tosh yashiriladi. Yashirilgan toshni kim topsa, o‘sha o‘yinni boshlaydi. Har bir shartda faqat to‘rt dona tosh ishtirok etadi., bir donasi havoga otiladi. Birinchi shartda toshlar yerga sochib yuborilib, bittadan terib olinadi, ikkinchi shartda ham toshlar yerga sochib yuboriladi va toshlar juft-juft qilib ilib olinadi. Uchinchi shartda uchta, to‘rtinchi shartda to‘rtta qilib ilib olinadi. Beshinchi shartda esa to‘rtta tosh qo‘l kaftida turgan holda bir donasi havoga otilib, ko‘rsatkich barmoq yerga tekkiziladi. Oltinchi shart “bo‘ri” deb nomlanadi. Bunda bosh va o‘rta barmoqlar yerga tekkizilib, ko‘rsatkich barmoq ustiga chiqarilgan holatda yerga qo‘yiladi. Toshlar ustidan bittasiga ikkinchi ishtirokchi tomonidan “bo‘ri” nomi beriladi va toshlar galma-galiga ichkariga kirgiziladi. Faqat “bo‘ri” deb nomlangan tosh bir zarb bilan o‘tkazilishi kerak bo‘ladi. Agar o‘tkazilmasa, o‘yin to‘xtatiladi. Ettinchi shart “ayri” deb nomlanib, bu shartda ko‘rsatkich va o‘rta barmoq ayri shaklda yerga qo‘yiladi.Bu shart ham oltinchi shart kabi bajariladi. Sakkizinchi shart esa “qafas” deb nomlanadi. Hamma barmoqlar qafas shaklida yerga qo‘yiladi. Bunda toshlar har bir barmoq

orasidan o‘tkaziladi. To‘qqizinchi shart “ko‘za” deb nomlanadi.Bunda bosh va ko‘rsatkich barmoqlar bir- biriga birlashtirilib doira shakliga keltiriladi va toshlar galma –gal “ko‘za” ichiga tushiriladi. O‘ninchi shart “o‘ngmi-chap” deb nomlanadi. Ushbu shartda barcha toshlar ikkala qo‘l kaftlariga olinadi. Hamma toshlar havoga otilganda qo‘llarnig ustki qismida toshlarni ilib olish kerak bo‘ladi.O‘yin davomida kirgizilmay qolgan toshlar ilib olinsa, tushirib yuborish hollari bo‘lsa, o‘yin to‘xtatiladi va navbatdagi ishtirokchi o‘yinni davom ettiradi.

Ushbu o‘yin matnida “bo‘ri”, “ayri”, “qafas”, “ko‘za”, “o‘ngmi-chap” kabi so‘zlar semantik, ko‘chma ma’nolarda qo‘llanishi xalq og‘zaki ijodkorlari ularni o‘ziga xos tarzda qo‘llaganligidan dalolat berib turadi.

Marosim o‘yinlariga esa “Gashtak ko‘pkari”, “Darveshona”, “Yil boshi”, “Urug‘ qadash”, “Ko‘rpa qopladi”, “Cho‘nka shuvoq” singarilar kiradi. Mazkur guruhga kiruvchi “Cho‘nka shuvoq” qo‘shig‘i matniga e’tibor beraylik.

Tortishmachoq tortib qizlar,
Xalq o‘yinini o‘ynang,
Podovoshuquloq cho‘zma,
Chekimtosh uloq o‘ynang,
Lanka , chillik, sopqon tosh,
Innana, varrak o‘ynang.
Otga mingan o‘g‘lonim,
Uloq tortgan polvonim,
Hayda oting bo‘shama.
O‘yna,o‘yna, bo‘shama.
Polvon yigit, uloqni tort,
Taqimga bos, taqimga,
Yurgani qo‘y raqibingni,
Keltirma hech yaqinga.
Cho‘nka shuvoq-shuvoqqa,
Otang ketdi tuvoqqa,
Tuvoq sindi, kul bo‘ldi.
Cho‘nka shuvoq pul bo‘ldi.

Qo‘shiq matnida tortishmachoq, podavosh, quloq cho‘zma, chekimtosh uloq, lanka, chillik, sopqon tosh, innana, varrak, cho‘nka shuvoq singari qator milliy xalq o‘yinlarining bir qator turlari va ularning shartlari she’riy ohangga mos ravishda sanab o‘tilgan.

Xullas, milliy xalq o‘yinlarining nafaqat leksik xususiyatlarini, balki ularning grammatik xususiyatlarini ham tadqiq etish juda muhimdir. Shu bilan birga ularni milliy qadriyat va milliy meros sifatida o‘rganishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu ma’naviy boylik orqali yosh avlodni sog‘lom tarbiyalash bilan bir qatorda xalq tarixiy merosining saqlab qolinishiga erishgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. М. Кошғарий Девону луғотит турк. III жилдлик- Тошкент: Фан, 1960-1963.

2. Жабборов Э. Жанубий Ўзбекистон халқ ўйинлари лекскаси. НДА.- Тошкент, 1976.

3. Шарипов А. Фориш: одамлар ва удумлар.- Самарқанд: Турон, 2020.

4. 2019 -2021 йиллардаги дала экспедицияси материаллари.

“DEVONU LUG‘ATIT-TURK”DA MAVJUD BO‘LIB AYRIM SHEVALARDA QO‘LLANILAYOTGAN SO‘ZLAR XUSUSIDA

Chiniqulov Nurmurod,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. *Ushbu maqolalada Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk“ asarida keltirilgan hamda hozirgi kunda ayrim o‘zbek shevalarda iste’molda bo‘lgan so‘zlar, ularning etimologik tahlili, ma’no o‘zgarishlari haqida ma’lumot beriladi.*

Kalit so‘zlar: *sheva so‘zlari, eskirgan so‘zlar, leksik ma’no, asos, etimologik ma’no.*

Annotation. *This article provides information about the words mentioned in Mahmud Kashgari's "Devonu lug‘otit turk" and the words currently used in some Uzbek dialects, their etymological analysis, changes in meaning.*

Keywords: *dialect words, obsolete words, lexical meaning, basis, etymological meaning.*

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” turkologiya taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan qomusiy manba. Asar turkiy xalqlarning XI asrgacha bo‘lgan lug‘at boyligi jamlangan yozma yodgorlikdir. Lug‘at birliklarini tadqiq qilish hozirgi o‘zbek tili taraqqiyoti uchun ham muhim ilmiy xulosalar berishda ahamiyatlidir.

Markaziy Osiyo xalqlari ko‘p asrlar davomida yaratgan noyob madaniy yodgorliklar qatoriga shu xalq farzandlari yaratgan lug‘atlar ham kiradi. Bunday lug‘atlarning nodir qo‘lyozmalari bizgacha yetib kelgan va ularning ba’zilari nashr qilingan, ular asosida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borilgan. XI asrda yashagan dunyo fani tarixida birinchi turkshunos, sharqshunos va qiyosiy uslub sohibi Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit - turk” asari ham ana shunday lug‘atlar jumlasiga kiradi.

Bu asar jahon tilshunos olimlari e’tiborini tortgan qadimiy asarlardan biridir. “Devonu lug‘otit-turk” (keyingi o‘rinlarda DLT) tukiy so‘zlarning arabcha izohli lug‘ati bo‘lgani uchun ilmiy jihatdan alohida ahamiyatga molikdir. Uni har tomonlama tadqiq qilish turkiy xalqlarning, jumladan, o‘zbek xalqining tarixini, urf-odatlarini, so‘z boyligini, adabiy merosini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

DLT mavjud bo‘lgan hamda hozirgi kunda ayrim o‘zbek shevalarda iste’molda bo‘lgan so‘zlar xususida to‘xtalamiz.

Mun – kasallik, kamchilik; jalïңuq og‘lï munsuz bolmas – odam bolasi kasallik va kamchiliksiz bo‘lmaydi (Koshg‘ariy, 1960: 154). Bu so‘z qipchoq shevasi (Navoiy vil. Nurota tumani, Chuya qishlog‘i) da ***min***-shaklida kamchilik, nuqson ma’nosida qo‘llandi. Mini yo‘q inson, mini bor qo‘y, eski va b. Shuningdek, minchi-chorva mollaridagi kamchilik va nuqsonlarni tezda aniqlaydigan shaxsga nisbatan aytiladi.

Qadimgi turkiy tilda **MUN –** kam aqllilik, qarib xotirasini yo‘qotmoq (2, 1969, 348); **mun** - qolmiq tilida *axmoq, aqli kam,* **mun** - qolmiq tilida (qarib) *xotirasini yo‘qotish, aqlsiz bo‘lib qolish;* **mun** - yoqut tilida yo‘ldan ozish, adashmoq, aldanib qolmoq; **min/мың/мүп –** “kamchilik, yo‘ldan ozish, adashmoq” kabilar bir semantik guruhni tashkil etadi. (Севортян, 1974: 91-92) O‘zbek tilining izohli lug‘atidagi - MUNKAYMOQ Bukchayib qolmoq; bu-kilmoq, egilmoq (kishi va uning qomati haqida). *Munkaygan chol.* MUNKILLAMOQ Qarilik natijasida kuchdan ketib munkaymoq, bukchayib qolmoq. (4, 2008: 730-731) Yuqorida keltirilgan manbalardan ko‘rinib turibdiki **munkaymoq, munkillamoq** so‘zlarining o‘zagi “mun” bo‘lib, shu asosida yasalgan.

MIN *shv.* Nuqson, ayb. *[Oydona:] Opa, yorim bo‘lsa o‘sha kishidek, Aslo mini yo‘q top-gan yorimning.* «Xushkeldi». 595-bet

Shuningdek, shevalarda xalq tilida ***mini yo‘q*** *(nuqsoni yo‘q),* ***minchi*** (1.kamchilik, nuqson topadigan odam; 2.uy hayvonlarida kamchilikni biladigan odam) qumiq tilida-**minsiz** nuqsonsiz, kamchiligi yo‘q kabilarni kuzatishimiz mumkin.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk”da **ӛmgäk** ӛkindä qalmas – mehnat bo‘sh ketmaydi; **ӛmgäkländi** – u bu ishni qiyin og‘ir deb hisobladi; “**ӛ**mgäk” (Koshg‘ariy, 1960: 306) emgak, mehnat, mashaqqat ma’nosida qo‘llangan. Emgak “qiyinchilik” (oz ishlatiladi) (Раҳматиллаев, 200: 463). Ro‘zg‘or emgaklari tugamas (Maqol). Bu ot qadimgi turkiy tilda **emgäk – qiyinchilik, mashaqqat:** er emgäktin qutuldï - er *qiyinchilikdan* qutildi; qutuldi bodun ketti emgäkläri – *mashaqqatlar* tugab, xalq ozod bo‘ldi (2, 1969: 172). Shuningdek, rus turkolog olimi Radlov lug‘atida ham **ämgäk** -2) mehnat, tashvish, mashshaqqat; **ämgäklik –** mehnatkash, qiynalgan (Радлов, 1893, 960) ma’nosida izohlangan. Yemgek/Yemgek 1.mehnat, ish - turkman, azarboyjon, qirg‘iz, qozoq, qoraqalpoq, o‘zbek, uyg‘ur tillarida; 2.mehnat, mashaqqat; - turkman, qirim tatar, qoraqalpoq, o‘zbek shevalarida (Севортян, 1972: 272) ma’nolari izohlangan.

Ayrim o‘zbek shevalarda bu leksemaning **mehnat, mashaqqat, qiyinchilik** ma’nosi saqlangan. **Emgək –** emgak (shimoliy Xorazm, Turkiston) mehnat: **emgəkləsə emgək** artadы (Qilichboy); imaratqa qancha **yemgəgim** sыndi (Turkiston) (7, 1971: 97), **emgək –** mehnat, mashaqqat (Абдуллаев, 1961, 23). Jumladan xalq tilida “G‘unajjin emgagini ko‘radi” iborasi bor. Bu iboradagi “emgak” so‘zi *qiyinchilik, mashaqqat* ma’nosini anglatib, g‘unajjinning birinchi tug‘ishi mashaqqat ekanligi nazarda tutilayapdi.

Endi biz asosiy tahlillarimizni DLT da faol leksik qatlamda istemolda bo‘lgan va hozirda shevalarda ham keng qo‘llanilayotgan ayrim so‘zlarga to‘xtalib o‘tamiz:

- **arïg‘** – I toza (DLT I, 95); arig‘lik so‘zi ayrim shevalarda*“sara”*, “toza” ma’nosida qo‘llaniladi. -Yigitlarning arig‘i *(Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani Qurashayx qishlog‘i).*

- **jabï** – jabuv egar ustiga qo‘yiladigan yostiq, ko‘rpacha (chigil) bu so‘z qipchoq shevasida minganda ot, eshakning ustiga yopiladigan maxsus ko‘rpacha shaklidagi to‘shama bo‘lib, faol leksik qatlamdan o‘rin olgan (DLT III, 30);

- **enädi:** ol qojin enädi – taniqli bo‘lsin deb, u qo‘y qulog‘ining bir qismini kesdi (enär, enämäk) (DLT I, 185); Shevada (qipchoq) *enladi, en soldi*;

- **esh** – o‘rtoq, hamroh (DLT I, 149); Shevada (qipchoq) “u odam safarda esh bo‘lmaydi” ya’ni hamroh bo‘la olmaydi ma’nosida ishlatiladi;

- **bag‘** I – tok (DLT III, 166); Shevada (qipchoq) “bäq, bäqzor” ya’ni tok (uzum) tokzor;

- **bag‘ïr** – jigar (DLT I, 341); Shevada (qipchoq) “bävur” qo‘yning bävuri (jigari);

- **bi II** – bir xil o‘rgimchak, qurt (o‘g‘iz) (DLT III, 224); Shevada (qipchoq) “biy” o‘rgimchakning kichik turiga nisbatan qo‘llanadi;

- **but** (put) I – son, oyoq (DLT III, 131); Shevada (qipchoq) put (oyoq). Putini ko‘tarib yotmoq;

- **ïnïshdï** – quyi tushishdi (DLT I, 199); Shevada (Forish) inishdi yuqoridan quyiga ya’ni pastga tushishdi; Ayrim hollarda Forish shevasida “inmoq, inib kelmoq” biror joy borib kelmoq shaklida ham qo‘llanadi Masalan, Men bugun bozorga inib keldim.

- **ïndï –** pastga tushdi (DLT I, 181); Shevada (Qipchoq, Forish) indi (endi) yuqoridan quyiga ya’ni pastga tushdi;

- **jatladï** II **–** yotsiradi (DLT III, 322); Shevada (qipchoq) jatlamoq, jatsiramoq;

- **julun** – bo‘yin so‘ngagi ichidagi oq ilik; xarom mag‘iz. (DLT III, 30); Shevada (qipchoq) aynan shu ma’noda qo‘llanadi;

- **kertik** – belgi (DLT I, 143); Shevada (qipchoq) kertik - belgisi bor, kemtigi bor shaklida;

- **köklädi** II – ko‘k yedi (DLT III, 315); Shevada (qipchoq) aynan shu ma’noda qo‘llanadi;

- **kötγrdi** -1. Ko‘tardi. 2. Homilador bo‘ldi. (DLT II, 78); Shevada (qipchoq) hozirda homilador ma’nosida iste’molda qo‘llanadi;

- **ma** –ma, ol (DLT III, 231); Shevada (qipchoq) aynan shu ma’noda qo‘llanadi;

- **munï** – buni (DLT I, 146); Shevada (qipchoq) aynan shu ma’noda qo‘llanadi (Абдурахмонов , 1967: 544).

Mahmud Koshg‘ariy turkiy xalqlarning tili, shevasi, lahjasini o‘rganib adabiy til bilan solishtirib, qiyoslab, ularni taftish qilgan. “Devonu lug‘otit turk“ asarida izohlangan so‘zlarning bir qancha qismi o‘zbek adabiy tilining shevalarida hozirgi kunda ham saqlanib qolingan bo‘lib, bular shevalarda faol qo‘llaniladi. Mahmud Koshg‘ariyning umumjahon madaniyatiga qo‘shgan qimmatli tuhfasi “Devonu lug‘otit-turk” asari tilshunoslikka doir o‘lmas asar bo‘lishi bilan bir vaqtda, tarix, etnografiya, folklorshunoslik, geografiya bo‘yicha o‘quvchilarga atroflicha ma’lumot beradigan mukammal qomusiy asar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, “Devonu lug‘otit-turk“ asarida mavjud bo‘lgan hamda ayrim o‘zbek shevalarida bugungi kunda faol iste’molda bo‘lgan juda

ko‘plab so‘zlarni kuzatishimiz mumkin. Mazkur yo‘nalishning chuqur lingvistik tadqiq etilishi hamda sheva elementlarining bevosita qiyosiy tahlil etilishi dolzarb masalalardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Девону луғатит-турк. –Т.:Фан, 1960, III-жилд, 154-бет
2. Дренетюркиский словарь. –Л.: Наука, 1969, стр. 348.
3. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Москва, 1974, стр.91-92.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2008, 5-жилд, 730-731-бетлар.
5. Раҳматиллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик изоҳли луғати. –Т.: Университет, 2000463-бет.
6. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Том-I, Санкт-Петербург, 1893, стр. 960-961.
7. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Т.: Фан, 1971, 97-бет.
8. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг хоразм шевалари. – Т.:Фан, 1961, 23-бет.
9. Абдурахмонов Ғ., С. Муталлибов Девону луғатит-турк. –Т.:Фан, 1967, индекс-луғат 544- бет.

BAYT INTONATSION STRUKTURASI VA INTONATSION KUCHLI POZITSIYA

Rahmatov Mardon Mehmonovich,
ToshDO‘TAU dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. She’riy jumlaning o‘ziga xos tabiati – gap bo‘laklarining aniq bir tartibda qo‘llanmasligi va qanday tugashi noma’lumligidadir. Shunga ko‘ra she’riy nutqda tartibi o‘zgargan gap bo‘laklarining ahamiyatlilik darajasini belgilash muhim. She’riy jumlalarda aktuallashish sintaktik birliklarning joylashishiga ko‘ra yuz bermaydi. Unda intonatsion kuchli pozitsiya amal qiladi.

Kalit so‘zlar: she’riy nutq,nasriy nutq, struktura, gap bo‘laklari, tema, rema, intonatsin kuchli pozitsiya, qofiyadosh so‘z, radif.

Annatation. The unique nature of the poetic sentence is that the parts of the sentence are not used in a specific order and it is not clear how they will end. Accordingly, it is important to determine the level of importance of the parts of the sentence in which the order has changed in the poetic speech. Actualization

in poetic sentences does not occur according to the arrangement of syntactic units. It has a strong intonation position.

Key words: poetic speech, prose speech, structure, sentence fragments, theme, rhema, intonation, strong position, rhyming word, radif.

Ma’lumki, she’riy va nasriy nutq bir-biridan ko‘pgina jihatlariga ko‘ra farqlanadi, jumladan, ritmikligiga ko‘ra: she’riy asar muayyan bir she’riy o‘lchov (klassik she’riyatda vazn) asosida yuzaga keluvchi ritmga ega bo‘lsa, nasriy asarlardagi ritm insonning tabiiy nutqi bilan bog‘liq ravishda yuzaga keladi. She’riy ritm lirik asar vazn strukturasining qanday bo‘lishidan qat’iy nazar yuzaga keladi va musiqiylikka, emotsionallikka to‘yintirilgan bo‘ladi [Quronov, 2010. 353], nasriy ritm esa gap bo‘laklari tartibining o‘zgarishi, jumlaning emotsional-ekpressivligini ta’minlash bilan birga [Kovtunova, 1976. 109] jumlaning kommunikativ qurilishiga ham ta’sir qiladi. Nasriy asarlarda inversiyaga uchragan, ya’ni sintaktik o‘rni o‘zgartirilgan gap bo‘laklari o‘zi bilan urg‘uni olib ketadi (ya’ni aksentlangan bo‘lakka aylanadi) va uni mazmunan ahamiyatli bo‘lakka aylantiradi [Nurmonov, 1992. 109]. Bu hodisa she’riy nutqqa xos emas.

She’riy jumlaning o‘ziga xos tabiati – gap bo‘laklarining aniq bir tartibda qo‘llanmasligidadir. Shuning uchun she’riy nutqda tartibi o‘zgargan gap bo‘laklarining ahamiyatlilik darajasi nolga teng bo‘ladi, ya’ni she’riy jumlalarning tema-rematik bo‘linishi gap bo‘laklarini joylashishiga ko‘ra yuz bermaydi.

She’riy nutqda har bir sintaktik shakl (gap bo‘lagi) she’riy talablarga bo‘ysunadi, natijada gap bo‘laklarining tartibi o‘zgaradi va o‘ziga xos she’riy ohang, melodika, ritmga ega bo‘ladi, ekspressiya paydo bo‘ladi. She’riy nutqning nasriy nutqdan yana bir muhim farqi unda *intonatsion kuchli pozitsiya*ning amal qilishidir. She’riyatdagi eng kuchli ekspressiya ayni shu o‘rinda, she’riy jumla oxirida yuzaga keladi. Intonatsion kuchli pozitsiyada turuvchi so‘zlar (so‘zlar guruhi, so‘z birikmasi) maxsus ta’kidni, misradagi boshqa gap bo‘laklaridan talaffuzda farqlanishni talab qiladiki, bu holat beixtiyor she’rxonning e’tiborini o‘ziga qiladi. O‘zbek g‘azalnavisligida shakllangan an’anaga ko‘ra intonatsion kuchli pozitsiya she’riy misraning oxri bo‘lib, u yerda asosan qofiyadosh so‘zlar, radiflar joylashtiriladi.

Qofiyadosh so‘zlar intonatsion kuchli pozitsiyada joylashadi va boshqa gap bo‘laklaridan ohang jihatidan ajratish [Kovtunova, 1976. 1], misrani ta’kidlash, she’riy misraning tugaganligini bildirish, pauza bilan ajratish vazifasini bajarish, shuningdek, o‘quvchining she’riy ritmni his qilishiga ko‘maklashuvchi muhim elementdir [Quronov, 2010. 383]. Masalan:

Ey orazi nasrin, sochi sunbul, qadi <u>shamshod</u>,

Bulbul kebi hajringda ishim nolavu faryod. (G'S 118)

Ma'lumki, shoir matlada muayyan g'azal orqali bayon qilmoqchi bo'lgan, g'azaldan ko'zlagan bosh maqsadini bayon qiladi va uni chiroyli ifodalar bilan to'ldiradi, she'riy talabga ko'ra har ikkala misrasini qofiyalaydi. Baytning eng asosiy jihati uning g'azal tarkibidagi boshqa baytlaridan farqlanib turishida, ya'ni har ikki misraning mustaqil qofiyaga, qofiyadosh so'zlarga ega bo'lishi, bir baytda ikki intonatsion kuchli pozitsiyaning mavjud bo'lishida. Matla baytdagi ayni mana shu jihatlar o'quvchining nigohini, diqqatini o'ziga tortadi, go'yoki u g'azalxon uchun o'ziga xos "tashrif qog'ozi" vazifasini bajaradi:

Muqayyad (oddiy qofiyali) bayt:

Yuzda xolingdurmu yo tahrir etar holatda xat,
Tomdi qudrat kilkidin kun safhasig'a bir nuqat. *281*

Mutlaq qofiya:

Xarob aylading, ey ishq, xonumonimni,
Tasavvur aylaki, o'ldum bag'ishla jonimni (3- 614)

Qayd qilinganidek, g'azal matla'sida qo'llangan qofiyadosh so'zlar har doim ritmik-intonatsion jihatdan guruhlanadi, lekin ularning grammatik xususiyatlari, uning tuzilishi har doim ham bir xilda bo'lavermaydi:

O'rtanurmen kechalar hajringda andoqkim charog',
Ravshan ayla rishta jismimdur, ko'ngul o't, ashk yog'. (G'S 299)
Furqatingdin za'faron uzra to'karmen lolalar,
Lolalar ermaski, bag'rimdin erur pargolalar. (G'S 152)

Baytdagi qofiyadosh *charog', yog'*; *lolalar, pargolalar erur* so'zlari grammatik jihatdan turlicha: *charog', yog'* so'zlari grammatik jihatdan bosh kelishikdagi so'z, lekin sintaktik jihatdan *charog'* – hol, *yog'* – kesim, mazkur so'zlarning tovush tomoni ham turlicha; *lolalar* – bosh kelishikdagi ot – sintaktik vazifasi esa vositasiz to'ldiruvchi; *pargolalar erur* – bog'lamali ot kesim. Shuningdek, bayt misralarining tashkil qilish hamda ularning o'zaro ritmik-sintaktik va semantik bog'lanishiga xizmat qilayotgan *charog', yog'*; *lolalar, pargolalar* qofiyadosh so'zlarining joylashgan o'rni ham muhim.

Demak, g'azal tarkibidagi qofiyadosh so'zlar tasodifiy tanlangan so'zlar emas, balki bayt doirasida yagona poetik g'oyani shakllantirishga xizmat qiladigan, ritmik-intonatsion jihatdan maxsus guruhlangan so'zlardir. Ular bayt tarkibidagi boshqa so'zlardan o'zaro ohangdoshligiga ko'ra ajralib turadi.

Radif mumtoz she'riyatda misra oxirida qofiyadan so'ng aynan takrorlanib keluvchi she'riy unsur. G'azalnavislik talablariga ko'ra radif ham qofiyadan keyin misraning intonatsion kuchli pozitsiyasida joylashtiriladi. Albatta, radif qo'llash ijod erkinligi bilan bog'liq, ya'ni uni qo'llash yoki qo'llamaslik shoirning ixtiyorida. Lekin shoirning radifdan she'riy unsur sifatida foydalanishi g'azalning

muayyan ritmini ta’minlashi bilan birga, she’riy yo‘l bilan aytmoqchi bo‘lgan fikr-tuyg‘ularini ta’kidlash vazifasini ham bajaradi va ayni shu xususiyati bilan kuchli pozitsiyadaligini belgilaydi:

Qildi ovora meni xastani ovora ko‘ngul,
Xonumonimni qora qildi yuzi qora ko‘ngul. (G’S 370)

Uning tarkibi turlicha: qofiyadosh so‘zlardagi kabi bir so‘z, qo‘shma so‘z (takribli so‘z) yoki so‘z birikmasi shaklida bo‘lishi mumkin. Lekin uning qismlarining intoatsion pozitsiyada qo‘llanishi bir xilda emas. Qo‘shma so‘zdan ifodalangan radif yaxlit holda bayt/misraning intoatsion pozitsiyada qo‘llanadi:

Demakim, no‘shi labidin quti jon qildim havas,
Obi hayvondin hayoti jovidon qildim havas. (G’S 229)

Qo‘shma so‘zning bir qismi:

Sunbulin Laylo ochiptur, yel abiroso emas,
Dog‘ini Majnun qonatmish, lolayi hamro emas. (G’S 228)

Qofiyadosh so‘zlar va radifdan tashkil qilgan so‘zlarning grammatik asosi bir, ya’ni bog‘lamali so‘zdan iborat bo‘lishi ham mumkin:

Demak, g‘azal misralari oxiridagi qofiyadosh so‘z, agar qofiyadosh so‘zdan keyin qo‘shimcha ravishda radif qo‘llangan bo‘lsa, qofiyadosh so‘z va radiflar yaxlit holda intonatsion kuchli pozitsiyani hosil qiladi. Lekin, ularni g‘azal matnida qo‘llanishiga ko‘ra darajalash mumkin, chunki qofiya har qanday she’riy janrlarga bo‘lgani kabi g‘azalning muhim elementi (tarkibiy qismi), ammo radif g‘azallarning doimiy belgisi emas, balki qo‘shimcha element sanaladi. Tarixan radifli g‘azallar shoirlarning e’tiborida bo‘lgan, g‘azallarda radifni qo‘llash doim qo‘llab-quvvatlangan va she’r tahlilchilari shoirni rag‘batlantirishgan. Alisher Navoiy g‘azallarida ko‘pi bilan 4 so‘zli radif qayd etilgan [Hakimov, 2010. 85].

Adabiyotlar

1. Жўраева Н.Г. Ўзбек мумтоз шеъриятида байт ва унинг поэтикаси. Филол.фан.номз...диссер. –Т., 2004. 10-13-b.
2. Ковтунова И. Современный русский язык. Порядок слов и актуальное членение предложения. — М.: Просвещение, 1976. –С 11.
3. Қуронов Д. Адабиётшунослик луғати.- Тошкент: Akademnashr, 2010. 383-б.
4. Муллахўжаева К.Т. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадиий санъатлар уйғунлиги («Бадоеъ ул-бидоя» девони асосида): Филол. фанлари номзоди …дисс. -Тошкент – 2005. 14-b.
5. Нурмонов А. ва б. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. –Тошкент, Фан. 1992. 109-б.
6. Стеблева И.В. Семантика газелей Бабура. - М.: Наука. 1982.
7. Ҳакимов М. Алишер Навоий лирикаси ва халқ оғзаки ижоди. –Тошкент, Фан. 1979. 85 б.

XORAZM SHEVALARI KASBIY LEKSIKASI TARKIBIDAGI AYRIM SO‘Z YASOVCHI AFFIKSLAR

Norboyeva Shukurjon Xaitboyevna,
Urganch davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm shevalari kasbiy leksikasi tarkibidagi ba’zi so‘z yasovchi affikslar, jumladan, - lïq, - mä affikslarining yangi so‘z hosil qilishdagi ishtiroki xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, ushbu jarayonda kasbiy leksikaga mansub nomlarning tarkibiy tahlilini ularning genetikasi, atalish tamoyillari bilan bevosita bog‘liqligini e’tiborga olib, imkon qadar nom uchun asos bo‘lgan appelyativning ilk o‘zaklarini aniqlashga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *affiks, kasbiy leksika, tarkibiy tahlil, lahja, appelyativ.*

Annotation. *The article discusses the role of some word-forming affixes in the professional lexicon of Khorezm dialects, including the affixes - lyk, - ma in the formation of new words. Also, in this process, taking into account the fact that the structural analysis of names belonging to the professional lexicon is directly related to their genetics and the principles of naming, the first syllables of appellation is well researched.*

Key words: *affix, professional vocabulary, structural analysis, dialect, appellation.*

Kasbiy leksik birliklarning tarkibiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu tizim ham o‘zi tarixan mansub bo‘lgan tilning yasalish tizimi, tipologik xususiyatlaridan tashqarida emas. Muhimi, ularning tarkibiy tahlili o‘zlari genetik mansub tillar leksikasidagi tub so‘z sifatida qayd etib kelinayotgan ko‘pgina so‘zlarning tarkibiy jihatdan murakkab ekanini, ular ko‘p asrlik taraqqiyot davomida shakllanganligidan dalolat beradi.

Xorazm shevalari kasbiy leksikasi ham oziga xos yasalish xususiyatlariga egaligi bilan ham boshqa shevalardan ajralib turadi.

Ishda kasbiy leksikaga mansub nomlarning tarkibiy tahlilini ularning genetikasi, atalish tamoyillari bilan bevosita bog‘liqligini e’tiborga olib, imkon qadar nom uchun asos bo‘lgan appelyativning ilk o‘zaklarini aniqlashga intildik. Buni quyida bir necha misol orqali ham ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi:

- *lïq* affiksi. Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek adabiy tili, ayrim lahja va shevalardagi -lïq va genetik hamda funksional yaqin bo‘lgan qo‘shimchalar atroflicha tahlil qilingan [Баскаков , 1952:181-208]. Tadqiqotlarda -lïq//-lik, -lï//-li qo‘shimchalari genetikasi va anglatgan vazifalari umumiy bo‘lib, hozirgi turkiy

tillardan uyg‘ur, xakas, tuva, shor tillaridan boshqasida differatsiyalashgan holda – -lïq//lik ot uchun, -lï//li sifat uchun ishlatiladi [Шарипова, 1972:12]. -lïq qo‘shimchasi Xorazm vohasidagi kasbiy leksikaga oid nomlardan ayrimlarining yasalishida ham ishtirok etgan. Jumladan, *bashlïq* – 1. Etik poshnasi: yetigiŋïŋï bashlïg‘ï ketiptï, taza bashlïq saldïr. 2. Rais, boshliq: bashlïq kelar at ustinda qaŋqayïp [Ўрозов, 1978:84].

Bashlig‘ so‘zi “Tafsir”da “boshi bor” ma’nosida ishlatilgan [Боровков, 1963: 561].

Xorazm vohasi kasbiy leksika tizimidagi ushbu so‘z uning boshqa turkiy tillardagi shakli va ma’nolaridan farqlanadi: boshqirdchada baŝlyq – boshliq, odatda, somondan tayyorlanadigan bosh kiyimi; turkmancha bashlïk – kapyushon; no‘g‘oycha bashlik – kapyushon, bosh kiyimi; turkcha başliq– bosh kiyim, kapyushon [Рахимова, 1980:96]. Bu tabiiy hol bo‘lib, bashlïqning “bosh kiyimi” ma’nosida bosh so‘zining asl ma’nosi [Жўраев, 1982:46] asos bo‘lgan bo‘lsa, Xorazm shevalarida esa ko‘chma ma’nolaridan biri asos bo‘lgan. Qolaversa, boshqird, turkman, no‘g‘oy, qumiq, turk tillarida mazkur holatda asosga qo‘shilgan -lïq//-lyq//-luk tegishlilikni bildirsa, Xorazm shevalaridagi bashliq so‘zida bu qo‘shimcha vazifa mazmunini anglatadi.

-lïq qo‘shimchasining kasbiy leksik birliklardagi tegishlilik mazmunini ifodalashini Xorazm vohasi shevalaridagi *baltïrlïq* – “etik qo‘njini tik tutib turish uchun boldirga o‘raydigan mato” [Ишаев, 1977:80] nomida ko‘rishimiz mumkin. Qollïq (qo‘lqop) so‘zida ham -lïq qo‘shimchasining mo‘ljallanganlik, tegishlilik ma’nosi namoyon bo‘ladi: bazarda djűŋ qollïqlar űch manat. [Ишаев, 1977:130].

Mazkur qo‘shimchaning ushbu ma’nosi djavlïq so‘zida ham ko‘zga tashlanadi. A.Ishayev bu so‘zga quyidagicha izoh bergan:

Djavlïq I – eng oxirgi (ettinchi avlod).

Djavlïq II – ro‘mol: kämprgä bir djavlïq äkildim (Xo‘jayli) [Ишаев, 1977:130].

Ko‘rinadiki, djavlïq I ning asosi “dushman” ma’nosidagi jav//yav so‘zining ko‘chma ma’nosi bo‘lib, uning yuzaga kelishi shu ma’nodagi qarindoshlik termini “begona” bilan qiyoslansa, ayon bo‘ladi. Djavliq II ning asosi esa “yopmoq” (qipchoq lahjasining “dj”lovchi tipida djavmaq) fe’liga aloqadordir.

-lïq qo‘shimchasi kasbiy leksik birliklari tizimidagi boshqa so‘zlar tarkibida ham mavjud. Tahlillar -lïq qo‘shimchasining vazifalaridan biri rang-tus bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilganda ularning majoziy ma’nolariga muvofiq ravishda mavhum ot yasash ekanini ko‘rsatadi. Jumladan, aqlïq so‘zi mavhum otga aniq ot vazifasini yuklash natijasida hosil bo‘lgan. -lik//lïq qo‘shimchasining rang-tus bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib mavhum ot hosil qilishini “qizillik” – “go‘zallik” so‘zida ham ko‘ramiz [Шарипова, 1972:12]. Shunga ko‘ra, aqlïq

so‘zi Xorazm shevalarida etnografik leksika sifatida quyidagi ma’nolarni anglatadi: 1. To‘y, marosimlarda beriladigan oq chit parchasi. 2. Poygaga yuboriladigan otlar bo‘yniga bog‘lanadigan chit [Ишаев, 1977:69]. F.Abdullayev tomonidan ushbu so‘zning “1.Yaxshilik. 2.Qiznikida sovchilarga beriladigan tortiq”. 3. Biror kishining o‘lganiga yil to‘lgach, kiyiladigan oqlik” [Абдуллаев, 1964:18] ma’nolari ham qayd etilishi -lïq qo‘shimchasining kasbiy leksikaga oid nomlarni hosil qilishda yuqorida ta’kidlangan vazifasi ham mavjudligini tasdiqlaydi. Aq so‘zining esa, xususan, Xorazm shevalaridagi kiyim-kechak nomlari tizimida “yaxshi”, “ezgu” ma’nosini anglatishini Janubiy Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalaridagi aqgűl – “qora rangdagi (ta’kid bizniki – Sh.N.) a’lo nav qorako‘l teri” [Ишаев, 1977: 68] nomi izohi orqali ham yaqqol ko‘ramiz. Aqlïq so‘zidagi -lïq affiksining ma’nosi “Devon”da qayd etilgan barlig‘ är [Кошғарий, 1960:443] birikmasidagi barlig‘ (boylik, mulk) so‘zidagi vazifasiga yaqin turadi.

Baltïrlïq (Xo‘jayli) – etik qo‘njini tik tutib turish uchun boldirga o‘raydigan mato [Ишаев, 1977:80]. “Oyoqning tizza bilan to‘piq oralig‘idagi qismi” ma’nosidagi bu so‘z o‘zbek tilida “boldir” shaklini olgan bo‘lib, qadimgi turkiy tilda Janubiy Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalaridagiga muvofiq baltïr tarzida bo‘lgan [ДС – С. 81]. Sh.Rahmatullayev undagi fonetik o‘zgarishlarni t ni d ga, a ning â ga almashishi va ï unlisining qattiqlik belgisini yo‘qotishi, deb ko‘rsatadi [Раҳматуллаев, 2000:57]. Bu o‘rinda -lïq mo‘ljallanganlik ma’nosini anglatishi oydinlashadi.

Qollïq (qo‘lqop) so‘zida ham -lïq shu vazifani bajarishi namoyon bo‘ladi.

-lïq ning mo‘ljallanganlik ma’nosi “ayollar boshiga bog‘laydigan, qizil, bir-biridan ajratilmagan ro‘mol tovari” (2-3 tasi birgalikda bog‘lanadi) [Ишаев, 1977: 131] ma’nosidagi qoshalïq so‘zida ham ko‘rinadi. Qosha qadimgi turkiy tilda “juft holatda”, “birgalikda” degan ma’noni anglatib, “aslida “birlashtir-” ma’nosidagi qosh- fe’lining -a qo‘shimchasi bilan hosil qilingan ravishdosh shakli bo‘lib, ma’no taraqqiyoti natijasida ravishga aylangan” [Раҳматуллаев, 2000:90]. Qosha so‘zining “ro‘mol o‘lchovi” [Ўрозов,1978:97] (bir qosha romal) ma’nosi uning sifatdan otga o‘tganligi, shuning uchun ham numerativlik vazifasini bajarayotganini ko‘rsatadi.

- *mä* affiksi. Shïpïrma – bosh kiyimi [Ўрозов,1978:76]. Bu so‘zning asosi bo‘lgan fe’l shïpïr- Xorazm shevalarida “taqirlamoq” ma’nosini beradi. Masalan, tut novdasidagi barglarni (ipak qurti uchun), g‘o‘zapoyadagi ko‘saklarni birdaniga taqirlab olish shïpïrïsh deyiladi. Shunga ko‘ra, bu fe’l “taqir”, “yalang‘och” ma’nosidagi “chïp” so‘ziga -ïr fe’l yasovchisi bilan hosil bo‘lgan deyish mumkin. Xorazm shevalaridagi “taqir”, “hech narsasi yo‘q” ma’nosidagi chïpraboy so‘zi ham ushbu talqinga mos keladi. “Shïpïr-”ning “taqirlamoq”

ma’nosidan shïpïrmaning “o‘g‘ri”, shu asosda “muttaham” ma’nolarni kelib chiqqan. Uning “taqir” ma’nosi esa “qulay”, “o‘ng‘ay” semalari qadar kengaygan. Bosh kiyimiga nom bo‘lgan ma’no esa, fikrimizcha, ana shu sifatning otga ko‘chishi natijasida paydo bo‘lgan.

Tűymä – “tugma” so‘zi esa “tugun sol” ma’nosidagi tűg [Кошғарий, 1960:28] fe’lining tűy shaklidan yasalgan. O‘g‘uz lahjasida dűym ä shaklida ishlatiladi. Xorazm qipchoq lahjasida tugma s äd äp (sadaf) so‘zi bilan ifodalanadi. Buning sababini Beruniy, Biybozor aholisi tilidagi behitűym ä – xotinlar bo‘yniga taqadigan, suyakdan yoki baqachanoqdan, asl toshdan ishlangan bezak so‘zi ham ma’lum darajada izohlaydi. “Tugma” do‘gme shaklida fors tiliga ham shu ma’noda o‘zlashgan [Персидско–русский словарь.,1983].

Chögirmä “botiq” ma’nosidagi chök so‘ziga -ïr qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan chökir // chögir – “botiq hosil qilmoq” fe’lidan -m ä qo‘shimchasi orqali yasalgan. Cho‘girmaning tuzilishi ham ushbu talqinga mos keladi. Chögirmä – qo‘y terisidan yumaloq shaklda qilingan erlar bosh kiyimi [Ишаев, 1977:172].

Yuqorida tahlil qilingan leksik va grammatik birliklar asosida kasbiy leksik birliklarni ifodalovchi so‘zlarning ma’no taraqqiyoti, ularning nomlanish motivlarini aniqlash, tizimni tashkil qiluvchi so‘zlarni tasniflash uchun muhim xulosalar berish bilan birga, shevalar leksikasidagi ayrim so‘zlarning genetikasiga oid qiziqarli materiallar taqdim qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари.– Тошкент: Ўзбекистон Фанлар академияси нашриёти, 1961.

2. Баскаков Н.А. Каракалпакский язык. II. Фонетика и морфология. Часть I. – М.:, 1952.; Севортян Э.В. Аффиксы именного словообразования в азербайджанском языке. – М.: Наука, 1966; Гулямов А. Об аффиксе –лик в узбекском языке // Научное труды Таш ГУ. Вып. 260. Языкознание. – Ташкент, 1964.; Гарипов М. Башкирское именное словообразование. – Уфа, 1959. – С. 91–125.; Орузбаева Б.О. Словообразование в киргизском языке. – Фрунзе, 1964. – С. 25–28.; Мадраҳимов О. Ўғуз лаҳжасида –ли аффиксининг эволюцияси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1971. №1.; Шарипова К.А. Словообразующие аффиксы –лик, –ли, –чилик в узбекском языке: Автореф. дис…канд.филол.наук. – Ташкент, 1972. – 30 с.

3. Боровков А.К. Лексика среднеазиатского тефсира XII–XIII вв. –М.: 1963. – С. 561.

4. Жўраев Б. “Бош” сўзининг маънолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1982. – № 3. –Б. 46–49.

5. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977.

6. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. I жилд. – Тошкент: ЎзФАН, 1960.

7. Персидско–русский словарь. Том I. – М.: Русский язык, 1983.

8. Рахимова Р.К. К изучению татарской профессиональной лексики // Советская тюркология. 1980. №4.

9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000.

10. Шарипова К.А. Словообразующие аффиксы –лик, –ли, –чилик в узбекском языке: Автореф. дис…канд.филол.наук. – Ташкент, 1972.

11. Ўрозов Э. Жанубий Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1978.

QIZILTEPADAGI DIALEKTAL TOPONIMLARNING ETIMOLOGIK, KOGNITIV, ETNOGRAFIK VA TARIXIY XUSUSIYATLARI

G‘aniyev Nurbek O‘ktamovich,
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchsi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qiziltepa tumani joy nomlarining tarixiy, etnik, etnogenez, toponimik, semantik va leksikografik ishlanmasi bo‘yicha yetarli ko‘rsatkichlarga ega emasligi hamda toponimlarning etimologik tahlilida va unga xos xususiyatlarning mohiyati haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *toponim, etimologik tahlil, leksikografiya, apellyativ leksika, gibrid toponim, lug‘aviy asos, indikator.*

Annotation. *This article focuses on the etymological analysis of toponyms that do not have sufficient indicators of historical, ethnic, ethnogenesis, toponymic, semantic and lexicographic development of place names of Kyzyltepa district and the assessment of its specific features.*

Key words: *toponym, etymological analysis, lexicography, appellate lexicon, hybrid toponym, lexical basis, indicator*

Qiziltepa toponimlarining etimologik tahlili, ularga oid termin va atamalarning ishlatilishi xususida etnogenez, etnos va etimologik tahlil yuzasidan hudud toponimlarini o‘rganish uchun yetarlicha manba hamda ma’lumotlar bor va mavjud. Toponimiya sohasi bo‘yicha etimologik lug‘atlar tuzish amaliyoti O‘zbekistonda yetarlicha amalga oshmagan bo‘lib, yo‘q darajada desak ham,

bo‘laveradi. Tilshunoslikning leksikografiya bo‘limida so‘zlarning etimologik jarayonlari lingvistik nuqtayi nazaridan tahlil va tavsif qilinadi. O‘zbek olimlaridan Sh.Rahmatullayevning «O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” etimologik yo‘nalishda dastlabki amaliy ishlardan hisoblanadi» (Rahmatullayev Sh., 2000:600).

O‘zbek tilidagi toponimlarning etimologik tahlilida va unga xos xususiyatlarning mohiyati haqida ayni vaqtgacha yagona fundamental ilmiy ishlardan biri sifatida T.Enazarovning doktorlik dissertatsiyasi hamda etimologik tahlilga tegishli jarayonlarning borishini lozim deb bilamiz.

Bu masalalarda quyidagi holatlarni hisobga olish o‘rinlidir:

1.Mavjud toponimik obyektlarni bir-biridan farqlash uchun ularga nomlar berish obyektiv va hayotiy ehtiyoj hisoblanadi. Aks holda, kishi o‘ziga tegishli manzillarni topa olmasdan, ovorayi sarson bo‘lib yuradi. Shu sababdan ham mamlakatimizdagi shahar, tuman, ko‘cha va mahallalar nomlangani kabi qishloq, soy, daryo, tepa kabilarning nomlanishi tabiiy bir holdir (Rahmatullayev, 2000:600).

2.Toponimik obyektlarga nomlar berish uchun appelyativ leksikadan onomastik leksika sathiga o‘tgan lug‘aviy asoslardan birining tanlanishi esa onomastik tasodif hisoblanadi (Нафасов 1988:398).

Vaqt o‘tishi bilan toponimlarning tarkibidagi toponimik asoslar tarkibida tovushlarning o‘zgarishi yoki ularning tushib qolish holati ham fonetik o‘zgarish sifatida tan olinadi. Masalan: etimologiya va etimologik tahlil bahsida ro‘yobga chiqadi. Etimologiya sohasi tilshunoslikning bir bo‘limi sifatida qaralmoqda. Bu yo‘nalishdagi lug‘atlar tuzishning eng optimal yo‘llari lug‘at mazmuni hamda lug‘at maqolalari uchun tanlangan etimologik tahlillarni amalga oshirish, quyidagi ba’zi bir terminlarning qisqacha izohida to‘xtalish o‘rinli bir holat ekanligini bilamiz. Toponimlar bo‘yicha o‘zbek olimlarining quyidagi ishlari diqqatga sazovor ishlardir (Нафасов 1988:398).

Professor T.Enazarov “O‘zbek toponimlari bo‘yicha shakllanadigan etimologik lug‘at tuzishda leksikografik manba sifatida 2019-yilda “O‘zbekiston joy nomlarining etimologik lug‘ati”ni tuzdi. Bu masalada biz etimologik lug‘at tuzgan mutaxassislarga qiyosiy xarakteristika bermoqchi emasmiz. Shunday bo‘lsa-da, M.Mirtojiyev, Sh.Rahmatullayev, E.Begmatov, N.Uluqov, T.Nafasov, Z.Do‘simov, X.Egamov, N.Oxunov kabi olimlarimizning tuzgan lug‘atlarida etimologik tarkib aniq maqsadga yo‘naltirilmagan bo‘lsa-da, etimologik tadqiqotlar hamda toponimlar masalasi qisman yoritilgan. Bu tuzilgan lug‘atlarda bir muncha optimal yo‘l tanlanganligini ko‘ramiz. Ayniqsa, T.Enazarov tomonidan toponimlarning etimologik tarkibiga oid tanlangan termin hamda terminlarning ishlatilishida ham orginal yo‘l tanlanganligini guvohi

bo‘lamiz(Hasanov, 1975:24). Mazkur lug‘atda va lug‘at maqolalarida quyidagi toponimlarning etimologik tarkibi bo‘yicha termin va atamalarning izohi masalasi qisman bo‘lsa-da, ilmiy jihatan hal etilgan.

Mazkur tahlil qilinayotgan lug‘atda *agronim* – ekinzor yerlarning nomlari kabi izohlanishi ilmiy jihatdan maqsadga muvofiq tarzda yoritilgan. Ekinlarning turi ko‘p bo‘lgani kabi agronimlarning ham turi hamda miqdori juda ko‘p. *Agronimiya termini* esa – ekinzor erlarning nomlarining majmui (kompleksi) kabi izohlanadi, masalan, paxtazor, g‘allazor, bedazor, bedapoya, jo‘xoripoya kabi.

Bundan tashqari etimologik va etnik tahlilda *antroponim* terminining – kishilarning, insonlarning, odamlarning ismi haqida ma’lumot beriladigan xususiyat kabi izohlanishi etimologik lug‘atlar tuzilishida e’tiborli bir jarayon hisoblanadi. Jumladan, *antrotoponim* termini – antroponimlar bo‘yicha nomlangan toponimlarga tavsif sifatida, ayniqsa, bu masalada Sho‘rolar tuzumi davrida inqilobchilarning nomlarini aholi punktlariga, berilishida ko‘rish mumkin[2] (Sverdlov, Kirov, Lenin, Marks, Engels va shu kabilar). Bu termin va izohlar hozirda faol ishlatilmasa-da, bunday toponimik obyektlar etimologik talablarga javob beradigan tarzda qayta nomlangan. Shuningdek, mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng, antroponimlar asosida nomlangan toponimlarning salmog‘i ancha kengayganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin («Gulhayo Maftun», «Qo‘chqor Karim kelajagi», «Aslon Nazar», «Latifbobo», «Feruz, Shuhrat», «Amirshoh», «Normurod Rahmonov», «Akmal Amirbek», «Halim Samad», «Mirzo Ravshan», «O‘tkir O‘ktam orzusi» kabi fermer xo‘jaliklarining nomlarini sanab o‘tish mumkin). Bu masalalar o‘zbek toponimiyasi, jumladan, mikrotoponimiyasi terminlarining uzoq va yaqin o‘tmishini o‘rganishga asosiy manba bo‘lib hisoblanish imkoniyati juda katta. Bu etnotoponimik jarayon illyustrativ toponim va mikrotoponimlar tavsifida o‘z ifodasini to‘liq topgan. Bundan tashqari bu tavsif va tahlillar Qiziltepa toponimlari va mikrotoponimiyasi tahlilida o‘zining sezilarli ta’sirini ko‘rsatdi.

Bu turkum lug‘atlar tuzishda ishlatiladigan *apellyativ* (lug‘aviy asos) – obyektning nomlanishi uchun tanlangan va toponimik ma’lumotlar bazasi, leksikografik manbalarni rasmiylashtirishda, jumladan, lug‘atlarning elektron platformasini, shuningdek, elektron ma’lumotlar bazasini yaratish, o‘zbek milliy korpusini shakllantirishda yetakchi manba hisoblanadi. Bu turkum leksikografik, ayniqsa, etimologik leksikografiyaning, Fasmerning nemis tilidagi rus tili etimologiyasi bo‘yicha tuzgan etimologik lug‘ati mazmuniga ancha yaqinlashgan. *Apellyativ leksik birlik* birikmali termini ham quyidagi izohi bilan yuqoridagi terminlar birligi mazmuniga to‘liq bog‘lanadi – obyektning nomlanishi yuzasidan

toponimik ma’nolar ma’lumotlar bazasini shakllantirishga yetakchi lug‘at maqolasi sifatida kiritilishi mumkin. Bundan tashqari *Birinchi nomlanish qonuni* – apellyativ leksikasidagi so‘z va so‘z birikmasi va qo‘shma so‘zlarning to‘g‘ridan to‘g‘ri onomastik leksik tarkibga o‘tish birinchi almashuv qonuni deb nomlanganligi, izohning mukammalligidan darak beradi. Apellyativ leksika bo‘yicha o‘zbek tilshunosligida ma’lumotlar, shuningdek, ma’lumotlar bazasi to‘liq shakllantirilmagan. Bu masalaning bir qancha obyektiv va subyektiv sabablari mavjudligini ko‘rsatadi.

Yuqorida tavsiflangan termin va atamalarning mazmuni va izohi tahlilini davom ettirib quyidagi natijalar qo‘lga kiritildi. *Gibrid toponimlar* izohi quyidagi mazmunga ega – ma’noli qismlari turli tillardagi so‘zlardan iborat bo‘lgan toponimlar. Masalan, Sovungaron // sovun – arabcha asos, garon – fors-tojikcha formant; Azizon // aziz – arabcha asos, on – fors-tojikcha formant, Toshrabot tekstil // tosh – o‘zbekcha asos, rabot – arabcha formant, tekstil – ruscha indikator.

Toponimlarning tarkibiy qismi hisoblangan etnotoponimik atama va terminlarning izohi mazmuni *gidronimlar* tavsifidagi xulosalar ham ishda yetakchi ilmiy natijalarni berdi. *Gidronimlar* termini izohi – suv inshootlarini (daryo, ariq, kanal, hovuz, suv ombori kabilar) ifodalab keladi (Qiziltepa nasos stansiyalari, Amu-Buxoro kanali, To‘dako‘l suv omborlari, suv to‘g‘oni, Zarafshon daryosi, Shohrud kanali, Abu Muslim shohariq, Duldul kollektori, Yormoqchisoy yuvilma o‘yig‘i, Zarmitan arig‘i, «Cho‘ldaryo» – suv iste’molchilari uyushmalari). Bu masala izohida yetakchi masala, Qiziltepa tumani hududidagi gidronimlarni lug‘at maqolasi tarkibiga kiritish, dissertatsiyada gidronimlarning tavsifidan, ularning izohidan to‘liq foydalanish imkoniyati kengayadi. O‘zbek tilshunosligida ma’lumotlar bazasini shakllantirish, asosan, o‘zbek tili milliy korpusini shakllantirish hamda boyitish masalasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, raqamli texnologiyani shakllantiradi.

Toponimlarda taxmin yoki faraz – toponimlarning kelib chiqishi to‘g‘risidagi fikrlar to‘plami. Ular til tarixi va shevalarimizning taraqqiyotiga mos kelmay, xalqona etimologiya ham bo‘lishi mumkin. Shuningdek, til tarixi va shevalarimizning taraqqiyotiga mos kelib, toponimik ilmiy tahlil bo‘lgan etimologik tahlil jarayonida ijobiy turtki beradigan taxmin (faraz)lar ham bo‘lishi tabiiy bir holat. Chunki taxmin va farazlarning ijodkorlari xalq vakillari, aniqrog‘i, yoshi ulug‘ onaxonlari, otaxonlari, o‘qituvchi, olimlar hamda ilmiy ish bilan shug‘ullanayotgan tadqiqotchilar bo‘lib, ular haqidagi ma’lumotlar yoki ma’lumotlar bazasidir. Toponimlarning bunday guruhlanishiga ular ifodalaydigan toponimik obyektlarning boshqa toponimik obyektlar tizimidagi mavqeyi darajasi hamda o‘ziga xos hamda mos bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari o‘z ifodasini topgan.

Bu holatni quyidagicha ko‘rinishda qayd etishimizga to‘liq ilmiy va tahliliy asos mavjud:

Lug‘aviy asos – mikrotoponim – makrotoponimlar. Mazkur ramziy ifodadan ko‘rinib turibdiki, makrotoponim, mikrotoponimdan, mikrotoponimlar esa kundalik turmushda ko‘p qo‘llaniladigan apellyativ so‘zlardan shakllangan.

Indikator – geografik toponimlarning ko‘rsatkichi bo‘lib, bu terminni toponimik aniqlagich deb ham qo‘llash mumkin. Nomlar doimo jamiyatda sodir bo‘layotgan turli o‘zgarishlarni (siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, fan taraqqiyoti) o‘zida aks etib borgani kabi, indikatorlar ham nomning qanday obyekt tipiga tegishliligini o‘zida aks ettiradi. Masalan, quyi Zarafshon vohasi uchun «rabot, «tal», «poyon», «tepa», «bolo», «ovul», «ko‘cha», «qishloq» kabi topoterminlar indikatorlik vazifasini bajaradi. Shuningdek, indikatorlar bir asosli, ikki asosli va ko‘p asosli bo‘la oladi. Masalan, ko‘cha – bir asosli; fermer xo‘jaligi – ikki asosli; mahalla fuqarolar yig‘ini (MFY), mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) – ko‘p asosli.

Qiziltepa tumanining etnotoponimlari uning qadimgi davridan toki XX asrning 10-yillarigacha tarixiy manba va adabiyotlarda atroflicha yoritilgan. Ayniqsa, bu katta davrni yoritishda, o‘rta asrda mamlakatimizda yozilgan tarixiy asarlarda juda ko‘p etnotoponimlarni uchratish mumkin. Jumladan, Narshaxiyning «Tarixi Buxoro» asarida keltirilgan etnotoponomik ma’lumotlarni tarixiy hamda tilshunoslik fanlararo qiyoslash metodi asosida ilmiy nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shu o‘rinda Narshaxiy, Bartold, Xanikovlarning asarlarini qiyosiy tadqiq va tahlil qilish o‘rinli hiisoblanadi. Qiziltepa va uning atrofidagi tumanlarda, aniqrog‘i, G‘ijduvon, Vobkent, Shofirkon tumanlarida hozirgi adabiy tilda ishlatiladigan *«dala»* so‘zining o‘rniga *«yovon»* so‘zi XX asrning 90-yillarigacha mahalliy shevada kenga ishlatilar edi. Shuningdek, *«inak»,* hozirgi adabiy tilda ishlatiladigan *«sigir»* so‘zi o‘rnida *«inak»* so‘zi keng ishlatilardi. Hozirgi kunda ham yoshi 70-80 dan oshgan kishilar bu kabi so‘zlardan foydalanishadi. Bundan tashqari, gidronimlardan *«*darg‘ot*»* so‘zi yuqorida ko‘rsatilgan 3 ta tumanda ham mahalliy aholi orasida katta ariq suvini bir necha yo‘nalishlarda taqsimlaydigan to‘siq ma’nosini bildiradi. Bizning fikrimizcha, bunday azaldan ishlatib kelinadigan so‘zlar juda ko‘p, lekin hozirgi yosh avlod bu so‘zlarni deyarli bilmaydi. Ayniqsa, xo‘jalik faoliyatida foydalaniladigan, lekin hozirgi kunda iste’moldan chiqib ketayotgan *sayisxona, og‘il, ravoq* kabi so‘zlarning izohli lug‘atini tuzib, ularni qayta hayotga qaytarish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bu xalqimizning xo‘jalik tarixi hamda til boyligi bo‘yicha qadriyat bo‘lib, tilimizning noyob unsurlari hisoblanadi. Bundan tashqari yuqorida ko‘rsatilgan tumanlar qishloq o‘troq aholisi foydalangan *«hayot»* so‘zi bilan hovli hududidan tashqarida, lekin

uning devori orqasida turgan yer *«hayot»* deyilgan. Aholi bu erga ekin ekishgan yoki mahalliy aholi tilida *«charvoq»* (*chorbog‘* - to‘rt tomoni bog‘) deb atalgan bog‘ sifatida foydalanishgan. Umuman olganda, bu *«charvoq»* shu oilaning mulki hisoblangan. Afsuski, yosh avlod bunday so‘zlarni bilmaydi ham, tushunmaydi ham. Mahalliy aholi transport qatnashga yaroqsiz bo‘lgan, piyoda yurilgan so‘qmoqlarni yoki yo‘laklarni *«yo‘lcha»* deb atagan. Yuqorida ko‘rsatilgan hududlarda aholining turmush tarzining qismi bo‘lgan hovlisidagi non yopiladigan hozir *«tandirxona»* deb ataladigan joy nomi shevada *«tano‘rxona»* yoki qisqa qilib, *«tano‘r»* (*tano‘rga non yopdim*), “*Itmakchi tanuri andin qiziq, allof bozori andin issiq”(* A.Navoiy, 1998:35).

Qiziltepa tarixi bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan olimlar, jurnalistlar, tarixchilarning jalb qilinishi, mazkur mavzuni o‘rganishga kirishishda eng asosiy tayanch manba hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. A.Navoiy. Mahbub ul-qulub. Mukammal asarlar to‘plami. 14 tom. – Toshkent: Fan, 1998. –B.35.

2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. T. “Universitet” 2000, - 600 b.

3. T.Enazarov. Ko‘rsatilgan lug‘at.. Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. T. “Fan”, 1975. -B 41-51.

4. Falsafa. Qomusiy lug‘at. 132-134;[1]; Universitet, 2000.; Raxmatullayev Sh. O‘zbek tili lug‘atining turkiy qatlami. T.Universitet. 2001; Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati.II (arab so‘zlar, ular bilan hosila so‘zlar) 2003. – 600 b.

5. Nafasov T. O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati. T.: 1988, - 398 b.

6. Z.Do‘simov, X.Egamov. Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati. T.: “O‘qituvchi.176-b.

INSONLARNING TASHQI QIYOFASINI VA SIFATLARINI IFODALOVCHI LEKSEMALAR

Alimbekova Vazira Xalimjon qizi,
ToshDO‘TAU “Lingvodidaktika” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aksariyat o‘zbek shevalarida hamda adabiy tilda qo‘llanmaydigan dardoq shevasiga xos kishilarning tashqi qiyofasini, xarakter-xususiyatini ifodalovchi dialektal so‘zlar tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘zlar: *kishilarning tashqi qiyofasini ifodalovchi leksemalar, dialekt, sheva, dialektal so‘z, adabiy til.*

Annotation. *In this article, dialectisms that express the appearance and qualities of people related to Dardak dialects, which are not mentioned in the dictionaries of literary languages, are analyzed in most Uzbek dialects.*

Keywords: *lexemes that represent the external appearance of people, dialect, dialect, dialectal word, literary language.*

Ma’lumki, borliqdagi barcha jonli narsalar, ya’ni o‘simliklar, hayvonot olami, insonlar ham bir-biriga o‘xshamas va bir-birini takrorlamas shakl-shamoyilga ega. Bu olamda yashaydigan har bir mavjudotga Olloh tomonidan o‘zgacha shakl, qiyofa berilgan. Shart-sharoitlar taqozosi bilan inson chiroyli, yo xunuk, daroz yoki pakana, aft-angori normal yoki anormal bo‘lishi mumkin [Шоимова, 1999:46].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ham kishilarning ayni shunday fiziologik qiyofasi, tashqi ko‘rinishi, shakl-shamoyilini ifodalovchi juda ko‘p leksemalar o‘rin egallagan. Masalan: *semiz, ozg‘in*, *pakana, novcha* kabi. Bu kabi leksik birliklarning ko‘pi, tabiiyki, shevalarimizda turlicha fonetik o‘zgarishlar bilan talaffuz qilinadi*: Meni hïlvalïgïm(g)a häsät qïgan adamlar qanča?* Tabiiy, insonlar bilan so‘zlashuv chog‘ida jumlada qo‘llangan **hïlvalïgïm***hilvaligim* leksemasining ma’nosi yanglish tuyuldi. Ma’lum bo‘lishicha, *hïlvalïgïm* so‘zi “*xushbichim, xipcha bel, nozik, chiroyli qomat “* ma’nosini ifodalar ekan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida **čajïr***chayir* so‘zining ikki xil ma’nosi izohlangan:1. Tolalari mahkam birikkan, yorilishi, ishlanishi qiyin (yog‘och-taxta, o‘tin). 2. Quruq dashtlarga moslashgan, gullari sarg‘ish, ozuqabop va shifobaxsh o‘simlik nomi. Dardoq qishlog‘i leksikasida o‘zi kichkina bo‘lsa ham hamma ishni qila oladigan chaqqon, chapdast insonga nisbatan **čajïr***chayir* degan so‘z qo‘llaniladi. Ma’lumot sifatida shuni aytib o‘tmoqchimizki, jelovchi Qashqadaryo shevasida bunday sifatga ega odamlarga nisbatan *ganajin* leksemasi qo‘llaniladi. [Шоимова, 1997:47]. Ma’lum bo‘lmoqdaki, shevada shakli-shamoyili, jussasi kichik odamlar ham ma’lum leksemalar bilan ifodalanar ekan.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida bizga yana shu narsa ma’lum bo‘ldiki, tengdoshlariga nisbatan bo‘yi past, jussasi kichkina bolalarga nisbatan **čikäläk***chikalak* leksemasi qo‘llanadi: *özi čikäläkdäj bovalïp bilmägän närsäsi joq. (<o‘zi chikalakday bo‘lib olib bilmagan narsasi yo‘q).* Ma’lumot o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tmoqchimizki, ushbu so‘z o‘zbek tilining izohli lug‘atida berilmagan.

Dardoq shevasida **pečäl***pechal,* **mäžik***majik,* so‘zlari ko‘rinishidan qoni kam, rangi so‘lg‘in, immuniteti pastligidan nosog‘lom bolaga nisbatan ishlatiladi.

Yuqoridagi so‘zlar ham izohli lug‘atda qayd qilinmagan. *balaŋa žïzza qï ber, köp-köp bulamïq qï ber, pečäl bop qamasïn jänä. (<Bolangga jizza qilib ber, ko‘p-ko‘p bulamiq qilib ber, pechal bo‘lib qolmasin yana).*

Adabiy tilimizda qancha yesa ham to‘ymaydigan, yoki ko‘p ovqat yeydigan insonga nisbatan *ochko‘z* atamasi qo‘llaniladi. Dardoq shevasida esa ochko‘z so‘ziga sinonim sifatida **näkäs***nakas* so‘zi qo‘llaniladi. Bu so‘z faqatgina yebto‘ymas ma’nosida emas, ba’zi bir kontekstual matnlarda *ziqna, xasis* ma’nolarida ham keladi. **Näkäs** so‘zi ham izohli lug‘atda qayd qilinmagan. Forscha *nokas* so‘zi berilgan. Ushbu so‘zning ma’nosi izohli lug‘atda *vijdoni, insofi yo‘q, pastkash, yaramas, qabih* kabi izohlanadi. *ata üjimdägi jan qošnïmïz näkäs adamijdi. üjimizdägi hämmä pišip qaŋan mevä-čevälärimizi terip čïqïp ketärdi. (<ota uyimdagi yon qo‘shnimiz nakas odam edi. Uyimizdagi hamma pishib qolgan meva-chevalarimizni terib chiqib ketardi).*

Olloh tomonidan berilgan ne’matlar ichida eng azizi non bo‘lsa, so‘zsiz nondan keyin ko‘z turadi. Insonlar nutqida ham ko‘zning xususiyatlari, uning fiziologik va biologik tuzilishi uchun ham u bilan yonma-yon ishlatiladigan turli xil sifatlar talaygina. Ana shunday sifatlardan biri bu **piskä****piska* leksemasidir. Ushbu leksema o‘rganilayotgan sheva vakillari tomonidan ko‘zi qisiq, karsqovoq (koreys millatiga mansub insonlarning ko‘zi) insonlarning ko‘ziga nisbatan ishlatiladigan sifatdir. Masalan: *Vaj, bü žižini közi minčä piskä, kimi tärtqan? (<Voy, bu jijining ko‘zi namuncha piska, kimi tortgan?)*

Endi e’tiborimizni ushbu gapga qaratsak, *jo unï kelin qïmïjmïz u žüdä uzïqara qïz, ajtïšmaŋan adamï qamaŋan. (<yo‘q uni kelin qilmaymiz u juda uziqara qiz, aytishmagan odami qolmagan).* Berilgan matndan **uzïqara***uziqara* so‘zi salbiy ma’noga ega ekanligi ma’lum bo‘lmoqda. Ushbu sheva vakillarida uziqara so‘zi urishqoq insonlarga nisbatan ishlatiladigan sifatdir.

Adabiy tilda uy tutimi yaxshi bo‘lmagan, saranjom-sarishta o‘tirmagan insonlarga nisbatan ishlatiladigan leksema mavjud emas. Dardoq shevasi vakillari esa bunday tutumdagi insonlarga nisbatan **tülas, palpis**, (<*tulos, polpis*) leksemalari ishlatiladi: *Tüläsgə oxšamastan jïŋïštïriš anavi čäčilip jatqan närsälärdi, taza turadi qïz bala bar üj, ujatmasmï, käp-kättä bopqalïšsaŋam. (<Tulosga o‘xshamasdan yig‘ishtirish anavi sochilib yotgan narsalarni, toza turadi qiz bola bor uy, uyat emasmi, kap-katta bo‘lib qolishsang ham).* Yuqorida keltirilga leksemalar ham o‘zbek tilining izohli lug‘atidan o‘rin egallamagan.

Shunisi e’tiborliki, o‘rganilgan shevada, ayniqsa, ayollar, xususan qizlarning yurish-turish, xulq-atvori, xarakterini ifodalovchi qator leksik birliklar mavjud:

Dänäk, daqqï*\Danak, daqqi* sifatlari o‘zi kichkina bo‘lishiga qaramay so‘zga, gapga chechan yosh qizchalarga nisbatan qo‘llaniladi: qïzïz dänäk qïz

boptï. (<qizingiz danak qiz bo‘libdi.) **Mamadana***mamadana* bo‘lar-bo‘lmas narsaga gap talashadigan, ko‘p gapiradigan qiz. Bu so‘z adabiy tildagi *mahmadona* so‘zi bilan ma’nodoshdir. *Mamadanalïq qïma, kättä gäpirgändä hop dejiš kere. (<Mahmadonalik qilma, katta gapirganda xo‘p deyish kerak).*

Šäldir-šüldir*shaldir-shuldir* so‘zi kirishimli, hamma bilan chiqishib keta oladigan, ko‘nglida kiri yo‘q, sodda odamga nisbatan ishlatiladi: *adam degän šäldir-šüldir böliši kerej, dïmaydar bölip, keh sahlamaslïq kere.* (<Odam degan sodda, shaldir-shuldir bo‘lishi kerak, dimog‘dor bo‘lib, kek saqlamaslik kerak).

Gäžir**Gajir* – aytganini qildiradigan, qaysar, jangari. Bu so‘z insonga xos bo‘lgan xususiyatni bildirishi bilan birga, ot jonzotiga nisbatan ham ishlatiladi. Bo‘ysundirish qiyin bo‘lgan, qaysar otni gajir ot deyishadi. Ushbu qishloq shevasida otga nisbatan emas, balki insonlarga nisbatan ham bu leksik birlikdan foydalaniladi. Masalan: *balasïjam rasajam gäžir boyan-e:j ajtganïnï qïldïradï. (<Bolasi ham biram gajir bo‘lganeeey aytganini qildiradi).*

žuda-*juda-* ishlarga ulgurmaslik. Ishlar ko‘pligidan ulgura olmayotgan, o‘zini eplay olmayotgan insonlarga, asosan ayol kishiga nisbatan qo‘llanadigan leksemadir. *Bïr qolïmda bala, bïrïda žilkä sümkädä kärtiškä, biräm žudadïm, biräm žudadïm, jänä kämigä qazanda ustalarya aqat. (<Bitta qo‘limda bola, birida jilka so‘mkada kartoshka, biram judadim, biram judadim, yana kamiga qozonda ustalarga ovqat ham bor). Biram* leksemasi shevada *rosa, juda, juda ham* ma’nolarida qo‘llanadi

Alakötän*olako‘tan* – ko‘ngli toza. Ushbu leksema ko‘ngli toza, ko‘nglida kiri, g‘araz niyati yo‘q insolarga nisbatan qo‘llanadi. Asosan, yoshi ulug‘ insonlar nutqida kuzatiladi: *ï:mānï ïssïy, alakötän žuvan äkän. (<Iymoni issiq, olako‘tan juvon ekan.)*

Ba’zida o‘zimiz istamagan holatda kimgadir tanbeh berishga majbur bo‘lamiz, shunda beixtiyor qo‘pol so‘zlardan foydalanib qo‘yamiz. Andijon viloyatining Dardoq shevasida **tasraj-, tasbet***tosraymoq, tosbet* leksikasi qancha gap gapirsa ham, gap ta’sir qilmaydigan odamga ta’rif berishda ishlatiladigan sifatlardan biridir: *Gäpäm tä’sir qïmajdï-ja, tasrajïp turïšïnï qara, tasbet. (<Gap ham ta’sir qilmaydi-ya, tosrayib turishini qara, tosbet).* Adabiy tilimizda bu so‘zga sinonim sifatida *bezbet* so‘zi qo‘llaniladi.

Tüläk**tulak***tüläj****tulay* leksemalari ham shevaga xos so‘zlar bo‘lib, bu so‘zlar adabiy tilimizdagi *ayyor* so‘ziga ma’nodoshdir. Masalan, *ölgüdej tüläj ä? Bu dösimidijäm demedi, namüssiz. (<O‘lguday tulak a? Bu do‘stim edi ham demaydi, nomussiz.*

Shuni aytib o‘tish lozimki, o‘rganilayotgan shevada insonlarga xos salbiy xususiyatlarni atab kelishda ham bir qancha leksemalar mavjud bo‘lib, ular o‘zbek tilining izohli lug‘atida uchramaydi. Shunday leksik birliklardan biri bu

pajïpajtava\poyipaytava leksemasidir. Adabiy tildagi *laganbardor* – o‘z manfaati uchun boshqalar oldida o‘zini juda tuban tutib, unga xushomad qilishga tirishadigan pastkash odamga nisbatan o‘rganilayotgan sheva vakillari nutqida **pājipäjtävä** leksemasi qo‘llaniladi. *Masalan: Hä, bu özi šunaqa, kičkinäligimizdäjäm bayväčča qïzlarga pajipäjtävä bolï jürärdi, hälijäm ozgarmaptï, rahbarlarga lägänlïk qïlïp. (<Ha bu o‘zi shunaqa, kichkinaligimizdayam boyvachcha qizlarga poyipaytava bo‘lib yurardi, haliyam o‘zgarmapti, rahparlarga laganlik qilib).* Keltirilgan gapdan poyipaytava so‘zining ma’nosini anglash unchalik ham qiyinchilik tug‘dirmaydi. Berilgan gapdan shu xulosaga kelinadiki, ya’ni laganbardor.

Genämäs, toŋat – so‘zi e’tiborsizlik, past nazar bilan qaramoq degan ma’nolarda keladi. Masalan: *Vaj töbä:, kimgä oxšagan? šünčälik genämäs, gäpirseŋ sen kimsänäm demedi. (<Voy tavba, kimga o‘xshagan? Shunchalik genamas, gapirsang sen kimsan ham demaydi.)*

Qoramas*qo‘ramas* leksemasi ham insonga xos xususiyatlardan birini atab keladi. Ushbu so‘z ham o‘zbek tilining izohli lug‘atidan o‘rin olmagan bo‘lib, mehnat qilib o‘zini qiynashni xohlamaydigan, dangasa, ishyoqmas, tanbal insonlarga nisbatan ishlatiladigan leksik birlikdir. *Katta o:lïm qoramas bala boŋan, ŋïïrt dänggäsä, kimgä tartip qaŋan xayramman.(<Katta o‘g‘lim qo‘ramas bola bo‘lgan, g‘irt dangasa, kimga tortib qolgan xayronman).*

Insonlardagi salbiy xususiyatlardan biri dardoq shevasi vakillarida **äržäj***arjay* deb nomlanadi. Arjay so‘zi bo‘lar bo‘lmasga kuladigan, o‘rinsiz hazil qiladigan kishilarga nisbatan qo‘llanadi, bu leksemani o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham uchratmaymiz. Masalan: *Sen ünä: ärjäj bala bomagïn, oŋïl bala üna: äržäj bomedi, säl närsägelä külormedi. (<Sen unaqa arjay bola bo‘lmagin, o‘g‘il bola unaqa arjay bo‘lmaydi, sal narsagagina kulavermaydi).*

Avïrlïavirli so‘zi *obro‘li* so‘zi bilan ma’nodosh bo‘lib, shaxs va narsalar uchun qo‘llaniladi. Obro‘li so‘zi esa faqat insonlar uchun ishlatiladi. *Avirli odam, avirli ish, avirli joy, avirli kiyim, avirli taom. Häbbäxanäjäni qïrqï bolarkan ettega, sandïŋdan avïrlïraq matrjal apqoj, sevätti ustiga qojïbarganï. Rähmälij jaxšï adamïdï. (<Habibaxon ayani qirqi bo‘lar ekan ertaga, sandig‘dan avirliroq material olib qo‘y, savatni ustiga qo‘yiborgani. Rahmatli yaxshi odam edi).*

Ovqatni tanlab, oz-oz yeydigan, har qanday ovqatni yeyavermaydigan insonlarga nisbatan **čïmxor***chimxo‘r* atamasi qo‘llanadi. Ko‘p sheva vakilarida bu so‘z, asosan, hayvonlarga nisbatan ishlatiladi, ammo o‘rganilayotgan sheva vakillari nutqida esa insonlarga nisbatan ham ko‘p qo‘llanadi: *čïmxor hokïz aštan olar. (<Chimxo‘r ho‘kiz ochdan o‘lar)(Maqol). Vaj, qïzïmej, büna: čimxor bömägin, unaqada azïp ketäsän-u. Qara, bunini özi qaptï-ju. Vaxtïda aqatlan.*

(<Voy, qizim-ey, bunaqa chimxo‘r bo‘lmagin, unaqada ozib ketasan-u. Qara, burningni o‘zi qolibdi-yu. Vaqtida ovqatlan).

Čapmägän deväsi joq*Chopmagan devasi yo‘q* leksik birligi buzg‘unchi, urushqoq, janjalkash insonlarga nisbatan ishlatiladi. Deva so‘zi muqaddas tepaliklarga nisbatan ishlatiladi, ya’ni odam shunchalik buzg‘unchiki, hatto muqaddas bo‘lishiga qaramasdan uni chopib, oyog‘osti qilgan: *nargï mähällädägi Qoldaš hämmäni ädäbini berardï, ötkän jili üčinči mättä qamaldï, qïmagan iši, čapmaγan deväsi qamaγan. (<Narigi mahalladagi Qo‘ldosh hammani adabini berardi, o‘tgan yili uchinchi marta qamaldi, qilmagan ishi, chopmagan devasi qolmagan).*

O‘rganilayotgan shevada kishilarning sifatlari iboralar orqali ham ifodalanishi mumkin:

Ushbu qishloqda ***jerdi kinnigini üzmoq*** iborasi mehnatkash, o‘ta ko‘p ish qiladigan, har qanday qiyin yumushlarni ham qila oladigan, ertalabdan kechga tinim bilmay mehnat qiladigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Masalan: *Bärčin jerdi kinnigini üzädigän xātïn, bir minit timmiydi, bittä özi mäši pärnikti qïlïp, dïjqančilik qilip beštä qïzdi čïqardï-ja. (<Barchin yerning kindigini uzadigan xotin, bir minut tinmaydi, bitta o‘zi manashu issiqxonani qilib dehqonchilikqilib, beshta qizdi chiqardi-ya).* Bu ibora deyarli ayollarga nisbatan ishlatiladi, ya’ni erkak kishilar qiladigan yumushlarni ham qilib ketaveradigan ayollarga nisbatan aytiladi.

Shunday holatlar bo‘ladiki, suhbatdoshingiz bilan gaplashayotgan gaplaringizni boshqa kishi eshitmasligini xohlaysiz, ammo ayrim odamlar atayin gapni poylab gapingizni eshitib oladi. Dardoq shevasi vakillarida bunday harakatga ega bo‘lgan insonlarga nisbatan **läkätri kučli, qulāγï diŋ, diŋ qulāq** kabi leksik birliklar ishlatiladi. Masalan: *Biräm läkätriŋ kučli-ya? Bü gäpti qadan ešittiŋ?(<Biram lakatring kuchli-a? Bu gapni qayerdan eshitding?)*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Иброхимов С. Андижон шеваси. – Тошкент: Фан, 1967. – Б. 19.

2. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари.-Тошкент: Фанлар академияси нашриёти. 1961.

3. Абдуллаев Ф. А. Диалектал луғат тузиш принциплари // ЎТА. –Тошкент: 1966. 2-сони. -Б. 35-41.

4. Афзалов Ш. Ўзбек тилининг Паркент шеваси. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. I. –Тошкент: 1957. – Б. 119 -164.

5. Алиев А.Ю., Назаров К.Н. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. –Тошкент: 1976.

6. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. —Тошкент: Фан, 2005.

7. Муродова Н. Ўзбек диалектологияси. -Тошкент: 2019. -Б. 182.

8. Ashirboyev Samixon. O‘zbek dialektologiyasi. -Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2016. –B. 80.

FARG‘ONA VODIYSIDAGI DIALEKTAL TOPONIMLARNING IZOHI

Qurbonov Nodirjon Buriboyevich,
katta o‘qituvchi, TATU Farg‘ona filiali

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysidagi dialektal toponimlar izohiga e’tibor qaratilgan. Unda fitotoponimlar (11ta), zootoponimlar (4ta), informativ gidronimlar (8ta) bilan toponimlar tasniflangan. Muallif ushbu maqola bilan vodiydagi toponimlarning o‘ziga xosligini ko‘rsatishga harakat qilgan.*

Kalit so‘zlar: *fitotoponimlar, zootoponimlar, informativ gidronimlar, topoobyekt.*

Annotation.*This article focuses on the interpretation of dialectal toponyms in the Fergana Valley. It classifies toponyms with phytotoponyms (11), zootoponyms (4), informative hydronyms (8). In this article, the author tries to show the uniqueness of toponyms in the valley.*

Keywords: *phytotoponyms, zootoponyms, informative hydronyms, topoobject.*

Farg‘ona vodiysi dialektal toponimlarini tadqiq etar ekanmiz, biz bu o‘rinda vodiyning obrazli toponimlariga to‘xtalishga qaror qildik. Farg‘ona vodiysi hududidagi joy nomlari o‘ziga xos bo‘lib, ularning ma’lum bir qismi obrazli toponimlar hisoblanadi. Toponimlarda obrazlilik topoobyekt haqida yaqqol tasavvur hosil qiladi, kishi ongida mazkur joy haqida qandaydir ma’lumot hosil qiladi. Obrazli toponimlarning bu xususiyatini biz informativlik deya olamiz, chunki obrazli toponimlar har doim topoobyekt haqida informatsiyaning asrlar osha o‘zi bilan olib yuradi.

Vodiyda topoobyektlarning obrazli nomlanishida ulardagi qaysidir bir belgi asos bo‘lib, joy shu belgi asosida nomlangan. Bundan kelib chiqadigan bo‘lsak, Farg‘ona vodiysi dialektal toponimlarida obrazlilikni tadqiq qilishda ularni klassifikatsiyalash muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘rinda vodiy joy nomlarini tadqiq

etishda quyidagi klassifikatsiyadan foydalanish tadqiq qilish uchun yaxshi samara beradi:

1. Fitotoponimlar. Fitotoponimlar o‘simlik nomlari bilan nomlangan topoobyektlar bo‘lib, topoobyekt o‘simlik nomi, yoki - **qo‘sh, - to‘p, - sar, - yakka, - chi, -li, -lik, -zor** kabi topoformantlar yoki son, sifat so‘z turkumlari bilan nomlanishi Farg‘ona vodiysida o‘ziga xos xususiyatga ega.

O‘simlik nomlari. *Do‘lana, Jiyda, Archa, Olmurut, Rayhon, Sada, Chilon, Chinor, Shaftoli, No‘xatak, Qayrag‘och* kabi o‘simlik nomlari bilan topoobyektlar nomlangan.

Archa – Farg‘ona vil. Farg‘ona t., mahalla nomi. Joy nomi vujudga kelishida daraxt nomiga nisbat berilgan [1, 19].

Do‘lana – Andijon vil. Buloqboshi t., mahalla nomi. Do‘lana – tog‘li hududlarda o‘suvchi yovvoyi butasimon o‘simlik nomi bilan atalgan [1, 55].

Jiyda – Farg‘ona vil. Beshariq t., Namangan vil. Kosonsoy t., mahalla nomi. Mazkur mevali daraxt nomi Farg‘ona vodiysida quyidagi joy nomlarida ham uchraydi: **Jiydakapa, Jiydaqishloq, Qorajiyda, Chilgi-jiyda.**

No‘xatak – Andijon vil. Andijon t., mahalla nomi. Bu joy nomi yovvoyi no‘xat nomiga nisbat berilib nomlangan bo‘lishi mumkin[2]

Olmurut – Namangan vil. Uychi t., mahalla nomi. Olmurut mevali daraxt nomi bo‘lib, nokning bir xili.

Rayhon – Farg‘ona vil. Qo‘qon sh., mahalla nomi. Joy nomidan ko‘rinib turibdiki, mahallaga rayhon o‘simligi nomiga nisbat berilib nomlangan.

Sada – Farg‘ona vodiysi tumanlarida keng tarqalgan nom bo‘lib, bu sersoya daraxt asosida joy nomlangan. Sada nomi o‘zi bilan birga salqin, bahavo va muzdek suv oqib turgan joyni anglatadi. E’tibor beriladigan jihati shundaki, sada daraxti o‘sgan joyda odamlar dam olish uchun supalar, skameykalar, besedkalar tashkillashgan, hattoki, artezian suvlari oqib turuvchi joylarda ham sada daraxti ekilgan. Vodiyda **Sadacha, Sadatagi, To‘psada** kabi nomlar ham uchraydi.

Chilon – Farg‘ona vil. Quva t., Andijon vil. Andijon t., mahalla nomi. Hududda chilonjiyda mevali daraxti tez-tez uchrab turganligi sabali bu joy nomi shu o‘simlik nomi bilan bog‘langan bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari Vodiyda **Chilonzor, Chilonmozor** kabi joy nomlari ham mavjud.

Chinor – Farg‘ona vil. Oltiariq t., Namangan vil. Pop t. mahalla nomi. Bu mevasiz o‘simlik turi bilan vodiyda joy nomlari uchrab turadi, masalan, **Mingchinor, Chinortagi** kabilar. Shuningdek, topoobyektlarga tagi qo‘shimchasini qo‘shish orqali biror daraxt tagida odamlar to‘planishi yoki turishlari nazarda tutiladi. Masalan, Toltagi (Farg‘ona sh.) toponimini oladigan bo‘lsak, aynan tol daraxtining tagida odamlarni uchratish mumkin bo‘ladi. **-tagi**

qo‘shimchasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu odamlarning vaqtincha to‘xtab turish joyini anglatadi. Buni Farg‘ona viloyati misolida Toltagi, Mozortagi, Teraktagi toponimlarini olishimiz mumkin. Qayrag‘ochtagi toponimi ham taxminimizga ko‘ra shunday ma’noni anglatadi.

Shaftoli – Andijon vil. Bo‘z t., qishloq nomi. Shu bilan birga Shaftolizor toponimi ham uchraydi. Shaftoli mevali daraxt bo‘lib, -zor qo‘shimchasi orqali daraxtning hududda ko‘pligiga nisbat berilgan [1, 161].

Qayrag‘och – Qayrag‘och oykonimi “qayrag‘och o‘sgan joydagi qishloq” ma’nosini ifoda qiladi. Bundan tashqari, vodiyda Qayrag‘ochzor, Qayrag‘ochovul, Qayrag‘ochguzar, Qayrag‘ochtagi, Mulla Qayrag‘och, Nayza Qayrag‘och deb ataluvchi qishloq va ko‘chalar ham qayd etilgan [1, 184]. Bundan tashqari Quva tumanida Bolalik qayrag‘och qishlog‘i ham mavjud. Bolalik qayrag‘och qishlog‘ida haqiqatan ham qayrag‘ochlar o‘sadigan alohida ziyoratgoh mavjud. Mahalliy xalq etimologiyasiga ko‘ra o‘sgan qayrag‘ochlar ildizidan bolalab ketganligi uchun bu daraxtlarni “bolali qayrag‘ochlar” deb nomlashgan, boshqa manbaga ko‘ra, Mirzo Bobur o‘z askarlari bilan dushmandan uzoqlashib, Marg‘ilon tomonga o‘tib ketayotganida jangchilaridan birining homilador xotini ko‘zi yoriydi va ular bolani bir hamyon tilla bilan qayrag‘och shoxiga ilib ketishgan majbur bo‘lishgan ekan [3, 18]. Bolali qayrag‘och nomi shundan qolgan. Hozirda bu joy ziyoratgohga aylangan va farzand talabida bo‘lgan bo‘lgan yoshlar ziyorat uchun kelishadi.

2. Zootoponimlar. Zootoponimlar hayvon nomlariga nisbat berilgan holda nomlangan topoobyektlar bo‘lib, toponimning informativligiga ko‘ra, shu obyektda nomi keltirilgan hayvon turi yashashi aniqlashadi. Bunday toponimlar sirasiga **Alqor, Baliqko‘l, Bo‘lon, Kaptarxona** kabi obyektlar nomlarini ko‘rsatish mumkin.

Alqor – Farg‘ona vil. Buvayda t., qishloq nomi. Alqor yovvoyi tog‘ qo‘yi nomi bo‘lib, bu hayvon turi tog‘li zonalarda yashaydi. Bu hayvonning muflon, arhar yoki alqor deb nomlangan turlari mavjud. Buvayda tumani tog‘li hudud bo‘lmaganligi sababli bu yovvoyi qo‘ylar yashashini taxmin qilish noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari dorivor alqor o‘simligi ham mavjud.

Baliqko‘l – Namangan vil. Chortoq t., qishloq nomi. Joy nomini ikki xil talqin qilish mumkin:

a) *Baliqliko‘l* deb nomlanganligi ko‘lda baliq ko‘pligini anglatadi. Hududdagi buloqqa qo‘yilgan zoogidronim keyinchalik qishloqqa ham berilgan.

b) baliq ko‘l, baliq ko‘l ko‘p ko‘l emas, balki ko‘l kosaning shakliga nisbatan qo‘yilgan bo‘lishi mumkin [1, 23].

Bo‘lon – Namangan vil. Chortoq t., mahalla nomi. Bu nom hayvon nomi asosida vujudga kelgan. Toponim shu hududda yashagan, ammo hozirda yo‘q bo‘lib ketgan hayvon – bulon (los) to‘g‘risida ma’lumot beradi[1, 41].

Kaptarxona – Farg‘ona vil. Farg‘ona t., qishloq nomi. Xalq etimologiyasiga ko‘ra, qishloqda kaptarlar ko‘p bo‘lganligi sababli qishloq Kaptarxona nomini olgan. Lekin hozirda qishloqda birorta kaptar boqiladigan yoki kaptarlar yashaydigan joy mavjud emas. Farg‘ona shevasida vaqtincha qo‘nim topiladigan joy ham “kaptarxona” deyiladi. Qishloqning joylashuviga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u Qirg‘iziston bilan chegaradosh hududda joylashgan bo‘lib, qishloq tog‘ yon bag‘irlariga juda yaqin. Taxminimizcha, chorvachilik bu hududda yaxshi rivojlanganligi sababli chorvador ko‘chmanchilar qishlash uchun qishloq hududiga qish oylarida kirib kelishgan. Qishloq nomi shundan kelib chiqqan bo‘lishi ham mumkin. Qishloq mahalliy aholisining millati esa tojik.

3. Informativ gidronimlar. Bunday gidronimlar jamoaviy nomlanish jarayonida suv havzasining sifati, ta’mi, hidi va suvining inson sog‘ligi uchun qanchalik muhimligini o‘zida mujjassamlashtirgan nomni oladi va axborot beradi.

Sassiqko‘l – Farg‘ona vil. Yozyovon t., ko‘l nomi. Farg‘ona va Marg‘ilon shaharlarining kanalizatsiya suvlari shu ko‘lga yig‘ilganligi sababidan badbo‘y hid chiqaradi, suvi ichishga yaroqsiz. Ko‘l nomi suv hidiga nisbat berilib nomlangan.

Achchiqko‘l – Farg‘ona vil. O‘zbekiston t., qishloq nomi. Achchiqko‘l – asli suv havzalaridan biri – ko‘lning nomi. Ko‘l suvining achchiqligi, o‘ta sho‘r ekanligi, iste’mol uchun yaroqsizligi ko‘lning shu tarzda nomlanishiga sabab bo‘lgan [4, 7]. Ko‘l nomi uning atrofidagi aholi punktiga o‘tgan.

Bo‘zariq – Andijon vil. Asaka t., mahalla nomi. Ko‘kish rangli, sovuq suv oqadigan ariqqa qo‘yilgan nom keyinchalik aholi maskaniga berilgan bo‘lishi mumkin [1, 41].

Damko‘l – Farg‘ona vil. Farg‘ona t., qishloq nomi. Ko‘l nomiga nisbat berilgan oykonim. Dam geografik termin bo‘lib, bu erda oqmas ko‘l ma’nosida qo‘llanilgan [1, 51].

Oydinbuloq – Farg‘ona vil. O‘zbekiston t., qishloq nomi. Ushbu joy nomi tarkibidagi oydin so‘zi toza, tip-tiniq ma’nosidadir. Oydinbuloq – suvi tiniq buloq, toza buloqli joy deb izohlanadi. Buvayda tumanidagi Oydinko‘l toponimi ham xuddi shunday ma’noni bildiradi. Qishloqning atalishiga ko‘l nomi asos bo‘lgan [4, 37].

Shirmonbuloq – Andijon vil. Xo‘jaobod t., qishloq. Toponimning birinchi komponenti **Chermon** so‘zining fonetik variantidir. **ch** va **sh** tovushlarining o‘zgarishi o‘zbek tiliga xos xususiyatdir. Chermon “o‘tloq, yaylov” ma’nosini bildiradi. Demak, **Shirmon buloq** “yaylovdagi buloq” ma’nosida [5, 149].

Sho‘rariq – Andijon vil. Uchqo‘rg‘on t., qishloq nomi. Sho‘r “sho‘r joy, sho‘r er” ma’nosini bildiradi. Umuman bu so‘z O‘zbekistonda ko‘plab toponimlar yasaydi, masalan **Sho‘rkent, Sho‘rqishloq, Sho‘rsuv, Sho‘rchi** kabi nomlar, Sho‘rariq “sho‘r erda oqadigan ariq” demakdir [5, 150].

Shirinbuloq – Namangan vil. Kosonsoy t., mahalla nomi. Suvning mazasi-ta’miga nisbatan olingan gidronimdan hosil bo‘lgan joy nomi [1, 162].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аҳмадалиев Ю.И., Отақулов П.С., Маматисаков Ж.Ж., Фарғона водийси: шаҳар, қишлоқ ва маҳалла номлари. – Фарғона: 2017. 215 б.

2. Дўсимов З.,. Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. 174 б.

3. Ибриқ Қувойи. Болали қайрағоч. – Тошкент: 2013. 39 б.

4. Қораев С. Географик жой номлари маъноси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1978.

5. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. 85 б.

6-SHU‘BA
O‘ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI

SHEVA – TILNI OZIQLANTIRUVCHI ILDIZ!

Zulxumor Xolmanova
ToshDO‘TAU professori,
filologiya fanlari doktori,
Feruza Sodiqova,
O‘zMU talabasi

Annotatsiya. *Maqolada shevalarning adabiy tilni oziqlantiruvchi manba sifatidagi o‘rni ko‘rsatilgan. Shevalarni o‘rganish, adabiy til so‘z boyligini oshirish, dolzarb masala ekanligi, shevalarning qadriyat darajasidagi xususiyatlari borasida so‘z yuritilgan. “Devonu lug‘otit turk”da qayd etilgan so‘zlarning hozirgi o‘zbek shevalarida saqlanib qolgani Yakkabog‘ shevasi materiallari asosida tahlil qilingan. Shevalardagi fonetik, leksik, grammatik xususiyatlar borasida fikr bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *adabiy til, sheva so‘zlari, fonetik, leksik, grammatik xususiyatlar, fonetik o‘zgarishlar, shevalar tasnifi, shevalar lug‘ati.*

Annotation. *The article shows the role of dialects as a source of nourishing literary language. The study of dialects, the increase in the vocabulary of the literary language, the relevance of this issue, and the value characteristics of dialects were discussed. On the material of the Yakkabog dialect, the preservation of the words mentioned in ‘’Devonian Lugoti Türk’’ in modern Uzbek dialects is analyzed. Opinions were expressed about the phonetic, lexical, grammatical features of dialects.*

Keywords: *literary language, dialect words, phonetic, lexical, grammatical features, phonetic changes, dialect classification, dialect dictionary.*

O‘zbek xalqining so‘z boyligi uning o‘tmishi va hozirgi kuni, butun imkoniyatlarini o‘zida mujassamlantiradi. O‘zbek shevalari milliy til rivoji uchun oziqlantiruvchi ildiz vazifasini o‘taydi.

2019-yil 21-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi farmoni e’lon qilindi. Farmon matnida bir qator chet so‘zlarning o‘zbekcha muqobilini topish, turkiy so‘zlarni faollashtirish masalasi alohida

ta’kidlangan. Shevalarni o‘rganish, shevalardagi so‘z boyligini ommalashtirish shu jihatdan ham dolzarbdir.

O‘zbek xalqi til jihatidan uchta yirik: qarluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalaridan tashkil topgan. Mazkur shevalarimizdagi so‘zlarni yig‘ib, lug‘at tuzib asramasak, bir kun kelib yo‘qolib ketishi mumkin. Bu haqida tadqiqotchi N. Shoyimova quyidagi fikrlarni bildiradi:

“Shevalar vakillari nutqida qo‘llanayotgan turfa lisoniy boylik to‘planib, saralanib lug‘at tarzida shakllantirilmasa, ular vaqt o‘tishi bilan eskirishi, iste’moldan chiqishi, natijada ma’naviy va moddiy madaniyatning ajralmas bir qismi izsiz yo‘qolib ketishi aniq” [3].

Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asarida qayd etilgan ko‘pgina so‘zlarning hozir ham tilimizda ishlatilishda davom etayotganligi shevalar tilni oziqlantiruvchi manba sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” ida yig‘ilgan so‘zlarning ko‘plari hozirgi adabiy tilida faol qo‘llanadi: *qatlama* (yog‘da pishirilgan qat – qat non), *supurgi*.

“Devoni lug‘otit turk” dagi bir qator so‘zlar o‘zbek shevalarida saqlanib qolgan: qor - *ko‘nargi, uyutqi,* ba’zi hududlarda: *qor*.

Mahmud Koshg‘ariy o‘z davridagi so‘zlarni yig‘ib kitob holida meros qilib qoldirgan. Oradan 9 asr o‘tib olimlar Koshg‘ariy faoliyatining amaliy ahamiyatini anglab yetgan holda, bevosita uning faoliyatini davom ettirdilar. Tilshunos olim G‘.Yunusov o‘zi to‘plagan juda boy faktik materiallarga suyangan holda 1936-yili professor E.D.Polivanov tasnifidan keyin o‘zbek shevalarini birinchilardan bo‘lib guruhlagan. G‘.Yunusov va boshqa ko‘plab olimlarning samarali mehnati tufayli o‘zbek shevalarining boy materiali to‘plandi, o‘zbek dialektologiyasi fani shakllandi.

O‘zbek shevalarni fonetik, leksik va grammatik jihatdan tasniflash mumkin. O‘zimiz yashab turgan, hozirgi davrda kam ishlatiladigan so‘zlarni jamlab o‘zbek tili shevalarining mukammal izohli lug‘atini tuzish kun tartibidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Unga o‘zbek xalqi ishlatadigan barcha so‘zlarni qayd qilish amaliy ahamiyatga ega.

Quyida Qashqadaryo viloyati Yakkabog‘ tumani shevasi misolida shevalarning yuqoridagi uch jihatini adabiy til bilan solishtirib ko‘ramiz.

Fonetik jihatdan:

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida	**Yakkabog‘ shevasida**
kosa	kasa
yur	jur

[3] 70(169).Шоимова Н. Шевалар луғатини яратиш - давр талаби // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (Илмий мақолалар тўплами). - Т.,2008. – Б. 202-204.

piyola	piyla
tuproq	turpoq

Leksik jihatdan:

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida	**Yakkabog‘ shevasida**
chiqindi	qo‘qim
kuzatmoq	ser solmoq
ergashmoq	iyarmoq
mehmonga bormoq	qidirmoq
mog‘orlamoq	panglamoq
mudramoq	mulgimoq

Grammatik jihatdan:

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida	**Yakkabog‘ shevasida**
boryapmiz"	boryappiz"
uyda turibman	uyga turibman

Ko‘p tomli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da adabiy tilda faol qo‘llanadigan so‘zlar bilan bir qatorda o‘zbek tilining asosiy lug‘at boyligi sifatida ayrim sheva so‘zlari ham keltirilgan. Mazkur lug‘atda Qashqadaryo shevalarida qo‘llaniladigan bir qator leksik birliklar ham qayd etilgan: *lo‘la* (437-bet), *yaktak* (478- bet), *chelak* (169- bet), *bargak* (29- bet) [4]. Shunga o‘xshash ko‘plab so‘zlarimiz mavjud. Ularning hammasini jamlab “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ga kiritish kerakligi naqadar zarurligini barcha filologlar his qilyapti, menimcha. Shevalarda lug‘atlarda, deyarli, qayd etilmagan bir qancha so‘zlarimiz mavjud. Ulardan ayrimlariga to‘xtalamiz:

Kiyimlarni ifodalovchi so‘zlar:

Yakkabog‘ shevasida	**Hozirgi o‘zbek adabiy tilida**
shapish	qalpoqni ichidan kiyiladigan shapkacha
kuttacha	nimcha
jilak	bobolar kiyadigan xalat
jilak	yopinchiq
jilap	paypoq
po‘pak	sochga taqiladigan jamalak
mog‘orlamoq	panglamoq
mudramoq	mulgimoq

[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати.I-V жилдлар.-Тошкент, 2006-2008.

pichak	ichiga ismaloq solib tandirga yopiladigan, ustiga qaymoq surtib yeyiladigan yegulik
zor ddali	o‘rik
itburun	na’matak
olivali	olcha
elovrash	bosinqirash
selgimoq	qurimoq
hashshakalla	baribir
ximich	cho‘p
ruvaray	bora- bora

Oziq - ovqat mahsulotlarini bildiruvchi sheva so‘zlari orasida o‘zbek xalqining o‘zigagina xos bolgan taom nomlari, realiyalar uchraydi: ***qurttovo*** - qurtni ezib suvda qaynatib, ustiga saryog‘ qo‘yib yeyiladigan taom; ***jachmich*** - yangi pishgan nonga saryog‘ aralashtirib yeyiladigan taom; ***to‘ntarma*** - qaymoqqa unni qo‘shib qovurib tayyorlanadigan taom.

Yakkabog‘ shevasida o‘ziga xos ibora va birikmalar ham uchraydi: ***suroving yo‘q*** - bir ishni eplolmaydigan; ***buk havo*** - dim havo.

Bunday misollarni ko‘plab keltirishimiz mumkin.

O‘zbek tili shunchalar so‘zga boy, biz o‘zimiz bunga parvo qilmaymiz. Bu ham yetmagandek, o‘z tilimizga boshqa tillardan so‘z qo‘shamiz. Go‘yoki rus, ingliz tillaridan so‘z qo‘shib gapirsak “aqlli” hisoblanamiz. Ana shu “aqllilar” qatlami vakillarining asosiy qismini ziyoli aholi tashkil qilgani ajablanarli hol. Shunday ekan, biz, avvalo, ziyoli qatlam vakillarini tarbiyalashimiz kerak. Axir uyda, oilada ham bola onasiga taqlid qiladi. Ziyolilar o‘zbek tiliga boshqa tillarni qorishtirib gapirganlarida oddiy xalqdan nimani kutish mumkin?

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, shevalar bizning madaniyatimizni kelajak avlodga yetkazuvchi vositalardan biridir. Shuning uchun barchamiz shevalarni iloji boricha ko‘proq to‘plab, hammamiz bir tan-u bir jon bo‘lib, bu so‘zlarni ommalashtirishga harakat qilishimiz kerak.

Prezident farmoni mazmunidan kelib chiqqan holda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzurida shevashunoslik markazi tashkil etildi. Ushbu markazning faoliyatiga muvaffaqiyat tilaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. -B. 116-117.

2. Enazarov T. O‘zbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot. –Toshkent: Mahalla va oila, 2021. – B. 40-41.
3. Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан, 1991. – B. 3-407.
4. Шермухамедова Н. А. Илмий тадқиқот методологияси. –Тошкент: Fan va texnologiyalar, 2014. – B. 5-483.

DIALEKTAL LEKSIKADA SINONIMIYA

Musayeva Feruza Toraxanovna,
O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti doktoranti
musayeva.feruza2016@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘zbek tilidagi dialektal sinonimiyaga bag‘ishlangan bo‘lib, tildagi sinonimiya bilan shevalardagi sinonimiyaning farqi, dialektal sinonimiyaning o‘ziga xos xususiyati, uning yuzaga kelish sabablari yoritilgan. O‘zbek dialektal leksikasidan to‘plangan material asosida dialektal sinonimiya omillari bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *dialektal sinonimiya, lisoniy aloqa, areal tilshunoslik, semantik farq, konnotativ ma’no, salbiy baho.*

Annotation. *This article is devoted to dialectal synonymy in the Uzbek language. Author researches the difference between synonyms in the language and synonyms in dialects, the peculiarities of dialectal synonymy, the reasons for its occurrence. Factors of dialectal synonymy are described on the basis of material collected from the Uzbek dialectal lexicon.*

Keywords: *dialectal synonymy, linguistic connection, areal linguistics, semantic difference, connotative meaning, negative evaluation.*

Turkiy tillar shevalari bo‘yicha to‘plangan boy faktik material “turkiy tillarning birortasi ham o‘zbek tilidagi kabi turli-tuman dialektal farqqa ega emas...” [Поливанов, 1933:3] deya xulosa yasashga asos beradi. O‘zbek tilining bunday ranginligi va boyligi Sh. Shoabdurahmonov fikriga ko‘ra barcha sheva va lahjalarda turkiy qabila va urug‘larga xos xususiyatlar bilan bir qatorda, turkiy bo‘lmagan etnik elementlarning ham ta’siri [Шоабдураҳмонов, 1962: 8] bilan bog‘liq.

O‘zbek tilining dialektal jihatdan rang-barangligi va boyligi paradigmatik munosabatlardan biri – sinonimiyada ham yaqqol ko‘rinadi. Shevaning leksik tarkibi barqaror ko‘p tomonlama munosabatlar bilan bog‘langan unsurlardan iborat tizimdir. Har tomonlama munosabatlar deganda so‘zlarning mavzuiy,

leksik-semantik maydonlarga birlashishi, sinonimiya, antonimiya, omonimiya, polisemiya kabi hodisalar, tur-jins munosabatlari va hokazolar tushuniladi. Dialektal leksikani qamrab olgan paradigmatik munosabatlar mavzuiy va leksik-semantik guruhlarda ko‘proq namoyon bo‘ladi.

Dialektal sinonimiya deganda L.I.Barannikova “bitta sheva yoki hududiy jihatdan yaqin shevalardagi bitta grammatik kategoriya doirasidagi ma’nosi aynan yoki yaqin bo‘lgan so‘zlar”ni tushunadi [Баранникова, 1968:101-121]. Ushbu tadqiqotimizda o‘zbek tili shevalaridagi sinonim so‘zlar dialektal sinonimlar sifatida tadqiq etilgan.

O‘zbek shevalari leksikasidan to‘plangan materiallar o‘zbek shevalarida bitta so‘zning 5-6 tagacha dialektal sinonimlari mavjudligini ko‘rsatdi. Mavzuiy jihatdan qaraydigan bo‘lsak, eng ko‘p sinonimik qatorlar fitonimiya, zoonimiya, maishiy leksika kabilarda uchraydi. Adabiy tilda “na’matak” shaklida uchraydigan fitonimning o‘zbek shevalarida quyidagi variantlari uchraydi: **na’matak** – *itburun, ajinabuta, ajinapitta, gulbuta, hulo‘l, jingul, bog‘gul*, *xorgul, hargul*. “Yalpiz” fitonimining *hulvo, pudina, pidina* kabi dialektal sinonimlari ma’lum. Non yopishda qo‘llanadigan “nonpar” uy-ro‘zg‘or buyumining dialektal variantlari quyidagi sinonimik qatorni tashkil etadi: nonpar – *tikach, chekich, chakich, duki*.

O‘zbek tilida sinonimiya hodisasini chuqur o‘rgangan N.Mahmudov sinonimik qatorni tashkil etuvchi so‘zlar qaysdir jihatlari bilan bir-biridan farqlanganligi uchun tilda alohida leksik birlik sifatida yashashi mumkiniligi, agar shunday farq bo‘lmasa, bu farqning ifodalanishi lisoniy-mantiqiy muloqot muvozanati uchun qimmat bilan yukunmasa, sinonimlar deyiladigan ulgurji lisoniy zaxira tilga mutlaqo ortiqcha va keraksiz yuk bo‘lib qolishini e’tirof etadi [Маҳмудов, 2021: 4-5]. Darhaqiqat, sinonimlar semantik, uslubiy, konnotativ jihatdan o‘zaro farqlanmas ekan, ularning tilda yashab qolishi amrimahol. Bir til doirasidagi shevalarda bir ma’noli so‘zlarning mavjudligi va ularning muvafaqiyatli qo‘llanishi iste’mol doirasi bilan izohlanadi. Ya’ni dialektal sinonimik qatorni tashkil etuvchi birliklarning ayrimlari bir guruh shevalarda qo‘llansa, boshqalari boshqa guruh shevalarda qo‘llanadi, ular bir iste’mol doirada kesishmaydi, shuning uchun yashashda davom etadi. Masalan, *ostona-bo‘sag‘a-poygak-adan-irga* sinonimik qatordagi *bo‘sag‘a* birligi ko‘proq qipchoq guruhi shevalarda qo‘llansa, *poygak* qorluq guruhi shevalarida uchraydi, *adan* esa Xorazm shevalariga xos. *Qalampir-garmdori-burch-qizdori* sinonimik qatorni tashkil etuvchilardan *qalampir* va *garmdori* qolganlarga nisbatan faol bo‘lib, ayrim shevalarda garmdori qo‘llansa, ayrimlarida qalampir qo‘llanadi, *burch* bu ma’noda asosan Xorazm shevalarida uchraydi, qizdori leksemasi Iqon shevasida qayd etilgan, bu shevada *qalampir, garmdori* birliklari qo‘llanmaydi. Bir sheva

doirasidagi sinonimlar yuqorida qayd etilganiday, semantik, konnotativ ma’nosiga ko‘ra yoxud baho munosabatiga ko‘ra o‘zaro farq qiladi, bu ularning bir sheva doirasida yashab qolishini kafolatlaydi. Masalan, yuqorida qayd etilgan *ostona* sinonimik qatordagi Payariq shevasiga xos *irga* dialektizmi so‘zi boshqalardan semantik jihatdan biroz farq qilib, “uy ichining poygaki” ma’nosini bildiradi. Shuningdek, *zinapoya-pillapoya-oshqultoq-paymancha* dialektal sinonimik qatordagi *paymanchak* dialektal sinonimik qatordagi boshqa birliklardan semantik jihatdan biroz farq qiladi. Bu so‘z Farg‘ona shevalarida uchraydi, uning ma’nosini Isajon Sulton quyidagicha izohlaydi: “Misol uchun, men tug‘ilib o‘sgan qishloqda “paymanchak” degan so‘z bor. U – soy, ko‘l yoki daryo bo‘yida suv olish uchun o‘yilgan zinapoyadir” [4]. Shu sinonimik qatordagi oshqultoq semantik jihatdan farqlanmaydi, bu so‘z Iqon shevasida uchraydi; iqonliklar *pillapoya*, *zinapoya* so‘zlarini ishlatmaydi. Bu shevada *o‘rganmoq-danikmoq* so‘zlari qayd etilgan bo‘lib, *o‘rganmoq* konnotativ jihatdan neytral bo‘lsa, *danikmoq* salbiy konnotatsiyani ifodalaydi. Soyim Ishoqovning tarixiy mavzuda yozilgan “Qabrdan chiqqan qul” asarida bu so‘z neytral ma’noda uchraydi: *Yo‘lda ko‘p toliqdi, shul vajhdin besh-o‘n kun ayovlab turursiz. Uy va do‘kon yumushlaridan o‘zgasig‘a* ***danikmagonliqin*** *hisobg‘a olursiz. Nasib etsa, kelasi yili shu maxallarda qaytarib olib keturmen. Shung‘a roziliq berurmusiz?* Demak, bundan xulosa chiqadiki, aslida neytral ma’noli bu so‘z Iqon shevasida salbiy konnotatsiyani ifodalashga ixtisoslashgan. Shu kabi bu shevadagi *xursand-ma:z* sinonimik qatordagi *ma:z* birligi ham *xursand*dan salbiy konnotatsiya bilan ajralib turadi: kesatish, chandish, tegishish maqsadlarida *ma:z* birligi qo‘llanadi, so‘zlovchi ijobiy munosabatini bildirmoqchi bo‘lsa, *xursand* so‘zini qo‘llaydi. *Ozg‘in-tirjiq* sinonimik qatordagi Zomin shevasiga xos *tirjiq* dialektal sinonimi ham salbiy konnotatsiyani bildiradi.

Dialektal sinonimiya yuzaga kelishining sabablari leksik sinonimiya singari rang-barang. Ularni quyida ko‘rib chiqamiz.

1. Yuqorida qayd etganimizdek, o‘zbek tili shevalari murakkab genetik tuzilishiga ega. Agar qirg‘iz, qozoq tillari qipchoq lahjasi, turkman tili o‘g‘iz lahjasi asosida shakllangan bo‘lsa va ularning asosini mana shu lahjalarning fonetik, grammatik va morfologik xususiyatlari tashkil etsa, o‘zbek tili uchala lahjani o‘z ichiga oladi va demakki, o‘zbek shevalari leksikasida mana shu lahjalarga oid leksik birliklar saqlanib qolgan va ular, o‘z navbatida, dialektal sinonimiyani yuzaga keltiradi. o‘zbek shevalari tarkibida uchta lahjaga oid leksemalar borki, ular sinonimik munosabatga kirishib dialektal sinonimiyani yuzaga keltiradi. Xususan, *boshqorong‘i* – ***jerik*** sinonimik juftlikdagi *jerik* birligi qipchoq lahjasiga, *chaqaloq* – ***bavak*** sinonimik qatoridagi *bavak* leksemasi o‘g‘uz

lahjasiga, *kerilmoq* – ***mardaymoq*** sinonimik juftlik tarkibidagi **mardaymoq** qorluq lahjasiga xos.

2. Dialektal sinonimiyani yuzaga keltiruvchi omillardan biri – lisoniy aloqalardir. Ma'lumki, o'zbek tilli aholi uzoq vaqtlar davomida tojik, qozoq, qirg'iz tilida so'zlashuvchi aholi bilan yonma-yon yashagan. Tabiiyki, nafaqat o'z tilida ifodaga ega bo'lmagan leksik birliklar, balki tilda nomlangan birliklarga sinonim bo'lgan leksemalar ham faol o'zlashgan. Bu turdagi dialektal sinonimiya tojik va o'zbek millati, o'zbek va qoraqalpoq millati vakillari yonma-yon yashaydigan hududlarda ko'proq uchraydi. Xususan, chillak o'yini Buxoro shevalarida tojikchadan o'zlashgan **akkol** so'zi bilan ifodalanadi, Qashqadaryo shevalarida *oyog'i qiyshiq* ma'nosida tojikcha **kachal** so'zi qo'llanadi, qoraqalpoq xalqiga yaqin o'zbek shevalarida saksovul **sozoq** so'zi bilan yuritiladi. Demak, bu yerda o'zbek-tojik, o'zbek-qoraqalpoq dialektal sinonimiya yuzaga kelgan. *Beshik-gavra,* ye*lka-shona (Olot), boshqorong'i-gudoyish, dujon-homilador* dialektal sinonimlar ham o'zbek-tojik lisoniy aloqalari natijasidir. Umuman olganda, lisoniy aloqalar dialektologiya sohasining yo'nalishi bo'lmish areal tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri sanaladi. Tillarning o'zaro aloqasi tillardagi ko'pgina hodisalarni tushuntirib berishi mumkin.

3. Dialektal sinonimiya yuzaga kelishida so'z ijodkorligining o'rni ham katta. Dialektal leksika tahlili tildagi barcha lisoniy jarayonlar (so'z yasalishi, so'z o'zlashtirish, ma'no kengayishi, ko'chma ma'no hosil bo'lishi va h.k.) shevalarda ham faol kechishini yana bir karra isbotladi. Ayrim shevalarda dialektal sinonimik qatorni tashkil etuvchi biror birlik faol, boshqasida boshqasi faolligi tufayli shevalarda ular yordamida yasalgan yasama so'zlar ham o'zaro sinonim bo'lib qolishi mumkin. Masalan, *yashirinmoq-berkinmoq-gizlanmoq* sinonimik qatorini tashkil etuvchi so'zlardan turli shevalarda bolalar o'yini nomi yasalgan bo'lib, ular dialektal sinonimiyani yuzaga keltirgan: *yashinmachoq-yashintopaloq-berkinmachoq-gizlanmachoq.* Yoki *tuyaqumursqa-tuyachumoli* sinonimik qatorini olaylik. Oyoqlari uzun, katta chumoli ma'nosini bildiruvchi bu birliklar turli shevalarda *chumoli* va *qumursqa* sinonimik birliklari asosida hosil bo'lgan. *Ninachi-tamanchi* (Qo'shko'pir) sinonimik qatordagi *tamanchi* dialektal sinonimi ham *taman* (juvoldiz) dialektal sinonimi asosida hosil bo'lgan. Umuman olganda, so'z ijodkorligi asosida hosil bo'lgan dialektal sinonimlarning o'zini ikki guruhga ajratish mumkin: 1) leksemalar asosida hosil bo'lgan dialektal sinonimlar; 2) affikslar yordamida hosil bo'lgan dialektal sinonimlar. *Yoztovuq-yobontovuq* (qirg'ovul), *qoraparang-qorashirg'ay* (qoramag'iz) dialektal sinonimlari leksemalar asosida hosil bo'lgan dialektal sinonimlardir. *Chinachoq-chinatoy-chinaqay* (jimjiloq), *yengicha-engsak* dialektal sinonimlar bir asosdan, ammo turli affikslardan yasalgan.

Xulosa qilib aytganda, bizni qurshab turgan olamdagi narsa-buyumlar va voqea-hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, semantik o‘xshashlik va farqlar yaxlitligini aks ettiruvchi rivojlangan sinonimik qatorlar semantik makonni tashkil etish xususiyatlarini aks ettiradi. Chuqur semantik asosga ega boy leksik sinonimiya sheva egalarining voqelikni o‘ziga xos qabul qilishi va talqin etishini isbotlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маҳмудов Н. Синонимлар – тил зангинлиги ва рангинлиги кўзгуси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2021. – №4.

2. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент, 1933.

3. Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқ шевалари. – Тошкент, 1962. – Б. 8.

4. https://xs.uz/uzkr/post/zhon-ichra-zhonim-mening

LISONIY SHAXSNI BELGILASHDA DIALEKTAL OMIL

Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna
ToshDO‘TAU dotsenti, PhD
umurzakovamarkhabo@gmail.com

***Annotatsiya**. Maqola badiiy matnda lisoniy shaxs va uni belgilovchi omillar xususida so‘z yuritiladi. Lisoniy shaxsni belgilashda dialektal omilning belgilari yoritiladi.*

***Kalit so‘zlar.** Lisoniy shaxs, dialektal so‘zlar, idiolekt, sheva egasi, sotsiolekt*

***Annotation.** The literary text of the article deals with the linguistic personality and the factors that determine it. In defining a linguistic personality, the signs of the dialectal factor are highlighted.*

***Keywords.** Linguistic personality, dialectal words, idiolect, dialect, sociolect*

Lingvopersonologiyaning asosiy masalalaridan biri har bir til egasining lisoniy shaxs sifatida tildan foydalana olish imkoniyatlarini ko‘rsatib berish, ularning tildan foydalanishdagi o‘ziga xosliklarni yoritishdan iboratdir. Badiiy matnda lisoniy shaxs bevosita yozuvchining tildan foydalana olish imkoniyatining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Tilshunoslikda bu borada qilinayotgan ishlarda til egasiga lisoniy shaxs sifatida qarash, turli lisoniy shaxs tiplarini ajratish masalasi ustuvorlik qiladi.

Lisoniy shaxs sifatida so‘z yuritilar ekan, avvalo, har bir shaxsning til egasi sifatida ma’lum bir shevaga mansubligini yoddan chiqarmaslik kerak. Tilshunoslikda lisoniy shaxsni o‘rganishga oid qator tadqiqotlar mavjud. V.D.Lyutikova lisoniy shaxsni dialekt egasi sifatida o‘rganib, uning nutqiga xos dialektal belgilarni tahlil qilgan [2]. Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag‘ishlangan ishlarda ham badiiy matnda qahramon nutqining individualligini ta’minlashda sheva so‘zlarining o‘rni va ahamiyati kattaligi alohida ta’kidlanadi. Xorij dilaektologiyasida idiolekt tushunchasi mavjud bo‘lib, u yakka shaxslarga xos bo‘lgan nutqiy o‘ziga xoslikni ifodalaydi [1.16].

Badiiy matnda qahramon nutqini berishda yozuvchilar asosiy hollarda ularning hududiy mansubligini ko‘rsatish uchun shevaga xos so‘zlardan foydalanadilar. Matnlarni lingvopersonologik tahlil qilish jarayonida bir personajning nutqida ham dialektal, ham ijtimoiy qatlamiga xoslik elementlarini ko‘rishimiz mumkin.

– Siz bunaqa fikriz bilan nima qip adashib kepqoldiyz o‘zi bo‘tlaga, a? Sudga borsam, uyyi, hovli-joyyi yarmini ukamga xatlab berishadi-ku! Munday kallani ishlatin, brat, kallani!..

– Toshdomla nima derkin endi?

– Kecha kirganman oldilariga. Bo‘ladi, o‘n kun qatniysan, didila.

– Keyin-chi?

– Nima keyin? Ukam o‘z ixtiyori bilan merosdan voz kichadi. Shunaqqip berishga kelishdu.

– Kelishdik?

– Ha, kelishdu. To‘g‘ri, biroz qimmatroqqa tushvomman. Maylide, manga qovotgan meros oldida bu nimaym bo‘lardi (U.Hamdam).

Quyidagi misolda ham shevaga xos so‘zlardan foydalanish orqali yozuvchi lisoniy shaxsning qaysi sheva vakili ekanligini ko‘rsatib bergan. Lisoniy shaxs nutqidagi fonetik o‘ziga xoslik, tinglovchiga mensimaslik nazari bilan qarash, o‘ziga ishonch ohanglarini berishda tovushlarning o‘ziga xos tarzda ifodalanishi ham muhim rol o‘ynagan.

– Ha-a, yigitcha, yoqmadimi? – Odamni teshib yuboradigan piching ohangida dedi “ma’bud”, – yaxshi-yaxshi, borvur, ertaga holin bundan battar bo‘ganda yana emelab kelasan-ku! Borvur! Sandaqalani ko‘p ko‘rganmiza.

– Bundan battari bo‘lmaydi! Emaklab qolsam ham sizni oldizga boshqa kelish yo‘q! – Po‘lat bir kilo go‘shtning pulini sanab “ma’bud”ning oldiga qo‘ygandi, chol shoshib uni sanay ketdi (U.Hamdam).

Quyidagi parchada Andijon shevasiga mansub bo‘lgan ayol lisoniy shaxsi va o‘g‘il lisoniy shaxsini shakllantirishda yozuvchi *buvi, o‘shag‘larni* leksik birliklaridan foydalangan.

– Yo‘q, buvi, siz nimanidir yashirayapsiz?

Halima aya gap topolmay kalovlandi.

– Hech nimani yashirayotganim yo‘q, og‘lim. Faqat sizlarning qiynalayotganingizni ko‘rib o‘pkam to‘lib ketdi. Qo‘y, o‘g‘lim, o‘shag‘lani (U.Hamdam).

– Quyidagi matnda ham qo‘llanilgan *ena, ovo* dialektal birliklari ham hududiy jihatdan mansublikni ifodalash uchun xizmat qilgan.

– O‘g‘lim, bir qarindoshlarni ko‘rib kelsang bo‘lardi. Enang ham o‘zini ancha oldirib qo‘ygan. To‘shakka tushib qolgan. Hozir Kenjavoy ovongnikida (U.Hamdam).

– Badiiy matnda qo‘llanilgan shevaga xos so‘zlar hududiy jihatdan mansublikni bildirish orqali lisoniy shaxsni ifodalash bilan birga, murojaat odobi, o‘zbeklarga xos kattalarni hurmat qilish xislatlarini ham ifodalaydi.

– Apa, bir duo qiling, – Kenjavoy aka xotini-yu bolalari davrasida duoga qo‘l ochib turar edi (U.Hamdam).

Ma’lumki, shevaga ko‘ra farqlanish nutqning muhim belgilaridan biri sanaladi. Ayniqsa, so‘zlashuv nutqida shevaga xos belgilar yorqin ko‘zga tashlanadi. Til egalarini ular nutqida qo‘llangan sheva materiallari asosida lisoniy shaxs tiplariga ajratish mumkin bo‘ladi. Masalan: Toshkent shevasiga xos lisoniy shaxs tipi, Andijon shevasiga xos lisoniy shaxs tipi kabi. Quyidagi nutq parchasiga e’tibor qaratamiz:

– Allo, Marfua, qalaysan? Bormisanla? Ertalabdan beri telefon qilaman, omiysila? Hm... Allo, bugun ering bilan kellaring. Xo‘jayinim “Den rojdeniya”lari bilan moshinasini yuvvotdila. Yengisini. Ha, oldila. Mers. Olti yuz. Hammaligini etdim. Bitta sila qoluvdila. Xo‘p, poka.. (U.Hamdam).Ushbu nutq parchasida qo‘llangan *qalaysan, bormisanla, omiysila, kellaring, moshina, yuvvotdila, yengisini, oldila, hammaligini etdim, sila qoluvdila* birliklari nutq egasining Toshkent shevasi vakili ekanligini anglatadi. Yuqorida ko‘rgan matnlarimizda esa Andijon shevasi vakillarining lisoniy shaxsi ifodalangan edi.

Lisoniy shaxsni belgilashda dialektal omil sifatida faqat shevaga xos so‘zlargina emas, morfologik belgilar, gapning sintaktik qurilishidagi o‘ziga xoslik ham inobatga olinadi. *Amir, Tilovberdini berman yubor! Tilovberdi, munda ke!* (T.Murod). Bu o‘rinda lisoniy shaxsning o‘ziga xosligini ifodalashda shevaga xos bo‘lgan grammatik shakllar (*berman, munda*) muhim vosita bo‘lib kelgan. Lisoniy shaxsni belgilashda dialektal omilni belgilashda uch jihatda e’tibor qaratish zarur: shevaga xos so‘zlar, grammatik shakllar va sintaktik qurilish. Gapning sintaktik qolipiga qarab har doim ham lisoniy shaxsning hududiy jihatdan xoslanganligini belgilab bo‘lmaydi. Chunki har bir shaxs o‘ziga xos

tarzda nutq tuzadi. Nutq tuzishga qodir bo‘lgan har bir til egasining nutqini o‘rganish lingvopersonologiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. – М.: Перемена, 2002. – 477 с.
3. Караулов Ю. Н. Русская языковая личность и задачи ее изучения // Язык и личность. – М.: Наука, 1989. – С. 3-8.
4. Лутфуллаева Д., Худойберганова Д. Тилшуносликда лисоний шахс муаммоси // Ўзбек тили ва адабиёти. 2017. №.6. – Б.36-37.
5. Лютикова В. Д. Языковая личность: идиолект и диалект: Автореф. дисс. … док. филол. наук. - Екатеринбург, 2000. - 41 с.
6. Ниязова Д.Бадиий матнда лисоний шахс типлари. Филол.фан. бўйича фалсафа док. дисс. – Қарши. 2020.

“O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI”NI YANADA BOYITISH YO‘LIDAN

Tojiboyev Botir Raximjonovich
ToshDO‘TAU dotsenti, PhD
botirtajiboyev19@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Namangan viloyati Chortoq tumani Peshqo‘rg‘on qishlog‘ida ko‘p davrlardan beri faol qo‘llanishda bo‘lgan, ammo «O‘zbek tilining izohli lug‘ati» ga kiritilmagan so‘zlar haqida so‘z yuritilgan. Ushbu shevada keng qo‘llanuvchi so‘zlarni izohli lug‘atga kiritish zarurligini amaliy jihatdan tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *O‘ngar, tiriz, tirja, cho‘g‘aloq, olvali, so‘ta, olcha, olxo‘ri, sheva, lahja, qipchoq, singarmonizm.*

Annotation. *The words which are used actively in Chartak District from Namangan region in the Peshkorgon village of many times, but a word about the words that are not included in the Uzbek language dictionary conducted in this article. In this dialect, the words widely used in practice is practically analyzed the need for an explanatory dictionary.*

Key words: *kipchak, singormonism, o‘ngar, tiriz, tirja, cho‘g‘aloq, olvali, so‘ta, olcha, olxo‘ri, sheva, lahja,*

Sanoat va fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida o‘zbek tiliga zavod, fabrika, traktor, mashina, poyezd, avtomat, metro, kompyuter, telefon kabi yuzlab, hatto minglab so‘zlar o‘zlashdi.

Ona tilimizda muqobili yo‘q bu so‘zlarni ma’naviy boyligimiz sifatida qadrlaymiz va ularning barcha turdagi lug‘atlardan o‘rin olishi tabiiy hol. Shu tariqa o‘zbek tilining lug‘at boyligi ko‘payib boradi va har birimiz bu voqelikka emin-erkin munosabatda bo‘lishimiz darkor. Afsuski, mazkur ijobiy rivojlanish bilan bir qatorda sho‘ro tuzumi davrida ona tilimiz taraqqiyotida ayrim muammolar yuzaga keldi. Jumladan, ona tilimizda viloyat, tuman, zaxira, guruh, kotib, hakam, haydovchi, shifokor, reja, hisobchi, iqtisodchi, shartnoma, buyurtma, usta, murabbiy kabi so‘zlar bo‘lgani holda majburiy ravishda oblast, rayon, zapas, gruppa, sekretar, sudya, shofyor, vrach, plan, buxgalter, ekonomist, dogovor, zakaz, master, trener kabi ruscha-baynalmilal so‘zlardan foydalanishga odatlandik [5.124]. Sho‘ro tuzumi davrida chop etilgan ikki jildlik “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 2006–yilda besh jildlik ko‘rinishda bosmadan chiqdi. Albatta, bundan barchamizning boshimiz ko‘kka yetdi. Ona tilimizga e’tibor tufayli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” orzumizdagi kabi nashr etildi. O‘shandan buyon bu noyob nashr ko‘pchilikning stoli ustida turadi. Ayniqsa, o‘qituvchi va o‘quvchilar undan ko‘p foydalanadi.

Ammo shunday bo‘lsa-da, oradan 16 yil vaqt o‘tib ushbu lug‘atni ham qayta ishlab to‘ldirish kerak degan fikrlar o‘rtaga tusha boshladi. Biz bu holatni ham tabiiy qabul qilamiz. Chunki, barchamizga ma’lumki, jamiyatdagi har qanday o‘zgarish birinchi navbatda o‘zbek tili lug‘at tarkibida o‘z aksini topadi. Shunday ekan jug‘atlar ham zamon bilan, jamiyat bilan qadam-baqadam yurmog‘i lozim.

Bilamiz-ki, lug‘atlar ichki va tashqi manbalar hisobiga boyib boradi. Fikrimizcha, qaysidir narsa-predmetni yoki voqea-hodisani ifodalash uchun yangi so‘zga ehtiyoj tug‘ilsa, shevalarimizga ko‘proq tayanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bordi-yu shevalarimizda bunday imkoniyat bo‘lmasa, tashqi manbaga, ya’ni chet tillaridan so‘z o‘zlashtirishga majbur bo‘lamiz. Ayrim paytlarda shevalarda shu tushunchani ifodalovchi so‘z bo‘la turib chetdan so‘z o‘zlashtirish yoki bir necha narsa-predmetni, boshqa-boshqa voqea-hodisalarni bir so‘z bilan atash holatlariga ham duch kelmoqdamiz. Masalan, Namangan viloyati Chortoq tumanining Peshqo‘rg‘on qishlog‘ida pishgan mevasi qizilqora rangda bo‘ladigan daraxtni olvali deb atashadi [4.114]. Olvalining yonida pishgan mevasi sariq qizg‘ish tusli olcha daraxti ham o‘sadi. Ko‘plab hamqishloqlarimiz hovlisida olvali va olcha bilan birga pishgan mevasi qizil rangli va kattaligi yong‘oqdek-

yong‘oqdek keladigan olxo‘ri daraxti ham bor. Boshqacha aytganda olvali — olcha va olxo‘ridan mutlaqo farqlanuvchi daraxt. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa “olvali”ning ma’nosi “olcha yoki olxo‘ri” deb ko‘rsatilgan. O‘zi “olvali”. U qanday qilib yana “olcha” yoki “olxo‘ri” bo‘lib qoladi? O‘zbek tilining izohli lug‘atiga kirmay qolgan, kirgan bo‘lsa ham noto‘g‘ri izoh berilgan so‘zlar qatorini yana davom ettirish mumkin. Masalan, makkajo‘xorining donli va donsiz ko‘rinishiga bir xil, ya’ni “so‘ta” deb izoh beriladi[5]. Qanday qilib ikki xil predmetni bir so‘z bilan ifodalanishi mumkin? Donsiz holatdagi o‘zakni ifodalovchi so‘z o‘zbek tilida yo‘qmi?

Bor! Topsa bo‘ladi! Faqat buning uchun mashaqqat chekish, izlanish lozim. Bizning qishloqda[6] so‘taning donsiz o‘zagi “cho‘g‘oloq”, deyiladi. Balki boshqa shevalarda bu so‘zning yana muqobili bordir.

Nima bo‘lganda ham so‘taning donsiz o‘zagini ifodalovchi so‘z “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dan o‘rin olgani ma’qul.

Bu “cho‘g‘oloq” bo‘ladimi yoki boshqa so‘z lug‘atchilarning ixtiyorida.

Ko‘pchilik izohli lug‘atda shevaga xos so‘zlar berilmaydi, degan mulohazada yuradi. Aslida esa bunday emas. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da ham ma’nosi izohlangan shevaga xos so‘zlar uchraydi.

Masalan, “zak” (zax), “zambur” (qovoqari). Bizningcha, “zak” ning shevaga xos so‘z sifatida berilishi biroz bahsli. Chunki, bu so‘z shunchaki “zax” so‘zining buzilgan shakli. Xalqimiz nutqida “zambur” so‘zi ham u qadar ommalashmagan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” adabiy so‘zligimizga asoslangan ekan, bu kabi shevaga xos so‘zlarning unga kiritilishi foydalanuvchilar orasida bahs-munozara uyg‘otib, ikkilanishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Lug‘atga kiritilishi shart bo‘lmagan shevaga xos so‘zlar o‘rniga xalq nutqi va adabiy asarlarda uchraydigan boshqa so‘z namunalariga o‘rin ajratilishi maqsadga muvofiq.

Endi yana boshqa bir so‘zga e’tiboringizni qaratmoqchimiz. Barchamiz Turdi Farog‘iyning *“Tor ko‘ngillik beklar”* deb boshlanuvchi g‘azalini yaxshi bilamiz. G‘azaldagi *“Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to‘ng‘a kirib, Bir o‘ngurlik, bir tirizlik, bir yaqo yenglik qiling”* baytida ishlatilgan *“o‘ngurlik”* so‘zi bir paytlar olimlar o‘rtasida bahs-munozaraga sabab bo‘lgani ko‘pchilikning yodida bo‘lsa kerak. O‘shanda baytdagi *“o‘ngur”* so‘ziga 10-sinf “O‘zbek adabiyoti” majmuasida *“chuqurlik”* deb izoh berilgandi. Holbuki, bu so‘z choponning bir qismi ekani ko‘pchilikka ma’lum. Keyinchalik 7-sinf “Adabiyot” darsligida *“o‘ngur”* (choponning etak qismi) va *“tiriz”* (choponning yelka qismi) so‘zlari o‘quvchiga tushunarli tarzda izohlandi. Qarangki, “O‘zbek tilining izohli

[5] O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2006-yilgi nashri.

[6] Namangan viloyati Chortoq tumani Peshqo‘rg‘on qishlog‘ida.

lug‘ati” ga aynan mana shu so‘zlar kiritilmagan. Vaholanki, bu so‘zlarning lug‘atdan o‘rin olishiga ehtiyoj bor. Hozir ham Chortoq tumanining Peshqo‘rg‘on qishlog‘i ahli choponning etak qismini *“o‘ngar”* shaklida ishlatadi [4.52]. Mazkur qishloq aholisi, shuningdek, paykalga suv tarashda ishlatiladigan o‘qariqning egatlarga suv taqsimlovchi qismi, ya’ni kichik ariqni *“tirja”* deb ataydi. Biz bunday atamani “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da uchratmadik.

Ko‘rinib turibdiki, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” shevalarda mavjud bo‘lib, adabiy tilda muqobili bo‘lmagan so‘zlar bilan to‘ldirilishi kerak. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ning yangi nashriga qadar[7] ushbu lug‘at imkon qadar mukammallashtirilishi kerak. Shu jarayonda bir qator so‘zlar lug‘atdan o‘rin olish bilan bir vaqtda ko‘plab so‘zlar chiqib ketishi ham mumkin. Bu jarayonga jiddiy e’tibor qaratish lozim. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” dagi so‘zlar miqdori sakson mingdan kamayib ketmaydi aslo. Ta’kidlaganimizdek, o‘zbek tili shevalarida izohli lug‘atdan o‘rin olishi lozim bo‘lgan so‘zlar juda ko‘p. Ularni topish va joy-joyiga qo‘yish — har bir tilshunos, filolog va ziyolining asosiy burchidir!

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, lug‘at ishi chinakam zahmat! Shu ma’noda, lug‘at mualliflari mehnatini qadrlamaslik fikridan mutlaqo yiroqmiz. Yana bir bor ta’kidlaymiz: izohli lug‘at nashri uchun katta mehnat sarflangan. Buni inkor etmagan holda Izohli lug‘atning yangi nashri tayyorlashda oddiy ishchi aholidan tortib barcha fan fidoiylarigacha bo‘lgan keng ommaning fikriga quloq solib ko‘rilsa, biz orzu qilgan mukammal lug‘at yaraladi. Yana bir fikr, shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi glaballashuv davrida izohli lug‘atni doimo to‘ldirib borish imkonini beruvchi elektron shaklda yaratishning o‘zi ham kifoya qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. - B. 113-114.
2. Алиев А. Ю. Уйчинский говор узбекского языка. Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1960. – 24 с.
3. Алиев А.Ю. Наманганская группа говоров узбекского языка: Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Тошкент, 1975. – 52 с.
4. Aliyev A.Y. Namangan dialekti haqida. O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. – Toshkent: Fan. 1967. – B. 37-45.
5. Атамирзаева С. Звуковой состав Наманганского говора узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Л., 1963. – 19 с.

[7] O‘zbek tilining izohli lug‘ati lotin yozuvida qayta nashrga tayyorlanmoqda.

6. Атамирзаева С. Экспериментально-фонетическое исследование наманганского говора узбекского языка. – Ташкент, 1974. – 195 с.
7. Боровков А.К. К характеристике узбекских “умляутных” или “уйгуризованных” говоров // Белек – Малову. – Фрунзе, 1946. – С. 29-31.
8. Боровков А.К. Узбекский говоры Наманганской области. – Ташкент, Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент, 1963.

QASHQADARYO QIPCHOQ SHEVALARIDA IBORALARNING LEKSIK VA GRAMMATIK O‘ZGARISHI

Islomova Shoira Xushbokovna,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
tayanch doktoranti
E-mail:shoiraislomova3gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qashqadaryo qipchoq shevalari iboralarining leksik va grammatik o‘zgarishi, adabiy til va shevada mos iboralar, leksik va grammatik farq qiladigan iboralar, qipchoq shevasiga mansub, hududlararo leksik farq qiladigan iboralar hamda leksik va grammatik o‘zgarishlar kuzatilmaydigan iboralar haqida fikr yuritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Qashqadaryo, qipchoq shevasi, ibora, turg‘un birikma, leksika, grammatika.*

Annotation. *This article discusses lexical and grammatical changes of phrases in Kashkadarya Kipchak dialects, proper phrases in literary language and dialect, phrases that differentiate lexically and grammatically, inter-regional lexically different phrases of the Kipchak dialect, as well as phrases without lexical and grammatical changes.*

Keywords: *Kashkadarya, Kipchak dialect, phrase, stable compound, lexicon, grammar.*

Tilning lug‘at tarkibiga faqat so‘zlar emas, balki tug‘un bo‘lib qolgan so‘z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo‘lgan turg‘un birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi. Frazeologizmlar ikki va undan ortiq so‘zlarning turg‘un birikmasidir [Abduazizov, 2010: 78]. Leksik tarkibining turg‘un bo‘lishi-iboralarning o‘ziga xos belgilaridan biri, ammo bu belgi iboralarning to‘rtdan uch qismini qamrab oladi, to‘rtdan bir qismi esa bu talabga bo‘ysinmaydi, uni cheklaydi, umumiy belgidan juz’iy belgiga aylantirib qo‘yadi [Rahmatullayev, 1970: 37]. Iborani

o‘zgarmas til birligi deb tushunishimiz noto‘g‘ri. Barcha til birliklarida uchragani kabi ba’zi iboralarda ham leksik va grammatik o‘zgarishlar kuzatiladi. Frazeologizmlar tilshunosligimizning mustaqil tarmog‘i sifatida olimlarimiz tomonidan turli jihatlari, shakllanishi, taraqqiyoti, ma’naviy-uslubiy, grammatik-semantik, pragmatik xususiyatlari o‘rganilgan va o‘rganilib kelinmoqda. Frazeologizmlardagi leksik va grammatik o‘zgarishlarni Qashqadaryo qipchoq shevasi frazeologizmlari misolida ko‘ramiz.

Qashqadaryo qipchoq shevasi vakillari nutqida ham minglab frazeologizmlar uchraydiki, ular til egalarining tarixi, madaniyati, ma’naviyati, turmush tarzi, fe’l-atvori, kasb-korini o‘zida aks ettiradi. Sheva vakillari nutqida har bir gap tarkibida, birdan ortiq frazeologizm qatnashgan Normat **og‘ir tin oldi** va oshnasining gapini eshitmagandek tunga **suq bilan tikildi**, **o‘pkasini to‘ldirib** nafas oldi… [N.Eshonqul, 2018: 13], U ich-ichida Muazzamning gaplarini **tan olayotganini**, **o‘zini oqlash** uchun jinday harakati ham bu savollar qarshisida arzimas narsa bo‘lib chiqishini his qildi;…[N.Eshonqul, 2008:157], balki butun iboradan iborat gapni ham kuzatishimiz mumkin. -Xo‘-o‘, Choriboy!-deb chaqiradi u.-**Bir maydon oyoq ilib keti-ing.** [Erkin A’zam, 2007:4]. **Sidirg‘a o‘tir, bozori kasod, sidirg‘a o‘tir!** [T.Murod, 2020:18].

Qashqadaryo qipchoq shevalarida adabiy til iboralariga mos iboralar, shuningdek, leksik va grammatik farq qiluvchi iboralar ham uchraydi. Qashqadaryo qipchoq lahjasining ba’zi shevalaridagi iboralar ham hududlarda qo‘llanilishiga ko‘ra bir-biridan leksik va grammatik jihatdan farq qiladi. Masalan, Qashqadaryoning janubiy tomonlarida “qish **o‘chog‘i** tor, tur uyingga bor” iborasi, janubi-g‘arbiy tomonlarda “qishning **uyi** tor, tur uyingga bor” kabi yoki Qashqadaryoning janubida “suvga tushgan mushukday” iborasi, sharqiy tomonlarida “suvga tushgan toshdek” tarzda leksik o‘zgarishlarga uchragan holda qo‘llaniladi.

Qashqadaryo qipchoq lahjasining shevalaridagi leksik jihatdan bir-biridan farq qiluvchi iboralar: “tuzini yeb tuziga tupurmoq” yoki “tuzini yeb dasturxoniga tupurmoq”, “kesari uzun” yoki “kelbati uzun”, “osh qoshiqday suqilmoq” yoki “yuvilmagan qoshiqday suqilmoq”, “ildizi baquvvat” yoki “orqasi baquvvat”, “o‘pkasi tushib ketmoq” yoki “yuragi tushib ketmoq”, “qozoni och” yoki “ko‘zi och”, “o‘zini tanimaslikka olmoq” yoki “o‘zini bilmaslikka olmoq”, “o‘zi gullab qo‘ymoq” yoki “og‘zidan gullab qo‘ymoq”, ”qora bermoq” yoki “ko‘rinish bermoq”, “sazasi o‘lmasin” yoki “sazasi so‘nmasin”, “tosh otmoq” yoki “kesak otmoq”, “gap otmoq” yoki “gap qotmoq”, “tolli tomoq” yoki “shirin tomoq”, “rangi bo‘zarib ketmoq” yoki “rangi oqarib ketmoq”, “ko‘r bo‘lsin” yoki “battar bo‘lsin”, “qo‘li juqa” yoki “qo‘li kalta” “yuragi bezillamoq” yoki “beti bezillamoq” singari. Har bir xalqning o‘ziga xos yashash tarzi, madaniyati va

dunyoqarashi mavjud, shu asosda iboralar har bir til yoki lahjada alohida ma'no-mazmun ifodalaydi.

Sheva vakillari nutqida mavjud bo‘lgan iboralarning ba’zan asos qismida, ba’zan yordamchi qismida leksik o‘zgarishlar kuzatiladi.

Shovqin	solmoq
	ko‘tarmoq
Rangi	bo‘zarib ketmoq
	oqarib ketmoq
Qo‘li	juqa
	kalta

Keltirilgan 1-jadvaldagi iboralarda, iboralar tarkibini tashkil qiluvchi leksemalarning asos qismida leksik almashish kuzatilsa,

Ko‘zi	och
Nazari	
Tolli	tomoq
Shirin	
Yuragi	bezilladi
Beti	

2-jadvalda esa leksik almashish hodisasi yordamchi qismda kuzatiladi.

Iboralarda sodir bo‘ladigan leksik o‘zgarishlar, leksik almashish bilan birga ibora tarkibiga mansub so‘z tashlanadi yoki ortadi. Masalan,

Joniga jol bo‘lmoq - Jol bo‘lmoq

Besh battar bo‘l - Battar bo‘l

Non-nasibasi tortmoq - Nasibasi tortmoq

yoki

Madori quridi - Tinka madori quridi

Ko‘nglida kiri yo‘q - Ko‘nglida tirnoqcha kiri yo‘q

Afti sovuq - Aft-angori sovuq

Iboralarda leksik tarkibining o‘zgarishi bilan birga grammatik shakllarga kira olish hodisasi ham uchraydi. Iboralardagi leksik almashish, so‘z ortishi yoki tushush hodisalarini, shuningdek, iboralarning ichki grammatik qurilishidagi o‘zgarishlarni prof. Sh.Rahmatullayev leksik allofrazema va grammatik allofrazema deb ataydi.

Dimog‘i baland - Baland dimog‘

Fe’li tor - Tor fe’lli

Seni osinda - Osinda seni

Gapi ko‘p - Ko‘p gapli

Keltirilgan misollarda iboralar tarkibini tashkil qilgan birliklar o‘rni almashishi natijasida grammatik o‘zgarish sodir bo‘lgan bo‘lsa, qo‘l**i**ni olmoq -Polvon bobosi, bularga duo bering, olishmoqchi, sizning **qo‘lingizdi olmoqchi**,-dedi Sharif chavondoz Normatga qarab, bolalarni o‘rtaga, dasturxon yetmaydigan joyga itarib [N.Eshonqul, 2008: 6], ko‘z**i** ilingan-Aka, bir yaxshi ishlar qilgim kelyapti!-deb qoldi endi **ko‘zim ilinganda** [Sh.Xolmirzayev, 2020: 224], iboralarida birinchi leksema tarkibida, jon**i**ni kaft**i**ga olmoq, oyog‘**i**ni qo‘l**i**ga olmoq iboralarida birinchi va ikkinchi leksema tarkibida, egalik kategoriyasining ortishi natijasida grammatik o‘zgarishlar kuzatiladi. Suv**day** ichmoq-O‘rischani suvday ichadi? Shundaylar kerak. –Juda kerak bola. Shu bolaga…hidoyat qo‘lingizni uzatsangiz, deb edim? [T.Murod, 2020: 52]. Ko‘ngl**ni** cho‘k**tir**moq. U mening “Shunday emas”, deyishimni kutardi. “Nega buning ko‘nglini cho‘ktiray?” deb o‘yladim-da: [Sh.Xolmirzayev, 2020: 207] kabi iboralarida ham grammatik o‘zgarishlar namoyon bo‘ladi.

Iboralarning kattagina qismida leksik va grammatik o‘zgarishlar kuzatilmasligi, Qashqadaryo qipchoq shevalari iboralarida ham o‘z aksini topadi. **Dami baland**- Bu so‘zni eshitib Ko‘kaldosh alp turib aytdi: ”Bu o‘zbekning qizining dami baland ekan”. ”Alpomosh” dostoni. **Qora bosgur,** Voy … qora bosgur…-birdan Qudurat kampir voy voylab, bitini terayotgan qizni chimchilab oldida, boshini qirt-qirt qashidi [N.Eshonqul, 2008:10]. **Ko‘ngli bo‘sh.** Azim tabiatan ko‘ngli bo‘sh, tasirchan yigit [Sh.Xolmirzayev, 2020:145]. **Oyoq ilmoq.** Besh- o‘n qadam o‘tib, oyoq ildi. Boisi ovoz tanish tuyuldi. Ketiga qayrilib qaradi. Ketiga qaytib keldi [T.Murod, 2020:21].

Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, tilshunosligimizning boshqa birliklarida uchragani singari Qashqadaryo qipchoq shevasi ba’zi iboralarida ham leksik va grammatik o‘zgarishlar kuzatiladi. Sheva vakillari nutqida adabiy til iboralariga mos ba’zan ulardan leksik va grammatik jihati bilan farq qiluvchi iboralar uchraydi. Leksik va grammatik o‘zgarishlarga uchragan iboralar tarkibidagi leksemalar soni o‘zgarmaydi, o‘zgarganda ham ma’no yaxlitligiga putir yetmaydi. Shuningdek, ibora tarkibida almashayotgan leksemalar ma’nodosh yoki ma’nolari yaqin bo‘lgan so‘zlardir. Leksik o‘zgarishga uchragan iboralar nutqni yanada obrazli, go‘zal, ta’sirchan ifodalashga yordam beradi.

Qashqadaryo qipchoq shevasi frazeologizmlarining leksik va grammatik o‘zgarishini misollar yordamida yoritishga harakat qildik. Sheva vakillari nutqida rang-barang, turli ma’no ottenkalariga ega, uslubiy bo‘yoqdorligi yuqori bo‘lgan ko‘plab frazeologizmlar uchraydi. Zero, ajdodlarimizdan meros qolgan tabiiy til, til vakillariga xos barcha xususiyatlarni o‘zida nomoyon qilar ekan, ularni o‘z

vaqtida til egalari nutqidan yozib olish, to‘plash, turli jihatlarini o‘rganish hamda izohli lug‘atlarini yaratish dolzarb masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish.(darslik) –Toshkent, 2010.- B. 78.
2. Erkin A’zam. Suv yoqalab.- Toshkent, 2007.
3. Eshonqul N. Urush odamlari. – Toshkent: Sharq, 2018.
4. Eshonqul N. Momoqo‘shiq. – Toshkent: Sharq, 2008.
5. Murod T. Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. – Toshkent, 2020.
6. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. –Toshkent, 1970. - B. 37.
7.Xolmirzayev Sh. O‘n sakkizga kirmagan kim bor. –Toshkent, 2020.

SAMARQAND SHAHAR O‘ZBEK SHEVALARIDA QO‘LLANILADIGAN TAOM NOMLARI TO‘G‘RISIDA

Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna
Samarqand davlat chet tillar instituti
akademik litseyi o‘qituvchi,
SamDCHTI tadqiqotchisi
tillabayeva87@bk.ru

Annotatsiya. *Maqolada Samarqand shahrida istiqomat qiluvchi, qarluq lahjasida muloqot qiluvchi aholi shevasining o‘ziga xos xususiyatlari, aholi nutqida ishlatiladigan taom nomlari xususida mulohaza yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *sheva, qarluq lahjasi, Samarqand shahar, taom, marosim, xamirli ovqat, non turlari, iboralar.*

Annotation. *The article discusses the peculiarities of the dialect of the people living in Samarkand, who speak the qarluq dialect and the names of dishes used in the speech of the people.*

Keywords: *dialect, qarluq dialect, Samarkand city, food, ceremony, pastry, types of bread, phrases.*

Ma’lumki, Samarqand shahri o‘zbek shevalari turli-tuman bo‘lib, mazkur hudud aholisi asosan qarluq lahjasida muloqot qilishadi. Qolaversa, ushbu hududda o‘zbeklardan tashqari tojik, rus, qirg‘iz, qozoq, tatar kabi xilma-xil millatga mansub aholi istiqomat qilishadi. Tabiiyki, buning natijasida tub aholi nutqida rang-baranglik, o‘ziga xoslik yuzaga kelganki, buni e’tirof etmaslikning

iloji yo‘q. Kuzatishlarimiz jarayonida aholi leksikonida turli tillarga oid o‘zlashmalarning borligiga guvoh bo‘ldik.

Har qaysi shevaning lug‘at tarkibida o‘zlashma so‘zlar alohida o‘rin egallaydi. Hech qaysi til va uning negizidagi sheva boshqa tillardan ajralgan tarzda taraqqiy qilolmaydi. Bu borada mashhur sharqshunos olim Ansoriddin Ibrohimov “Boburnoma”dagi hindcha so‘zlar” nomli doktorlik dissertatsiyasida quyidagi muhim fikrlarni bildirib o‘tadi: “… har qanday til, odatda, turli-tuman leksik unsurlarning qo‘shilishidan iborat bo‘ladi” (A.P.Barannikov). “Tillarning o‘zaro bir-biriga ta’siri, odatda, ularning o‘zaro boyishiga olib kelgan va olib keladi” (I.U.Asfandiyorov). “… boshqa tillardan birorta ham so‘z kirmagan sof til dunyoda bo‘lmagan va bo‘lishi mumkin emas” (O.Azizov) [2, 35].

Bundan yaqqol ko‘rinib turibdiki, xalqning jonli so‘zlashuv nutqi bo‘lgan shevalar ham turli-tuman tillardan o‘zlashmalar qabul qilish hisobiga boyigan.

Mashhur dialektolog olim Samixan Ashirboyev o‘z kitoblarida yuqoridagi fikrlarimizga qo‘shimcha tarzda shunday qimmatli ma’lumotlarni keltirib o‘tadilar: “O‘zbek shevalaridagi barcha leksik o‘ziga xosliklarni o‘rganish lug‘at boyligini, til imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi va shuning uchun ham adabiy tilga bunday so‘zlarni o‘rni bilan qabul qilib borish zarur” [1, 81] .

O‘zbek adabiy tilida qo‘llanilmaydigan so‘zlar ro‘yxatida o‘zbekcha so‘zlar bilan birga qardosh tojik xalqi tilidan kirib, o‘zlashib ketgan anchagina so‘z va iboralar bor. Bu tojikcha so‘zlar o‘zbek tilida hamda tojik va o‘zbek tillarida so‘zlovchi (ikki tilli) aholining jonli tilida mustahkam o‘zlashib qolgandir [3, 315].

Y.D. Polivanovning 1933-yilda nashr ettirilgan “O‘zbek dialektologiyasi va o‘zbek adabiy tili” kitobida yozilishicha, Samarqand shahri hududida tojik tili elementi yaqqol o‘zbek tilida namoyon bo‘ladi. Chunki qadimdan Samarqand shahri markazida yashovchi mahalliy tub aholi tojik millatiga mansub kishilar bo‘lib, qo‘shni o‘zbek qishloqlaridan kelganlar bilan mol ayirboshlash ehtiyojidan o‘zaro muloqot qilishgan. Tabiiyki, buning natijasida ikki tilning o‘zaro aralash holda ishlatilishi yuzaga kelgan [5, 11].

Biz mazkur maqolamizda aynan Samarqand shahri aholisi o‘rtasida keng tarqalgan taom nomlarini keltirib o‘tmoqchimiz.

Samarqand nonlari qadimiy va navqiron shaharning dovrug‘ini dunyoga doston qilgan ramzlaridan biriga aylanib ulgurgan. U o‘zining xushta’mligi, to‘yimliligi va o‘zgacha bir chiroyi bilan mashhur. Bunday nonlar asosan Samarqand shahrining «Galaosiyo» mahallasida qariyb yarim asrdan beri non pishirish sirlarini avloddan avlodga uzatib kelinadi. Mazkur hududda *osiyogi non, galaosiyo non, chapchak non, fatir, noni shirmol, arji non* kabi turlari keng

tarqalgan. *Chalamafatir* deb nomlanuvchi yana bir non turi borki, uning ichiga qovoq, piyoz solib yopiladigan yupqa non sanaladi.

Un va xamirdan tayyorlanadigan taomlar ham shahar aholisi oziq-ovqatlari qatorida salmoqli o‘rinni egallaydi. Jumladan, *bichak*- yupqa xamir ichiga qovoq yoki o‘t solib pishiriladi. Uning quyidagi turlari bor: *kadubichak, alafinbichak, kabachkibichak.*

Barak- ichiga qiyma solib tugiladigan, xamir ovqat bo‘lib, chuchvaraning shevadagi variant sanaladi. Bu taomning *pudinabarak, kadubarak, go‘shbarak, havobarak* kabi turli-tuman turlari mavjud.

Sho‘rvaning ham bir necha ko‘rinishlari bor. Xususan, *g‘elak sho‘rbo, naxo‘t sho‘rbo, biyron sho‘rbo* kabi taomlarning asosiy masalig‘i go‘sht mahsuloti hisoblanadi. Hududda turmush sharoiti og‘ir xonadonlarda go‘sht solinmaydigan masalig‘i kam *piyova* nomli suyuq ovqat tayyorlanadi.

Qizdirilgan yoqqa un solib, suv qo‘shib pishiriladigan suyuq ovqat-ataladir. Samarqand aholisi *atali biyron*, shakar solib tayyorlaniladiganini *halboyitar* deb atashlariga guvoh bo‘ldik. Un va sut mahsulotini birgalikda qorishtirb pishiriladigan *oq atala g‘ilmindi* deb nomlanuvchi xamirli taomning ichiga solib tayyorlanadi.

Chivot- suzmaning ichiga rayhon, achchiq qalampir, tuz, ko‘kat solingan turi bo‘lib, o‘ziga xos tamga egaligi bilan ajaralib turadi.

Umoch- xalq pazandachiligida ichiga uvalangan xamir solib pishiriladigan suyuq osh bo‘lib, Samarqandda *o‘moch* tarzida talaffuz qilinadi. Bu taomning mazkur hududda *o‘mochi shirdor, o‘mochi moshdor* kabi turlari keng tarqalgan.

Halim – bug‘doy yormasi, go‘sht va yog‘ bilan katta doshqozonlarda pishiriladigan ovqatdir. Shevada *halisa* atamasi bilan nomlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish mumkinki, Samarqand shahri o‘zbek shevalaridagi oziq-ovqat, taom nomlari bilan hozirgi o‘zbek adabiy tili, ayrim o‘zbek shevalarida qo‘llanadigan shunday nomlarni qiyoslar ekanmiz, ko‘p yillik davr ichida taom nomlari takomillashib borganini kuzatamiz. Bu takomillashish tilning ichki taraqqiyot qonuniyatlari asosida va boshqa tillarning ta’siri ostida ro‘yobga chiqqanligiga guvoh bo‘ldik. Ayniqsa, arab, fors-tojik va boshqa tillardan o‘zlashgan taom nomlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev. S. O‘zbek dialektologiyasi. -T.: Nodirabegim, 2021.
2. Ibrohimov A. “Boburnoma” dagi hindcha so‘zlar. - Toshkent, 2002.
3. O‘zbek shevalari leksikasi. - T.: Fan, 1966.
4. Dala materiallari. 2017-2021.

5. Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Ташкент: Узгосиздат, 1933.

DOSTON LEKSIKASIDAGI ERKAKLAR VA AYOLLAR ISMINI ANGLATUVCHI DIALEKTAL SO‘ZLAR

(*Fozil Yo‘ldosh va Abdunazar baxshi variantlari misolida****)***

Xaitov Xusniddin Xasanovich,
Halima Xudoyberdiyeva ijod maktabi
o‘qituvchisi, GulDU mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: Husniddinhayit1989@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh va Abdunazar baxshi variantlari matniga xos onomastik dialektal so‘zlarning xususiyatlariga munosabat bildirilgan. Har bir variantda uchragan erkaklar va ayollar ismini anglatuvchi dialektal so‘zlarga dialektizmlarning bir turi sifatida nazariy-amaliy tavsif berilgan. Dostonlarning matnidagi erkaklar va ayollar ismini anglatuvchi dialektal so‘zlarga oid antroponimik madaniyalashuv masalasiga e’tibor qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *doston, variant, matn onomastik dialektal so‘z, onomastik dialektal so‘z xususiyati, tavsif, folklor dialektologiyasi, antroponimlar, antroponimik madaniyat, madaniylashuv, o‘zbek antroponimikasi dialektal leksikoni.*

Annotation. *This article discusses the features of onomastic dialect words in the text of the variants of the Alpomysh epic by Fozil Yuldash and Abdunazar Bakhshi. Dialect words for men and women in each variant have a theoretical and practical description as a kind of dialectics. The text of the epics focuses on the problem of the anthroponymic culture of dialect words denoting the names of men and women.*

Key words: *epic, variant, textual onomastic dialect word, onomastic dialect sign of a word, description, folklore dialectology, anthroponymic culture, civilization, dialect vocabulary of Uzbek anthroponymy.*

O‘zbek shevashunosligi xalq og‘zaki poetik ijodi bilan uzviy bog‘liq. Folklor asarlari matni dialektal so‘zlarning sermahsulligi bilan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi. Xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, so‘zlashuvi, mahalliy-hududiy tasavvurlar olamida shakllangan shevalari xalq dostonlarini qamrab olgan, deyish mumkin. Dostonlarda uchraydigan ism qo‘yish

qadriyati onomastik dialektal so‘z majmuiyini tashkil qilibgina qolmay, an’analarning ildizi xususida ham tasavvur uyg‘otadi.

“Alpomish” dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li va Abdunazar Poyonov tomonidan kuylangan variantlari matnida erkaklar va ayollarga ismini ifodalagan onomastik dialektal so‘zlarga xalqning urf-odatlari va an’analarini belgilovchi muhim omil sifatida qarash mumkin. Shu ma’noda folklor dialektologiyasida o‘rganilmagan masalalarni o‘rganish, munobasat bildirishda biryoqlama emas, asosli keng qamrovli fikr yuritish ilmiy natijalar salmog‘ini oshiradi. “Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir” (Mirziyoyev, 2017: 29). Dostonning har ikki variantidagi milliy an’analarimizni bir qismi sanalgan erkaklar va ayollar ismini anglatuvchi dialektal so‘zlarni o‘rganish ko‘p ming yillik xalqimiz qadriyatlari mazmun-mohiyatiga oid tasavvur beradi, deyish mumkin.

“Ma’lumki, sheva materiallari o‘zbek adabiy tilining rivojlanishi uchun qanchalik qimmatli manba hisoblansa, tarix va etnografiya fanlariga ham shunchalik boy hamda ishonchli materiallar beradi. Chunki jonli til xalqning tarixiy yodgorligi hisoblanadi” (Rahimov, 1985: 6-8). Folklor dialektologiyasi materiallarida uchragan, jumladan, “Alpomish” dostoni leksikasidagi erkak va ayollar ismini anglatuvchi so‘zlar xalq tomonidan qo‘yilgan hamda qo‘llanilgan. Dostondagi ismlarga dialektal so‘z sifatida qarash o‘rinli, bizningacha. Bu borada dialektolog olim T. Enazarovning fikri muhim: “Dialektologik lug‘atlar sirasiga onomastikaga bag‘ishlangan lug‘atlar ham kiradi, chunki nomlarni xalq vakillari ishlatadi. Bu esa nomshunoslikka oid materiallarning ham dialektologik materiallar jumlasiga kiritish to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi” (Enazarov, Abdullayev, 2018: 10). Milliy eposimizdagi kishi ismini bildiruvchi ismlarda dialektallik xususuiyatlari sezilib turadi:

Boybo‘rining Bodom cho‘ridan ***Ultontoz*** *degan o‘g‘li bor edi* (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 2010: 225).

Mazkur gapdagi ***Ultontoz*** erkak ismini anglatuvchi dialektal so‘zini shevaviylik tavsifga ega deyish mumkin. Dialektal tavsifi xususidagi quyidagi fikrlarda ham izohlanganligini ko‘rish mumkin.

“Ulton” so‘zi qadimiy turkiy so‘z. So‘zlarning hammasi ham qadimiy-ku, deyishingiz mumkin, lekin ulton juda qadimiy.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ulton” so‘ziga shunday izoh beriladi” ***“Ulton”*** shv. Qoramol terisidan tayyorlangan, pishiq, qalin charm, tagcharm”.

Baxshilar sevimli qahramon Alpomishning dushmaniga shunday nom topishlari kerak ediki, to bu ism jismiga monand bo‘lsin, asrlar bo‘yi qoralansin, unga past nazar bilan qarasinlar, hatto tilga olganlarida ham ijirg‘anib qo‘ysinlar.

Shu maqsadda bu odamchaga ular Ultontoz deb ot qo‘yib, murodiga yetdilar . Ultontoz ultonga o‘xshagan degani, ya’ni u hatto oyoq kiyimi ham emas, oyoq kiyimining ham osti, tag qismi, shunchalar, past tuban (Shukur, 2018: 10). Folklorshunos olim J.Eshonqulov ham E.Shukur qarashlariga munosabat bildirar ekan, “Ultontoz” manqurt degani bo‘lishi mumkin degan fikrni aytdi. Bu so‘zdagi “toz” – “kal” degani, ma’lumki, manqurtlar boshiga teri qoplanib, quritilgan va ular kal holida yurganlar” juni yo‘q, ya’ni ikkinchi ma’nosi kal ekanligini ta’kidlaydi (Shukur , 2018: 12).

Shuningdek, ushbu dialektal birlikka qo‘shimcha quyidagi fikrlarni keltirish o‘rinli:

“Ultantoz (Alpomishning o‘gay ukasi) ul + tan + toz – o‘g‘il tan, ya’ni o‘g‘il o‘rnida, lekin toz – kal (salbiy ma’no), Ultan so‘zining ikkinchi ma’nosi: teridan pishirilgan charm (ko‘chma ma’nosi “kuygan”, juni yo‘q)” [To‘ychiboyev, 2001: 26]. Bu fikr-mulohazalardan ham ko‘rinib turibdaki, doston leksikasidagi ismlarni anglatuvchi so‘zlar dialektallik xususiyati ega.

“Alpomish” ning Abdunazar baxshi variant matnida ham Ultontoz dialektal so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, ba’zi o‘rinlarda Ultonshoh tarzida keladi:

Bobojon, aytagn ishimizni qilsangiz, bizga nazar tashlab, odam desangiz, biz ***Ultonshohning*** *to‘yiga jo‘nadik* (Poyonov, 2018: 406).

Yuqorida keltirilgan munosabatlar hamda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ***ulton*** so‘ziga shevaga xos deb sharh berilishi, gaplardagi ***Ultontoz, Ultonshoh*** ismlarini dialektallik xususiyati, dialektal ma’noda, aniqrog‘i, dialektal so‘z ekanligini ko‘rsatib turibdi.

“Dialektal so‘zlarda shevaviylik nafaqat shaklda bilinadi, shu bilan birga ma’noda ham kuzatiladi” (Enazarov, Abdullayev, 2018: 7).

Erkak ismini anglatuvchi yana bir dialektal so‘z Qayqubod har ikki doston matnida qo‘llanilgan:

Bu to‘qson qo‘ra qo‘y Boysarining qo‘yi edi, to‘qson qo‘ra qo‘yning cho‘ponining mahmadanasini ***Kayqubod*** *kal der edi* (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 2010: 91).

Alqissa,Oytovka ***Qayqubod****ga ko‘nmay turaverdi* (Poyonov, 2018: 324).

Fozil Yo‘ldosh variant matnida Kayqubod dialektizmiga so‘ziga qo‘lyozmada *Kaykibat* ekanligi ham qayd etilgan. Abdunazar baxshi varianti matnida [k] tovushining o‘rnida [q] ishlatilgan. Mazkur dialektal birlikka tilshunos olim shunday izoh beradi:

“Kayqubod (qalmoqning cho‘poni) kay va qubot (quvvat) so‘zlaridan, shohga mansub, “shohona”, aynan: ulug‘ Qubot (kay fors – ulug‘ podsho, ulug‘ martabali)” (To‘ychiboyev, 2001: 26). Bundan ayonlashadiki, quvvatli, ya’ni

shohdek maqomda hayot kechirsin, degan orzusi singan Kayqubod dialektal so‘zi xalqning antroponimik madaniyatga ega ekanligini ifoda etadi.

Shuningdek, doston matnida ayollar ismini bildiruvchi dialektal so‘zlar ham uchraydiki, antroponimik madaniylashuv jarayoniga oid tasavvurimizni yanada kengayishiga xizmat qiladi.

Dostonning har ikki variantidagi ham yana bir qahramonning ismi Qultoy deb ataladi.

Boybo‘rining ***Qultoy*** *degan yilqichi quli bor edi* [Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 2010: 69].

Quchib iskaydi ***Qultoy*** *chol,*

Hakimni tortib to‘shiga (Poyonov, 2018: 388).

Qultoy (o‘z.) – Allohning erka, suyukli bandasi yoki erka qul. E\t. Qultoy<Kultoy<Gul-toy (qar) [Begmatov, 2007: 551]. “Qultoy timsolining hayoti va faoliyatida ham bu jihat ko‘zga tashlanadi. U Boybo‘rining sodiq va erka quli, Alpomishga qul bo‘lsa-da, otaday” (Yunusova, 2021: 18). Ushbu dialektal so‘z “O‘zbek ismlari ma’nosi”da izohlanganidek, Allohning suyukli bandasi ma’nosida bo‘lib, iymonli-e’tiqodli inson tasvvurini beradi. Xalqning shunday orzu-istaklari nazarda tutilganligi bu ismning shevaviyligini ta’minlagan, deyish mumkin.

Adabiy tilda yarim ma’nosi ifodalovchi so‘zdan hosil bo‘lgan Yartiboy dialektal so‘zi oqsoqol obrazini nomlab kelgan.

Shu majlisda bir ***Yartiboy*** *oqsoqol degani bor edi* (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 2010: 18).

Dostonda maslahatgo‘ylikni uddalay olmagan, fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lmagan bu qaharamoning aqliga nisbatan aqli yarim, chala, but emasligini ifodalash uchun Jortiboy ismi qo‘llanilgan, keyinchalik matn tahririda [j] undoshi [y] tovushiga amashtirligan.

“Yorti eski. Yarim, yarimta. Ikki yorti – bir butun. Maqol. But emas, chala. Tog‘onbek po‘ng‘illadi: –Ish yorti qolmasin, qari shayton. Oybek, Navoiy” (Ma’rufov, 1981: 262).

Qizining otini ***Qaldirg‘ochoyim*** *qo‘ydi* (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 2010: 14).

Ushbu gapdagi ***Qaldirg‘ochoyim*** birligi qush nomi va oyim erkalash shaklidan tarkib topgan.

“Qaldirg‘och (*o‘z.*) – qaldirg‘ochlar uchib kelganda tug‘ilgan qiz yoki qoshlari qaldirg‘och qanotidek ingichka, nozik qiz” (538). Qolaversa, qaldirg‘ xalq tasavvurida ezgulik elchisi sanaladi. “Qaldirg‘och – “xabarchi”, “elchi” (chechasi Barchinoyning xatidan akasi Alpomishni xabardor qiladi va uni yuboradi; akasi Alpomishning ahvolidan Qorajonni xabardor qiladi) (To‘ychiboyev, 2001: 24).

“Xalq orasida qaldirg‘ochlar uchib kelgan paytda tug‘ilgan qizlarga ismni qo‘yish holati uchrashi, turkiy xalqlarda bu qushga nisbatan ijobiy munosabat borligini ko‘rsatadi” (Ashurov, 2022: 279). Bundan ko‘rindaki, tasavvurda yashayotgan tushuncha onomastik dialektal so‘z bo‘lib shakllangan.

Suqsuroy *degan bir sening yangang bor* (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 2010: 46).

Suxsur (o‘z.) – suxsurdek chiroyli, zebo qiz. Suxsur – go‘zallik va sog‘lomlik ramzi hisoblanadi (Begmatov, 2007: 401). Bu gapdagi birlik ham tasavvurda go‘zallik va sog‘lomlik uyg‘otishi bilan shevaviylik kasb etgan.

“Urug‘ yoki qabila nomlari esa etnik guruh muqaddas, ilohiy deb singuvchi biror hayvon, qush nomidan iborat bo‘lgan. Asta-sekin bu an’ana o‘zgarib, ulug‘ va qabila a’zosi bo‘lgan har bir shaxs alohida ism yoki laqab bilan ataladigan bo‘lgan. Mana shunday qilib, kishi simlari (shaxsning dastlabki, ilk atoqli) paydo bo‘lgan. Endilikda tilshunoslikda turdosh va atoqlar deb yuritayotgan ikki ulkan ot guruhi vujudga kelgan” (Begmatov, 2013: 8).

Boybo‘rining ***Bodom*** *cho‘ridan Ultontoz degan o‘g‘li bor edi* (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, 2010: 225). Bu gapda Bodom ayol nomini anglatuvchi dialektal so‘z bo‘lib, uning lug‘atda turli shakllari uchraydi:

Bodom (ft.) – o‘simlik nomidan shakllangan nom, ya’ni fitoantroponim, bodom gullaganda tug‘ilgan bola yoki bodom kabi mustahkam, mahkam.

Bodomgul (ft.) – bodom gulidek go‘zal, zebo qiz yoki bodom gullaganda tug‘ilgan qiz.

Bodomcha (ft.-o‘z.) – bodom ismli jajji, kenja qiz. Qar. Bodom.

Bodomqul (ft.-o‘z.) – qar. Bodom (Bodom+qul) (Ma’rufov, 1981: 65).

Bu shakllarning turlicha ko‘rinishda ekanligi ham tasavvurning mahsuli. Ayniqsa, folklor dialektologiyasiga oid bunday dialektal so‘zlar o‘zbek, fors-tojik, arab singari xalqlarga tegishli bo‘lsa-da, har biri turli tasavvurning ifodasi sifatida antoponimik madaniyatni shakllantirgan, deyish mumkin. “Bu ismlarning diqqatni o‘ziga jalb qiluvchi tomoni shundaki, ularning ko‘pchiligida shu ismlarning qo‘yilish tarixining ma’lum izi saqlanib qolgan (Doniyorov, 1979: 98-101).

Eposda qo‘llanilgan erkak va ayollar ismini bildiruvchi dialektal so‘zlar mazmun-mohiyati xalq tasavvuridagi qadriyatlarga borib taqaladi. “Demak, ismlar ma’nosi deganda etnografik ma’no tushuniladi” (Begmatov, 2007: 4).

Ismlarning yana bir shevaviylik xususiyati shundaki, bu ismlar xalq tomonidan qo‘yilganligi uchun dialektal ma’no kasb etgan. “Chunonchi, ism qo‘yish ham o‘ziga xos urf bo‘lib, ismlarda har bir narsaning, voqea-hodisaning asosiy jijatlari o‘z aksini topadi” (To‘ychiboyev, 2001: 24).

Bizningcha, dialektizmning turi sifatida dostondagi erkak va ayollar ismini anglatuvchi dialektal so‘zlar xususiyatlarini inobotga olib, ularni folklor asarlari

dialektal lug‘atiga kiritish har jihatdan o‘rinli bo‘ladi. Shuningdek, shu doston leksikasidan antroponimik lug‘atni tayyorlash mumkin. Chunki doston leksikasidagi erkak va ayollar ismini anglatuvchi dialektal so‘zlar o‘zbek antroponimikasi dialektal leksikonini tashkil qilib, dialektal onomastikaga oid qarashlarni oydinlashtirish hamda antroponimik madaniylashish masalasi haqida xulosa qilish imkoniyatini kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashurov D. “Alpomish” dostonidagi ayrim antoponimlarning lingvokulturologik xususiyatlari. Onomastik birliklarning sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvopoetik, lingvokulturologik tadqiqi masalalari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Namangan. 2020. 15-16 aprel. – B. 279.

2. Begmatov E. O‘zbek simlari ma’nosi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 2007. – B. 551.

3. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013. –B. 8.

4. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. – Toshkent: Fan, 1979. –B. 98-101.

5. Enazarov T, Abdullayev X. Dialektologik amaliyot so‘roqligi. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.

6. Eshqobil Shukur Bobo so‘z izidan. –Toshkent: Mashhur-press, 2018.

7. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li. “Alpomish” dostoni. – Toshkent: Sharq, 2010.

8. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.

9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. II jild. –Moskva, 1981. Ma’rufov Z. tahriri ostida.

10. Poyonov A. “Alpomish” dostoni. – Toshkent: Akademnashr**,** 2018.

11.Rahimov S. O‘zbek tili Surxondaryo shevalari. – Toshkent, 1985.

12. To‘ychiboyev B. “Alpomish” va xalq tili. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2001. – B. 26.

13. Yunusova B. “Alpomish” dostoni onomastik birliklarning leksik-semantik uslubiy tadqiqi. Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi aftoreferati. – Namangan: 2021. – B. 18.

2-qism

DASTLABKI URINISHLAR

1-SHU‘BA

O‘ZBEK ADABIY TILI VA SHEVA MUNOSABATLARI

OMON MATJON IJODIDA DIALEKTIZMLARNING O‘RNI

Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna,
Urganch davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti,(PhD),
Azatova Ro‘zajon Odilbek qizi,
Urganch davlat universiteti Lingvistika (o‘zbek tili)
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada omon matjon ijodida qo‘llanilgan dialektizmlar xususida so‘z borib, ularning fonetik, morfologik hamda leksik turlari badiiy matn ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilganligi misollar asosida ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *dialektizm, sheva, leksik dialektizm, fonetik dialektizm, morfologik dialektizm.*

Annotation. *The article discusses the dialectics used in the works of Omon Matjon. Lexical-semantic features of dialectisms are defined, their phonetic, morphological and lexical variants are revealed.*

Keywords: *dialectics, lexical-semantic dialectics, phonetic, morphological and lexical variants.*

Yozma yodgorliklar, shuningdek, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham uchramaydigan ayrim grammatik formalar, leksik elementlarni saqlab qolgan jonli shevalarni o‘rganish juda muhim tarixiy-lingvistik xulosalar chiqarishga imkon tug‘dirishi, qat’iy bir qonuniyat asosida tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlashda tekshiruvchiga juda qimmatli material berishi, qadimgi yodgorliklarni tushunish va lingvistik tahlil qilishda noyob qo‘llanma vazifasini ado etishi ayon. [Абдуллаев, 1961:5] Shu jihatdan olib qaraganda, shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi hamda u milliy-ma’naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Shuning uchun ham unu asrab-avaylash, qadrlash zarur. Har qanday mahalliy sheva tilning quyi shakli, u adabiy tilning boyish uchun bitmas-tuganmas manbadir.

“Milliy tilning turli dialekt va shevalariga tegishli bo‘lgan original so‘zlar faqat dialektolog va tilshunos olimlar ilmiy tadqiqot ishlarining mavzusi bo‘lib qolmay, balki muhim badiiy-tasviriy vosita sifatida so‘z

san’atkorlari – yozuvchilar, shoirlar va boshqalarning ham diqqatini o‘ziga jalb etadi. Dialektal so‘zlarning o‘ziga xos emotsional-ekspressiv va estetik vosita sifatida badiiy tekstda ma’lum darajada qo‘llanishi qonuniy hodisadir. Shunga ko‘ra, bunday dialektal so‘zlarning semantik- stilistik xususiyatlarini badiiy asarlar tili materiali asosida o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi” [Дониёров, 1990:35].

Badiiy adabiyot tilida shevaga xos so‘zlar – dialektizmlarning qo‘llanishi asar ta’sirchanligi va xalqchilligini ta’minlaydi.

Xalq shevalarini bilish, dialektal leksikadan boxabar bo‘lish yozuvchi va shoirlarimiz asarlari va satrlariga singdirilgan ma’noni chuqurroq anglash, asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar milliy koloritiga sho‘ng‘ish imkonini beradi. [Мусаева, 2009:3] Zero, yozuvchi va shoirlar qaysidir sheva vakili hisoblanishadi va ularning ijodida shu sheva unsurlari aks etishi mumkin. Shu boisdan ular yaratgan asarlarida xalqning ma’naviy mulkidan foydalanishi, suv ichgan buloqlaridan bahramand bo‘lishlari tabiiydir. Biz ushbu ishimizda Xorazm adabiy muhitining yetuk vakili Omon Matjon ijodida qo‘llanilgan dialektizmlar xususida fikr yuritamiz.

Omon Matjon she’riyatidagi dialektizmlar shoir qalb tuyg‘ularini, uni o‘rtayotgan dardlarni yanada yorqinroq ifodalash hamda mahalliy koloritni ifodalash maqsadida qo‘llanilganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek tili o‘z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan. Ular ***qarluq lahjasi, qipchoq lahjasi, o‘g‘uz lahjasi****dir* [Аширбоев, 2021:13]. Bu lahjalarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga – fonetik, morfologik va leksik jihatdan farqlanadigan qator lingvistik belgilarga ega. Ushbu lingvistik xususiyatlarga ko‘ra shoir asarlarida qo‘llanilgan dialektizmlarni quyidagi guruhlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq:

1. Fonetik dialektizmlar
2. Morfologik dialektizmlar
3. Leksik dialektizmlar

Omon Matjon ijodida, asosan, Xorazm shevalariga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlar obrazlilikni ta’minlab, badiiy asarning jozibadorligi va ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Uning she’riyatida qo‘llanilgan shevaga xos so‘zlar orasida fonetik dialektizmlar salmoqli ustunlikka egadir.

Fonetik dialektizmlardan badiiy matnda estetik maqsadda foydalaniladi va ular nutqqa jonlilik baxsh etadi, qolaversa, hududiy mansublikni ta’kidlaydi. Bunday dialektizmlar shevaning fonetik xususiyatlarini aks ettirishga xizmat qiladi. Bunga shoir ijodidan ko‘plab misollar keltirish mumkin. Masalan:

*Xorazmda qor yukidan **og‘ochlar** sindi,*
Kun-u tun falak tegirmoni muz sepdi go‘yo.

[Омон Матжон, 1993:33].

misralarida **yog‘och** so‘zi **oğoč** shaklida qo‘llanilgan.

Faqat qayrilishda o‘zni tutolmay,
*Mavjlar bir-birin **shapatlab** qolar.*

[Омон Матжон, 1993:8].

Ushbu misralarda esa shoir **šäpätläb** dialektidan foydalangan. Bu adabiy tilda **shapaloqlamoq** tarzida qo‘llnadi.

Quyonlarga juda o‘ch-da,
*Ichida eng **irisi.***

[Омон Матжон, 1993:42].

Mazkur she’rda qo‘llangan **ïrïsï** dialekti adabiy tilda **yirik** degan ma’noni anglatadi.

Tabarruk shu tuyg‘u toptalgan joyda,
*Yemak, ichmak, **nadir**, tiriklik harom.*

Misrada qo‘llanilgan **nädïr** so‘zi adabiy tildagi ***nimadir*** so‘roq olmoshining Xorazm shevalaridagi shakli bo‘lib, Omon Matjon ijodida ham aynan shu shaklda ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin.

Shoir she’rlarida fonetik dialektizmlardan tashqari morfologik dialektizmlarni ham uchratamiz. Badiiy matnda bunday dialektizmlarning asosiy vazifasi ijodkor nutqida mahalliy koloritni yaratish, nutqning o‘ziga xosligini ko‘rsatishdan iborat bo‘ladi. Bu holatning xarakterli xususiyatlaridan biri sifatida:

Davra oling *o‘ynoli,* Larza soling *o‘ynoli,*
Lazgi chaling *o‘ynoli.* O‘ynab qoling, *o‘ynoli.*

misralaridagi buyruq - istak mayli qo‘shimchasi – *yli*kning morfologik varianti sifatida –***li*** shaklida qo‘llanganligini ko‘rsatish mumkin.

Omon Matjon asarlarida leksik dialektizmlardan ham unumli foydalanilgan. Bunday dialektizmlar shoir ijodida fonetik va morfologik dialektizmlarga nisbatan salmoqli o‘rin tutadi.

M.Yo‘ldoshev leksik dialektizmlarni uch guruhga bo‘lib o‘rganadi: 1) sof leksik dialektizmlar 2) etnografik dialektizmlar 3) semantik dialektizmlar [Йўлдошев М., 2000:14]

Sof leksik dialektizmlarning adabiy tilda ma’nodoshi mavjud bo‘ladi, bunday dialektizmlar tasvirda mahalliy ruhni yorqin tasavvur qilishga xizmat qiladi. Masalan, **gïzläb** – (yashirmoq), **ïyläb** – (bo‘yamoq), **qapïl-** (ovozingni o‘chir), **adïm-** (qadam), **ïčan-** (ichkari), **dešan** – (tashqari), **sïn solïb qäräš-**

(e’tibor bilan qarash**), qïsïnmä –** (qayg‘urma), **űllï-kïččï**- (katta-yu kichik), **aĝä-** (aka), **qarïq** -(egat) kabi bir qator so‘zlar ana shu maqsadda qo‘llangan:

*Hechsa, borligimni **gizlab** yot ko‘zdan,*
Soyangni bir nafas tutaqolmabman.

[Омон Матжон, 1993: 3].

Keltirilgan misoldagi **gizlab –** adabiy tildagi “**yashirmoq”** so‘zining ma’no xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Bir payt biram tantiq go‘yo shirinlikka o‘ch bola,
*Turfa rangga **iylab** o‘zin, sochiladi ming alvon.*

[Омон Матжон, 1993:10].

Xorazm shevalarida qo‘llanadigan **iylamoq** fe’li adabiy tilda **bo‘yamoq, rang bermoq, bo‘yoq surtib bezamoq** ma’nolarini ifodalaydi. Yuqoridagi misolda ham aynan shu mazmun aks etgan.

*Bilki, qayga bekin- **qopil,** qolmagaymiz bu gal g‘ofil!*

[Омон Матжон, 1993:19].

Shoir ijodida qo‘llangan **qopil** dialektizmi adabiy tildagi **gapirmaslik, ovoz chiqarmaslik, jim turish** ma’nolarini anglatib kelgan.

Go‘dak qadam bosdi,
Onaning qalbida ne his uyg‘otdi.
Bola emas go‘yo onaning qalbi,
*Tonggi quyosh bo‘lib otdi bir **odim.***

[Омон Матжон, 1993:20].

Odim – adabiy tilda ***qadam, yurish jarayonodagi har bir oyoq tashlash, oyoq bosish*** ma’nolarini bildiradi. Shoir she’rning dastlabki misralarida *Go‘dak **qadam bosdi,*** shaklida qo‘llagan bo‘lsa, oxirgi misralarida sheva variantidan foydalangan. *Tonggi quyosh bo‘lib **otdi bir odim.***

Xivada qal’a bor qal’a ichida,
*Biri **Ichon** qal’a, biri **Dishon.***

[Омон Матжон, 1993:59].

Bu misralarda qo‘llangan **Ichon** va **Deshon** dialektizmlari o‘zbek adabiy tilida **ichkari, tashqari** tarzida qo‘llaniladi. Misralarada Ichakari qal’a, Tashqari qal’a ma’nosida qo‘llangan.

*Men bulut bag‘riga **sin solib boqsam**,*
Sellari ko‘zimda bir namcha yo‘qdir.

[Омон Матжон, 1993:32]

Sin solib boqsam – adabiy tilda **razm solib qarash** degan ma’noni anglatib, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “nazar solmoq, sinchkovlik bilan kuzatmoq, diqqat bilan qaramoq, kuzatmoq” deya izohlangan. [O‘TIL. 3 tom, 342-bet].

Chumchuq naq qaynadi: Hoy qarg‘a ***og‘a,***
Qulingni yaxshilab bir terga, ***og‘a.***

[Омон Матжон,1993:49].

Og‘a – aka. Adabiy tildagi aka leksikasi Xorazm shevalarida og‘a tarzida qo‘llaniladi.

O‘g‘irlik yo‘q edi qushlar ichida,
Oqibat bor edi ***ulli- kichchida.***

[Омон Матжон, 1993: 51].

O‘zbek adabiy tilidagi katta, kichik so‘zlari Xorazm shevalarida *ulli*, *kichchi* tarzida qo‘llanilib, Omon Matchon ijodida ham ushbu sheva variantidan unumli foydalanilganligini kuzatishimiz mumkin.

Qoriqqa *qadalgan jajji boshlarni,*
Bilmadik kim uchun poya qilishdi.

Xorazm shevalariga xos bo‘lgan **qoriq** adabiy tildagi egat so‘zining ma’no xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan. Adabiy tilda esa egat deb shudgor yerda ekin ekish uchun tortiladigan uzun ariqqa nisbatan aytiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Omon Matjon o‘z ijodida o‘zbek tili, ayniqsa, Xorazm shevalarining estetik vazifasini mukammal darajada ochib bera olgan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shoir she’rlarida qo‘llangan shevaga xos so‘zlar va ularning leksik-semantik xususiyatlarini o‘rganish esa hozirgi o‘zbek adabiy tilini boyitish, uni yanada mukammallashtirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki bu so‘zlarning ko‘pchiligi tilimizning uzoq o‘tmishini, xalqimizning turmushi, madaniyati, urf- odati va shu kabilarni o‘zida yorqin aks ettiradi. Demak, Omon Matjon ijodida qo‘llanilgan dialektizmlar ham badiiy asar matnida o‘ziga xos estetik vosita vazifasini bajarishga xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Дониёров А. Шева унсурларининг бадиий асарларда қўлланиши // Ўзбек тили ва адабиёти. -1990. - № 6.

2. Мусаева Ф. Ўзбек шеваларининг лингвомаданий тадқиқи. – Тошкент, 2009.

3. Аширбоев.С. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 2021.

4. Омон Матжон. Қуш йўли. – Тошкент, 1993.

5. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: Филол.фан. дисс. –Т., 2000.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V жилдлар. - Тошкент, 2020.

O‘ZBEK ADABIY TILI VA SHEVASIDAGI “IKKILAMCHI NOMINATSIYA” HODISASINING QIYOSI

Ortiqov Ramazon Raxmat o‘g‘li,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO‘TAU 1-kurs magistranti
ramazonortiqov76@gmail.com

Annotatsiya. *Bu maqolada hozirgi kunda o‘zbek adabiy tili va shevalaridagi ikkilamchi nominatsiya hodisasi hosilalarining qiyosi haqida ilmiy fikr-mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *turkologiya, ikkilamchi nominatsiya, perifraza, ijtimoiy-lisoniy shakllanish, adabiy til.*

Annotation. *This article discusses the comparison of the products of the secondary nomination phenomenon in the Uzbek literary language and dialects.*

Key words: *Turkology, secondary nomination, periphrasis, socio-linguistic formation, literary language.*

Bugungi jahon tilshunosligida turkologiya va o‘zbek tilshunosligida ikkilamchi nominatsiya (perifraza) hodisasini o‘rganish bo‘yicha anchagina ishlar amalga oshirilgandir. Jumladan, Sh. Balli perifraza hodisasining fikr ifodalashdagi eng muhim tasviriy vositalardan biri sifatida etirof etadi. Bu esa rus tilshunosligida ham bu hodisaga alohida to‘xtalganidan dalolat beradi. Shu vaqtgacha adabiy tildagi ikkilamchi nominatsiya hodisasini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘pgina ilmiy ishlarda uning amaliy jihatiga e’tibor qaratilib, uning ijtimoiy-lisoniy shakllanishi va ular bilan daxldor bo‘lgan jihatlar nazardan biroz chetta qolayotgani aytib o‘tish o‘rinlidir. Biz bu hodisaga faqat amaliy jihatlarga e’tibor berilgan deganda shuni tushunish kerakki, ayni hozirda davom etayotgan muloqat jarayonida qaysi bir perifrazani qo‘llasak o‘rinli va qaysi birini qo‘llasak g‘alizroq ma’no hosil qilishi, amaliyotda qanday xususiyatlarni tajalli qilishi haqidagi ma’lumotlarni tushunish kerak. Vaholanki, ikkilamchi nominatsiya (perifraza) sof ijtimoiy hodisa ekanligini, uni ijtimoiy kriteriyalar bilan tahlil qilish kerakligini, lisonda ular qanday iz qoldirayotganligi haqidagi mulohazalarni ham o‘rganishni vaziyatning o‘zi taqazo qilmoqda. Perifrazalar jamiyat hayoti bilan uzviy bog‘liq xolda rivojlanadi, yoki aksincha, butunlay iste’moldan chiqishi mumkin. Chunki, tarixdan bizga ma’lumki, tarix sahnasiga qanchadan qancha davlatlar va jamiyatlar kelib, rivojlanib va oxirida tanazzulga yuz tutgan. Xuddi shuningdek, perifrazalar ham o‘tmishdan to hozirgi kunga qadar uning rivojlanish dinamikasi goh pasayib, goh rivojlanib kelmoqda. Uning rivoji yoki tanazzuli u iste’molda bo‘lgan ijtimoiy muhitning taqdiri bilan bog‘liq

ravishda kechadi. Masalaning eng muhim tomoni shundaki, perifraza insonning nutq odobi, til va nutq madaniyati, narsa-hodisalarga munosabati kabi komunikativ akt bilan bog‘liq jihatlarni o‘zida namoyon etadi. Endi diqqatimizni bir narsaqa qaratsak, bugungi kunda shevalarimizda saqlanib qolgan ikkilamchi nominatsiya xodisasi ham ayni biz yuqorida sanab o‘tgan xususiyatlarni o‘zda jamlagan. Yana shuni aytish mumkinki, shevalardagi ikkilamchi nominatsiya hodisasi adabiy tildagi ikkilamchi nominatsiya hodisasiga qaraganda ko‘p qirraliroq va xususiyroq xarakterga ega. Shevadagi ikkilamchi nominatsiya hodisasi ma’lum bir sheva muhitining mentaleteti, madaniyati va ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog‘liq. Xususiyroq xarakterga ega deyishimizga sabab shundaki, biron bir dialektal zonadagi ikkilamchi nominatsiya hodisasi, ikkinchi bir hududdagi sheva vakili tushunilmasligi mumkin. Har sheva muhitining shu hududga xos bo‘lgan jihatlari, ikkilamchi nom qo‘yish an’analari bir biridan biroz yoki tubdan farq qilishi mumkin. Bundanda aniqlashtiradigan bo‘lsak, xususiylik individual shaxsgacha yetib boradi. Yaniy, ikkilamchi nom qo‘yish individual shaxsning tafakkuri, dunyoqarashi va ma’lumotining darajasidan kelib chiqqan holda nomlashini aytish mumkindir.

Adabiy tildagi ikkilamchi nomlanish hodisasi va shevadagi ikkilamchi nomlanish hodisasida ham amalda bo‘lgan umumiy jihatlar mavjud. Jumladan, har ikkisida ham bir nomni ikkinchi marta qayta nomlashnishi, har ikkisida ham madaniyatni, farosatni aks etishi va yengillikka, ijobiylashishga bo‘lgan intilishning mavjudligini aytish mumkin. Shu o‘rinda Sherbaning “tilda mavjud bo‘lgan u yoki bu hodisalarda har bir davrga xos bo‘lgan til taraqqiyoti an’analari mavjud bo‘lib, bu esa jamiyat til amaliyoti tomonidan maqullangan va tastiqlangan bo‘ladi” degan fikrini keltirishimiz mumkin. Bular ularning bir-biriga uzviy bog‘liq jarayon deyishga asos bo‘loladi. Bundan tashqari shuni ham aytish mumkinki, go‘yoki, ikkilamchi nominatsiya hosilasi dastlab shevalarda tug‘iladi-yu keyinchalik o‘sib-ungandan so‘ng adabiy til sferasiga o‘tib, hayotini shu muhitda davom ettiradi deyish mumkin. Aynan shuning uchun ham ularni bir-biridan ayri hodisa ham, ayni hodisa ham deyolmaymiz. Ularning ikkisi ham bir-birini taqazo qiladigan, bir-birini to‘ldiradigan hodisalardir.

Perifrazalar ijtimoiy muhitdagi voqea-hodisalar, narsa va buyumlarga xos bo‘lgan xususiyatlarni ifodalaydi. Shevalarda esa, kishilarga nisbatan ham bu jarayon ishlatiladi. Adabiy tilga nisbatan ikkilamchi nominatsiya hodisasi shevalarda kengroq qamrovga ega ekanligini anglatadi. Vaqtlar o‘tib, ular faol iste’mol darajasiga chiqib, sayqallanib adabiy til uchun ham foydalanish hodisasiga aylanishi mumkin. Qolayversa, perifrazalar milliy o‘ziga xosliklar, milliy urf-odatlar, milliy tushunchalardan oziqlanadi. Agar shunday bo‘lsa, uni

hech ikkilanmasdan shevadagi ikkilamchi nominatsiya hodisasi bilan uzviy aloqadagi jarayon deyishimiz mumkindir.

Fikrlarimizni asoslash uchun hozirda shevalarimizda amalda bo‘lgan ba’zi ikkilamchi nominatsiya hodisasining hosilalariga misollar keltirsak. Misollar orqali bu jarayonning nozik jihatlarini anglab olishimiz mumkin bo‘ladi. Dastlab, shevadagi ikkilamchi nominatsiya hodisasiga misollar keltirsak.

Dehqonobod tumani Olmali qishlog‘ida istiqomat qiluvchi aholi orasida yangi kelin bo‘lib kelgan kelinchak o‘z turmush o‘rtog‘ining aka-ukasi va opa-singil(qayta nomlash qaynota va qaynonaga nisbattan ham ishlatiladi ammo biz kiyovning aka-ukasi va opa-singillarini qayta nomlanishini qamrab olishga harakat qildik)larini quydagicha qayta nomlaganini ko‘rish mumkin:

Yangi kelin bo‘lib kelgan kelinchak o‘z turmush o‘rtog‘ining aka va uka(qayni aka va qayni uka)larini quydagicha qayta nomlagan:

Mullo (ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib), Shep(Tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib), Saldat(Ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib), Polvon(Ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib), Qariya(Xarakteridan kelib chiqib), Qo‘qon(Ijtimoiy voqeylikdan kelib chiqib), O‘ris(Tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib(odatda eng kichik yoshli qayni ukasiga nisbattan)), Oqbachcha(Tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib), Malla(Tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib), Kenja uka(ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib. Nibatan ommalashgan)

Yangi kelin bo‘lib kelgan kelinchak o‘z turmush o‘rtog‘ining opa va singil(qayni aka va qayni uka)larini quydagicha qayta nomlagan:

Suluv qiz(tashqi ko‘rinishidan kelib chiqib), Ammasi, Katta ammasi, Kichik ammasi, Katta qiz, Kichik qiz, Oyqiz, Momojon Chevar(ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib, Muallim(ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib) Yuqorida keltirilgan ikkilamchi nominatsiya hosilasining barchasida aniq bir qonuniyat va aniq bir asos mavjuddir.

Endi adabiy tildagi perifrazaga misollar keltiradigan bo‘lsak, ular ham o‘z qonuniyatiga va asoslariga egadir.

Dala malikasi (makkajo‘xoriga nisbatan), Oq oltin (paxta tolasiga nisbatan), Kumish tola (ipak qurtiga nisbatan), Binokor (quruvchiga nisbatan), Mirishkor (dehqonga nisbatan), Zarshunos (zargarga nisbatan), Zangori kema kapitani (paxta terish mashinasiga nisbatan, bu perifraza ko‘proq frazemalar, ayniqsa, frazealogik qo‘shilma deb atalgan turga mos keladi.) Ojiza (ayolga nisbatan), Ziyokor (ilm ahliga nibatan), Qalamkash (rassomga nisbatan), Qora oltin (ko‘mirga nisbatan), Fasillar kelinchagi(bahor fasliga nisbatan), Bahor elchisi(qaldirg‘och va boychechakga nisbatan) va boshqa shu kabi misollarni aytish mumkin.

Bu keltirgan misollarimiz ham o‘z vujudga kelish asosiga egadir. Bu ikki sferadagi ikkilamchi nominatsiya hosilasi ham o‘zi nomlayotgan obyektga chambarchas bog‘liq holda bo‘ladi. Shuning uchun ham ikkilamchi nom aytilganda birlamchi nom ostidagi obyektni tushunish qiynchilik tug‘dirmaydi. Nomlanish jarayoni ham o‘ziga xos asoslarga ega bo‘lgan holda kechadi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlash joizki, hozirda adabiy tilda iste’molda bo‘lgan ikkilamchi nom hosilasi dastlab sheva “bag‘ri”da vujudga kelgan va vaqtlar o‘tib, sayqallanib va qo‘llanish doirasi kengayib adabiy til leksik ba’zasidan o‘rin olgandir. Shuning uchun ham perifraza va shevadagi ikkilamchi nominatsiya hosilasi bir xil asosga tayanadi va bir birini to‘ldiradi deyishimiz mumkin. Bu ikki hodisa ham bugungi muloqatdagi tilimizda mavjud ekan, yashashni davom etayotgan til hodisasi ekan ular o‘rganilishga haqli bo‘lgan hodisalar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektalogiyasi. – Toshkent: 2021.
2. Normurodov R. O‘zbek tilida ikkilamchi nominatsiya. – Toshkent: 2010.
3. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent:1980.
4. Ortiqov R. Qashqadaryo hududida yashovchi, qipchoq va qarluq lahjasida o‘zlashuvchi aholi nutqida “ikkilamchi nominatsiya”. 2020.

AFG‘ONISTON TAXOR SHEVASIDAGI MAISHIY SOHA NOMLARI

Erkin Mohammad Aalim,
Afg‘oniston fuqarosi
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya. *Har bir tilning sheva vakillari uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini ham o‘ziga xos shaklda ifoda etadilar. Jumladan, Taxor o‘zbek tili qipchoq shevasi vakillarining xonodonida uy-ro‘zg‘or buyumlarini nomlashda ko‘pincha bir xillik bo‘lsa-da, uning yagona xosligi, shevada qo‘llanadigan ko‘pgina so‘zlarning adabiy tilda muqobili ko‘rinmagan.*

Kalit so‘zlar*: uy-ro‘zg‘or burumlari, Taxor shevasi, elat, turmush, xonodon, atama, qipchoq shevasi.*

Annotation. *The dialects of each language created their own household items and began to express them in certain words. The Takhor Uzbek language also differs from other peoples in its peculiarities, although the rules of housekeeping in the Kipchak dialects are often the same. Its only peculiarity is*

that it contains a lot of words about household items, and there is no alternative in the literary language.

Keywords: *household items, Takhar dialect, ethnicity, marriage, household, term, Kipchak dialect.*

Har bir xalq, elat, urug‘ qabilada bo‘lganidek, o‘zbek xalqi urug‘ va qabilalarida ham o‘ziga xos yashash tarzi mavjud. Birgina misol keltiraylik, Evropo xalqlarida qadimdan xonadonlarida chavki (stul)lardan foydalanib kelinganligi ma’lum. Biroq, Afg‘onistonning uy-ruzg‘or buyumlarida esa bunday predmetlar ishlatilmagan, ammo hozirgi kunda bu urf qishloqlarda yashovchi o‘zbeklar oilasida ham tarqalib bormoqda. Mana shu asnoda o‘zbek xalqida o‘ziga xos ro‘zg‘or yuritish tartibi tarkib topganki, boshqalarnikidan farqli bo‘lgan. Bu esa ro‘zg‘or buyumlarining o‘ziga yarasha atamalarining yuzaga kelishiga va kundalik turmushda qo‘llanishga sabab bo‘ldi. Biroq, shuni ham alohida qayd etish lozimki, Afg‘oniston viloyatlaridan biri bo‘lmish Taxor viloyatidagi o‘zbek tili qipchoq shevasining vakillari xonodonida ro‘zg‘or yuritish tartibi, ko‘pincha bir xillikka ega bo‘lsa-da, o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu hol, birinchidan, o‘zbek adabiy tili va shevalari uchun umumiy bo‘lgan uy-ro‘zg‘or buyumlari tarkib topishiga olib keldi. Bunday atamalar jumlasiga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin (tabiiy bunday leksimalar, har qaysi shevaning talaffuz normalariga moslashtirilgan bo‘ladi): sanduq-*sandïγ*, qop-*qap*, tovoq-*täbäq*, tog‘ara-*täγärä*, qaychi-*qäjči*, tandur-*tandïr*, qazon-*qazan*, elak-*jiläk*, supurgi-*šïbïrkï*, bug‘joma-*buγjamä*, pichoq-*pïčäq* va boshqalar.

Shuningdek, Taxor o‘zbek tili qipchoq shevasiga oid uy-ro‘zg‘or buyumlar nomlarini quyida sharh berilib, misollar bilan izohlaniladi:

Kärsän - xamir qiladigan katta tovoqdirki, yog‘och yo temirdan yasalgan bo‘ladi. *šäbanä amarxanädan* ***kärsändi*** *aläke xämir qïlämïs.*

Räpida - lattadan gird shaklida tuzalgan narsadirki, uni ustiga xamirni tekislab, tandurga yopishtiradi: *Bïbï xal,* ***räpidäni*** *ap ke.*

Surpa- ikki yo uch gazli lattadan tuzalgan bo‘lib, xamirni zuvala qilish uchun qo‘llanadi: *Sin* ***surpanï*** *Ǯazavïr min kelämän*.

Ǯïŋïsa-uch-to‘rt qavatli lattadan tuzalgan bo‘lib, tandurga nonni yopishtirish va uzish uchun ishlatiladi. *Apa,* ***Ǯïgïsäŋïs*** *gitij uzïn böptï.*

Münkä // bünkä - suv tashlab qo‘yish va suv keltirish uchun qo‘llanadigan buyum: *ön- jigïrmä Ǯïl aldïn suv käm edi,* ***munkälärdi*** *beš-altï ʲešäkkä artïp Kukcha däjrädän suv apkegïčak(Abdullahboy. 60 yoshli kishi).*

Pätäk - iskida harbiy kishilar, suvni sovuq (yax) asrash uchun pataklardan qo‘llangich edi. Hozirgi kunda dehqonlar ham qushga ketayotganda pataklariga suv olib kitishadi: *Ergäš äkä* ***pätäklägäjäm*** *suvγä tüldïrïp aliŋ.*

Täbäq – suyuq taomlar(shurbo, osh, chakob(suzma), qovurma va....boshqalar)ni yiyadigan uy buyumi, kosadan kattaroqdir. Ularning turlari: safol tovoq-*säpäl täbäq*, yag‘och tovoq-*yäyäč täbäq*, nikil tovoq- nïkïl *täbäq* va boshqalar: *qïslar, oshdi* ***safaltabaqqa*** *solïŋar. Ašxānadan säpäl täbäqti apke, aštï suzäjik.*

šurba- suyuq taomlardan biri bo‘lib, Taxor shevasida necha ot bilan ataladi. *Gush šurba, käčäli šurba, šälγäm šurba, pevä, Ʒïr Ʒïr*: *apa pïšïnγä bïr* ***guš šurba*** *qïp qujiŋ min ham kelämän.*

päläv- quyuq taomlardan biridirki guruch, nuxat, gusht, mayiz, sabzi, piyoz, pomidir va yog‘ning tarkibidan tuzaladi. Palav taomi ham shevada necha ot bilan ataladi. Guš päläv, säbzï päläv, nüxät päläv, käčäli päläv: *Rämanqul bajdï ullïni töjiγa uč qazan* ***päläv*** *asγänäkan (Hakim aka. 45 yoshli kishi.)*

Aš(suyuq osh)- suyuq ovqatlardan biri bo‘lib, ko‘k o‘t, xamir, maka va nuxat tarkibidan tuzaladi. Osh turlari, kiskan osh, luppak osh(bu oshda xamirni kiskan oshdan yug‘onroq kisib tashlaydi), maka osh va bug‘day osh. *Ʒïrïŋïslar bïsdïkïlar mäkä aš qïptï aš ïčämïs*(Ibrohim aka 35 yoshli kishi).

čajdïš//čajƷïš choy qaynatadigan filiziy yo timir edish: ***čajdïš*** *värqïlläp qäjnäp Ʒatïptï.*

Taxor Qipchoq shevasining vakillari Kundalik turmushida **chaydish**-***čajdiš*** so‘zini ishlatadi, ushbu so‘z adabiy tilga yaqin bo‘lgani uchun, o‘zbek adabiy tilining izohli lug‘atida ***choydish*** shaklida qo‘llanilib kelmoqda. Amo ***čajƷïš*** so‘zi isa fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ko‘pincha shaharlarda yashaydigan o‘zbek xonodonlarida ***čajƷïš*** deb ishlatadilar.

Kesäv - tnadir alovini quzg‘aydigan buyumdirki yag‘och va timirdan yasalgan bo‘ladi. ***Kesävdi*** *apke tandïrdï quzγäp tür, min barïp xamïrdï üzäyïn(kebriyoa opa: 30 yoshli ayol).*

Vačaq(γ)- loydan yasalgan qurilma bo‘lib, qozon va choydishni ustiga osib ovqat pishiriladi. Qozon uchoq-*qazan väčäγ*, choy uchoq-*čaj vačaγ*, timir uchoq-*tïmïr vačaq*. *qazan vačaytï astïyä gitij otïn sayïn učip qamäsïn.*

Taptan- tandirni og‘zini yopip quyish uchun ishlatiladigan buyum. *Tandïrdï avzïγa* ***taptandï*** *qujγïn qjsi päläkät bümäsïn.*

Kandïk- umuman tandurga shamol tegish uchun kechikgina kandik (tishik) quyadilar. ***kandïktï*** *avzïnï amäγïn ot Ʒansïn.*

Tüšänčï//šälčä- gilamni bir bo‘lagidan iboratdir ki ayollar non pishirayotganda tandirni ustiga tushab, o‘ltirib non pishiradi: *närgis, tandïrdï gïrdïnï Ʒïjïp* ***šälčänï*** *tüšägïn min kelämän.*

Äjäq(γ)- tovoqdan kechikroq bo‘lib, umuman kechekgina bolalarga ovqat berish uchun ishlatiladi: *ašxaānädan äjäγti apke*. *ullïm atka amärxānädän ikki äjäγ arpa apärïp ber.*

Dülik- suv ichgich buyumlaridan biri bo‘lib, piyoladan kattaroq dirki bug‘doy uroq va boshqa shu kabi narsalarda uroqchlarga suv berish suv uchun qo‘llanadi: *Ǯïnïm bïr **dülïk** suv apke.*

Qovγa- quduqdan suv chiqarish uchun ishlatiladigan buyum: *mingä navbït berïnär bïr-ikki **qavγa** suv alaj.*

Qüdïq(γ)- insonlar toza suv ichish uchun ma’mulan 20-30 mitir yerni qozib suv chiqaradilar, ushbu qozilgan chuqurni quduq didilar: *Baj baba bïr nïča Ǯïl ičïdä šï urtäyä köp qüdïγ qazïlïptï jä!*

bügïs- igna va juvoldizdan yug‘onroq bo‘lib, qop, buji(xalta) va qanor og‘zini tikish uchun mo‘ljalangan: Kärïm*, ujdin barïp bügïsdï apkegïn qanarlärdï avzïnï tïgäjïk.*

Enä(igna) – bir tomoni nayzasemon, ikkinchi tomoni teshik bo‘lib, narsa, kiyim-kechaklarni tikish uchun mo‘ljalangan buyum dir. Masalan: *Bärām ullim tamdan **enä** xaltäni apke, küjlägïŋdi tïgïp beräj.*

Ǯüväldïs- egnadan yug‘onroq bo‘lib kurpa-tushkni qobish uchun ishlatiladi: *Bazardan bïr-ikitä **Ǯüväldïs** apkeŋ, kurpa qabimis.*

enä xalta - igna va shunga tigishli narsalarni tashlab quygach xaltani aytadi: ***enä xaltänï** äjäγ astïdan Ǯïraγ al.*

vajmaq- mamulan ayollar tikish tigayotgan payitida, qo‘liga igna kermasligi uchun o‘rta barmoqlariga kiyadilar: *nibäräm barmaγ pänǮäŋä **väjmäq** kegin enä kïrmäsïn.*

Täγärä- kiyim-kechaklarni yuvish buyumidir: *päridä **täγäräγä** gïlämdï Ǯïbïtïp qujγin [i]ertän Ǯuvämïs.*

Tïrmïs- yangi kirib kelgan, yevropo tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, choy damlab ichadigan uy-ro‘zg‘or buyumlaridandir. *Hämajin Ǯan, ujgä barïp bïr **tïrmïs** čaj ap ke.*

älämiš- echkining terisidan tuzalgan bo‘lib, qatiqni pishish uchun ishlatiladigan buyum: *hämsajä [i]ertän **älämiš** pïšäsïsma, minijäm ikki büškä qatïγïm bar edi pïšïp aγïčam.*

Xumrä(xum**)**- gusht va yog‘ni tashlab quyish buyumi, uuman ayollar gushtni qovurgandan kiyin yog‘ bilan berga xumraga tashlab quyadilar: *qïzïm xumrädän bïr-ikki büläk guš alïp šurbäyä täjlä (Bibi salima, 65 yoshli ayol)*

Ǯav münkä- bozordan yog‘ keltiruchi bunka. Ms. ***Ǯav münkänijäm** xürǮïnγä sayïn, Ǯav apkelämïs. .*

Deš- desh so‘zi fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, qatiq, chakob va chalob yasash uchun ishlatiladi: *sutti **dešgä** qütärïpp al. Ambärxānädan kättä deš ap ke.*

Čümïč(š) –suyuq taomni suzish uchun ishlatiladigan dastali ro‘zg‘or buyumi. *Ašxānäda čümištï ap ke, šürbäni süzäjïk*

Kavkïrt- kavkirt so‘zi ham fors-tojik tilidagi lsfgir so‘zida ‘zlashgan bo‘lib, quyuq taomlarni suzish uchun ishlatiladigan dastali ro‘zg‘or buyumi: ***Kavkïrtï****jam dästäsi sïnïp qaptï* [i]*ertän bïr* ***kavkïrt*** *apkeŋ****.***

Sätil (paqir) - gird shakilda tuzalib, narsa-qara va suv keltirish uchun ishlatiladigan ro‘zg‘or buyumi: *baram ʒan ävzdän bïr* ***sätil*** *suv apkïp ber.*

Ajna- umuman uylarda odamlar o‘zlarini yasantirish va bizash uchun qo‘llanadigan uy buyum: [i]*ertändän biri* ***ajnäγa*** *tïgïlïp qolding ma.*

süpürgi-šïbïrkï-burgan, yontaq, maka supurgi va boshqalardan dastali shaklida bog‘lanib yasaladigan buyumdir uy va boshqa joylarni supirish va tozalash uchun qo‘llaniladi: *ullim čavïp ujdin barïp* ***šïbïrkïnï*** *apkïp čïnardïnï astïnï šïpïrïp quj.*

pärč//pärš- fors-tojik tilidagi farsh so‘zidan o‘zlashgan bo‘lib, gilam, qolin kabi tushaladigan ruzg‘or buyumi: *nuraγa baj däräxtlärdi asttyäjam* ***pärč*** *tušäŋär häli adam köp kelädi*(M. Zohir . 40 yoshli kishi).

Qalïn- odatda yung, ipakdan tuqilib, yerga tushaladigan yo zinnat uchun divorga osib quyiladigan uy buyumi: *ämät bajdï kürsäŋ hämä ʒerdi* ***qalïn*** *tušäp täjläptï.*

kilkin- kilkin so‘zi ham fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, xonalarga yorug‘(quyosh nuri) va havo kirishi uchun qo‘llaniladi: [i]*ertämïnän ʒajlärïŋdan türkäldïlärïŋ tamdï kilkin darbazasïnï ačïp qujiŋär, bïr gitij hävā kïrsïn.*

Čut(tesha)-daraxt shoxlarini chopish, sindirish va maydalash uchun qo‘llanadigan buyum: *hämid ʒan ullim,* ***čuttï*** *ayïn tunäŋïn keskän otïnlärdï šäxlärïni mä jdäläγin bïxarïγa ʒayämïs (shukur. 45 yoshli erkak).*

Arγämčï- un gazlik ipdan yasalgan, umuman eshak, ot va tuyani ustiga bor ortish uchun qo‘llanadi: *arg‘amchiga qil quvat.(Maqol).*

bürγï- yog‘ochlarni tishishida, ma’dan shunoslikda, jiyulujik qidirishida ishlatiladiga buyum: *ukäm bar, uydin burγïnï apke, ustä äkäŋ jäyäčtï tešip bersin.*

uttï- uttï so‘zi boshqa tildan o‘zbek shevasiga kirib kelgan. timirdan tuzalgan bo‘lib, Kiyim-kechaklarni tirishi(qoti)ni yozish uchun ishlatiladi. Uning turlari esa, zug‘ol utti, barqi(eliktirik) utti va gozlik utti: *mini kujlägïmdi* ***utti*** *qïp ber, töjγa baräman.*

Kumïr- qozonni ostida yog‘ilgan yog‘ochlarning mahsuli bo‘lmish kumir(zug‘ol), uttini qizitish uchun ishlatiladi: *väčäyti ičïdän kumïrlärïnï čïyärïp ayïn uttï-müttïγa bäkār ketädi.*

Därsäxān- ovqat yiyish uchun mo‘ljalangan narsa bo‘lib, hardoyim ma’rakalarda hamvorlanib, uning ustiga turli xil ovqat, meva va boshqa shu kabi narsalar teriladi. [i]*ertän hämsajälärdïkïdän ham* ***därsäxānlärïni*** *ʒijïp keŋär kämlik qïmäsïn.*

Tüšäk- kolo, paxtadan yasalgan , ikki-uch gazga qadar tuzalib, odamlar ustiga o‘ltirishadi: ***tüšäklärdi*** *ǯijïp qujmäpsïlar čäŋä bïlänïp qaptï. (Abdurrahmon ka. 45 yoshli erkak).*

kürpäčä- kurfacha ham kiyim, paxtadan yasalgan bo‘lib, tushakdan yinniroq(dabalroq) shaklida tuzaladi. Umuman Ko‘rpachani, odamlar ustiga yopinib yotish uchun qo‘laydilar: *apa, hämsajälärïngïsdïjäm* ***kürpä*** *qabuvγa xäbär qïlïŋ(Mogul opa. 46 yoshli ayol).*

Yuqoridagi misolga ko‘ra Taxor viloyatining o‘zbek tili qipchoq shevasining vakillari, qizlarini uydan o‘zatib chiqorayotgan(nikoh tuyi) payitida, to‘y kelgandan keyin, kurfa qobuvga qo‘shni ayollarni ham chaqiradi va birlikta paxtalarni sabap, kupalarga paxta solib, qobidilar.

balïš – fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, kolo, paxtadan yasalgan. Bolishtni, odamlar orqasiga quyib takiya qilib o‘ltiradilar va yotganda esa, boshini ostiga quyib o‘xlaydilar: *bahramǯan ujdin bir-ikki* ***balïš*** *apkegin.*

Beshik- chaqaloqni solib o‘xlatish uchun yog‘ochdan yasalgan buyum. *Närgis apanï* ***bešïkkä*** *salar töjï barakan, ǯïrïŋ töjγa baramïs(Bozor oy. 25 yoshli ayol).*

Qulbav- nicha qabatli latadan yasalgan bo‘lib, bolani beshikka bilashda, ikki qo‘lini yoniga qilib, bilaklari va qornini ustidan tortib bog‘lanadigan uy buyumi: ***qulbavdi*** *apkeŋar, šäbirǯandi buläp quyäyik.*

Buγǯamä- paxta ipakdan tuqilib, kurpa-tushak va shu kabi narsalani tashlab quyish uchun ishlatiladigan buyum. ***buγǯamäni*** *arasïnï körgin, änä šugä qujipäm.*

Určïq–kechekgina yag‘ochdan tuzalgan bo‘lib, ipni igirish va pishirtirish uchun qo‘llanadigan buyum: *xala, bïr čajräkča päxtä beräjin,* ***určiq*** *igïrip beriŋ.*

Bïstärä- kurpa-tushakni bir pardaga yig‘ilgan holatini bistara diyiladi. *Mamüt bajdï kelïnïkïjäm beštä* ***bïstäräsi*** *baräkan.*

Sükïčäk- turt poyali shaklda bo‘lib, yog‘ochdan tuzalgan. Umuman bistaralar(kurpa, tushak)ni ustiga yig‘ib quyadilar. *Ustä äkä mïnäšï jäyäčlärdän bïr* ***sükïčäk*** *ǯurläp beriŋ.*

Pärdä- parda so‘zi Fors-tojik tilidan kirib kelgan bo‘lib, turt-uch gaz kolodan tuzalgan narsa. Ma’mulan pardani xona(tom)ni bezashi uchun divorni bitiga osadilar. *rämanqulbajdi kelïni,* ***pärdälärïni*** *tünägïn apkïp tutgänäkän.*

čïläpčïn- timirdan tuzalgan bo‘lib, qo‘lga suv olishi uchun ishlatiladigan uy buyumi: *amïd ujdin barïp bïr-ikki* ***čïläpčïn*** *apke, qolsuv alamïs(M. osif. 22 yoshlli erkak).*

Keli- yog‘ochdan tuzalgan bo‘lib, maka(javori, jo‘xori), bug‘doyni tuyish uchun qo‘llanadigan ro‘zg‘or buyumi. Ayollar makka va bug‘doy osh pishirishida killidan foydalaniladi: *sislärdi* ***kelilärïŋis*** *barma, gitij buγdäj tujip alaj.*

kelïsāp- bu ham yog‘ochdan yasalgan dastali buyum. Umuman bug‘doy va makani tuyishida, aktif shaklida ishlatiladi. *närgis mïnäbï kelïsaptï al sinäm gitij tujiš qänä (Feruza opa. 45 yoshli ayol)*

älkäj- chirog‘, yoqti, qadim zamonlarda barq (elektrik)kelmasdan oldin, insonlar kecha tomondan yorug‘da o‘ltirish uchun alkayn-***älkäjdän*** foydalagich edi. *Ata-babaŋ umrïni* ***älkäjγä*** *ötïrïp ötkïsdï sin šü bärqqä jäm naškïlïk qiläsän. (Makamtash. 40 yoshli erkak).*

Ʒüvas- kunjit, zig‘ir, chigit kabi o‘simliklar urug‘idan yog‘ chiqarish uchun tuzatilgan kechik dastgoh: *bäsir äkä älijäm* ***Ʒüvaslärïŋïs*** *barma, ön sïr zïγïr apkeläj tartïp berïŋ.*

Tuγanaq- uchi qaytgan kechikgina yog‘och bo‘lib, umuman borlarni mahkam tutish uchun arg‘amchilarni uchiga bog‘langan bo‘ladi. *Appa Ikkitä* ***tuγanaγlï*** *arγämčïï tavïp berïŋ (Sobir aka. 30 yoshli erkak).*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev, S. O‘zbek dialektologiyasi. -Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2021.
2. Altay N. O‘zbek tili so‘zligi. – Moliziyo: Jahoniy hamkorliklar nashariyoti. 2007.
3. Enazarov T. J. O‘zbek dialektologiyasi. -Toshkent: Mahalla va oila nashriyoti, 2021.
4. Enazarov T. J. O‘zbek dialektologiyasi. -Toshkent: Ulug‘bek Mirzo nomidagi universitet nashriyoti, 2012.
5. Murodova, N. O‘zbek tili dialektologiyasi. -Toshkent: 2019.
6. Mirzajonva, Sh. Badiiy nutqda shevaga xos so‘zlarning qo‘llanilishi. -Farg‘ona: 2018.
7. Payg‘ambarqul. Afg‘oniston Saripul o‘zbek shevasining leksik xususiyatlari. – Toshkent: 1984.
8. Shoyimova. N . O‘rta Qashqadaryo jelovchi qipchoq shevalarining leksikasi. -Toshkent: 1999.

MATNAZAR ABDULHAKIM SHE'RIYATIDA LEKSIK DIALEKTIZMLAR

Aminova Feruza Anvar qizi,
ToshDO‘TAU 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek she’riyatining namoyandalaridan biri Matnazar Abdulhakim ijodididan ba’zi nuqtalar tahlil etiladi. Shoir ijodidagi leksik dialektizmlar analiz va sintez metodlari orqali aniqlanadi, misollar orqali dalillanadi, uning turlariga diqqat qaratiladi.*

Kalit so‘zlar: *dialektizmlar, morfologik dialektizmlar, leksik dialektizmlar, fonetik dialektizmlar, ijodkor uslubi, xalq tili, Xorazm shevasi.*

Anotation. *This article analyzes some points from the work of Matnazar Abdulhakim, one of the brightest representatives of modern Uzbek poetry. The lexical dialectisms in the poet's work are determined by the methods of analysis and synthesis, proved by examples, and attention is paid to its types.*

Keywords: *dialectisms, morphological dialectisms, lexical dialectisms, phonetic dialectisms, creative style, folk language, Khorezm dialect.*

Ma’lum bir hududda yashovchi kishilar nutqida ishlatiladigan, adabiy til leksikasiga kirmaydigan so‘zlar dialektizmlar deyiladi. Dialektizmlarning adabiy tilga xos me’yoriy so‘zlardan farqlari quyidagicha:

a) leksik-semantik dialektizmlar. Adabiy tilda o‘z shakldoshiga ega, biroq ma’no jihatdan farqlanadigan dialektizmlar: *qalin* - adabiy tilda: qiz uzatishda kuyov tomonidan beriladigan mablag‘, shevada: gilam turi; *g‘ayir*- adabiy tilda: rashkchi kishi, shevada: qopag‘on it.

b) leksik dialektizmlar. Muayyan dialekt vakillari tilida qo‘llanilib, adabiy tilda uchramaydigan so‘zlar: *ko‘ma-yerto‘la, makka - sho‘x, bichqi - qo‘l arra, shoti, zangi-narvon* kabilar.

v) fonetik dialektizmlar. Adabiy tildan fonetik jihatdan farqlanadigan so‘zlar: *suvoq - shuvoq, yurmoq - jurmoq, kelmoq - galmoq.*

g) grammatik dialektizmlar. Adabiy tildagi grammatik shakllaridan farqlanadigan so‘zlar: *kelutti - kelyapti, uya – uyga, nonnan-nondan*. [Turniyazov, Rahimov. 2016:65]

Badiiy adabiyotda shevaga oid fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarning aks etishi dilektizm deyiladi. Bunda shevadagi qaysi yarusning aks ettirilishiga qarab dialektizmlar ham fonetik dialektizm, morfologik dialektizm va leksik dialektizm turlariga ega.

Fonetik dialektizm badiiy asarda muayyan shevaga oid fonetik xususiyatlarning aks etishidir. Masalan, *on äkkı - oʻn ikki* (Margʻilon), gäldï - keldi (Xorazm).

Morfologik dialektizm badiiy asarda shevaga xos morfologik elementlarning qoʻllanishidir. Masalan, *Šättä - shu yerda*(”Qora koʻzlar”), *dım - juda, geč gäldïŋïz* (Xorazm).

Leksik dialektizm shevaga oid soʻzlarning badiiy asarlarda qoʻllanishidir. Masalan, *dërpänmäŋlä* – bezovtalanmanglar (Xorazm), *pisäk* - paxsa, Turkiston). [Ashirboyev; 2022:29].

Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan koʻrinishidir. Shu jarayonda badiiy soʻz ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari oʻtadigan shevaga murojaat qilishlari e’tirof etilgan. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalami ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi. [Fayzullayev, Xidirov, 2010:15].

Badiiy adabiyotda adib dialektizmlardan ikki oʻrinda foydalanadi, ya’ni dialogik nutqda qahramonning muayyan sheva vakili ekanligini koʻrsatish, mahalliy koloritni berish maqsadida hamda adabiy tilda sinonimi boʻlmagan soʻzlarni majburan qoʻllaydi. Hatto butun boshli badiiy asarda mahalliy sharoit, mahalliy mentalitetni, ruhiyatni ifodalashda toʻligʻicha sheva xususiyatlaridan foydalangan holda tasvirlaydi. Bunga J.Sharipovning ‘‘Xorazm‘‘, Togʻay Murodning ‘‘Otamdan qolgan dalalar‘‘ asarlarini, Matnazar Abdulhakim she'rlarini keltirish mumkin.

Shuni ta’kidlash lozimki, dialektlar adabiy tilning boyishi uchun tabiiy manbalardan biri boʻlib qoladi. Dialektizmlaming adabiy tilga singib ketish jarayoni dastlab qiyin kechadi, lekin badiiy adabiyotning ta’sirchan kuchi orqali bir asarda qoʻllangan dialektizm keyingi asarlarga oʻtadi va shu tariqa umumxalq mulkiga aylanadi va adabiy tilda oʻzlashib ketishi mumkin.

Badiiy adabiyot tili xalq (millat) tili boyliklarining qayta ishlangan koʻrinishidir. Shu jarayonda badiiy soʻz ustalarining voqea yoki qahramon sarguzashtlari oʻtadigan shevaga murojaat qilishlari e'tirof etilgan. Adabiyotda mahalliy kolorit degan tushuncha bor. Bu esa adiblarga mahalliy kechinmalarni ifodalashda sheva xususiyatlaridan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Dialektologiya oʻrganiladigan badiiy nutq uslubi bilan bogʻliq til vositalari badiiy asar tilining bir qismi sifatida dialektizmni oʻz ichiga oladi. Ogʻzaki nutqdan olingan dialektizmlar yozuvchning ixtiyorida boʻlganida, u ularni badiiy matn tilida oʻzaro bogʻlash bilan har bir dialekt soʻzni ishning umumiy gʻoyasiga boʻysundiradi va bu toʻgʻridan toʻgʻri emas, balki hikoya qilish usullari orqali amalga oshiriladi.

Dialekt so‘zlar umumiy adabiy tilga kirmaydi. Biroq, nutqiy so‘zlashuvlar orqali ular adabiy tilga kirishi mumkin.

Matnazar Abdulhakim she‘rlarida quyidagi Xorazm dialekti, asosan, Gurlan shevasiga xos leksik dialektizmlarni uchratish mumkin:

Säni gülgänlärïng gül ädi, jarïm,
Gülïŋï a:paŋla julïb qojïptï.
Ïčanlara qamab, qulplap üstiŋnän.
Qäysi qolï čommïq ïlïb qojïptï.

*öpä s*o‘zi adabiy tilda *ona* ma’nosini bildiradi. Bu so‘z Namangan shevasida *äbä* shaklida; Andijon shevasida *aya shaklida;* Buxoro shevasida *āna, na:na* shaklida; Surxondaryo shevasida *enä*, Toshkent shevasida *āji, ānä, āpä* shakllarida qo‘llanadi.

- Adabiy tilda "qiyshiq", "ishga yaroqsiz" ma’nolarini bildiruvchi " cho‘mmiq" dialektizmi qo‘llangan.

Bäšïŋ āmān bolsïn nerdä bolsäŋäm,
Gözziŋdagi jašïng jaddan čïqmasïn.

Adabiy tilda *qayerda* ma’nosini bildiruvchi *nerdä* dialekti qo‘llangan. Bu so‘z Buxoro shevasida *qerdä* shaklida; Qashqadaryo shevasida *qeqqä, qerdä* shakllarida; Namangan shevasida *qäydä* shaklida; Toshkent shevasida *qättä shakllarida uchraydi.*

Nä-dä murad bilän Sultanbavadan
Alïb gälgän dāšïng yāddān čïqmāsïn.

Adabiy tilda qo‘llanuvchi *qandayin, qanchalar* so‘zlari o‘rnida *nä-dä* dialektizmini qo‘llaydi. Bu so‘z Buxoro shevasida *qanay, qanaychin, qanayčïkïn* shakllarida; Qashqadaryo shevasida *qänne* shaklida; Naman shevasida *qändej* shaklida; Toshkent shevasida *qandā, qänaqä* shaklarida uchraydi. Bu so‘z Xorazm viloyatining Shovot, Urganch kabi shaharlarida *nädäjin, nädägän* kabi variantlarda ham uchraydi.

Jadïmnan čïqmïjsiï, aγa – dädiŋmi,
Sayïnïp aqardï sačï aγanïŋ.

Bu parchada *aγa* adabiy tildagi *aka* so‘zi o‘rnida qo‘llangan. Bu so‘z Toshkent shevasida *ākä* shaklida uchraydi. Adabiy tilda mavjud bo‘lgan *aka* so‘zi Xorazm shevalarida adabiy tildagi *āta* so‘zi o‘rnida qo‘llanadi.

Ïlānlā ormalap jurär häz ätib,
Suljunlä bašladï ažājïb gülki.

Yuqoridagi misralardagi *häz ätib* so‘zining adabiy tildagi versiyasi *maza qilib.*

Sāčïngā čolāšïb olsam nä armān,
Julduzla kakiliŋ sanaqï volsïn.

Čološïb adabiy tildagi *chalkashib, o‘*ralashib so‘zlarining Xorazm shevasidagi shakli.

O‘zbek adabiy tilida dialektizmlar badiiy asarda mahalliy koloritni yuzaga keltirishi to‘g‘risida ilmiy ishlarga obyekt bo‘lgan. Xususan, B. Fayzullayev bu sohada maxsus dissertatsiya va bir necha maqolalar e’lon qilgan. Shuningdek, boshqa dialektologlarimiz tomonidan ham maqolalar chop etilgan. Shunday bo‘lsa-da, bu muammo nisbatan kam o‘rganilgan hisoblanadi. Shuni aytish lozimki, badiiy asarlarda sheva unsurlarini qo‘llash masalasi, deyarli, barcha yozuvchi va shoirlarimiz ijodida davom etmoqda, chunki badiiy asar faqat adabiy til me’yoridangina iborat bo‘lib qolsa, uning xalqchilligida ayrim yetishmovchiliklar kelib chiqishi mumkin, aslida badiiy asar xalq uchun yaratiladi va ayni zamonda xalq tili boyligidan foydalanadi. Bu esa badiiy asarda dialektizmlarni qo‘llashga yo‘l ochadi, binobarin, ularning ijtimoiy va badiiy qimmatini o‘rganishga sabab bo‘ladi va tadqiqot ishi olib boriladi. Bunday tadqiqotlar an’anada mavjud. Bu tadqiqotimizning bir tomonidir. Ushbu maqolada dialektizmlar bilan birga, badiiy adabiyotimizda dastlabkilardan biri sifatida tajriba qilingan, ya’ni badiiy asar tili sifatida sheva tanlangan asarlar tahliliga qaratilmoqdaki, bu o‘zbek dialektologiyasida qiziqish uyg‘otmasdan qolmaydi. Bunda Hakim Matnazarning novatorlik faoliyati tahlilga tortiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Murodova N. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Abdulhakim M. “Javzo tashrifi”. – Toshkent: Sharq, “Xorazmcha ohanglarda” internet manba.
4. Fayzullayev B. Xidirov O. Dialektizmlar va kontekst // O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalari. - Toshkent: TDPU, 2010.
5. Turniyazov N., Rahimov. O‘zbek tili. 2016.

2-SHU‘BA
SHEVALARNING STRUKTURA XUSUSIYATLARI

SHEVALARDA LAQABLAR ETIMOLOGIYASI VA ULARNING IJOBIY, SALBIY MA’NODA ISHLATILISHI

(HAZORASP TUMANI MISOLIDA)

Ibragimova Zamira,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti
zamira7070@mail.ru
Abdullayeva Munisa,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm viloyati Hazorasp tumanida yashovchi o‘g‘uz va qipchoq lahjasida gaplashuvchi sheva vakillarining laqablarini o‘rganish ko‘nikmalari, shuningdek, kelib chiqish sabablari, etimologiyasi, laqablarning ijobiy, salbiy jihatlari haqida ma’lumot berishga harakat qilamiz. Laqablar qo‘yilishining o‘ziga xos tarixi mavjud. Laqab shaxsning tashqi ko‘rinishi, xarakteridagi ma’lum belgi-xususiyatiga, kasb-koriga, nuqsonlariga, urf-odatlariga ko‘ra qo‘yiladi.*

Kalit so‘zlar: *laqab va taxalluslar etimologiyasi, ijobiy va salbiy laqablar, sheva vakillari, etnografiya, onomastika, inson xarakteri, ma’no ifodalash, ismiga qo‘shib aytilishi.*

Annotation. *In this article we will try to provide information about the skills of studying the nicknames of Oguz and Kipchak dialects living in Hazarasp district of Khorezm region, as well as the reasons for their origin, etymology, pros and cons of nicknames. Nicknames have a unique history. Nicknames are based on a person's appearance, personality traits, occupation, shortcomings, and customs.*

Keywords: *etymology of nicknames and nicknames, positive and negative nicknames, dialects, ethnography, onomastics, human nature, meaning, adjectives***.**

O‘zbek tilshunosligida ilk bor taxalluslar va laqablar adabiyotshunoslik aspektida B.Qoriyev, R.Vohidovlar tomonidan o‘rganilgan. Bu jihatdan o‘zbek onomastikasida E.Begmatov, Ya.Menajiev, X.Azamatov, D.Abduraxmonov, F.Abdullayev, O.G‘afurovlarning xizmati diqqatga sazovordir [1:88]. XX asrning 60-yillarida professor E.Begmatov o‘zbek tilida kishi ismi, familiyasi, laqabi, nasabi va taxalluslarni etnolingvistik hamda lingvistik yo‘nalishlarda birinchi bor

keng doirada ilmiy tahlil qilgan[2:56]. Shuningdek, laqablar va taxalluslarga doir nazariy va amaliy masalalar E.Begmatovning bir qator maqola va kitoblarida tadqiq etilgan[3:56]. M.Rashidova laqablarga doir tadqiqotlari doirasida taxalluslarning laqablardan farqli xususiyatlarini o‘rgangan[4:89-90].

Inson dunyoda o‘zini-o‘zi nomlay oladigan yagona obyektdir, biroq ushbu avtomiyaning imkoniyatlari nafaqat cheklangan, balki ko‘pincha, u yashaydigan jamiyat tomonidan belgilanadi. Laqabni qabul qilishda nomlangan shaxsning o‘z nomidan qilgan harakatlarida faol ishtirok etishi xarakterlidir.

Nomlanish jarayonida tajriba, inson psixologiyasi, shaxs va jamiyatning roli, tashqi sharoit, til tizimi, tillarning o‘zaro ta’siri, bizni o‘rab turgan tevarak-atrof asosida fikrlash u yoki bu darajada namoyon bo‘lib turadi.

Laqab shaxs hayotining turli davrlarida unga odamlar tomonidan odamning turli xususiyati va sifatiga ishora qilib berilgan so‘zdir. M.N.Chobanov ism, familya, ota ismini asosiy, laqab va taxallusni qo‘shimcha nomlar kategoriyasiga kiritadi: “Laqab bu norasmiy qo‘shimcha nom bo‘lib, jamiyatda bir kishini ikkinchisidan farqlashga xizmat qiladi”[7:51].

Laqab qo‘yish hozirgi davrga kelib shakllanmagan. U qadimdan mavjud. Masalan, buyuk olim Mirzo Ulug‘bekning ismi laqabdir. Uning asl ismi Muhammad Tarag‘ay bo‘lib, bobosi Amir Temur unga shunday nom bergan ekan. Shuningdek, Zangi ota ismi ham laqabdir. Zangi – qoracha, qorachadan kelgan ma’nosini anglatadi. Arxeolog B.A.Shishkinning yozishicha, Zangi ota yoki Zangi boboning asl ismi hech bir manbada uchramaydi[7:54].

Biz ushbu maqolamizda Xorazm viloyatining deyarli barcha tumanlarida istiqomat qiluvchi o‘g‘uz va qipchoq lahja vakillarlarida laqab mavjud ekanligi va ularning ijobiy, salbiy ma’noda qo‘yilganligini isbotlashga harakat qilamiz. Laqablarning qo‘yilishining o‘ziga xos tarixi mavjud. Laqab shaxsning tashqi ko‘rinishi, xarakteridagi ma’lum belgi-xususiyatiga, kasb-koriga, nuqsonlariga, urf-odatlariga ko‘ra qo‘yiladi. Masalan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida laqablardan namunalar keltirilgan. “Qilichxon – harakatlarida qilichdek kesuvchi”[7:52]. Bu laqab shaxsning xarakteridagi ma’lum belgi-xususiyatiga ko‘ra berilgan. Laqablar uzoq davrlardan buyon shevalarda qo‘llanilib kelinadi. Laqablar bir shaxsni boshqasidan ajratib ko‘rsatish uchun qo‘llaniladi. Bir paytlar laqablar bir shaxsning o‘ziga nisbatan qo‘llangan bo‘lsa, hozirda butun bir oila a’zolarini boshqalardan ajratish uchun qo‘llanilib keladi. Hazorasp tumanida insonlarning ismi yoki familiyasi ortidan laqabi aytilmasa uni yaxshi tanishmaydi. Masalan: *O‘ktam qirov.*

Laqablar o‘z-o‘zidan qo‘llanilmaydi. Buning ma’lum bir sababi, etimologiyasi bo‘ladi. Nutqimizda laqablarni ishlatar ekanmiz, u kimnidir ulug`lasa, boshqasini uyatga qo‘yishi mumkin. Shu jihatdan laqablar ijobiy va

salbiy singari guruhlarga bo‘linadi. Bunga Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi laqablarning kelib chiqish etimologiyasi, salbiy va ijobiy jihatlariga namunalar keltirib o‘tamiz:

Qoraqalpoq – bu laqab Qoraqalpog‘istonda yashovchi qoraqalpoq millatini ifodalaydi. Hazorasp tumanida yashovchi bobom Amudaryo tumaniga ishlash uchun keladi. Shu yerda yashovchi qoraqalpoq millatiga xos bir ayolni, ya’ni momomni yoqtirib qoladi va o‘zi bilan olib ketadi. Ular oila qurishadi. Shundan so‘ng mahalladagi odamlar ularni boshqalardan ajratish uchun ism-familiyalariga Qoraqalpoq so‘zi qo‘shib aytadilar. Bu esa ularning laqabiga aylanib ketgan: *Abdulla Qoraqalpoq.*

Mo‘llo [mulla] – o‘qimishli kishi ma’nosini anglatadi. Bu laqab dinni yaxshi tushunadigan shariat peshvolariga nisbatan aytiladi. Mo‘lloning vazifasi har xil marosimlar, jumladan kelin-kuyovni sha’riy nikohdan o‘tkazadi. Marakalarda marhum nomiga tilovat qiladi, janoza namozini o‘qiydi. Ushbu laqab qo‘yilishi etimologiyasiga nazar solsak agar, ota-bobolari dinni yaxshi bilgan, xalq orasida e’tiborga loyiq insonlarga nisbatan qo‘yilgan. Masalan, *Qadamboy mo‘llo.*

Xalpa (xalfa) – shariat qoidalarini yaxshi biladigan o‘qimishli odam. Ular motam-marosimlarda ayollarga “Qur’oni Karim” suralaridan o‘qib beradi. Payg`ambarimiz Muhammad s.a.v. boshidan o‘tgan voqealar, ayollarni yaxshi yo‘lga boshlovchi, sabr-bardoshning afzalligini ko‘rsatuvchi, Alloh sevgan bandalarini turli yo‘llar bilan sinashini isbotlovchi hikoya va rivoyatlarni aytib, boshiga musibat tushgan ayollarning dardiga malham bo‘lishadi. Masalan, *Nazokat xalpa, Havajon xalpa.*

Shu va shunga o‘xshash ijobiy ma’no ifodalaydigan laqablar kishilarni xursand qiladi va o‘sha laqab egalari o‘zining laqablaridan mamnun bo‘lishadi, faxrlanishadi.

Qul – 1. Ishlamoq, xizmat qilmoq. Birov uchun o‘z manfaatidan kechib, ko‘r-ko‘rona haq-huquqsiz bir tarzda mehnat qilmoq. 2. Itoatkor, tobe, bo‘yin egmoq, inon-ixtiyorini birovga bergan, unga quloq qoqmay bo‘ysunadigan odam haqida. [7:54]. Bu laqab o‘z fikriga ega bo‘lmagan, boshqalarning gapi bilan ish ko‘radigan odamlarga nisbatan qo‘llaniladi. Masalan, *Bohrom qul.*

Qarinja (chumoli) - hasharot turi hisoblanadi. Xorazmda bir necha nomlar bilan yuritiladi. Masalan, Hazorasp tumanida *chumolini – qarinja*, Bog`ot tumanida *qarichqa* deb aytiladi. Odamning jussasi juda kichkina, ammo tirik, chidamli, mehnatdan qochmaydigan bo‘lganligi sababli shu laqab berilgan. Bu odam faqat mehnat qiladi, uyiga tashiydi, xuddi chumolilardek.

Cho‘mmiq – bu, asosan, qo‘lida qandaydir nuqsoni bo‘lgan insonlarga aytilgan. Masalan, *Durdi cho‘mmiq.*

Kal – bu laqabni ayrim qipchoq lahja vakillari nutqida uchratishimiz mumkin. Kal laqabi ovozini baland qilib, yo‘shib gapiradigan orator insonlarga quyilgan. Aslida kal so‘zi sochi to‘kilgan ma’nosini anglatasada ayrim qipchoq lahja vakillari uni kochma ma’noda ishlatilish holatini kuzatamiz: *Nimaga kalga o‘xshab jo‘shasan? Ibrayim kal.*

Ushoq – juda ham kichik, nimjon, asosan, odamning jussasi haqida. Bu laqab qo‘yilgan odamlarning jussasi kichkina bo‘lgani uchun qo‘yilgan.

Tayloq – jajji, erkatoy, yosh bola haqida. Aytilishicha, bu laqab qo‘yilishiga sabab, o‘zi katta yoshli odam bo‘lsa ham hamma vaqt yosh boladay fikrlaydi. Qattiqroq gapirsa, yig‘laydigan darajaga boradigan shaxslarga qo‘yiladi.

Jilli (jinni) – g‘ayriodatiy harakatlar, o‘ziga yarashmagan, ahmoqona qiliqlar qilmoq [7:56]. Bu laqab qo‘yilishiga sabab shu bo‘lgan ekanki, bitta shaxs avtohalokat natijasida butunlay xotirasini yo‘qotadi. U hatto o‘z ismini bilmaydi, yaqinlarini tanimaydi. Uyidan qochib chiqib, o‘zi katta yoshli odam bo‘lishiga qaramay, yosh bolalar bilan o‘ynaydi, ular qilgan harakatlarni takrorlaydi. Shuning uchun uning ismiga jilli so‘zi qo‘shib aytiladi. Bora-bora bu so‘z uning laqabiga aylangan.

Salbiy ma’noli laqablar insonning qadr-qimmatini yerga uradi, uni kamsitadi, qaysidir ma’noda kishi ruhiyatiga ta’sir qiladi. Yuqorida keltirib o‘tilgan laqablar salbiy ma’no ifodalaydi.

Demak, laqablar uzoq davrlardan buyon shevalarda qo‘llanilib kelinadi. Laqablar yaqin hududda yashovchi ismi bir xil kishilarni boshqalaridan farqlash va qaysidir insonni tezda tanib olish uchun ishlatiladi. Laqab shaxsning tashqi ko‘rinishi, xarakteridagi ma’lum belgi-xususiyatiga, kasb-koriga, nuqsonlariga, urf-odatlariga ko‘ra qo‘yiladi. Biz ushbu maqolamizda yuqorida keltirilgan laqablarni ilmiy asoslangan holda Xorazm viloyatining deyarli barcha hududlarida istiqomat qiluvchi o‘g‘uz va qipchoq lahja vakillarlarida laqab mavjud ekanligi va ularning ijobiy, salbiy ma’noda qo‘yilganligini yoritishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э. Номлар ва одамлар. -Тошкент: 1966 й. 88-б.
2. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка. Автореф. канд. дисс. -Тошкент: 1965.
3. Рашитова М. Тахаллус ва лақаб //Республика ёш тилшуносларнинг конференцияси тезислари. -Тошкент: 1995й. 89-90 б.
4. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари –Тошкент: 1961й. 221-б.

5. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. 3-жилд. – Тошкент: Университет, 2009 й. 142-б.
6. Бегматов Э. Ўзбек антропонимикаси.Тошкент. Фан. 1985 й.56-б.
7. Махмудов Н., Худойбергенова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013 й. 302 -б.

AMUDARYO TUMANI SHEVALARIDA HOZIRGI ZAMON FE'L SHAKLLARI

A.F.Yangiboyeva,
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek tilidagi hozirgi zamon shaklining kelib chiqishi va hozirgi kunda shevalarda qo'llanilishi bo'yicha, hozirgi zamon shaklining turlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *sheva, affikslar, tasviriy ifoda, hozirgi zamon.*

Annotation. *This article provides information on the origin of the modern future tense in the Uzbek language and the types of modern future tenses used in dialects.*

Keywords: *dialect, affix, descriptive expression, present simple.*

O'zbek tilida hozirgi zamon fe'li yasovchi affiksining chiqib kelishi haqida bir necha ilmiy maqola va ishlarning maydonga kelganiga qaramay, shu vaqtga qadar mazkur affiksning qaysi fe'ldan kelib chiqqanligi to'la isbotlanmagan. [Ashirboyev,1961, 442-451**]** Shuningdek, o'zbek tiliga oid grammatik adabiyotlarda hozirgi zamon fe'li ikki guruhga bo'lib ko'rsatilsa [Ибрагимов,1984.84**],** ayrimlarida uch guruhga ajratadi **[**Жуманазаров,1961:137-150]. Hozirgi zamon fe'lini uch turga ajratib ko'rsatuvchilar ***-moqda*** affiksi bilan yasalgan fe'l formasini hozirgi zamon fe'lining alohida bir turi deb qaraydilar. Lekin akad. A.Hojiyev **-moqda** affiksi bilan yasalgan fe'llar hozirgi zamon fe'lining alohida bir turi bo'la olmasligini ta'kidlaydi [Ҳожиев,19961:442-461**].** Aslida **-moqda** affiksi bilan yasalgan forma aniq hozirgi zamon fe'lining affiksial formasidir. Harakatning davomiyligini bildiradi.

Kuzatilayotgan obyektlardagi aniq hozirgi zamon fe'li anglatgan ma'no va funksiyasiga ko'ra ikkiga; a) affikslar yordamida yasaluvchi forma, b) tasviriy formaga bo'linadi.

Affiksal forma. Affikslar yordamida yasalgan aniq hozirgi zamon fe'l formalarining ***-yot*** ko'makchi fe'li orqali yasaluvchi tasviriy formadan kelib

chiqqanligi mutaxassislar tomonidan aniq belgilanib berilgan. **-moqda** affiksi bilan yasalgan forma bundan mustasno. Lekin o‘zbek shevalarida hozirgi zamon fe’lining affikslar yordamida yasaluvchi formasining kelib chiqishi to‘g‘risida ikki xil fikr mavjud. A.Hojiyev *“ishlab yatipti, barip yatipti* fe’lining konstruksiyasi dastlab ikki formada grammatikalizatsiyalangan”, - deb yozadi.

Qoraqalpog‘istondagi Amudaryo tumani Oqoltin OFYi o‘g‘uz va qipchoq shevalarida aniq hozirgi zamon fe’lining affiksal formasi quyidagi affikslar yordamida yasaladi: **-atir, -vatir, -yatir affiksi** va tegishli shaxs-son tuslovchi qo‘shimchlarini *fe’l o‘zak* – negiziga biriktirish yo‘li bilan aniq hozirgi zamon fe’l formasi shakllanadi. Agar fe’l o‘zagi undosh bilan tugagan bo‘lsa, hamma vaqt **-atir, -vatir** formasidan oldin **a** unlisi orttiriladi. Masalan: *baratirman, kiyatirman, o‘qivatirman,bervatirman.*

Aslida **-atir** formasi **-yatir, -vatir** dan kelib chiqqan ***y/v*** tovushining tushishi natijasida kelib chiqqan *baryatirman> barvatirman> baratirman.*

-atirman, -vatirman affikslar yordamida yasaluvchi hozirgi zamon fe’l formasi Amudaryo tumani Oqoltin qishlog‘i shevasida aktiv ishlatiladi hamda barcha fe’llarga birika oladi. Misol uchun: baratirman, *ishlavatirman, uxlavatirman, sotvatirman.*

Qoraqalpog‘iston hududidagi shevalarda ham **-atip, -djatip** formasi ham shevalarda hozirgi zamon fe’lini yasashda ishtirok etadi. Bu forma shaklan **-yotib** ko‘makchi fe’liga o‘xshaydi. Lekin bu o‘rinda ikki holatni bir-biridan farqlash kerak. Chunki, **-alip, -djatipti** tasviriy forma, *abatipti//aladjatipti* affiksal formadir. *Alipatipti//alipdjatipti* formasidagi **–atip// -djatip** hozirgi zamon ma’nosidan tashqari, ko‘makchi fe’l sifatida, yana turli qo‘shimcha ottenkalarni ham ifodalaydi. *Abatipti//aladjatipti* formasidagi **–atip, -djatip** esa hozirgi zamon ma’nosini bildiradi. Vo‘rtag‘a *chiqqan djig‘ilibatipti, sira djg‘atuvini jo‘q/ o‘rtaga chiqqan yiqilyapti, sira yiqadigani yo‘q*. Bulardan **-atip** yordamida yasaluvchi hozirgi zamon fe’l formasi “ye”lashgan qipchoq shevalarida aktiv qo‘llanadi.

Hozirgi zamon sifatdoshini tegishli shaxs-son affikslari bilan tuslash orqali ham aniq hozirgi zamon fe’li hosil bo‘ladi. Shevalarda hozirgi zamon sifatdoshi birgina **-atqan** formasiga ega, Oqoltin qishlog‘ida esa ko‘pincha **-vatqan** shaklida ishlatiladi. Zamon nuqtayi nazaridan bu forma nutq momentida boshlanib, undan keyin ancha vaqtgacha davom etadigan harakatni bildiradi: *baratqan, kiyatqan, gurringlashvatqan, uxlavatqan.*

Aniq hozirgi zamon fe’lining formasining qo‘shilishi bilan fe’l o‘zaklarida ayrim fonetik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Masalan, *kel* fe’li aniq hozirgi zamon affiksi bilan ikki xil formada tuslanadi:1) *bazardan kiyatirman* 2) *tuvilg‘an kunnan kelvatrman*, 3) *o‘tirishmag‘a qavatidan yoki qalvatirman.* Asosan

Oqoltin OFY hududida shu tarzda ishlatiladi. Birinchi, ikkinchi misollarda ish - harakatning nutq momentida bajarilayotganini, uchinchi misolda esa ish-harakatning avvalda ham, hozir ham va kelgusida ham bajarilishi ko‘rinib turibdi. Demak, **-atir** affiksi fe’l o‘zaklarga qo‘shilib, aniq hozirgi zamon ma’nosini, ba’zida hozirgi-kelasi zamon ma’nosini va umumiy zamon ma’nosini ifodalay oladi.

Aniq hozirgi zamon fe’lining formasini yasovchi **-yotir,** affiksining adabiy tilda qaysi dialekt materiallaridan olinganligi to‘g‘risida ba’zi fikrlar mavjud. Jumladan, prof, F.A.Abdullayev **-yotir, -yatir** affiksi adabiy til normasiga o‘g‘uz shevalaridan olingan deb qaraydi. Prof. A.N.Kononov ham **-yotir** formasining Xorazm dialekti uchun xarakterli ekanligini ta’kidlaydi. Bu fikrni dotsent N.Rajapov ham quvvatlaydi. Boshqa bir guruh olimlari esa prof. B.B.Reshetov, prof. X.Doniyor, dotsentlardan B.Egamov, Abdullayev, M.Baliyev, Y.Ibrohimov va boshqalar **-yotir, -jatir, -vatir** affiksini qipchoq shevalari materiali deb hisoblaydi. Prof. Fozi Olim Yunusov va prof .A.K.Borovkovlar **- yotir** affiksini o‘g‘uz dialekti uchun ham, qipchoq dialekti uchun ham xarakterlidir deb uqtiradi. Y.Jumanazarov ham bu formaning qipchoq lahjasiga xos ekanligini alohida ta’kidlaydi. Shunday ekan, hozirgi zamon fe’lining **-yotir** formasi o‘zbek adabiy tiliga norma sifatida asos e’tibori bilan qipchoq lahjasidan qabul qilingan. Janubiy Xorazm shevalarida **-yotir** affiksining funksiyasini ko‘proq **-vatip** formasi bajarib keladi. Buni ham e’tiborga olish lozim. Dotsent H.Rajabov **-yotir** formasining qo‘llanilishi haqida to‘xtab, o‘zbek tilida **-yotir** affiksi bilan hozirgi zamon fe’lini yasashning tarixi 1929-yildan boshlangan, degan fikrni bayon etadi. Binobarin, prof. S.Mutallibovning guvohlik berishicha, hozirgi zamon fe’lining **-yotir** formasi “Qutadg‘u bilig”da ham uchraydi. Demak, **-yotir** formasi qadimdan mavjud bo‘lib, sho‘ralar davrida uning ishlatilish doirasi kengaydi. O‘rganilayotgan qipchoq tip shevalarda hozirgi zamon fe’lining **-moqda** affiksi deyarli uchramaydi. Uning funksiyasini hamma vaqt harakat nomi yasovchi **- uv,-ub** affiksi va o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi **- da** bajaradi. O‘rin - payt kelishigi qo‘shimchasi hech vaqt sof fe’lga qo‘shilmaydi. Qipchoq tip shevalarda harakat yoki holatning davomiyligini ifoda etish uchun mazkur kelishik qo‘shimchasi harakat nomi yasovchi **-uv, ub** ni talab qiladi: tashuvdaman - toshimoqdaman, chiranuvdasan- oyoq tiramoqdasan. Demak, mazkur shevalarda harakatning davomiyligini ifodalashda **- uvda** affiksi ishtirok etadi.

Amudaryo tumani “Oqoltin” OFY o‘z tarkibiga 5 mahallani qamrab oladi. Aholisi asosan qipchoq lahjasiga mansub bo‘lib, hozirgi zamon fe’lining **-yotir,-yap, -moqda** formalarini ishlatish hollari uchraydi. Jumladan, Oqoltin OFY tarkibidan **“Qipchoq arna”, “Beshtom” “Sori Eshon** qishloqlari ***j***-lovchi shevalaridan bo‘lib, hozirgi zamonda *jevatr, juvvatir* kabi ishlatiladi. “Ozod”

“Kurpskaya”deb nomlagan qishlog‘i esa “yi”lovchi bo‘lib; *yuvvatir, yevatir tarzda* hozirgi zamon shevalari shu tarzda namoyon bo‘ladi. Shuningdek, tarixiy qipchoq til shevalarning shakllanishida turli xil etnik komponentlarning ishtirok etganligi aniq.

Tasviriy forma. Tadqiq etilayotgan obyektlarda hozirgi zamon fe’lining tasviriy formasi *tur, yur, djur,yat, djat, vo‘tir, o‘tir* ko‘makchi fe’llari yordamida yasaladi. Tasviriy konstruksiyada qatnashgan bu fe’llar o‘ziga xos tuslanish va ma’no ottenkalari bilan bir - biridan farq qiladi. Masalan: *yat, djat* fe’lining tasviriy formasi hozirgi zamon fe’lining affiksial formasidek tuslanadi. Yetakchi fe’ldan anglashilgan harakat yoki holatning hozirgi zamonga oidligini ifodalash bilan birga harakat yoki holatni kuchaytirib ko‘rsatadi: *ayavotirman-achinyabman, qaranvatippan- davolanib yotibman.*

Hozirgi zamon fe’lining *baratirippan, kiyatirman* tipidagi formasi o‘zbek shevalarining ko‘pida mavjud. Ko‘pchilik mutaxassislar bunday formalar tipidagi *yatipti, yatir* ni ko‘makchi fe’l, ular oldidan qo‘llanuvchi **a** unlisi ravishdosh yasovchi affiks deb qaraydilar, A. Hojiyev esa bulardagi *yatipti, yatir* ni hozirgi zamon fe’l yasovchi affiks **a** unlisi esa **barip yatipti** formasidagi **b** affiksining tushib qolishidan so‘ng uning oldidan qo‘llangan qisqa *i* unlisining **a g**a yaqin talaffuz etilishidan yuzaga kelgan deb hisoblaydi, ya’ni ikkita undoshni o‘zaro bog‘lash uchun orttirilgan tovush deb ko‘rsatadi. Avtor o‘z fikrini shevalarda keltirilgan faktlar bilan isbotlaydi.

Tasviriy formada bo‘lishsizlik affiksi **-may, -miy, -mey** adabiy tildagidek yetakchi fe’lga qo‘shiladi: *angg‘armay vo‘tirman - payqamay o‘tiribman, indamiy jursillar- jim yuribsizlar*.

Hozirgi zamon fe’lining tasviriy formasi affiksial yordamida yasaluvchi formalariga nisbatan qadimiydir: **-yat, -jat** ko‘makchi fe’li yordamida yasaluvchi tasvirit formaning turlicha grammatikalizatsiyasidan o‘zbek shevalaridagi hozirgi zamon fe’lining bir qator affiksial formalari kelib chiqqan degan fikrning to‘g‘ri ekanligini Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalaridan yuqoridagi keltirilgan faktlar yana bir bor to‘la izohlanadi.

Qisqasi, o‘zbek tili qipchoq shevalaridagi aniq hozirgi zamon fe’lining **- atir, -jatir, -yatir, -jatip, -at**, **-atqan** formalari bilan yasalgan turi tasviriy formadan kelib chiqqan degan fikrni to‘la tasdiqlaydi. Aniq hozirgi zamon fe’li yasovchi affikslarning *“yotmoq”* fe’lidan kelib chiqish sababi bu fe’lning ko‘makchi fe’l vazifasida *turmoq, yurmoq, o‘tirmoq* fe’llariga nisbatan tarixan keng qo‘llanilganligi bilan bog‘langan. Oqoltin OFYida ko‘p ishlatiladigan *tur,vo‘tir, o‘tir, jur, yur, yat, holat* va ish-harakat fe’llari orqali aniq hozirgi zamon fe’li ifodalanganda, asosiy fe’llardagi harakatning davomiyligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek diyalektologiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2021. -176 b.
2. Жуманазаров Ю. Аниқ ҳозирги замон феъл формасининг келиб чиқиши ҳақида. Тўплам. ЎзДМ. –Тошкент: 1961.
3. Ибрагимов Ю.М. Қорақалпоғистондаги ўзбек шеваларида феъл. – Нукус. 1984. – 84 б.
4. Ҳожиев А. Аниқ ҳозирги замон феъл формасининг келиб чиқиши ҳақида //Тўплам. ЎзДМ. –Тошкент: 1961, 11. – Б. 442-451.

XORAZM O‘G‘UZ SHEVALARI LEKSIKASIDAGI ERONIY TILLARGA OID O‘ZLASHMALARNING AYRIM MAVZUIY GURUHLARI

Yusupova Manzura,
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi,
Orislanova Hamida,
Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm o‘g‘uz shevalari leksikasidagi eroniy tillarga oid o‘zlashmalarning ayrim mavzuiy guruhlari xususida fikr yuritilgan. Shuningdek, bunday so‘zlarning shevalarga o‘zlashish omillari ham yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *leksik-semantik guruh, o‘zlashma qatlam, eroniy tillar, lahja, sheva.*

Annotation. *The article deals with some thematic groups of assimilations of Iranian languages in the lexicon of Khorezm Oghuz dialects. It also explains the factors that contribute to the dialect while deriving such words.*

Keywords: *lexical-semantic group, assimilation layer, Iranian languages, dialect, dialect.*

Til leksik tizimining o‘zgarib, rivojlanib borishi uning ijtimoiy hodisa ekanligidan dalolat beradi. Har qanday xalq tarixiy davrlar mobaynida boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqaga kirishishi natijasida uning leksik fondi ma’lum bir o‘zgarishlarga uchraydi. Tillarning bir-biriga o‘zaro ta’siri orqali tilning barcha bo‘limlarida: fonetika, leksika, grammatika kabilarda o‘zgarishlar yuz berishi tabiiy. Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tili va uning shevalarida ham ana shunday jarayonlarni kuzatishimiz mumkin. O‘zbek tilining,

jumladan, shevalarning ham umumiy so‘z boyligining asosiy qismini turkiy so‘zlar tashkil qilsa-da, ularda qarindosh va qarindosh bo‘lmagan tillardan o‘zlashgan leksik birliklar ham salmoqlidir. Xususan, Xorazm shevalarida asl turkiy so‘zlar yetakchi mavqega ega bo‘lgan holda, eroniy tillarga mansub so‘zlar turkiy qatlamdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Xiva shevasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan dialektolog olim O. Madrahimov Xiva shevasi leksikasidagi eroniy tillar guruhiga mansub so‘zlar haqida quyidagicha fikr bildirgan edi: “Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, bu toifa so‘zlarning barchasi ham fors-tojik tilidan o‘tgan deyish tarixiy haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Birinchidan, Xiva xonligining asrlar davomida eron va tojiklar bilan iqtisodiy va madaniy munosabatda bo‘lganligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan bu hududda qadimiy xorazmiylarning istiqomat qilganliklari. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Xorazmda XIII asrgacha ikki tillilik – xorazmiy va turkiy davom etib kelgan. XIV asrga kelib qadim xorazmiylar etnik turkum sifatida tarix sahnasidan o‘chib ketadi. Ularning so‘z boyligi esa mahalliy xalq tiliga, asosan, o‘g‘uz tiliga singib qolgan” [Мадраҳимов, 1999:17-18]. Eroniy tillarga oid, xususan, fors-tojikcha so‘zlarning muqim o‘rnashishining yana asosiy sabablaridan biri XX asrgacha adabiy muhitda xalq ziyolilari tomonidan fors tilining ikkinchi til sifatida qo‘llanilib kelinishidir. Umuman olganda, “…hech bir til, uning sheva yoki lahjasi yo‘qki, ularning tarkibida boshqa tillardan kirgan so‘zlar bo‘lmasin. Chunki so‘z olish til hayotining zaruriy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi” [Аллабердиев, 2013:40]. Darhaqiqat, Xorazm shevasi o‘g‘uz lahjasidagi eroniy tillarga oid so‘zlar ijtimoiy va maishiy hayotimizda qo‘llaniluvchi tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklardir. Quyida eroniy tillardan o‘zlashgan leksik birliklarni ayrim leksik-semantik guruhlarga ajratgan holda ko‘rib chiqamiz. Zero “Leksik birliklarni mavzuiy guruhlarga ajratish, taqsimlash, ularni vazifa va ma’nosiga ko‘ra ma’lum o‘xshash qatorlarga jamlash, yig‘ishni ifoda etadi” [Абдиев, 2015:105-106].

1. Qishloq xo‘jaligiga oid so‘zlar:

kädi (qovoq), bodrïŋ (bodring), zämčä (handalak) čaŋalaq (g‘o‘za chanog‘i), näl (nihol), zomorïq (qo‘ziqorin), xoros (hayvon kuchi bilan yurgiziladigan tegirmon), käpčä (kichik belkurak).

2. Chorvachilik bilan bog‘liq nomlarni ifodalovchi so‘zlar:

čopan (cho‘pon), čarva (chorva).

3. Uy-ro‘zg‘or buyumlarini ifodalovchi so‘zlar:

kosa (piyola), räpïdä (non yopishda ishlatiladigan buyum), täräzï (tarozi), čïrä (chiroq), käpkïr (kaftgir), pärdä (parda), čölpoq (cho‘lpi), kurt (gugurt), čäläk (chelak), dastïrxän (dasturxon), näx (ip), tunča (oftoba), särhum (suv olish uchun ishlatiladigan idish).

4. Uy qurilishiga oid so‘zlarni ifodalovchi so‘zlar:

dälïz (dahliz, kirish joyi), äk (ohak), devol (devor), pono (pona), mïx (mix), xada (xoda, uzun yog‘och), bälär (to‘sin), päťïk (ship), dolon (uyning bir qismi).

5. Belgi-xususiyatni ifoda etuvchi so‘zlar:

jörä (yor, do‘st), dös (do‘st), balant (baland), päs (past), gädo (gadoy), kamboγol (kambag‘al).

6. Kiyim-kechakni ifodalovchi so‘zlar:

soppaš (kechasi kiyib yotadigan do‘ppi), padaš (oyoq o‘rnashadigan o‘rin), peškïr (fartuk), pötä (ro‘mol), sandal (oyoq kiyim), ǯöräp (paypoq).

Eroniy tillarga aloqador bunday so‘zlarni yana bir qancha mavzuiy guruhlarga ajratib o‘rganishimiz mumkin. Chunki bu so‘zlar so‘zlovchi nutq egalari tomonidan kundalik hayotiy faoliyatlari davomida faol qo‘llanadi. Ko‘rinib turibdiki, eroniy tillar guruhiga mansub leksik birliklar Xorazm shevalari o‘g‘uz lahjasi leksik fondida katta o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аллабердиев А. Бухоро ўғуз шеваларидаги форсча ва тожикча лексик бирликлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2013, №3.

2. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг Хива шеваси. – Урганч: Хоразм, 1999.

3. Абдиев М. Пастдарғом тумани ўғуз лаҳжаси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015, 4-сон.

4. Норбаева Ш. Хоразм шеваларидаги соҳавий лексика. – Тошкент, 2014.

VODIL SHEVASIDA INSONLARNING TASHQI QIYOFASINI VA SIFATLARINI IFODALOVCHI LEKSEMALAR

Abdusattorova Dilshodabegim,
Tosh DO‘TAU magistranti

Annotatsiya. *Bu maqolada Farg‘ona tumani Vodil shevasida uchraydigan insonlarning tashqi qiyofasini va sifatlarini ifodalovchi leksemalar tahlil qilindi.*

Kalit so‘zlar: *leksema, sheva, lug‘at, atama, sinonim, ibora, leksika, nutq.*

Annotation. *This article analyzes the lexemes that describe the appearance and qualities of people in the Vodil dialect of Fergana region.*

Key words: *lexeme, dialect, dictionary, term, synonym, phrase, lexicon, speech*

Ma’lumki, borliqdagi barcha jonli narsalar, ya’ni o‘simliklar, hayvonot olami, insonlar ham bir biriga o‘xshamas va bir-birini takrorlamas shakl-shamoyilga ega. Bu olamda yashaydigan har bir mavjudotga Olloh tomonidan o‘zgacha shakl, qiyofa berilgan. Shart-sharoitlar taqozosi bilan inson chiroyli, yo xunuk, daroz yoki pakana, afti angori normal yoki anormal bo‘lishi mumkin [Шоимова, 1999: 46].

O‘zbek tilining izohli lug‘atidan ham kishilarning ayni shunday fiziologik qiyofasi, tashqi ko‘rinishi, shakl-shamoyilini ifodalash uchun juda ko‘p leksemalar o‘rin egallagan. Masalan: *semiz, ozg‘in, pakana, novcha* kabi. Bu kabi leksikbirliklarning ko‘pi, tabiiyki, shevalarimizda turlicha fonetik o‘zgarishlar bilan talaffuz qilinadi*: Meni hïlvalïgïm (g) a häsät qïgan adamlar qanča?* Tabiiy, insonlarbilan so‘zlashuv chog‘ida jumlada qo‘llangan **sumakdaj** // *sumakday* leksemasining ma’nosi yanglish tuyuladi. Ma’lum bo‘lishicha, *hïlvalïgïm* so‘zi “*xushbichim, xipcha bel, nozik, chiroyli qomat”* ma’nosini ifodalar ekan.

Čïlašir / chilashir – ozg‘in odamlarga nisbatan aytiladi. *Bečärä musopirdä yurorïp čïlašir bo‘p ketiptï (<Bechora musofirda yuraverib, chilashir bo‘lib ketibdi).*

Čïtrï / chitri-tirishgan, so‘lishgan bukri odamga nisbatan ishlatiladi. *Čïtrïga o‘xšämej to‘g‘rï yursenčï? (<Chitriga o‘xshamay to‘g‘ri yursang-chi).*

Däroz / daroz-bo‘yi baland odamga nisbatan ishlatiladi. *Keča ujizgä därozla keldi, tinčlimidï? (<Kecha uyingizga darozlar keldi,tinchlikmidi?)*

Ilpïsän / ilpisan (Узоқов, 1961: 241-244) – bo‘yi baland, novcha, ozg‘in odamga nisbatan ishlatiladi. *Masalan: Ilhomdï kördimmï rosä Ilpïsän böp ketïptï, Rassijädan keʏändan kejïn (<Ilhomni ko‘rdingmi rosa ilpisan bo‘lib ketipti, Rossiyadan kelgandan keyin).*

O‘zbek tilining izohli lug‘atida **čajïr***chayir* so‘zining ikki xil ma’nosi izohlangan: 1. Tolalari mahkam birikkan, yorilishi, ishlanishi qiyin (yog‘och-taxta, o‘tin). 2. Quruq dashtlarga moslashgan, gullari sarg‘ish, ozuqabop va shifobaxsh o‘simlik nomi. Vodil qishlog‘i leksikasida o‘zi kichkina bo‘lsa ham hamma ishni qila oladigan chaqqon, chapdast insonga nisbatan **čajïr***chayir* degan so‘z qo‘llaniladi. Ma’lumot sifatida shuni aytib o‘tmoqchimizki, “j” lovchi Qashqadaryo shevasida bunday sifatga ega odamlarga nisbatan *ganajin* leksemasi qo‘llaniladi(Шоимова, 1999: 46). Ma’lum bo‘lmoqdaki, shevada shakli-shamoyili, jussasi kichik odamlar ham ma’lum leksemalar bilan ifodalanar ekan.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida bizga yana shu narsa ma’lum bo‘ldiki, tengdoshlariga nisbatan bo‘yi past, jussasi kichkina bolalarga nisbatan **čikäläk***chikalak* leksemasi qo‘llanadi: *özi čikäläkdäj bovalïp bilmägän*

närsäsi joq. (<oʻzi chikalakday boʻlib olib bilmagan narsasi yoʻq). Maʼlumot oʻrnida shuni taʼkidlab oʻtmoqchimizki, ushbu soʻz oʻzbek tilining izohli lugʻatida berilmagan.

Adabiy tilimizda qancha esa ham toʻymaydigan, yoki koʻp ovqat eydigan insonga nisbatan *ochkoʻz* atamasi qoʻllaniladi. Dardoq shevasida esa ochkoʻz soʻziga sinonim sifatida **näkäs** / *nakas* soʻzi qoʻllaniladi. Bu soʻz faqatgina ebtoʻymas maʼnosida emas, baʼzi bir kontekstual matnlarda *ziqna, xasis* maʼnolarida ham keladi. **Näkäs** soʻzi ham izohli lugʻatda qayd qilinmagan.

Forscha *nokas* soʻzi berilgan. Ushbu soʻzning maʼnosi izohli lugʻatda *vijdoni,insofi yoʻq, pastkash, yaramas, qabih* kabi izohlanadi. *ata üjimdägi jan qošnïmïz näkäs adamijdi. üjimizdägi hämmä pišip qaɣan mevä-čevälärimizi terip čïqïp ketärdi. (<ota uyimdagi yon qoʻshnimiz nakas odam edi. Uyimizdagi hamma pishib qolgan meva-chevalarimizni terib chiqib ketardi).*

Očopät / ochopat-nafsi yomon odamga nisbatan ishlatiladi. *Očopätga oxšäb emasdän töɣri esäŋči? (<Ochofatga oʻxshamasdan toʻgʻri esang-chi)*

***Badnäfs** / badnafs-ochofatga sinonim boʻlib, nafsi yomon odamga nisbatan ishlatiladi. Oʻzini manpätïni dïp hïš narsadän täp tortmedigon b**adnäfs** bu.*

Olloh tomonidan berilgan neʼmatlar ichida eng azizi non boʻlsa, soʻzsiz nondan keyin koʻz turadi. Insonlar nutqida ham koʻzning xususiyatlari, uning fiziologik va biologik tuzilishi uchun ham u bilan yonma-yon ishlatiladigan turli xil sifatlar talaygina. Ana shunday sifatlardan biri bu **piskä***piska* leksemasidir. Ushbu leksema oʻrganilayotgan sheva vakillari tomonidan koʻzi qisiq, karisqovoq (koreys millatiga mansub insonlarning koʻzi) insonlarning koʻziga nisbatan ishlatiladigan sifatdir. Masalan: *Vaj, bü žižini közi minčä piskä, kimi tärtqan? (<Voy, bu jijining koʻzi namuncha piska, kimi tortgan?)*

Qirɣïzqovoq / *qirgʻizqovoq*- koʻzi qisiq, (qirgʻiz millatiga mansub insonlarning koʻzi) insonlarning koʻziga nisbatan ishlatiladigan sifatdir. *Sani bittä Qirɣïzqovoq kiši sorab kelottä, qattä jurodïŋ. (<Sani bitta qirgʻizqovoq kishi soʻrab kelgandi qayerda yurganding?).*

Adabiy tilimizda uy tutimi yaxshi boʻlmagan, saranjom-sarishta oʻtirmagan insonlarga nisbatan ishlatiladigan leksema mavjud emas. Vodil shevasi vakillarida esa bunday tutumdagi insonlarga nisbatan**, palapartiš, hariš, uvrisgan, nas bosgan** (palapartish, harish)leksemalari ishlatiladi:

Palapartiš, *čäčilip jatqan närsälärdi jïɣïštïr, taza turadi qïz bala bar üj, ujatmasmï, käp-kättä bopqalïššaŋam. (<Palapartish, chochilib yotgan narsalarni yigʻishtir, toza turadi qiz bola bor uy, uyat emasmi, kap-katta boʻlib qolishsang ham).* Yuqorida keltirilgan leksemalar ham oʻzbek tilining izohli lugʻatidan oʻrin egallamagan.

Shunisi eʼtiborliki, oʻrganilgan shevada, ayniqsa, ayollar, xususan

qizlarningyurish-turish, xulq-atvori, harakterini ifodalovchi qator leksik birliklar mavjud. Quyidagi misollar buni tasdiqlaydi:

Dänäk, daqqï / *Danak, daqqi* sifatlari o‘zi kichkina bo‘lishiga qaramay so‘zga, gapga chechan yosh qizchalarga nisbatan qo‘llaniladi: qïzïz dänäk qïz boptï. (<qizingiz danak qiz bo‘libdi.) mänuvï daqqï kimi qizï ekän (<manavi daqqi kimning qizi ekan).

Mamadana / *mamadana,* **keksäqarï /** *keksaqari,* ***e*tïmoqsoqol /** ***e****timoqsoqol* bo‘lar-bo‘lmas narsaga gap talashadigan, ko‘p gapiradigan **(keksaqari va etimoqsoqol)** sifatlari esa, bo‘lar bo‘lmasga turli xil gapga aralashadigan odamlarga nisbatan ishlatiladi. Bu so‘z adabiy tildagi *mahmadona* so‘zi bilan ma’nodoshdir. *Mamadanalïq qïma, kättä gäpirgändä hop dejiš kere. (<Mahmadonalik qilma, katta gapirganda ho‘p deyish kerak). Bu nevärең kunnän kungä* keksäqarï bop ketjäptï, kimgä oxšajäptï hajrommä *(<Bu nabirang kundan kunga juda keksaqari bo‘lib ketyapti, kimga o‘xshayapti hayronman)*

Šäldir-šüldir / *shaldir-shuldir* so‘zi kirishimli, hamma bilan chiqishib keta oladigan, ko‘nglida kiri yo‘q, sodda odamga nisbatan ishlatiladigan sifat: *adam degän šäldir-šüldir böliši kerej, dïmaɣdar bölip, keh sahlamaslïq kere.* (<Odam degan sodda, shaldir-shuldir bo‘lishi kerak, dimog‘dor bo‘lib, kek saqlamaslik kerak).

Poldir-šäldir / *poldir-shaldir* so‘zi kirishimli, hamma bilan chiqishib keta oladigan, ko‘nglida kiri yo‘q, biroz betartibroq, sodda odamga nisbatan ishlatiladigan sifat.

Gäžir / *Gajir* – aytganini qildiradigan, zahar, qatma, qaysar, jangari. Bu so‘z insonga xos bo‘lgan xususiyatni bildirishi bilan birga, ot jonzotiga nisbatan ham ishlatiladi. Bo‘ysundirish qiyin bo‘lgan, qaysar otni gajir ot deyishadi. Ushbu qishloq shevasida otga nisbatan emas, balki insonlarga nisbatan ham bu leksik birlikdan foydalaniladi. Masalan: *balasïjam rasajam gäžir boɣan-e:j ajtganïnï qïldïradï. (<Bolasi ham biram gajir bo‘lganeeey aytganini qildiradi).*

Ba’zida o‘zimiz istamagan holatda kimgadir tanbeh berishga majbur bo‘lamiz, shunda beixtiyor qo‘pol so‘zlardan foydalanib qo‘yamiz. Farg‘ona viloyatining Vodil shevasida **tasraj, bezbet, betiqattiq, sur***tosraymoq, bezbet, betiqattiq, sur* leksikasi qancha gap gapirsa ham, gap ta’sir qilmaydigan odamga ta’rif berishda ishlatiladigansifatlardan biridir: *Gäpäm tä’sir qïmajdï-ja, tasrajïp turïšïnï qara, tasbet. (<Gap ham ta’sir qilmaydi-ya, tosrayib turishini qara, bezbet).* Adabiy tilimizda bu so‘zgasinonim sifatida *bezbet* so‘zi qo‘llaniladi.

Ïšbermäs / Ishbermas, **tülläk //** *tullak* **\\ tüläj ** *tulay,* leksemalari ham shevaga xos so‘zlar bo‘lib, bu so‘zlar adabiy tilimizdagi *ayyor* so‘ziga ma’nodoshdir. Masalan, *ölgüdej tüläj ä? Bu dösimidijäm demedi, namüssiz. (<O‘lguday tullak a? Bu do‘stim edi ham demaydi, nomussiz). Eee,bulärdï ishgä*

endï čäqirmelä foydäsï joq bäribïr bulä ïšbermäs(<Eee bularni ishga endi chaqirmanglar foydasi yo‘q baribir bular ishbermas).

Shuni aytib o‘tish lozimki, o‘rganilayotgan shevada insonlarga xos salbiy xususiyatlarni atab kelishda ham bir qancha leksemalar mavjud bo‘lib, ular o‘zbek tilining izohli lug‘atida uchramaydi. Shunday leksik birliklardan biri bu **sersalom, xo‘lto‘šak**\sersalom, xo‘lto‘shak leksemasidir. Adabiy tildagi *laganbardor* – o‘z manfaati uchun boshqalar oldida o‘zini juda tuban tutib, unga xushomad qilishga tirishadigan pastkash odamga nisbatan o‘rganilayotgan sheva vakillari nutqida **sersälom, xo‘lto‘šak, paxtaqo‘yar, patxalim** leksemasi qo‘llaniladi. *Masalan: Hä, bu özi šunaqa, kičkinäligimizdäjäm bayväčča qïzlarga sersälom bolï jürärdi, hälijäm ozgarmaptï, rahbarlarga lägänlik qïlïp. (<Ha bu o‘zi shunaqa, kichkinaligimizdayam boyvachcha qizlarga sersalom bo‘lib yurardi, haliyam o‘zgarmapti, rahbarlarga laganlik qilib).*

Hozi bunga o‘xšägan patxalimlä ko‘pejip ketgän. Kopčilidi soyäsiga salom beredigon. (<Hozir bunga o‘xshagan patxalimlar ko‘payib ketgan, ko‘pchilidi soyasiga salom beradigan).

Yuqorida keltirilgan gapdan poyipaytava so‘zining ma’nosini anglash unchalik ham qiyinchilik tug‘dirmaydi. Berilgan gapdan shu xulosaga kelinadiki, ya’ni laganbardor. Demak, **takabbur, gerdaygan/odämmisan demaslik, -** so‘zi e’tiborsizlik, past nazar bilan qaramoq degan ma’nolarda keladi. *Masalan: Vaj töbä, kimgä oxšagan? šünčälik gerdaygan, gäpirseŋ sen kimsänäm demedi. (<Voy tavba, kimga o‘xshagan? Shunchalik gerdaygan, gapirsang sen kimsan ham demaydi.)*

Bo‘yni yor bermas / betayin/ishini tayini yo‘q leksemasi ham insonga xos xususiyatlardan birini atab keladi. Ushbu so‘z ham o‘zbek tilining izohli lug‘atidan o‘rin olmagan bo‘lib, mehnat qilib o‘zini qiynashni xohlamaydigan, dangasa, ishyoqmas, tanbal insonlarga nisbatan ishlatiladigan leksik birlikdir. *Katta o:lïm qoramas bala boɣan, ɣïirt dänggäsä, kimgä tartip qaɣan xayramman.(<Katta o‘g‘lim qo‘ramas bola bo‘lgan, g‘irt dangasa, kimga tortib qolgan xayronman).*

Insonlardagi salbiy xususiyatlardan biri dardoq shevasi vakillarida **iržäj***irjay* deb nomlanadi. irjay so‘zi bo‘lar bo‘lmasga kuladigan, o‘rinsiz xazil qiladigan odamga nisbatan ishlatiladigan leksik birlik bo‘lib, bu leksemani o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham uchratmaymiz. Masalan: *Sen ünä: irjaäj bala bomagïn, oɣïl bala üna: äržäj bomedi, säl närsägelä külormedi. (<Sen unaqa irjay bola bo‘lmagin, o‘g‘il bola unaqa arjay bo‘lmaydi, sal narsagagina kulavermaydi).*

Ovqatni tanlab, oz-oz eydigan, har qanday ovqatni eyavermaydigan insonlarga nisbatan **čïmtomoq** \ *chimtomoq* atamasi qo‘llanadi. Ko‘p sheva

vakilarida bu so‘z, asosan, hayvonlarga nisbatan ishlatiladi, ammo o‘rganilayotgan sheva vakillari nutqida esa insonlarga nisbatan ham ko‘p qo‘llanadi: *čïmxor hokïz aštan olar. (<Chimtomoq ho‘kiz ochdan o‘lar) (Maqol). Vaj, qïzïmej, büna: čimxor bömägin, unaqada azïp ketäsän-u. Qara, bunini özi qaptï-ju. Vaxtïda aqatlan. (<Voy, qizim-ey, bunaqa chimtomoq bo‘lmagin, unaqada ozib ketas an-u. Qara, burningni o‘zi qolibdi-yu. Vaqtida ovqatlan).*

O‘rganilayotgan shevada insonlarning sifatlari iboralar orqali ham ifodalanishi mumkin:

Ushbu qishloqda **jerdi kinnigini üzmoq** iborasi mehnatkash, o‘ta ko‘p ish qiladigan, har qanday qiyin yumushlarni ham qila oladigan, ertalabdan kechga tinim bilmay mehnat qiladigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. Masalan: *Bärra jerdi kinnigini üzädigän xātïn, bir minit timmiydi, bittä özi mäši pärnikti qïlïp, dïjqančilik qilip beštä qïzdi čïqardï-ja. (<Barchin erning kindigini uzadigan xotin, bir minut tinmaydi, bitta o‘zi manashu issiqxonani qilib dehqonchilik qilib, beshta qizdi chiqardi-ya).* Bu ibora deyarli ayollarga nisbatan ishlatiladi, ya’ni erkak kishilar qiladigan yumushlarni ham qilib ketaveradigan ayollarga nisbatan aytiladi.

Žïr-pïrï čïqdï/Jir-piri chiqdi (Узоқов, 1961: 102-106) - bu ibora sheva vakillari nutqida o‘ziga oro berish, sodda ayolning yasanib biror joyga borishi ma’nosida qo‘llaniladi.

Keča äpenï kordimï ujiga borsam heč kïm čïqmadï, čaqïrsam. Hï män korodim žïr-pïrï čïqïp qošnilari bilan ketjatodï, kop ɤapläšmadi. *(<Kecha opangni ko‘rdingmi uyiga borsam hech kim chiqmadi, chaqirsam. Ha man ko‘rgandim jir-piri chiqib qo‘shnilari bilan ketayotgandi, ko‘p gaplashmadi).*

Ällï desa bällï demoq / alli desa, balli demoq,

Äštän ɤäpïrsa däštan ɤäpïrmoq / ashdan gapirsa dashtdan gapirmoq iboralari ikki suhbatdoshdan birining gapi bir-biriga mos kelmasligiga nisbatan qo‘llaniladi.

Eee, sän nïma dïyapsan, man ällï dïsam bällï dïsan-a još bola hamä ïšɤa arälašormedï, axlïŋ jetmaɤan nässanï ɤäpïrormä*(<Eee, san nima deyapsan,man alli desam, balli deysan-a yosh bola hamma ishga aralashavermaydi, aqling etmagan narsani gapiraverma).*

Qüda köpriga jetkändä / quda ko‘prikka etganda – ushbu ibora sheva vakillari nutqida biror ishni tugash vaqtiga qadab tugatishni bildiradi. Masalan: *Šunča päjt ojnäp-ojnäp qüda köpriga jetkändä därs qïlïš esïŋgä keldïmï? (<Shuncha payt o‘ynab-o‘ynab quda ko‘prikka etganda dars qilish esingga keldimi?).*

Särt järador- qïrɣïz äzädor-sart yarador qirg‘iz azador - iborasi pashshadan fil yashash iborasiga yaqin bo‘lib, arzimagan kichkina narsani katta qilib ko‘rsatishga nisbatan aytiladi.

Ehe šüngä šünčämï,qölïnï hïč qänčä kesmäpsänü jänä särt järador- qïrɣïz äzädor qïläsän.(<Ehe shunga shunchami,qo‘lingni hech qancha kesmabsan-ku yana sart yarador qirg‘iz azador qilasan)

Qorä qümɣondä čojï jöq - itïnï otï Žavlonbe / qora qumg‘onda choyi yo‘q, itini oti Javlonbek – ushbu ibora sheva vakillari nutqida maqtanchoq, sharoitiga qarab ish ko‘rmaydigan, ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmaydigan, ayrim kishilarni sifatlashda ishlatiladi. *Masalan: Kečä anüvï Zumrät qöšninikkä čïqodïm, qorä qümɣondä čojï jöq, itïnï otï Žavlonbe dïp bärï šunäqäldï ajtättä qurbïŋ jetmäsä nïma qïläsän mäxtänïb pïl olïp, nïmemïš avtäsalonga pïl töläganmïš, jängï mošïnä ogunčä oldïn mannän ogän qärzïnï ussïn. (<Kecha anuvi Zumrad qo‘shningnikiga chiqqandim, qora qumg‘onda choyi yo‘q, itini oti Javlonbek deb bari shunaqalarni aytadi-da, qurbing etmasa nima qilasan maqtanib pul olib, nima emish avtosalonga pul to‘lagan emish yangi mashina olguncha oldin mandan olgan qarzini uzsin)*

Rözïlidï bolasï öm bešïda boš berözïnï bolasï jïgïrma bešïdajam jošː ro‘zilini bolasi o‘n beshida bosh, bero‘zini bolasi yigirma beshdayam yosh. - Ushbu ibora sheva vakillari nutqida ayrim kishilarning farzandlari yoshlik paytidan aqlli bo‘lib, yoshiga nisbatan katta ishlarni qilishi, ayrim katta yoshlilarni esa yoshiga nisbatan hech narsa qila olmasligiga nisbatan aytiladi. *Masalan: Rözïlidï bolasï öm bešïda boš berözïnï bolasï jïgïrma bešïdajam jošː dïganičä boräkända Azamattï boläsi halï majtap pajtïda, toɣaladï jonïda jurïp, södagärlidï örganïp, otasïni änča jonïga kïrïptï, ešïtïp rosä häväs qïldïm, mänï nevaralärïmäm öša boläga öxšasïn, ilojïm. (<Ro‘zilini bolasi o‘n beshida bosh, bero‘zini bolasi yigirma beshdayam yosh deganicha borakanda Azamatni bolasi hali maktab paytida tog‘alarini yonida yurib, savdogarlikni o‘rganib otasini ancha yoniga kiribdi, eshitib rosa havas qildim, mening nabiralarim ham o‘sha bolaga o‘xshasin, ilohim).*

O‘rganilayotgan obyektda ***mondä*** so‘zi mavjud bo‘lib, biror ishni ko‘ngildagidek, yaxshi bajarish ma’nosida qo‘llaniladi. Masalan: *išïŋni qilsäŋ mondä qil (ishni qilsang monda qil).*

Böle-säläɣ-bo‘lak-salaq-sheva vakillari ushbu leksemani agar birorta ish o‘z vaqtida amalga oshmasa, o‘sha ishning har kuni takrorlanishiga nisbatan ishlatishadi. *Masalan:Här kunï män säŋgä böle-säläɣ bolïp ürïnormimä, örtäɣlariŋ kesä bügün kesïn, ettägä mäni jölïm bo. (<Har kuni men senga bo‘lak-salaq bo‘lib urinavermayman, o‘rtoqlaring bugun kelsa kelsin, ertaga meni yo‘lim bor).*

Shuningdek, sheva vakillari nutqida **nobop** lesikasi juda faol qo‘llanilib, o‘ziga munosib bo‘lmagan, yaxshi emas, tengi bo‘lmagan kabi ma’nolarda ishlaydi. Masalan: Ojlalarida bitta šunï nobopräɣ žojɤa berɤan-da, qoɤan apä-ukälari tïnïp tïnčïp ketïšɤan *(<Oilalarida bitta shuni noboproq joyga bergan-da, qolgan opa-ukalari tinib tinchib ketishgan)*

ADABIYOTLAR:

1. Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси. –Тошкент: 1999. –Б. 46.

2. Узоқов Ҳ. Водил шеваси лексикасидаги баъзи бир сўзларнинг маънолари // Адабиётшунослик ва тилшунослик масалалари. –Тошкент, 1961. 2-китоб. –В.241-244-б.

3. Узоқов Ҳ. Водил шевасида феълларнинг тусланиши // Тилшунослик масалалари. –Тошкент, 1960. –В.102-106.

TAYLOQ TUMANI YASTEPA QISHLOG‘I SHEVASIGA DOIR DASTLABKI KUZATISHLAR

Ahatova Gulchehra,
SamDU magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Tayloq tumani Yastepa qishlog‘i shevasiga doir dastlabki ma’lumotlar berilgan. Unda shevaga xos ba’zi so‘z turkumlari, kelishiklar hamda fonetik hodisalar haqida dalillar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *lahja, sheva, urug‘, so‘z turkmi, fonetik hodisa.*

Annotation. *This article provides preliminary information on the dialect of Yastepa village, Taylak district. It contains evidence of some phrases, conjunctions and phonetic phenomena in the dialect.*

Keywords and combinations: *dialect, dialect, seed, word group, phonetic phenomenon.*

Ma’lumki, har bir tilning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo‘ladigan narsa bu – shevalardir. Shevalar o‘zida xalqning lug‘aviy boyligini, o‘zligini, milliy urf-odatlarini aks ettiradi.

Xalq shevalari adabiy tilni boyituvchi ichki manba hisoblanadi. Dunyoga kelgan har bir go‘dak nutqi avvalo, o‘zining shevasi ta’sirida shakllanadi va asta-sekinlik bilan takomillashib boradi. Inson o‘ziga kerakli bilimni ko‘rib, eshitib, o‘qib o‘rganish natijasida adabiy til me’yorlarini ham o‘zlashtirib boradi.

O‘zbek xalq shevalari xilma-xil bo‘lib, ular o‘ziga xosligi bilan bir-biridan farq qiladi. Ularda o‘ziga xos so‘zlar borki, ular adabiy tilda yoki boshqa shevalarda uchramaydi. Bunday so‘zlar qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, qarindoshilik, o‘simlik, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari sifatida faol qo‘llanadi.

Biz ushbu maqolamizda ozbek shevalarining Shimoliy - g‘arbiy guruhiga mansub bo‘lgan qipchoq shevalariga kiradigan Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi Yastepa qishlog‘i shevasi xususida fikr bildirishga harakat qilamiz. Yastepa qishlog‘i qadimda “Shahri Maysara” deb nomlangan bo‘lib, bu yerga qattiq qo‘l, o‘z so‘zini o‘tkazadigan Maysara ismli ayol boshliq bo‘lgan. Keyinchalik bu yerning “Yastepa”, aslida “Yassi tepa” shaklida yozilishi va talaffuz etilishi lozim edi. Shevadagi talaffuz bo‘yicha rasmiy hujjtlarda ham “Yastepa” qayd etilib kelinmoqda. Uning bunday deb atalishiga sabab, bu hudud yerlari yassi tepaliklardan iborat bo‘lganligidir. Yastepa qishlog‘i aholisi o‘ziga xos tarix, madaniyat, urf- odat bilan birga adabiy tildan ma’lum darajada farq qiladigan shevasiga ham ega. Qichloqda asosan ming, nayman, qutchi, singari qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi urug‘ vakillari yashashadi. Ammo atrofdagi qarluq lahja vakillari ta’siri seziladi. Masalan, Yastepa shevasida uchraydigan ot so‘z turkumiga oid so‘zlarni adabiy tildagi sinonimi bilan quyidagicha qiyoshlash mumkin:

Sheva	Adabiy til
Biyi	ona
Zambur	ari
Shipirgi	supurgi
lo‘la	yostiq
bachcha	bola
yang‘oq	yang‘oq
sirg‘a	zirak
sachoq	sochiq
jilop	paypoq
duvo	duo
mazor	qabriston

Bunday so‘zlar orasida ma’nodoshlikga ega bo‘lgan so‘zlar ham uchraydi. Misol tariqasida biyi ya’ni ona so‘zining bir necha sinonimlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir: Biyi- opa- aya- oyi- ena. Bunday sinonimlar o‘z o‘rnida shevaning o‘ziga xosligidan darak beradi.

Yastepa shevalarining o‘zgachaligini fe’l turkumiga oid so‘zlari orqali ham bilishimiz mumkin:

Sheva	Adabiy til
Ji	ye

Jidingma	yedingmi
Diyisdim	der edim
Devdim	degan edim
olmani o	olmani ol
ollim	oldim
ki	kel
bo‘	bo‘l
bo‘lli	bo‘ldi

Yastepa shevalarida ot va fe’l so‘z turkumidan tashqari, boshqa so‘z turkumlari, xususan, yordamchi so‘zlar ham o‘zining ajoyib ko‘rinishiga ega:

Sheva	Adabiy til
shag‘i	shu tomoni
bag‘i	bu tomoni
baqa	bu yerga
shaqa	shu yerga
mengga	menga
sengnga	senga
chog‘imnay	menimcha
gilobi	pushti
shunnay	shunday
bunnay	bunday
shuchun	shuning uchun
shirinlik	tolli
ulim	o‘g‘lim
kipcha	likopcha
chaynik	choynak
tirza	deraza
turpoq	tuproq.

Yastepa qishloq shevasida kelishik qo‘shimchalari qo‘llanishiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, qaratqich kelishigi belgisiz qo‘llanadi: buchun (buning uchun), shuchun(shuning uchun) kabi. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi –ga o‘rnida –qa (baqa-bu yerga, shaqa-shu yerga), o‘rin payt kelishigi –da o‘rnida esa –ga qo‘shimchasi qo‘llaniladi.

Shuningdek, sheva materiallarida fonetik hodisalar ham uchraydiki, bu ham shevaning o‘ziga xosligiga bir ishoradir. Xususan, shevada metateza hodisasi (yog‘mir-yomg‘ir, turpoq- tuproq),tovush ortish hodisasi(menga-menga, senga-senga), dissimilyatsiya va assimilyatsiya hodisalari ham ko‘plab uchraydi.

Xullas, Tayloq tumani Yastepa qishlog‘i shevalari ham milliy shevalarimizning bir bo‘g‘inidir. Materiallar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu

qishloq shevasi vakillari asosan qipchoq lahjasiga mansub bo‘lsa-da, yon atrofidagi qarluq lahjasiga mansub shevalarining ma’lum darajada ta’siri sezilarli ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Shu bois ham mazkur hudud shevasi materiallarini boshqa shevalar bilan qiyoslab o‘rganish tilshunoshligimiz oldidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2019 - 2021 yillarda to‘plangan dala materiallari.
2. Ashirboyev S O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, 2016
3. Боровков А.К. Вопросы классифкации узбекских народных говоров. Известия АН УзССР, Ташкент, 1953.
4. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, 1962.

YANGIQO‘RG‘ON TUMANI SHEVASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

(QORAPOLVON QISHLOG‘I SHEVASI MISOLIDA**)**

Umarova Kamola,
Namangan davlat universiteti
magistranti

Annotasiya. *Ushbu maqola Yangiqo‘rg‘on tuman shevasining ba’zi xususiyatlari tahlilga tortildi. Hudud areal jihatdan kuzatish, qiyoslash metodlari asosida o‘rganildi.*

Kalit so‘zlar: *sheva, fe’l, qishloq, dialekt, til, areal, urug‘, elat, lingvistika.*

Annotation. *This article analyzes some features of the Yangikurgan Tumn dialect. The area was studied on the basis of areal observations and comparison methods.*

Key words: *dialect, verb, village, dialect, language, area, tribe, ethnos, linguistics.*

Birinchi prezidentimiz I.A. Karimov to‘g‘ri ta’kidlaganlaridek, “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi”[Каримов И. 2008: 29-30] Bu fikrlar, albatta, xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy, madaniy, falsafiy mushohadasi va qarashlari mahsulini o‘zida aks ettiruvchi – tilida, shevasida namoyon bo‘lib boradi.

Shevalarni o‘rganish tilshunoslarga til yuragining qanday urishini o‘z quloqlari bilan eshitishga imkon beradi (G. Ostgov, K. Brutman). Chindan ham Ostgov va Brutman ushbu fikri orqali haq gapni aytib o‘tgan edilar. Chunki shevashunos bevosita xalq orasida yurib, u bilan birga nafas olib, o‘z imkoniyati, iqtidori va kuch-qudratini ishga solib,... xalq og‘zidan shevaga xos so‘zlarni yozib olib, unga sayqal berib, kelgusi avlodga qoldirishga harakat qiladi [Бердиалиев, Мадвалиев, Раҳмонқулов 2017: 112].

Sheva atamasi forscha so‘z bo‘lib, ovoz, til, so‘zlashish, holat, yo‘sin, ravish kabi ma’nolarni anglatadi. Shevalar o‘zbek tilining o‘ziga xos fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo‘lgan kichik bir qismi bo‘lib, o‘zlarining jug‘rofiy o‘rinlari bilan bir-birlaridan ajralib turadi [Каримов И. 2008: 29-30].

Dunyoda qancha mamlakat, davlat, elatlar bo‘lsa, undan ikki baravar ko‘proq shevalar mavjud deyishimiz mumkin, menimcha. Chunki bir davlat foydalanadigan til yagona bo‘lsa, ularning shevalari bir hududdan ikkinchi hududniki farq qilishi tabiiy. Masalan, O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili bu o‘zbek tilidir, lekin yurtimiz hududidagi viloyatlarning shevasi turlicha. Hattoki, viloyatlardagi shahar, qishloqlarning ham shevasi biri ikkinchisinikidan farq qiladi. Shu asnoda, Namangan viloyatiga qarashli Yangiqo‘rg‘on tumanidagi hudud aholisining shevasi ham markazda istiqomat qiluvchilarnikidan biroz farqlidir.



1-rasm. Yangiqo‘rg‘on tumani areal kartasi.

Yangiqo‘rg‘on tumani shevasidagi fe’llarning qo‘llanishida uch guruhni farqlab o‘tish mumkin:

1-guruh aholi: “-vetti” lovchilar (kevetti, ketvetti; adabiy tilda: kelyapti, ketyapti);

2-guruh aholi: “-yatti” lovchilar (kelyatti, ketyatti; adabiy tilda: kelyapti, ketyapti);

3-guruh aholi: “-itti” lovchilar (kilitti, kititti; adabiy tilda: kelyapti, ketyapti).

Yangiqo‘rg‘on markazi va shu markazga yaqin hududda yashovchi aholining shevasi 1-guruhga, ya’ni “–vetti” lovchilar guruhiga kiradi. Markazdan yuqoriroqda, Qirg‘iziston Respublikasi chegarasiga yaqin bo‘lgan Qizilyozi, Mamay, Nanay hududlarining ayrim joylarida yashovchi aholining shevasi 2-guruhga, ya’ni “-yatti” lovchilar guruhiga kiradi. Yangiqo‘rg‘on markazining quyi qismida, Namangan shahriga yaqin hududda istiqomat qiluvchi Qorapolvon, Yorilgan, Rovut hududlarida yashovchi aholining shevasi 3-guruhga, ya’ni “-itti” lovchilar guruhiga kiradi. Bu hudud aholisining shevasi Namangan shahar shevasiga deyarli o‘xshab ketadi. Ushbu maqolada asosan, Yangiqo‘rg‘on tumaniga qarashli Qorapolvon qishlog‘ining sheva xususiyatlari yoritiladi.

Yangiqo‘rg‘on tumaniga qarashli Qorapolvon qishlog‘ining shevasi o‘zining fonetik, leksik va grammatik tomoni bilan o‘zbek shevalari orasida ajralib turadi va yuqorida aytib o‘tilganidek, Namangan shahar shevasiga yaqin turadi. Xususan, ushbu shevasining morfologik xususiyatlari o‘ziga xosdir. Masalan, kelishik tizimlarida bu yaqqol namoyon bo‘la oladi. –da (o‘rin-payt) kelishigi adabiy tilda uyda shaklida; Qorapolvon shevasida uyde shaklida uchraydi. -dan (chiqish) kelishigi esa uydan; uydaa shaklida, ya’ni bunda qo‘llanilgan “a” fonemasi invarianti til orqa “a” unlisini ifodalaydi. -ga (jo‘nalish) kelishigi qo‘shimchasi eshikka so‘zini (adabiy) talqini sifatida ishi:ga shaklida uchraydi. Bundan tashqari, -lar (ko‘plik shakli) qo‘shimchasi -le, -ler shaklida uchraydi. Masalan, qalamlar (adabiy) – qalamle (shevada), qalamlarim - qalamlerim kabi.

Yangiqo‘rg‘on tumaniga qarashli Qorapolvon qishlog‘i shevasida egalik kategiriyasi o‘ziga xos ko‘rinishga egaligi bilan ajralib turadi.

Egalik kategoriyasi (kitob va pul so‘zlari misolida):

Birlik	Ko‘plik
I kitopim, pulim	I kitoplerimiz, pullerimiz
II kitopii, puli:	II kitoplerine, pullerine
III kitopi, puli	III kitopleri, pulleri

Bulardan tashqari fe’llarning qo‘llanishi ham o‘zgacha. Fellarning to‘liqsiz shakllari edi, ekan, emish – idi, eka, imish shaklida yoki o‘zidan oldin kelgan mustaqil fe’lga qo‘shilib qisqargan holda qo‘llanishi ham uchraydi. Masalan, o‘qigan edim (adabiy) – uqigendim (sheva), borgan ekan (adabiy) – borgeneka

(sheva. Ushbu so‘zda qo‘llangan “a” fonemasi “a” fonemasining invariant bo‘lgan til orqa “a” unlisidir), qilgan emish (adabiy) – qigammish (sheva). Hozirgi zamon ma’nosini ifodalovchi –yapti shakli yuqorida aytib o‘tganimizdek –itti shaklida uchraydi: kelyapti-kilitti, kelishyapti-kilishitti. Shaxs-son shakllarining qo‘shilishi zamon shakllariga quyidagicha ta’sir ko‘rsatgan:

Shaxs-son kategoriyasi (chizmoq, aytmoq so‘zlari misolida):

Birlik	Ko‘plik
I chizittima, attim	I chizittu, attu
II chizissa, atti:	II chizissile, attine
III chizitti, atti	III chizishitti, aytishti

Mayl kategoriyasidan –(a)ylik, -inglar, -sin, -sinlar, -ing buyruq-istak maylini hosil qiluvchi qo‘shimchalar ushbu shevada –(a)ylu, -ina, -su, -sulla, -i: shaklida talaffuz qilinishi kuzatiladi: boraylik-boraylu, yozinglar-yo‘zina, kelsin-kisu, bersinlar-bissulla, ayting-ayti: kabi shaklda uchraydi.

Ushbu shevada qo‘llanuvchi so‘zlarda fonetik jihatdan o‘ziga xoslikni ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi so‘zlar o‘ziga xos shakl va talaffuzga ega. Qorapolvon shevasining fonetik xususiyatlarida, og‘zaki nutqda sodir bo‘ladigan ayrim o‘zgarishlarni kuzatamiz. Masalan, assimilyatsiya (otdan-o**tt**an, bizni-bi**zz**i, tuzsiz-tu**ss**iz, yozsin-yossin, ertalab-e**tt**alap), dissimilyatsiya (uchta-u**sht**a, maqtanchoq-maxtanchoq), metateza (tuproq-tu**rp**oq, to‘g‘ramoq-to‘**rg‘**amoq, supra-su**rp**a). Yuqoridagilardan tashqari ushbu shevadan foydalanuvchi aholi orasida yana quyidagi fonetik o‘zgarishlarni uchratamiz: diereza (yun. diairesis – ajralish, bo‘linish) – muayyan talaffuz sharoiti tufayli so‘z tarkibidagi tovushning tushib qolishi: pastqam-pasqam, ovqat-oqat kabi; apakopa (yun. arokore – tugallanmani qisqartirish) – so‘z oxiridagi unli yoki undoshning yoxud qo‘shma so‘zdagi ikkinchi qismning tushib qolishi: baland-balan, do‘st-do‘s, go‘sht-go‘sh, keyin-kiyi (ayrim joylarda “kigi” shaklida qo‘llanadi); kilogramm-kilo (1 kilogramm kartoshka – 1 kla ketishka) kabi; eliziya (lot. elision – siqish, siqib chiqarish) – unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolishi: ayta oladi-aytolaydi, bajara oldi-bajaroldi,bajaroladi (ushbu ikki so‘z ham biror ishni qila olganlik, uddasidan chiqa olganlik ma’nosida qo‘llanadi), uddalay oldi-uddaloldi kabi; sinerezis (yun. syneresis) – so‘z o‘rtasida bir joyda kelgan ikki unlinking biri kuchsizlanib, nutqda tushib qolishi: saodat-so:dat, matbuot-matbot, maorif-mo:rif kabi; epenteza (yun. epenthesis – (tovush) orttirish, qo‘shish) – so‘z tarkibida aslida bo‘lmagan tovush, harf, bo‘g‘inning paydo bo‘lishi: hukm-hukum, traktor-tiraktir; epiteza (yun. epithesis) – so‘z oxirida muayyan fonetik yoki morfologik ta’sir ostida shu so‘zda aslida bo‘lmagan tovushning ortishi: bank-banka, kiosk-kioska kabilar. Ushbu fonetik hodisalar aholining so‘zlarni nutq jarayoniga olib

kirishi jarayonida talaffuz qulayligiga imkon berganligi natijasida yuzaga kelganligining guvohi bo‘lamiz.

Leksik xususiyatlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, yoshi katta bobo yoki buvilarimiz talaffuzidagi ayrim so‘zlarda buni ko‘rishimiz mumkin [Rajabov, 1996. 3-67; Ishayev, 1990. 23-65]. Xususan ot turkumiga oid so‘zlar talaffuzi kishini hayratga soladi:

Ona – aba	Sichqon – chichqon	Ari – eri
Ota – dida	Chumoli – chimelig‘	Baliq – belig‘
Bobo – opodda	Artist – artis	etik – iti (poyabzal)
Buvi – acha	Doktor – duxtir	Ko‘ylak – ko‘yla
Aka – oka	Militsiya – milisa	Tavba – toba
Kelinoyi – kinchabi	O‘rik – uru	Ovqat – oqat
Qaynona – qeynene	Behi – bihi	Anor – onor
Qaynota – qeynate	Telefon – tilpon	Televizor – tilvizr

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Yangiqo‘rg‘on tumaniga qarashli Qorapolvon shevasi o‘zbek shevalari doirasida boyligi, emotsionalligi va Namangan shahar shevasiga o‘ta yaqinligi bilan ajralib turadi. Shevalarni to‘plash jarayonida yangi leksemalar kashf etilib boraverar ekan, o‘zbek tili boyishdan to‘xtamasligiga guvoh bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.

2. Darvishov I. Areal tilshunoslik: janubi-g‘arbiy Namangan shevalarining fonetik-fonologik xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent: Navro‘z, 2019.

3. Rahmonov N., Sodiqov Q. O‘zbek tili tarixi. – Toshkent. 2009.

4. Xudoyqulova Sh. O`zbek dialektologiyasi o‘quv uslubiy majmua. – Guliston. 2008.

5. Ishayev A. O‘zbek dialektal leksikografiyasi. – Toshkent: Fan, 1990.

TURKOVUL VA BESHBULOQ QISHLOQLARI SHEVASIDA TURLANISH

Oyatullo Nasrullayev,
Tosh DO‘TAU magistranti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevalarining grammatik xususiyatlari, xususan, turlanishi haqida fikr-mulohazalar bayoni keltirilgan. Kelishik va egalik kategoriyalarining ushbu shevaning adabiy tildan farqlanishi qiyosiy tahlil qilingan. Turkovul va*

Beshbuloq qishloqlari hududida yashovchi mahalliy aholidan yozib olingan matnlar asosida shevaga oid so‘zlarning grammatik xususiyatlari ilmiy-nazariy va nazariy tahlil jarayoniga tatbiq etilgan. Shuningdek, dialektal so‘zlar va adabiy tildagi so‘zlarga qiyosiy munosabat bildirilgan.

Kalit so‘zlar: *Turkovul, Beshbuloq shevalari, turlanish, kelishiklar kategoriyasi, egalik kategoriyasi, fonetik-morfologik xususiyatlar, hudud, mahalliy aholi, matn, shevaga oid so‘zlar, tahlil, adabiy til.*

Annotation. *This article describes the grammatical features of the dialects of Turkovul and Beshbulak villages, in particular, their diversity. A comparative analysis of the differences between the categories of agreement and possession of this dialect from the literary language has been made. Based on texts written by local people living in the villages of Turkovul and Beshbulak, the grammatical features of dialect words were applied to the process of scientific-theoretical and theoretical analysis. There is also a comparison of dialectal words and words in literary language.*

Key words: *Turkovul, Beshbulak dialects, variety, agreement category, ownership category, phonetic-morphological features, territory, local population, text, dialect words, analysis, literary language.*

Ma’lumki, jahondagi barcha tillarning adabiy shakli doimiy tarzda shevalardan oziqlanib boradi, rivojlanadi. Sheva tilning fonetik, grammatik, lug‘aviy jihatdan o‘ziga xos xususuyatlarga ega bo‘lgan ma’lum bir arealga tegishli bo‘lgan tilning bir ko‘rinishidir. U boshqa shevalardan sezilarli darajada lisoniy tafovutlarga ega bo‘lgan bir nechta aholi yashash hududidagi so‘zlashuvchilar nutqini o‘z ichiga oladi.

Adabiy tildan o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadiga shevalardan biri Sirdaryo viloyati Sayxunobod va Guliston tumanidagi Turkovul va Beshbuloq qishloq shevasidir. Bu qishloqlar aholisi o‘zbeklarning 92 bovli urug‘idan biri bo‘lmish turk urug‘iga mansubdir. Mahalliy aholining ta’kidlashicha, ular o‘zlarini “zomin turklari” deb atashadi. Bunday atashlariga asosli sabablar bor. Chunki bu yerlik aholi o‘tgan asrning 50-60-yillarida hozirgi Zomin tumani hududidan bu yerlarga ko‘chirib keltirilgan. Xususan, Zominning baland tog‘ yonbag‘irlaridan birida joylashgan Beshbuloq qishlog‘ining katta qismi ham o‘zlashtirilayotgan Mirzacho‘lga ko‘chirtirilgan. Bu ko‘chirilgan aholi avlodlari hozirda Sayxunobod tumanining Turkovul qishlog‘ida hamda Guliston tumanining Beshbuloq qishlog‘ida istiqomat qilib kelishadi. Beshbuloqliklar yangi qishlog‘ini ota makonlarining nomi sharafiga shunday nomlashgan bo‘lsa,

Turkovulliklar Beshbuloqliklardan farqlanib turish uchun o‘zlari mansub bo‘lgan urug‘ni qishloqlariga nomlab qo‘ya qolishgan. [To‘ychiboyev, Yo‘ldoshev , 2012: 56].

Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasi boshqa shevalardan fonetik, leksik, morfologik, grammatik jihatdan farqlanadi. Bu qishloqlar shevasida fonetik hodisalarning anchagina faolligini kuzatish mumkin. Biz bu ishimizda ushbu qishloqlarning grammatik xususiyatlari to‘g‘risida, ya’ni kelishik, egalik kategoriyalarining adabiy tildan farq qilgan holda qo‘llanish jarayonlari haqida o‘z fikr-mulohazalarimizni namoyon qilamiz. Shuningdek, bu qo‘shimchalarning asosga qo‘shilganda ularda sodir bo‘ladigan fonetik o‘zgarishlar to‘g‘risida ham o‘z fikrlarimizni bayon qilib o‘tamiz.

So‘zlarning egalik va kelishik kategoriyalari bilan o‘zgarishi **turlanish** deyiladi. Biz quyida egalik va kelishik kategoriyalarining ushbu shevada qanday ishlatilishini misollar va tahlillar bilan ko‘rib chiqamiz.

O‘zbek tilida kelishiklar XX asrning 50-yillaridayoq A. G‘. G‘ulomovning “O‘zbek tilida kelishiklar” asarida to‘liq yoritilgan. 1970-yilda M. Shoinoyatova esa shevamizdagi kelishiklar tizimini maxsus o‘rganib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Ma’lumki, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi oltita kelishik mavjud. Bular:

1.Bosh kelishik. Ko‘rsatkichi yo‘q.

2.Qaratqich kelishigi. -ning

3.Tushum kelishigi. -ni

4.Jo‘nalish kelishigi. -ga

5.O‘rin-payt kelishigi. -da

6.Chiqish kelishigi. -dan

Bu qo‘shimchalar ba’zi shevalarda 6 ta, yana boshqalarida 5 ta va hattoki 4 ta shaklda ham uchraydi. Singarmonizmli shevalarda esa 7 ta shakli ham uchraydi. Besh yoki to‘rt kelishikka ega bo‘lgan shevalarda ikki kelishik funksiyasini birgina affiks bajaradi. [Enazarov, 2021: 92-100].

Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasida kelishiklar soni beshtani tashkil etadi. Adabiy tilda qo‘llaniluvchi qaratqich kelishigi qo‘shimchasi jonli nutqda deyarli qo‘llanilmaydi. Kelishik qo‘shimchalari ushbu qishloqlar shevasida turlicha shaklda qo‘llanadi. Xususan,

Tushum kelishigining -ni, -nï, -ï, -di, -ti -n affikslari ishlatiladi.

-ni affiksi. Hävlïdägï qurïp qägän *ālmäni* čäpdïk.

-nï affiksi. Mijïmiŋdägï ijnä *tujmänï* qädäb ā(l).

-ï affiksi. *Bïzzï* qišlavïmïz xalqï ǯudä mehnätkäš. Bu gapda qaratqich kelishigi vazifasini tushum kelishigi bajargan. Shuningdek, n tovushining assimilatsiyaga uchrash hodisasini kuzatishimiz mumkin: bizni - *bïzzï*

-di affiksi. *Avïzdï* nāmākāp suv bïlan čajsä, tüzalïp ketadï.

-ti affiksi. *Jigittï* gulï, haj, bïjaqqa qaravariŋ.

-n affiksi. *Kitabïn* öqïp čiqdiŋmï? Bu qo‘chimcha badiiy-poetik uslubdagi --n qo‘shimchasi bilan o‘xshash bo‘lsa-da, ushbu shevada so‘zlashuv uslubida ham qo‘llanishi bilan farq qiladi. Bu qo‘shimcha boshqa tushum kelishigi shakllariga qaraganda juda kam ishlatiladi.

Ushbu qishloq shevalarida jo‘nalish kelishigining deyarli barcha shakllari (-gä, -kä, -qa, -ɣa) faol qo‘llaniladi.

-gä affilksi. Mal bazargä qöčqar āgänï ketkän ekän.

-kä affiksi. Ertagä men avval *iškä*, kejin *öqiškä* baraman.

-qa affiksi. Guppï amakiŋ *qišlaqqa* kelïptïmï?

-ɣa affiksi. Bügün *bāɣɣa* ālmä terganï bardik. Bu qo‘shimcha o‘rnida ba’zida *tāqqa, bāqqa* tarzida ishlatiladi.

Bu shevada o‘rin-payt kelishigining -dä, -tä affikslari ishlatiladi.

-dä affiksi. Ej bala, *bösaɣadä* turmasaŋ-čï?

-tä affiksi. Ekavï *avlaqtä* mäslä:t qï:gän

Chiqish kelishining deyarli barcha shevalarda tarqalgan –dän, tän affikslari ushbu shevada ham faol qo‘llaniladi.

-dän affiksi. Yöqalgän qöziŋ gädaytappas *ǯajdän* čiqdï. Bu kelishik qo‘shimchasi asosan unli bilan tugagan asosdan so‘ng yoki jarangli undoshdan keyin qo‘shiladi.

-tän affiksi. Har bïr *ǯöjaktän* ǯildïrap suv aqardï. Bu qo‘shimcha esa jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlardan so‘ng qo‘shiladi.

Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasidagi egalik kategoriyasi adabiy tildan uning ko‘pvariantliligi bilan farqlanadi. Shevalarga oid egalik qo‘shimchalarini dastlab K. Nazarov 1960-1964-yillarda prof. A. G‘ulomov rahbarligida maxsus o‘rganilgan. Bu qo‘shimcha predmetning uch shaxsdan biriga qarashli ekanligini ekanligini bildiradi va birlik va ko‘plik shakllariga egadir.

Adabiy tilda bu kategoriya quyidagicha:

Birlik	Ko‘plik
I shaxs -m, im;	I shaxs -miz, imiz;
II shaxs -ng, ing;	II shaxs -ngiz, -ingiz;
III shaxs -i, si.	III shaxs -(lar)i

Egalik kategoriyasi shevalarda adabiy tildan tovushlar xilma-xilligi va variantlarining ko‘pligi bilan farqlanadi. Quyida biz ushbu shevada qo‘llaniladigan egalik affikslarini birma-bir misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

I shaxs birlik affiksi: -m. *Balam*, böldï-dä endï.

I shaxs birlik affiksi: -ïm. *Čapanïm* jamγïrdä qalïp suvgä bökïp qalïptï.

I shaxs ko‘plik affiksi: -mïz/s. *Aramïz(s)dä* eng γačasï Mömïn šälpäŋqulaq edï.

I shaxs ko‘plik affiksi: -ïmïz/s. *Ujïmïz(s)gä* mehman bölïp kelarsïz, ašnä.

II shaxs birlik affiksi: -ŋ. *Ärävaŋnï* berïp tur, suv tašïp aläj.

II shaxs birlik affiksi: -ïŋ. Jazgän *xatïŋnï* tüšünïp bölmajdï-je.

II shaxs ko‘plik affiksi: -ŋïz/s. *Mānāvïŋïz(s)nï* qaraŋ, apa, akam urjäptï.

II shaxs ko‘plik affiksi: -ïŋïz/s. *Töj ïŋïz(s)gä* ajtiš *esïzdän* chïqmäsïn, tāγā.

Ikkinchi ajratib ko‘rsatilgan so‘zdan ko‘rininib turibdiki, egalik qo‘shimchasi tarkibidagi ng tovushi tovushi tushib qolgan. Demak, undosh bilan tugagan asosga (esingizdan – *esïzdän)* va unli bilan tugagan asoslarga (tugmangiz – *tüjmajïz(s)*) qo‘shiluvchi -ïz, -jïz affikslari bu shevada ham ishlatilar ekan.

III shaxs egalik affikslari Turkovul va Beshbuloq qishloq shevalarida -ï, -sï; ko‘plikda esa -lärï ishlatiladi.

-ï affiksi. Ešmatnï *ülï* käp-kättä jigit böp qaptïmï?

-sï affiksi. Mamarajïmnï *balasï* rasa bezarï böptï-dä.

-lärï affiksi. Bu qo‘shimcha ko‘plik affiksi bo‘lmish -lär shaklini olgani uchun III shaxs ko‘plikda qo‘llaniladi. Ujdägïlärï bïlmäsïn dep, bunï hammadän sir tutgän ekän.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatib turibdiki, ushbu shevada turlanish, ya’ni egalik va kelishik qo‘shimchalarining qo‘llanilishi xilma- xildir. Xullas, adabiy tildan ma’lum darajada farq qiladigan Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent, Nodirabegim, 2021. – B. 49-52.

2. Enazarov T.O‘zbek dialektologiyasi: nazariya va amaliyot. –Toshkent, Mahalla va oila, 2021.

3. Enazarov T. Dialektologiya metodologiyasi. –Toshkent, 2020.

4. Ishayev A.Shevalar lug‘atiga kiritiladigan so‘zlar // O‘zbek tili va adabiyoti. 1988. 2-soni. – B.37-42.

5.Ishayev A. O‘zbek dialektal leksikografiyasi. –Toshkent: Fan, 1990. – 140 b.

6. To‘ychiboyev B. Yo‘ldoshev Q. Zominning til qomusi – Toshkent, Akademnashr, 2012.

XORAZM SHEVALARIDAGI UY-RO‘ZG‘OR LEKSIKASINING TARKIBIY TAHLILI

Narbayeva Dildora Yuldashevna
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi,
Abduraximova Shaxnoza Mansurovna
Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Xorazm shevalaridagi uy-ro‘zg‘or leksikasining tarkibiy tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, ularning lisoniy xususiyatlari misollar vositasida asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *sheva, leksika, so‘z yasovchi affiks, qo‘shma so‘zlar, murakkab so‘zlar, juft so‘zlar.*

Annotation. *This article provides a structural analysis of household vocabulary in Khorezm dialects, and their linguistic features are based on examples.*

Keywords: *dialect, vocabulary, word-forming affix, compound words, compound words, pairs of words*

Milliy qadriyatlarimizga bo‘lgan hozirgi kundagi munosabat, kelajak avlodni milliy ruhda tarbiyalash, milliy urf-odat va an’analarimizga muhabbat uyg‘otish uchun ham xalqimiz ko‘z qorachig‘iday asrab, saqlab kelayotgan sheva so‘zlarini tadqiq qilib, har bir leksemaning kelib chiqishi va uning mohiyatini aniqlab berish muhimdir.

Biz ushbu ishimizda Xorazm shevalari sohaviy leksikasining muhim tarmoqlaridan bo‘lgan uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlarini tarkibiy jihatdan tahlil qilishni maqsad qilganmiz.

Xorazm shevalari tarkibidagi uy-ro‘zg‘or buyumlariga oid leksikani tekshirar ekanmiz, ularning ildizlari uzoq o‘tmishga borib taqalishiga ishonch hosil qildik. Yana bir xarakterli tomoni shundaki, biz tadqiq qilayotgan mavzuga aloqador atamalarning ko‘pchiligi boshqa sheva vakillari nutqida uchramaydi yoki aksincha boshqacha nomda yoki o‘zgacha fonetik ko‘rinishlarda bo‘ladi. Buning natijasida, ayrim faktlarning ko‘rsatishicha, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari qadimiy xorazmiy tiliga aloqador, degan xulosaga kelishga imkoniyat

tug‘diradi. “Hozirgi zamon dialektlari yozma yodgorliklarda, shuningdek, hozirgi adabiy tilda ham uchramaydigan ko‘pgina so‘z va so‘z shakllarini, leksik elementlarini saqlab qolganligini, ularni asosli ravishda o‘rganish, tilning uzoq zamonlardagi holatini aniqlashda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatadi” [Melioranskiy, 1900:5].

Ijtimoiy jamiyatda mehnat qurollarini kashf etib, ular bilan doimo munosabatda bo‘lgan hamda turli moddiy ne’matlar - to‘yimli va sifatli ovqatlar tayyorlashni o‘rgangan inson dastlab ularni tayyorlaydigam maxsus moslamalarni, turli asbob uskunalarni yaratadi, ijod qiladi. Mazkur asbob-uskunalarni maxsus nomlar bilan bir-biridan farqlagan. Bu nomlar xilma-xil va rang-barang bo‘lib, xalq shevalari leksikasida turlicha shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Har bir xalq yoki elat dastavval tarixiy-madaniy birligi bilan ajralib, o‘ziga xos xususiyatlarini saqlab kelgan [Jabborov, 1994:5] Mazkur holatni Xorazm shevalaridagi uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasi misolida ham ko‘rish mumkin.

Uy-ro‘zg‘or buyumlarining qay yo‘sinda ishlanganligi, ularni tayyorlashda qanday materialdan foydalanganligi Xorazmda ishlab chiqarish va turmush madaniyatining qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Xorazm shevalarida iste’molda bo‘lgan mana shunday so‘zlarni tarkibiy jihatdan sodda, qo‘shma, juft va murakkab turlarga ajratish mumkin. Quyida ana shu tarkibiy turlar xususida to‘xtalamiz.

1. Sodda so‘zlar. Bular o‘z navbatida sodda tub va sodda yasama so‘zlarga ajraladi. Bitta o‘zak morfemadan iborat bo‘lib, hech qanday qo‘shimcha olmagan so‘zlar sodda tub so‘zlardir. Bunga Xorazm shevalaridan bir qancha misollarni keltirish mumkin. Masalan, *qapqaq* (qozon, idish kabi narsalar og‘zini berkitib turadigan buyumning nomi), *čäynik* (choy qaynatadigan idishning nomi), *läkki* (tunuka tovoq), *läyän* (katta, chuqur, to‘garak, xamir qiladigan yoki kir yuvadigan idish nomi), *tavax* (ovqat yeyish yoki ichish uchun ishlatiladigan ro‘zg‘or buyumi) kabi. Bu so‘zlar sinxron aspektda olib qaralganda, sodda tub so‘zlar sirasiga kiradi.

Asosga so‘z yasovchi affiks qo‘shilishi bilan yasalgan sodda so‘zlar *sodda yasama so‘zlar* deyiladi. Bunday holatni uy-ro‘zg‘or buyumlariga oid leksikada kamroq kuzatamiz. Masalan, *čatnaq* (choynak, piyolaning darz ketgan joyi), *äläk* (yog‘och gardishga to‘r qoplangan, un elash uchun qo‘llaniladigan asbob nomi), *čïnäläk* (don elanadigan, siyrak to‘rli katta elak), *körpäčä* (yotish yoki o‘tirish uchun mo‘ljallab, qalin yoki yupqaroq qilib paxta, jun tiqib yasalgan o‘rin-bosh anjomi), *qaraqčï* (qushlarni cho‘chitib, ulardan poliz va bog‘larni qo‘riqlash uchun o‘rnatilgan qo‘g‘irchoqdek yasama odam shakli), *yeñsä* (non yopish va uzib olish paytida qo‘lni o‘tdan saqlash uchun tirsakkacha kiyib olinadigan buyum), *belčä* (kichik belkurak) kabi

so‘zlarda *–q, -k, -ak, -čä, - čï, -sa* qo‘shimchalari uy-ro‘zg‘or buyumlari nomini yasashga xizmat qilgan. Shuningdek, bu kabi qo‘shimchalar ro‘zg‘or buyumlariga oid so‘zlarga qo‘shilib, kasb-hunarga oid shaxs oti yasaydi. Masalan, qashiq+ čï, tandir + čï, lagan+bardor, kasa+gul, pichaq+ čï, qazan + čï kabi.

2. Grammatik tobelik munosabatlari asosida birikkan yoki bu munosabat aniq anglashilmaydigan ikki yoki undan ortiq so‘z yoki so‘z shakllaridan tashkil topib, bir urg‘uga birlashadigan va bir tushunchani ifodalaydigan so‘zlar *qo‘shma so‘z* deyiladi. Bunday so‘zlar turkimiga uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasidagi *yer tandir, dasmalkadï (qovoqning qozon yuvishga mo‘ljallangan turi) i:ri žijda, meydažijda, xantaxta, ashtaxta, dashqazan* kabilar kiradi. Bu terminlar sifat+ ot, ot+ot shaklidagi birikmalardan tashkil topib, bir umumiy ma’no anglatuvchi so‘z holatiga tushib qolgan.

Xorazm shevalari leksikasida mavjud bo‘lgan yana ko‘plab so‘zlarni qo‘shma tarkibli uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari sirasiga kiritish mumkin. Masalan, *kürt qüti* - gugurt solingan qutining nomi, *qayiq läyän* - katta, cho‘ziq, tunuka tog‘ora, *setkä dasmal* - qozonni qirib tozalaydigan qattiq buyum nomi, *taypaxta* - ko‘rpa-to‘shakka, to‘nga solish uchun tayyorlab qo‘yilgan paxta tutamining nomi, *beşïk örtïki* - beshik ustiga yopiladigan paxtalik yupqa ko‘rpacha, *yalaňqat* - beshik ustiga yopiladigan chit, mato nomi, *tämän ïnnä* - qop yoki shu kabi boshqa qalinroq narsalarni tikish uchun ishlatiladigan katta egik, yoki uchi ilmoqli igna, *čat sipsä* - katta supurgi, *ataqarva* - bolalarni yurishga o‘rgatadigan, uch g‘ildirakli kichik aravacha ma’nolarini ifodalovchi so‘zlar mana shunday guruh so‘zlarini tashkil qiladi.

3. Ikki so‘zni teng grammatik munosabatlar asosida yonma-yon keltrish yoki bir so‘zni takrorlashdan tuzilgan so‘zlar *juft so‘zlar* deyiladi. Xorazm shevalarida juft so‘zlar boshqa shevalarga nisbatan keng qo‘llanishi bilan xarakterlanadi. Shu jumladan, o‘zbek shevalarini sohalararo tekshirar ekanmiz, uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasi sohasi ham bundan mustasno emas. Masalan, *qazan – tavax, idish-tavax.* Bu birikmalar oshxonaga oid buyumlarning jamini ham ifodalaydi. Ayrim o‘rinlarda *tavax-chanaq* ham qo‘llanadi. Uy – ro‘zg‘or buyumlariga oid so‘zlar juft holda qo‘llanib, ba’zan daraja - miqdor ma’nosini ham anglatadi. Masalan: *Navroz guni universitettä qazan - qazan palovla pishirildi. Äkamlär sävät-sävät űzűm terdila* (Urganch) kabi.

4. Leksik va grammatik ma’nolari ayrim holda butunlikka nisbatan ham izohlanishi mumkin bo‘lgan, ayrim mustaqil tushunchalarga osonlik bilan ajrala oluvchi bitta murakkab tushunchani ifodalaydigan va gapda bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradigan so‘z shakllari *murakkab so‘zlar* hisoblanadi. Shu jihatdan tahlil qilganimizda, Xorazm shevalari tarkibidagi uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasi sirasiga kiruvchi so‘zlar guruhida bunday leksik birliklar kamroq uchraydi. Masalan, *šayi gulli kasa, paxta gulli tavax, sirchasi tushgan badya, tört qulaqlï*

qazan, alti ayaqli ojaq kabi.

Murakkab so‘zlar hodisalarni, predmetlarni tasvirlash yo‘li bilan anglatadi. Murakkab so‘zlar qo‘shma so‘zlardan, tarkibidagi har bir so‘z shaklining semantik, grammatik, hatto fonetik jihatdan mustaqilikka egaligi bilan farq qiladi. Shuning uchun so‘z shakllari ma`nolarini ayrim holda ham tasavvur qilish, ularning o‘rinlarini almashtirish, oraga boshqa so‘z yoki affiks kiritish mumkin. Shuningdek, qismlarning har biri ko‘pincha mustaqil urg‘uli bo‘ladi.

Demak, Xorazm shevalari sohaviy leksikasi tizimidagi uy- ro‘zg‘or buyumlari nomlari tarkibiy jihatdan 4 turga: sodda, qo‘shma, juft hamda murakkab turlarga ajraladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Xorazm shevalarida barcha sohalar qatori uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasi ham o‘zining uzoq tarixiga ega bo‘lib, ular tilimiz tarixini o‘rganishda, uning taraqqiyot bosqichlarini belgilab berishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари., Тошкент: Фан, 1961.

2. Жабборов И. Ўзбек халқ этнографияси. - Т.: Ўқитувчи, 1994.

3. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. –Тошкент: Фан, 1977.

4. Мелиоранский П.М.. Араб-филолог о турецком языке. – Санкт-Петербург, 1900.

BUXORO SHEVALARIDAGI FONO-MORFOLOGIK HODISALAR TALQINI

Asatullayeva Dilnavoz,
ToshDO‘TAU 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tili morfologiyasi to‘g‘risidagi A. Nurmonovning tadqiqotlariga tayanilib, aynan fono-morfologik hodisalarga boy bo‘lgan Buxoro shevalari misolida ushbu muammoni ochib beradi. Bundan tashqari xorij tilshunoslarining aynan morfonologiya sohasidagi ishlari ham misol qilib keltiriladi.*

Kalit so‘zlar: *morfonologiya, fonema, affiks, sheva, fonologiya, fonetik hodisa, tovush o‘zgarishi.*

Annotation. *This article, based on the research of A. Nurmonov on the morphology of the Uzbek literary language, reveals this problem on the example*

of Bukhara dialects, which are rich in phono-morphological phenomena. In addition, the work of foreign linguists in the field of morphology is cited as an example.

Keywords: *morphology, phoneme, affix, dialect, phonology, phonetic phenomenon, sound change.*

Amerikalik tilshunos olim Bruce Hayes “Morfofonologiya morfofonetik jarayonlarning o‘zaro ta’sirini o‘rganuvchi tilshunoslikning tarmog‘idir. Uning asosiy yo‘nalishi morfemalarda (minimal ma’noli birliklar) so‘zlarni birlashtirganda sodir bo‘ladigan tovush o‘zgarishlaridir. Morfofonologik tahlil odatda ma’lum bir tilning morfemalarida ro‘y beradigan muntazam tovush o‘zgarishlarini muvaffaqiyatli bashorat qiladigan bir qator rasmiy qoidalar yoki cheklovlarni berishga urinishni o‘z ichiga oladi. Bunday qoidalar qatori nazariy asosli tasvirni haqiqatda eshitiladigan yuzaki shaklga aylantiradi.(К. Леви-Строс., 1985:35.)

Morfemalarning asosini ifodalovchi birliklar ba’zan morfofonemalar deb ataladi. Morfofonologik qoidalar orqali hosil bo‘lgan yuzaki shakl fonemalardan iborat bo‘lishi mumkin (keyinchalik ular nutq tovushlari yoki fonemalarni hosil qilish uchun oddiy fonologik qoidalarga bo‘ysunadi) yoki morfofonologik tahlil fonema bosqichini chetlab o‘tib, fonemalarning o‘zini hosil qilishi mumkin. (Bruce Hayes, 2009:161–185.)

O‘zbek tilshunosligining hozirgi davrda qo‘lga kiritayotgan katta yutuqlari bilan birga, hali ilmiy tadqiq etilmagan ko‘pgina sohalar ham mavjud. Jumladan, fonologiya va morfonologiya, intonologiya va stilistika, til matnshunosligi, semiotika (ramziy belgilar tili) kabi sohalar hanuz yetarli o‘rganilmay kelmoqda. Fonologiyaning paydo bo‘lishi nafaqat tilshunoslikda, balki barcha ijtimoiy fanlarning rivojlanishida katta burilish yasadi. Mashhur fransuz olimi K.Levi-Strosning yozishicha: «Fonologiya ijtimoiy fanlarga nisbatan qanchalik yangilovchilik xizmatini bajargan bo‘lsa, xususan, yadro fizikasi ham barcha aniq fanlarga nisbatan shunchalik xizmat qilgan». Demak, bu fikrdan fonologiya ham yetakchi fanlar qatoriga kira olishi va undagi oppozitsiya (qaramaqarshilik), korrelyatsiya (bir turdagi bir necha oppozitsiyalarning majmuasi), integratsiya bir butun bo‘lib birlashuv) va neytralizatsiya (oppozitsiyaning ma’lum holatda yo‘qolishi) faqat tilshunoslikda emas, boshqa ijtimoiy fanlarda ham uchraydi. Umuman olganda fonema, allofon va arxifonema tushunchalari esa, falsafadagi umumiylik, xususiylik va alohidalik kategoriyalarini va dialektik qarama-qarshilik qonuniyatini eslatadi. Bugungi kunda «fonologiya yetakchi fanlarning klassik namunasidir». Tilning eng quyi bosqichi bo‘lgan fonologiyadagi tushuncha va atamalar, qolaversa, unda qo‘llanadigan usul, uslub va qonun-

qoidalar tilning boshqa bosqichlarini, xususan, morfologiya, sintaksis, leksika va stilistikani ilmiy tadqiq etishda ham qo‘l kelmoqda. Bugungi kunda fonologiya va morfonologiyaga doir ilmiy asarlar o‘quvchilar ommasiga etarli emas. Lekin bu muammolar bo ‘yicha rus tili va boshqa ba’zi hindevropa tillarining fonologiyasi va morfonologiyasiga doir ayrim tadqiqotlar yaratilgnligi bizga ma’lum. Hozirgi turkiy tillarning hamda o‘ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turkiy tillardan farqlanib turuvchi o‘zbek tili fonologiya va morfonologiyasiga doir asarlar nashr qilinishi tilshunoslikda muammolarning bosqichma-bosqich yechilishiga olib kelmoqda. A.M.Shcherbakning turkiy tillar diaxronik (tarixiy) fonologiyasini o‘rganishga doir qimmatli asari («Сравнительная фонетика тюркских языков», Л., 1970.) ushbu kitobning yozilishida katta yordam berdi. Mashhur turkolog olim I.A.Baskakovning turkiy tillarining tarixiy-tipologik fonologiyasi, morfonologiyasi va morfologiyasiga doir chuqur ilmiy asosga ega bo‘lgan bir necha asarlaridagi g‘oyalar o‘zbek tiliga tatbiq etilishi foydalidir. Olimning fikricha, «...so‘z fonologiyasi o‘zining tuzilishiga ko‘ra, so‘z morfologiyasi bilan umumiylikka ega.

A.G‘ulomov morfonologiyaga oid ishlarida so‘z tarkibidagi tovush o‘zgarishlari morfemalarga ajratish borasida o‘ziga xos holatlarni yuzaga keltirishini ta’kidlagan. Jumladan, ulg‘ay, o‘g‘lim, sarg‘ay kabi juda kabi so‘zlarni morfemalarga ajratish mumkinligini ko ‘rsatadi. Chunki ular tarkibiy qismlari bir-biri bilan o‘ta singishib ketgan emas. Masalan, sarg‘ayma (gepatit) so‘zidagi *sariq+ay+ma* kabi qo‘shimcha qo‘shilganda o‘zak tarkibida bir tovush tushirilgan, deb izohlash mumkinligini aytadi.

Morfonologiya flektiv va agglyutinativ tillarda turlicha xususiyatlari bilan farqlanadi. Flektiv tillarda ko‘proq o‘zak morfemalarda morfonologik almashinuv ro‘y bersa, agglyutinativ tillarda bu almashinuv o‘zak va affiksal morfemalar chegarasida hosil bo‘ladi. Ba’zi otlardagi morfonologik alternatsiyada *a* fonemasining qadimiyligi va *o* fonemasining keyincha hosil bo‘lganligini e‘tiborga olinsa, *a-o* morfonemasi aniqlanadi: *tergamoq-tergov* (tergovchi), *chanqamoq-chanqov*(chi), *qiynamoq-qiynov, o‘xshashmoq-o‘xshov* kabi. Fe‘llardagi morfonemalar ham o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ba’zan sifatdan fe‘l yasalganda, o‘zak oxiridagi *q* tushib qoladi va affiksal morfema oldidan *i* qo‘llanadi: *sovuq-sovimoq, quruq-qurimoq, suyuq-suyultirmoq, quyuq-quyultirmoq* kabi. Bu misollarda *q, k-l* morfonemalari farqlanadi. Bunday morfonologik xususiyatlar sifatlarda ham ko‘rinadi: *sariq-sarg‘ish-sarg‘imtir, qizil-qizg‘ish-qizg‘imtir* so‘zlarida *-iq, -il* morfonemalari farqlanadi. Sonlardagi jamlovchi va tartib sonlarni yasashda qo‘llanuvchi affikslar qo‘shilganda paydo bo‘ladi: *ellik-elliginchi, sakkiz-sakkizta, iki-ikkov, yetti-yettov* kabi. Bu o‘rinlarda *-i* morfonemalarining tushub qolishi yoki boshqa tovush bilan almashinishi

kuzatiladi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining tuzulishida ma’lum darajada morfonologik xususiyatlar borligi va ular grammatik ma’nolarni farqlashda alohida xizmat qilishi aniqlandi.

O‘zbek shevalarining amaldagi klassifikatsiyalariga ko‘ra, Buxoro dialekti (shevasi) o‘rta o‘zbek shevalari gruppasi yoki qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasining qarshi gruppasiga mansubdir.

Buxoro dialekti umumiy fonetik belgi-xususiyatiga ko‘ra, *o*-lovchi, *ye*-lovchi hisoblanadi. U ikki tilda: tojik va o‘zbek tillarida so‘zlovchi hamda bir tilda – o‘zbek tilida so‘zlovchi mahalliy aholi nutqini ifoda etadi.

A.G‘ulomov o‘zbek tili materiallarini juda ko‘p jamlagan, ularning barcha xususiyatlarini to‘la o‘rganishga harakat qilgan. So‘zlarning kelib chiqishini belgilashda uning tarkibidagi tovushlar jihatidan o‘xshashlikka, boshqacha aytganda, ayniqsa, ikki tovushning bir xilligiga e‘tibor qaratdi: *qop-yop; qovoq-qopoq* (M. Mirzayev, 1969:4-15).

qopurg‘a-qovurg‘a, qopqoq; bot-bol-bos; to‘l-to‘q-to‘y-to‘p; do‘ng-do‘msa, do‘ngak-to‘ngak, do‘ppi-to‘ppi-to‘piq; bos-os kabilar A.G‘ulomov qarashlari so‘zlarni morfemalarga ajratishning aniq qonuniyatlarini belgilab berish uchun nazariy asos bo‘ldi. Olimning *do‘ngsa, cho‘qmor, bombardimon*... kabi ko‘pgina so‘zlar tarkibidagi *-sa, -mor, -dimon* kabi elementlar alohida ma’noli qismlar sifatida ajratilmaydi, ular qolg‘indi elementlardir degan fikri o‘zbek tilshunosligida qo‘shimcha, *o‘dag‘ayla, yetakchi, yetakla* kabi ko‘pgina so‘zlarni morfemalarga ajratish mumkin emasligini asoslash bo‘yicha quyidagi nazariy fikrni chiqarish uchun, prof.Y.Tojiyevga turtki bo‘lgan: «Agar so‘z tarkibida yasovchi yoki boshqa qo‘shimcha borligi aniq sezilib turgan bo‘lsa-yu, affiksdan qolgan qism ma’no anglatmayotgan bo‘lsa, uning qanday morfema ekanligi anglashilmasa, bunday so‘zlar morfemalarga ajratilmaydi».

Masalan, o‘dag‘ayla so‘zida shunday. *-la* affiksi sezilib turadi, biroq *o‘dag‘ay* qismi alohida morfema bo ‘lolmaydi. Shu kabi, «agar o‘zak morfemani ajratish mumkin bo‘lsa-yu, qolgan qismning qanday morfema ekanligi noma’lum bo‘lsa, uni belgilash qiyin bo‘lib qolgan bo‘lsa, tilda shunday morfema qayd etilmagan bo‘lsa, so‘z morfemalarga ajratilmaydi». Masalan: *qo‘shimcha* so‘zida *qo‘sh* qismini ajratish mumkindek, u o‘zak morfema holatiga ega, biroq keyingi *-im* qismini alohida morfema sifatida belgilab bo‘lmaydi. Shuningdek, *- imcha* qismini ham qo‘shma affiks sifatida ajratish kuzatilmaydi. Demak, so‘zni *qo‘sh+im+cha* ko‘rinishida ham, *qo‘sh+imcha* ko‘rinishida ham, *qo‘shim+cha* ko‘rinishida ham morfemalarga ajratib bo‘lmaydi.

Buxoro shevasi ham morfonologik hodisalarga boy dialekt hisoblanadi. Asosga qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida asosda fonetik o‘zgarish ro‘y beradi: *jaxtaj+kina= jaxtakkina (muzdek), kunzak+i= kunzagi (burchagi), emzak+i=*

emzagi (chaqaloq so‘rg‘ichi), zamburug‘-zamburuqqa ĉiqdik (qo‘ziqorin tergani chiqdik).

junduq – jundug‘i (yuvindi) egalik qo‘shimchasi qo‘shilganida ***q*** fonemasining ***g‘*** ga o‘tishini ko‘ramiz.

jurȁk-jurȁjim (yuragim) ***k*** fonemasi egalik qo‘shimchasi qo‘shilganida ***y*** ga aylandi.

ĉorbog‘- ĉorboqqa (daraxtzor) ***g‘*** fonemasi jo‘nalish kelishigi qo‘shilishi natijasida ***q*** fonemasiga o‘tgan (bu so‘z Buxoro viloyati tojik shevalariga xos)

aĉĉiq – aĉĉig‘i keldi (jahli chiqdi) ***q*** fonemasi egalik affiksi qo‘shilishi natijasida ***g‘*** ga aylangan.

Bundan tashqari affiksning o‘zida sodir bo‘ladigan birqancha misollarni ham ko‘rib chiqamiz:

nompar – nomparri olib ke *(nonpar)* so‘zga tushum kelishigi qo‘shilishi natijasida –***ni*** affiksi –***ri*** tarzida keladi.

ollak – ollakka o‘tirdi (oldinga) jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida fonetik o‘zgarish sodir bo‘lgan.

ĉapak – ĉapakti ĉol (qarsak chal) tushum kelishigi –***ni*** qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida fonetik o‘zgarish sodir bo‘lgan.

Shevalarda fono-morfologik hodisalar uchrashi adabiyotlarda maxsus o‘rganilgan mavzu emas. V.V.Reshetov, Sh.Abdurahmonov, X.Doniyorov, A.Ishayev, M.Mirzayev, A.Nurmonovlarning tadqiqotlarida ma’lumotlar beriladi. A.Nurmonovning tadqiqotlarida masalaning nazariy tomonlari yoritilgan bo‘lib, unda shevalardan konkret misollar keltirilmaydi. Boshqa ishlarda esa fonetik jarayon sifatida unga misollar keltiriladi, xolos. Ushbu masalaning o‘rganilishiga asosiy sabab esa, morfonologiya lingvistikaning bir yo‘nalishi ekanini tavsiflash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bruce Hayes (2009) “Morphophonemic Analysis” Introductory Phonology, pp. 161–185.
2. К. Леви-Строс. Структурная антропология. – М., 1985, с. 35.
3. Журавлёв В. К.. Фонология фундаментальная и прикладная. Проблеми фонетики и фонологии. Материалы Всесоюзного совещания. М., 1986. – С. 35 -39.
4. Mirzayev M.M O‘zbek tilining Buxoro gruppa shevalari. –Toshkent: 1969.
5. Baskakov N.A. (1989)Historical-Typological Phonology of Turkic Languages. –Moscow: Nauka.
6. Gulyamov A. (2005) Scientific Heritage. – Tashkent: University Press.

7. Juravlyov V.K. (1989)Fundamental and Applied Phonology. Problems of Phonetics and Phonology // Materials of All-Union‘s Discussions. – Moscow: Nauka.
8. Levi-Stros K. (1985)Structural Anthropology. – Moscow: Nauka.
9. Losev A.F. (1989) In search of Building General Linguistics as Dialytic System. Theory and Methodology of Writing. Methods of Research in Language. – Moscow: Nauka.
10. Tojiyev Y. Uzbek Language Morphemes. – Tashkent.1992

O‘G‘UZ LAHJASINING FONETIK XUSUSIYATLARI

Rozumbetova Xilola Umar qizi,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘g‘uz lahjasining fonetik xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. O‘g‘uz lahjasiga kiruvchi ayrim hududlar (To‘rtko‘l, Ellikqal’a, Hazorasp, Xiva) shevasidagi fonetik jarayonlar, jumladan, reduksiya, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, eliziya, spontan o‘zgarishlar, sinkopa va shu kabi hodisalar tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *reduksiya, eliziya, sinkopa, undoshlarning takroklanishi, spontan o‘zgarishlar, anakopa, so‘z formalarining torayishi, tovush mosligi, assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza.*

Annotation. *This article discusses the phonetic features of the Oghuz dialect. Phonetic processes in the dialect of some regions of the Oghuz dialect (Turtkul, Ellikkala, Hazarasp, Khiva), including reduction, assimilation, dissimilation, elysis, spontaneous changes, syncope and similar phenomena are analyzed. .*

Keywords*: reduction, elysis, syncope, repetition of consonants, spontaneous changes, anacopa, narrowing of word forms, sound compatibility, assimilation, dissimilation, metathesis.*

O‘zbek tili ko‘p dialektli til ekanligi bois, bugungi kunda shevashunoslikka e’tibor kuchayib bormoqda. E.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov va shu kabi olimlarning o‘zbek shevasini o‘rganishi natijasida bu shevalarning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlari namoyon bo‘ldi. Yuzaki qaraganda har bir inson bu xususiyatlarni juda oson va oddiy deb o‘ylashi mumkin. Ammo buni chuqurroq o‘rgansak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan o‘g‘uz lahjasini olaylik, bu lahjada gapiruvchilarning tili adabiy tildan ancha

yiroq. Filologiya fanlari doktori, professor Fattoh Abdullayevning bu lahja to‘g‘risida, Xorazm shevasi to‘g‘risidagi bir qancha kitoblari mavjud. Bu lahjada gapiruvchi insonlarning gapirayotgan so‘zalarida qanday fonetik o‘zgarishlar yuz berishi, qanday fonetik xususiyatlarga egaligi, albatta, insonni qiziqtirmay qolmaydi.

O‘g‘uz lahjasi quyidagi fonetik xususiyatlarga ega:

a) o‘zbek tili qipchoq shevalaridagi kabi kontrast juft unlilarning mavjudligi

b) qisqa va cho‘ziq unlilarning farqlanishi ya’ni turkman tilidagi kabi qadimgi turkiy cho‘ziq unlilar (birinchi darajali cho‘ziq unlilar) ning mavjudligi

c) so‘z boshida ***t*** va ***k*** tovushlarining jaranglilashishi: *dъl, gəl*

d) o‘g‘uz lahjasida ***q, g‘, x*** undoshlari chuqur til orqasida emas, tilning orqa qismida tallaffuz etilishi

e) o‘g‘uz lahjasida birlamchi cho‘ziq unlilar mavjud. Bu xususiyat ularni qipchoq va qarluq guruh lahjalaridan farqlaydi. Ayni paytda o‘zbek adabiy tilidan ham shu jihatdan farqlanadi.

f) o‘g‘uz lahjasida ***ң*** burun tovushi qipchoq lahjasidagi ***ң*** tovushiga nisbatan til orqaroq: *mənnən gettъ, saңa yettъ*

g) o‘g‘uz lahjasi ham qipchoq lahjasi kabi ohangdoshlikning har uch qonuniyatiga amal qiladi. Xusussan, tovushlardagi til orqa va til oldi, undoshlardagi jaraglilik va jarangsizlik nutqda o‘z ifodasini topadi: *Dyz soramaqa dьl, sьrkə soramaqa ysyl gərək*. [2:58]

h) adabiy tildagi va qipchoq shevalaridagi ***e*** tovushining birinchi bo‘g‘inida ga o‘tishi o‘g‘uz lahjasi shevalari uchun juda xarakterlidir. *əl, səp, kəs, mən, sən, gəl*.

i) o‘g‘uz shevalarida ayrim so‘zlarda ***q*** tovushining ***x*** ga o‘tishi uchraydi: *vaxt, maxsat, xatar, tavax* [Абдуллаев, 1961: 137.].

O‘g‘uz lahjasi (ayniqsa Xiva shevasi) qarluq-uyg‘ur-chigil lahjasidan o‘zining unli va unsiz tovushlarining to‘laligi, murakkabligi, tovush uyg‘unligini saqlashi va uzun unlilari bilan ajralib turadi. Bu lahja vakillarining ***q*** undoshini ***k*** shaklida aytishi ham boshqa lahja vakillaridan farqlanadigan xususiyatidir .

O‘g‘uz lahjasiga kiruvchi hududlar shevasidagi so‘zlar talaffuzida turli xil fonetik jarayonlarni kuzatishimiz mumkin. Ushbu lahjaga kiruvchi hududlar shevasida reduksiya, eliziya, tovush mosligi, undoshlarning takrorlanishi, spontan o‘zgarishlar, anakopa va shu kabi fonetik o‘zgarishlarni kuzatishimiz mumkin. Avvalambor, reduksiyaga to‘xtalsak, reduksiya hodisasini bilish uchun avvalo uni nima ekanligini anglashimiz kerak.

Reduksiya so‘z tarkibida ayrim tovushlar pozitsiyasining kuchsizlanishidir. Masalan: *kelibdi-gəlъbdъ, borasanmi-bɔrasanmъ, Sharif-*

Shərьp, uyqu-yxъ, iflos, tartibsiz – palpъs [Rajabov, 1996: 115]. Ko‘rib turganimizdek, so‘zlarda ***i*** tovushining pozitsiyasi kamayib bilinar-bilinmas talaffuz qilinishi natijasida ***ь*** va ***ъ*** shakllarida yozilgan va bu reduksiya hodisasini yuzaga keltirgan. Misollarga e’tibor beradigan bo‘lsak, kelibdi so‘zining *gəlьbdь* shaklida qo‘llanganini ya’ni ***k*** jarangli jufti ***g*** undoshiga aylangaini ko‘rishimiz mumkin. Bunday hodisani biz fan tilida spontan o‘zgarishlar deymiz.

Spontan o‘zgarishlar (jaranglashish). U biror tovush ta’sirida yuz bermaydi, balki shevaning tarixiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. *Turibdi-dyrьbdь, kechiradi- gechьrədь, tuz- dyz, to‘shak - dөshək.*

Eliziya unli va undosh tovushlarning tushishi bo‘lib, ikki ko‘rinishga ega, ya’ni ikki so‘z (qo‘shma so‘z) talaffuzida oldingi so‘z tarkibidagi unli tovushlarning tushib qolishi [Решетов, Шоабдураҳмонов, 1978: 126.]. Masalan: *ko‘ra olmaydi - gөrɔlmuдь, bora olmaydi- bɔrɔlmuдь, kela oladi - gəlɔladь* va so‘z tarkibidagi pozitsiyasi kuchsizlashgan undoshning tushib qolishidir: *keldilar-gəldьlə, bizlar- bъzə, tashladi – tashadь*. Sinkopa hodisasi ham mavjud, ushbu hodisa yuzaki qaraganda eliziya hodisasiga o‘xshab ketishi mumkin, ammo buni farqlash kerak. Avvalambor sinkopa o‘zi qanday hodisa ekanligiga javob topsak.

Sinkopa hodisasining hosil bo‘lishi bevosita urg‘u masalasi bilan bog‘langan bo‘ladi. Urg‘usiz bo‘g‘inlarda bir unli fonemalarning tushib qolishi sinkopa hodisasi hisoblanadi Eliziya hodisasida faqatgina qo‘shma so‘zlardagi unli tovushning tushib qolishi va bu so‘zlar uning tushishi natijasida qo‘shib yozilishi natijasida yuzaga kelsa, sinkopa hodisasida ko‘rib turganimizdek unday emas. Bu hodisaga misol qilib *maorif- mɔrьf, borajak - bɔrjək, biblioteka - bublɔteka, saodat - sɔdət* kabi so‘zlarni aytish mumkin. Bu hodisa ko‘proq ikki unli yonma-yon kelganda kuzatiladi. Ushbu hodisalar so‘z formalarining torayishi hodisasiga ham o‘xshab ketadi. Ammo so‘z formalarining torayishida faqat bitta unli yoki undosh emas, balki bir nechta unli yoki undoshlar so‘zda tushib qolishi mumkin. Bu haqida chuqurroq tanishsak.

So‘z formalarining torayishi (tortilishi) bu protsess talaffuzni maksimal darajada osonlashtiradi. Bunda bir bo‘g‘in yoki bo‘g‘inlardagi unli va undosh tovushlar tushirilib talaffuz qilinadi. So‘z formalarining torayishi o‘g‘uz lahjasidagi hudud shevalarida ham uchraydi:

1) o‘zak-negizda bo‘ladigan torayish: *bilaguzuk - bъləzuk* (Xiva). Aynan mana shu so‘z Xorazm vohasida mavjud bo‘lib, an’anaviy taqinchoq turlaridan hisoblanadi. Ba’zi ilmiy manbalarda *bъləzuk* (Xiva) turkman va turk tillarida *bъlezuk* shaklida ishlatilishi qayd qilingan [Madrahimov, 1999:54].

2) o‘zak-negiz va affiks hisobiga bo‘ladigan torayish: *kelinglar - gəŋlə, olib berdi- əppərdь,olib bormoq –apparmaq, bo‘lmaydimi – bomuть*;

3) ikki so‘z qo‘shilganda yuz beradigan torayish: *shunday qilib - shyndətьb, mana bunday – umъnduchkъ, narigi tomon, u yoq - arŭaq* [6:129].

Shevalarda nafaqat tovush torayishi balki **tovush ortishi** ham kuzatiladi. Unli va undosh tovushlarning orttirilishi so‘zdagi tovushlar miqdorini ko‘paytiradi va shu bilan birga uzaytiradi. Bu hodisa bir tomondan, talaffuzni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan aksincha tilning tarixiy-fonetik evolyutsiya nuqta’i nazaridan, ba’zi so‘zlarda orttirilgan tovushlar talaffuzini qiyinlashtiradi [Решетов, Шоабдураҳмонов, 1978: 129]. *Ha – hava, Xudo- xydɔй*.

Bundan farqli o‘laroq **undoshlarning takrorlanishi (qo‘sh undoshlilik)** hodisasi ham kuzatiladi. Bu fonetik hodisa so‘zlarning o‘rtasida ikkita bir xil undosh tovushlarning qo‘shaloq kelishidan hosil bo‘ladi [Rajabov, 1996:144]. Undoshlarning takrorlanishi: *qari – qarrь, kichik – kьchchь, saqich- saqqьz, necha- nьchchə, ozg‘in - ɔrrьq.*

Tovush mosligi – o‘zbek shevalaridagi so‘zlarni boshqa sheva va adabiy til bilan qiyoslanganda, shunday fonetik holatlar ko‘zga tashlanadiki, bir so‘z ayni ma’nosini saqlagan holda, ulardagi ayrim unli yoki undosh tovushlar farq qiladi, lekin bu o‘zgarish so‘z ma’nosiga putur yetkazmaydi: *do‘ppi – topprь, kel - gəl, eshak -əshək, egilmoq-əңьlmək, shundan – shynnan*. Bu kabi so‘zlardagi ***t – d***, ***k – g*** undoshlari va ***e - ə, u-o,*** mosligi namoyon bo‘ladi.

So‘z oxirida tovushlarning tushib qoldirilishi urg‘uning odatdagidan boshqacha bo‘lganligi sababli yuzaga kelishi mumkin. Bunday holatda so‘z oxirida urg‘usiz unli yoki bo‘g‘in talaffuzda kuchsizlashadi va tushirilib qoldiriladi. Bu **apakopa** hodisasidir. Anakopa hodisasi butun o‘zbek shevalari uchun xos hodisa sanab, qisman o‘zbekcha, ayniqsa baynalmilal so‘zlarda ko‘plab uchraydi[4:134]. Masalan: *gazeta - gəzut, mashina - məshun, apteka - əptek, ellik - əllы* va h.

Assimilyatsiya – Nutqda tovushlarning kombinator o‘zgarishlari orasida eng ko‘p uchraydigan hodisalardan biri. Og‘zaki nutqda unli tovushlar, ayniqsa, undosh tovushlar assimilyatsiyasi juda ko‘p uchraydi. Agar keyingi tovush o‘zidan oldin kelgan tovushga o‘xshasa, progressiv asssimilyatsiya, aksincha, oldingi tovush o‘zidan keyingi tovushga o‘xshasa regressiv assimilyatsiya deyiladi. *Kitob -kъtɔp, maktab - məktəp, yopdi - ŭɔrtь* [Абдуллаев, 1961:138].

Dissimilyatsiya - ikkita o‘xshash tovushlarni noo‘xshash qilish. So‘z tarkibidagi undoshlarning boshqa tovush variantiga ega bo‘lishi dissimilyatsiyadir.

Agar oldingi tovush ta’sirida keyingi tovush o‘zgarsa bu progressiv dissimilyatsiyani yuzaga keltiradi. *Zarar - zərəl, zarur - zəryl.*

Regressiv dissimilyatsiya keyingi tovushni oldingi tovushga ta’siri natijasida yuzaga keladi. *Tugma -duŭmə, tegma - deŭmə, egni – eŭnь.*

Metateza – o‘zbek tilida metateza u yoki bu so‘z tarkibidagi undosh tovushlarning o‘zaro o‘rin almashishidir: *qo‘shni –қоңшъ, do‘ppi (taxya) –таўха* [Абдуллаев, 1961:138]. O‘g‘uz lahjasida shu bilan birgalikda boshqa fonetik hodisalar ham uchrab turadi. Ammo u hodisalar bu lahja vakillari orasida juda kam kuzatiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har bir lahjaning, har bir hudud shevasining o‘ziga xos fonetik xususiyatlari mavjud bo‘lib, mana shu fonetik jarayonlarni tahlil qilish, anglash, o‘rganish orqali mana shu shevaning nafaqat fonetikasi balki shu sheva so‘zlari talaffuzini ham bilib olish mumkinligi bejiz emas. Ushbu maqola orqali turli fonetik jarayonlarni o‘rganish bilan birgalikda ushbu fonetik jarayonlar o‘g‘uz lahjasi shevalarida qanday bo‘lishi bir qancha misollar orqali yoritib berildi. Shuningdek o‘g‘uz lahjasiga kiruvchi ayrim hududlar shevasida eliziya, spontan o‘zgarishlar, tovush torayishi, tovush ikkilanishi kabi fonetik hodisalar juda ko‘p uchrashi namoyon bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф. А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. I-Луғат. –Тошкент: Фан, 1961. –B.137-138.

2. Абдуллаев Ф. А. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. –Тошкент: Фан, 1978. –B. 58.

3. Madrahimov O. O‘zbek tili o‘g‘uz lahjasining Xiva shevasi. – Urganch, 1999. –B.54.

4. Rajabov Nazar. O‘zbek shevashunosligi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996. –B.113-115, 134.

5. G‘ozi Olim Yunus. O‘zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba. – Toshkent – 1935.

6. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. –Тошкент: Ўқитувчи,1978.

SURXONDARYO VILOYATI BANDIXON TUMANI SHEVASIGA OID DIALEKTAL SO‘ZLAR

Eshboyeva Shoira Bakir qizi,
ToshDO‘TAU talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Bandixon tumani shevasi leksikasidan misollar keltirilgan va ularning izohi bayon etilgan. Ayni vaqtda to‘plangan sheva so‘zlarining leksik-semantik guruhlari ham tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *sheva, dialektal karta, etnogenez, lingvogeografik aspekt, klassifikatsiya, sheva leksikasining leksik-semantik guruhlari, dialektal so‘z.*

Annotation. *This article gives examples from the lexicon of Bandikhan district of Surkhandarya region and explains them. At the same time, it was noted that many dialectal words remain unstudied due to the lack of collected dialectal words due to their accumulation. In addition, the given dialectal words are studied in lexical-semantic groups.*

Keywords: *sheva, dialectal map, ethnogenesis, lingvogeographic aspect, classification, lexical-semantic groups of sheva lexicon, dialectal word.*

O‘zbek tili boshqa turkiy tillardan ko‘p shevaliligi bilan farqlanadi. O‘tgan tarixiy davr ichida o‘zbek shevalari to‘xtovsiz taraqqiy etdi. Prof.V.V.Reshetov o‘zbek tili dialektal kartasining rang-barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini uqtiradi. Tariximizga oid adabiyotlar qadimda turkiy urug‘ va qabilalar miqdori ancha ko‘p bo‘lganligi to‘g‘risida xabar beradi. Ular ichida o‘zbek tili va uning shevalari shakllanishida qarluq, chigil, uyg‘ur, qipchoq, o‘g‘uz urug‘lari, qang‘li, qatag‘on urug‘ va qabilalari birlashmalarining tarixiy taraqqiyoti katta rol o‘ynagan [Ashirboyev, 2011].

Ma’lumki, Surxondaryo viloyati hududida yashovchi aholi qipchoq lahjasi vakillariga kiradi [Doniyorov, 1979]. Bandixon tumani Surxondaryo viloyati tarkibidagi tumanlarning biri bo‘lib, 1992-yil 18-mayda tashkil etilgan. 2010-yil moliyaviy kamchiliklar tufayli tugatilgan va 18-oktabr 2019-yilda qayta tashkil etilgan. Bu tuman kichik va yosh tumanlardan biri bo‘lib, hududi 0, 20 ming km.kv.ni tashkil qiladi. Aholisi taxminan 75 ming kishidan iborat va ularning 96%i o‘zbeklar, 3%i tojiklardan iborat[10]. Tumanda yashovchi aholi, asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadi. Bundan tashqari, tojik millatiga mansub aholining ko‘proq qismi ustachilik hamda duradgorlik bilan ham mashg‘ul.

O‘zbek tilining Surxondaryo viloyati hududidagi o‘zbekcha so‘zlashuvchi aholi nutqida ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyotni, moddiy va madaniy hayotni aks ettiruvchi juda ko‘p hamda rang-barang til ko‘rinishlari saqlanganki, shuning uchun bu shevalar har tomonlama tarixiy-tavsifiy va lingvogeografik aspektlarda o‘rganilmog‘i lozim. Bundan tashqari, mavjud klassifikatsiyalarda o‘zbek shevalari turlicha tasnif qilinadi, ayrim o‘zbek shevalari esa hozirgacha o‘zining aniq klassifikatsiya o‘rniga ega emas. Shulardan biri Surxondaryo viloyatidagi o‘zbek shevalari kiradi. Prof. Y.D. Polivanov klassifikatsiyasiga ko‘ra Surxondaryo o‘zbek shevalari uchinchi dialekt qipchoq lahjasining beshinchi tipidagi janubiy o‘zbek **“ǯ”** lovchilar gruppasiga kiritiladi [Раҳимов, 1985]. S.

Rahimov, X. Doniyorov kabi olimlarimiz qipchoq lahjasi, ayniqsa, Surxondaryo shevalari ustida samarali ishlar olib borishgan.

Biz o‘rganayotgan Bandixon tumani Surxondaryo o‘zbek shevalari tarkibiga kiradigan alohida bir shevadir. Mazkur shevadagi dialektal so‘zlar eshitilishi va ma’nolari bilan kishining e’tiborini o‘ziga tortadi. Masalan:

1. (doɣābä) do‘g‘oba-kosa. *Bolalarga ovqatni **do‘g‘obaga** solib beringlar. **Do‘g‘obada** ichish osonroq.*

2. (mondï) mo‘ndi-barmog‘i yo‘q. *Insonning barmoqlarining kamida bittasi biron halokat yoki kutilmagan vaziyatda jarohatlanishi yoki kesilib ketishi natijasida barmoq olib tashlansa, o‘sha kishini **mo‘ndi** deyishadi. Kecha uyga kelgan odam **mo‘ndi** ekan.*

3. (qājïšmāq) qoyishmoq-xohlamoq. *Men qo‘shimcha kurslarga bormoqchiligimni uyimdagilarga aytgandim, xayriyatki, ular **qayishdi.***

4. (häzärsumät) hazarsumat (hazorispand (*hazor-ming, ispand- dardga davo) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib adabiy tildagi shakli* **-ispand.** *Dorivor o‘simlik, quritib tutatiladi. Shamollash, burun bitishi va har xil mikroblarni o‘ldirish uchun foydalaniladi. Onam bir hafta oldin bozordan ikki bog‘ **hazarsumat** olib keldi.*

5. (kurmāv) kurmov- ipni bog‘lash usuli. *Molni bog‘lashda doim shunday usuldan foydalanamiz. Bobom bizga doim:” Molni **kurmov** qilib bog‘la, yechilib ketmaydi”, - der edilar.*

6. (äškädï) ashkadi-oshqovoq. *Bandixon tumani aholisi, asosan, dehqonchilik bilan shug‘ullanib, bahor kelishi bilan dalalarga qovun, tarvuz, pomidor, **ashkadi** ekadi.*

7. (murut) murut-mo‘ylov. *Bizning qishlog‘imizda mo‘ylovni **murut** ham deyishadi. Hatto, bu so‘zga maqol ham tuzilgan: **“Murutini bolta kesmaydi** ” – **hech kimning qurbi yetmaydi.** Azzamboyga kim nima deyolardi, uning murutini bolta kesmaydi-ku.*

8. (nāzvāj) nozvoy- rayhon. *Bahor kelishi bilan ko‘kat, kashnich, **nozvoy** ekamiz. Bularni ichida menga eng yoqadigani – **nozvoy.** Uning hidiga teng keladigani yo‘q.*

9. (nāskädï) noskadi–kadining kichkina shakli. *Kichkina bo‘lib qolgan kadi, qishlog‘imizda undan nos solish uchun foydalaniladi. Kattalaridan esa tuxum, qatiq solib qo‘yishda foydalaniladi. Kadi to‘lguncha tuxum yig‘ishdan maroqlisi bo‘lmasa kerak. Chol nabirasiga aytdi: “**Noskadimni** olib kel!”*

10. (kesärtkï) kesartki – kaltakesak. *Asosan, yozning issiq kunlarida quruq, adirlik joylarda ko‘p uchratamiz. Kechasi xovlida o‘tirganimizda, devorga osilgan chiroq atrofida yig‘ilib qoladi. Chiroq o‘chirilishi, tong otishi bilan*

birdan g‘oyib bo‘ladi. ***Kaltakesakning*** *rangi sovuq bo‘lgani uchunmi, bilmadim, uni ko‘rishim bilan bir seskanaman.*

11. (žālämä) jolama–oshning suyuqroq qilib tayyorlangani. *Momom pishirib beradiga* ***jolama****dek qilib hech kim tayyorlay olmaydi. Bolaligimda momom ko‘p* ***jolama*** *qilib berardilar. O‘choqqa suyuqroq qilib tayyorlar, laganga solib issig‘ ida yedirardilar.*

12. (nān tošämä) (non to‘shama–sho‘rvaga non solib pishiriladigan ovqat turi. *Bu taomni faqat qishloqqa borganimdagina yeyman. Chunki bu ovqatga tandirda pishirilib bir ikki kun o‘tgandan keyin suvi qochib, qotib qolgan nonni solishadi. Shaharda esa unday nonlar topilmaydi.* ***Nonto‘shama****ni qilishdan asosiy maqsad, qotib qolgan nonlar isrof bo‘lmasligi uchun qilingan. Hozirda esa kunlik ovqatlardan biri hisoblanadi.*

13. (šullä) shulla – ingichka qilib kesilgan xamirdan tayyorlanadigan suyuq ovqat. *Bandixonda iftorliklarda qilish urf bo‘lgan. Birinchi bo‘lib shu ovqatni qo‘yishadi, keyin ta’bga qarab boshqa ovqatlar suziladi. Bundan tashqari, u ishtaha ochuvchi ovqat ham hisoblanib, yalpiz solinib tez-tez iste’mol qilinib turiladi. Hattoki, bu ovqatning ixlosmandlari bir ichishda bir tovoqqacha ichishadi. Ko‘chamizda kim* ***shulla*** *qilsa, katta qozonga bir qozon qilib tayyorlaydi va hamma qo‘shnilarga tarqatib chiqadi.*

14. (lukubï) lukubi – o‘rtacha hajmdagi tovoq. *Ammam tez-tez shulla qilib turardi va har doim bizga issig‘ida bir* ***lukubi*** *jo‘natardi. Keyin biz qatiq quyib mazza qilib ichardik.*

15. (häšäk) hashak – mollarning yemishi (beda, makka, moshning poyalari quritilgani). *Qishlog‘imizdagi har bir xonadonda mol bor, yoz bo‘yi qish uchun* ***hashak*** *yig‘ib qo‘yadi.* ***Hashak*** *quruq joyda saqlanadi, aks holda, chirib ketishi mumkin.*

16. (žoŋïčqä) jo‘ngirchqa – beda. ***Jo‘ngirchqaning*** *birinchi o‘rimini mollar unchalik yaxshi yemaydi, shuning uchun ko‘proq ular hashak qilinadi.* ***Jo‘ngirchqani*** *o‘rganda qoldirmay, tagidan o‘rgan yaxshiroq. Keyingi o‘rimida tuplab, sifatliroq bo‘lib chiqadi.*

17. (tutandïrïq) tutandiriq-olovni yoqib olishda ishlatiladigan narsa. *Bunga turli xil tez yonadigan narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, qog‘oz, latta yoki kerosin, yog‘.* ***Tutandiriqsiz*** *osonlikcha o‘t yoqib bo‘lmaydi.*

18. (źārdälï) zordali–o‘rik. *Bandixonda ko‘p ekiladigan daraxt turlaridan biri.* ***Zordalining*** *har xil turlari bor: ertapishar, kechpishar, katta, kichik. May oxirlarida pishadi.*

19. (jen sālmāq) yen solmoq - chorva mollarining qulog‘ida belgi qoldirish. *Bahor kelishi bilan qishloqdagilarning qo‘ylari adirlarda qo‘shib*

*boqiladi. Qo‘ylarni bir-biridan ajratish uchun qo‘zilik paytida **yen** solinadi. Hammaning **yeni** har xil shaklda bo‘ladi.*

20. (xïjalatï) xiyalati – xayolparast. *Charos sutni pishiraman deb o‘choqqa olov yoqib, televizor ko‘rib qoldi. Sut qozondan toshib ketganini ko‘rgan onasi Charosga **xiyalati** deb dakki berdi.*

21. (suzäyän) suzag‘an – shoxlaydigan mol. *O‘tgan yili olgan ho‘kizimiz rosa **suzag‘an** chiqdi. Uni **suzag‘an** deb otamdan boshqa hech kim oldiga borolmasdi.*

22. (čïkïllämä) chikillama – tilingni tiy. *Bu so‘z salbiy ma’noda, yoshlarga nisbatan ishlatiladi: Jasmina hadeb opasiga aql o‘rgatib, gap qaytarayotganini ko‘rgan onasi, unga **chikillama** deb urishib berdi.*

23. (telpäk) telpak – erkaklarning qishki bosh kiyimi. *Qishning ayozli kunlarida **telpak** kiymasdan tashqariga chiqib bo‘lmaydi.*

24. (pïšäk) pishak – mushuk. *Bolaligimda **pishaklarni** yaxshi ko‘rardim. Hatto, bir necha marta uyda boqqanman ham. **Pishaklarim** bolalaganda doim uchta tug‘ardi.*

25. (dāvurïppä) dovurippa – rostdanmi. *Malohat opa o‘g‘lining yozgi dam olishda o‘qishdan kelmasligini eshitib, **dovurippa,** kelsa kerak dedi.*

Bu dialektal so‘zlarni, ya’ni bir qishloq shevasi leksikasidagi izoleksemalarni leksik – semantik jihatdan quyidagi ma’noviy guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Narsalarni ifodalovchi dialektal so‘zlar: (nāskädï) noskadi - kadining kichkina shakli; (tutändïrïq) tutandiriq –olovni yoqib olishda ishlatiladigan narsa; (häzärsumät) hazarsumat – ispand; (nāzvāj) nozvoy – rayhon; (häšäk)hashak – mollarning yemishi; (Žoņïčqä) jo‘ngirchqa – beda.

2. Uy-ro‘zg‘or buyumini ifodalovchi dialektal so‘zlar: (doγobä) do‘g‘oba – kosa; (lukubï) lukubi- o‘rtacha hajmdagi tovoq.

3. Hayvon nomini ifodalovchi dialektal so‘zlar: (kesärtkï) kesartki – kaltakesak, (pïšäk) pishak – mushuk.

4. Kiyim nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: (telpäk) telpak- erkaklarning qishki bosh kiyimi.

5. Ovqat nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: (žālämä) jolama – oshning suyuqroq qilib tayyorlangani; (nān tošämä) non to‘shama - sho‘rvaga non solib pishiriladigan ovqat turi; (šullä) shulla – ingichka qilib kesilgan xamirdan tayyorlanadigan suyuq ovqat.

6. Meva nomlarini anglatuvchi dialektal so‘zlar: (źārdäli) zordali – o‘rik.

7. Poliz mahsulotlari nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: (āškädï) ashkadi – oshqovoq.

8. Harakat va holatni ifodalovchi dialektal so‘zlar: (qājïšmāq) qoyishmoq – xohlamoq; (čïkïllämä) chikillama – tilingni tiy; (jen sālmāq)yen solmoq – chorva mollarining qulog‘ida belgi qoldirish.

Bularni yana ichki ma’noviy guruhlarga ham bo‘lish mumkin. Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi dialektal so‘zlar boshqa hududlarda ham ishlatilishi mumkin. Lekin adabiy tilda juda kam miqdorda uchrashi yoki umuman uchramasligini hisobga olib ushbu maqolani yozdik. Xullas, O‘zbekiston hududidagi barcha shevalarni o‘rganib chiqish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman. Chunki, ular asl turkiy so‘zlar xalq orasida ko‘proq saqlanib qolgan. Bu kabi izlanishlar natijasida dialektal lug‘atimizni boyitish va asl holicha saqlab qolishimiz mumkin.

Izoh: Keltirilgan dialektal so‘zlarning transkripsiyasi qavsda, keyin uning adabiy-orfografik ko‘rinishi, dialektal ma’nosi va keyin sheva vakilining shu so‘z qatnashgan nutqidan na’muna kursivda berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: 2021.
2. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979.
3. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари(фонетика, лексика). – Тошкент: Фан, 1985.
4. O‘zME. Birinchi jild. –Toshkent, 2000-yil.
5. Нормаматов С. Э. Ўзбек луғатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни. Фил. фан. док. (DSc) дисс. автореферати. –Т., 2019.
6. Раҳимов С. Сурхондарё ўзбек шевалари луғати. – Денов:1993.
7. 10. Ишаев А. Шевалар луғатига киритиладиган сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. 1988. 2-сон.
8. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. –Т.: Фан, 1990.
9. Абдуллаев Ф. А. Диалектал луғат тузиш принциплари//ЎТА. –Т.: 1966.
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bandixon_tumani. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000

3-SHU‘BA
O‘ZBEK SHEVALARINI AREAL O‘RGANISH VA TARIXIY DIALEKTOLOGIYA

QORAQOLPOG‘ISTONDAGI TURKIY XALQLAR SHEVALARIDA FRAZELOGIZMLAR

Ibragimova Zamira
Berdaq nomidagi QoraqalpoqDUdotsenti
Xazirbayeva Mehribon
Berdaq nomidagi QoraqalpoqDU talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola Qoraqalpog‘iston Respublikasida yashaydigan turkiy xalqlar tillarida uchraydigan frazeologizmlarni qiyoslab o‘rganishga bag‘ishlanadi. Qoraqalpog‘iston hududidagi turkiy xalqlar shevalaridagi frazeologizmlarning o‘xshash va farqli jihatlarini adabiy tildagi variantlari bilan qiyoslashga harakat qildik.*

Kalit so‘zlar: *dialektal frazelogizmlar, qardosh tillar, frazelogik birliklar, sinonimik qator, lahja vakillari, frazelogik lug‘at, qiyosiy va farqli jihatlari.*

Annotation. *This article is devoted to a comparative study of phraseology found in the languages of the Turkic peoples living in the Republic of Karakalpakstan. We have tried to compare the similarities and differences of phraseology in the dialects of the Turkic peoples of Karakalpakstan with their literary variants.*

Keywords: *dialectal phraseologies, sibling languages, phraseological units, synonymous series, dialect representatives, phraseological dictionary, comparative and contrasting aspects.*

Olamning lisoniy nazariyasi yoki insonning til shuurida so‘zlar bilan bir qatorda tarkibi jihatdan barqaror bo‘lgan va nutqda tayyor holda aks ettiriladigan frazelogik birliklar yoki frazeologizmlar mavjud. Ular tilimizda so‘zlarning ta’sirchanligini ifodalashdagi o‘rni katta. Sababi ayrim gaplar bir so‘z bilan, ayrimlari bir necha so‘zdan tashkil topib bir ma’noni anglatadi [Mamatov, 2019;135]. “Frazeologiya” atamasi turkiyshunoslikda dastlab bu atama turlicha ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qilgan. Masalan XIX asrda yashagan turkiyshunos olim Mirza Kazimbek o‘sha davr an’analaridan kelib chiqib, rus tilida yozilgan boshqa tasviriy grammatikalarda bo‘lgani singari o‘z asarida “fraza” so‘zini “jumla” “gap” ma’nosida qo‘llagan. Shuningdek, frazeologizmlar tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida XX asrning

40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo‘lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A.A.Potebniya, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shaxmatov asarlarida asos solingan bo‘lsa, barqaror so‘z birikmalarini alohida tilshunoslik bo‘limi frazelogizmda o‘rganish masalasi 20-40-yillardagi o‘quv metodik adabiyotlarda Ye.D.Polivanov, S.Abakumov, L.A.Bulaxovskiy asarlarida ko‘tarib chiqilgan.

Frazeologizm tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ajratilmaydi. O‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o‘tgan asrning 50-yillardan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o‘rganilgan, Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatovlar tomonidan frazeologizimlar bo‘yicha bir necha lug‘atlar tuzilgan. Sh. Rahmatullayev, M.Sodiqovalar, yozuvchilardan esa Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70-80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to‘plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko‘rsatgan [Rahmatullayev , 1966: 9-58]. Bu kabi tadqiqotlar hozir ham davom etmoqda. Ularni ilmiy jihatdan o‘rganishdan maqsad fonetik-sintatik, leksik kabi o‘zgachaliklarini aniqlashdan iboratdir. Shu jihatlarni hisobga olgan holda ushbu maqolamizda Qoraqalpog‘iston Respublikasi o‘g‘uz lahjasida qo‘llaniladigan frazelogizmlarning qipchoq lahjalar vakillari tillarida, ya’ni qoraqalpoq, qozoq dialektidagi qiyosini ko‘rishimiz mumkin. Maqolamizda shevamizdagi frazeologizmlarning qoraqalpoq va turkman shevalaridagi qiyosi o‘xshash va farqli jihatlarini shuningdek ularning adabiy tildagi variantlarini qiyosladik. U yoki bu tilning frazeologik birliklari insoniy munosabatlarining ko‘z ilg‘amas rang-barangligini aks ettiradi. Ularda ham baxt, sevgi, ajablanish, iroda kuchi qiziqish, chaqqonlik, sergaplik kabi juda ko‘p tushunchalarni tavsif va tasvirlari mavjud. So‘zlar orasida sinonimik qator bo‘lgani kabi bu holat frazeologizmlarda ham kuzatiladi. Ota-onalar farzandlariga ahil bo‘linglar deb ko‘p aytishadi. Adabiy tilimizda ahil, yakdil, hamjihat bo‘lishga chorlaydigan iboralar juda ko‘p. Jumladan *“bir yoqadan bosh chiqarmoq”, “bir tan-u bir jon bo‘lmoq”* variantlarini uchratamiz [Рахматуллаев.III, 1978:43]. Masalan: “*Bechoraning hech kimi yo‘q; yetim edi. Ikki g‘arib bir yoqadan bosh chiqargan edik” [Ойбек. 1969:27].* Ushbu iboraning shevalarimizdagi shakliga nazar tashlaydigan bo‘lsak, qipchoqlarda *“быр жағадан бас шығарьу”* yoki *“бир жеңнен бас шығарыў*” shaklida. Kegeyli tumani tilida qo‘llaniladi [Кайпназарова.М. 2011:38]. To‘rtkul tumani o‘g‘uz lahjasi bo‘lsa “agzi biýr*”,* “birleşmek*”,* “jebleşmek*”* kabi variantlarining qo‘llanishining guvohi bo‘ldik. *“Tipog‘ bo‘lmoq*” iborasi Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani aholisi vakillari tilida qo‘llaniladi. Bu iboraning qozoq tilidagi varianti "*бір жеңнен қол, бір жағадан бас шығарды", " бір жағадан бас, бір жеңнен қол шығарды", "бир жағадан бас шығарыу"* tarzda qo‘llaniladi[;76]. Shuningdek, *holi joniga*

qo‘ymaslik, tinch qo‘ymaslik ma’nosida adabiy tilimizda *“osmonga chiqsa, oyog‘idan, yerga kirsa, qulog‘idan tortmoq”* iborasini qo‘llaymiz [Рахматуллаев.Ш 1969:195]. Bu iboraning “*osmonga uchsang oyog‘ingdan yerga kirsang qulog‘ingdan tortmoq”* variant ham mavjud. Masalan: *“Qo‘yadigan xotinim yo‘q,- mushtini siqib dedi Boqijon. – Osmonga uchsang oyog‘ingdan, yerga kirsang – qulog‘ingdan tortaman, bilib qo‘y”* [Ойбек. 1976:195]. Ushbu frazelogik birlikning Ellikqa’la tuman sheva vakillari tilida “*asmana çiksa ayakinan yera girsa quloqinnan tortish” "itiň işi diývana bilen seniň işi shö bilen" yoki "asmana çiqsa aýaginan yere girsa quloginan tartu"* shaklida, qozoq tilda "*аспанға шықса айағинан, жерге кирсе құлағинан тарту*", *"аспанға ұшса айағынан тартады, жерге кирсе, желкесинен тартады"* [Эшимбаев. М., 2007:32] kabi shakllari, qipchoq lahjasi vakillari tilida bo‘lsa “аспанга шикса аяғынан, жерге кирсе *шашынан тартыу”* [Айназарова Г., 2005:74], yoki *“аспанга ушса сыйрағынан, жерге кирсе айдарынан тартыу”* shaklida qo‘llaniladi. Inson ijobiy fazilatlarga ega bo‘lgani kabi uning salbiy fazilatlari ham anchagina. Bir insonning aybini aytish, yomon niyat bilan deyarli aybi yo‘q kishining faoliyatiga ayb topishga harakat qiluvchilar oramizda talaygina. Jumladan adabiy tilda bu singari insonlarga nisbatan *“tirnoq orasidan kir qidirmoq”* iborasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu frazaning tilimizda bir qancha variantlari mavjud. *“Tirnoq orasidan kir qidirmoq”, “tirnoq ostidan kir izlamoq”, “tirnoq tagidan kir qidirmoq”, “tirnog‘idan kir izlamoq”* [Рахматуллаев.Ш., 1968:233] kabi. Masalan: Oybekning “Oltin vodiydan shabadalar” asarida: *“Sizga o‘xshab ig‘vogar bo‘lsam, tirnoq orasidan kir kovlasam, shivirlar edim. ... Siz mana bu gapni qulog‘ingizga quyib oling: gap tashuvchi, tirnoqdan kir izlovchilarni, chaqimchilarni men juda yomon ko‘raman*” jumlalarni keltirishimiz mumkin [Ойбек., 1976:233].

Shevamizga nazar tashlasak *“qildan qiyiq qidirmoq*”, “*pashshadan fil yasash*” kabi turlari qo‘llaniladi. Qipchoq lahjasi vakillari tilida *“тирнақтиң астынан кир изле*” shakli qardosh qozoq tilida bo‘lsa *"тырнақ астынан кір ізделі*"[Ойбек., 1976:291] tarzida mavjud. Bu iboraning o‘g‘uz lahjasi aholi vakillari tilida ham bir necha sinonimlari mavjud. Bular *"süýde siňa gözzeseň gan göriner”*, yoki “*namani izarlasaň monjiq tapilar*” “*dirnaq astinan kir izlash”* kabilardir. Turkman adabiiy tilida bo‘lsa “*süýde siňe seretseň gan göriner*” shaklida qo‘llaniladi[Эшимбаев. М., Асқаров. А. А. 2007:162].

Shaklan har xil bo‘lgan bu frazeologizmlar ma’no jihatdan bir-biriga juda yaqindir. Jumladan, bizga Odamatodan meros bo‘lgan sevish, sevilish har bir inson boshida bor. Ammo ba’zi bir shunday kimsalar bor sevmagan insonga suykaladigan. Tilimizda bundaylarga nisbatan *“suymaganga suykalma”* iborasini qo‘llashadi. O‘g‘uz lahjasi vakilari tilida bu iboraning “*sevmaýana sü:kanmma*”,

söýmediga süýkenma” tarzida, qozoqlarda bo‘lsa *“cuymegenge suykenbe*”, qipchoq lahja vakillari tilida *“суймегенге суйкенбе суйгениң болар суўқабақ”* tarzida qo‘llanilishining guvohi bo‘ldik. Qipchoq lahja vakillarida bunday nomlanishi bo‘yicha xalq orasida shunday rivoyat bor ekan. “Qadimda G‘o‘dalaq ismli bir kishi bo‘lgan ekan, u Ko‘shkenbay ismli bir insonga ocharchilik vaqti qarz bergan ekan. Qarzini so‘rab uyiga kelganida uning Aysanem ismli qizini yoqtirib qoladi. Qizni Awez ismli bir yigit ham yaxshi ko‘radi, qizni ham bu yigitda ko‘ngli bo‘ladi. Lekin yigitni hech kimi yo‘q, nochor bo‘ladi. Ko‘shkenbay qarzdan qutilish uchun qizini G‘o‘dalaqqa berishga rozi bo‘ladi. Erining bu ishidan xabar topgan Parshagül qizni o‘zini sevgani bilan bu yerlardan qochib ketishiga, birga bo‘lishiga yordam beradi va qizning o‘rniga *суў қабақ* qo‘yib ketadi.” [Türkmen diliniň frazeologik sözlügi, 2013:50]. Ota bobolarimiz qadimda *“суў қабақ*’’lardan ya’ni suv idish sifatida foydalanganlar. Suv *qabaq* o‘zi asli o‘simlik bo‘lib, uning shakli huddi ayollarning qaddi-qomatiga o‘xshagani uchun Parshagül qizning o‘rniga *suw qabaqti* qo‘yib ketar ekan. Shundan keyin ushbu *“суймегенге суйкенбе, суйгениң болар суўқабақ”* iborasi xalq orasida qo‘llanilar ekan. Shu o‘rinda o‘g‘uz lahjasidagi *“süýji –süýji iýmegiň, ajy-ajy gäkligi bar*” frazasini keltirib o‘tsak. Bu fraza “Shirin-shirin yemoqning, achchiq-achchiq qusmog‘i bor” tarzda tahlil qilinadi. Adabiy tilimizda “yemoqning qusmog‘i bor’’ shakliga mos kelsa, shevada "*ýemaknam kusmaki bo"* tarzda qo‘llaniladi. Qipchoq lahjasi vakillar tilida bu ibora *"алыудың берыуи бар*" tarzida uchraydi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan *“süýji*” so‘ziga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu so‘z adabiy tilda “shirin” so‘ziga mos keladi. Ellikqal’a aholi vakillari o‘rik mevasiga endi maza kirib, shira kira boshlagan vaqti *“shirin o‘rik*” so‘zi o‘rnida *“süýji ärik*” iborasini ishlatadi. Bu so‘zni "shirin so‘z" insonlarga nisbatan ham qo‘llash mumkin ya’ni “süyji söz bo‘l” shirin so‘z bo‘l shaklida. O‘g‘uz sheva vakillari *“dili shirin”, “zvani shirin*” kabilarni qo‘llasa, qipchoq lahjasi vakillari *“shiyrin so‘z*” shaklini qo‘llaydi.

Xullas, bu kabi dialektal frazeologizmlar aholi tilida, kundalik hayot tarzida qo‘llanilishini juda ham ko‘p uchratishimiz mumkin. Mavzu jihatdan xilma xil bo‘lgan bunda iboralarni tahlil qilar ekanmiz, har birining o‘ziga yarasha kelib chiqish tarixi, har tilda har xil nomlanishi, sinonimik jihatdan ham bir-biriga juda yaqinligining guvohi bo‘lamiz. Bularning ayrimlari tovushlar orqali farq qilsalar, ba’zilari umuman boshqa bir frazadan foydalanishadi. Biz yosh avlod ularni o‘rganib, izlab, topib, tadqiq qilib o‘rganish orqali dialektal leksikaning rivojiga o‘z hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mamatov.A.E. Zamonaviy lingvistika. T. 2019.

2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. – T.1966.
3.Рахматуллаев.Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразелогик луғати. – Тошкент,1978.
4. Ойбек. Қутлуғ қон. – Тошкент. 1969.
5. Кайпназарова.М. Кегейли сойлесиминдеги диалектик фразеологизмлер. Қарақалпақ тили фразеологиясының актуаль маселелери. – Нөкис., Қарақалпақтастан. 2011.
6.Эшимбаев. М., Асқаров. А. А. Қазақ тілінің фразеологиялық сөздігі. – Алматы. 2007
7. Ойбек. Олтин водийдан шабадалар. –Т. 1976.
8.Айназарова Г. Қарақлпақ тилинде теңлес еки копонентли фразеологизмлер. –Нөкис. 2005.
9.Türkmen diliniň frazeologik sözlügi. – Aşkabat, 2013.

XORAZM SHEVALARI SOHAVIY LEKSIKASIDA GENDER XUSUSIYATLARNING AKS ETISHI

Yo‘ldosheva Ma’rofat,
Urganch davlat universiteti magistranti
Sa’dullayeva Sevara,
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Xorazm shevalari sohaviy leksikasini gender tadqiqotlari nuqtayi nazaridan o‘rganish masalalari ilgari surilgan bo‘lib, ular faktik materiallar asosida tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *gender, sohaviy leksika, sheva, Xorazm shevalari, gender betaraf leksika.*

Annotation. *This article presents the issues of studying the field vocabulary of Khorezm dialects from the point of view of gender research, which is analyzed on the basis of factual materials.*

Keywords: *gender, sectoral vocabulary, dialect, Khorezm dialects, gender neutral vocabulary.*

Bugungi kunda milliy o‘zligimizni anglash, xalq ma’naviyatini yuksaltirish, o‘zbek tilining qo‘llanish doirasini kengaytirishga alohida e’tibor berilmoqda. Ayniqsa, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlari, xalq shevalarini o‘rganish dolzarb masalalardan sanalib, ushbu merosni saqlash, o‘rganish va tadqiq qilish borasida muhtaram Prezidentimizning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: “Shuningdek, o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy

taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur” [1:2019].

Hozirgi zamon tilshunosligida, shu jumladan, o‘zbek tilshunosligida, genderni (jins va u bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni) o‘rganish eng asosiy vazifalardan biri bo‘lib qoldi. Genderning muhim xususiyatlaridan biri shuki, u fanlararo xarakterga ega bo‘lib, ilm-fanning har bir sohasida tadqiq etilmoqda. Natijada genderologiya fani paydo bo‘ldi.

Tilda gender munosabatlarini o‘rganish va ularni tahlil qilish tilshunoslik uchun muhim masalalardan biridir, chunki gender muammosi ma’naviyatni yuksaltirish, o‘zlikni anglash, inson haq-huquqlarini poymol etmaslik kabi masalalarni ifodalaydi. Tilning inson bilan chambarchas bog‘liqligini hisobga olgan holda, inson ongi, dunyoqarashi, ruhiy va amaliy faoliyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan masalalar sohaviy leksik birliklarda o‘z aksini topishi mumkin.

Biz ushbu ishimizda Xorazm shevalaridagi sohaviy leksik birliklarni genderologik jihatdan o‘rganishni maqsad qilganmiz.

Xorazm vohasidagi o‘zbeklar etnik jihatdan ikkita katta guruhga – qipchoq va o‘g‘uzlarga mansubdir. O‘zbeklarning bu xildagi ikkita etnik guruhga bo‘linishi, ularning til jihatdan farqlanishiga – o‘zbek tilining qipchoq va o‘g‘uz shevalari mavjud bo‘lishiga sabab bo‘lgan. [Ишаев А., 1977: 5] Mazkur shevalar ayrim lingvistik belgilariga ko‘ra bir-biridan bir qadar farqlanadi. Shu sababli ham o‘rganilayotgan hudud shevalaridagi leksik xususiyatlarni o‘rganish o‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi uchun qimmatli ma’lumotlar beradi. Shunday ekan, o‘rganilayotgan hudud o‘zbek shevalaridagi sohaviy leksikani tadqiq etish o‘zbek tili lug‘at tarkibining unutilayozgan til elementlarini, til tarixidagi noaniq leksik-grammatik hodisalarni o‘rganish uchun imkon yaratadi. Ayniqsa, Xorazm shevalari sohaviy leksikasini gender tadqiqotlari nuqtayi nazaridan o‘rganish shevashunoslik fani oldida turgan muhim masalalardan hisoblanadi. Chunki ushbu mavzu o‘zbek shevashunosligida maxsus o‘rganilmagan.

O‘zbek tili shevalarida, jumladan, Xorazm shevalarida ham gender tushunchasi aniq ko‘rinib turgan so‘zlar adabiy tilga qaraganda ko‘proq uchraydi. Albatta, buni adabiy tilning ma’lum ma’noda cheklanganligi, sun’iyligi bilan izohlash mumkin. Sheva jonli va doimiy harakatdagi til shakli bo‘lganligidan unda boshqa tillardan so‘z qabul qilish, mavjudlarini esa boshqa ma’noda qo‘llash, yangi so‘z hosil qilish imkoniyatlari nihoyatda keng. Shu sababli ham shevada genderning ifodalanishi nuqtayi nazaridan shunday lug‘aviy birliklar uchraydiki, bunday original ifodalarni adabiy tilda ham qo‘llash istagi paydo bo‘ladi.

Xorazm shevalari sohaviy leksikasi tizimida ham gender birliklar alohida o‘rin tutadi. Jamiyatda aksariyat hollarda ayol va erkakning vazifalari

taqsimlangani bois baʼzi soʻzlar asosan ayollarni, baʼzilari esa asosan erkaklarni ifodalash uchun qoʻllanadigan boʻlgan. Bu koʻproq sohaviy leksikaga oid soʻzlarda namoyon boʻladi. Shu jihatdan bunday birliklarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Gender betaraf leksika
2. Gender xoslangan leksika.

Xorazm shevalari sohaviy leksikasidagi gender betaraf birliklar erkak jinsi uchun ham, ayol jinsi uchun ham bir xil qoʻllanadigan soʻzlardir. Xorazm shevalari sohaviy leksikasi tizimidagi bunday soʻzlar turli sohalarga taalluqli boʻlib, bular zargarlik, tikuvchilik, dehqonchilik, etikdoʻzlik, uy-roʻzgʻor, qishloq xoʻjaligi leksikasi va boshqa shu kabi sohalarda namoyon boʻladi. Masalan, zargarlik leksikasiga oid boʻlgan bir qancha birliklarda ham gender betaraf soʻzlarni uchratishimiz mumkin.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida bezak uchun barmoqqa taqiladigan halqasimon metall buyum *uzuk*, oʻrganilayotgan hudud shevalarida *yüzük//üzük* deb ataladi. Qoʻlga taqiladigan taqinchoqlarning ushbu turi ayollar va erkaklar orasida bezak buyumi sifatida keng tarqalgan. Keksa kishilarning taʼkidlashlaricha, ayollar doimo qoʻllariga uzuk taqishlari lozim boʻlgan. Chunki, xalq qarashlariga koʻra, qoʻlga uzuk taqmagan ayolning roʻzgʻor ishlarini bajarishi harom, yaʼni makruh hisoblangan. [Dala yozuvlari, 2019]

Jamiyatda aksariyat hollarda ayol va erkakning vazifalari taqsimlangani bois baʼzi soʻzlar asosan ayollarni, baʼzilari esa asosan erkaklarni ifodalashda qoʻllanadigan boʻlgan. Bular bevosita sohaviy leksikaga oid soʻzlarda namoyon boʻladi. Masalan, farzandni dunyoga keltirish, uni tarbiyalash, uy-roʻzgʻor, tikish-bichish ishlari, asosan, ayollarga, ov qilish, yilqichilik, choʻponlik, boshqarish ishlari, asosan, erkaklarga xos boʻlganligi sababli shu vazifalar bilan bogʻliq soʻzlarda ham gender xususiyatlarning ifodalanishini koʻrishimiz mumkin. Masalan, doya, enaga, hamshira, chevar, pazanda, tikuvchi, yallachi, bilakchi (kigiz pishitishda bilak bilan bosib, urib harakat qiluvchi ayol, qiz, juvon), quroqchi kabi soʻzlar ayollarni ifodalash uchun xoslangan boʻlsa, sarkarda, sipohiy, sulton, toʻra, amir, jangchi, askar, suvoriy, hammol, mirzo, karvonboshi, samovarchi kabi soʻzlar, asosan, erkak jinsidagi odamlarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Xorazm shevalari sohaviy leksikasiga mansub soʻzlar tarkibida erkak jinsiga xoslangan leksik birliklar ham koʻpchilikni tashkil qiladi.

Erkaklar kiyimi boʻlgan *toʻn, chopon* soʻzlari Xorazm shevalarida keng isteʼmoldadir. *Toʻn* – oldi ochiq, uzun milliy kiyim. *Chopon* – ustki, uzun milliy kiyim. Har ikkalasi ham keng isteʼmol doirasida. Shu sababli ular barcha

shevalarda *to‘n* yoki *chopon* shaklida uchraydi. Bu so‘zlarning xalq dostonlari leksikasida ham keng qo‘llanganligini kuzatishimiz mumkin:

Besh mazgildan bedov otlar choparman,
Beklarim egniga *chopon* yoparman,
To‘yim uchun semiz qo‘ylar toparman,
Muborak aylanglar nozlim to‘yini.

[С.Р.Рўзимбоев, 2011:43][8]

Xandon botir va Erhasanlarning harom tuklari tiklanib *chakmanini* teshib o‘tdi. [“Гўрўғли”, 398]

Jig‘a (forscha-tojikcha) – bosh kiyimiga taqiladigan, qimmatbaho toshlar bilan bezatiladigan ziynat buyumi (asosan qiz to‘yida kuyov bo‘lmishning, xatna to‘yida esa to‘ybolaning bosh kiyimiga taqiladi). Hozirgi kunda iste’moldan chiqib ketgan:

Boshimdagi tillo *jig‘am* o‘tag‘am,
Hech kimlara yo‘qdir mening dag‘dag‘am,
Shirin jonim bo‘lsin sanga sadag‘am,
Men aylanay oting bilan o‘zingdan. [“Гўрўғли” 180]

Xorazm shevalari leksikasi tarkibida ayollarga xos gender birliklar ham ko‘pchilikni tashkil qilib, ular turli sohalarga taalluqligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, quyida zargarlik sohasiga oid bir qancha misollarni keltirishimiz mumkin.

Maŋlaydüziy **yoki** ***qush innä*** (qisqacha *qashinna*) peshona taqinchog‘i hisoblanadi. Ushbu zargarlik buyumi Xorazm ayollarining an’anaviy taqinchoqlaridan hisoblangan. Bu taqinchoq, asosan, turli xil ranglar yordamida sirlangan va har bir rang o‘z ahamiyatiga ega bo‘lgan. Oq rang - quyosh va birdamlilik, moviy rang - ulug‘vorlik, qizil rang esa bezaklarning naqshlariga ko‘rkamlik baxsh etgan. Bu taqinchoq, asosan, kelinlar qalpoqlariga qistirib taqilgan va XX asrning birinchi yarmiga kelib urfdan qolgan. Maŋlaydüziy (manglay duziy) kumush, marjon, tosh bilan bezalgan.

Täŋädüziy (tanga duziy) - ayollar peshona bezagi bo‘lib, unga kumush va marjon bilan ishlov berilgan.

Qashinna **(qush ini)** - Xorazm ayollariga xos bo‘lgan taqinchoq turlaridan bo‘lib, juda ko‘rkam jilvalanadi. Taqinchoq taxtining markazida va yonida patlar qistirib qo‘yadigan naychalardan uch tishli panshaxa nusxasi tushirilgan, ularning oralarida esa er-xotinlik ramzi sifatida ichiga bir juft qush tasviri tushirilgan haykallar o‘rnatilgan.

[8] Asardan olingan keyingi misollar ham shu nashr asosida bo‘lib, qavs ichida betlari ko‘rsatiladi.

Xalq orasida ushbu taqinchoq bilan bog‘liq qo‘shiqlar keng tarqalgan:

Qoshinnani qoshi yarim,
Aravakni boshshi yarim.
Sarjuvonli qizni qo‘yib
Bir juvona oshiq yorim!

[Dala yozuvlari, 1995]

Tahyadüziy - matodan tikilgan tahyaning ustiga qadalgan bo‘lib, tahya shaklida bo‘lgan qushlarning tirnoqlari qadim zamonlardan beri yomon ruhlardan asrovchi qush sifatida qaralgan va bu qarash XX asrning birinchi yarmiga qadar mavjud bo‘lgan. Tahyaduziyda ko‘plab osilchoqlar osilib turgan. Dumaloq, to‘rtburchak, oltiburchak yoki sakkizburchak taxtasimon yoki qubba shaklidagi tahyaduziy ayol bosh kiyimini butunlay qoplab berkitib turgan. Bu taqinchoq miniatyuralardagi ayol shlemi (dubulg‘asi)ni eslatadi. *«Düziy»* so‘zi barcha Xorazm taqinchoqlari nomlarida uchrab, asosan, taqinchoq ma’nosini bildiradi.

Umuman olganda, Xorazm shevalari sohaviy leksikasini genderologik jihatdan tadqiq qilish o‘zbek shevashunosligi oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni //http://uza.uz/oz/documents/uzbek-tilining-davlat-tili-sifatidagi-nufuzi-va mavqeini-tubd-22-10-2019

2. Гўрўғли. Хоразм достонлари. Масъул муҳаррир: профессор. С.Р.Рўзимбоев. –Урганч: Хоразм, 2011.

3. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. –Тошкент: Фан, 1977. – 5 б.

4. Dala yozuvlari. Bog‘ot, Xiva, Yangiariq, Hazorasp tumanlari, 2019-yil.

5. Dala yozuvlari. Xiva tumani Soyot qishlog‘i, 1995-yil.

TOLIQON O‘ZBEK QIPCHOQ SHEVASIDA KO‘PLIK SHAKLINING MUSTAQIL SO‘ZLARGA QO‘SHILISH IMKONIYATLARI

Bashir Ahmad Qardash,
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya*. Ushbu maqolada Afg‘onistonning Taxor viloyati, Toliqon shahrida istiqomat qiluvchi o‘zbeklar shevasidagi ko‘plik shaklining mustaqil so‘zlarga qo‘shilishi, ularning negiz va o‘zak, juft va takror so‘zlarga, egalik*

qo‘shimchalarga, ot va ularning turlariga, olmoshlarga, sifatlarga, fe’lga so‘z turkumlariga qo‘shilishi va ifodalanishi kabilar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: *Taxor, Toliqon qipchoq shevasi, ko‘plik kategoriyasi, so‘z turkumlari, negiz va o‘zak va egalik shakllari.*

Annotation. *In this article, the plural form of Uzbek in the dialect of Uzbeks living in Taliqon, Takhar Province, Afghanistan, is added to independent words, their base and stem, double and repeated words, possessive suffixes, at and their types, rhymes, adjectives, verb conjugations, and expressions.*

Key words: *Takhar, Taliqon Kipchak dialect, plural category, word groups, base and core and possessive forms.*

O‘zbek tilida otlardagi ko‘plik kategoriyasini ifodalovchi yagona belgisi-lardir. U ko‘plik ma’nosini emas, balki bu doiraga kirmaydigan fikrlarni voqelashtirganda ham shu nom bilan ataladi. Demak, -lar ko‘plikning grammatik shakli bo‘lib, u turli so‘z turkumlariga xos shakliga egadir.

Ko‘plik kategoriyasi shaklining otlarga qo‘shilish imkoniyatlari ikki qismdan iborat. Birinchi qismga o‘zak, negiz, juft va takroriy shakllar; ikkinchi qismga birgina qo‘shimcha kiradi. O‘zak bir uzvli bo‘lsa, negiz ikki uzvli bo‘lib, o‘zak (asos) va yasovchi qo‘shimchadan iborat. Juft va takroriy ot ikki unsurli bo‘ladi. O‘zak va negizning aksariyati hamda juft ot ko‘plik qo‘shimchasi -larni oladi. Toliqon qipchoq shevasidagi ayrim o‘zaklar bu me’yorga mos keladi. O‘rnaklar: *āptāvlar čixti bašïyä*, *Taxār xalqlari vijtä köp batïr, alamannardï dastdan bir jerγä bir nesä turmajdï* kabi.

Negizlar ham shunday: *Tālïblardï köblärini turxïya qäräb bomajdï, turxïŋdan bizilyilärdi äksärijätläri saqalï köp, asčïlardï hamasïnï bir käsbi bar, čalïlardï qäryä qäräsäŋ körisiŋ, Azar čomïčïlar köp jaman märdim, ǯïjdačïlardï är kim allatalmajdï, mïnï bilip qojïŋ* kabi.

Ot turkumidagi ko‘plik kategoriya shakliga ko‘ra, o‘zak va negizga qo‘shilish imkoniyati quyidagicha:

1. Yakka otga: *balalïrya är nesä desiŋ ketäürädi bïjčäralarγa, kïtäplardï kötärip keŋir ᵛoltïramïs minä beryä, ojïnčïlardï bis märdim ᵛonča jäxši körmäjmis, güldänlir köb xošraj ekäj kü, qišläqlärγä qäčin barasaŋ qeryä ᵛoltïrqïzïunï bilmäjdi, balïqlardï äm veziŋ piširip jep ǯatqansan, qošlar, tarbïzlïr, näklar* kabi yakka jismiy turdosh otlar kiradi.

2. Jamlovchi otga:

a) O‘zakka ko‘plikning qo‘shilishi: *xalqlardï zörini biläsäŋmä? hamsājalär biz minän köb jäxši, alamannïrdïn bir nesäni bir jerγä däširip bomajdï avzïdan qasïn ǯeyändi, pādalardï qäryä ᵛolatyanï appardïŋ? yälälir qäčän ᵛorïladï*

ekin biz äm kesäk edi? millätlärγä šor tabïldï vezi, ʒetkäni näslläri köb bilärdi, kätä-kätä xānvadalïr Tālqanγa köb, ᵛolïr säplärni äm växt äjirip ʒïradï kabi.

b) Negizga ko‘plikning qo‘shilishi: *ājvānlïγlïrï köb bilärdi, ʒämijätjilärdi vezlärini xudā urγan, ïnsāngarčïlïγï ʒoγ bosa sāp barmaŋïr, xabarčïlar qäčän kelädi? kamčïlïqlar vezi qäčän xalās boladï? Qirγini kelγilär ʒoγalmadïkï qutïlsa ādam.*

3) Atoqli otga qo‘shilishi: *Munïsxānnar xānavadasï jäqši märdim, Mamadxānnïr vetä köb baxïl, Mitälip Bektikilär bāzardï egäläb aγannar, men bezär Pirmät xellärdän betim körmäsin ᵛolardï, ᵛujŋγa ot tüšγir Azarčomičïlar ič kimdi qojmajdï;*

4) Sanalib-sanalmaydigan otga qo‘shilishi: *taγajmïrattï pikrläri köb qāvï ekin, buγdajlardï qablaŋ, Avγanïstanγa minčä qanunnar köb ki, šālïlar endi qäčän güriš boladï biz käpsän asaq, ⁱeškilär semirippä ʒoγ äkä?*;

5) Juft otga qo‘shilishi: bïjčāra Hasām äkä ulïγa qänčä *dārï-darmännar qildi, ⁱElmirätti qaun-taruslari biltir köb boγan, äkä-ükälär kesinlär nanγa ᵛoltiräjiq, vetirik-čindi köb äjtädi bi lärin.*

6) Takroriy otga qo‘shilishi: *Nan-pannardï äp keŋär aš qapam, čājnak-pajlardï endi kötäriŋär mïjmāmnnardï alddan, buγdaj-muγdajlarγa biltirγidaj davā sebilmädi vezi xü, qolïmïs äm jetmädi γala-dānalardï ʒïjuγa sāp quurap ketkän ekän* kabi.

7) Turdosh otga qo‘shilishi: *ᵛujlarïγa barïp ʒatïp jertä jenkäjip keγin edi, köčilerdi kunda mitirläp ʒirγän vezi äxi! dukannardïn am ičtimä uenmäjdiki…, qarlar qäčän suv boladï ekän? bāzarlar ʒïm-ʒïrït suv sepkändäj, ämä ʒājlar xäp-čip nimä gäb boptï täγin?*

8) "ser" affiksi otdan oldin qo‘shilib ko‘plik o‘rnida ishlatilishi: *ser ävläd pāškasta(ayol), bi ʒïl ser buγdaj täγäm, ʒerläri ser suu edi, ser pil bosaγ šājat, täγä ser pil ekäj sis gertäj pajsa beriŋ!*

Ko‘plik shakli o‘z olmoshi egalikning II shaxs birligi varianti(o‘zing) va buyruq fe’li II shaxs shakli(boring)ga *ar/ir* tarzida qo‘shilishi uchraydi, o‘rnaklar: *išläriŋdi xalās qildiŋlärmä oziŋlär keŋnär, qänčädin asaŋlar äm vezläriŋ gäpiriŋär biläläri, qaun ʒeŋir täγin xudā bilädi qäčän keläsisler, bi kečä äm ʒatiŋar kejin ketäsislär* kabi.

Agar ko‘plik n tovushi bilan tugagan so‘zga qo‘lshilganda *-lar* shakli *–nar* tarzida qo‘shilib ishlatiladi. albatta bu fe’lning II shaxs buyruq maylidagi shakli orqali ishlatishi uchraydi. o‘rnaklar*: apaŋ ozï äm barsïnnar bizdikiγä, tes kesinnär biz qäräp turmajïγ, äjtkin tes bosïnnär, šorγa qasïnnar vezim äbärämän kejin* kabi.

Ko‘plik qo‘shimchasi egalik olmoshining II shaxs ko‘pligi(siz)ga o‘zgarishsiz shaklda qo‘shiladi. Ammo, siz olmoshining o‘zagidagi z undosh

harfi talaffuzda tushriladi. O‘rnaklar: *tojγä barasïlarma keŋär xäj*?! *adam bomajsïlar nimä qiläsäŋ, silärdän körä, ᵛotlab ʒïrγan māl jaxšï, qojïŋar silärdän Kačā(kratushka)li ʒor bomajdï* kabi.

Ko‘plik shakli II shaxsni hurmatlash uchun III shaxs shakliga *–lar* ni qo‘shib *–nar* va *-lar* varyantlari bilan ishalatiladi. O‘rnaklar: *išγä barsïnnar, kesä kesinnär ᵛujγa qäräb ᵛoltïrajïγma, čāj-pāj išip tursïnnar, barāᵛosïllar qänä men kejin baraman, qojlarnï körsinllär, ʒerdi deqän äjdäsillär, tuxïmlardï ʒerγä sepsinnär endi* kabi.

Taxor o‘zbek qipchoq shevasida ko‘plik kategoriyasining fe’l turkumiga qo‘shilishi imkoniyati asosan egalik kategoriyasining qo‘shimchalari bilan uchala shaxsda ham bor. Mazkur shakllar shaxs-son qo‘shimchalari bilan o‘z ifodasini topadi. Bu shakllarning hammasi ish-harakat etuvchining birdan ortiq shaxs ekanligini anglatadi.

I shaxs egalik ko‘plik qo‘shimchasi: -pis, -mis ko‘plik ma’nosi birinchi shaxs bilan birgalikda fe’lga qo‘shishi bilan ifodalanadi: *barappïz qujman taman, ʒïjapïs nandï tesräq kemäjsämä*! *turïppïs šorγä, kelämis sisγä qäräp, baramïs bāzar ičtimä amajmïs bil? bāzarlardï äjlänip kelämis* kabi.

II shaxs egalik shaklining birligi: –iŋ/ŋ o‘rnida ko‘plik –iŋis/ŋis, –ŋar shakllari bilan fe’l o‘zagiga qo‘shilishi asosida ishlatiladi. Albatta bu shakl –ŋar fe’lning buyruq shakli bilan qo‘llanilada. O‘rnakalar: *keŋär nan tajār jaxlap qaladï, barïngar qänä nimä boladï ekäj, baraj qänä silär äm keŋär soŋ, täjäγiŋisdi bersäŋis köräjin, qolïŋïsdakï qozïnï qänčä aldïŋïs, čārbaq sāj barsaŋïs menγä törttä jäxi tauγ äp ke* kabi.

– jq/jγ qo‘shimchasi ish-harakatni bildiruvchi ko‘pchilikni ifodalashi. bu Taxor shevasida ko‘plik qo‘shimchasi sifatida fe’l o‘zagiga qo‘shilishi uchraydi: *nan ʒïjajγ kejin boladï, keŋar eji qizlär minä berärdi tāzalajïγ, nesa-qäräni ʒïjajïq tozïb ʒatïpttï, tezräq kesäŋ bilärdi ʒïjïp- terip alajïq edi, mäxsät atamalar keγinčä ävlini tazalap qojajïq.*

Bundan boshqa ko‘plik shaklining 2-shaxs birligidan oldin fe’l o‘zagiga qo‘shilib ishlatishi ancha. o‘rnaklar quyidagicha: *tojγa barïlarïŋ, äp ke tes tojγa ballarïŋ depttï, qandaj bosa äm qavmlarïŋ tojdïn, bilärdi aldïlariŋ qolïm talïp ketti, kellärïŋ endi nan jäxläp qoldï, ušlaŋlar tušïp ketmäsin qalïŋdïn* kabi.

II shaxs egalik shaklining ko‘plikgi: *–iŋis* shakli o‘rnida *-iŋislir/-liriŋis* qo‘shimchalari bilan fe’l o‘zagiga va egalikdan oldin qo‘shilishi ko‘plik vazifasida ishalatiladi. Bu albatta, o‘laroq hurmat ma’nosida bo‘ladi. o‘rnak: *tamlardï kirip köriŋislär, kep ketiŋislär, abarïp qojïŋïslar bilärdi, ᵛujïγä barlïrïŋïs xäj men kelämän, qamïŋïs bilär bilärdi qandajïn adamlïγïnï, soraslar ᵛolardïn qäčän keldilär ekäj, biliŋislär bindäj adam köp käm tabïladï kabi*.

ko‘plik kategoriyasi lug‘aviy(biz) va morfologik(bizlar) usullari bilan olmoshlarga qo‘shilishi imkoniyati olmoshlarning bunday ko‘plik birikishi so‘zlashuvlarda biron vosita orqali numoyon bo‘laveradi. 1 va 2-shaxsda ko‘plik olmosh(biz, siz)lariga qo‘shilishi asosida ifodalanib, nutq so‘zlashuvlarda tub shakliga *–lar* ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda his-hayajon holatda ishlatiladi: o‘rnaklar: *bislär är qändäj išti uddasïdan čiγälämis, bislärdi qölimsdin bindäjin išlär köp kelädi, ke-ke ᵛolar bomasa bïslar barmïs, sislärdi qolïŋïsdan šunča iš äm kemäjmä? xäj nimä bakar ketäsislär, sislär turïŋïslar bizlär qilämis šo išlärdi* kabi.

Toliqon o‘zbek qipchoq shevasida ko‘plik qo‘shimchasi ko‘rsatish olmosh(*bu, shu, u*)lariga qo‘shilganda his-hayajon sezilmaydi. o‘rnaklar: *šolardï qänčädän beräsis aγajïn alajïgγ? šilärdï äm xabar qiŋ kesinnär xajïr, šolar qäčän adam boladï ekäj, bilär kimdikidi? bilär ämejšä išti bizib ǯïradï, bilrädi γamï meni suv qildi, ᵛolardan birän xabar barma vezi? ᵛolardan minčä äm tavaqï qimäγin! ᵛolar xu änä šïndajïn näpär.*

Toliqon shevasidagi miqdorni anglatadigan olmoshlar (hama, bari, butun)ga ko‘plik shakli qo‘shilganda takidlash uchun ishlatilishi ancha: *iškä ämäläri kesin äkäm tes boŋar...! tojγa ämäläri barsa berγä kim qasïn? bäriläri kelämä barïp äp keläj? bärilär kesin djidi deŋ äkä tojγa! pitinnäri bomasa äm boladï äp keŋ, ǯartïlardï ǯijïp barsä äm menγä boladï dedi äkäm, nandï pitinnäri bosa berib ǯuvarïŋ.*

Sifat turkumiga tegishli bo‘lgan so‘zlar ot singari so‘zlarning o‘zak, negizlariga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilishi asosida ishlatiladi. Sifat –lar shakli ko‘plik ifodalash uchun qo‘shiladi. o‘rnaklar: *zükkälärdi ᵛujïdan keγänmä? xošrajlar eji keŋar! ǯamannarγa ǯau jäγmäjdi-ku vezi, jäxšiläri sisdiki ǯamannarï bisdiki* kabi. *ǯamannardïn jortï auz qaldïma*? *kögäjildi sarïlarïnï äp täjlä, qizγišläridän asaŋlar jäxši bomajma* kabi.

Sifat tukumiga ko‘plik shakli to‘rt xil yo‘l bilan ifodalanalanish imkoniyati Taxor o‘zbek shevasida ancha.

O‘zak orqali: *bi köb käm ǯijïdï, az qizγäldäqti terip kepsän nimä qiγič ediŋ? Zarmïna avlattan mol bosa äm säp xäjr körmädi ullarïdan, köp ärpäni boǯïlaptïkï; ser-* old qo‘shimchasi oarqali: *minčä ser gäp adam, ser avlad bosa äm ämäsi ǯilimbir, ser päjsä bosa äm xäjri ǯaq, nečä ser buγadaj kötärvediŋ xirmändän biltir äkä näsïr? tör-beš ser ärpä čäčip kegän edim šonï ǯijajïq.*

Juft va takroriy sifatga qo‘shilganda: *gürišti ičidän qärä-qürälärini terγin balam meni közim otmajdï, bāzardan qaun aldïŋ sarï-surïlarïnï amaγïn xoppa, jäxši-jamannarï dep ǯatmaŋar usttïlarŋ pitsin äxi! äxši-äxšilärini terip ber, ǯaman-ǯamanlarïnï bermä, äxši-äxšilirini sen terip apsaŋ;*

O‘zak va qo‘shimchasining tasirlashi orqali ko‘plik hosil bo‘ladi: *be hïsāp pïlï bar āẕï Mämädini, köp bepärq adam ekän ič gäpkä tüšinmädi, o: bäčä be ädäbliq qimä bi nimädi? minčä äm ädäbsis bolama? Be tärbijäliqti bašïya čiγiptilärin girtäj šarïm bäkär.*

Demak, ko‘plik qo‘shimchasi grammatik qonunlariga binoan, turli so‘z turkumlariga qo‘shilib so‘zning ma’nolariga grammatik ma’no qo‘shadi. Bu adabiy til bir xil bo‘lsa-da, shevada esa, shevalik variantlar bilan uchraydi.

FOYDALINGAN ADABYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. -Toshkent: Navro‘z, 2016.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. -Toshkent: Nodirabegim, 2021.
3. Ishonch Z. O‘zbek tili grammatikasi. - Kobul: Xuroson bosmaxonasi, 2014.
4. Ibrohimov S. O‘zbek tilining Andijon shevasi. -Toshkent:Fan, 1967.
5. Oltoy N. O‘zbek tili so‘zligi. -Moliziyo: Saqofat intishoroti, 2007.
6. Raximov. S. O‘zbek tili Surxandaryo shevalari(Fonetika, Leksika). -Toshkent: Fan, 1985.

PAYARIQ TUMANI MUHAMMADI

QISHLOG‘IDAGI BA’ZI DIALEKTAL SO‘ZLAR IZOHI

Norkozokova Munisa Farxodovna
ToshDO‘TAU talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqola o‘zbek shevalaridan biri Payariq tumani shevasiga bag‘ishlangan. Unda muallif yuzdan ortiq dialektal so‘zlarni to‘plab, imkoniyat darajasida izohli tahlil qilgan. Keltirilgan sheva so‘zlarining leksik-semantik ma’noviy guruhlariga ham ajratilgan va gap ko‘rinishida bir qancha misollar keltirib, tahlilga tortilgan. Yaratiladigan dialektal leksikografik tadqiqotlar uchun ushbu maqoladagi dialektal so‘zlar ko‘rinishidagi misollar lug‘at maqola vazifasini bajaradi.*

Kalit so‘zlar: *sheva, sheva so‘zi, dialektal so‘z, dialektal leksika , sheva leksikoni, sheva so‘zidan tayyorlangan lug‘at maqolalar.*

Annotation. *This article is dedicated to one of the Uzbek dialects of Payarik district. In it, the author collected more than a hundred dialectal words and analyzed them as much as possible. The given dialects are also divided into lexical-semantic semantic groups, and a number of examples are given and analyzed. The examples in the form of dialectal words in this article serve as a dictionary article for the dialectal lexicographic research that is being created.*

Key words: *dialect, dialect word, dialect word, dialect vocabulary, dialect vocabulary, dictionary entries based on the dialect word.*

Samarqand viloyati shevasi qipchoq (Abdullayev F. A. 1957. 323-344-bet.) (Abdullayev F. A. 1955,18-bet.) va qarluq lahjalari shevalaridan tashkil topgan shevalarning majmuyi. Bu viloyat shevasi fonetikasi, morfologiyasi va qisman leksikasi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Shevashunos Tolib Enazarov aytganidek, sheva leksikasi haligacha to‘liq o‘rganilmagan, ammo uni to‘liq lozimli dolzarb masalalardan biri (Shoimova N, 2009.6(58)-soni, 70-72-betlar.). Biz ushbu maqolamizda Samarqand viloyati Payariq tumani Muhammadi qishlog‘i shevasining leksikasini o‘rganishni maqsad qildik va shu shevaning leksik birliklarini ma’lum ma’noda yig‘ib ularni lug‘at maqolalar holiga keltirdik (biz tayyorlagan maqolalar, albatta, mukammal holatga etmagan). Biz dialektal so‘zlarni ham so‘roqlik asosida, ham sheva vakillari bilan suhbatlarda to‘pladik (Ishayyev A, 1989, 211-bet.). Shevamizda singarmonizm mavjud (Tursunov U. & Doniyorov X. 1959, 37-44-betlar.). Samarqand viloyati haqida ko‘p ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar professor Nazar Rajabov va Vahob Egamovlar hisoblanadi (Rajabov N, 1977, 3-27-betlar.) (Egamov V. 1954, 25-bet, Egamov V, 1959. 83-101-betlar, Egamov V, 1960, 214-228-betlar, Egamov V. 1970,). Aniqlik uchun: Biz bu maqolamizda transkripsiyaning lotin alifbosiga asoslangan turidan foydalandik va dialektal so‘z qatnashgan gaplarni misol tariqasida keltirib o‘tdik.

1.QOROLI *[qārālï]*-1.Olxo‘ri. 2.Girdoli so‘zi ham ushbu so‘zga sinonim sifatida ishlatiladi.*[Ey bolalar,kelinglar, mana bu qoroli[qārālï]larni terib tashlanglar, murabbo qilamiz!]*

2.OLMIRIT *[ālmïrït]*-nokdan kichikroq bo‘lgan, nokning shakl jihati bilan o‘xshash meva turi.*[Farida olmirit[ālmïrït]ni judayam yaxshi ko‘radi.Ammamlarnikidagi olmirit [ālmïrït] har yili yaxshi hosil beradi.]*

3.QIZILSULTAN *[qïzïlsültän]*-meva turi. Adabiy tilda olcha-olxo‘ri ma’nosida qo‘llaniladi. Ko‘ksulton nomli navi bilan bir xil tanovvul qilinadi. Asosan pishgandanda emas, pishmasdan oldin, kichikligida tuzga botirib tanovvul qilinadi. Ta’mi taxirroq bo‘ladi. Daraxtining tanasi, barglari, mevasi hammasi qizil rangda bo‘ladi.*[Bahorda qizilsultan[qïzïlsültan] suvli, achchiq bo‘ladi, eganimda shunaqa mazza qilaman, bay-bay-bay… Ayniqsa, qizilsultanni [qïzïlsültänni] tuzga botirib egan paytlarimni eslasam, rohatlanaman.]*

4.ANA *[änä]*-1.Buvi. 2.Xola. 3.Ona. 4.Onadan katta bo‘lgan qo‘shni xotinlarga nisbatan ham ishlatiladi. *[Anam[änäm]bizga judayam mehribon edilar. Jamila ana[änä] ko‘pincha biznikiga kelib turardi zerikkan vaqtlarida.]*

5.KATATA *[kätätä]*-katta ota so‘zining qo‘shilib talaffuz qilinishi. 1.Asosan otadan katta bo‘lgan amakiga nisbatan qo‘llaniladi. 2.Bobo. 3.Otaning jo‘rasiga nisbatan ham ishlatiladi. 4.Otadan kata bo‘lgan har qanday erkak kishiga nisbatan ishlatiladi. *[Katatam[kätätäm]ning judayam katta bog‘i bor, u erda yo‘q mevaning o‘zi yo‘q-da… A’zam katatam[kätätäm] bilan dadam yoshligidan birga o‘sib katta bo‘lishgan ekan, shuning uchunmi, bir-biriga haliyam mehribon.]*

6.QOYNOG‘A *[qājnāγä]*-qayin aka. 1.Kuyovning akasi kelinga nisbatan qayinaka. 2.Kelinning akasi kuyovga qayinaka. *[Qoynog‘am[qājnāγäm]ning xarakteri juda qo‘polligidan doim hamma bilan urush chiqarib turardi.]*

7.QUDOG‘IY *[qüdāγïj]*-1.Quda xola. 2.Quda tarafdagi har qanday yoshi katta bo‘lgan ayolga nisbatan ishlatiladi. *[Qudog‘iy[qüdāg‘ij]lar ko‘pchilik bo‘lib kelishdi. Aziza qudog‘iy[qüdāγïj] qorachadan kelgan, bo‘ylari baland, xushchaqchaq va samimiy ayol edi.]*

8.OYCHA *[ājčä]* (Kattaqo‘rg‘on shevasidan)-1.Kelin 2.Yanga 3.Kelinoyi 4.Boshqa shevalarda kennayi *[kennäjï]* ma’nosida qo‘llaniladi.*[Oycha[ājčä], oycha, yuring sizni onam chaqiryapti! Zarnigor oycham [ājčäm]ni judayam yaxshi ko‘raman, chunki u xushmuomala, samimiy, ko‘ngli ochiq va beg‘ubor inson, har safar borganimda, kulib kutib oladi.]*

9.QIZCHA *[qïzčä]*-1.Kelinlar qayinsinglisini shunaqa chaqiradi. 2.Kichkina qizga nisbatan ham ishlatiladi.*[Qizcha[qïzčä], akangiz qayerga ketganini bilmaysizmi*? *Ertaga qizcha bilan kuyov kelmoqchi ekan.]*

10.BOLACHA *[bāläčä]*-1.Kelinlar qayinukasini shunaqa chaqiradi. 2.Yosh bolaga nisbatan ham ishlatiladi.*[Bolachani ishlari biram ko‘p ekanki, boshini qashlashga ham vaqti yo‘q*.]

11.OYKA *[ājkä]* (Kattaqo‘rg‘on shevasida) -kelin qayinsinglisini shunday chaqiradi.*[Zulayho kelin bo‘lib tushganidan beri oyka[ājkä]si bilan ko‘p tortishadi,bilmayman, nimani bo‘lisholmaydi…]*

12.ZORDOLI *[zārdālï]*-1.O‘rik. 2.Boshqa shevalarda g‘o‘ra ma’nosida ham qo‘llaniladi. 3.dovcha *[dāvčä]* shakli ham uchraydi.*[Essiz,bu yil ham zordoli[zārdālï]larni sovuq urib ketdi. Ikki yildan zordoli[zārdālï] endi gullaganda qor yog‘ib, sovuq urib ketadi.]*

13.SO‘VIZ *[sövïz]*-1.sabzi. 2.Shevamizda yana sabiz[säbïz] shaklida ham ishlatiladi. *[O‘tgan yili dadam uraga besh qop so‘viz[sövïz]ni ko‘mib qo‘yibdi. Xolamlar besh yildan beri so‘viz[sövïz] salat qilish bilan shug‘ullanadi. Ko‘zimni tekshirtirishga borganimda shifokorlar sabiz[säbïz] eyishimni ko‘proq ta’kidlashadi.]*

14.TORBIZ *[tārbïz]*-tarvuz.*[Yoz kelib torbiz[tārbïz]-qovun mo‘l –ko‘l bo‘lib qoldi*.]

15.SATIL *[sätïl]*-1.chelak. 2.Boshqa sheva vakillari tomonidan non taxlab,solib qo‘yiladigan idish ma’nosida qo‘llaniladi.*[Dilrabo, hovliga satil[sätïl]lab suv quy,havoyam rosa isib ketdi, odamni nafasi siqyapti.Onam aytdiki, alyumindan yasalgan satil[sätïl]ga sumalakni solsa, aynib qolarkan.]*

16.POQIR *[pāqïr]* – 1.chelak. 2.Bolapaqir ma’nosida ya’ni ‘‘eh,bolasi tushmagir’’ ma’nosida ham ishlatiladi.*[Bozorga borib 2 poqir[pāqïr] uzum sotib keldik,choy –chaqa bo‘lar hech bo‘lmasa.]*

17.SOBON *[sābān]* -1.somon,xashak. 2.Sovun so‘zi shevamizda sobin[sābï:n] shaklida ya’ni ushbu somon, xashak ma’nosidagi so‘zimizga judayam yaqin talaffuz qilinadi. Ba’zi yoshi keksaroq insonlar nutqida bu ikki so‘z bir xil.*[Dadam traktor-tilachkada sobon[sābān] olib keldi, biz esa molxonaga tashidik. Dadam fermer xo‘jaligida ishlagani uchun har yili fermerlikdan ko‘pgina sobon [sābān] olardik*.]

18.ASHKADI *[äškädï]*-1.qovoq. 2.Biron kim ‘‘qovun tushirib qo‘ysa’’, ya’ni biron ishni bexosdan qilib qo‘ysa ham ‘‘eee::, ashkadi [äškädï] kalla ma’nosida ham ishlatiladi. 3.Xususan,Kattaqo‘rg‘on shevasida palovkadi[pälāvkädï] so‘zi ham ushbu so‘zga sinonim sifatida ishlatiladi.*[Oyimga qolsa har kuni ashkadi[äškadï]dan xonim qilsa… Yoshi keksa buvim ashkadi [äškädï]ning o‘zini mantiqozonga solib qaynatib, yumshoq qilib eyishni judayam xush ko‘rardi.]*

19.JUG‘INDI *[ǯüγïndï*]-1.Har qanday narsa yoki emakning qoldig‘i. 2.Idishlar yuvilgan yuvindi suv. *[Muslima,jug‘indi[ǯüγïndï]ni to‘kib keldingmi? Oshxonaga kirsam, bir tog‘ora jug‘indi [ǯüγïndï] turibdi ekan, deb ayam ishdan kelib ,singlimga baqirdi*.]

20.ITCHOLOQ *[ïtčālāq]*-1.itga ovqat beriladigan idish. 2.Kichik, yoshiga to‘lmagan chaqaloqlar ko‘zikib yig‘lasa, irimini qilib bolaning yuziga suriladigan narsa.*[Bolam, qizingning yuziga itcholoq[ïtčālāq]dan surib qo‘ygin, uyga ko‘p odam kelgandi,balki ko‘zikib, yig‘layotgandir.]*

21.OSMA SHO‘RVA *[āsmä šörvä*]-1.qaynatma sho‘rva. 2.Xasip solinib, qaynatiladigan sho‘rvaga nisbatan ham ishlatiladi.*[Kelin, osma sho‘rva[āsmä šörvä]ni osib qo‘ydingizmi, hozir dadasi bilan o‘g‘lim ishdan kelib qolsa kerak*.]

22.ACHCHASH *[äččäš]*-achchiq va osh so‘zlarining qisqartmasi. Guruch qaynatilib ustiga qatiq yoki suzma solinib pishiriladi. Boshqa shevalarda to‘liq holda ya’ni achchiq osh deb qo‘llaniladi.*[Grip bo‘lganda achchash[äččäš] ichilsa, ancha yaxshi qiladi.]*

23.KESKANOSH *[kєskänāš]*-kesilgan osh. Xamir kesilib suvga solib qaynatilib, qatiq yoki suzma solib pishiriladi,qaylasi ham bo‘ladi. Boshqa shevalarda ugra osh ma’nosida ishlatiladi.*[Bizda iftorlikda keskanosh[kєskänāš] doimiy pishiriladigan birinchi ovqat hisoblanadi.]*

24.QORA SHO‘RVA *[qārä šörvä]*-1.saryog‘ning ustiga qaynoq suv, tuz solinadi.(Yoshi katta insonlarga parhez buyurulganda ichiladi.) 2.Qorayib, kuyib ketgan sho‘rvaga nisbatan ham qo‘llaniladi.*[Oyijon, kechgi ovqatga sizga qora sho‘rva[qārä šörva] tayyorlasam bo‘ladimi?]*

25.DOSTIQ *[dāstïq]*-yostiq.*[Buvim boshi dostiqqa[dāstïqqä] tegar – tegmas qotib uxlab qoladi-da. Halimaning ko‘z o‘ngida 20 yildan beri bir dostiqqa [dāstïqqa] bosh qo‘ygan eri Sohibjon erda g‘ujanak bo‘lib yotardi.]*

26.LALI *[lälï]* // **Lag‘li***[läylï]*-patnis ma’nosida qo‘llaniladi .Boshqa sheva vakillari ushbu so‘zni osh suziladigan yoyiq idishga nisbatan qo‘llaydi.*[Meva-chevalarni lali[lälï]ga solda mehmonlarni oldiga qo‘yib chiqqin,ho‘pmi*?]

27.LAGAN *[lägän]*-tog‘ora so‘ziga nisbatan ishlatiladi, boshqa shevalarda osh solinadigan idish ma’nosida qo‘llaniladi.*[Opam kecha lagan-lagan kir yuvdi. Uyga borsam bir lagan [lägän] erga to‘kilib yotibdi ekan.]*

28.XO‘RJIN *[xörʒïn]*-eshakning abzallari ustidan taqilib yuk ortsa bo‘ladigan xaltaga o‘xshagan narsa.*[Hoshimjon eshagining xo‘rjini[xörʒïnï]ga un va tuzni ortib uyi tomonga jo‘nadi.]*

29.MO‘YNOPA *[möjnāpä]*-bo‘yinturuq.*[Murod eshagiga moynopa [möjnāpäsini taqib, aravani qo‘shib haydab ketdi.]*

30.ZULPAK *[zülpäk]*-eshikka ichkaridan qo‘yiladigan kichkina qulfcha. *[Madina, eshikning zulpag[zülpägʻ]ini o‘tkazib kelgan bo‘lsa ham, qalt-qalt qaltirardi. Zulpak ham buzilib qolibdi-ku.]*

31.SOCHOQ *[sāčāq]*-sochiq.*[Mahbuba yuzini yuvib kelib sochoq[sāčāq]qa artdi va tezda choy tayyorlashga tushib ketdi*.]

32.TUPKAN *[tüpkän]*-og‘iz tuflanadigan idish. (ko‘pincha nos tuflanadigan idish).*[Xumora otasining tupkan[tüpkän]ini to‘kib keldi va oshxonaga borib ishlarini davom ettirdi.]*

33.CHAYTO‘KICH *[čäjtö:kïč]*-choyning tagida qolgan qismi to‘kiladigan idish.*[Qizim, dasturxonga ko‘proq chayto‘kich[čäjtö:kïč] qo‘ydingmi*? *Anora xolang ko‘p chayto‘kich[čäjtö:kïč] so‘raydi-da.]*

34.GULDURMOMO *[güldürmāmā]*(Urgut shevasida) –momaqaldiroq.

[Ulug‘bek yoshligida guldurmomo[güldürmāmā]dan judayam qo‘rqardi, bola bechora stolni tagiga kirib ketardi.]

35.NO‘XTA *[nöxtä]*-1.buzoqlarni bo‘ynidan bog‘lab qo‘yiladigan bo‘yinturuq.2.Yoshi keksalar ‘‘ nuqta’’ so‘zi bilan ushbu so‘zni bir xil talaffuz qilishadi.*[Karim kichkina buzoqchani bo‘yniga no‘xta[nöxtä]ni o‘tkazib molxonaga bog‘lab keldi.]*

36.OPTOVI *[āptāvï]*-1.oftobi degan uzum naviga nisbatan ishlatiladi, ammo adabiy tilda mayizni qurutishga nisbatan ishlatiladi. 2.Oftoba so‘ziga

sinonim sifatida ham ishlatiladi.*[Hovlimizda asosan optovi[āptāvï] uzum etishtiramiz,boshqa uzumlarga nisbatan sal kechroq pishadi.]*

37.OPTOVA *[āptāvä]*-suv solinadigan idish, oftoba.*[Komil optovani[āptāväni] olib tahorat olgani chiqib ketdi.]*

38.NIMTA *[nïmtä]*-1.Nimcha. 2. Nimtalamoq, nimta-nimta qilib tashlamoq.

[Qishda nimta[nïmtä] anchagina issiq tutib turadi,shuning uchun buvim bizga ko‘p tikib berardi.]

39.CHO‘ZMA *[čözmä]*-1.Chalpak. Xamirni qizigan yog‘ga solib pishirib olinadi. Asosan, payshanba kuni is qilinganda pishiriladi. Odatda 5 ta, 7 ta, 9 ta,11 ta qilib pishirib olinadi. 2.Cho‘zmoq. 3. Shevamizda so‘zma*[sözmä]* shaklida ham qo‘llaniladi.*[Payshanba kuni is kuni bo‘lganligi uchun ko‘proq payshanbada cho‘zma[čözmä] pishiriladi.]*

40.SIRG‘A *[sïrγä]*-1.zirak. 2.Boshqa shevalarda isirg‘a shaklida ham qo‘llaniladi.*[Mashhura yangi tilla sirg‘a[sïrγa]sini yo‘lda tushurib qo‘yib, oyisiga yig‘lab telefon qildi.]*

41.SORIMOY *[sārïmāj]*-sigir sutidan olinadigan saryog‘.(boshqa shevalarda sariqyog‘).*[Bozorda sorimoy[sārïmāj]ning bir kilosi 50 ming bo‘lib ketibdi. Asal aynimas, sorimoy[sārïmāj] sosimas[sāsïmäs], deydi ayam.]*

42.UNKIMOQ *[ünkïmāq]*-hidlanmoq, sasimoq, hidi kelmoq.*[Go‘shtni nega muzlatgichga solib qo‘ymading, biram unkib[ünkïb] ketibdi*.]

43. SHUNDAYCHIQIN *[šündäjčiqïn]*-shunaqa.*[Qizim, boshingda boshingda shundaychiqin[šündäjčïqïn] g‘avg‘olaring bor ekan nega bir og‘iz biz bilan kelib maslahatlashmading.]*

44.SHUYTIP *[šüjtïp]*-shunday qilib .*[Shuytip[šüjtïp] shunaqa gaplar deng, opa. Men stolda o‘tirganimni bilaman, shuytip[šüjtïp] turtib o‘tib ketdi-ki, yiqilib tushishimga sal qoldi.]*

45.BIYTIP *[bïjtïp]*-bunaqa qilib.*[Manovini biytip[bïjtïp] tikadi-da, seni qara-yu, noto‘g‘ri tikibsan, qaytadan tik*.]

46.OXSHOM *[āxšām]*-tun.(boshqa shevalarda kecha, bazm ma’nosida qo‘llaniladi).*[Bugun oxshom[āxšām] umuman uxlayolmadim, negadir hayolimdan faqat rahmatli otam o‘taverdi.]*

47.IYNATUYMA *[ïjnätüjmä]*-1.to‘g‘nog‘ich. 2.Igna va tugma so‘zlari tez aytilishi.*[U iynatuyma [ïjnätüjmä] bilan qo‘lidagi tikonni olib tashlaguncha rosa qiynaldi.Qizlar, iynatuyma[ïjnätüjmä]laring yo‘qmi, kerak edi-da.]*

48.QULPI *[qülpï]*-1.binafsharang. 2.Qulf+egalik qo‘shimchasi i qo‘shilib, qulpi tarzida talaffuz qilinadi.Ya’ni adabiy tildagi qulfi.*[Uning qulpi[qülpï]rang ko‘ylagi shunchalik o‘ziga yarashib turardi, tuflichasini aytmaysizmi, naq qo‘g‘irchoq bo‘libdi, qolibdi.]*

49.G‘OLBR *[γālbr]*-g‘alvir.*[Dadam g‘olbrda[γālbrdä] bug‘doy tozalashga juda usta-da.]*

50.JO‘LMOSHIN *[ʒölmāšïn]*-yo‘l va mashina so‘zlarining qo‘shilishidan kelib chiqib, xalq tilida taksi ma’nosini bildiradi.*[Vohid,jo‘lmoshin[ʒölmāšïn]da keldingmi yo aftobusdami?]*

51.KAMPRO‘Z *[kämpröz]*-1.ombur 2.Kampirog‘iz (shakl, o‘xshatishga nisbatan).*[Dadasi,qo‘shnimiz kampro‘z[kämpröz]ni so‘rab kelibdi, nima qilay ,beraveraymi*?*]*

52.JOVLIK *[ʒāvlïk]*-hammasi.*[Oyijon, oshga jovlik[ʒāvlïk] sabzini solaveraymi, ko‘plik qilmaydimi?]*

53.DUVANA *[düvänä]*-devona, lo‘li.*[Duvana[düvänä]ga o‘xshamay,bor, kiyimlaringni almashtirib chiq.]*

54.KAKANDAZ *[käkändäz]*-xokandoz.*[Oyijon, kakandaz[käkändäz]ning joyi qayerda*?*]*

55.SHIBIRTQI *[šïbïrtqï]//* ***Shibirtki*** *[šïbïrtkï]*-supurgi. *[Hovlishibirtqi[šïbïrtqï] yasashimiz kerak, unisi judayam eskirib ketibdi.]*

56.SYIRMOQ *[sjïrmāq]*-1.sidirib tozalab olmoq. 2.Sig‘dirmoq. *[Mavludaning ko‘nglida onasi kelguncha hamma joyni syirib-sidirib olish niyati bor edi , ammo, hammasi chipakka chiqdi.]*

57.DUVOL *[düvāl]*-1.devor. 2.Muomalasiz odamga nisbatan ishlatiladi. *[Duvol[düvāl]ga har xil qushlarning surati chizilgan edi, Habiba ko‘rib hayratlandi. Bahorani onasi ko‘p urushardi duvol[düvāl] deb muomalasi umuman yo‘qligi va ko‘pchlik bilan kelishmasligi uchun.]*

58.GO‘PCHIK *[göpčïk]*-1.kelinlar sarposiga qilinadigan yostiq jilti. 2.Ko‘pchigan, shishgan so‘ziga sinonim sifatida ham ishlatiladi.*[Opam ikkalamiz kechqurunlari uxlamasdan go‘pchik[göpčïk] tikardik.]*

59.PAYTAVA *[päjtävä]*-etik, mahsi kiyishdan oldin o‘raladigan mato. *[Sardor, etigim bilan paytavamni[päjtävämni] olib kel, dalaga borishim kerak, shoshil, o‘g‘lim.]*

60.KACHKURT *[käčkürt]*-yemish-xashaklarni maydalash, chopish uchun qo‘llaniladigan ish quroli.*[Akam kachkurt[käčkürt]ni o‘tkirlab kelsa, mollarga emish chopib berardik.]*

61.MITALAMOQ *[mïtälämāq]*-sabzini bargidan ajratmoq.*[Bolam,savob bo‘ladi,chiqib qo‘shniga yordamlashgin, sabzini mitalayapti[mïtäläjäpti] ekan, qoplashib yubor.]*

62.HALOPLAMOQ *[hälāplämāq]*-halloslab, shoshilib biron ishni qilmoq.

[Buncha haloplaysan[hälāpläjsän], tinchlikmi, gapirsangchi,odamni kapalagini uchirmasdan!]

63.HASHMANLAMOQ *[häšmänlämāq]*-shoshilib nimadir bajarmoq.*[Bir payt qarasam, Hoshimjon hashmanlab[häšmänläb] kelib qoldi, gazga choy qo‘yganim ham esimdan chiqib ,Hoshimjon bilan yugurib ketib qolibman.]*

64.GANCHIMUCH *[gänčïmüč]*-issiq nonni maydalab saryog‘ bilan aralashtirilgani.*[Xafiza xola tandir boshida har doim non yopganida bolalariga ganchimuch[gänčïmüč] qilib beradi.]*

65.CHO‘LPI *[čölpï]*-xamir sizdirib olinadigan idish.*[Opangga ayt, cho‘lpi[čölpï] bilan tovoqlarni opchiqsin , ovqatni suzamiz.]*

66.HO ESA [hā esä]-ha,shunaqami.*[-Indinga oilaviy konsertga boryapmiz. -Ho esa[hā esä],buncha yaxshi.]*

67.HO‘NGIRAMOQ [höŋirämāq]-baqirib yig‘lamoq.*[Asalxon bu xabarni eshitgach, birdan ho‘ngrab[höŋräb] yig‘lab yubordi.]*

68.HEYLA [hejlä]-ana (ko‘rsatish olmoshi). *[Shuni ko‘rmadingmi, heyla[hejlä] turibdiku,yaxshilab qara.]*

69.MINJER *[mïnžer]*-mana bu er. *[Boyagina qaraganimda minjerda [mïnžerda]turgandiku,qayerga yo‘qolishi mumkin.]*

70.TO‘QOL *[töqāl]*-shoxi chiqmagan hayvonga nisbatan ishlatiladi. *[Sobir, bor ,molxonadan to‘qol[töqāl] sigirni olib chiqqin, podaga qo‘shib kelaman.]*

71. PO‘LA *[pölä]*-ezilgan, lat egan mevaga nisbatan qo‘llaniladi. *[Po‘la [pölä] bo‘lgan olmalarni murabbo qilish kerak-da, bo‘lmasa uvol bo‘ladi.]*

72.IRGA *[ïrgä]*-burchak.*[Irga[ïrgä]larniyam tozaladilaringmi, aytib ketgandimku?]*

73.TOPSHIMOQ *[tāpšïmāq]*-1.kichkinalar xuddi o‘zini katta kishidek ko‘rsatib, aqllilik qilib gapirishiga nisbatan ishlatiladi. 2.Topishmoq so‘zi ham xuddi ushbu so‘zga juda yaqin talaffuz qilinadi. *[Buncha topshiysan[tāpšïjsan], xuddi bir nimani qoyillatib qo‘yganday.]*

74.G‘ORINCHA *[yārïnčä]*-chumoli. Xorazmda qarindja so‘zi ishlatiladi. *[Oshxonaning yoniga ozgina ushoq tushib qolgan ekan g‘orincha[yārïnčä]lar rosa bosib ketibdi.]*

75.GIR-GIR *[gïr-gïr]*-1.yosh bolalarning tomog‘ida nimadir qolib ketsa oladigan kishi. 2.Shamol esishiga nisbatan ham ishlatiladi. 3.Boshqa shevalar vakillari ushbu so‘zni ilgir shaklida ham ishlatadi.*[Buncha yig‘laydi Sarvar, gir-gir[gïr-gïr]ga olib borib kelsang, balki, yaxshi bo‘lib qolar, tomog‘ida biron nima qolib ketgandir.]*

76.BOYNATTA *[bājnättä]*-birpas oldin, boya. *[Ahmad aka boynatta[bājnättä] keldi-da, kela solib xonasiga kirib ketdi, charchagandir-da.]*

77.SHIRINCHI *[širïnčï]*-1.daraxt va o‘simlik shirasiga nisbatan qo‘llaniladi. 2.Shirin ma’nosida ham qo‘llaniladi. *[Hozir ayni shirinchi[širïnčï]lar ko‘paygan payt.]*

78.KASHAL BO‘LMOQ *[käšäl bölmāq]*-1.havotir olmoq. 2.Biron-bir narsaga kashanda ma’nosida ham qo‘llaniladi. *[Sabrina, kashal bo‘lma[käšäl bo‘lmä] hozir etib boraman, ozgina kech qolib ketdim-da.]*

79.UYROTMOQ *[üjrātmāq]*-o‘rgatmoq. *[Farzandlarimizni, o‘quvchilarimizni badiiy asarlar o‘qishga uyrotish[üjrātiš]imiz kerak.]*

80.LAHCHAK *[lähčäk]*-beshbarmoq yoki shilpildoq degan taom turi bo‘lib bu ovqat kesilgan xamir suvda qaynatilib olinib, ustiga qayla solinadigan ovqat (qirg‘iz va boshqirdlarda ham pishiriladi). *[Xalima xolam kecha lahchak[lähčäk] pishiribdilar judayam shirin chiqibdi, egan sari eging keladi.]*

81.MO‘YINSA *[möjïnsä]* (Bulung‘ur shevasidan)-kuyovni jo‘ralari tomonidan kelin shunday chaqiriladi. *[To‘yga Ikromjon bilan mo‘yinsa[möjïnsä] ham boribdi, bitta sen bormabsan-da, dedi xotiniga Sobir.]*

82.JUXMA *[ǯuxmä]*-g‘ilmindi yoki g‘ilvindi. Yupqa xamirga atala surilib, yog‘ga bir solinib olinadi. *[Ukam judayam juxma[ǯuxmä]ni yaxshi ko‘radi.Sigirimiz tug‘ib qolsa bormi ayamni juxma[ǯuxmä] qilib bering deb holi-joniga qo‘ymaydi.]*

83.TOQIYA *[tāqijä]*-do‘ppi. *[Otam doim boshiga toqiya[tāqija] kiyib yurardi. Aka mesa faqat juma namoziga borayotganda toqiya[tāqijä] kiyardi.]*

84.DO‘RBA *[dörbä]*-to‘rva. *[Kecha dadam uyga olib kelgan bug‘doylarni hammasini do‘rba[dörbä]ga solib, omborxonaga tashib qo‘ydi. Aziz beshta do‘rba[do‘rba] moshni bozorga olib chiqib arzimagan pulga sotib keldi.]*

85.IGNABAT *[ïgnäbät]*-to‘g‘nog‘ich. *[Agarda sen ignabat[ïgnäbät]ni to‘g‘ri ishlatganingda, qo‘lingga ignabat[ïgnäbät] kirib ketib voyillamasding. Ignabat[ïgnäbät]ni tepaga olib qo‘y biron kimning oyog‘iga kirib ketmasin.]*

86.TAKPILLA *[täkpïllä]*- uzum tokining o‘tin uchun ishlatiladigan qurigan shoxi. *[Uzumzorni ichidan qurigan takpilla[täkpïlla]larni olib chiqib maydalab, o‘tinxonaga olib kirib qo‘ysak qishda mazza qilib yoqamiz.]*

87.ALAG‘DA BO‘LMOQ *[äläydä bölmāq]*-havotir olmoq. *[Matlubaning to‘rt ko‘zi eshikda, rosa alag‘da edi[äläydä edï], turmush o‘rtog‘i Sobirjon kech qolyotgandi. Shu payt qaynonasi kelib, bolam, alag‘ bo‘lmang[äläy bölmäŋ] hozir kelib qoladi deb ko‘ngliga oz bo‘lsa-da taskin berdi.]*

88. KELEYTURUVDIMQU *[kelejtïrüvdïmqü]*-kelayotgan edimku. *[Sarvinoz so‘zining oxirida juda ko‘p «-qu» qo‘shimchasini ishlatadi. Ayniqsa, keleyturuvdimqu[kelejtïrüvdïmqü] so‘zini juda ko‘p ishlatadi.]*

89.JONGOG‘I [ǯāŋāyï]-oldingi.*[Jongog‘i[ǯāŋāyï] qishloqlarda suv bo‘lmasdi,odamlari bizni qishlog‘imizga kelib suv olib ketishardi.]*

90.NOV *[nāv]*-tarnov.*[Nov[nāv]ning tagiga suv quy, yomg‘ir suvi kirni judayam yaxshi ketkazadi, derdi doim onam.]*

Bu dialektal so‘zlarni, ya’ni biz yuqorida tanishib chiqqan leksemalarni leksik-semantik jihatdan quyidagi ma’noviy guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) narsalarni ifodalovchi dialektal so‘zlar: sobon*[sābān]*-somon; jug‘indi*[ʒüγïndï]*-yuvindi suv; itcholoq*[ïtčālāq]*-itning kosasi; xo‘rjin*[xörʒïn]*-eshakning abzali; mo‘ynopa*[möjnäpä]*-bo‘yinturuq; zulpak*[zülpäk]*-eshikning qulfi; no‘xta*[nöxtä]*-bo‘yinturuq; tupkan*[tüpkän]*-tuflanadigan idish; optova*[āptāvä]*-suv quyiladigan idish; sirg‘a*[sïrγä]*-zirak; sorimoy*[sārimāj]*-saryog‘; iynatuyma*[ïjnätujmä]*, ignabat*[ïgnäbät]*-to‘g‘nog‘ich; g‘olbr*[γālbr]*-g‘alvir; jo‘lmoshin*[ʒölmāšïn]*-avtomobil,taksi; kampro‘z*[kämpröz]*-ombur; duvol*[düvāl]*-devor; go‘pchik*[göpčïk]*-yostiq jildi; paytava*[päjtävä]*-mato; kachkurt*[käčkurt]*-chopadigan ish quroli, do‘rba*[dörbä]*-to‘rva; nov *[nāv]*-tarnov.

2)qarindosh-urug‘ nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: ana*[änä]*-buvi; katata*[kätätä]*-amaki; qoynog‘a*[qājnāγä]*-qayin aka; qudog‘iy*[qüdāγïj]*-quda xola; oycha*[ājčä]*-kelin,yanga; qizcha*[qïzčä]*-qaynsingil; bolacha*[bāläčä]*-qaynuka; oyka*[ājkä]*-qaynsingil.

3) shaxs otini ifodalovchi dialektal so‘zlar: duvana*[düvänä]*-devona,lo‘li; gir-gir*[gïr-gïr]*-tomoqda qolgan narsani oladigan kishi; mo‘yinsa*[möjïnsä]*-kuyov jo‘ralar kelinni shunaqa chaqiradi.

4) uy-ro‘zg‘or buyumini ifodalovchi dialektal so‘zlar: satil*[sätïl];* poqir*[pāqïr]*-chelak; dostiq*[dāstïq]*-yostiq; lali*[lälï]*-patnis; lagan*[lägän]*-tog‘ora; chayto‘kich*[čäjtökïč]*-choyning oxiridagi qoldig‘i solinadigan idish; kakandaz*[käkändäz]*-hokandoz; shibirtqi*[šïbïrtqï]*-supurgi; cho‘lpi*[čölpï]*-sizib olinadigan idish.

5)hayvon nomini ifodalovchi dialektal so‘zlar: to‘qol*[töqāl]*-shoxi yo‘q hayvon; g‘orincha*[γārïnčä]*-chumoli; shirincha*[šïrïnčä]*-o‘simlik shirasi.

6)ovqat nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: osma sho‘rva*[āsmä šörvä]*-qaynatma sho‘rva; achchash*[äččäš]*-achchiq osh , guruch solib pishiriladigan ovqat; keskanosh*[keskänāš]*-kesilgan osh, xamir qaynatilib ustiga qatiq solinadigan ovqat; qora sho‘rva*[qārä šörvä]*-saryog‘ ustiga qaynoq suv va tuz solinadigan ovqat; cho‘zma*[čözmä]*-suzma; ganchimuch*[gänčïmüč]*-issiq nonga saryog‘ aralashtiriladigan narsa; lahchak*[lähčäk]*-beshbarmoq, kulchatoy; juxma*[ʒüxmä]*-g‘ilmindi yoki g‘ilvindi.

7)harakat va holatni ifodalovchi dialektal so‘zlar : unkimoq *[ünkïmāq]*-hidlanmoq; syirmoq *[sjïrmāq]*-sidirib, tozalab olmoq; haloplamoq *[hälāplämāq]*-halloslab,biron ishni qilmoq; hashmanlamoq *[häšmänlämāq]*-shoshilib bajarmoq; ho‘ngiramoq *[höŋirämāq]*-baqirib yig‘lamoq; topshimoq *[tāpšïmāq]*-

gapirmoq; kashal bo‘lmoq *[käšäl bölmāq]*-havotir olmoq; uyrotmoq *[üjrātmāq]* –o‘rgatmoq; alag‘da bo‘lmoq*[äläγdä bölmāq]*-havotir olmoq; keleytiruvdimqu *[kelejtirüvdïmqü]*-kelayotgan edimku.

8)rang nomlarini ifodalovchi so‘zlar :qulpi*[qülpï]*-binafsharang.

9)paytni bildiruvchi dialektal so‘zlar jongog‘i: *[ǯāŋāγï]*-oldingi; boynatta *[bājnättä]*-birpas oldin.

10)so‘zlashuvga oid dialektal so‘zlar: ho esa *[hā esä]*-ha shunaqami; shuytip *[šüjtïp]*-shunaqa qilib; biytip*[bïjtïp]*-bunday qilib; shundaychiqin *[šündäjchïqïn]*- shunaqa; heyla *[hejlä]*-ana(ko‘rsatish olmoshi).

11)meva nomini ifodalovchi dialektal so‘zlar: zordoli*[zārdālï]*-o‘rik; qoroli*[qārāli]*-olxo‘ri; olmirit*[ālmïrït]*-nokdan kichik, nokning shakl jihati bilan o‘xshash meva turi; qizilsulton*[qïzïlsülton]*-meva turi.olcha-olxori adabiy tilda; optovi*[āptāvï]*-uzum navi.

12) poliz mahsulotlari nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: so‘viz*[sövïz]*-sabzi; torbiz*[tārbïz]*-tarvuz; ashkadi*[äškädï]*-qovoq.

13)chorvachilikka oid dialektal so‘zlar: to‘qol *[töqāl]*-shoxi yo‘q hayvon asosan (sigir,echki), mitalamoq *[mïtälämāq]*-sabzini bargidan ajratmoq .

14)dehqonchilikka oid dialektal so‘zlar: optovi *[āptāvï]*-uzum navi; takpilla *[täkpïllä]*- tokning qurigan shoxi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, ayrim na’munalari bilan tanishib chiqqan ushbu shevamiz qipchoq lahjasining Samarqand dialektal zonasiga mansubdir (Jurayev A. B, 1991, 38-190-191-betlar). Chunki bu shevada Surxondaryodagi qipchoqlardek emas, balki, ‘‘j’’ harfi ishtirok etgan so‘zlarning barchasida portlovchi (jo‘ja) “j” ishlatilmoqda. Bu shevaning leksik boyligi o‘zbek xalq shevalari leksikonining genofondini boyitib, xalqimiz shevalarining betakror va serma’no so‘zlarga boyligini ko‘rsatadi. Shu o‘rinda tadqiqotchi-talaba sifatida, adabiy tilimizda yo‘q, lekin shevamizda mavjud bo‘lgan so‘zlarni o‘zlashtirish yo‘llarini izlamoqdamiz.

Xulosa o‘rnida shuni aytmoqchimizki, Muhammadi qishlog‘i 6 ta kichik qishloqchalardan tashkil topgan va bu qishloqchalar etnik kelib chiqishiga ko‘ra yana o‘z ichida mayda-mayda guruh, to‘plarga bo‘linib ketadi. Ushbu qishloq shevasidan to‘plangan materiallar axborotchilar yordami bilan jamlangan. Bu dialektal leksik materiallar Muhammadi qishlog‘i shevasi leksikasining mingdan bir qismi hisoblanadi, hali ko‘p dialektal so‘zlar o‘rganilmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev F. A. O‘zbek tilining qipchoq shevasi // O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. – Toshkent,1957

2. Ishayev A. O‘zbek shevalari leksikasidan materiallar to‘plash uchun so‘roqlik. – Toshkent: Fan.1989

3. Rajabov, N. O‘zbek tilining G‘arbiy Samarqand shevalari. – Toshkent. 1977

4. Tursunov U., Doniyorov X. O‘zbek tilidagi singarmonizm haqida – Samarqand, 1959.

5. Shoimova N. O‘zbek shevalari leksikasini o‘rganishning dolzarb masalalariga doir (Qashqadaryo vohasi materiallari asosida) // SamDU Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. 6(58)-soni. – Samarqand. 2009

6. Абдуллаев, Ф.(1957) Кипчакский говор узбекского языка. АКД. – Ташкент.

7. Джураев, А. Б. Теоретические основы ареалного исследования узбекоязычного массива. АДД. – Москва,1991.

8. Джураев А.Б. Теоретические основы ареалного исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан.

O‘ZBEK SHEVALARINI AREAL O‘RGANISH XUSUSIDA

(NAMANGAN VILOYATI CHORTOQ TUMANI SHEVASI MISOLIDA**)**

Yoqubboyeva Shoxista To‘raxon qizi,
Andijon davlat universiteti talabasi
shoxistayoqubboyeva@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek shevalarini areal jihatdan, ya’ni Namangan viloyati Chortoq tumanida uchraydigan shevalar misolida ko‘rib chiqamiz. Chortoq tumani shevasi adabiy tildan, asosan, morfologik-leksik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu xususiyatni esa tuman shevasida uchraydigan so‘zlarni morfologik jihatdan, ya’ni so‘z turkumlarga ajratilgan holda guruhlarga bo‘lish jarayonida ko‘rishimiz mumkin.*

Kalit so‘zlar: *dialektologiya, sheva, areal usul, tarixiy-lingvistik xususiyat, shimoliy o‘zbek shevalari guruhi.*

Annotation. *in this article we will consider Uzbek dialects in terms of habitat, dialects found in Chartak district of Namangan region. The dialect of Chartak district differs from the literary language mainly in its morphological and lexical features. We can see this feature in the process*

of grouping the words that occur in the dialect of the district morphologically, that is, by dividing the word into categories.

Keywords: *dialectology, dialect, areal method, historical-linguistic feature, group of northern Uzbek dialects.*

Tilshunoslik ilmi bir-biriga yaqin va bog‘lanib ketgan bir necha sohalar majmuyidan iborat. Shuning uchun ham dialektologiya tilshunoslikning alohida bir sohasi bo‘lib, u biror tilning mavjud mahalliy dialektlarini, ya’ni mavjud mahalliy lahja hamda shevalarni ilmiy, nazariy, amaliy jihatlardan o‘rganadi va o‘rgatadi. Dialektologiya grekcha so‘z bo‘lib, (dialektos-sheva, logiya-fan) sheva haqidagi fan degan ma’noni anglatadi. “Sheva so‘zi esa forscha ravish, tarz, yo‘sin degan ma’nolarni bildirib, fanda biror tilning o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi” [Ashirboyev, 2016:4].

O‘zbek shevalarini areal usulda o‘rganish XX asrning 40-yillarida professor A.K.Borovkov tomonidan ilgari surilgan. Bu sohadagi ishlarni esa o‘zbek olimlaridan V.Reshetov va A.Shermatovlar davom ettirgan va ular tomonidan qilingan izlanishlar orqali shevalarni areal usulda o‘rganish yanada rivoj topgan. V.Reshetovning o‘zbek shevashunosligida amalga oshirgan muhim ishlaridan biri u o‘zbek shevalarini kartalashtirish ishini boshlab berdi. U Toshkent viloyatining bir qismini, Ohangaron hududi shevalarida uchraydigan fonetik, leksik va grammatik farqlarni ko‘chirdi. O‘zbek dialektologiyasida birinchi bo‘lib, o‘zbek qurama shevalarining 49 ta lingvistik kartasini tuzdi. Taxminan 150 kartadan iborat “Toshkent viloyati shevalari atlasi”ni tuzish ishlari esa 1980-yilda yakunlandi.

“Professor V.Reshetov o‘zbek shevalarining tarixiy-lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qo‘shni tillarning (tojik, qozoq, qoraqalpoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda XX asrning 60-yillarida o‘zbek shevalarining tasnifini amalga oshirib, o‘sha davr uchun mukammal tasnifni tuzdi. Bu olimning tasnifi oldingi tasniflardan lingvistik xususiyatlarning ko‘p berilganligi bilan ajralib turadi va hozirgi kunda ham ma’lum bir belgilari borligi bilan ahamiyatlidir. O‘zbek xalqining tarkibida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-biridan ajraladigan, farqlanadigan uch dialekt birligi bor: 1) qipchoq dialekti; 2) o‘g‘uz dialekti; 3) qarluq-chigil-uyg‘ur dialekti.

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga kiruvchi dialekt va shevalarni individual xususiyatlarini saqlash-saqlamaslik nuqtayi nazaridan bir necha guruhga va dialektga bo‘lish mumkin. Bu lahja o‘z ichida to‘rt guruhda bo‘linadi:

1.Farg‘ona guruh shevalari.

2.Toshkent guruh shevalari.

3.Qarshi guruh shevalari.

4.Shimoliy o‘zbek shevalari guruhi [Ernazarov, Karimjonova . 2012:29].

Biz ushbu maqolada qarluq-chigil lahjasiga kiruvchi, shimoliy o‘zbek shevalari guruhi tarkibidagi Namangan dialektini, ya’ni Namangan viloyati tarkibiga kiruvchi Chortoq tumani shevasini ko‘rib chiqamiz.

Namangan viloyati Chortoq tumani shevasi adabiy tildan farq qiladi. Chortoq tumani shevasidagi so‘zlarni morfologik jihatdan so‘z turkumlariga ajratgan holda tahlil qilamiz. Dastlab *ot so‘z turkumidagi* so‘zlarni shevada adabiy tilda qanday aytilishiga to‘xtalamiz: deda/dida-ota, aba-ona, acha-buvi, ova-amaki, uko-uka, sevun-sovun, ucha-kurak (tana a’zosi), pela-piyola, yina-igna, hevuz-hovuz, bo‘zak-buzoq, paqir-chelak, parash-yupqa, chiqano-chekanak, mishiq-mushuk, chichqon-sichqon, polos-palos, peshxon-xontaxta, tatalag‘ich-taroq, sovda-savdo, qallama-qatlama, o‘rama-xonim (taom nomi), tugma-manti, veranda-ayvon, bihi-behi, onor-anor, shati-narvon, g‘o‘ra-dovuchcha, chichi-chaqaloq, mehrov-mehrob, tovoq-lagan, baqashol-balchiq, qumg‘on-choynak, surpa-supra, dog‘ob-ayron, kovitok-kovatok, petak-bekat, sedana-ninachi, kalavot-karavot, qaladon-tortma, lula-loviya, oya-o‘qituvchi (ayol kishiga nisbatan), otayo‘l-avtobus, chaqirdi-chaqirindi (marosim), olvali-olcha, duxtir-doktor, shopir-shafyor, milisa-militsiya, qiyiqcha-belbog‘, qurtop-ayron, patinjon-pomidor.

Sifat so‘z turkumidagi so‘zlarning shevada va adabiy tilda aytilishi: nakas-baxil, xutum-mug‘ombir

Son so‘z turkumiga oid so‘zlarning shevada va adabiy tilda aytilishi: tuqqiz-to‘qqiz, o‘nlik sonlar tarkibidagi o‘n so‘zi o‘m tarzida aytiladi: o‘m bir, o‘m ming.

Fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlarning shevada va adabiy tilda aytilishi: boraylu-boraylik, yozina-yozinglar, o‘qiylar-o‘qinglar, kisunla-kelsinlar, yossa-yozsa. Bu misollarda ko‘rinib turganidek, asosan, shaxs-son va maylga oid so‘zlar tuman shevasida boshqacha aytilgan. Qo‘shma fe’llarga misollar: toba qildim-tavba qildim, hap tur-jim turmoq. Bundan tashqari, fe’l so‘z turkumiga oid so‘zlardan foydalanilganda -yapti, -yapsan qo‘shimchalari -vetti, -vessan qo‘shimchasi tarzida aytiladi. Masalan: -*Ukong nima qivetti?* – Ukang nima qilyapti? yoki -*San beyda nima qivessan?* – Sen bu yerda nima qilyapsan?

Olmosh so‘z turkumiga oid so‘zlarning shevada va adabiy tilda aytilishi: man-men, san-sen, ula-ular, hich kim-hech kim, hich qanday-hech qanday, beyda-bu yerda, masheyda-mana shu yerda, anu-ana bu, alakim-allakim, kem-kim, annassa-allanarsa. Olmoshning yordamchi so‘zlar bilan ishlatilishi: manam-men ham, san minam-sen bilan, sandan kitin-sendan keyin.

Ravish so‘z turkumiga oid so‘zlarni shevada va adabiy tilda aytilishi: sikin-sekin, ettalab-ertalab, ozonda-azonda (saharda), jijja-oz, naval-ko‘p, inaykiyin-innaykeyin, kiyin-kiyin.

Xulosa qilib aytganda, har bir hududning o‘ziga xosligini ko‘rsatuvchi asosiy elementlaridan biri bu o‘sha hududning so‘zlashuv tili va uslubi hisoblanadi. Biz ushbu maqolada shimoliy o‘zbek shevalari guruhiga kiruvchi Namangan viloyati va unga kiruvchi tuman va shahar shevalarini Chortoq tumani hududi misolida ko‘rib chiqdik. Tuman shevasida uchraydigan so‘zlarni esa morfologik jihatdan o‘rganib, so‘z turkumlariga ajratdik. “Namangan shahar shevasi o‘zbek shevalari doirasida boyligi, emotsionalligi bilan ajralib turadi. Shevalarni to‘plash jarayonida yangi leksemalar kashf etilib boraverar ekan, o‘zbek tili boyishdan to‘xtamasligiga guvoh bo‘lamiz” [Darveshov, Nu’monova, 2020: 182].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent.: Navro‘z. 2016. 4-bet.
2. Darveshov I., Nu’monova D. Namangan shahar shevasining morfologik xususiyatlari. Maqola. Oriental Art and Culture scientific-methodical journal. 2020.182-bet.
3. Ernazarov T.J., Karimjonova V. A. va boshqalar. O‘zbek dialektologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Universitet. 2012. 29-bet.

INGICHKA SHEVASIDA CHORVACHILIKKA OID SO‘ZLARNING QO‘LLANILISHI

Avazova Lobar Aktamovna,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU magistranti
shoxrux2363@gmail.com

Annotatsiya*. Maqolada Kattaqo‘rg‘on tumani Ingichka shevasida qo‘llanadigan chorvachilikka oid leksemalar aks ettirilgan. Ular orasida tilshunoslarga birinchi marta oshkor qilinadigan faktlar ham mavjud. Shuningdek, chorvachilikka oid ma’lumotlar o‘zbek dialektologiyasining nazariy asoslariga tayanib yoritilgan.*

Kalit so‘zlar*: qipchoq, leksema, termin, chorva, qo‘y, mol.*

Annotation. *Much has been done to study Uzbek dialects, but there are still many unexplored dialects. Such dialects include Ingichka dialect of*

Kattakurgan district. This small study reflects the lexemes of animal husbandry in Ingichka dialect. Among them are facts that will be revealed to linguists for the first time. It is also supplemented with information on animal husbandry and is based on the theoretical foundations of Uzbek dialectology.

***Keywords**: kipchak, lexeme, term, cattle, sheep, cattle.*

Ma’lum bir territoriyada ma’lum bir ishlab chiqarish tarmog‘ining rivojlanishi shu yerda yashovchi aholi tilida boshqa territoriyadan farqli ravishda maxsus terminlarni vujudga keltirgan. Chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi yerlarda chorvachilikka oid so‘z va terminlar juda maydaligi bilan ifodalangan bo‘ladi. Qipchoq shevalarining tarmoq leksikasidagi eng boy va o‘ziga xos terminlaridan biri ham chorvachilik terminlaridir.

Chorvachilik — qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlaridan biri. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish uchun chorva mollarini boqish va urchitish bilan shug‘ullanadi; aholini ish hayvonlari (qo‘y, echki, ot, ho‘kiz, tuya,), oziq-ovqat mahsulotlari (sut, qatiq, go‘sht, yog‘ va boshqalar), yengil sanoatni xom ashyo (jun, teri, mo‘yna va h.k.), dehqonchilik organik o‘g‘it bilan ta’minlaydi. Chorvachilik mahsulotlari va chiqindilaridan ayrim ozuqalar (yog‘i olingan sut, go‘shtsuyak uni, suyak uni va boshqalar), shuningdek, har xil dori-darmonlar (shifobaxsh zardoblar, gormonal preparatlar va boshqalar) olinadi. Chorvachilikning taraqqiy etishi va mahsuldorligi dehqonchilikning rivojlanishi, yerdan intensiv foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Chorvachilikning asosiy tarmoqlari: qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik, cho‘chqachilik, quyonchilik, darrandachilik, bug‘uchilik, itchiliklan iborat[1].

Ingichka shevasidagi chorvachilikka oid terminlarni kichik guruhlarga bo‘lib yoritishni lozim topdik:

a) qo‘ychilikka oid so‘zlar. Qo‘yning yoshiga qarab nomlanishlari mavjud. Masalan: bärrä/ barra – jinsidan qatiiy nazar, bir yoshgacha bo‘lgan qo‘y; Širvazi/ shirvozi- “shir” tojikcha sut, “vozi” o‘ynaydigan, ya’ni sut bilan o‘ynaydigan degani. Qo‘zining bu turi 3 oydan 9 oygacha onasiga emiziladi, keyin so‘yiladi [Маматкулов, 1965: 50]; toqlï/to‘qli- 1 yoshdan oshgan qo‘y; iššäk/ ishshak- 3 yoshli qo‘y; čarï/ chori- 4 yoshli qo‘y; pänǯi/ panji- 5 yoshli qo‘y;

Qo‘yning zotiga qarab: ärväji- oddiy, xashaki qo‘y; ǯäjdäri- zotli, dumbali qo‘y;

qojkätäk\qo‘ykatak, qo‘ylarni yoz kunlari saqlash uchun soya salqin yerga yog‘ochlarni bir- biriga payvandlab yasalgan joy. *Qorä\qo‘ra* esa qo‘ylar doimiy saqlanadigan, usti yopiq, atrofi o‘ralgan, qo‘rg‘on ichidagi joy. *Qojkätäkti su:inim*

qarap qoj. Tügäp qaɣan šekilli, märašjaptï. (<qo‘ykatakning suvini qarab qo‘y. Tugab qolibdi shekilli marashyapti.)

qïj/ qiy- qo‘yni tezagini shunday atashadi.

külük/ kuluk- qo‘y va echkilarini to‘rt oyog‘ini birlashtirib bog‘lash (junini qirqish yoki so‘yish oldidan) tushuniladi. Bu so‘zni ham adabiy tilda maxsus termin sifatida qo‘llash mumkin [Дониёров, 1979:91]. Bu leksema sheva vakillari nutqida jun oladigan qaychi ma’nosini ham anglatadi.

b) ***echkichilikka oid so‘zlar:*** ulaq/ uloq – jinsidan qat’iy nazar bir yoshli echki; särkä/ sarka- ikki yoshli qo‘y; taka- echkining erkagi;

v) ***qoramolchilikka oid so‘zlar***. Yoshiga ko‘ra: buzavča/ buzoqcha- jinsidan qatiiy nazar bir yoshgacha bo‘lgan mol; tanača/ tonacha- jinsidan qatiiy nazar ikki yoshgacha bo‘lgan mol; ɣunaǯïn/ g‘unojin- 2-3 yoshli urg‘ochi sigir; sijir/sigir- uch yoshdan oshgan, tug‘adigan sigir; gavmïš/ govmish- katta gavdali, ko‘p sut beradigan, zotdor sigir; savlïq/ sovliq- sog‘iladigan sigir; hökizčä/ ho‘kizcha- bir yoshdan ikki yoshgacha bo‘lgan ho‘kiz; hökis/ho‘kiz- uch yoshdan oshgan ho‘kiz; boqilgan ho‘kizlarga nisbatan buqa, navvaz, gavvaz, soqïm kabi leksemalar ishlatiladi.

Rang-tusiga qarab ala, aqbaš, mällä, talɣïr (malla-qizg‘ish), qara va h.k.

tappï- molni tezagiga mayda somondan aralashtirilib, devorga yapaloq qilib urib chiqiladigan va quyoshda quritiladigan yoqilg‘i turi;

ɣaltak- adabiy tilda ip, sim, lenta kabi uzun narsalar o‘raladigan buyum nomi bo‘lsa [Ўтил,1981: 433], mazkur shevada chorva mollarining tezaki solib tashiladigan uch g‘ildirakli arava nomi.

quyruq majï- adabiy tildagi dumba yog‘iga nisbatan ishlatiladi.

qarïn čarvu- molning qorin qismidagi ichki yog‘ini shunday atashadi.

eǯan- adabiy tilda “hasip” deb nomlanadigan taom nomi. Bu taom so‘yilgan qo‘y yoki molning ichagiga go‘sht, jigar, qorataloq kabilarning qiymasi va guruch aralashtirib solinadigan, qozonda qaynatib yoki qasqonda dimlab pishiriladi [ЎТИЛ, 1981: 514].

tüšäv-*tushav*- sigirni sog‘ish uchun uning oyoqlarini ip bilan bog‘lash. *Tushamoq* so‘zining ma’nosi o‘zbek tilining izohli lug‘atida ham bog‘lamoq deb berilgan. Ammo bu so‘z insonlarga nisbatan qo‘llangan. Ammo o‘rganilayotgan shevada bu so‘z faqat hayvonning oyog‘ini bog‘lashga nisbatan qo‘llanadi. *Maldï ajaɣïnï tüšävlämäginimčä saɣdïrmïjdï. Tepadï. (<molning oyog‘ini ushamaginimcha sog‘dirmiydi. Tepadi.)*

säjisxana/sayisxona- chorva mollari boqiladigan joy nomi. Adabiy tilda og‘ilxona deb ataladi. Shuningdek sheva vakillari nutqida malxana/molxona leksemasi ham faol qo‘llanadi.

axur/ oxur- chorva mollariga yem berish uchun ishlatiladigan katta idish.

Kuzatishlarimiz natijasida shuni aniqladikki, bu sheva vakillari nutqida chorva mollarining kasallik nomlari ham alohida nomlar bilan atalarkan. Masalan: *ɣummajlamaq/ g‘ummaylamoq-* g‘ummay deb atalgan o‘simlikni yeb damlab qolgan mollarga nisbatan ishlatiladi.

avsïl/ avsil- bu kasallikda molning charvulari sarg‘ayib ketarkan.

qarasan/ qorason- bunda molni jigari kasallanarkan.

qan kasal/ qon kasal- bu kasallik, yozning issiq kunlarida, asosan saratonda molga kam suv berilsa, oftob olishi natijasida yuzaga kelarkan.

göväläk/ go‘valak- go‘valak degan hashorat (chivindan katta, kapalakka o‘xshash, yo‘l-yo‘l chiziqli) chaqqanda yuzaga keladigan kasallik. Ma’lumot o‘rnida shuni aytish mumkinki, sharqiy guruh qipchoq shevalarida bu kasallik-göbäläk/ go‘balak- (go‘balik- kapalak so‘zidan) yilqi va mollarda yozning issiq paytida uchraydigan kasallik sifatida tilga olinadi [Дониёров, 1979:92].

g) yilqichilikka oid so‘zlar. Otlarning ham yoshiga nisbatan nomlari mavjud:

qulun/ qulun-(bir yoshgacha bo‘lgan ot), täj//kältätäj / toy//kaltatoy (birdan ikki yoshgacha), ɣönän/ g‘o‘nan (ikkidan uch yoshgacha), dönän / do‘nan (uchdan to‘rt yoshgacha), bešli /beshli (uch-to‘rtdan besh yoshgacha), ǯäŋiäzij/ yangi oziq (besh yoshli oziq tishi chiqqan ot), ekäzij / ikki oziq (olti yoshli ot), üčäzij / uch oziq (yetti yoshli ot);

- *jinsi va sifatini bildiruvchi nomlar:* bijä, bäjtäl, at, ujïr at, čübir at, qïrčaŋï, ajɣïr;

-*zotini bildiruvchi nomlar*: äräbi, qara bäjir, arɣumaq, tulpar, qazaqï va b.

talɣïr at/ tolg‘ir ot- minishga o‘rgatilgan 2 yoshdan oshgan ot. Ma’lumot o‘rnida shuni aytib o‘tishimiz lozimki, O‘rta Qashqadaryo “J”lovchi shevalarida bunday otlar *büvril// talɣïr// čapdar// kulčïɣaj* (minishga yoki ishga o‘rgatilgan 2-3 yashar ot) deb nomlanadi [Шоимова, 1999:55].

Kuzatishlarimizdan ma’lum bo‘ldiki, Ingichka shevasida otlarda qo‘llaniladigan maxsus ot anjomlari nomlari ham mavjud bo‘lib, biroq ularning nomlarini faqat chavandozlar va keksa yoshdagilargina bilishar ekan. Keyingi avlod vakillari esa, moddiy madaniyatimizning, qolaversa, o‘tmishimiz, til ganjinamizning bu muhim unsuridan xabarsiz qolmoqda. Ana shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida ot anjomlari tasnifiga kengroq o‘rin berishni ma’qul deb topdik. Qishloq chavandozlari bilan bo‘lgan suhbatlar va kichik tadqiqotlarimiz natijasida biz ot anjomlarini shartli ravishda ikkiga bo‘lishni lozim topdik:

1. Zaruriylar (egar,ayil, pushtan va h.k). 2. Bezaklilar(yugan, o‘mildiriq, suvliq, quyushqon, qo‘tas va h.k) [Тилавов, 2021: 80-90].

Eng zaruriy asbob *egär* hisoblanadi. Egarning ustidan *äjil* tortiladi. *äjil* to‘rt qismdan iborat.Bular to‘g‘a (to‘qa) deyiluvchi yarim oy shaklida asosiy qism

va tortqi deb ataluvchi charm qismlardir. Ayil ot to‘shini kesib ketmasligi uchun mayin jun yo ipakdan, silliq qilib to‘qiladi. Qo‘shimcha ayil vazifasini bajaruvchi va tuzilishi aynan ayilga o‘xshagan ot anjomi pushtan deyiladi. *Püštän*- qattiq charm yoki pishiq materialdan yasaladi. Biroq, pushtanga ayildan ko‘proq zeb beriladi.

qujušqan – ot dumi ostidan o‘tkazilib egarga biriktiriladigan qayish. Bu anjom jundan tayyorlanishi ham mumkin. Quyushqon ot tez yugurayotganda egarning oldinga siljishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ayniqsa, ot tepaliklardan tushayotganda quyushqon qo‘l keladi. Bu anjom hozir otlarimizda kamdan kam ko‘rinmoqda.

Keyingi asbob **–** *jügän.* “Rul” vazifasini bajaruvchi bu anjom ancha murakkab tuzilishga ega. Uning *källäk* deb yuritiluvchi qismi ot boshiga kiygiziladi. Kallak uchidagi ikki bosh tortqich xalqachalarga esa, yuganning *suvlïq va tizgini*

biriktirilgan bo‘ladi.

suvlïq **-** umumiy nom bilan yugan deb o‘tiladi. Bir-biriga kiritilgan uchi dumaloq ikki temirdan iborat. Bu temirlarning halqasimon ikkinchi uchlariga tizgin va kallak taqiladi. Suvliq ham otlarimizda qadimdan ishlatilib kelingan. Ba’zi joylarda suvliq “og‘izliq”, “avizdiq” tarzida ham ishlatiladi. Otning bezakli anjomlar qatorida o‘mildiriq turadi.

tizgin- 110-125 sm uzunlikda, ko‘pincha puxta to‘qilgan jun yo qayishdan bo‘ladi. Tizgin qo‘lni musht qilgan holda tutiladi.

ömildiriq- otning ko‘kragidan o‘tkazilib, ikki uchi egarning oldiga, uchinchi uchi otning o‘mrovi orqali ayilga o‘tkazib qo‘yiladi. U zarli naqshlar bilan bezatiladi. O‘mildiriq ot namoyish yoki poygaga olib borilganda yanada hasham berish uchun taqiladi. Biroq o‘mildiriqning asosiy vazifasi ham bor. Quyushqon egarni oldinga siljishdan saqlasa, bu ot tepalikka chiqayotganda yoki yugurayotganda egarning orqaga surilib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Bezakli anjomlardan yana biri *qotas* deb nomlanadi. *Qotas* **–** do‘lana daraxtidan dumaloq shaklida yasaladi. O‘rtasi teshilib mayin iplardan bo‘yinbog‘ o‘tkaziladi. Bu iplar 7 xil rangda bo‘ladi. Qo‘tos otni yomon ko‘zdan asraydi, deyishadi. Demak, qo‘tos otga tumor o‘rnida taqiladigan bezakli jihoz ekan.

Yuqorida keltirib o‘tgan leksemalarni adabiy tilga tarmoq terminlari sifatida kiritishimiz ham mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маматқулов А. Илмий асарлар. Шеробод район шеваларида қўлланадиган чорвачиликка оид сўз ва терминлар ҳақида. – Қарши: 1965. – Б. 50

2. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан. 1979. Б-91-92.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: 1981. 433, 514б

4. Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё “ж”ловчи қипчоқ шевалари лексикаси. – Тошкент: 1999. Б-55.

5. Тилавов А. ОТ ОБРАЗИ: ТАРИХ, ТАҲЛИЛ ВА ТАЛҚИН. – Тошкент: Sano-standart, 2021. – B. 80 - 90 b.

4-SHU‘BA

DIALEKTOLOGIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

RUHIY HOLATNI IFODALOVCHI SO‘ZLARNING ETIMOLOGIYASI

O‘ralova Fazilat Olimjon qizi
Chirchiq davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da ifodalangan ruhiy holatni ifodalovchi so‘zlarning ayrimlarining kelib chiqishi ya’ni etimologiyasi hamda ifodalagan ma’nolari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *etimologiya, ichki manba, ashqi manba, ruhiyat, azimat, araz, vahima, arab tili, fors tili, gumon, dilxush, affect, mo‘g‘ul tili, lotin tili.*

Annotation. *This article describes the origin, etymology and meanings of some of the words that describe the state of mind in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek language".*

Keywords: *the term "etymology", internal source, external source, psyche, azimat, araz, panic, Arabic, Persian language, suspicion, pleasant, Mongolian language, Latin.*

Bizga ma’lumki, tildagi har bir so‘z o‘zining kelib chiqish tarixiga, etimologiyasiga ega.

Tildagi so‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘rganuvchi alohida soha bu etimologiya (grekcha etymon –haqiqiy, logos –ta’limot) deb ataladi.

Etimologiya tilshunoslikning juda qadimiy sohasi bo‘lib, eramizdan avvalgi filosof va filologlar ham so‘zlarning dastlabki kelib chiqish tarixi bilan shug‘ullanganlar.

“Etimologiya” atamasi qadimgi Rumo olimlari Xrizipp va Varron nomlari bilan bog‘liq ekanligi ehtimol qilinadi.

So‘zlarning haqiqiy va birinchi asl ma’nolari va shakllari til tarixi, boshqa tillar va dialektlardagi shu so‘z to‘g‘ri kelgan o‘zakka ega bo‘lgan so‘zlar bilan qiyoslash asosida aniqlanadi . Bunda so‘zlarning avvalgi ma’nosi va formalari chuqur o‘rganiladi. So‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘rganish prinsiplari va metodlari ancha murakkab bo‘lib, boshqa fanlarga murojaat etishni taqozo etadi.

“Etimologiya“ atamasi tilshunoslikda ikki ma’noda ishlatiladi. Leksikologiyaning ma’lum tilda so‘zlarning kelib chiqish tarixini o‘rganuvchi sohasi ma’nosida hamda biror so‘zning birinchi asl ma’nosi va shakli ma’nosida.

Yangi so‘zning kelib chiqishini aniqlash oson , lekin eski so‘zning qachon paydo bo‘lganini va qaysi tildan yoki shevadan olinganini bilish ancha qiyin.

Xususan, inson ruhiyatini ifodalovchi so‘zlarning kelib chiqish tarixiga nazar

tashlaydigan bo‘lsak, bu jarayonning nechog‘lik murakkab jarayon ekanligiga

guvoh bo‘lamiz.

Biz bilamizki, tilning leksikasi ikki manba yordamida boyiydi.

1.Ichki manba.

2.Tashqi manba.

Bunda ichki manba bu – tildagi shevalardan, lahjalardan tilga qabul qilingan variantlari yordamida bo‘lsa, tashqi manba – boshqa tillardan so‘z olish orqali tilimiz, lug‘at boyligimiz kengayadi.

Qadimgi turkiy til va eski o‘zbek tilida fors – tojik va arab so‘zlari bo‘lmagan. Eski turkiy tilda fors – tojik va arab so‘zlari qo‘llana boshlagan. Eski o‘zbek tilida bunday o‘zlashmalar ko‘paya boshlagan. Ilmiy asarlarga hamda lug‘atlarga murojaat qilganimizda o‘zbek tilining, asosan , arab, rus, fors tillaridan ko‘plab so‘zlarni qabul qilganligining guvohi bo‘lamiz. Xususan, maqolani tayyorlash uchun ,, O‘zbek tilining izohli lug‘ati’’da uchraydigan ruhiy holatni ifodalovchi ayrim so‘zlarga to‘xtalganimizda ham bunga ko‘proq amin bo‘ldik.Bunda ko‘rishimiz mumkinki, ruhiy holatni ifodalaydigan so‘zlar asosan arab va fors tillaridan, shuningdek lotin hamda mo‘g‘ul tillaridan kirib kelgan so‘zlarni tahlil qilamiz.

Inson ruhiyatida birmuncha murakkab, tushunish qiyin bo‘lgan jarayonlar ro‘y beradi. Ba’zan inson o‘zi ham tushunib yeta olmay qoladi.

Xususan, xursandchilik, xafagarchilik, gina-kudurat, orzu-istak, armon, afsus-nadomat, dard-alam, kabi holatlar inson ruhiyatiga xos bo‘lgan xususiyatlar sanaladi. Ana shu xususiyatlarni ifoda etuvchi so‘zlardan bir nechtasining kelib chiqishini hamda qanday ma’no nozikliklarini ifodalayotganini ko‘rib

Xususan, arab tilidan o‘zlashgan quyidagi so‘zlarning etimologiyasi bilan tanishamiz.

- **Azimat** [a intilish , iroda, qat’iyat] esk.kt. *Intilish, jazm, qasd. Azimat qilmoq (etmoq) Jazm qilmoq. Qochib chiqmog‘a qildilar azimat. Lutfiy.*

Aziyat [a -ranj, azob, og‘riq; zarar] 1. Ruhiy yoki jismoniy ezilish, ozor, azob. [Qori *] Undoq bo‘lsa, bu yerga kelishdan sizga aziyatdan o‘zg a nima xushlik bor ? A. Qahhor. Tobutdan tovush.*

Azob [a - qiynalish , uqubat] 1. Jismoniy yoki ruhiy qiynoq. Vijdon azobi,

Ruhiy azobi. *Ilgari „yo‘l azobi - go‘r azobi “ derdilar.[G‘ulomjon] Yuragidagi bor dardini, tortgan azoblarini bir-bir aytib berdi. (*M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha).

Araz [a - rad, inkor qilish ; teskari qarash] Aybsitib , gina - kudurat saqlab gaplashmaslik , muloqotda bo‘lmaslik holati. *Shunga ham arazmi ? U mendan araz. Aka- uka bir-biridan araz. – Jo‘raxon yig‘lamsirab javob qildi. Uning bu holati xafa qilingan jajji qizning araziga o‘xshar gap. (*M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha).

Vahima [a – qo‘rquv , tahlika ; xayolot , ruhiy bezovtalik] 1. His – tuyg‘u va kayfiyat ning buzilishi; qo‘rquv bosish, xavfsirash , yurakni g‘ulg‘ula bosishi natijasida keladigan ruhiy holat , qo‘rquv holati , ruhiy bezovtalik.

Bundan tashqari arab tilidan o‘zlashgan yana ko‘plab so‘zlar borki, ular ham inson ruhiyatini ifoda etuvchi so‘zlar hisoblanadi: alam, afv, bamaylixotir, alamdiyda, aloha, amniyat, asab, vasvasa, vahshat, daxl, daxshat, dimog‘ va boshqalar.

Shuningdek, inson ruhiyatini so‘zlar orasida fors tilidan kirib kelganlari ham bor. Ularga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: abgor, anduh , armon, afsus, badbin, baral(l) a, bardam, bardosh, baxt, bedor, bezor, behush, biyron, gina, giryon, goj , gumon, dashnom, dod, dog‘ va boshqalar.

Afsus [f – nadomat, pushaymon]. 1.O‘kinish, achinish tuyg‘usi; pushaymon. *Qo‘rquvdan katta - katta ochilgan ko‘zlarida afsus va mehrga o‘xshash bir ifoda jonlandi.* (S. Zunnunova, Olov.) *Nadomat nimaga va afsus nechun ? Olamda neki bor, o‘char beshafqat .(* A . Oripov .Yillar armoni.)

Baxt [f - taqdir; nasiba, ulush] 2. Hayot (turmush)dan mamnunlik va bearmonlik holati; saodat, qut . *Mehnat - baxt keltirar*(Maqol).

Gumon [f -fikr, faraz; shubha] Biror narsaning haqqoniyligiga, to‘g‘riligiga ishonmaslik; shubha. *Bu qon eng qutlug‘, eng muborak, eng sof qon. B unga gumonimiz yo‘q . Oybek. Tanlangan asarlar. Agar gumonimiz to‘g‘ri bo‘lsa, Komilbekning qotili Homiddur! (*A . Qodiriy. O‘tkan kunlar).

Dilxush [f - qalbi shod, mamnun, xursand] 1. Qalbi quvonchga to‘lgan shodon, xursand. Dilxush bo‘lmoq. Dilxush qilmoq - *Normamatning nazarida u (imom) shirin kalom, dilxush odam chiqdi.* (A. Muxtor. Opa – singillar). *Men sizga bir misol keltirmoqchiman, - dedi dilxush ohangda.* (I. Rahim.Ixlos). Shuningdek, bulardan tashqari asosi **botir** bo‘lgan **botirlanmoq** so‘zi mo‘g‘ul tilidan olingan.

Botir [mo‘g‘. - baatar – qo‘rqmas, jasur, bahodir] 1. Xavf –xatardan, qiyinchilikdan, qo‘rqmaydigan, qo‘rqmas, dovyurak jasur .

Botirlanmoq Botirlik qilmoq, botirlik ko‘rsatmoq, jur’at qilmoq . *Har bir mo‘yi yovg‘a qadalgan tikan, Arslon kabi botirlanar bus – butun.* (G‘.G‘ulom).

Shuningdek, ruhiy holatni, hayajonni ifodalovchi affect so‘zi lotinchadan o‘zlashgan.

Affekt [lot affetus - ruhiy hayajon, ehtiros] Tashqi yoki ichki ta’sirlar tufayli tez paydo bo‘lib, qisqa muddatli, aksariyat hollarda “portlash” tarzida bo‘ladigan kuchli hissiy holat .

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, olamda yaratilgan mavjudotlar orasida eng mukammal, eng tushunish mushkul bo‘lgan mavjudot bu - insoniyatdir. Insoniyatning bu mukammalligi esa uning fe’l - atvorining turliligi, psixologiyasining esa o‘ziga xosligi bilan belgilanadi. Inson ruhiyatida kechadigan kechinmalar, his - tuyg‘ular murakkab bir jarayondir. Uning ko‘ngli esa go‘yoki bir tilsimdir. Uning o‘y-xayollari turlichadir. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati“da bu xususiyatlar, inson ruhiyatidagi holatlar to‘la-to‘kis yoritib o‘tilgan. Garchand, lug‘atda bu jarayonni boshqa tillardan olingan so‘zlar yordamida ifodalasa-da, to‘liq yoritib bera olgan. Shuning uchun ham inson ruhiyatini ifodalovchi so‘zlar etimologiyasi tilshunoslik uchun muhim bir jarayonlardan biri sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1- jild. –Toshkent:2020.

2. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent:O‘qituvchi, 1981.

3. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005.

QO‘NG‘IROT SHEVASIDA FRAZEOLOGIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAVSIFI

D.K.Kurbanbayeva,
Ajiniyoz nomidagi Nukus
DPI filologiya fakulteti talabasi
Ilmiy rahbar: Y.M.Ibragimov,
professor, filol. fan. doktori,

Annotatsiya. *Maqolada dialektal frazeologizmlarning semantikasi; turli-tumanligi, frazeologik iboralarning tarkibidagi ayrim so‘zlardan kelib chiqadigan ma’no; iboraning ma’nosi; uning tarkibidagi so‘zlarga xos bo‘lgan ma’nolarning umumiy maxraji sifatida kelib chiqishi; iboraning bo‘linmas ma’no*

birligini tashkil etishi; she'vada ham bir so‘z atrofida bir necha ma’nosi va tuzilishi jihatidan turlicha bo‘lgan frazeologik iboralar vujudga kelishi taqdim etildi.

Tayanch so‘zlar: *Frazeologik iboralar, ko‘chma ma’no, obrazlilik hosil qilishi.*

Annotation. *The semantics of dialectal phraseology in the article; diversity, meaning derived from certaib words in phraseological expressions; the meaning og the phrase; its origin as ageneral dominator of the meanings inherent in the words it contains; form an indivisible unit of meaning of phrase; the dialect also suggests thr formation of phraseological expressions around a word that differ in meaning and structure.*

Key words: *Phraseological expressions, portable meaning, creating an image.*

Shevalarda frazeologik iboralar kam o‘rganilgan sohadir. O‘zbek tilshunosligimizda esa u faqatgina adabiy til ko‘lamida o‘rganilgan bo‘lib, shevalar frazeologiyasi hali tadqiqot obyektiga aylangan emas [4,1974; 1976; 5,1965; 6,1965; 7,1978]**.** Vaholanki, bu sohani o‘rganish uchun xalqimiz shevalari juda ko‘p va rang-barang materialga ega.

Frazeologizmlar - til tarixi, so‘z ma’nolari, ularning rivojlanishi haqida ma’lumot beradigan yagona manba. Ildizi bir bo‘lgan turkiy tillarda uzoq rivojlanish jarayonida ularga mushtarak bo‘lgan frazeologizmlar tuzilishi, ma’nolariga ko‘ra ba’zi o‘zgarishlarga uchragan. Turkiy tillardagi frazeologizmlarni qiyosan o‘rganganda ulardagi o‘xshashliklar va tafovutlar mavjud ekanligi ma’lum bo‘lib, ular frazeologizmlarning genetik kelib chiqishini aniqlashga imkon beradi. Bunday frazeologizmlar tarkibidagi komponentlar turkiy tillar leksikasida alohida leksemalar sifatida qo‘llanilishdan chiqib qolib, hatto eskirgan so‘zlar qatoridan o‘rin olgan, ba’zilari ma’naviy o‘zgarishga uchragan [1,1962.03; 2,1962; 2,1994;3,1997; 8,2020]. Masalan, qadimgi turkiy tillarda *tin, qut* so‘zlari *jan (jon)* ma’nosida qo‘llanilgan. Ushbu so‘zlar frazeologizmlar tarkibida ba’zi o‘zgarishlar bilan qo‘llaniladi: - *dingkesi quruv;* qqalp. *charchash*; - *tinkasi quridi; o‘*zbek. toliqdi, darmonsizlandi; *dingkesi qurtti;* qozoq. titig‘ina jetti, turaladi, bo‘ldirdi.

O‘zbek tili Qo‘ng‘irot shevasida frazeologizmlar tarkibidagi leksik birliklarning aksariyati umumturkiy leksik qatlam uchun mushtarak so‘zlardir. Shevadagi frazeologizmlar qo‘shni xalqlar tillari orqali, shuningdek, bevosita o‘zlashgan arab tili so‘zlari frazeologizmlar tarkibida ko‘plab uchraydi va ular o‘z

qatlam kabi keng qo‘llaniladi: *auzi to‘li iymanli, qo‘yni to‘li quranli; ham pariz, ham qariz va h.*

Frazeologizmlar tarkibida kelib chiqishi tojikcha-forscha bo‘lgan so‘zlar ham uchraydi: *dartke daua, qastege shipa; ne umit, ne qayir va h.*

Shevadagi frazeologik iboralar semantik butunlikka ega bo‘lib, u anglatgan ma’noni uning tarkibidagi ayrim-ayrim so‘zlardan emas, balki butun holda qo‘llaniladi. Shu bilan birga, iboradan butunligicha kelib chiqadigan ma’no bilan ibora tarkibidagi so‘zlarning ma’nolari o‘rtasida zidlik bo‘lmaydi, iborani tashkil etuvchi so‘zlar o‘z mustaqil ma’nosini to‘liq saqlamaydi. Iboraning ma’nosi uning tarkibidagi so‘zlarga xos bo‘lgan ma’nolarning umumiy maxraji sifatida kelib chiqadi. Bu umumiy ko‘chma ma’no iboraning butunligini saqlab turadi, parchalanib ketishiga imkon bermaydi.

Frazeologizmlarning semantikasini aniqlashda lingvomadaniy mezonlar yetakchi hisoblanadi. Sheva vakllarining urf-odatlari, an'analari uzoq davrlar davomida shakllangan bo‘lib, xalqning yashash tarzi, hayot kechirishi, madaniyati, milliy o‘ziga xosligini namoyon qiladi. Qo‘ng‘irotliklar an'anaviy tarzda dehqonchilik, chorvachilik, baliqchilik, kabi mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanib kelgan va hayot kechirish manbayi bo‘lgan kasblarga bog‘liq frazeologizmlar paydo bo‘lgan: *Qirmaning qizillansin* iborasi dehqonlarga nisbatan aytilgan. Ya’ni *hosiling mo‘l bo‘lsin* ma’nosida aytilgan. *Tə‘rt tuliging say bo‘lsin* frazeologizmi chorvaga nisbatan ishlatilgan. Bu ***to‘rt tulik mol*** - *yirik qoramol, tuya, yilqi, qo‘y-echki* ko‘p bo‘lsin ma’nosini bildiradi. *Jiliming maylansin* degan ibora baliqchiga *balig‘ing mo‘l bo‘lsin* degan tilak ma’nosida qo‘llanilgan.

Akademik V.V.Vinogradov nomi bilan bogliqdir. U frazeologizmlarni ilmiy jihatdan dalillab berdi. U turg‘un so‘z birikmalarini uch tipga ajratadi: frazeologik qo‘shilmalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar. Shuningdek, frazeologizmlarning bunday guruhlanishi barcha turkiy tillar uchun xos. Qoraqalpoq tilida E.Berdimuratov, o‘zbek tilida Sh.Rahmatullayev, qozoq tilida K.Axanov, A.Bulg‘anbaevalar ham frazeologizmlarni uchga bo‘lib ko‘rsatganlar. Bunday bo‘lish tatar hamda ozarbayjon tillarida ham uchraydi [1,1962:37-39; 103, 1997:197]**.**

Qo‘ng‘irot tumanidagi frazeologizmlarning grammatik tarkibi hamda tuzilishi jihatidan sintaktik bog‘liqligi saqlanadi. Shevadagi frazeologizmlar gapning mazmuniga qarab o‘zgarishi yoki o‘zgarmasligiga qarab ikki turga bo‘linadi: a) birinchi turda frazeologizmlar gap tarkibida kelgan paytda hech qanday o‘zgarishsiz qo‘llanilib, o‘zining dastlabki shaklini saqlaydi. *Masalan: jeti tunde; qara ter, qan sho‘rpa; un jo‘q, tun jo‘q; qazan da may, shomish te may* kabi frazeologizmlar har doim shu shaklda keladi. b) Ikkinchi turdagi

frazeologizmlar gapda boshqa so‘zlar bilan kelib, shakl jihatdan o‘zgaradi va qo‘shimcha ko‘makchi so‘zlar bilan birga qo‘llaniladi: *janin ko‘zine ko‘rsetuv; ko‘z alartuv; ko‘zi shiqti; auzi menen qus saluv; auzina as saluv; basina ko‘teruv; jureginde o‘ti bar, ko‘kireginde o‘ti bar* kabi frazeologizmlarni gap ichida qo‘llaganimizda gapdagi boshqa so‘zlar bilan grammatik bog‘lana oladi. Bu farqni quyidagi misol orqali ko‘ramiz:



Shevadagi frazeologik so‘z birikmalarida fe'lli iboralarning bo‘lishli va bo‘lishsiz tarzda foydalanishiga qarab uch guruhga ajratib o‘rgansak bo‘ladi. Bular: a) bo‘lishli tarzda qo‘llaniladigan iboralar; b) bo‘lishsiz shaklda qo‘llaniladigan iboralar, bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklda qo‘llaniladigan iboralar.

Tө‘be chashi tik turuv, eki iyninen dem aluv, sau basina sauda satip aluv, tun uyqisin tөrt bo‘luv, jurek jalg‘ab aluv, tilinen pal tamuv, kө‘zdi accchip jumg‘ancha, qas penen ko‘zding arasinda, ko‘zi tas tobesine shig‘uv, angi qashuv, nayza ustinde o‘tirg‘anday, tishqan anglig‘an pishiqtay, jilan jalag‘anday, quanishi ao‘ynina siymau, basina baxit qusi qo‘nuv, jan iymani qalmau, quanishi qo‘ynina siymau, keuil qo‘yuv, tanglay qag‘isuv, tis jaruv, juregi aynuv, tөbesine muz quyg‘anday bo‘luv, jurek-bauri eziluv, barmag‘an jeri, basmag‘an taui jo‘q, arbani jugi menen jutatug‘in.

Xulosa shuki, frazeologizmlarning semantik jihatlari o‘rganilganida ulardagi asosiy ma’no inson - tabiat - jamiyat degan uchlikda jipslashadi. Insonning tabiat va jamiyat bilan aloqasi natijasida har xil mazmunga ega frazeologizmlar yaratilgan. “Inson” konsepti sohasi idrok qilish birligi sifatida barcha tillar va madaniyatlar vakillari uchun universal hodisadir. Uning tushunilishi, o‘ziga xos xususiyatlarining o‘ziga xos xususiyatlarining tilde aks etishi va borliqni kategoriyalashdagi ahamiyati har bir milliy tilda o‘ziga xosligi bilan ajaralib **t**uradi [8, 2020:24; 9,1975:67-68 б.]**.** Frazeologiyaga doir ma’lumotlar juda ko‘p bo‘lib, ularni to‘plash va ilmiy jihatdan tahlil qilish nazariy hamda amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axanov K. Til bilimine kirispe. –Almati: G‘ilim, 1962. –103 b.
2. Berdimuratov E. Hazirgi qaraqalpaq tili. Leksikologiya. –No‘kis: Bilim,1994,-234 b.
3. Bulg‘anbayuli A., G‘.Qaliuli. Qazirgi qazaq tilining leksikologiyasi men frazeologiyasi. –Almati: Sanat, 1997.-192 b.

4. Материалы Библиографический указатель литературы по вопросам фразеологии, вып. III. Сост. Ройзензон Л.И., Бушуй А.М. под. ред. М.М. Копыленко. Самарканд 1974; Вып. IV. Самарканд. 1976 .
5. Материалы к общей биографии по фразеологии. Сост. Ройзензон Л.И., Беклер М.А. – В кн.: Вопросы фразеологии. –Ташкент. 1965.
6. Raxmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma’no turlari. –Toshkent: O‘zR FA Til va adabiyot instituti, 1955.- B.:4-12.
7. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. -Тошкент: «Ўқитувчи», 1978. -468 б.
8. Pirniyazova A.Q. “Qoraqalpoq tili frazeologik sistemasi va uning stilistik imkoniyatlari”//Avtoref. filol. fan. doktori. Nukus-2020.-24 c.
9. Ураксин З.Г. Башкҡурт тилининг фразеологиясы. -1 Өфа.: Елем.. 1975. -2213 с.

NUROTA TUMANI “J “ LOVCHI SHEVALARIDA QO‘LLANADIGAN AYRIM IBORALAR TAHLILI

Ibragimova Gulsum,
SamDU, 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *ushbu maqolada Nurota tumani shevalariga xos iboralar tahlili berilgan. Jumladan, hududning “j”lovchi shevalariga xos bo‘lgan iboralarning o‘ziga xos ma’no nozikliklari ochib berishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *sheva, ibora, maqol, so‘z, chorvachik, hudud, xususiyat.*

Annotation: *This article provides an analysis of phrases specific to the dialects of Nurata district. In particular, an attempt was made to reveal the specific semantics of the region-specific "J" dialects.*

Keywords: *dialect, phrase, proverb, word, animal, territory, feature.*

Insoniyat qadimdan o‘zidan keying avlodlarning ma’naviyati, tarbiyasi, axloqi kabilarga katta e’tibor qaratgan. Kelajak avlodni ziyoli, ilm-u ma‘rifatli qilib tarbiyalash, voyaga yetkazish uchun harakatlar u tug‘ilmasdanoq boshlanadi. Zero, yurtboshimiz ta‘kidlaganlaridek, “Ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi yo‘q” [1:14]. Kelgusi avlod ma’naviy merosimiz to‘la -to‘kis, hech o‘zgarishsiz yetib borishi uchun ham shevalarni o‘rganishimiz, ular to‘liq tushunishlari uchun lug‘atlar yaratishimiz lozim.

O‘zbek tili shevalarga boy til. Yurtimizning har bir viloyatining har bir tumanining va hattoki har bir qishlog‘ining o‘z shevalari mavjud. Shevalar shu

shevada so‘zlashuvchilarning asriy an’analari, yashash tarzi, sharoitlari, kasbi-korlariga ko‘ra farqlanadi. “O‘zbek xalq shevalari turkiy xalqlar shevalari orasida g‘oyat boy va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ularning bir qanchasi o‘z vaqtida fonetik, grammatik va leksik jihatdan tadqiq etilgan. Ayniqsa, o‘tgan asrning elliginchi yillaridan boshlab o‘zbek dialekt va shevalarini aniq rejalar asosida o‘rganishga kirishildi [2:42]. “Sheva - o‘zbekcha ravish, tarz, yo‘sin degan ma‘nolarni bildirib, fanda biror tilning o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi [3: 3].

Har bir hudud shevasida turli-tuman so‘zlar mavjud bolib, o‘ziga xos maqollar, iboralar ishlatiladi. So‘z yuritmoqchi bo‘lgan mavzuyimiz iboralar. Ibora – ma‘nosi yaxlit so‘zga teng bo‘lgan so‘z birikmasi yoxud gap. Iboralar shu hudud aholisining faoliyati bilan bog‘liq holda yuzaga keladi.

Nurota tuman hududi dashtliklardan iborat bo‘lganligi sababli bu yerda chorvachilik yaxshi rivojlangan. Shuning uchun ham bu tuman hududidagi o‘zbek shevalarida chorvachilikka oid iboralar ko‘proq uchraydi. Masalan, *“otteri jomgir jovipdi”* bu ibora ko‘proq kuz va bahor faslida uchraydigan tabiat hodisasiga nisbatan ishlatiladi. Bunaqa vaziyatda yomg‘ir yog‘adi, ammo yer ho‘l bo‘lmaydi. Bu iborani “ yog‘ib-yog‘may yog‘gan yomg‘ir” deyishimiz mumkin. Masalan, “Yechachqonga otteri jomg‘ir jovibti”.

“Tilsiz kelin” – bu iborani ko‘proq qaynonalar ishlatishadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu ibora tumanning ko‘pchilik qishloqlari (Sovuqbuloq, Suvliq, Moduvot, Kavushli, Moybuloq, Ocha, Qiyosin)da ishlatiladi. Iboraning ma’nosi – choy qaynatish uchun ishlatiladigan buyum mavjudligi sababli kelinlar choyni o‘choqda qiynalib qaynatishmaydi, balki tokda o‘zi qaynaydi. Shu sababli ham bu buyumga nisbtan ana shu ibora qo‘llanilgan. Masalan, “Tilsiz kelinimdan vo‘rgilay, jumushimdi oson qildi”.

“Mortuv ishlagan”- aslida bu ibora tarkibidagi “ishlagan” so‘zi “ushlagan” so‘zi bo‘lib, bu sheva ta’sirida “u” tovushi ornida “i” tovushi qo‘llangan. Iboraning asl izohi uzoq o‘tmishdagi afsona-asotirlarga borib taqaladi. Iboradagi “Mortuv” afsonaviy salbiy obraz bo‘lib, u jinlarning bir turi, sochlari doimo yoyilgan, ba‘zidagina inson qiyofasida ko‘zga ko‘rinib qoluvchi afsonaviy qahramondir. Afsonalarga ko‘ra, uning sochlaridan yulib olgan kishining hamma ishlari rivojlanib omadi keladi degan farazlar bo‘lgan. Shuning uchun ham doimo omadi kuladigan hech tugamas boyliklarga ega kishilarga nisbatan ushbu ibora ishlatilgan. Masalan, “Bizarding katta kototalarimiz mortuv ushlagan”.

“Juvulmag‘an qoshiq”- ushbu ibora tumanning deyarli barcha o‘zbek shevalarida ishlatiladi. Uning izohi-kishilar o‘zlariga tegishli bo‘lmagan ishlarga aralashganliklari va czlariga tegishli bo‘lmagan suhbatlarga qo‘shilganlaridir.

Ibora tarkibidagi “juvulmag‘an”so‘zi “yuvilmagan” so‘zining sheva shaklidir. Yuvilmagan qoshiq hamma idishlar bilan yuvilish uchun olib kelinadi-yu, ammo yuvilmay qolaveradi. Shu holatdan kelib chiqqan holda ushbu ibora paydo bo‘lgan va ishlatilib kelinmoqda. Masalan, “juvulmag‘an qoshiqqa o‘xshab hamma narsaga qoshilaberma”. Bu iboraning variantdoshi sifatida “ suqma qoshiq” iborasi ham ishlatiladi. Bu ibora ham xuddi yuqorida ta’kidlangan ibora singari ma‘nolarni anglatadi.

“Siydik ko‘z”, “Sho‘rpa ko‘z” iboralari- bu iboralar juda ko‘p yig‘laydigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Yanayam aniqrog‘i, bo‘lar-bo‘lmasga yig‘layveradigan kishilarga nisbatan ushbu iboralar ishlatiladi. Ushbu iboralar ma’nodosh bo‘lib birining o‘rnida biri erkin almashinib ishlatilaveradi. Bu ibora asosan tumanning shimoliy qishloqlarida ko‘proq qo‘llaniladi. Iborani tuman hududida yashovchi qozoq millatiga mansub kishilar nutqida ham uchratishingiz mumkin. Bundan tashqari, yurtimizning janubiy hududlari bo‘lgan Surxondaryo va Qashqadaryo tumanlari o‘zbek shevalarida ham ushbu iborani yoki uning variantdoshlarini uchratish mumkin.

“Tubi bir” iborasi asosan Yuqori Chuya hududlarida qo‘llanilib, hududdagi Tikanli, Qirhovut, Qadoq, Nog‘ora, Tutli, Sirtsiluv, Qizilhovut, Botqoq, Baroq, Hasanota, Anna kabi qishloqlardagi kishilar nutqida faoldir. Iboraning izohi shundan iboratki, bir urug‘ga mansub yoki bitta ajdoddan tarqalgan kishilarga nisbatan shunday deyilgan. Yuqoridagi hududlardagi insonlarning deyarli ko‘pchiligi bitta bobo urug‘dan tarqalishgan, shuning uchun ham shu hududlardagi kishilar bu iboradan juda ko‘p foydalanishadi. Masalan, “Abdulla aka bilan Omonoy opaning tubi bir-da, sho‘ning uchunam amma deydi”.

“Dordan qochgan” iborasining izohi quyidagicha: favqulodda yomon xislatlarga ega bo‘lgan, har qanday jazo-yu, tuzoqlarni mensimaydigan, hech kim va hech narsadan qo‘rqmaydigan kishilarga nisbatan ishlatiladi. Bunday kimsalarni kishlar yoqtirishmaydi. “Dordan qaytgan” degan variantdoshi ham mavjud bo‘lib, birining o‘rnida biri bemalol qo‘llana oladi. Masalan, “Ehhe, Orol akani uli dordan qochganku, hech kim baskelammiydi vo‘nga”.

“Qiyoli qochgan” iborasi quyidagicha izohlanadi: xotirasini yo‘qotgan, ayrim-ayrim narsalari eslay olmaydigan yoki xayolparast bo‘lib qolgan insonlarga nisbatan ham ishlatiladi. Ibora Oqtog‘ hududidagi qishloqlarda yuqoridagi ma’nolarni bildirsa, Yangiobod, Jarma, Tegirmon, Oltmishto‘rt, Oqqula, Xayrobod, Burliboy kabi qishloqlarda “jinni”, “telba” kabi so‘zlarga sinonim sifatida ishlatiladi. Masalan, “ Jumani qiyoli qochib qog‘anov, qarashlari biyjo”.

“Ko‘kragi yalangto‘shday” iborasi mashhur Bahodir Yalangto‘sh obrazi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘kragini ochib yuruvchi kishilarga nisbatan ishlatiladi. Bu

obraz doimo oldini ochib yurgani uchun ham unga Yalangtoʻsh laqabi berilgan, shuning uchun ham bunday kishilarga nisbatan yuqoridagi ibora ishlatiladi.

“Qirgʻizdi kuchugiday” iborasi tumanning qozoqlar bilan yondosh hududlarda yashaydigan oʻzbek aholisi shevalarida uchraydi. Iboraning izohi quyidagicha: barchga ma’lumki, qirgʻiz choʻponlari juda koʻp it boqishadi. Mana shu sababga koʻra, kishilar juda koʻp narsalarga nisbatan yuqoridagi iborani ishlatishadi. Masalan, “Shu yenamdi nebarasiyam qirgʻizdi kuchugiday”.

“Yeqiboti kishim” iborasi asosan hayratlanish, jahl chiqishi, ensa qotishi kabi ruhiy holatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Iboraning qamrov koʻlami unchalik katta emas, bu ibora faqatgina tumanning Suvliq mahallasi va tumanga yondosh Qoʻshrabod tumani Jonbuloq mahallasidagina ishlatiladi. Masalan, “yeqiboti kishim muncha biytasan, bizaram bilsak kerak bir nersalardi”.

“Pitik taqdir” iborasining izohi shundan iboratki, oila qurgan yoki oila qurayotgan qizlarga, ayollarga “taqdiringda bor ekan”, “taqdiring shu ekan” jumlalarining oʻrniga ishlatiladi. Ushbu ibora adabiy tildagi “Taqdiri azal” iborasiga sinonim tarzda qoʻllaniladi.

“Jelka tomiri juvon” iborasida qipchoq shevasi vakillarining deyarli hammasiga tegishli boʻlgan “y” tovushining “j”lashish hodisasi kuzatilgan, bir necha oʻrinlarda uchraydi. Nurotaliklarning fe’lida qaysarlik, oʻjarlik kabi xislatlar mavjud. Yuqoridagi ibora xuddi shunga ishora qiladi. Shuningdek, bu shevada “Moʻyni iyik“ degan ibora ham birga ishlatilib kelinadi. Bilamizki, sharmanda va uyatga qolgan hamda aybdor insonning boʻyni har doim egik boʻladi. Ushbu ibora shunday kishilarga nisbtan ishlatilib kelinadi.

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, oʻzbek dialekt va shevalarini oʻrganish borasida oʻz vaqtida juda katta ishlar amalga oshirilgan. Bu sohada nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasi sifatida muvaffaqiyatli himoya etilgan oʻttizdan ortiq ishning mavjudligi fikrimizni tasdiqlaydi. Yuqorida oʻrganilgan, tilga olingan iboralar va ularning izohlari kelgusi avlodga tariximiz va boy madaniy-ma’naviy merosimizni oʻrganishda dasturulamal boʻlib xizmat qiladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning quyidagi soʻzlari ham fikrimiz isboti: “Hech qachon unutmasligimiz kerak: maʻnaviyat – bu, avvalo, insonlar oʻrtasidagi oʻzaro ishonch, hurmat va eʻtibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yoʻlidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlardir. Bir soʻz bilan aytganda, maʻnaviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy – ijtimoiymunosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha mustahkam boʻlsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli boʻladi”[1:34]. Yurtboshimizning bu fikrlari yuqoridagi fikrlarimizning yana bir karra isboti boʻladi desak, yanglishmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Insonprvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. – Toshkent:Tasvir nashriyot uyi .2017-yil.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq.- Toshkent-“O‘zbekiston” - 2016-yil 14-bet
3. Rahmatullayev Sh.. O‘zbek tili iboralar lug‘ati .- T., 1993, 42-bet.
4. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. -T., 2013. 3.

XALQ OG‘ZAKI IJODI LEKSIK QATLAMINING O‘RGANILISH ZARURATI

(“GULFARAH VA SHOH JA’FAR” QISSASI MISOLIDA***)***

Xurramova Charos Akmal qizi
ToshDO‘TAU 2-kurs magistranti
cxurramova@mail.ru

Annotatsiya. *Xalq og‘zaki ijodi namunasi Gulfarah va Shoh Ja’far qissasining o‘rganilish zarurati, o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlamning qissaga ta’siri hamda qissa tilini o‘rganishning ahamiyati bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *til tarixi, xalq og‘zaki ijodi, Gulfarah va Shoh Ja’far, o‘z qatlam, o‘zlashgan qatlam, umumturkiy dialektlar, lingvofolkloristik tadqiq*.

Annotation. *An example of folk oral art.The need to study the story of Gulfarah and Shah Jafar. The effect of its own layer and assimilated layer on the narrative.the study of story language serves to reveal the functions of languagehistory*

Key words: *language history, folklore, Gulfarah and Shah Jafar, assimilated layer, all-turkic dialects, lingvofolkloristic study.*

O‘zbek tili dunyo tillari orasida o‘zining boy grammatik hamda leksik xususiyati bilan ahamiyatlidir. Tilimizning xalq og‘zaki ijodini o‘rganish, uning leksik qatlamida amalga oshirilayotgan izlanishlar olib borayotgan tadqiqotlar misolida ko‘rishimiz mumkin. Har qanday xalq og‘zaki ijodi namunalari leksik qatlamini tadqiq qilish, shu xalqning tarixidan dalolat beruvchi qimmatbaho materiallardir. Xalq og‘zaki ijodining noyob me’rosi hisoblangan Gulfarah va Shoh Ja’far qissasi orqali biz tilimizning boy qadimiy tarixiga nazar solamiz.

Qissa leksikasi ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid so‘zlarni o‘z ichiga olgan. Qissa leksikasini mavzuviy tasnif asosida o‘rganish ilmiy-amaliy qiymatga

ega. So‘zlarni mavzuviy guruhlarga ajratib o‘rganish usuli lingvistika uchungina emas, balki xalq tarixi, etnografiyasi uchun ham qiymatlidir. Mavzuviy guruhlarni o‘rganish orqali xalq xo‘jaligi, xalqning ijtimoiy tarixiy xususiyatlari: etnografiyasi, madaniy-ma’naviy qarashlari haqida aniq tasavvur olish mumkin. Xalq og‘zaki ijodini o‘rganish, xalq tilining tarixini shu bilan birgalikda uning madaniyatini o‘rganishga xizmat qiladi (Begmatov,1985: 33).

Shoh Jafar va Gulfarah qissasining mavzu ko‘lamini bir necha mavzuviy guruhlar yuzasidan ko‘rib chiqamiz. Jumladan, maishiy turmushga oid so‘zlar, diniy-aqidaviy so‘zlar, elita qatlamga oid so‘zlar, shuningdek, turmushning turli sohalarga oid so‘zlarni uchratish mumkin. Bu qissada, asosan, saroy muhiti doirasida voqealar rivojlanadi. Shuningdek, ushbu so‘zlar: *podshoh, zafarshoh, mol-dunyo, farzand, fuzun, buzrukvor, noumid, saroy, joy, shaxzoda,(fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar) xazina, askar, shon, shavkat, dunyo, komil, oxirulamir, qoida, janob, tabarruk, tarbiya, joriya, hukamo(arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar).* Bu so‘zlar orqali biz qissa yaratilgan davr tili haqida ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkin. Tildagi bo‘layotgan o‘zgarishlar avvalo uning leksik qatlamida aks etadi. Leksik qatlam orqali esa biz xalq hayoti hamda uning iste’molidagi so‘zlarni, hozirgi zamon so‘zlari bilan qiyosiy tadqiq qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Bundan tashqari hozirda qo‘llanilish doirasi chegaralangan, qissada diniy aqidalarni ifodalovchi so‘zlar ham mavjud bo‘lib, ular quyidagilardir: *xudo, darvish, mozor, payg‘ambar, jon (fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar). Dunyo, komil, oxirulamir, taolo, maxluq, fikr, olloh, niyat, qoida, janob, odam, tabarruk, duo, izn, tamom, mushukanbar, alhol, marotaba, loqal, tarbiya, saboq, farosat, fahm, tavsif, xil, davo, hukamo, sadaqa, taborak, omonat, janoza, dafn, motam, oqil, nasihat, rasululloh, (arab tilidan o‘zlashgan qatlam)* Shu jumladan, “Gulfarah va Shoh Jafar”qissasining leksik qatlamini o‘rganishda ikki leksik qatlam doirasida tahlil qilamiz:

1. Umumturkiy leksik;

2. O‘zlashtirilgan leksik qatlam.

Bulardan tashqari, boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zlarga o‘zbek tili affikslarini qo‘shib so‘z yasash hollari ham anchagina uchraydi. Qissadagi o‘z qatlam leksikasi qo‘llanish doirasiga ko‘ra quyidagicha guruhlandi:

1. O‘zbek adabiy tili va shevalari uchun umumiy leksemalar.

2. Shevalarga xos so‘zlar.

3. Hozirda qo‘llanmaydigan so‘zlar (Hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarda qo‘llanmaydigan so‘zlar nazarda tutiladi). Qissa leksikasidagi ba’zi

so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilida va shevalarida uchramaydi. Bunday so‘zlar ma’lum tarixiy davr, muhitga bog‘liqligi bilan xarakterlanadi:

1.O‘zbek adabiy tili va shevalari uchun umumiy leksemalar qo‘llanish darajasiga ko‘ra:

a) qo‘llanish miqdori yuqori leksemalar;

Masalan: Gulfarah-69, vazir-32, podshoh-53, men-30, bir-125, va-124, bo‘lmoq-104, kelmoq-50, aymoq-47, ota-28 marta qo‘llangan. Yuqorida 25 martadan yuqori miqdorda qo‘llangan so‘zlar qo‘llanish miqdori yuqori leksemalar deb olindi va asosan, qissada bir ma’noda qo‘llangan.

b) qo‘llanish miqdori o‘rtacha leksemalar; 15-25 marta qo‘llangan so‘zlar miqdori o‘rtacha leksemalar deb olindi. Jumladan: Olloh Taolo-15 marta, darvesh 19 o‘rinda, faqir 18 o‘rinda, mard 15 o‘rinda, qizi, bola 15 o‘rinda, alqissa 17 o‘rinda, ammo 20 o‘rinda, shul 23 o‘rinda, kun 15 o‘rinda, bayon qilmoq 15, Jafar 12 o‘rinda qo‘llangan.

d) qo‘llanish miqdori kam leksemalar 5 martadan kam qo‘llangan so‘zlar nazarda tutildi: haddin, fuzun, davo, parev, maxluq, bog‘i Eram, taborak, doxil bo‘lmoq, darvesholiy, rammol, joriya, xizmatchi, alhol, Xudoyi Taolo, emdi, janob, fuqaro, anda, tavoze, andin, qalam, kalla, sharob, shikorg‘a, xotun, aroba.

Bu asarni lingvofolkloristik tadqiq qiladigan bo‘lsak, asarda turkiy va o‘zlashma so‘zlardan keng miqyosda foydalanganligini kuzatishimiz mumkin. Ishda qissa tilidagi so‘zlar tarixiy-etimologik jihatdan uch guruhga ajratilgan:

a) o‘z qatlam (umumturkiy, o‘zbekcha so‘zlar, dialektal so‘zlar);

b) fors-tojik tilidan o‘zlashgan qatlam;

d) arab tilidan o‘zlashgan qatlam.

a) o‘z qatlam (umumturkiy, o‘zbekcha so‘zlar, dialektal so‘zlar); *qilurlar, kim, o‘tmoq, bir, edi, uchun, ot, demoq, chiqarmoq, siz, ekan, bilmoq, quyin, ey, er, bilan, bermoq, bir, yuq, qilmoq, qaysi, urmoq, birlan, bul, bilsa, elchi, yubormoq, o‘xshamoq, o‘tmoq, solmoq, oltin, kumush, olmoq, kelmoq, quymoq, shu, o‘qimoq, bu kun, kecha, shul, o‘ziga, xotin, tillo, turmoq, bog‘cha, topmoq, o‘z, umid, aylanmoq, izlamoq, topshirmoq, kun, o‘g‘il, asar, qachonki, qolmoq, ertaga, bola, tayinlamoq, yer-ko‘k, tarbiyalamoq, o‘smoq, aql-hush, yurmoq, til, yana, yetmoq, betoblik, voy, bosh, yurak, boshqa, eshitmoq, oh, o‘ynamoq, bag‘ir, termilmoq, emdi, ayrilmoq, qolmoq, nurli, ota, aylansin, ajal, xonim, quchmoq, ko‘ngil, bo‘shatmoq, ko‘rinish, o‘lim, tiriklik, dildorlik, yul, suyak, xat-pat, qattiq, o‘ramoq, ot-ulov, chorlamoq, nimarsa, bironta, so‘z, to‘g‘ri kelmoq, kishi.*

Qissa leksikasidagi o‘zlashgan qatlam, xususan forscha-tojikcha (arabcha) o‘zlashmalarni qo‘llanish darajasiga ko‘ra ikki guruhga ajratib o‘rganildi:

b) fors-tojik tilidan o‘zlashgan qatlam; *podshoh, zafarshoh, mol-dunyo, farzand, fuzun, har, umid, dasht, darvish, hursand, buzrukvor, ham, men, sen ,umidvor, dona, gard, noumid, saroy, joy, ziyrak, pokiza, ustod, orzu, sargardon, misoli a+f, darhol f+a, doya, shaxzoda, dori, bisyor, xafa, xudo, nola, zor, ovoz, pora, hush, dard, giriftor, jon, mozor, chandon, shirin, shukor, barobar, payg‘ambar, agar, pand.*

d) arab tilidan o‘zlashgan qatlam: *Rivoyat va hikoyat,zamon, avval, xazina, askar, shon, shavkat, dunyo, sabab, hakim, hoziq, tabib, komil, oxirulamir, foyda, taolo, maxluq, fikr, axbor, alqissa, sahro, olloh, niyat, qalam, nuqta, folchi, qoida, janob, odam, tabarruk, duo, izn, homilador, tamom, ism, soat, mushukanbar, alhol, marotaba, loqal, vaqt, tarbiya, joriya, maktab, saboq, farosat, ojiz, tariqa, hayron, qadar, fahm, tavsif, ammo, xabar, hozir, xil, davo, ta’sir, hukamo, foyda, fursat, sadaqa, taborak, ziyoda, omonat, janoza, dafn, motam, fuqaro, oqil, huzur, nasihat, najot, rasululloh, g‘animat, salomat, sayohat, satr, hayron, jami, mani.*

Qissa leksikasidagi o‘zlashgan qatlam, xususan forscha-tojikcha (arabcha) o‘zlashmalarni qo‘llanish darajasiga ko‘ra ikki guruhga ajratib o‘rganildi: hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalariga xos fors-tojikcha so‘zlar bir-biridan katta farq bilan farqlanmasa-da, ularning qo‘llanilish uslubi va shevalarning aynan shahar shevalarida faol qo‘llanilganini ko‘rishimiz mumkin, shuningdek, arabcha so‘zlardan kirib kelgan diniy so‘zlar hozirgi kunda har bir sheva vakili nutqida faol qo‘llanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э.Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.,1985, 49-бет.

2. Ўзбек шевалари лексикаси. –Тошкент: Фан,1966.

3. Ўзбек шевалари лексикасидан материаллар тўплаш учун сўроқлик. –Тошкент: Фан, 1989. – 211 б.

4. Ўзбек шевалари лексикаси. –Тошкент: Фан,1991. 229 бет.

5. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент, 1957. –351 б. 1-қисм

6. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971.

7. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент, 1960. 2-қисм – 465 б.

8. Ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент, 1984.

XORAZM XALQ QO‘SHIQLARINING LINGVOMADANIY TADQIQI

Satliqova Sevara Shoxnazarovna,
ToshDO‘TAU magistranti
satliqova_s@list.ru

Annotatsiya. *Xorazm xalq qo‘shiqlarining til va lingvomadaniy tadqiqi orqali xalq qo‘shiqlarida xalqning madaniyati, milliyliyligining aks etishi kabi masalarga urg‘u belilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, til, madaniyat, xalq, shakl, qo‘shiq, munosabat.*

Annotation. *Through the study of the language and linguistics of Khorezm folk songs, emphasis is placed on issues such as the reflection of the culture and nationality of the people in folk songs.*

Keywords: *linguoculturology, language, culture, people, form, song, attitude.*

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligida oxirgi o‘n yilliklarda paydo bo‘la boshladi. Professor N.Mahmudovning “Tilning mukammal tadqiqi va yo‘llarini izlab…” nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib beriladi (Usmonova, 2019:23).

Qo‘shiqlar folklorning eng ko‘p tarqalgan, ommalashgan va faol janrlari bo‘lib, xalqning bilim-tajribasi, ma’naviy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi.

Folklor asarlari xalq hayoti, tarixi, istak-intilishlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, insoniyat taraqqiyotining barcha davrlarida yaratib kelingan. Bu ulkan xazina har bir xalq, har bir millat va elat madaniyatining muhim bir qismini tashkil etadi. O‘zi yashab turgan jamiyatning har jihatdan yetuk barkamol kishisini tarbiyalab yetishtirish o‘zbek xalqining eng muqaddas, barcha davrlar uchun birday dolzarb bo‘lgan vazifalardan hisoblangan. Xalqimizning uzoq yillik tarixi jarayonida o‘z bilim va tajribalarini o‘sib kelayotgan yosh avlodga qoldirishda eng samarali vositalaridan biri sifatida xalq og‘zaki poetik ijodidan foydalanib kelingan. Folklor qo‘shiqlar milliy tilimizning badiiy jozibasini jahonga ko‘z-ko‘z qilish, xalqimizning boy madaniyati, asriy orzu-umidlarini ko‘rsatish uchun ham xizmat qiladi.

Folklor qo‘shiqlarini o‘rganish, qo‘shiqlarda qo‘llanilgan so‘zlarning arxaik va tarixiy so‘zlarga ajratgan holda, turli davrlarda bu so‘zlarni muqobil shakllaridan foydalanilganligi ilmiy jihatdan o‘rganish Lingvomadaniyatshunoslik fanini vazifalardan biridir.

Lingvomadaniyatshunoslik xalqlarning turmushi va madaniy o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning kelib chiqishi, joylashishi, madaniy-tarixiy o‘zaro aloqalarini o‘rganuvchi etnografiya va tilshunoslik fanlari bilan ayrim masalalardan bir-biriga yaqinlashadigan soha etnolingvistika fani bilan bog‘liq.

Xalq qo‘shiqlari xalqning milliyligi, urf-odatlari, asriy tajribalari natijasida chiqargan xulosalarini o‘zida aks ettiruvchi xalq og‘zaki ijodi namunasi sanaladi. Qo‘shiqlarda ma’lum ma’noda millatning madaniyati aks etadi. Shu sababli, Xorazm xalq qo‘shiqlarini ham lingvomadaniyatshunoslikning obyekti sifatida tahlilga tortishga harakat qilamiz.

Lingvomadaniyatshunoslikning tadqiqot predmeti-insoniyat tomonidan yaratilgan (mehnat qurolidan tortib, to uy anjomlarigacha, odat, rasm-rusum, odamlarning turmush tarzidan tortib, to fan va san’at, din va ateizm, axloq va falsafagacha, boshqacha qilib aytganda, artefaktlar tizimigacha bo‘lgan (lotincha“artefactum”; “arte”-sun’iy“ factus”-qilingan) moddiy va ma’naviy madaniyatdir. Atamaga quyidagi tarkib kiritiladi: madaniyatning moddiylashtirilgan obyekti, ishlab chiqarish, ijodiy mehnat mahsuli, tilda ifodalangan madaniyat asarlari (“yordamchi ishlar”va fikrlar mahsuli). Bir so‘z bilan aytganda, olamning lisoniy manzarasini tashkil qiluvchi narsalar.

Lisoniy hodisalar mohiyatini ochish, ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan manbalarni tadqiq va talqin qilishda xalq shevalarining beqiyos o‘rni tufayli rang-barang o‘zbek shevalari doimo tilshunoslar e’tiborida bo‘lgan, ularni o‘rganishga bag‘ishlangan talay tadqiqotlar olib borilgan.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, barcha zamonlarda ham xalq qo‘shiqlarini avaylab-asrash, boyitish va keyingi avlodga yetkazish yo‘lida xayrli say-harakatlar qilgan fidoyilarimiz bo‘lgan.

O‘zbek folklorining jonkuyar tadqiqotchisi Muzayyana Alaviya[*] mavsum va marosim qo‘shiqlariga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlarni amalga oshirgan, yaratgan. M.Ochilov esa o‘zbek xalq mehnat xalq qo‘shiqlarining poetikasini tadqiq etgan va mehnat qo‘shiqlarini quyidagi uch katta guruhga bo‘lib o‘rganadi:

1. Dehqonchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar.
2. Chorvachilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar.
3. Kasb-hunar bilan bog‘liq qo‘shiqlar (Kamol Ochil, 1992: 5)

1. Shuningdek, J.Qobulniyozov va S.Ro‘zimboyevning Xorazm xalq qo‘shiqlari, D.O‘rayevaning o‘zbek xalq qo‘shiqlarida parallelizm va motam

[*] Muzayyana Alaviya. Xalq ijodkorlaridan ko‘plab folklor asarlarini yozib olgan va nashrga tayyorlagan («Oq olma, qizil olma», 1972; «Sovet davri qo‘shiqlari», 1983 to‘plamlari; «Intizor», 1964, «Dalli», 1972 dostonlari); O‘zbek xalq qo‘shiqlarining badiiy-estetik xususiyatlari, marosim folklori bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. «Odamiylik» (1964), «Dil nidosi» (1967), «Yon qo‘shnim, jon qo‘shnim» (1974) kabi risolalari odob-axloq masalalariga bag‘ishlangan.

marosimi folklori tarkibi va uning poetikasi («O‘zbek motam marosimi folklori», 2004). F.Qozoqovning satirik qo‘shiqlar haqidagi tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etdi (Safarov, 2010:34).

Qo‘shiqlarda odob, axloq, mardlik, vatanparvarlik ota-ona qadriga yetish, ularni e’zozlash, yaxshilik qilish, halollik singari insoniy fazilatlar madh etilgan. Keltirilgan xalq qo‘shiqlarining mazmuniga asosan, insoniy sifatlar tarannum etilganini ko‘ramiz. Aynan ana shu sifatlar estetik tayyorgarlik daraja, madaniyat ko‘lami asosida tarkib toptiriladi. Kishilar turmush tarzi, hayotiy marosim, urf-odatlari bilan bog‘liq folklor qo‘shiqlari ham yoshlarni estetik tarbiyalashga, ularni xalqimizning tarixini chuqur bilishi, his qilish tasvvurlarini kengaytirishda beqiyos ahamiyat kasb etishi ayondir.

XX asr boshlari Xiva xonligida o‘tkazilgan xalq sayli “Xatarli o‘yin” kunlari nomli turkum mazmunida namoyish etilgan. “Xatarli o‘yin” da parrandalar va uy hayvonlarining xatti – harakatlari (masalan: tustovuq o‘yin, ot o‘yini, kaptar va boshqalar) hamda “olma terish”, “kampir”, “ko‘knori” kabi maishiy sahnalar musiqa jo‘rligida komik harakatlar vositasida aks ettirilgan.

Qadimdan madaniyat va san’at maskani bo‘lgan Xorazm vohasida o‘ziga xos xalq musiqa ijodiyoti (bolalar va marosim qo‘shiqlari, xalfa laparlari va boshqalar), og‘zaki an’anadagi kasbiy musiqa (doston, talqinchi va go‘yandalar san’ati, maqom va boshqalar) namunalari keng o‘rin tutadi. Xorazm musiqa uslubiy doirasida xalq musiqasining eng qadimgi davrlariga mansub kuy-ohang namunalari o‘z aksini topgan. Jumladan, bolalar (“Momom moshiydi”, “Aravachi mani doyim”, “Tuyalar, ho tuyalar” va boshqalar) va mavsum marosim qo‘shiqlari (“Suyet xotin”, “Ashsha daroz” va boshqalar)da musiqaning ilk bosqichlariga oid dastlabki tuzilma va ohang alomatlari, boshlang‘ich parda asoslari saqlanib qolgan. Xalfalar san’atida “ichkari”ga xos ixcham diapazondagi past ovoz ko‘lamida aytiladigan, faqat ayollargagina xos bo‘lgan qo‘shiq va ashulalar o‘rin olgan. Bunda, qudalar tomonidan, to‘yga ruxsat berilgandan keyin aytiladigan “Boring boshlang, o‘nglar bo‘lg‘ay to‘yinggiz”, to‘y boshlanishida “Muboraklar bo‘lg‘ay etgan to‘yinggiz” yoki kelin kelgandan keyin “Aylanaman kelinni qaddi bo‘yinnan” va boshqa qo‘shiqlar to‘yning o‘ziga xos rivojini belgilagan. Ayniqsa, qayroq bilan o‘ynab aytiladigan lapar turi xalfa raqqosalariga xosdir.

Xorazm xalq qo‘shiqlarida iste’molda bo‘lgan lug‘aviy birliklarning asosiy qismini o‘zbek tilida qadimdan mavjud bo‘lgan va kelib chiqishiga ko‘ra mazkur xalqning o‘ziniki bo‘lgan asl turkiy va o‘zbekcha so‘zlar, ya’ni o‘zbek tilining taraqqiyoti davomida muomalada bo‘lgan so‘zlar tashkil qiladi.

Xorazm xalq qo‘shiqlari matnlarida ishlatilgan lug‘aviy birliklar tarkibini o‘zbek adabiy tili materiallari bilan qiyos qilinsa, qayd qilingan asl turkiy so‘zlar,

ularning fonetik shakliy o‘zgachaligini hisobga olmaganda, mazmun va shakl jihatdan kesin farq qilmaydi.

Aji bilan sujini datqan biladi,
Olis bilan yaqinni yurgan biladi.
Yaxshi bilan yomonnni go‘rgan biladi,
Sahiy bilan baxilni hamma biladi.

****

A:ʒï vilän sü:ʒini datqän vïlädi,
A:lïs vilän ja:qïnnï jürgän vïlädi.
Jäxšï vilän jamannï gö:rän vïlädi,
Sa:xïj vilän ba:xïlnï hämmä vïlädi.

Satrlardagi A:ʒï, sü:ʒi lug‘aviy birliklari o‘zbek adabiy tili nuqtayi nazaridan achchiq va chuchukning tovush o‘zgarishlariga uchragan ko‘rinishidir.

Xiva odi ovazali,
O‘n ikkidan darvozali.
Polovlari poy mazali,
Xiva ela yetir mani.

****

Xï:va a:dï avazalï
ᵛOn ikkidän darvazalï
Pa:lavlarï paj mazalï
Xï:va e:lä jeter mä:ni

Yuqoridagi qo‘shiqda Xivaning o‘ziga xos xususiyatlari aks etganini ko‘rishimiz mumkin. Xiva nomining ovozali, mashhur ekanligi qo‘shiqning birinchi misrasida aytilmoqda. Keyingi misralarda esa o‘sha mashhurlikning sabab va vositalari keltirilmoqda: o‘n ikki darvozali ekanligi hamda mashhur palovining xususiyati ochib berilmoqda. Bular qo‘shiq eshituvchiga zavq-shavq berish bilan bir qatorda Xiva haqida ham ayrim axborotlarni beradi. Yana ayrim qo‘shiqlar borki, ularga xalqning o‘ziga xos ishonch-e’tiqodlari, urf-odatlarining parchalari singib ketgan:

Bo‘ynima osganim qalampir tumor,
Shul yorni go‘rmasam-bo‘laman xumor.
Yigitlar ichinda bo‘ylari chinor,
Shul yorni axtarib getmasam bo‘lmas.

****

Mo:jnïma asɣanïm qa:lampïr tu:mar
Šul ya:rnï görmäsäm bølämän xu:mar
Ji:gitlär//jijitlär i:čïndä bo:jlarï dï:nar
Šul ja:rniï axtarïp gitmäsäm bolmas .

Qo‘shiqda xalqning qalampir tumordan ko‘z tegishidan asrash maqsadida foydalanishi aks etganini anglashimiz mumkin.

Xorazm xalq qo‘shiqlari ijrochilari tilida o‘zbek adabiy tilidagi “piyoladan kattaroq” asosan suyuqlik va suyuq ovqat solib ichish uchun ishlatiladigan chinni idish lovapkasa//lavapi ka:sa so‘zi orqali ifoda etiladi. Ammo o‘zbek adabiy tilining ta’siri natijasida payola so‘zi ham sheva vakillari nutqida ishlatila boshladi. Xatto bu so‘z xalq qo‘shiqlari tilidan xam o‘rin olgan

Yor alinda piyola,
Xu gitmasin xiyola.
O‘tadi-gitadi eshikim yonlab,
O‘ylara girmidi yorini istab.

****

Ja:r ä:lindä pï:jala
Xu gitmäsin xï:jala
ötädi- gitädi ä:šïkim janlap
O:jlara girmi:di ja:rïnï ïstäp.

Xalq qo‘shiqlari ijodkori bo‘lmish o‘g‘uz lahjasi vakillari nutqida “istamak” fe’lining xohlamoq ma’nosi ham mavjud. O‘tgan davr va hozirgi zamon o‘zbek xalq qo‘shiqlarini tahlil qilib, imkoni boricha xalq qo‘shiqlarining ayrim namunalarini yoshlarning ma’naviy olamlarini boyitishdagi o‘rnini ko‘rsatib berish hamda ilmiy muomalaga kiritish tilimizning rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya darslik. – Toshkent, 2019.
2. Kamol Ochil. Qaldirg‘ochni qo‘ndirgan qo‘shiq. – Samarqand: Zarafshon, 1992.
3. Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Musiqa. 2010.
4. Baskakov N.A. Historical-Typological Phonology of Turkic Languages. – Moscow: Nauka, 1989.
5. Gulyamov A. Scientific Heritage. – Tashkent: University Press. 2005.

TO‘Y MAROSIM NOMLARI VA ULARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Azimova Yulduz Baxtiyor qizi,
Tosh DO‘TAU magistranti,
@azimovayulduz.mail.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada to‘y marosim nomlari, ularning turlari hamda lingvomadaniy xususiyatlari va tutgan o‘rni yoritilgan. To‘y marosim*

nomlarining o‘ziga xususiyatlari haqida ham batafsil ma’lumot berilgan. Bundan tashqari, nikoh to‘yi va nikoh to‘yi harakatlari natijasi o‘laroq, marosim nomlari ham sanab o‘tiladi. Aytish joizki, to‘y marosim nomlari va ularning lingvomadaniy xususiyatlari gar bir xalqning madaniy holatidan kelib chiqqan holda belgilanib, ularning nomlarida ham o‘ziga xos jihatlar mavjud. To‘y marosim nomlarining qaysi hududga mosligi geografik joylashuv nuqtayi nazaridan ushbu maqolada izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, etnografizmlar, to‘y, marosim, nikoh, aqiqa, beshik to‘y, sunnat to‘y, milliy madaniyat, qadriyat, an’ana.*

Annotation*. This article describes the names of wedding ceremonies, their types and linguistic and cultural features and place. There is also detailed information about the peculiarities of the names of wedding ceremonies. In addition, the names of the ceremony are listed as a result of the wedding and the wedding procession. It should be noted that the names of wedding ceremonies and their linguistic and cultural features are determined by the cultural status of each person, and their names have their own peculiarities. This article explains the geographical location of wedding names.*

Keywords: *linguoculturology, ethnography, wedding, ceremony, marriage, aqeeqah, cradle wedding, circumcision wedding, national culture, values, traditions.*

Bugungi kunda har qanday til vositalariga muayyan bir xalq, millatning urf-odatlari, an’analarini aks ettiruvchi, milliy o‘zligini anglatuvchi ma’naviyatini belgilovchi omil sifatida qaralmoqda. Buning natijasi o‘laroq, XX asr o‘rtalarida tilshunoslikda ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishlari yanada kengayib, etnolingvistika, lingvokulturologiya, antoposentrik tahlil, psixolingvistika va boshqa shu kabi yo‘nalishlar vujudga keldi. Tilning insoniyat olami bilan bog‘liq jihatlari tadqiqotlar markaziga aylandi.

Ma’lumki, har bir milliy tilning o‘ziga xos takrorlanmas ma’no va mazmunga ega bo‘lgan lug‘aviy birliklari mavjud bo‘lib, uni xalq madaniyati urf-odatlari, o‘ziga xos bo‘lgan tafakkur tarzi va milliy-tarixiy an’analari bilan bog‘lab tadqiq etish o‘ta ahamiyatlidir. Barcha boshqa xalqlar singari o‘zbek xalqi ham o‘zining milliy madaniyati, urf-odatlari aks etadigan ko‘plab an’analariga ega bo‘lib, ular shu xalqning tarixiy taraqqiyotini, ma’naviy olamini aks ettiruvchi omillar sifatida tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. O‘zbek tilining milliy urf -odat, an’ana va marosimlar leksikasi dialektologik lug‘atlar, amaliy tadqiqotlar asosida tekshirilgan.

O‘zbek tili milliy an’ana va urf-odatlari, moddiy va ma’naviy madaniyati leksikasi maxsus etnografik planda N.Mirzayevning dissertatsiyasida o‘z aksini

topdi. Ushbu tadqiqot ma’lum hudud doirasida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, sohaga doir bir qator yangi tadqiqotlar uchun
asos bo‘la oldi. Tilshunos o‘zbek tili etnoleksikasiga oid dastlabki va yagona bo‘lib turgan lug‘atni yaratdi.

O‘zbek xalqi urug‘-qabilalarining turmush tarzi yashash sharoiti hamda faoliyatiga xos holda shakllangan to‘ylarning marosim an’analarini ifodalovchi etnografizmlar xalq tilida mohiyatan o‘zgarmagan, ammo turli shakl va sharoitlarda qo‘llanilib kelinganini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir. Xalqimizning azaliy ma’naviyati, madaniyatini o‘zida aks ettiradigan marosim etnografizmlaridan biri bu to‘y marosimidir. To‘y- o‘zbek tilida faqatgina ijobiy mazmundagi tasavvurlarni shakllantiradi. Uning barcha ko‘rinishlari ijobiy ma’no kasb etuvchi leksemalar bo‘lib, o‘yin- kulgu, xursandchilik, el-yurtga osh berish, mo‘l-ko‘lchilik, to‘kin-sochinlik kabilar bilan izohlanadi. O‘zbek tilshunosligida etnografizmlarni yozib olib o‘rganish ildizi bir ming yillikka tutash.

M.Qoshg‘ariy leksikolog, leksikograf sifatida ilk turkiy lug‘atni yaratdi. “Devonu lug‘atit turk” va undan keyin yaratilgan turkiy tilli lug‘atlar qadimdan turkiyshunos va boshqa xalq olimlarining diqqat e’tiborida bo‘lib kelmoqda. “Devon” turkiy tilshunoslikda leksikografiya sohasidagi ilk namuna hisoblanadi. M.Qoshg‘ariy XI asrda lug‘at va uning nazariyasi haqida arab tilshunosligi prinsiplaridan foydalanib, ilmiy ma’lumotlar yozib qoldirgan. Bu nazariya bevosita amaliyot bilan uyg‘unlashgan holda asarda o‘z aksini topdi. Olim ushbu asari bilan turkiy leksikografiyaga asos soldi va bu sohani yuqori bosqichga olib chiqdi. Asarda o‘sha davrdagi turkiy xalqlar tilida ishlatiladigan leksemalar jamlanibgina qolmasdan, “eski turkiy tillarning lug‘at boyligi etnolingvistik, lingvokulturologik, qiyosiy tipologik yo‘nalishlarda tadqiq etilgan”. Asarning “Lug‘at” qismida turkiy xalqlar, xususan, xalqimizning moddiy va nomoddiy madaniyati: to‘y, oila, qadimiy xalq o‘yinlari (asosan, bolalar o‘yinlari), turli urf-odatlar, irim-sirimlar, dehqonchilik va chorvachilikka oid kasbiy atamalar, har xil ijtimoiy faoliyat bilan bog‘liq etnografik nomlar keltirilgan va izohlangan. Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida *to‘y* atamasi qayd etilmagan. Biroq unda *todundi, to‘yundi, todg‘undi to‘zg‘urdi* kabi *tod* o‘zagidan yasalgan 18 ta leksema qayd etilgan. Shuningdek, Mahmud Koshg‘ariy “*sovchi-kelin va kuyov orasida bir-biriga xabar yetkazuvchi*” – deb yozadi. Asarda to‘y va u bilan bog‘liq jarayonlarni ifodalovchi quyidagi etnografik leksemalar uchraydi: egät (egat) – nikoh kechasi kelin yonida xizmat qiluvchi xotin, yanga , öŋük/öŋik (o‘nguk/o‘ngik) – popuk; yostiqning ipaklik quloqlari, bog‘ichlari; mündärü (mundaru) – ipaklar bilan bezatilgan kelin uyi; yöwüš (yo‘vush) – qarindoshlarga mol va kiyim bilan ko‘maklashish. Bu asosan, kelinlar to‘yonasiga

nisbatan qo‘llanadi. U qarindosh-urug‘larning unga atalgan hadyalaridir; yazïğčï (yazig‘chi) –qudalar orasida xat-xabar tashib yuruvchi, sovchi (o‘g‘uzcha); mamu (mamu)– nikoh kechasi kelin bilan birga yuboriladigan ayol, yanga ; qalïŋ (qaling) – qalin, sep.

Tilshunos olim Abdusamad Jo‘raboyev shu dalilga asoslanib *to‘y* so‘zi *to‘ymoq* fe’lining o‘zagi *to‘y*dan hosil bo‘lgan degan fikrni bayon etadi [Жўрабоев, 1971: 18]. Bu fikrlardan shuni anglash mumkinki, to‘y so‘zi keyinchalik iste’molda faol qo‘llangan bo‘lsa-da, uning ma’no anglatgan xususiyatlari bir necha asrga borib taqaladi.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda “to‘y ” atamasi turkiy so‘z bo‘lib, “qurultoy” yoki “to‘y” shaklida mo‘g‘ullar va chig‘atoy xonlari davrida ham keng tarqalgan. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “to‘y” so‘ziga quyidagicha izoh berilgan: ***“To‘y , ko‘pincha, bazm- tomoshalar bilan ziyofat berib o‘tkaziladigan ba’zi marosimlarning umumiy nomi.”***

O‘zbek tilshunosligida etnografik leksika to‘y marosimlarini ifodalovchi birlik sifatida tadqiq qilingan. Jumladan, A.Jo‘raboev Andijon guruh shevalari materiallari asosida to‘y marosimlari nomlarini ifodalovchi so‘zlarni tahlil qilar ekan, tilshunoslikning muhim nazariy va amaliy masalalarini ochib berishda etnografik terminologiyaning muhim o‘rni borligini qayd etadi. A.Jo‘raboyev o‘z ilmiy ishida to‘y leksemasi to‘g‘risida ma’lumot keltirib o‘tadi. Bu so‘z aslida “to‘ymoq” ma’nosini anglatuvchi ***tod/toz/doi/doj*** ning eng so‘nggi fonetik variantidir. To‘y marosim turlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ularning har biri o‘zining tarixi va tavsifiga ega. To‘y marosimlari orasida alohida o‘ringa ega bo‘lgan nikoh to‘yi oila deb atlmish muqaddas qo‘rg‘onning ilk poydevori hisoblanadi. Nikoh marosimi har bir xalqning o‘z milliy an’ana-yu urf-odatlari negizida milliy ma’naviyat ruhida yo‘g‘rilgan holda tashkil etiladi.

Nikoh to‘ylari rasm-rusumlarga boy bo‘lgani bois, shu rasm- rusumlarni ifodalovchi so‘zlar ham ko‘p: sovchilik, unashtiruv marosimi, to‘y yuborish, qiz bazmi, nikoh o‘qitish, nikoh kuni, kelin salom, chorlar(challari), qovurdoq bazmi, quda chaqiriq va hokazo shu kabilar. Bu lug‘aviy birliklar semantik jihatidan nikoh to‘yi harakati bilan bog‘liq urf- odatlarni ifodalaydi. [Хусайнова З. 1984:18]. Ushbu to‘y marosim nomlarining lingvomadaniy xususiyatlarini kengroq yoritish maqsadida Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani marosim nomlariga qisman to‘xtalsak.

Kasbi tumani viloyatning g‘arbiy hududida joylashgan bo‘lib, qadimiyligi XX asrning 70-yillariga borib taqaladi. Bu hudud to‘y marosim nomlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: aqiqa to‘y, beshik to‘y, sunnat to‘y, muchal to‘y, nikoh to‘y, qiz bazmi, fotiha to‘y, challari, kelin salom, (yuz ochdi, kelin ko‘rdi)…Bizda “betochar” deb ham yuritiladigan kelin salom marosimida kelin

tushirib kelingach, bir kun o‘tgandan keyin, kelinning oldiga chiqqan “ona”si ishtirokida kelinning yuzini ochiladi. Kelinning yuzini yopib turgan oq mato (kelin hamisha yosh boladek be’g‘ubor bo‘lsin degan ma’noda) yosh bola tomonidan olinadi. Shulardan ham ko‘rinib turadiki to‘y-marosimlarimizda bajariladigan har bir xatti-harakat faqatgina millatimizga xos va mos an’anadir. “Challadi”, “Challari” aslida chorlamoq fe’lidan shakllanib asrlar o‘tsa-da mohiyatini yo‘qotmagan ushbu marosim ham milliy madaniy qarashlarimiz mahsuli desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Challadi deyilmish bu marosim nikohdan so‘ng kelin va kuyov sharafiga har ikki qudalar, qarindosh- urug‘lar uyida o‘tkaziladigan birinchi chaqiriq [Жўрабоев, 1971: 39]. O‘zbek millatiga mansub jamiki insoniyat mavjudki, asrlar oshgan ushbu marosimlar haqida, shubhasiz, ma’lumotga ega.

Marosim nomlarining o‘zgarishi, etnografizmlarning o‘zga nom bilan atalishi, marosim mohiyatini anglatuvchi milliy mintalitetimiz, qadriyat-u an’analarimiz ham o‘zgardi degani emas. Ular zamon osha sayqallanadi va boyib boradi.

Har bir xalqning milliy madaniyati o‘zga xalqlarga qadimiy an’analari, urf-odat, rasm- rusumlari orqali ma’lum bo‘ladi. Bu borada lingvomadaniy xususiyatga ega bo‘lgan milliy o‘ziga xoslikni ifodalovchi lug‘aviy birliklar ahamiyatlidir. To‘y marosim nomlari bilan bog‘liq lingvomadaniy birliklar etnografik leksikaning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu madaniy birliklar xalqning ruhiy hamda ma’naviy olamining yorqin ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзаев Н. Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати. – Тошкент: 1991.
2. Жўрабоев А. Ўзбекистонда тўй-маросим номлари (Андижон группа шевалари материаллари асосида) филол. фан.ном...дисс. – Тошкент: 1971.
3. Хусайнова З. Ўзбек тилида тўй маросимлари атамаларининг ономасиологик тадқиқи (Бухоро шевалари материаллари асосида). Филол. фан. ном... дисс. – Тошкент, 1984.
4. Исмоилова О. Ўзбек тўй маросим фольклорида “Келин салом” жанри. Филол. фан. ном... дисс. автореф. – Тошкент, 1999.
5. Амонтурдиев Н.Р. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) Термиз, 2021.

5-SHU‘BA
DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, TOPONIMIYA VA TERMINOLOGIYA

XORAZM SHEVALARI LEKSIKASIDAGI OMONIM SO‘ZLAR XUSUSIDA

(Xiva shevalari misolida**)**

Norboyeva Shukurjon Xaitboyevna,
Urganch davlat universiteti dotsenti,
Allaberganova Sevinchoy Rashidovna,
Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm o‘g‘uz shevalari leksikasidagi omonim so‘zlar xususida fikr yuritilgan bo‘lib, ularning ma’no xususiyatlari keltirilgan misollar asosida ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lahja, sheva, omonim, polisemiya, frazeologik birikma.*

Annotation. *The article deals with the homonymous words in the lexicon of Khorezm Oghuz dialects and explains their semantic features on the basis of the given examples.*

Key words: *dialect, dialect, homonym, polysemy, phraseological compound.*

Odatda, so‘zlar aytilishi, yozilishi va ma’nolarini qiyoslash natijasida turli guruhlarga bo‘linadi. Bir xil aytilib yoki yozilib, turli ma’nolarni ifoda qiluvchi so‘zlar omonimlar deyiladi [Содиқов, 1981:103].

O‘zbek tili leksikasidagi so‘zlar ham turli shakl va ma’no munosabatini ifodalab keladi. Masalan, *oq* so‘zining rangni (oq ko‘ylak), oqmoq harakatini (oqar suv) ifodalovchi ma’nolari bor. Bundan tashqari, *oq qilmoq* frazeologik birikmasi tarkibida ham oq so‘zi mavjud bo‘lib, u arabcha “sarkash, o‘jar, itoat qilmaydigan” kabi ma’nolarni bildiradi. Kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari orasida ham yuqorida keltirilgan so‘zlarga shaklan teng keluvchi – oq yuklamasi mavjud (keliboq). Bu esa oq so‘zining omonimlik, ya’ni shakldoshlik xususiyatini ochib beradi. Tildagi bunday so‘zlar omonimlar yoki shakldosh so‘zlar sifatida tasnif qilinadi.

Biz adabiy tildagi omonimiya hodisasiga juda ko‘p guvoh bo‘lganmiz, albatta. Biz ushbu ishimizda esa shakldoshlik hodisasining shevalarda, xususan, Xorazm shevalarida qo‘llanish xususiyatlari haqida fikr yuritamiz.

Xorazm o‘g‘uz shevalari o‘zbek shevashunosligida ma’lum darajada o‘rganilgan [Мадраҳимов, 1999], lekin bu kabi ishlarda omonimiya hodisasi haqida to‘xtalinmagan. Biz Xorazm o‘g‘uz shevalari, xususan, Xiva shevasiga mansub ayrim omonim so‘zlarning izohini quyidagi jadvalda aks ettirishimiz mumkin:

T/r	So‘z	Izoh
1	azg‘ïn (ozg‘in)	I. Oriq, badaniga et bitmagan II. Qovunning bir turi.
2	azïq (oziq)	I. Ozuqa II. Saboq III. Yallig‘langan
3	a:ya (oyo)	I. Kaft II. Ayamoq III. Oyga (jo‘nalish kelishigidagi ot)
4	aralamaq (orolomoq)	I. Ajratib qo‘ymoq II. Yaqinlashib bormoq
5	äyär (ayar)	I. Egar II. Agar
6	äläm (alam)	I. Bayroq II. Alam (dard-u alam)
7	biläk (bilak)	I. Bilak II. Bilag‘on
8	vag‘lama (vog‘lomo)	I. Jo‘shqin II. Mo‘l-ko‘lchilik III. Shovqin-suronli IV. Sho‘rvaning bir turi
9	vazziq (vozziq)	I. Qumda o‘sadigan giyoh II. Tez yonib ketadigan mayda novdali har qanday buyum III. Qalin va yumshoq non
10	güpsär (gupsar)	I. Suvda suzish uchun shishirilgan teri II. Og‘ir vaznli
11	dag‘ (dog‘)	I. Tog‘ II. Dog‘
12	damaq (domoq)	I. Ovqat II. Tomoq
13	dänä (dana)	I. Kashnich II. Don

14	däräk (darak)	I. Terak II. Xabar III. Qarashli
15	derya (deryo)	I. Daryo II. Childirma
16	yanïq (yoniq)	I. Ishga chaqqon II. Baxil
17	kar ätmäk (kor atmak)	I. Ta’sir etmoq II. Kasb qilib olmoq
18.	qayïsh (qoyish)	I. Xamir ovqat II. Kamar
19	qat (qot)	I. Xona II. Qat, qavat
20	nag‘ma (nog‘mo)	I. Noz, ishva II. Kuy
21	ovushmaq (o‘vushmoq)	I. Achishmoq II. Qayg‘urmoq
22	ör (o‘r)	I. Yuqori, baland II. O‘jar
23	pay (poy)	I. Bay-bay (undov so‘z) II. Ulush III. Juft narsaning bir bo‘lagi
24	pechäk (pechak)	I. Parvarda II. Chirmovuq
25	tärs (tars)	I. Teskari II. O‘jar
26	üzim (uzim)	I. O‘zim II. Uzum
27	chäkmäk (chakmak)	I. Tortmoq II. Tarqatmoq III. Chekmoq
28	chataq (chotoq)	I. Pachava II. Aldoqchi, pand beruvchi

Omonimlar qaysi so‘z turkumlaridan bo‘lishiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi:

I. Bir so‘z turkumiga tegishli omonimlar:

bayroq (ot)

äläm (alam)

dard-u alam (ot)



II. Turli so‘z turkumlariga tegishli omonimlar:



Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, adabiy tildagi kabi shevalarda ham omonimlarni ko‘p ma’noli (polisemantik) so‘zlardan farqlash kerak. Xususan, Xiva shevasidagi “älämäk” (alamak) so‘zi adabiy tildagi “elamoq” ma’nosida ishlatiladi. Ammo xalq orasida bu so‘z ko‘chma ma’noda “g‘iybat qilmoq” demakdir. Xiva shevasida bunday so‘zlarga talaygina misollar keltirish mumkin:

T/r	So‘z	O‘z ma’nosi	Ko‘chma ma’nosi
1	gämirjäk (gamirjak)	Kemiruvchan	Urushqoq
2	dasmal (dosmol)	Qozon yuvg‘ich	Laganbardor
3	jündik (jundik)	Qushning tumshug‘i	Achchiq tilli
4	maṇqa (mongqo)	Dimog‘ida gapiradigan odam	Anqov
5	yaṇsïlamaq (yongsilomoq)	Taqlid qilmoq	Masxara qilmoq

Ko‘rinadiki, omonimlik va ko‘p ma’nolilik hodisasi faqat adabiy tilga xos xususiyat emas, balki bu hodisa shevalar miqyosida ham keng tarqalgan, alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalardan hisoblanadi. Shu jumladan, Xorazm shevalari o‘g‘uz lahjasi leksikasiga xos bo‘lgan omonim so‘zlar ma’no xususiyatlari bilan boshqa shevalardan ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент, 1961.

2. Мадраҳимов О. Ўзбек тили ўғуз лаҳжасининг қисқача қиёсий луғати. – Урганч, 1999.

3. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977.

4. Содиқов А. ва бошқалар. Тилшуносликка кириш. – Тошкент, 1981.

XORAZM SHEVALARI LEKSIKASIDAGI AYRIM QURILISH TERMINLARI TADQIQI

Yusupova Gulnoza Umarjonovna,
Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi,
Sultonova Jayrona Doniyor qizi,
Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. *Maqolada Xorazm shevalari leksikasidagi ayrim qurilish sohasiga oid so‘zlar faktik materiallar asosida tahlilga tortilgan.*

Kalit so‘zlar: *kasbiy leksika, qurilish sohasi, termin, Xorazm shevalari, o‘zbek adabiy tili.*

Annotation. *The article analyzes some construction words in the lexicon of Khorezm dialects on the basis of factual materials.*

Keywords: *professional vocabulary, construction, terminology, Khorezm dialects, Uzbek literary language.*

Kasb-hunar leksikasi o‘zining uzoq tarixiga ega bo‘lib, bu tizimda qurilish sohasiga oid so‘zlar alohida o‘rin tutadi. Bu soha ham kasb-hunarning boshqa sohalari kabi o‘z tadqiq obyektiga ega bo‘lib, xalqimizning turmush tarzi, mehnat faoliyati, estetik didi, udumlariga, urf-odatlariga bevosita bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina sohalarni qamrab oladi. Ayniqsa, buni shevalar misolda yoritib berish orqali ushbu soha leksikasining o‘ziga xosliklari yanada namoyon bo‘ladi. Mazkur leksik qatlam turarjoy qurish uchun zarur bo‘lgan barcha tushunchalrni - leksik birliklarni o‘z ichiga olib, buni biz Xorazm shevalari misolida ko‘rib chiqamiz.

Xorazm xalqi o‘zining qadimiy urf-odati va an’analariga ega. Shuning uchun ham yerli aholi tilining lisoniy xususiyatlari boshqa sheva vakillaridan alohidalik kasb etadi. Qadimshunos olimlar S.P.Tolstov, I.V. Stebleva, Y.Zadixina, M. Sazonova, I.Jabborov, Y.G‘ulomovlar ham bu xalqning tarixini alohida qiziqish bilan o‘rganganlar. Akademik A.N.Samoylovich 1908- yilda Xivada bo‘lib, xalq tilidan ularning iboralarini, terma va ertaklarini yozib

qoldirgan. Y.D.Polivanov esa Xorazm bo‘ylab yurib, mahalliy xalq shevalarini ilmiy asosda o‘rgangan. Xorazm tarixining naqadar serqirra ekanligini ularning asarlari orqali teran anglaymiz.

Xorazm hududida qadimdan madaniyat taraqqiyoti e’tibori bilan turli bosqichda bo‘lgan juda ko‘p urug‘-qabilalar, xalqlar yashaganlar. Ularning o‘ziga xos etnogarfiyasi, madaniyati sheva leksikasida muhim iz qoldirgan. Xorazm shevalari leksikasidagi qurilish sohasiga oid terminlar xususida ham shu fikrlarni bildirishimiz mumkin.

Mazkur soha imorat qurish jarayonida zarur bo‘lgan duradgorlik, temirchilik, qurilish materiallari, mehnat qurollari bilan bevosita bog‘liq leksik qatlamlardan tashkil topgan.

Qurilish leksikasida *tarash käpchä*, *gűltarash, xumra, äpänäk, atlama, temir yilmala, ag‘ach yilmala, kasaki, xandakchi, pesh (bir pesh loy, pesh qayuv)* kabi minglab so‘zlarni uchratishimiz mumkin.

“Til ijtimoiy hayotning o‘ziga xos borometri” [Дешериев, 1977:8] ekan, qurilish leksikasidagi mavjud leksik qatlam o‘zbek adabiy tili va uning shevalari lug‘at tarkibida asrlar davomida yashab kelmoqda.

Xorazm shevalarida uchraydigan ko‘pgina so‘zlar qadimgi turkiy yozma yodgorliklar, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Alisher Navoiy, Bobur asarlari tili, hozirgi qoraqalpoq, qozoq, turkman va boshqa turkiy xalqlar tillarining lug‘at boyligida ham qayd qilinadi: *kötärgi, ämbär, kärvűch*- g‘isht, *chökkich* - balg‘a, *qapï* - eshik, *ul*- fundament, *qïrg‘ï* - randa va b.

Bulardan *kötärgi* (trap), *qïrg‘ï*, *irändä* (randa), *chökkich* (bolg‘a), *qapï* (eshik) shakllarida qisman fonetik o‘zgarishlarga uchragan holda “Devon”da ham qayd qilinadi. Xuddi shunday XV asr o‘zbek tilida ham *uy, olachuq, xisht, ayvon, ravoq-ayvon* [NAL.II, 1983: 36,595,483,623,657] kabi qurilish terminlari uchraydi. Chunki Navoiy asarlari leksikasida kasb-hunarga oid so‘z-terminlar benihoya ko‘pdir [Иброҳимов, 1972:16].

Demak, qurilish terminlari o‘zbek adabiy tilining tarixiy yozma yodgorliklaridagi kabi o‘zbek tili shevalarida ham xalqimiz tarixi bilan barobar paydo bo‘lib, taraqqiy qilib yashab kelmoqda.

Jamiyat taraqqiyoti, xalqimizning turmush tarzi bilan bog‘liq holda turar joy bilan bog‘liq yangi so‘zlar kirib keldi. Masalan: *sement, aliybastr, katteʒ, temir biyton, pli:ta, domkambi:nat, kalxozstroy, qurilish bashqarmasï, Minselxozstroy* kabi minglab lug‘aviy birliklar rus tili orqali Yevropa tillaridan o‘zlashdi.

Qurilish leksikasi bilan bog‘liq o‘z va o‘zlashgan lug‘aviy birliklar o‘z navbatida bir necha leksik-semantik guruh (LSG)ni tashkil etadi. Bular: 1) turarjoy va uning qismlari nomlarini bildiruvchi LSG; 2) qurilish materiallari,

binokorlikda ishlatiladigan qurol-asbob nomlarini bildiruvchi LSG; 3) kasb egalari, mehnat jarayoni nomini ifodalovchi LSG; 4) qurilish leksikasida o‘zlashgan LSG va b.

Xorazm shevalari qurilish leksikasida yashash, hayot kechirish o‘rni, xizmat o‘rni kabi umumiy ma’nolarda ishlatilatiladigan so‘zlar mavjud: *ǯay saldï, űy qurdï, pïlan pichti, qazïq qaqdï, ǯay onnï aldï* kabilar. Bu holat o‘zbek adabiy tilida ham mavjud bo‘lib, ta’kidlangan ma’noda bino, joy, uy, imorat kabi to‘rtta so‘z o‘zaro sinonimik ma’noda ishlatiladi. Bulardan bino, imorat, katta uy, joy va uy yashash, hayot kechirish kabi turarjoy ma’nolarini bildiradi [O‘zTIL, I-II, 2020:115, 325, 284, 285].

Mazkur atamalardagi shunday vazifani ayrim turkiy tillarda ham uchratamiz: turkman: *tam, jay, bina* (TRS. 98,318,616); qqlp.: *jay:űy* (KKRSL, 221)

Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, bino, imorat nomlari sheva vakillari nutqida birmuncha arxaiklashgan. *Jay, űy* so‘zlari sheva vakillari nutqida faol ishlatiladi.

Bundan *űy* termini o‘rganilayotgan obyektda joy, imorat, bino, xonadon ma’nolariga ham ega: *bag‘alardïŋ űyinä ketti; balanï öyinä getti; qoŋshïnï öyini ïriymot ätäpmän; här kim öyinä biy, ǯora!*

Turar joy qismlarini ifodalovchi LSG:

Dïrnaq– poydevor, rus. fundament-imoratning asosidir. Tarixan ayni ma’noda *ul* so‘zi ishlatilgan. U devor va uylarning poydevori deb izohlangan: *tam ulï - devor poydevori* (Қошғарий, I, 1960: 245-301)

Tabiiyki, yashash joylarimiz kabi uning qismlari ham tarixan materialiga ko‘ra turlicha nomlangan. Masalan: *laydïrnaq, qamïšdïrnaq, yag‘ach dïrnaq, dashtïrnaq* kabilar. *Hazïrqïday sement, shebonkälär bolma:anlïqtan jaylara qamïšdïrnaq, yag‘ačdïrnaq salanlar*. Qiyoslang: qqlp. *fundament* - poydevor bino, inshoot yoki ularning ayrim qismi ostiga tayanch uchun qo‘yilgan asos; tosh poydevor ustun, poydevor: ... poydevoriga pishiq g‘isht, boshqasiga xom g‘isht qo‘yib qo‘ya qolsalaring nima bo‘ladi? [O‘zTIL, I, 2020:595].

q a n a t - joyning to‘rt tomoni: orqa qanat, kumbatar qanat, gűnchïqar qanat: *kömäkchilä azraq voldïmï diymän, jaynï uč qanatï bittida:in bir qanatï chala bop qaldï. (Xnq, Qkpr.)*

p a x s a devar – pishitilgan loydan usma-ust bosib qurilgan devor va uning har bir qatori: *Ustanïŋ iräǯǯäsinä görä äyvan vinän zal besh paxsadan, dalan uch paxsadan bastïrïladï (Gurl, Yangb.); här paxsada bir kömäk vosa ǯay degän bitävärädi. (Gurl, Yangb.)*

Däliz (dahliz)-uyning kiraverishidagi birinchi xona: *Däliz tar volmasïn, usta, oŋa kiyim asatug‘ïn qoyarmïz, axïr. (Gurl.)*

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Xorazm shevalari kasb-hunar leksikasi tizimida qurilish sohasi bilan bog‘liq terminlar ham alohida o‘rin tutib, ular shu hududning lisoniy xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4 жилдлик - Тошкент, 1983-1985.

2. Дешериев Ю.Д. Социальная лингвистика. - Москва, 1977.

3. Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. - Тошкент, 1972.

4. Маҳмуд Қошғарий Девону луғотит турк. 3 жилдлик. – Тошкент, 1960-1966.

5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-V жилдлар. - Тошкент, 2020.

“QORA” LEKSEMASI ISHTIROK ETGAN AYRIM TOPONIMLAR HAQIDA

Abduraxmonova Gulshan,
ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolamizda qora so‘zi ishtirok etgan joy nomlari xususida to‘xtalamiz. Respublikamizning turli hududlarida joylashgan ayrim tuman, mahalla, qishloq va ovullarning nomlari tarixi. Qora leksemasining bu hududlarda anglatadigan semalari qanday?*

Kalit so‘zlar: *qishloq, mahalla, qora, Qoraqishloq, Qoracha, Qoradayo, Qorako‘l, Qoraqamish, Qorasuv.*

Annotation. *In this article, we will focus on the names of places where the word black is used. History of names of some districts, mahallas, villages and auls located in different regions of the republic. What are the semantics of the black lexeme in these areas?*

Respublikamiz bo‘ylab sayohat qilar ekansiz, turli xil nomdagi tuman, shahar, malla, qishloq va ovullarga duch kelasiz. Nomlarning aynan o‘sha hududga atab qo‘yilishi bejiz emas, albatta. Shu nomlar (keyingi o‘rinlarda toponim) orasida bizning e’tiborimizni tortgani qora leksemasi ishtirok etgan toponimlar bo‘ldi.

Albatta, har bir qishloq, shahar, mamlakatlarning nomlanishi, dengiz, okean, daryolar, tog‘larning nomlanishi ma’lum bir ma’no, mazmunga ega. Shu jihatdan qishlog‘imizning Qoraqishloq deb nomlanishi to‘g‘risida bir necha yil

avval tarix kitoblarida o‘qib qolmagunimcha men ham keksalarimiz aytgan rivoyatdan boshqa biror bir ma’lumotga ega emas edim.

Qoraqishloq qishlog‘i, Ishtixon tumanida, Buyuk Ipak yo‘li o‘tgan hududda joylashgan. Bu yo‘l Toshkent, Samarqand, Buxoroga qatnovchi va ular orqali g‘arb bilan sharqni bog‘laydigan karvonlar, yaqin yuz yilliklargacha u yoqdan bu yoqqa tinimsiz o‘tib turgan.

Qoraqishloq qishlog‘i to‘g‘risida keksalarimiz tilida bir rivoyat bo‘lib, go‘yo bir vaqtlar to‘satdan bu hududda qishloq paydo bo‘lib qolgan emish va karvondagilar yangi paydo bo‘lgan qishloqni uzoqdan ko‘rib, ana u ko‘rinayotgan Qora narsa nima ekan deb qiziqishgan, keyin yaqinlashib kelib bilishsa, ko‘ringan Qora katta qishloq ekan. Shundan buyon bu joy “Qoraqishloq” deb atala boshlangan emish. Lekin: “Qora” so‘zi bilan bog‘lik bir qancha tarixiy faktlar mavjudki, ular haqida to‘xtalmasdan turib, qishlog‘imiz nomi, ma’nosini to‘liq anglash qiyin. VIII-IX asrlarda arablar Qora dengiz atrofidagi hududlarni bosib olganlarida, Qora dengizni bosib oldik deya, keyinchalik Qorako‘lni (Zarafshon daryosining kuyilishidan hosil bo‘lgan Buxoro viloyatidagi ko‘l) bosib olganlari to‘grisida xalifalikka, Arabistonga xabarnomalar jo‘natishgan.

“Qora” so‘zi keng, ulkan, katta, buyuk degan ma’nolarini va yana boshqa ma’nolarni ham anglatadi [Haqqulov]. Qorako‘l nomi ham aynan ko‘lning keng va katta ekanligi bilan bog‘liq. Qora dengizning ham qora rangga aloqasi yo‘q bo‘lib, bu dengiz juda ulkan hududni o‘z ichiga oladi. Qadimgi turkiy tilda “qara” shaklida ishlatilgan. Jumladan “Qora mol”- katta, shoxli mol, rangi qora mol emas, “Qora qozon” - to‘y marakasi bir bo‘lgan 2, 3ta qo‘shni qishloqlar. (rangi Qora qozon emas, balki - katta to‘y qozon) “Qorasuv”,- sersuv katta ariq va h.k. Qoraqum, Qoraqamish, Qoradaryo, Manglayi Qora iboralari ham o‘sha davrlardan yetib kelgan bo‘lsa ajab emas.

Qoraqishloq qishlog‘i Respublikamizning turli viloyatlarida mavjud. Bunday nomdagi qishloqlar asosan dehqonchilikka qulay hududlarda joylashgan. Olimlarning ta’kidlashlaricha qayerda Qoraqishloq qishlog‘i bo‘lsa, o‘sha joylarda aholi ko‘p bo‘lgan va bu joylarda tepalar ham ko‘p bo‘lgan. Bu hududda yashovchi har bir urug‘, har bir sulola o‘zlari bunyod etgan tepalariga ega bo‘lgan. Bu tepalar urush, bosqinchilik, suv toshqinlari sodir bo‘lganda qal'a, qo‘rg‘on vazifasini o‘tagan. Ular xavf to‘grisida tepalarga gulxanlar yoqib bir birlarini ogohlantirishgan. Ular yana tepa etagiga tuproq tashib yassi tepaliklar ham barpo qilishgan va bu tepaliklarda to‘y, va boshqa marosimlarini o‘tkazishgan. Bundan tashqari, tepalikning bir chetiga har bir urug‘ o‘zlariga tegishli mayitlarini ko‘mishgan. Urush paytlari, bosqinchilik sodir bo‘lganda ular tepalarga chiqib ketishgan.

Bugungi kunda Qoraqishloqliklar istiqomat qilayotgan hududda 7-8 ta tepalar mavjud ekan. Ularning ko‘pchiligi o‘z nomiga ega. Jumladan: “Kindikli tepa”, “Qo‘shtepa”, “Biytepa”,“Changaltepa”, “Chorshanbatepa” va h.klar.

Qorako‘lni tarixda Paykent, Baykand va Qorako‘l deb ham atashgan. Bir necha ming yillik „Zamon bobo“ madanyati ham Paykentda joylashgan. Paykent Islom dini kirib kelishidan oldin Turk xoqonliklari davrida saltanat markazlaridan bo‘lgan. Arab tilida „p“ harfi mavjud bo‘lmagani uchun uni Arab manbalarida „Baykand“ deb atay boshlashgan. An-Narshaxiy (X asr da yashab ijod qilgan tarixnavis olim) Paykent haqida quyidagicha yozadi: Baykant (Paykant) — buni shaharlar jumlasidan deb hisoblaydilar. Baykant aholisi biron kishini Baykantni qishloq deb atashiga rozi bo‘lgan emas. Baykandda katta Masjidi-Jome’ va oliy imoratlar bo‘lgan. 240-hijriy (milodiy 854-855) yilgacha Baykant darvozasi oldida ko‘p rabotlar bo‘lgan. Baykant aholisini hammasi savdogarlar bo‘lgan. Ular Xitoy bilan va dengiz bilan boradigan mamlakatlar bilan savdo qilishgan, juda boy bo‘lishgan. Qutayba ibn Muslim Baykand juda mustahkam bo‘lgani uchun olishga juda qiynaldi. Arslonxon Muhammad ibn Sulaymon o‘z davrida Baykantdni qayta qurishni buyuradi, ko‘plab oliy imoratlar va Xoqon (Arslonxon) uchun juda hashamatli saroy qurildi. Baykandda juda ko‘plab qamishzorlar va suv xaqoblari tutashgani uchun uni „Keng havza“ deganlar, Qorako‘l ham deb atashgan. Qorako‘ldagi ko‘plab tarixiy obidalar mustabid Qizil imperiya davrida vayron qilindi. 1926-yil 29-sentabrda Buxoro viloyati tarkibidagi tuman sifatida Qorako‘l tumani qayta tashkil qilindi.

Qoracha toponimi turli viloyatlarda uchraydi. Shulardan biri Samarqand viloyati Ishtixon tumanida joylshgan “Qoracha” qishlog‘i bo‘lib, qora rangga aloqasi bor yoki yo‘qligini tekshirib ko‘rganimizda “O‘zbek tilining izohli lug‘atida” qoracha so‘ziga bir nechta ta’riflar berilgan.

Masalan: 1. Qoraga moyil; qorato‘r(i), qoramag‘iz. Shu payt eshikdan qorachadan kelgan bir bolakay kirib keldi.

2. *tar*. O‘rta asrlarda aholining zodagon bo‘lmagan tabaqasi.

3. *etn.* Ayrim turkiy xalqlarda urug‘ nomi (masalan, o‘zbeklarning qatag‘on, laqay, qirq, saroy qabilalari tarkibida qoracha urug‘i bo‘lgan).

Bundan kelib chiqadiki, qorachaning urug‘ ma’nosi toponimga ko‘proq mos keladi. Bu nomdagi qishloqlar respublikamizning turli hududlarida uchrashi yuqoridagi fikrimizga isbot bo‘la oladi. Chunki, o‘zbek urug‘lari yurtimizning turli hududlariga tarqalib ketgan.

Rus tilshunos olimi A.Kononov qora so‘zining ma’nolarini tadqiq etib, ushbu so‘z bilan «katta», «yirik», «muhtasham», «ulug‘», «qudratli», «kuchli», «pokiza», «musaffo», «quruqlik», «yer», «zulmat ko‘ki», «shimol» kabi mazmunlar ifodalanganligini ko‘plab misollar vositasida izohlab bergan. Uning

keltirishicha, A.Ja’far o‘g‘li «Kitobi Dadam Qo‘rqut» dagi qahramonlarning nomidagi qora sifatlashini jasorat va kuchlilik sinonimi, deb ta’kidlagan[Haqqulov].

Qora leksemasining ko‘chilikka ma’lum bo‘lgan salbiy semalari, qorong‘ulik, qo‘quv, daxshat, yovuzlik kabilaridan tashqari, ijobiylikni ifodalovchi katta, keng, ulkan, buyuk singari ma’nolarni ham anglatishi haqida ayrim toponimlar misolida qisqacha keltirib o‘tdik. Xulosa qilib aytganda, qora leksemasi tukiy xalqlarda qadimdan ijobiy ma’nolarda qo‘llanilib kelingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haqqulov I. Yana qora rang talqini haqida maqolasi. www.kh-davron.uz
2. Matyoqubova T. Alisher Navoiy hayoti va ilodi.—Toshkent,2009.-B.64.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-Тошкент, 2008.-B.340.
4. Ўтанова С. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т.: 2007, 11 б.
5. Шомақсудов Ш, Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома.-Тошкент,1990.- Б.496.

6-SHU‘BA
O‘ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI

O‘ZBEKISTONDA ISTIQOMAT QILAYOTGAN “XO‘JA” URUG‘MI YOKI DINIY UNVONMI?

Ibragimova Zamira,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti
zamira7070@mail.ru,
Hodiyeva Muhayyo,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
o‘zbek filologiyasi 3-kurs talabasi
muhayyosaidova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek urug‘laridan bo‘lan xo‘jalarning kelib chiqishi haqida ma’lumot bermoqchimiz, chunki tarxiy manbalarda keltirilishicha, xo‘jalar o‘zlari makon qilgan eldagi millatlarga qo‘shilib, shu xalqning urf-odatini, dasturlarini qabul qilib, xalq orasiga to‘liq singib ketadilar va shu millatning xo‘jasi bo‘lib atalganlar. Shuningdek, O‘zbekiston hududida mavjud bo‘lgan xo‘ja urug‘ nomlarining tarixiga oid ma’lumotlarga oydinlik kiritishga harakat qildik.*

Kalit so‘zlar: *urug‘lar, elatlar, qabila, millat tarixi, etnografiya, targ‘ibot qilish, etnogenez, xalq.*

Annotation: *In this article, we want to provide information about the origin of the Khojas of Uzbek descent, because according to historical sources, the Khojas joined the nations of the land where they lived and adopted the traditions and programs of this people. Thus, they are completely absorbed into the people and are called the masters of this nation. We also tried to clarify the information on the history of the names of khoja clans in the territory of Uzbekistan.*

Keywords: *generations, ethnicities, tribes, nations, history, ethnography, information, propaganda, ethnogenesis, people.*

Ma’lumki, turkiy xalqlarning urug‘ va qabilalari nomlari haqida “O‘rxun Enasoy” yodgorliklari, M.Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk”, Rashididdin-Fazlulloh Kazvaniy (Hamadoniy)ning “Jome-at tavorix”, Alisher Navoiyning “Chor devoni”, “Xamsa”, “Muhokamatul lug‘atayin”, Mirxondning “Ravzatus-Safo”, Sharofiddin Aliy Yazdiyning “Zafarnoma”, Zahriddin Muhammad Boburning “Boburnoma”, Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Abulg‘ozi

Bahodirxonning “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima”, H.Vamberiyning “O‘rta Osiyo bo‘ylab boshqirt sayohat”, N.Xanikovning “Buxoro xonligining tavsifi”, shuningdek, V.V.Bartold, V.V.Radlov, A.P.Xoroshkin, N.A.Aristov, A.Y.Yakubovskiy. S. P.Tolstov, L.S.Tolstova, T.A.Jdanko, V.G.Moshkova, Ya.G‘ulomov, B.Axmedov, X.D.Doniyorov, S.K.Kamalov, A.N.Yagodin, M.Mambetullayev, G‘ozi Olim Yunusov, V.V.Reshetov, K.Shoniyozov, X.Esbergenov va boshqa tarixchi, arxeolog, etnograf, tilshunos olimlar hamda shoirlarning asarlarida juda ko‘p ma’lumotlar berilgan (Ибрагимова, 2005:58).

Turkiy xalqlarning, jumladan o‘zbek xalqining qabila va urug‘larga bo‘linishi to‘g‘risidagi eng dastlabki ma’lumotlar tilshunos olim Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida qayd etilgan. Uning guvohlik berishicha, turklar aslida yigirma qabiladir... Har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha urug‘lari bor. Men bulardan asosini, ona urug‘larini yozdim, shaxobchalarini tashladim. Bular bajanak (pechenek), qipchoq, o‘guz, yamak, basmil, qay, yaboqu, tatar, qirg‘iz, chigil, tuzdi, yag‘mo, ig‘rok, yoruq, yumul, uyg‘ur, tang‘ut, xitoy, tovchog‘ (Koshg‘ariy, 2020:61).

Tarixiy manbalardan ayonki, O‘zbekiston hududida balki butun O‘rta Osiyo hududlarida 92 o‘zbek urug‘lari tarqalgan. O‘zbeklar O‘rta Osiyodagi eng qadimiy xalqlardan sanaladi. Yer yuzidagi barcha millatlar, elatlar, qabilalar singari, o‘zbek ulusi va uning ko‘p sonli urug‘-aymoqlari mavjud bo‘lgan. O‘zbekistonning turli hududlarida bir qancha xildagi o‘zbek urug‘larining nomlari mavjud. Masalan: Qashqadaryo, Surxondaryo tomonlarda “*eshon”* lar, “*xo‘ja”* lar, Vodiy taraflarda “*to‘ra*” lar kabi urug‘ nomlari mavjud.

Xo‘jalar - O‘rta Osiyo xalqlariga islom dini ta’limotini targ‘ibot qiluvchi payg‘ambar avlodlari bo‘lib hisoblanadi. Tarixdan ma’lum bo‘lishicha, islom dindorlari IX-X asrlarda O‘rta Osiyo xalqlariga islom dinini kuch bilan kiritadi. Keyinchalik xalq avval o‘zlari ishonib kelgan dinlarga nisbatan, islom dini odilligini tushunib yetadi va islom diniga e’tiqod qiladi. Shunday bo‘lsa ham islom ta’limoti olis ovullarga va kichik shaharlarga hali to‘liq yetib borib ulgurmagan edi. Shu sababdan arab hukmdorlari O‘rta Osiyo mamlakatlariga bir necha minglab o‘z vakillarini dinni targ‘ibot qilish, Qur’oni Karimni o‘rgatish maqsadida yuboradi. Ular Muhammad payg‘ambar avlodlaridan bo‘lgan xo‘jalar edi. Ular barcha ovul-shaharlarga taqsimlanadi, shu yerdagi aholiga, ular “shu ovulning Xo‘jasi” deb tanishtiriladi. Xo‘jalarning O‘rta Osiyoga kelishi XI-XII asrlarga to‘g‘ri keladi.

Xo‘jalar o‘zlari makon qilgan eldagi millatlarga qo‘shilib, shu xalqning urf-odatini, dasturlarini qabul qilib, xalq orasiga to‘liq singib ketadilar va shu millatning xo‘jasi bo‘lib ataladilar. Masalan, qoraqalpoqlar bilan aralashib yashaganlar - qoraqalpoq xo‘jasi, o‘zbeklar bilan aralashib yashaganlar -

o‘zbekning xo‘jasi, qozoqlar bilan aralashib yashaganlar - qozoqning xo‘jasi, turkmanlar bilan aralashib yashaganlar - turkmanning xo‘jasi bo‘lib ataladi. Shular orasida o‘zbeklar bilan yashagan xo‘jalar, so‘rashmasdanoq nomidan belgili bo‘lib turadi. Chunki ularning ismiga “*xo‘ja*” so‘zi qo‘shib aytiladi. Masalan: *Islom xo‘ja, Bo‘zruk xo‘ja, Avaz xo‘ja* va h.k. Shuningdek, o‘zbeklar xo‘jalarga murojaat qilganida ularga **“*eshon*”** deb hurmat ko‘rsatadi. Qoraqalpoqlardagi yoshi katta ulamolarga “*taqsir eshon*” deb murojaat qilishi balki, shuning ta’sirida kelib chiqqan bo‘lsa, ehtimol.

Qoraqalpog‘istonda xo‘jalarning Seyit, Xo‘roson, Bak-seys, Qilichli (katta urug‘lar) Sabilt, Mirzo, Abulqay, Avliyo Qaragan, Ko‘mir Sichqon, Jao‘ir Qarag‘an (tiralar) guruhlari yashaydi. Ammo, biz yuqorida ko‘rsatgan katta urug‘ va tiralar ilmiy asosda isbot qilinmagan.

Navoiy viloyatidagi xo‘jalarda “ko‘tara xo‘ja” degan urug‘ bor. Bu balki xo‘jalar tig‘iz o‘tirgan ovulga, “bu ovulda ko‘tara xo‘jalar o‘tiradi” degan ta’riflar natijasida kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Lekin rus olimi T.A.Jdanko tuzgan qoraqalpoq urug‘lari jadvali “ko‘tara xo‘ja‘‘ni qaychililar[9]dan deb yozib qo‘yibdi. Ammo Qoraqalpog‘istonda yashaydigan qaychililarning ichida “***ko‘tara xo‘ja***” degan turi uchramaydi.

Biz ayrim shajara va ilmiy tadqiqotlarga tayanib xo‘jalar Muhammad payg‘ambarning o‘zidan va qizidan (Hazrati Ali va Bibi Fotima) bo‘lgan avlodlari degan fikrga kelamiz(Низанов, 2020:195).

Xo‘jalar o‘zi kimlar? **Xo‘ja** - (forscha-hurmatli, obro‘ - e’tiborli kishi; xo‘jayin, sohib, savdogar, murabbiy) - degan ma’nolarni anglatadi. Turli Islom mamlakatlarida turlicha ma’nolarda ishlatilib kelingan faxriy unvon va murojaat shakli. Bir qator hozirgi arab mamlakatlarida *xavoja (xuvaja)* - savdogarlar, birinchi navbatda nomusulmon savdogarlarni anglatadi hamda nomusulmonlarga nisbatan muomalaning yumshoq shakli. Boshqa manbalarda xo‘jalar arablarning fathiy yurishlarida boshchilik qilgan sarkardalarning avlodlari deb hisoblanadi. Xo‘jalar islomda oqsuyaklar tabaqasi sifatida sayidlardan keyin turib, imtiyozlarga ega bo‘lganlar. Ba’zi musulmon mamlakatlarida hozir ham ularning imtiyozlari saqlanib kelinmoqda. O‘rta Osiyoning siyosiy va iqtisodiy hayotida xo‘jalar katta nufuzga ega bo‘lganlar, hamda juda katta yer va mulkka egalik qilganlar (Ислом Энциклопедияси, 2004:318). Islom dinini birinchi bo‘lib bo‘lib qabul qilgan yerli xalq vakili, islomni O‘rta Osiyoga yoygan (targ‘ib qilgan) arablar avlodidan tarqagan shaxs (Ҳозирги ўзбек тили фаол сўзларнинг изоҳли луғати, 2001:287). Xorazmda xonlar o‘ng tomonlariga xo‘ja urug‘iga mansub odamlarni o‘tirg‘izishgan. Xo‘jalarni oq [aq] xo‘ja deb ulug‘lashgan.

[9] qaychili – qoraqalpoq urug‘laridan biri

Xalq nutqida “*Oq xo‘janing oqligi”* [*aq xo‘janing aqligi*], - degan kinoya ham mavjud, bu kinoyaning mazmuni xo‘jalar nima ish qilmasin “to‘g‘ri” deganidir.

Sayyid - qabila boshlig‘i, janob, rahbar. Ular musulmon jamiyatida imtiyozli ijtimoiy tabaqani tashkil qilib, dindorlar orasida katta obro‘-e’tiborga ega bo‘lishgan. Xalq sayyidlarni ko‘pincha avliyolar qatoriga qo‘ygan. Avliyo ayollarni *sayyida* deb atashgan. *Sayyid* istilohi musulmon hukmdorlarning rutbalarida keng qo‘llanilgan (*Ислом Энциклопедияси,* 2004:257). Agar sayyidlar boshqalardan qiz olsalar sha’ran aybdor bo‘lmaydilar. Ular oxiratda ham ma’lomat qilinmaydilar. Biroq ular nasldagi tenglik, nasabni pokiza saqlash uchun sayyid bo‘lmaganlarga qiz berishdan saqlanishlari afzaldir.

Eshon - bu birlik asli bir kishiga qarata hurmat ko‘rsatib aytiladigan *ular* olmoshi bo‘lib, keyinchalik kishilar orasida obro‘ qozongan ruhoniy ma’nosini anglata boshlagan (*Ўзбек тилининг изоҳли луғати,* 2006,2008:458).

Biz yuqorida ma’lumot bergan urug‘larning ham o‘z ichida bir qancha turlari bor. Xususan, Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani Oqqamish qishlog‘ida mavjud bo‘lgan urug‘ nomlarining tarixiga oid ma’lumotlar bu narsaga oydinlik kiritib beradi. Bu qishloqda *xo‘ja, qoracha, sayyid, eshon* kabi bir qancha o‘zbek urug‘larining nomlari mavjud. E’tiboringizga quyidagi qishloqning xo‘ja urug‘iga mansub vakili bilan o‘tkazilgan suhbat matnini berib o‘tishni joiz topdik:

1. G‘oziyev Shodi kasbi: o‘qituvchi, 1942-yil Kasbi tumani Oqqamish qishlog‘ida o‘zi bir vaqtlaram (ham) xo‘jalar bo‘lgan, qarachalar (qoracha) bo‘lgan. Xo‘jalarning hammasi oqsuyaklar bo‘lgan. Chunki, Amir Olimxon ham xo‘jalardan bo‘lgan. Xo‘ja G‘ijduvoniy, Xo‘ja Romitoniy, Xo‘ja Bahouddin Naqshbandiy kabi ko‘p kishilar xo‘jalardan bo‘lgan. Bari bilimli, ilmli kishilar bo‘lgan. Xo‘jalar ulug‘ odamlar bo‘lgan. Shuning uchun ham ularni iloji boricha hurmat qilishgan. Ularga xayr-u ehson berilgan.

Xo‘jalarning ham turlari bor: *Mirdasturi, Mirhusayni* va *Sayyidmirzoyi* kabi. Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani shevasida Bizani endi ko‘pi (ko‘pincha) Mirhusayni’ deyishadi. Ba’zilar “*Devonxo‘ja*” talaffuzda “*devonaxo‘ja*” - deb aytishgan. Ba’zida “*Valiy xo‘ja*” deb ham aytishgan. Buning sababi ular sodir bo‘ladigan voqea-hodisalarni bir oy yoki o‘n besh kun oldindan aytib bera olishgan. Shuning uchun ularga shunday nom berishgan. Yuqoridagi matnga nazar tashlasak, xo‘ja urug‘i va uning turlari haqida aytib o‘tilgan.

Tarixdan shu narsa ma‘lumki, xo‘jalarni ulug‘ insonlarga tenglashtirishgan va ularga bir qancha imtiyozlar berilgan. Shunday imtiyozlardan biri Xiva xoni tomonidan xo‘jalarga berilgan yorliq hisoblanadi:

…Xorazm saltanatining saroyidagi barcha amaldorlariga yozilgan yorlig‘imiz quyidagicha: “...saodatli Mustafo ya’ni Muhammad Mustafoning avlodlaridan Ashrafxonadan Murtazaviy, ya’ni Hazrati Ali Murtazaning

xonadonida bo‘lgan Sayid Hasan xo‘ja, Yoqub xo‘ja, Mansur xo‘ja, Qosim xo‘ja, Nurilla xo‘ja, Iskandar xo‘ja, Axmad xo‘ja, Fayzullo xo‘jalar bizning dargohimizga kelib, bizga olqishlar aytish marosimidan so‘ng, o‘zlarining tarxonliklari haqida o‘tgan podsholarning qilgan nishonlarini, nurli nazarimizga keltirib, bizdan qo‘l qo‘yib, imzo chekishni iltimos qildilar. Biz bu iltimoslarni qabul darajasiga yetkazib, yuqorida nomlari atalgan 8 ta xo‘jani avlodlari bilan tarxonlik nishoni bilan nishonladik. Endi bu yorliqning mazmunidan xabardor bo‘lganidan keyin bu xo‘jalarning avlodlari, nevara, chevaralari, og‘a va inilari bilan olish-berishlardan, qazish ishlaridan va boshqa majburiyatlardan chetda ekanligini anglab, barcha qalam egalarini, barcha amaldor qadamlarini tortib tursinlar. Nomlari zikr qilingan avlodlari bilan dunyoning barcha tashvishlaridan ozod holda, bizning umrimiz va davlatimizning ziyoda bo‘lishini tilab duo qilsin, deb tarix hijriy 1298 da Xivaning saltanatli saroyida shovul oyining 26 si da ilon yili bo‘lgan 1298-yili bu yorliq yozildi. Umumlashtirib aytganda, xo‘jalar va qoraqalpoqlarning hamma urug‘lari yashagan zamonlardagi bo‘linishlardan qutulib hamjihatlikda bir maqsad yo‘lida yashab mehnat qilayotgan katta xalqqa aylangan”(Низанов, 2020:193). Ushbu tarixiy ma'lumot orqali biz xo‘ja urug‘iga mansub odamlar va avlodlariga ko‘rsatilgan hurmat, e‘tibor va shu bilan bir qatorda ular uchun yaratilgan imkoniyatlarni ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizcha, ularni farovon davlat bunyod etishda xonning ishonchli va yaqin kishilari deb bilishgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, biz yuqorida faktik ma’lumot bergan urug‘larning ham o‘z ichida bir qancha turlari bor ekanligini isbotlashga harakat qildik. Xo‘jalar har bir turkiy millatlar orasida shu xalqning *xo‘ja*si bo‘lib sanalgan degan fikrga asoslandik. Misol tariqasida, O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida istiqomat qilayotgan xo‘jalar haqida qisqacha ma’lumot berishga harakat qildik. Shuningdek, Qoraqalpog‘istonda yashaydigan va Navoiy viloyati, Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani Oqqamish qishlog‘ida mavjud bo‘lgan *xo‘ja* urug‘ nomlarining tarixiga oid ma’lumotlarga oydinlik kiritib berdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ибрагимова З.Ю. Туркий этнонимлар адабий-тарихий манбаларда. Қарақалпақ халқының этногенези хәм этник тарийхы. Республикалық илмий-теориялық конференциясы материаллары (2004-жылдың 26-27-ноябрь кунлери). Нөкис, 2005. - Б. 58-59.

2. Ислом Энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти, 2004. - Б. 318.

3. Koshg‘ariy M. Devoni lug‘at-it turk. 1-jild. 2020. – B. 64

4. Низанов Муродбой. Қорақалпоқлар. – Нукус: Билим, 2020, - Б. 195.
5. Низанов Муродбой. Қорақалпоқлар. – Нукус:Билим, 2020. - Б. 201.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати II Том. –Тошкент: Ўзбек миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2006-2008. - Б. 458.
7. Ҳозирги ўзбек тили фаол сўзларининг изоҳли луғати. –Тошкент: Шарқ, 2001. - Б. 287.

O‘ZBEK VA QORAQALPOQ XALQLARINING DASTURXON ATROFIDA AYTILADIGAN IJOBIY ISTAK MAZMUNIDAGI SO‘ZLARI

Ibragimova Zamira Yuldashevna,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti
Yabbarbergenova Shadigul,
Lingvistika (o‘zbek tili) 2 kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari dasturxon atrofida aytiladigan ijobiy istak mazmunidagi so‘zlarni qiyosiy tahlil qiladi. Ikki xalqning bayram dastuxonlarida, marosimlarda ijobiy istak bildirish mazmunida qo‘llaniladigan so‘zlarni qiyoslab, tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *olqish, ijobiy istak, duo, tilak, nutqiy etiket, taom tanovuli, qut baraka, baxtli hayot kechirish, qo‘sha qarish.*

Annotation: *In this article, a comparative analysis of the words of the Uzbek and Karakalpak peoples with a positive wish around the table. The words used in the celebrations and ceremonies of the two nations are compared and analyzed.*

Keywords: *applause, positive desire, prayer, wish, speech etiquette, food, blessing, happy life, double aging.*

O‘zbek va qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodidagi olqish va istak so‘zlari hayotda xilma-xil shakl va ma’noda qo‘llanadi. Kundalik maishiy olqishlarning maxsus ijrochilari bo‘lmaydi. Ular talab qilingan o‘rinda yoshiga nisbatan ulug‘roq bo‘lgan kishilar tomonidan aytiladi. Bunday olqishlar aytilish o‘rniga qarab uchrashuv olqishlari, dasturxon olqishlari va biror ish yoki tadbir boshlanishida aytiladigan olqishlar deb uch turga bo‘linadi. Bu uch turning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. [Safarov, 156.]

Marosim nomlarini ifodalovchi leksika genetik jihatdan bevosita shu xalqning til boyligi asosida, ba’zan turli omillar sabab o‘zga, ko‘pincha qo‘shni yashovchi etnik birliklar lug‘aviy boyligiga mansub so‘zlarni olish orqali shakllanadi. Etnos hayotining keyingi tarixiy jarayonida yangi etnografik

hodisalarning yuzaga kelishi ham marosimlar leksikasining uzluksiz rivojini ta’minlovchi omil hisoblanadi. Yonma-yon yashovchi xalqlar har doim bir-biriga ta’sir ko‘rsatadilar, bir-biridan so‘z olib, o‘zlashtiradilar. Ushbu jarayon ko‘p hollarda marosim ifodalovchi so‘zlar guruhida ham ko‘zga tashlanadi. Shuning uchun muayyan sharoitda olib qaralganda, zaruriyat tufayli boshqa xalqlar tillaridan marosim ifodalovchi leksik birliklarning kirib kelishi ham marosim leksikasining boyish manbalaridan biridir.

Xalq og‘zaki ijodidagi olqish va istak so‘zlarining qo‘llanish doirasi, o‘rni va mazmuni haqida folklorist olimlar olib borgan tadqiqotlar, ma’lumotlar to‘ldirilishlarni talab qiladi. Istak va olqish mazmunidagi birliklarining shakllanishi bir qator ijtimoiy omillar bilan ham bog‘liqdir. Bularga o‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining urf-odatlari, marosimlari, Islom diniga e’tiqodi, milliy qadriyatlari kabi omillarni kiritish mumkin. O‘zbek va qaroqalpoq tilidagi olqish birliklarining leksik va grammatik xususiyatlarini o‘rganish bilan birga, ularning mazmuniy hamda nutqiy sharoitga ko‘ra tasnifini ham amalga oshirish kerak bo‘ladi.

Ma’lumki, har bir tilning leksik xususiyatlari turli asoslarda o‘rganilganida, undagi lug‘at tarkibi taraqqiyotini belgilovchi til taraqqiyoti qonuniyatlari, til va tafakkur, til va jamiyat munosabatlarining lug‘at tarkibiga ta’siri, lug‘aviy birliklarning zamonaviylik, tarixiylik, ekspressiv-stilistik jihatdan turli tematik qatlamlarga bo‘linishi kabi ijtimoiy - filologik jarayonlarni belgilab berish ko‘zda tutiladi. O‘zbek va qoraqalpoq xalqlari muomala madaniyatida ko‘p ishlatiladigan iboralar ichida shunday turlari borki, ularda muomaladagi shaxslar bir-birlariga yaxshi tilak tilaydilar. Bunday iboralar duo qilish, olqish, istak bildirish, yaxshilik tilash kabi har xil ko‘rinishga ega. Qoraqalpoq tilida “*Көп жаса*”, ”*Бахытлы бол*”, ”*Ул-кызыңның рәҳәтин көргейсең*” birliklari insonlarning bir-biriga yaxshilik tilash istagini bildiradi. Garchand yuqorida tilga olingan bu xil iboralarni olqish termini bilan atash ma’quldir. Bunday hollarda olqishlardan tashqari, duo iboralari, so‘z birikmasidan iborat ijobiy ma’no ifodalovchi “Baraka topgur”, “Uyingga bug‘doy to‘lgur” kabi birikmalarni, ayrim maqol va frazemalarni ham o‘z ichiga oladi.

Ijobiy istak mazmun birliklari xalqimiz tarixida juda qadim davrlardan boshlab qo‘llanib kelgan bo‘lib, ularning namunalari duolar, urf-odat bilan bog‘liq bo‘lgan nutqiy etiketlar, iboralar, xalq maqollari shaklidagi turg‘un birliklar misolida uchraydi. O‘zbek va qoraqalpoq xalqi mehmondo‘st xalq bo‘lgani tufayli dasturxon atrofida aytiladigan ijobiy tilaklar juda rang-barangdir.

O‘zbek va qoraqalpoq oilasida biror xonadonga kirish bilan dasturxon yozilmasidanoq: “Ilohi omin, qadam yetdi, balo yetmasin! Shu xonadonga tinchlik, osoyishtalik bersin. Xonadon egalari uzoq umr ko‘rib, bola-

chaqalarining orzu-havasini ko‘rsin!” yoki qoraqalpoqcha *“Азрейти аброй, абройдан айырмасын*” - deb tilak bildiriladi. Dasturxon yozilib, taomlar tanovul qilinganda va taom tugagandan so‘ng matn shaklidagi quyidagi ijobiy istak birliklari ishlatiladi: Osh berganga bosh bersin, ketmas davlat, keng fe’l bersin, ado bo‘lmas rohat bersin, xonadoningizdan fayz-baraka arimasin, uyingiz to‘la baxt bo‘lsin, to‘kin-sochin dasturxon bo‘lsin, qo‘ni-qo‘shningiz oldida yuzingiz yorug‘ bo‘lsin, tilingiz uzun bo‘lsin, nasibangiz to‘liq bo‘lsin, niyatlaringiz ulug‘ bo‘lsin, dasturxoningiz to‘kin-sochin, rizqingiz butun bo‘lsin!

Bunday dasturxon atrofida aytiladigan ijobiy tilaklar qoraqalpoq oilalarida ham o‘z ko‘rinishini topgan.

Ас бергенге бас берсин,
Алла узақ жас берсин,
Кетпес дәулет берсин,
Жән-жақтан қолды берсин,
Жортқанда жолды берсин,
Аллатаала шын жарылқап,
Айтқанымның бәри келсин,
Әўмийн, Аллаҳыў әкбар![4:231].

Qoraqalpoq xalqida dasturxon atrofida taom tanovul qilib bo‘lgandan so‘ng aytiladigan duolar turlari ko‘p. Ulardan, ba’zida faqat *“Әўмийн”,* deb qo‘l ko‘tarib qo‘yishi mumkin, ba’zida esa qo‘l yoyilib aytiladi. *”Көп берсин, берекет берсин, есесин алла жеткерсин”, ”Әўмийн той болсын, уақты хошлық болсын”, ”Әўмийн жарлықет, қабылет, бақ берсин, бәлеңнен сақла”, ”Әўмийн аманлық болсын, тынышлық болсын”.* Ba’zida kattaroq taom tanovvul qilib bo‘lgandan so‘ng ota-bobolar hurmatiga quron hatm qilinadi. Misoli:*“Тийе берсин”,”Ийманы жолдасы болсын”, ”Жайы жәннетте болсын”деб дуо айтилади.[* Jərimbetov*, 73.]*

Har bir xalqda bo‘lganidek o‘zbek xalqida ham milliy taomlarni istemol qilganda ularning o‘ziga xos olqishlar aytilgan. Ayrim joylarda esa qovun, go‘sht yeyilgandan keyin aytiluvchi olqishlarning ba’zi namunalari saqlanib qolgan. Masalan: “Shirin-sharbat, mazgil obod, bobo dehqonga salavot, ekkanning, tikkanning ota-bobosiga rahmat, omin” [Imomov,110]. Qoraqalpoq xalqida ham bunday olqishlar saqlanib qolgan. Masalan: ”Ekkenge, tikkenge әkelgenge, keskenge raxmet, әўmiyn”.

Quyidagi duo ham dasturxon atrofida aytiladi: O‘tirgan o‘rnimiz yo‘qolmasin. Yegan-ichganlarimizning savobi shu joydan o‘tganlarga tegsin! Ishimiz o‘ngidan kelsin, murodimiz hosil bo‘lsin! Qatorimizdan xato qilmasin. Bunda Osh berganga bosh bersin, ketmas davlat, keng fe’l bersin! Xayri baraka, davlat ziyoda jumlalari eng ko‘p ishlatiladigan jumlalardir.

Yuqorida keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, ikkala xalqimiz o‘rtasidagi urf-odatlariga ko‘ra, bir xonadonga qadam qo‘yish bilan shu xonadon egalariga yaxshi tilak bildiriladi va dasturxon yozilsa, uning atrofida o‘tirganlar mezbonga sog‘-salomatlik, uzoq umr, xonadoniga fayz-baraka, boylik, ahillik, kelgusi hayotiga farovonlik tilash bilan birga, shu xonadonda yashab o‘tganlar xotirasiga ijobiy tilaklar bildiriladi, mehmon ishtirok etmagan holatda ham har bir xonadon egasi dasturxon yozilishi bilan va dasturxon yig‘ishtirilishi oldidan o‘ziga, oila a’zolari va qavm-qarindoshlari uchun shu xildagi ijobiy istaklar ifodalovchi olqishlarni tilaydi. Qayd etilgan olqishlar duolar va nutqiy etiketlar mazmunida aks etadi.

Duo so‘zi olqish mazmunini ifodalovchi birliklar tarkibida ko‘p qo‘llanib, Duolarimiz qabul bo‘lsin, o‘qigan duolarimizning savobidan yetti pushtimizni bahramand qilgin shaklidagi ijobiy istakni bildiruvchi jumlalar takibida ham bor.

O‘zbek tilidagi duo so‘zi avvallardan qo‘llanib kelgan bo‘lib, unda katta yoshdagi tabarruk kishilar, xalq ichida hurmatga sazovor bo‘lgan mo‘tabar insonlar yoki jamoada ishtirok etgan nisbatan yoshi kattalar tomonidan Ilohi omin iborasi bilan boshlanib, Ollohu akbar (Olloh buyuk, Olloh buzurg) iborasi bilan tugaydigan birliklar qo‘llangan.

Arab tilidan o‘zlashgan duo leksemasi forsiy va turkiy tillarga ham o‘zlashib, islom dinining faol qo‘llanuvchi so‘zlaridan biri bo‘lib, XIV-XV asrlardan eski o‘zbek yozma yodnomalari tilida ham ishlatila borgan. Bunda “Muhabbatnoma” (Xorazmiy asari) va XV asrda Alisher Navoiy asarlari tilida ham nazmiy va ham nasriy asarlarda ko‘p manoli so‘zga aylangan:

Duo: Istak, tilak; xudodan yolvorib yaxshilik tilash; maqsad, talab, istak; uzoq umr tilash; tumor.

Duo so‘zi mavjud bo‘lgan forsiy izofalardagi: «duoyi xayr» birikmasi - birovlarga yaxshiliklar tilab qilingan duo; «duoyi jon» - kimsaga umr va yaxshilik tilab qilingan duo va doim “sizning duoyi joningizdamiz” degan ma’noni ifodalab keladi. Duo so‘zi qo‘shma fellarda ham hosil bo‘lgan: duo aylamoq, duo qilmoq, duo etmoq. Duo so‘zining arabcha grammatik shakli “adiya” ham o‘zbek tilida yozma yodgorliklar tilida uchraydi. Duo so‘zining gapda turli mazmun ifodalashini ko‘rsatuvchi yozma matnlardan misollar: Oltin olma, duo ol, duo oltin emasmu? (Maqol).

- Otaxon, menga pulingiz kerak emas, bitta duo qilsangiz, bas, - dedi u shoshib. (S.Ahmad) Duodan so‘ng Otabek to‘riq yo‘rg‘asini chiqarib, qutidorga tutdi. (A.Qodiriy) Ko‘pchilikning duosi ko‘l bo‘lur (Maqol) Xolamga duo deb qo‘y, qizim... - dedi To‘xta xola (I.Rahim) .

Yuqoridagi misollarda duo so‘zi turli mazmundagi olqish ifodalovchi so‘z vazifasida kelgan.

Duo so‘zi qoraqalpoq tilida “пәтия” arab tilidan olingan bo‘lib, har bir insonga beriladigan yaxshi tilak, yaxshi niyat insonning orzu-armonlarining amalga oshishi asos sifatida qabul etiladi[3:74]. [3:74].-*Әззети –абырай, абырайдан айырмағай бир құдай . Әўмийн!*

Пәтия-тилектен кейин, Лепес :-“Мырзашты жибер, “- деп Аймерекеге ым қақты. (Қ .Мәтмуратов)[7:174].

Жорытқанда жолың болсын,
Қыдыр ата жолдасың болсын,
Қырық шилтерлер жылаўыңда болсын
От, жала, суу бәлесинен сақласын[5:7].

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, ikki xalq o‘rtasidagi bir-biriga aytiladigan ijobiy istak mazmuni birliklari mazmunan rang-barang bo‘lib, xilma-xil mazmuniy guruhlarga bo‘linadi. Jumladan, ikki xalqda ham tinchlik, ahil-totuvlik, sog‘-salomatlik, uzoq umr ko‘rish, baxtli hayot kechirish, omadli, rizq-ro‘zli bo‘lish, muqaddas kunlar bilan qutlash, serfarzand-serdavlat bo‘lish, kuch-quvvat, baxtli hayot kechirish, qo‘sha qarish kabi olqish mazmuni ifodalangan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Safarov M.O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. -T-2010. – B. 367.
2. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. - T.: Fan, 1974. – B. 221.
3. Jərimbetov Q., Allambergenov I., Nizamatdinov J. Qaraqalpoq folklor. –T., 2018. – B. 255.
4. Qaraqalpaq folklor.77-87-tom. – Nөkis: Ilm, 2017. – B. 555.
5. Qazaqbaev S. Қарақалпақ салт-дәстур жырлары. – Нөкис: Qaraqalpaqstan. – B. 32.
6. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safartov O. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. –T.: O‘qituvchi. 1990. 303-b.
7. Mətmuratov Q. Terbenbes. – Nөkis: Bilim, 2004. –B. 334.

O‘ZBEK TILI TO‘RTKO‘L SHEVASIDA KIYIM-KECHAK NOMLARI TAVSIFI

Bozorboyeva M.M,
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI talabasi

Annotatsiya*. Maqolada o‘zbek tili To‘rtko‘l shevasida kiyim-kechak leksikasining qo‘llanilishi, kiyim-kechak turlari, turkiy fors-tojik, arab, rus tili va*

u orqali Yevropa tillaridan o‘zlashgan nomlar, kiyim-kechak nomlarining keng iste’mol va cheklangan doirasi, lug‘ati tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: *kasb-hunar, leksik qatlam, kiyim-kechak, dialekt.*

Annotation. *The article uses the Uzbek language in the four-dimensional dialect of clothing - the lexicon of clothing, types of clothing, Turkish Persian - Tajik, Arabic, Russian and through it the names learned from European languages, a wide range of clothing namesgoods and limited scope, dictionary analyzed.*

Key words: *profession, lexical layer, clothing, dialect.*

Kasb-hunarning turli tarmoqlarida mehnat jarayonida xalqimiz tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan o‘ziga xos terminlar umumxalq tilining lug‘at tarkibida boy bir qatlamni tashkil etadi. Qo‘l mehnatidan mashinaga o‘tilgach, ularning ko‘pi yangi davr leksikasiga ham ko‘chadi. Ba’zilari ishlatilishidan qolib, tarixiy terminlar qatoriga o‘tadi, ba’zilari esa yangi vazifa va yangi ma’nolar kasb etib, iste’molda qoladi. Kasb-hunar terminlari umumiste’molga, bora-bora folklorga va yozma adabiyotga kiradi.

Xalq kasb-hunar terminlari umumadabiy tilning leksik tarkibini boyitish uchun ma’lum bir manba rolini bajaradi. Bunga bir qancha omillar sabab bo‘ladi. Masalan: Kiyim-kechakka oid leksika o‘zbek adabiy tili va uning shevalarida ham kasb-hunar leksikasining ajralmas sohasidir. Bu soha ham kasb-hunarning boshqa sohalari kabi uzoq tarixga ega bo‘lib, xalqimizning turmush tarzi, mehnat faoliyati, estetik didi, udumlariga, urf odatlariga bevosita bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina sohalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Til ijtimoiy hayotning o‘ziga xos barometri **[**1,1981:41-42] ekan, kiyim-kechak leksikasidagi mavjud leksik qatlam o‘zbek adabiy tili va uning shevalari lug‘at tarkibida asrlar davomida yashab kelmoqda. Shubhasiz, To‘rtko‘l tumanining Sho‘raxon, Miskin, Oqqamish, Oqboshli, Turkmanko‘l, Qozoqlik, Qozoqlik, Qoraxon boy, Bog‘yop, Tozabog‘yop, Ullibog‘, Idir, Guldirsin, kabi qishloqlarida o‘zbeklar qadimdan, o‘troq tarzda yashab keladilar. Ularning nutqida kiyim-kechak leksikasi leksik qatlam ko‘p uchraydi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari **[**4, 1998:93**]**, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur asarlari tili, hozirgi qoraqalpoq, qozoq, turkman va boshqa turkiy xalqlar tillari, va shevalarining lug‘at boyligida ham qayd qilindi: Navoiy tili leksikasida ilm-fanga, kasb-hunarga oid so‘z terminlar benihoya ko‘pdir **[**3, 1998:107**]**. Kiyim-kechak terminlari o‘zbek adabiy tilining tarixiy yozma yodgorliklaridagi kabi o‘zbek tilining To‘rtko‘l shevasida ham xalqimiz tarixi bilan barobar paydo bo‘lib, yashab kelmoqda. Kiyim inson tanasining qaysi qismiga kiyilishiga ya’ni tur ma’nosiga ko‘ra quydagi guruhlarga bo‘linadi:

1.Bosh kiyim nomi; 1) erkaklar bosh kiyimi; 2) ayollar bosh kiyimi; 3) bolalar bosh kiyimi.

2.Ustki kiyim nomlari: 3.Oyoq kiyim nomlari; 4.Kiyim qismlari nomlari.

Har qanday kiyim, masalan, chopon, koʻylak, doʻppi bir yoki bir necha boʻlak matolardan tikiladi. Kiyimlarning yuqoridagicha bosh kiyim, ust kiyim, oyoq kiyim kabi yuritilishi oʻzbek adabiy tilida me'yor sanaladi. Shevada esa boshga kiyiladigan kiyim, oyoqqa kiyiladigan kiyim tarzida ham ifodalanadi. Har bir xalqning iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan yangiliklar, yaratilgan moddiy ne'matlarni ifodalovchi so'zlar, birinchi navbatda, oʻsha xalq tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanib tuziladi va ular oʻsha til lugʻat fondini tashkil etadi. Oʻzbek xalqining kiyinish ehtiyojini oʻtovchi kiyim-kechak nomlarining asosiy qismi turkiy (oʻzbekcha) so'zlardan iborat. Kiyim-kechak nomlarini yaratishdagi ikkinchi manba chetdan soʻz olishdir **[**2,1981**].**

Oʻzbek kiyim-kechak nomlarining aksariyati turkiy (oʻzbek) va turkiy boʻlmagan arabcha, fors-tojikcha, ruscha va rus tili orqali Gʻarbiy Yevropa tillaridan oʻtgan soʻz terminlar ham koʻp. Shuningdek, kiyim-kechak nomlarining ma'lum bir qismi turgʻun boʻlib, kelib chiqish tarixiga koʻra juda qadim zamonlarga borib taqaladi. Masalan: *toʻn, yaktak, koʻylak, burma, belbogʻ, yoqa* kabi soʻzlar avvaldan mavjud bo'lgan.

Fors-tojik tillaridan oʻtgan soʻzlar uzoq davrlardan beri qoʻllanilib kelgani tufayli oʻzbek tiliga shunday singib ketganki, ular hatto asl oʻzbek soʻzlari kabi tuyuladi. Masalan: *andoza, astar, band, kamar, kavush, kissa* singari atamalar har ikkala tilda ham bab-baravar ishlatiladi. Arab tilidan oʻtgan nomlar.

Arab tilidan kirgan kiyim-kechak nomlari oʻzbek tilida tutgan oʻrniga koʻra ikki qismga ajraladi: a) eski oʻzbek tiliga xos, hozirda faqat sahna kiyimiga aylangan tarixiy yozma adabiyotlardagina uchraydigan nomlar: *abo, kabo, xil'at, amoma, dekla* va boshqalar; b) eski oʻzbek tilida ham uchovchi va hozirgi oʻzbek tilida keng qoʻllananuvchi nomlar: *jubba, astar, libos, baxmal* kabilar.

Rus tili va u orqali oʻzlashgan kiyim-kechaklar. Oʻzbek tilidagi kiyim-kechak nomlarini ifodalovchi terminlar bir qismini rus soʻzlar tashkil etadi. XIX asrning 60-yillarida Oʻrta Osiyo Rossiyaga qoʻshib olingandan soʻng oʻzbeklarning rus xalqi bilan ijtimoiy va madaniy aloqasi rivoj topadi. Millatlarning oʻzaro yaqinlashuvi milliy tillarda umum-leksik fondning yuzaga kelishida namoyon bo'ldi. Masalan: *kal'soni, yubka, manjet, manka, koʻfta* kabilar. Kiyim-kechak leksikasi tarixiy belgilariga koʻra quydagi guruhlarga bolinadi: 1. Turgʻun nomlar 2. Eskirgan (arxaik), ya'ni tarixiy nomlar. 3.Yangi nomlar.

Masalan: kiyim-kechak nomlari qadimda ham boʻlib hozirda qoʻllanilib kelgan. Bunday kiyim-kechak nomlarining ba'zilari avval boshqa ma'noda

qo‘llanilgan hozirda boshqa ma’noda qo'llaniladigan kiyim-kechak nomlari mavjud. Bunday hollarni biz To‘rtko‘l shevasidagi kiyim-kechak nomlari bilan qiyoslab o‘tamiz. To‘n so‘zining etimologiyasi ma’lum emas. Qadimiy manbalarda *yopinmoq, burkanmoq, qoplanmoq*ma’nosini anglatuvchi tonandi fe’l formasida uchraydi. Adabiy tilda Nega to‘n kiymading? (Nəchun chapan giyməding?) To‘rtko‘l shevasida chopon. Bu so‘z turkiy xalqlarning asosiy ustki kiyimi hisoblanadigan paxtalik to‘nning sinonimidir. XV asrdan e’tiboran to‘n bilan bir qatorda chopon so‘zi ham uchraydi.

Kiyim-kechak nomlari lug‘ati

To‘rtko‘l shevasida	Adabiy tilda
U chapanini giyib sirta chiqib getti	U choponini kiyib tashqariga chiqib
Go‘ynagininaxi chiqib qolg‘aniniketdi bilmadi	Ko‘ylagining ipi chiqib qolganini sezmadi
Ishtani yo‘q dizi yirtiqa gulibdi	Ishtoni yo‘q tizzasi yirtiqqa kulibdi
Giyimning yaqasi aziroq kir bo‘lvadi	Kiyimning yoqasi oziroq kir bo‘lgandi.
Diymamni yo‘qatib qo‘ydim	Tugmamni yo‘qatib qo‘ydim
Taza kostyum-charvul morak bo‘lsin	Toza kostyum-shim muborak bo‘lsin
Qo‘ftang nadagan chiroyli	Koftang buncha chiroyli
U to‘nmasligi uchun qurtkisini giydi	U sovuq qotmasligi uchun kurtka kiydi.
Qo‘linga qo‘lliqingni giy	Qo‘lingga qo‘lqopingni kiy

Adabiy tilimiz bilan dialekt va shevalar doimo to‘xtovsiz munosabatda bo‘ladi. Bu munosabat darajasi o‘sha dialekt va adabiy til egalarining ijtimoiy hayot sharoitlari bilan bog‘lanadi. Adabiy til dialekt va shevalarga ijobiy ta’sir etib, ularning xususiyatlarini o‘ziga yaqinlashtirib borar ekan, ularning o‘rni bilan jonli tildan oziqlanib, shevadagi so‘z va iboralar hisobiga boyib boradi. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, kiyim-kichak leksikasi sheva vakillari nutqida faol ishlatiladi. Shevadagi kiyim-kechak nomlari sheva xos dialektizm sifatida keltirilib, uning transkripsion ko‘rinishini va adabiy tildagi shakli va ma’nosini keltirib, shu dialektizm qo‘llanilgan gaplarni namuna sifatida keltirdik. Keltirilgan dialektizm va gaplar sheva vakillari nutqidan yozib olingan bo‘lib, ular transkripsiya qilishga harakat qilindi. Kiyim-kechak so‘zining ma’nosini yuqoridan bilib olganimizdan keyin ularni ifodalovchi sheva so‘zlarini topish osonroq bo‘ldi. Sheva vakillari boshqa sheva vakillari kabi kiyim-kechak nomlariga ham turlicha nom berishgan. Bu shevaga xos dialektizmlarning ko‘payishiga turtki bo‘ladi. Dialektizmlarning bu turi boshqa shevalardagi singari shevamizda ham fonetik o‘zgarishlar bilan faol qo‘llanadi. Xullas, To‘rtko‘l

shevasida kiyim-kechak nomlaridan ba’zi birlari dialektizmlar sifatida faol ishlatilishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Асамаддинова М. “Бош кийим” номларининг шаклланиш жараёни //O‘zbek tili va adabiyoti 1981. 3-сон. –Б. 41-42.
2. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. –Toshkent: Fan, 198. – B. 127.
3. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy. – Toshkent: Fan, 1998. – B. 218.
4. Турсунов У., Ўринбоев Б. Ўзбек адабий тили тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи, 1982. – B. 143.

BULUNG‘UR TUMANI YUQORI QISHLOG‘I SHEVASIGA OID AYRIM DIALEKTAL SO‘ZLAR XUSUSIDA

Xidraliyeva Zoxira,
ToshDO‘TAU katta o‘qituvchisi,
Abdumalikova Zarifa,
O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Annotatsiya*. Ushbu maqolada Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani Yuqori qishlog‘i shevasida hamda ba’zi qipchoq shevalarida qo‘llanadigan, ammo adabiy tilda qayd etilmagan dialektal so‘zlarning leksik-semantik xususiyatlari bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *adabiy til, sheva, dialektal so‘z, qipchoq lahjasi, o‘g‘uz lahjasi, fonetik o‘zgarish, Yuqori qishlog‘i shevasi.*

Annotation. *This article describes the lexical and semantic features of dialectal words used in the dialect of Yukori village of Bulungur district of Samarkand region and in some Kipchak dialects, but not recorded in the literary language.*

Keywords: *literary language, dialect, dialectal word, kipchak dialect, Oghuz dialect, phonetic change, Upper village dialect.*

Bizga ma’lumki, o‘zbek adabiy tili xalq shevalaridan o‘ziga kuch oladi, chunki milliy tilning bu ikki bo‘g‘ini bir-biridan alohida holda rivojlana olmaydi. Shevalar har qanday adabiy tilning asosiy hamda rivojlanish manbaidir. O‘zbek shevalari umumxalq o‘zbek tilining bir tarmog‘i bo‘lib, har bir sheva o‘zining fonetik, grammatik xususiyatalri bilan bir qatorda o‘ziga xos leksik xususiyatlarga ham ega. O‘zbek shevalari o‘zbek milliy tilining tarkibiy qismi

sifatida umumiy leksik qatlamga ega va har bir shevaning leksik qatlami o‘sha shevaning hayotiy zarur so‘zlarini qamrab oladi [Ashirboyev, 1:77].

O‘zbek xalq shevalarining leksik tarkibini ko‘zdan kechirsak, ularni adabiy tildan va bir-birlaridan o‘zaro farqlaydigan leksik xususiyatlarni ko‘ramiz [Шоабдураҳмонов, 2:275]. Haqiqatan, o‘zbek xalq shevalari leksik tarkibida (toshk.: *ädä, äpä, äkä*); xorazm.: *äkä, änä, a:ɣa;* Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani Yuqori qishlog‘i shevasida: *dädä/ata, apča/apa, äkä* kabi adabiy tildan shaklan o‘zgargan yoki fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar mavjuddir.

Bugungi kunda shevalarga xos leksika, asosan, keksa avlod nutqida faolroq qo‘llanadi, yoshlar esa ushbu dialektal so‘zlarni aksariyat o‘rinlarda tushunmaydi. Shuningdek, keksalar tilida ham sof dialektal so‘zlar passivlashib, iste’moldan chiqib bormoqda. Shu bois, Ona tilimizning o‘zagi bo‘lgan shevalarimizni o‘rganish va saqlab qolishga, ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etishga barchamiz mas’ulmiz.

Biz o‘rganayotgan Bulung‘ur tumani Yuqori qishlog‘i shevasi ham fonetik, leksik, grammatik, xususiyatlari bilan boshqa shevalardan farqlanib turadi. Ushbu hudud geografik jihatdan Jizzax viloyati Baxmal tumaniga chegaradosh. Sheva qipchoq lahjasiga mansub bo‘lib, unda ba’zan o‘g‘uz, qarluq lahjasi elementlari ham uchrab turadi. Quyida Yuqori qishlog‘i shevasiga oid ba’zi dialektal so‘zlar haqida fikr yuritamiz.

gärtäk – ozgina. Ushbu lesema harakat, narsa-predmet, belgining nisbatan juda ham kam ma’nosini bildirib, *jinday, ozgina, kamgina* leksemalari bilan sinonimik qatorni hosil qiladi. Nutqda narsa-predmetning me’yordan juda ham kamligini ifodalash uchun qo‘llanadi (*Sütkä qātïqtän gärtäk sā, šündä jäxšï üji:dï)*. Bizningcha, bu leksma gard+*dek* shaklida bolib, *gard* leksemasiga *-dek* affiksining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan.

čïlqïllatmoq – liq to‘ldirmoq. Idishni suyuqlik bilan liq to‘ldirish holatiga nisbatan qo‘llanadi. (*Pïyläni čïlqïllätïp čäj qüjmä).* Ushbu leksemada *chirq-chirq* holatga taqlid + *illa* affiksining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan fe’l yasalishi kuzatiladi.

āŋïmoq- poylamoq. Ushbu fe’l adabiy tildagi poylamoq fe’liga to‘g‘ri keladi va shu ma’noda qo‘llanadi. (Šāx*žāxān pādvāldä türïb, žāvčïlärdï gäpïnï āŋïptï*). Ushbu fe’l “Devonu lug‘atit turk” asarida ham *aŋdïdï* shaklida uchraydi. *aŋdïdï* ~ hiyla qildi. *Avčï kijikni aŋdïdï. ~ Ovchi kiyikni tutish uchun panaga berkinib hiyla qildi* (DLT. I, 302); Ushbu fe’l adabiy tilda mavjud emas, ammo shevada faol iste’molda ekanligini ko‘rish mumkin.

bügmoq – tugmoq. Somsa, manti, chuchvarani tugishga nisbatan ishlatiladi. *tugmoq* fe’lining shevadagi sinonimi. (*Gülhānïmdï bügïš tāzä āsān äkän).*

bötän – alohida. Adabiy tildagi alohida so‘ziga teng bo‘lib, shu ma’noda qo‘llanadi. Juft holatda (*bo‘tan-bo‘tan*) qo‘llanilishi ko‘p kuzatiladi. (*Ekävïnïŋ töjïnï bötän-bötän ötkïzämïz).*

Kötärã – hamma, barchasi. Adabiy tildagi hamma, barcha, butun kabi birgalik olmoshlari bilan parallel qo‘llanadi. (*Bergä kötärä bekärčïlär žïjïlgänäkän-kü*).

Ädävür – adabiy tildagi *anchagina, ko`pgina, durustgina* leksemasining shevadagi varianti hisoblanadi va aynan anchagina, kòpgina, durustgina ma`nosida qo‘llanadi (*Äkäm gärtäk pülgäjäm ädävür närsä āpkeptï*). Bizningcha, *ajabtovur* leksemasining shevada fonetik o‘zgarshga uchragan shakli.

tüjür – to‘g‘ram. Non, go‘shtga nisbatan qo‘llanadigan hisob so‘z. Bir bo‘lak ma’nosida keladi (*Käsämgä bïr tüjüräm göš sämä, men göš žemäjmän*).

göbäläk – hashorat turi. Sham atrofida uchib yuruvchi hashorat. Ko‘chma ma’noda salbiy konnotatsiyani ifodalab, odamlarga nisbatan ham ishlatiladi. (*Men senïŋ göbälägïŋmïdïm!? Bāšqä išïmäm köp*). Shu bilan birga ushbu lesema qipchoq shevalarida kasallik nomi bo‘lib, *göbäläk //go‘balak* (go‘balak- kapalak so‘zidan), ya’ni yilqi va mollarda yozning issiq paytida uchraydigan kasallik sifatida ham tilga olinadi [Дониёров, 1979:92].

töγïzköz – ko‘zmunchoq. Ko‘z tegmasligi uchun qo‘lga, bo‘yinga, sochga taqiladigan taqinchoq. Adabiy tilda ko‘zmunchoq varianti qo‘llanadi. *To‘qqiz+ko‘z* ning fonetik o‘zgarishga uchragan shakli. (*Qölïŋdāgï töγïzközïŋ čïrājlïäkän).*

šaqïna – ignatugma. Ushbu leksema adabiy tildagi to‘g‘nog‘ich ma’nosini bildiradi. Kiyim qismlarini vaqtinchalik bir-biriga qistirib turish maqsadida foydalaniladigan moslama. (*Römalïmnï šaqïnä mïnän qïstïrip qöjmäsäm, betïmgä tüšïp ketäverädï).*

äqälmättä – hattoki. Bu so‘z achinish, afsuslanish ma’nolarini ifodalovchi modal so‘zdir. *Loaqal bir marta, aqalli bir marta* birikmasining soddalashgan shakli, ya’ni o‘zgarishga uchragan fonetik variantidir. (*Šünchä vaq öttï, u:lï äqälmättä telpön qïlïškä žärämädï*).

eŋqürmäγändä – hech bo‘lmaganda. Bu ham modal so‘z. Ushbu so‘zning o‘g‘uz shevalarida judaqurmag‘anda, ja:qurmag‘anda variantlari kuzatiladi. Ushbu modalning adabiy tildagi hech bo‘lmaganda so‘ziga mos kelishini kuzatamiz. (*Mägäziŋŋä kïrïškä kïrdïk, eŋqürmäγändä süv satïp ālek!)*

ötirik – yolg‘on. Tirik emas, ya’ni yolg‘on gap yoki so‘z ma’nosida qo‘llanadi. *(Men ünïŋ hämmä ötrïk gäplärïgä išānïppän).*

nansöγar – tekinxo‘r. Kimningdir uyida mehnat qilmasdan, yoki hech qayerda ishlab pul topmasdan, tekinga yashab, boshqalar hisobiga kun ko‘ruvchi.

Non+so‘qar ning fonetik o‘zgarishga uchragan shakli. (*Ājlïgïmdï ālālmãgãnïm üčün,özïmdï nansöγardäj sezeppän).*

gülgün – och pushti rang. Ushbu so‘z forschadan o‘zlashgan bo‘lib, shevada och pushti rangni anglatadi (*Meŋŋä gülgün räŋ žäräšädï*). *Gülgün* leksemasi shevada juda faol. Bu rang bildiruvchi so‘zni Alisher Navoiyning Lison ut-tayr asarida ham qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin:

Jismi **gulgun** ko‘ngloki gul uzra gul
Ko‘rmagidin tobsiz yuz ming ko‘ngul.
Ko‘nglak uzra necha hulla rang-rang
San’atida jon chekib Rumu Farang.

naparman – siyohrang. Ushbu so‘z (nafarmon) forschadan o‘zlashgan bo‘lib, och binafsha, qizg‘ish binafsha rangni bildiradi. Buxoro shevalarida (*nāfarmān*) binafsha rang bo‘lsa, Qamashida (*nāparmān)* to‘q qizil rangni buldiradi [Мусаева, 4:40]. Bu dialektal so‘z shevada siyohrangni ifodalaydi. (*Ertägä meŋŋä naparman sömkäŋnï apke:).*

džüpqä – g‘ilmindi. Boshqa o‘zbek shevalarida yupqa deb nomlanuvchi taom borligini bilamiz, ammo u xamirni yupqa yoyib orasiga piyoz, ko‘kat solib pishiriladigan taom. Yuqori qishlog‘i shevasida esa *džüpqä* yupqa yoyilgan xamir orasiga sutdan pishirilgan atala surtib pishiriladigan taom. Ushbu taom boshqa hududlardagi g‘ilmindi taomiga to‘g‘ri keladi.

bäräk – chuchvara. Ushbu dialektal so‘z o‘g‘uz shevalarida ham aynan chuchvara ma’nosida qo‘llaniladi [Абдуллаев, 3:27]. Qipchoq lahjasiga kiruvchi Yuqori qishlog‘i shevasida ham bäräk leksemasi qo‘llanadi.

hāvā – yomg‘ir. Shevada tabiat hodisasi – *yomg‘ir* ga nisbatan” *havo jovdi*” varianti qollanadi. (*y ~ j va g‘ ~ v* mosligi qipchoq lahjasining o‘ziga xos fonetik xususuyatidir.) (*Äprelnïŋ bašïdä bir häptä tinimsizdän hāvā žavdï*).

ujqaš – o‘xshash. Ushbu dialektal so‘z o‘xshashlikka nisbatan qo‘llanadi. Ikki qoshdek o‘xshash degan ma’noda (*Mebel bilän gilämiŋ räŋi judä ujqaš ekän).*

Shevada shaxmat o‘yini donalari bilan bog‘liq (*gärdi*- farzin(shaxmat), *učqur*- fil, *törä*- rux, *pečkä*- piyoda) o‘ziga xos dialektal so‘zlar mavjud. Ushbu so‘zlardan *pečkä*- piyoda o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, ko‘chma ma’noda odamlarga nisbatan hech kimga so‘zi o‘tmaydigan, odamlar uchun ahamiyatsiz, ta’sir kuchi kam bo‘lgan kishilarga nisbatan qo‘llanadi.

Xulosa shuki, ona tilimizning o‘zagi – jon tomiri bo‘lgan shevalarimizni o‘rganish, ularning lug‘atini tuzish va zarur o‘rinlarda adabiy tilda faollashuvi va me’yorlashuviga erishish lozim. Tilimiz boyligi bo‘lgan bunday dialektal so‘zlar o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarini, ifoda imkoniyatlarini yanada kengroq, yorqinroq ifodalashga xizmat qilar ekan – ularni o‘rganish, yangi qarash va ilmiy

nazariyalarning paydo bo‘lishiga imkon yarata beradi hamda bugunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент: Фан, 1961.
3. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан. 1979. - Б. 91-92.
4. Ўзбек шеваларининг лингвомаданий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 40.
5. Шоабдураҳмонов Ш. Таянч шаҳар шевалари лексикасидан//Ўзбек диалектологиясидан материаллар. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 275.

SHEVALARDA AYRIM LAQABLAR ETIMOLOGIYASI VA ULARNING ISHLATILISHI

(MINGBULOQ TUMANI MISOLIDA**)**

Usmonov Musurmon Mamirali o‘g‘li
Namangan davlat universiteti, o‘qituvchisi
Qosimova Shahlo Ulug‘bek qizi
Namangan davlat universiteti magistranti
musulmonusmonov3004@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Namangan viloyati Mingbuloq tumanida yashovchi sheva vakillarining laqablarini o‘rganish ko‘nikmalari, shuningdek, kelib chiqish sabablari, etimologiyasi, laqablarning ijobiy-salbiy, xususiylik, umumiylik jihatlari va laqablar qo‘yilishining o‘ziga xos tarixi, laqab qo‘yilgan shaxs yoki oilaning etnik, ijtimoiy kelib chiqishi, belgi-xususiyatlari, kasb-kori, urf-odatilari, nuqsonlari yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *laqab, taxallus, etimologiya, ijobiy, salbiy, sheva, etnografiya, onomastika, inson xarakteri, kriptonim, patronim, genonim.*

Annotation. *This article describes the skills of studying the nicknames of Sheva people living in Mingbulak district of Namangan region, as well as the reasons for their origin, etymology, positive and negative, specific, general aspects of nicknames and the specific history of nicknames, the nickname of the person or family. ethnic, social origin, character traits, occupation, customs, shortcomings.*

Key words: *nickname, nickname, etymology, positive, negative, dialect, ethnography, onomastics, human nature, kryptonym, patronymic, genonym.*

Tilshunoslikda ijtimoiy-siyosiy, milliy-madaniy, etnografik, badiiy-estetik mohiyatga ega onomastik birliklarning eng qadimiy va asosiy turi antroponimik birliklar: ism, familiya, otaism, laqab va taxalluslarni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganish doimo e’tiborda bo‘lib kelgan.

Zamonaviy o‘zbek onomastikasining eng muhim bo‘limlaridan biri bu antroponimikadir. O‘zbek tilida antroponim termini o‘rnida ism, kishi ismi, kishi nomlari kabi terminlar ham qo‘llaniladi. Rus tilshunosi N. V. Podolskaya esa antroponim termini haqida fikr yuritar ekan, uning tarkibiga ism, otchestvo, familiya, laqab, taxallus, kriptonim (laqab, ism, nom), andronim (muallifning o‘z ismi), patronim (shaxsni avlod-ajdodlari nomi bilan atash), genonim (urug‘, avlod-ajdod va ularning tarmoqlari atoqli oti) kabilar kirishini qayd qilgan [Подольская, 7: 31]. Ko‘rinadiki, rus tilshunosligida antroponim keng qamrovli birlik sifatida qayd etilgan.

Antroponimik birliklar sifatida ism, ota ismi, familiya uzoq vaqtdan beri olimlarning katta qiziqishlariga sabab bo‘lib kelgan va ular mutaxassislar tomonidan to‘planib, turli jihatdan tavsiflangan va tadqiq qilingan. Laqab va taxalluslar shaxsning asosiy ismiga nisbatan qo‘shimcha nom bo‘lib, o‘zbek antroponimiyasining yetarli o‘rganilmagan birliklari sirasiga kiradi.

O‘zbek tilshunosligida ilk bor taxalluslar va laqablar adabiyotshunoslik aspektida B. Qoriyev, R. Vohidovlar tomonidan o‘rganilgan. Bu jihatdan o‘zbek onomastikasida E. Begmatov, Y. Menajiyev, X. Azamatov, D. Abduraxmonov, F. Abdulla, O. G‘afurovlarning xizmati diqqatga sazovordir [Бегматов, 6: 88].

Hozirgi vaqtda tilshunoslikda antroponimik birliklar deyilganda nafaqat kishilarning ismi, familiyasi, otaismi, taxallusi va laqablari ham tushuniladi.

Laqab – [a. بقل – ikkinchi nom; laqab; taxallus] 1. Biror xususiyatga ko‘ra hazil qilib, yoki masxaralab berilgan qo‘shimcha nom; shuningdek, ma’lum maqsadda o‘zgartirib olingan nom. *Unga “Mitti”... laqabini qaysi xazilvon qo‘ygan bo‘lsayam, tobib qo‘yibdi.* 2. Taxallus. 3. Familiya. 4. Hayvonlarga qo‘yilgan nom [O‘TIL, 2: 492].

Har qanday onomastik birlik ma’lum nominatsiya ehtiyoji tufayli yuzaga keladi, o‘z navbatida, laqablar ham mana shunday ehtiyoj tufayli yuzaga kelgan.

Laqablar insonning turli belgilariga qarab unga yon-atrofidagilar tomonidan turli maqsadlarda qo‘yiladi.

Laqablar insonning kasbi, qiziqishlari, fel-atvori, ko‘rinishi, nutqi, kiyinishi, ovozi, qobiliyati, kamchiliklari, yutuqlariga qarab turli maqsadlarda qo‘yiladi.

Ortiq, naynov, terak, qoraqosh, oq, moylov, qora, qizil, sariq, jingalak, tekkiz kabi laqablar me’yoridan ortiq rivojlanganligi uchun, qiyshiq, chala, pakana,

cho‘loq, kalta, o‘lik kabi laqablar me’yordagidek rivojlana olmagan tana a’zolari sababli qo‘yilgan laqablardir.

Insonning fe’l-atvori bilan bog‘liq laqablar ham juda ko‘p uchraydi. Masalan: o‘pka, tilla, tozapari, suvyuqmas, chopon yirtar, shomollar, shalpang, zakon, chittak, sichqon, chol, kampir, hallos, kapitan, masalchi, tentak, ovsarkurka kabi laqablar ko‘p uchraydi.

Kasb-kori va qiziqishlari tufayli ham laqablar qo‘yiladi. Masalan: zakunchi, 722, po‘choq, quloq, tunukachi, kosib, domla, mulla, sartarosh.

Shu bilan birgalikda laqablarning bir insonga va urug‘-aymog‘ga tegishli bo‘lganlarini ham uchratishimiz mumkin. Yuqorida keltirganimizdek insonning fe’l-atvori, kasb-kori, qiziqishlari sababli olgan laqablari asosan bir insonga tegishli bo‘lsa-da, lekin bu laqablar uning butun urug‘-aymog‘ining ham laqabiga aylanishi kuzatiladi.

Jumladan, Mingbuloq tumanida laqablarning qo‘yilishi va qo‘llanilishi ham turlichadir. Uning qo‘yilish sabablari, etimologiyasi, tarixini quyidagi guruhlarga ajratib o‘rganildi:

1. Mingbuloq tumanidagi faqat bir shaxsga tegishli bo‘lgan laqablar.

Shlanka – izohli lug‘atdagi asl ma’nosi nemischa –Schlange-ilon – o‘ralmoq, chirmalmoq. Rezina yoki suv o‘tkazmaydigan materiallardan yasalgan egiluvchan truba [O‘TIL, 4: 586]. Shevada ham bu so‘z rosa ozg‘in, novcha odamga nisbatan qo‘llaniladi. Albatta, bunda shakl o‘xshashligini kuzatish mumkin. Demak, bu laqab qo‘llanilishi uchun odam juda ingichka va novcha bo‘lishi kerak ekan. Bu laqabni salbiy laqablar qatoriga kiritish mumkin. Masalan, *Anavi Aziz shlankani turishini qarang, hammani to‘sib.*

Dazmol – forscha – darz, teshik-tirqish, chokni tekislovchi. Kiyim-kechak, gazlama va shu kabilarni qizdirib tekislash uchun mo‘ljallangan asbob [O‘TIL, 1:544]. Shevada esa, insonning yuz tuzilishi “dazmol” ga o‘xshasa, mana shunday laqab qo‘llaniladi. Dazmol laqabi ham o‘zida salbiy bo‘yoqdorligi kuchli ekanligini ko‘rsatib turibdi. Demak, bunday laqab qo‘llanilishi uchun yuz dazmolday katta, yuzi peshana qismidan dahangacha uchburchak shaklda bo‘lishi kerak. Ushbu laqab ham shakl o‘xshashligiga tayanib qabul qilingan. Masalan, *Matti dazmol yig‘inga yana kech qolyapti.*

Xumbosh, xumkalla – izohli lug‘atdagi aynan keltirilgan ma’nosi quydagicha: xum kabi katta bosh, kallador [O‘TIL, 4:423]. Shevada ham boshi gavdasiga nisbatan katta bo‘lsa, shu laqab qo‘llaniladi. Bu laqab ba’zan mushuklarga nisabatan ham qo‘llaniladi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, insonlar va hayvonlarga nisbatan bir xil qo‘llaniluvchi laqablar ham bor. Masalan, *Sodiq xumkallani har doim uzoqdan boshi ko‘rinadi. Mushugim xumbosh har doim uxlagani-uxlagan.*

Fantomas – fransuz film qahramonlaridan biri. Shevada qahramonning tashqi ko‘rinishiga nisbat qilib, ya’ni soch-soqoli yo‘q odamga nisbatan mana shu laqab qo‘llangan. Demak, tashqi ko‘rinish hisobga olingan. Ushbu laqab salbiy laqablar sirasiga kiradi. Masalan, *Solih fantomas hammani ajablantirib sartaroshxonaga kirib keldi.*

Qilich – bir tig‘li, g‘ilof bilan yonga osiladigan, chopish sanchish bilan yovga shikast yetkazadigan qurol [O‘TIL, 5: 290]. Shevada qilich kabi keskir ham so‘zida, ham yurish-turishida dangalchi insonlarga nisbatan ham shunday laqab qo‘llaniladi. Bundan tashqari kiyinishida hammaga o‘rnak bo‘ladigan va o‘ziga qarab, e’tiborli bo‘lib yuradigan insonlar uchun ham qo‘llaniladi. Bu laqabni ijobiy laqablardan deyish mumkin. Chunki har qaysi insonga bu laqab qo‘llansa o‘zidan xursand bo‘lish hissi paydo bo‘lishi tabiiy. Masalan, *Murod juda qilich-da ham yurish turishda, ham gap so‘zda, undan ancha narsani o‘rgansak arziydi.*

Abdulla shovla – shevada shavladay lanjlanib yuradigan, har bir ishda qovun tushirib yuradigan odamga nisbatan qo‘llaniladi. Bu laqabning etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, oldinlari Abdulla ismli shaxs qachon qarasa, har bir ishning teskarisini qiladigan va natijada bu ishi bilan ko‘pchilikning ichida uyatga qoladigan shaxs bo‘lgan. Shundan beri bunday insonlarga Abdulla shovla laqabi ishlatilgan.

Vaska – odatda Vasliddin ismini mana shunday shaklda ishlatilganini ko‘ramiz. Keyinchalik esa bu laqabga aylanib qolgan.

Hasan qiyshiq – bunda ham albatta, qiyshiqlik shakli bor. Bunda insonning yomon fel-atvori yoki nuqsonli tana a’zosiga nisbatan ushbu laqab qo‘llangan. Masalan, *Hasan qiyshiq doim ko‘chada o‘tiradi.*

Bo‘di – do‘mboq qiz va bolalarga nisbatan shunday laqab qo‘yiladi. Aslida bu so‘z bo‘dana so‘zining fonetik hodisalarga uchragan qismi. Bo‘dana-adabiy tilda bedana [O‘TIL, 1:205]. Shevada esa bedanani bo‘dana tarzida ishlatiladi. Ko‘p gapiradigan odamga nisbatan ham bedana laqabi ishlatiladi. Bundan tashqari bolakaylarni ham shunday erkalatishadi. Masalan, *Manavi bolakayni qarang bedanaday sayrashini-chi.*

Panna-pinna – shevadagi ma’nosi xasis, qizg‘anchiq. Odatda oddiy narsalarni ham qizg‘anadigan odamga nisbatan qo‘llaniladi.

Qirg‘iz – qirg‘iz tilida so‘zlashuvchi xalqning nomi [O‘TIL, 5:303]. Ba’zan shevada biror masalani qayta-qayta tushuntirilganda ham tushunmagan insonga nisbatan “qirg‘iz” laqabi ishlatiladi. Masalan, *Mulla qirg‘iz sizga yana necha marta tushuntirish kerak?*

Chittak – kichkina chaqqon, sayroqi qush [O‘TIL, 4:496]. Shevada jussasi kichkina lekin, serharakat insonga nisbatan ushbu laqab ishlatiladi. Albatta, bu laqabni unchalik ham salbiy deb bo‘lmaydi.

Lupa – izohli lug‘atdagi asl ma’nosi fransuzcha teri ostidagi katta shish, o‘sma. Kichkina narsani 2 martadan 40-50 martagacha katta qilib ko‘rsatadigan qavariq shisha, yig‘uvchi linza, zarrabin [O‘TIL, 2:511]. Shevada esa ko‘zoynak taqib yuradigan insonlarga nisbatan ushbu laqab ishlatiladi. Masalan, *Hoy, lupa, bu yoqqa kel.*

Ketmon – yuzi katta, orqa tomonida dasta suqib qo‘yadigan zog‘otasi bor, yer chopish, loy qilish va boshqa ishlarda ishlatiladigan dastali asbob [O‘TIL, 2:358]. Mingbuloq tumani hududida esa ahmoq, gapga tushunmaydigan odamni mana shunday laqab bilan chaqiriladi.

Aeroport – havo linyasi trassasida joylashgan va transport aviatsiyasining muntazam qatnovini ta’minlab turish uchun kerakli inshootlar bilan jihozlangan aerodrom [O‘TIL, 1:125]. Bu so‘z shevamizda tepakal insonlarga qo‘yilgan laqab hisoblanadi. Ya’ni tepa qismida sochi yo‘q bo‘lganligi uchun aeroportga qiyosan shunday laqab ishlatilmoqda. Masalan, *Olim aeroport kelyapti, uni oldida aeroport deya ko‘rmang.*

Qoravoy – kurakoyoqli qushlar turkumiga mansub baliqxo‘r, suvda yashovchi qush turi [O‘TIL, 5:337]. Shevada tanasining rangi jihatidan qora bo‘lgan shaxslarga nisbatan ishlatiladigan laqab.

2. Mingbuloq tumanidagi shaxsning o‘ziga emas balki urug‘, avlod-ajdodlariga ham tegishli bo‘lgan laqablar.

Qilich – bir tig‘li, g‘ilof bilan yonga osiladigan, chopish sanchish bilan yovga shikast yetkazadigan qurol [O‘TIL, 5:290]. Qilich laqabini olgan oilalar qilichning xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan bo‘ladi. Ular qilich kabi ko‘rinishga, yani ozg‘in va novcha bo‘yli, yuzi ham qirralli burunga ega bo‘ladi. Bu ko‘rinish ularning bir necha avlodida davom etganligi sababli ham qilich laqabi urug‘-aymog‘ining ajralmas antroponimikasiga aylangan. Bu laqabni olgan oila a’zolarining harbiy qurol sanalgan qilichni ishlatilishi bilan bog‘liq aloqasi yo‘q.

Tarasha – asli forscha – silliqlangan, tarashlangan narsa; yog‘och paraxasi - qirindisi. 1. Yorib maydalangan o‘tin. 2. Ko‘chma quruq, qattiq narsa yoki qotma odam haqida. Uning qo‘llari bamisoli tarasha. 3. Shunday qotma, “quruq” odamning ismiga qo‘shib aytiladigan laqab. – *Polvon, bas, Xamzaxonni charchatib qo‘ymaylik, -dedi Maxmud tarasha* [O‘TIL, 3:676]. Tarasha laqabini olgan oila vakillari qotma, chidamli va shu bilan birga ziqnaligi bilan qolgan oila vakillaridan ajralib turadi. Ularga nisbatan “So‘ysa, qon chiqmaydi” iborasi ham ko‘proq qo‘llanadi.

Cho‘m – bu laqabni olgan oila vakillari katta va ulkan gavdali, kuchli insonlardir. Ularning urug‘-aymog‘i bir necha avloddan beri shunday ko‘rinishga ega bo‘lganligi uchun bu laqab ularning ajralmas nomiga aylandi. Aslida “cho‘m”

so‘zi “cho‘ng” so‘zining fonetik hodisaga uchragani. Cho‘ng – katta, ulkan; zo‘r; kuchli. Cho‘ng xarsang. *Bilagi cho‘ng bahodir nochor qolgan shohni opichlagancha, xatarsiz joyga yetkazadi* [O‘TIL, 4:524].

Cho‘mich – bu laqabni olgan oila vakillarining hech qanday cho‘michga o‘xshashlik jihati yo‘q. Bu oilaning katta vakillari oshpaz bo‘lishgan. To‘ylarning birida belbog‘iga cho‘michni qistirib olib esidan chiqargan va cho‘michni qattiq ovoz bilan gapirib qidira boshlagan. Cho‘mich qayerda? Kim oldi cho‘michni? Shu kabi baqirib qidirgan. Odamlardan biri cho‘michni belbog‘iga qistirilganini aytgan va bu vaziyat ancha vaqt kulgiga aylangan. Keying toylarda ham oshpazda bu holat takrorlanib turgan va chomich laqabini olgan. Bu laqab mana hali hanuz uning avlodlarida ham davom etmoqda.

Qumg‘on – bu laqabni olgan oila vakillarining hammasida qumg‘onnikiga o‘xshash xususiyati bor. Qumgon ichidagi suv qaynaganida og‘zidan suvni valaqlatib, to‘ldirib tashqariga otgani kabi bu oila vakillari ham gapirganida og‘zida so‘lak yig‘ilib qumg‘on qaynaganidagi kabi tovush chiqadi. Shuning uchun ham ularga qumg‘on laqabi berilgan.

Demak, yuqoridagi fikrlarga tayangan holda shuni xulosa qilish mumkinki, laqablar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmagan. Ularda shu hudud aholisining o‘ziga xos xarakter-xususiyati, yashash tarzi, ijtimoiy-etnik jihatdan kelib chiqishi, ma’lum bir qarashlarini o‘zida aks ettirgan. Shuningdek, laqablarning o‘ziga xos etimologiyasi, qo‘yilish sabablari va ularning ma’lum bir hudud uchun xoslanganligi, boshqa bir hududda boshqa bir ma’noda qo‘llanganligi, adabiy tilda mutlaq boshqa ma’noda, shevada boshqa ma’noda ishlatilgan o‘rinlarini kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. –Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2006. 5 jildli. 1-5-jild.

2. Бегматов Э. Номлар ва одамлар. – Тошкент, 1966.

3. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1978.

QASHQADARYO QIPCHOQ SHEVALARIDA IBORALARNING KATTABOG‘ QISHLOG‘I SHEVASIDA RANG-TUS BILAN BOG‘LIQ MAQOLLAR

(XORAZM VILOYATI YANGIARIQ TUMANI MISOLIDA**)**

Otaboyeva N.,

Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI talabasi

Annotatsiya*. Maqolada Xorazm viloyati Yangiariq tumanining Kattabog‘ qishlog‘i shevasidagi rang-tus bilan bog‘liq maqollarning, asosan ,dastlabki ko‘rinishlari xalq udumlari va urf-odatlarida yaratilishi va tarqalishi, jonli va og‘zaki an’analar bilan bog‘liqligi an’aviy ma’no kasb etishi kishi qalbida sevinch qayg‘u shodlik va iztirob tuyg‘ularini uyg‘otishi hamda o‘zbek xalqining ma’nolar xazinasida ilgari surilayotgan fikr g‘oya bog‘liqligi talqin etiladi.*

Kalit so‘zlar*: xalq udumlari, ta’sirchan ifodalash, ranglardagi an’aviy ramziy ma’nolar.*

Annotation. *The article reflects the first appearance of the articles on colour in the dialect of Kattabog’ village of Yangiarik district of Khorazm region. There is given semantic explanation to the word “white” ahd there is defined meaning wich has different peculiartes exceptits nominal meaning.*

Key words: *Folk custums, impression expression, symbol in colours.*

Hozirgi o‘zbek shevalarida rang bilan bog‘liq ramziy obrazlar qo‘llashning dastlabki ko‘rinishlari, asosan, xalq og‘zaki ijodida, xalq udumlari va urf-odatlarida o‘z aksini topgan. Bizga ma’lumki, xalq og‘zaki ijodi yozuv paydo bo‘lmasdan ilgari yuzaga kelgan bo‘lib, uning yaratilishi va tarqalishi jonli og‘zaki an’analar bilan bog‘liqdir. Xalq og‘zaki ijodi asarlaridagi an’anaviy ma’no kasb qilgan ranglar ramzning tarixiy ildizlariga nazar tashlasak, ranglarning ramziy ma’no kasb eta borishini insoniyat ongining takomilida, ya’ni kishi qalbida sevinch va qayg‘u, shodlik-u iztirob tuyg‘ularining uyg‘onishi bilan bog‘liqlikda ko‘ramiz. Zero, Sh.Turdimov “Rango-rang dunyo” [2, 1957:60-61] maqolasida e’tirof qilib o‘tilganidek, insonda his-tuyg‘u uyg‘otish jihatidan ranglar ko‘proq tovushlarga o‘xshaydi. Ular tasavvurni tabiat sirlari bilan boyitibgina qolmay, turfa his-kechimalarni teran va ta’sirchan ifodalashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, ranglardagi bu xususiyatni ular orqali so‘z san’atida qadimdan shakllangan an’anaviy ramziy ma’nolar misolida kuzatish mumkin.

Jumladan, o‘zbek xalqining ma’nolar xazinasida ilgari surilayotgan fikr, go‘ya rang bilan bog‘liq obrazlarda tipiklashtirilgan bir qancha maqollar mavjud. Ulardagi rang bilan bog‘liq ramziylikni vujudga keltiradigan ranglar, asosan, *oq* va *qora* sifatlovchilardir. Bu kontrast ranglar vositasida jamiyatdagi eng jirkanch, nafratga loyiq xususiyatlar, baxtsizlik, g‘am, tuhmat, kasallik bilan birgalikda yaxshilik, baxt, sog‘lik, martabalilik kabilar ifodaladi. Masalan*: Oqqa qora yo‘q, qoraga chora yo‘q* maqolidagi oq va qora sifatlovchilari otlashib ramziy obraz darajasiga ko‘tarilgan. Oq, ya’ni aybsiz odamning ramziy obrazi bo‘lib, uni har qancha qoralashga intilmasinlar, baribir u oqibat natijada oq bo‘lib chiqadi va oqligicha qoladi. Negaki, haqiqat egilishi, bukilishi mumkin, ammo sinmaydi. Qora, ya’ni ayb qilib qo‘ygan odam o‘zini har qancha oqlashga urinmasin, baribir

u qoraligicha, aybdorligicha qoladi, uni butunlay oqlab yuborishning chorasi, imkoni yo‘q.

“Qara kə’ngil - yara ko‘ngil” maqolida xalqimizning ichi qora, ya’ni niyati buzuq, dilgir, ko‘ngli yomon odamlardan jirkanishishi, ularning asl basharalari ochib tashlanmog‘i va qilmishlariga yarasha jazoga tortishlari muqarrar ekanligi anglashiladi. Bu o‘rinda “qora ko‘ngil” ramziy obrazi o‘zgarmas, qoralik unga umrboqiy yopishib qolgan emas.

Yara tuzalganidek, ya’ni o‘limdan boshqasi yolg‘on bo‘lganidek, qorayib qolgan ko‘ngil yana o‘ziga xos choralar natijasida asl holiga qaytishiga umid tug‘iladi. Chunki bu olamda onadan qora ko‘ngil chaqaloqlar tug‘ilmasligi barchaga birday ayon.

Ajdodlararimiz kishilik jamiyatida yashar ekanlar, ular kimga qanday munosabatda bo‘lish lozimligi yuzasidan ta’lim berar ekanlar, u yoki bu odamning tashqi ko‘rinishiga, chiroyli va xunukligigiga, basavlat, kelishgan yoki ko‘rimsiz, nogironligiga qarab xulosa chiqarish, shunga ko‘ra javob muomala qilish kerak emasligini, aksincha, har bir odamning aql-u zakovatiga, fazl-u kamoliga, ma’noli yoki yoqimli gap-so‘ziga, qilgan va qilayotgan xayrli ishiga, jamiyatda qozongan hurmat e’tiboriga qarab munosabatda bo‘lish lozimligini uqtirganlar va shu ma’noda *“Har yuzi oqning ko‘ngli oq bo‘lavermas, har yuzi qoraning ko‘ngli qora bo‘lavermas”, “Qora tovuq ham oq tuxum qiladi”, “Qora bulutdan tiniq suv tomar”, “Qora sigir ham oq sut beradi”* kabi maqollar yaratganlar. *“Ari o‘lib Arga tekkan el to‘rasi, ari bo‘lib arga tekkan bet qorasi”* maqolidagi bet qorasi ham erga, ham oilaga bo‘lgan xiyonat. Tabiatning go‘zal mo‘jizasi ayol sha’niga tushgan kechirilmas va o‘chirilmas dog‘ ma’nosini ifodalab kelgan. “Qoralik” elga to‘ra bo‘lmaslik, lanat va qarg‘ish ostida qolishlik, hatto eldan, yurtdan ajralish, yon atrofdagi insonlararo insoniy munosabatlarning uzilishi kabi bir qancha ko‘ngilsizliklarni o‘zida mujassamlashtirgan [1, 1977: - B.: 599-600]. An’anaviy ramziylikni ifodalayotgan bu tushuncha barchaga birday tanish bo‘lib, turli-tuman rangdosh talqin topishi mumkin.

Ikki oshiq bir bo‘lsa, ko‘ydi bag’ri qoralar maqolidagi bag‘ri qoralar bir-birini chin dildan sevuvchi, bir-biri bila inoq turmush kechiruvchi oshiq ma’shuqlarni, shuningdek, qalin do‘stlarni ko‘ra olmaydigan, ularning orasida fisq-fasod qo‘zg‘ab, bo‘lmag‘ur tuhmat, bo‘htonlar qilib yuruvchi dilgir, qora niyatli yaramas kishilardir. Maqol shunday holatlarning takrorlanmasligi uchun bag‘ri qoralardan ehtiyot bo‘lmoqlik zarurligini eslatib turadi. *“Mol olasi deshinda, odam olasi ichida”* maqolidagi otlashgan sifat ko‘rinishi ham ikki rang qo‘shilmasidan iborat bo‘lib, yaxshi yoki yomon odamning, biz uchun noma’lum sirli xulqli odamning ramziy ifodasidir. Demak, molning rangini ko‘rinishidan bilgan bilan insonlar fe’l-atvorini ko‘rinishidan bilib bòlmaydi. Negaki, ichki

mohiyatini tashqi ko‘rinish belgilamagandek, *“Qora tovuqning ham oq tuxum qilishi”* barchaga ma’lum.

Oq va qora ranglardan tashqari ba’zi o‘rinlarda sariq, qizil, ko‘k ranglari ham ishlatiladiki, ular asl ma’nosida predmet belgini anglatsa, majoziy ma’noda o‘ziga xos ramziy ma’nolar tashiydi.

Masalan, “G*o‘k bedani gө‘rsa qarri ot ham o‘ynoqlidi”* maqoli asosan majoziy ma’no ifodalab, undagi “ko‘k” sifatlovchisi yoshlik, go‘zallik ramzi tarzida talqin qilinadi. Maqolda kishi qarisa ham ko‘ngli qarimaydi, yoshni, go‘zalni ko‘rsa ichida yoshligi, yigitligi qo‘zib ketadi degan fikr bildiriladi.

“Ana yurting aman bө‘sa, rənggi ro‘ying saman bo‘mas” maqolidagi somon obrazi sariq rangning ifodasi bo‘lib, yurtda tinchlik, halovat bo‘lmasligi va oqibatda yashashga nisbatan o‘lim, qurib bitish, qovjirab, sarg‘ayish, so‘lish muqarrarligi bayon qilinadi. Maqoldagi somon, ya’ni sariqlik ramziy ma’no ifodachisi tarzida qo‘llanilgan.

Umuman olganda, o‘zbek maqollaridagi ko‘pgina ramziy obrazlarning asrlar davomida hayotiy tajribalar xulosasi sifatida an’anaviy ramziy ma’nolar kasb qilib kelgan ranglar bilan bog‘liqligi, avvalambor, xalqning poetik mushohada kuchini belgilasa, ikkinchidan, A.P.Chexov e’tirof qilganiday kichik janrning mavaffaqiyati – “qisqalik” ni vujudga keltiradi [3, 2017]. Talantning singlisi qisqalik esa maqollarning og‘zaki ijoddagi “faoliyat maydoni” ni kengaytirib, umrini uzaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Кеңесбаев І. Қазақ тлнң фразеологиялық сөзд Алматы: ҒЫЛЫМ. 1971, - Б. 599-601.
2. Турдимов Ш. «Ранго-ранг дунё»// Ўзбек тили ва адабиёти маслалари 1957, 3-сон. - Б. 60-61.
3. Чехов А.П. “Ҳикоялар тўплами”. –Тошкент: Ўзбекистон. 2017. – Б. 34.

YANGIARIQ SHEVASIDAGI DEHQONCHILIKKA OID AYRIM SO‘ZLAR TAHLILI

G‘affarova L.
Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI
filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada aksariyat o‘zbek xonadonlarida uchraydigan, Yangiariq shevasida qo‘llanadigan,biroq adabiy til lug‘atlarida*

qayd etilmagan uy anjomlari va mehnat qurollari bilan bog‘liq dialektal so‘zlar tahlilga tortilgan. Ularning ijtimoiy-lisoniy ahamiyati xususida mulohaza yuritilgan.

***Kalit so‘zlar**: mehnat quroli, uy-ro‘zg‘or buyumlari, o‘ziga xosligi, turlari, moslama, foydalanish usullari.*

***Annotation:** This article describes the role of vocabulary connecting hunting, pottery, embroidery, jewelry, blacksmithing in the society progress, the expression, of the allegorical meanings, the expension in any positions and any moments, the reasons of being no longer in use.*

***Key words:** dialekt, leksikal, unit, relation of homonym and synonym.*

Mehnat bilan shug‘ullanish jarayonida ishning tez, sifatli bajarilishida insonga asosiy vosita va ko‘makchi bo‘lib xizmat qiluvchi ish qurollari, so‘zlashuv jarayonida faol qo‘llanuvchi uy-ro‘zg‘or buyumlari va ularning bir-biriga o‘xshash yoki farqli bo‘lishi, muayyan vazifani bajarib kelishi, vazifasi, o‘ziga xosligi, paydo bo‘lishi, semantik jihatdan bir-biridan farq qiladi.

Har bir sheva jamoasi o‘ziga xos xo‘jalik yuritish usullariga ega bo‘lganligi sababli uy-ro‘zg‘or buyumlari, mehnat qurollarining detallashgan nomlari uchraydi. Bu anjomlarning vazifasi bir-biriga o‘xshash yoki farqli bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning har biri o‘z vazifasini bajarishda, mehnat jarayonini yengillashtirishda muayyan ahamiyatga ega. Ularning har biri insonning o‘z ishini osonlashtiradi. Ayrim hududlarda uchraydigan uy-ro‘zg‘or buyumlari va mehnat qurollari boshqa joylarda uchramaydi. Uy anjomlari kishining qanday hudud va sharoitda yashashi, qaysi faoliyat turi bilan shug‘ullanishiga ko‘ra ham farqlanadi. Masalan, suv havzalari va qamishzorlarga yaqin hududlarda yashovchi aholi o‘z hududiy imkoniyatlaridan kelib chiqib, qamishdan to‘qiladigan bo‘yra, chiptalardan foydalanishadi.

Asrlar osha insonga xizmat qilish va uning mehnatini yengillatish uchun ayrimlari biroz o‘zgargan, takomillashtirilgan. Inson ongi va turmush tarzining ko‘pgina jihatlari ham aynan uy anjomlariga qarab insoniyat tarixiga, hayotiga baho berilishi ham bejiz emas. Bugungi kunda ayrim hududlarda qo‘llaniluvchi ish qurollari faqat o‘tmishning eksponat (namuna) lari bo‘lib qolmasdan, hozirgi texnikalashgan, mexanizatsiyalashgan, innovatsiyalashgan jamiyat kishilari uchun ham muayyan ahamiyatga ega. **[**Абдуллаев,1966: 84**]** Masalan, ayrim chekka qishloq hududlarida hali ham *kundə* ‘omoch’ *keli ‘*o‘gir’ kabi anjomlardan foydalanilmoqda. Foydalanish bilan bog‘liq tarzda ularning nomi ham shu hudud shevalarida faol qo‘llanmoqda. Bugungi kunda aksariyat hududlarda qo‘llanilayotgan, biroq adabiy til lug‘atlarida qayd etilmagan bu kabi uy anjomlari va ish qurollari nomlari ham tegishli hudud shevasiga xos sof leksik dialektal

so‘zlar sanaladi. Uy-ro‘zg‘or buyumlari, asbob uskunalar nomlarini anglatuvchi so‘zlar:

Kasa (piyola), *dastirxan* (dasturxon), c*halak* (chelak), nax(ip), kət, (karavat), *rapida* - non yopishda ishlatiladigan qo‘lqop, narsa, vilka (sanchqi), choynik (choynak), xo‘na (xontaxta), kapkir (kaftkir), diyval (devor), ak (ohak), *shikki* (shokolad), svit (svet), tomichka (tumbochka), lampichka (lampochka), kastrol (kastryulka*), kand* (konfet), platisa (sochiq), ustar (stol), *taka* (yostiq), sipsa (supurgi*), inna* (nina*), arja* (sandiq), *kovish* (oyoq kiyim nomi), sipro (supra), yo‘g‘ich (yoygich), oqlov, uttik (dazmol), lapatka (bel), grable (xaskash), *choynik* (choynak*), duz* (tuz), bel (ketmon).

“Ish quroling soz bo‘lsa, mashaqqating oz bo‘lar” maqoli bejiz shakllanmagan. Mehnat jarayonida asboblardan foydalanishni bilgan kishi, albatta, uni tuzatishni (ta’mirlashni, ish samaradorligi uchun rostlashni) ham bilishi kerak. Ish qurollaridan ko‘p (yoki notog‘ri) foydalanish natijasida ularning ishchanlik, samaradorlik xususiyatlari susaya boradi. Ayrim hududlarda *o‘roq, ketmon* kabi tig‘li asboblarning o‘tmaslashishini bartaraf etishda ularning to‘mtoq bo‘lib qolgan uch qismi bolg‘a bilan *urib “o‘tkirlanadi”.* Bu harakat Zomin shevalarida *chingnash* deb nomlansa, turk-kaltatoy shevalarida tevalamoq so‘zi bilan ifodalanadi. Yangiariqda bu so‘z “charxlamoq” so‘zi bilan ishlatiladi. Mazkur usulda asboblarning ishchanligini oshirish ko‘pgina hududlarda mavjud. Bu esa mazkur tushunchani ifodalovchi chinglash dialektizmini adabiy tilga qabul qilish lozimligini ko‘rsatadi **[**Абдуллаев,1973; Ибрагимова,2013**]**. Bundan tashqari, shevalarda qo‘llaniluvchi qandu (don saqlaydigan katta sandiq), potila (qiyom qaynatishda foydalaniladigan mis qozon), tuvoq (tandir va o‘choq og‘zini berkituvchi loy qopqoq) kabi sof leksik dialektal so‘zlar adabiy til leksikasi uchun lakunar birlik hisoblanadi.

Xulosa sifatida qayd etish joizki, shevalardagi bu anjomlar va ish qurollari katta iqtisodiy – ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmasa-da, tarixiy, madaniy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgani va bugungi kunda ham insonga beminnat xizmat qilayotganligi bilan diqqatga sazovordir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф.А. Хоразм шевалари лексикаси//Ўзбек шевалари лексикаси. –Тошкент: Фан. 1966. - Б. 18-120.

2. Мадрахимов О. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. - Тошкент: Фан, 1973.

3. Ибрагимова З.Ю. Қорақалпоғистон ўзбек шеваларида Қишлоқ хўжалиги лексикаси. –Тошкент, 2013.

G‘IJDUVON TUMAN SHEVASIDAN MATNLI MATERIALLAR

Avazova Nilufar Oqiljon qizi,
ToshDO‘TAU folklorshunoslik va dialektologiya yo‘nalishi magistranti.
nilufaravazova1998@gmail.com

Annotatsiya. *Bu maqolada dialektologik nazariya va amaliyot haqida fikrlar keltirilib, bu borada dialektal matnlarning o‘rni va ularni yozib olishda yuzaga keladigan bir qancha muammo va kamchiliklar xususida fikr yuritilgan. Bu fikrga dalil sifatida G‘ijduvon tuman shevasi vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlar keltirilgan. Ular sheva leksikasini faqat sheva vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlar asosida o‘rganish anketa, savol-javob usullaridan ko‘ra ancha maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *dialektal fond, xalqaro va milliy transkripsiya, an’anaviy leksika, dialektologik amaliyot, dialektal matn.*

Annotation. *This article discusses dialectological theory and practice, the role of dialectal texts, and a number of problems and shortcomings in their writing. Evidence of this is the dialectal texts written by representatives of the dialect of Gijduvan district.*

Keywords: *dialectal fund, international and national transcription, traditional vocabulary, dialectological practice, dialectal text.*

Bugungi kungacha ham barcha viloyat shevalari o‘rganilib kelinmoqda. Shu jumladan, Buxoro shevasi ham o‘rganilgan bo‘lib, lekin tumanlari hali ham to‘liq o‘rganilmagan. Bugungi kunda o‘zbek shevalari yo‘qolib bormoqda.Shuning uchun maqolamizni Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani sheva vakillari bilan suhbatlashib, ularning suhbatlarini yozib olib, sheva vakillari nutqidan dialektal matnlar tayyorladik. Bunday matnlar sohada dialektal tadqiqotlar o‘tkazish uchun kerak bo‘ladigan ishonchli dalillardan biri sanaladi.

O‘zbek dialektologiyasi sohasida dialektologik nazariya va dialektologik amaliyotlarning o‘zaro uzviy chambarchas bog‘liqligini ta’minlash ayni vaqtdagi hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolardan biridir. Buning uchun esa dialektologik nazariya va dialektologik amaliyot jarayonlarini, shu sohada tadqiqotlar olib borish metodikasini zamonaviy ilm-fanning talablari asosida kuchaytirib, dialektologiya amaliyoti bo‘yicha ilmiy kuzatish olib boradigan tadqiqotchilarni ilmiy va amaliy hamda moddiy jihatlardan quvvatlash lozim. Ular to‘plagan dialektal materiallarni tahlil va taqrizlar asosida qabul qiladigan

“Dialektologik fond” ni [Эназаров, 1996: 3-24; 2018: 3-67] shakllantirish kerak. Bunda quyidagi holatlarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

1) dialektal matnlarni yozishda qo‘llanilgan transkripsiyaga. Uning ayni vaqtda ikki xil ko‘rinishi bor:

a) rus-krill alifbosi asosidagi (xalqaro) transkripsiya;

b) lotin alifbosi asosidagi (milliy) transkripsiya. Ba’zi bir olimlar murakkablashgan transkripsiyani ham tavsiya etishmoqda, bu sheva materiallarini qiyinchilik bilan jamlab olinayotgan bir vaqtda ilmiy asoslarda tadqiq etish jarayonini sekinlashtiradi yoki boshlangan ishlarni yakunlanmasligiga sabab bo‘ladi.

2) ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish uchun ularning metodikasini tadbiq etish uchun turli sheva va lahjalarga tegishli dialektal matnlarni tanlab olib, o‘quv dialektal xrestomatiyalarni tuzish;

“Sheva leksikasini o‘rganish bir shevaning yoki o‘xshash shevalar guruhning leksikologiya tahlili bilan birlikda o‘sha shevaning umumiy xususiyatini yaratish imkoniyatini beradi” [Назаров,1993:25]. O‘zbek xalq shevalari dialektal so‘zlarga boy. Faqat dialektal so‘zlarning dilaektal matnlarga asoslanib o‘rganilishi ilm-fan talablariga, ya’ni dialektologiyai talablariga mos keladi. Shuning uchun shevalarning dialektal so‘zligini dialektal matnlarga asoslanib saqlab qolish lozim, deb bilamiz.

Sheva vakillaridan yozib olingan dialektal matnlar duch kelgan holatda yozib olinmaydi, balki maxsus tanlangan mavzular vositasida yoziladi. Matn yozib olish uchun alohida sharoit yaratish zarur bo‘ladi. Axborotchi o‘z ruhiy va hissiy holatidan kelib chiqqan holda matn aytishi mumkin. Yoki chekka qishloqlarda ilm-fan, texnikalardan yiroqda yashaydigan sheva vakili bu tadqiqotimiz (dialektal matn to‘plash) ni tushunmagan holda o‘z shevasi haqida ma’lumot berishdan bosh tortishi ham mumkin. Shunday sharoitda biz sheva vakillariga bu qilinayotgan tadqiqot dialektologiya fani uchun muhim material bo‘lishini, o‘zbek tili ham turli lahjalarga boy ekanligini butun dunyoga e’lon qilishimiz uchun manba bo‘lib xizmat qilishini, uni keyingi avlodlarga yozma va audio shaklda meros sifatida qoldirishimiz zarurligini uqtirishimiz lozim.

Dialektal matn yozib olishda duch kelinadigan yana bir muammo bu har doim ham sheva vakilli o‘z shevasini sof saqlagan holda gapira olmasligidir. Chunki hozirgi texnologiyalar asrida televideniye va turli ijtimoiy tarmoqlar orqali insonlar ko‘plab yangiliklardan xabardor bo‘lish bilan birgalikda boshqa sheva vakillari va adabiy til normalarini o‘zlashitirib, o‘z shevalarini boyitib, o‘zgartirib borishmoqda. Aynan shuning uchun ham shevalarni sofligini saqlagan holda har bir shevadan dialektal matnlar yig‘ish va dialektal so‘zlarni ajratib olish bizning bugungi kundagi asosiy vazifamiz. Bu ishni bizga boshqa hech bir odam

qilib bera olmaydi. Biz dialektal matn yozib olish jarayonida ko‘proq keksalar bilan hamsuhbat bo‘lishga harakat qildik. Chunki juda ko‘pchilik yoshi ulug‘ insonlar o‘z shevalarining xususiyatlarining qariyib 20 foizini yaxshi bilishadi. Mana shu holatning o‘zi ham bir sheva bo‘yicha katta hajmli dialektal materiallarni to‘plashga imkon beradi.

Dialektal matnlarning tahlilida quyidagilarga e’tibor berish lozim:

1.Bunday matnlarni qaysi transkripsiyada yozilganligiga va matnlardagi so‘zlarning to‘g‘ri transkripsiya qilinishiga e’tibor berib, ularning qaysi sheva va lahjaga oidligini ko‘rsatish.

2. Undagi fonetik hamda fonomorfologik o‘zgarishlarni e'tibordan chetda qoldirmaslik. Zero, adabiy tildagi ma’lum so‘zning jiddiy fonetik hodisaga uchrashi ham sof dialektal so‘zni hosil qiladi.

3. Dialektal so‘z va uning turlarini bilib, matndagi so‘zlarni belgilab borish.

4. Dialektal matnning axborotchisi va yozib oluvchisiga e’tibor qaratish. Axborotchi tanlashda o‘sha sheva vakilining keksa va o‘rta yosh vakillaridan tanlagan ma’qul, chunki aynan shu avlod vakillari nutqida mazkur shevaning an’anaviy leksikasi xususiyatlari yosh avlod nutqidagiga nisbatan ko‘proq uchraydi.

5. Unda dialektal so‘z hamda uning turlari deb belgilangan talablari asosida tahlil qilib, ularda aniqlangan dialektal so‘z turlarining miqdori qancha ekanligiga e’tibor qaratib, ulardagi faol uchragan dialektal so‘z turlarini aniqlashtirish va ularga lug‘at maqolalar tayyorlash lozim. Bundan ko‘rinib turibdiki, dialektal matn tahlilida fonetik, leksik, fonomorfologik va grammatik xususiyatlarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Bular esa shevalardan yozib olingan matnlarda ham adabiy tildagi kabi dialektal xatolar bo‘lishi mumkinligini asoslaydi [Choriyev, 1976. – B. 65-66.]. Shu o‘rinda quyidagi G‘ijduvon shevasi vakillari nutqidan yozib olingan dialektal matnlarga murojaat qilsak, bu matnlarni yozishda lotin yozuviga asoslangan milliy transkripsiyadan foydalandik:

Chārvachilik

Čārväčilik bü ātä -bāvāmizdän qāgän käsb-kār. Üläni jäm mäŋä öxšäb rämä-rämä jilqï, tüjä, qöjläri böläjdi. Ülädän kijin išläni män jürgizāpmän. Bü käsbäm bäšqa käsblädäj älājidä e'tibār täläb qilädi. Čārvädārlikni özigä järäšä nāzik tämānläri bölädi. Män büläni dädämni ärqaläridän jürib örgängänmän. Māl, qöjlä häjvān bösäjäm, ülägä qänčä me:r berib pärväriš qisäŋ, sängä jäm ülä šünčä köp süt , göš berädi. Tirämā växti, änä bät qiš växtigä bizäni išimiz qïtti köpäjädi. Küzgä qöjläni qïrqïm qïlib , čälmä jiɣïš keräk. Xāšäk jiɣïšimiz keräk. Münäjčikin växlägä išläni režä qimäsäk, iš ünmäjdi. Bät qišgä čārvä nävüt bölišijäm mümkin.

Jāzni āxirläridän bizä qišgä täjjārgärlik qilämiz. Žigāri, bedä, tüjätäppān šünāqäläni jiɣïb silös, senäž qïlämiz. Bülä inäk qöjlägä jäxši nersä, sütini köpäjtirädi. Bir telečkäsini üjgä ālib kelämiz. Män ɣältäkni töldirib, bäčälärim šālčälägä sālib , hämmämiz bir bölib ɣäbärri tāšib täšäjmiz. Lekin bü silösni gösälägä berib bömäjdi, tirriq qilädi. Bäččäligimgä räisni mällärini bilmäj šünäj qilib qājādim. Änäkün bät mäni šünäj äjāɣini täjigä ālājdiiii. Bir ümr esimdän čiqmäjdi. Mängä üšäjäm bir därs bögän-dä, xäj. Üšändän beri här nersägä e'tibār berib, bāxäbär bölib jürijmän.

Axborotchi: Ikromov Adiz ko‘shk qishlog‘i . 1973- yil tug‘ilgan. Chorvador.

Päxtä terimi

Päxtä SSSR växti bizäni millij bājligimiz bögän. Äjni šü küz växti, tirämägä , köčägä hič kim bömästi. Hämmä päxtäjergä päxtä teräjdi. Xātinläjäm päxtä jergä bälä -čäqäsi bilän čiqästi. Män växti zämänigä täbelči edim. Räis bilän jerlärni äjlänib jürästik. Räis bömäj qāgän väx, māšinni ärqä ešigidän čäpänlärini bir četini čiqārib qājib, özim äjlänib räzvetkä qilästim. " Čäpänni bir četi tüšib türiptimi, demäk, räis bār " -deb öjläjäjdi kälxāzči xātinlä. Čikänkä päjti jäm xātinläni bāšigä türiš keräk edi. Bömäsä išni siftä qimästi birāntäsi. Čelni üstigä čiqib hämmäsini bāšqärib ötiräjdim. Terim bāšlängän väx terimči xātinlä qüjāš čiqmästän kelib, 6-7 täläb tāvä ālästi. Bäčäläri bilän birgä kelib, künigä 200kg dän zijād päxtä teräjdi, ävvälgi zämänni xātinläri . Hāziči hämmä kelinlä tegmä nāzik, qïtti iš qisä "üff, ölāpmän,qālāpmän " qilädi. Enni bü nersälä ätrāf-mü:itgäjäm bāɣliq bögänmi? Āllinläri dälägä jürib jürägimiz küjsä, zäkäšlädän süv ālib ičästik. Tāzä edi süv. Hāzi hämmä kiši här bälā täšäjdi. Ičib bömäjdi. Ünāqin qimäslik keräk. Äsräš keräk täbiätni.

Axborotchi: Jo‘rayev Ixtiyor G‘ijduvon tuman Bobog‘ozi qishlog‘i. 1960-yil. Tadbirkor.

Bāɣdārčilik ilmi

Bizä bü bāɣdi 2006-jil āgän bizä. Bāɣdi āgändän bezi nājäbrdi 1-2-čisläläridän bāšläb tākni kömišni bāšläjmiz. Kijin märtni 21 dän kijin āčämiz. Āčkännän kijin. Šivilergä kötärämiz. Šivilergä kötärgännän kijin qürigänlärini ālib täšäjmiz-ü, özini bājläb čiqämiz. Bājläb čiqqännän kijin 5-mäjdän üzümlä gülgä ötirädi. Üšä gülgä ötirgän päjt hič kim kirmäsligi keräk, silkitmäslik keräk tākni, bömäsä ü dänä-dänä bölib qālädi. Änä šü bilän gülgä ötirsä ägär, 25-mäjgä bārib güldän čiqädi. Güldän čiqqännän kijin büɣdājdäj-büɣdājdäj ɣörä bölädi. Kijin ɣöräsini öšä päjt dāriläb čiqäsiz. Özini 3xel- 4xel dārisi bār. Bü dārisi kättäläštirädi häm čirišdän säxläjdi. Kijin xāmtāk qilämiz. Jänä dāriläjmiz. Šü

bilän 1jilgä 2mättä süv berilädi. Köp süv berilmäjdi. Tākdi hāzi bizägä bir 7 -8xel nävi bār. tājfi, šibirɣāni, mäjiz qilädigān üzüm bār, šäkäräk üzümlärimiz bār.3xel 4 xel hüseni üzümlärimiz bār. Jiligä 3mättä 4mättä bäčkisini terib čiqämiz. Išqilib išimiz jäxši.

Axborotchi: Zokirova Ruxsora. G‘ijduvon tuman Sariosiyo qishlog‘i. 1964-yil tug‘ilgan. Uzumchi.

Qärilik gäšti

Mänä näbirälä bilän ötiripmiz. 50 jāšgä pensägä čiqājdim. enni pensäläni ālib mäzzä qilib jürimmän. Här nämāzgär köčägä čiqämiz. Hämsājä digānälä bilän čäq-čäqqä. Öɣdän böɣdän gäpläšämiz. Küni bilän šü kičkinä näbiräm bilän üjgä ötirämiz. Hämmä iškä ketädi. Ikkävimiz qālämiz. Pensägä čiqsäɳ jäxši ekän. Pensäni dävlät bāvāmiz üzātāpti. Ötirgän žājimizdän ālib, je:b jātimmiz. Män 11 tä näveräm, 2 tä äberäm bār. 5 täsi instgä kirdi jänä 6 täsi tājjārlänāpti. Bülänijäm näsib bösä bittä- bittä tüjlärini qilämiz. Köčägä čiqsäk, häm sän häqiɳdä köp gäpirämiz hämsüjälä bilän. Tāškengä 2tä äberäm bār. šülä kättä bösin deb šüläni düāji žānini qilib ötirimmiz.

Axborotchi: Mirzayeva Gulnora. Qo‘rg‘on qishlog‘i. 1955-yil . Nafaqaxo‘r.

Bālälik dävri

"Bälä bösäɳ šöx bö-bömäsä jöq böl"-deb,kättä jäɳäm bäčälärini ürüšgän kelinlärigä qäräb äjtäjdilä. Bäčä degän šöx böliši keräkdä.Üläni näveräläri män bilän bärävär edi. bähārgä jāvāɳä birgä bāzbäräk üčirišgä čiqājdik. Bir kün jänä jāvāɳä čiqdik. Ü mālläni bājläb kelišgä ketti. Män devnä közim etib, üxläb qālipmän, bāzbäräkni jitirdim, žöräm kelib mändän qäni ? deb söräsä, män bilmäjmän. Kijin qidirdik bittä däräxni üčigä ilinib qālipti. Järpisijäm jirtilgän. Üšä päjtlä könädözlä böläjdi. Üšäɳä etip täxlätdik. Kijin žöräm bir väx däɳ- däŋgä tüšdi. Mālläni özini täšäb kelādik. Nāmädikār kimdir ešip ālib ketgän bösäči? Ikkävnijäm jürägimizgä hävil tüšdi, čāpälädik. Bārsäk.... Jöq, žājigä türgän ekän. Jürägimiz žājigä tüšdi. Nämāšāmni tājigä üjgä bārdik. Öxim kegän ekän täppä täšäb qātip qālimmän.

Axborotchi: Ikromov Oqil. Buktaroy QFY chag‘dari qishlog‘i. 1971-yil. Tadbirkor.

Ilm olish vaqti

Jāšlikdä ālingän bilim tāšgä öjilgän näqšdir dejdi xälqimiz. Insān jāšligidän ilm öliši kerāk. Bilim, käsp- hünär insānni kämālātgä jetäkläjdi. Hädisi šärifdä häm šündäj jāzilgän. Bilim, ilm āliš här bir müsülmān üčün häm färz häm qarzdir.

Šüvčünäm bäčälägä jäšligidän jäxši e’tibör beriš keräk. Mäktäpkä qanaj äqïjkänini näzörät qilib böriš keräk. Bekäränkiga köčälägä vaɣar qïlib jürišigä qöjmäslik keräk. Här bir däqiqädän ünümli fājdäläniš zälur.

Peškägä ötirib ālib mä:mädänālik qïgändän fājdä jāq. Märäkäläga bäzi ödämlä fäč gäpirib, hämmäni jürägini bežāj qilädi. Ādämläni özidän bezdirädi. Bü ilmsizlik belgisidir. Ilm äliš üčün väx, žāj tänlämäslik keräk. Växtigä ädämlä ilm äliš üčün Xitājgä börgän. Ilm ālišni xählägän ädäm käzägä ötirib bösäjäm örgänädi. Xöhlämägän ädämgä üribäm örgätib bömäjdi. Tā xüdā jürägigä sämäsä bekör gäp. Bešikdän tā qäbrgäčä ilm örgän dejilgän. Ilm ālišni ertä –keči jöq.Fäqät säbr bilän öqïb örgäniš keräk. Čunki ilm öliš ignä bilän qudüq qazišgä teɳ. Šüniɳ üčün häm köpčilik ilm jölini tänlämäjdi. Töɣriröɣi äjtsäk, mäjnäsini öɣritiši kemäjdi. ILm jölini özigä järäšä öɣir jüki bör. Birxillä bü jükni āɣïligidän hökäk bölib qālädi. Mäsälän äjrim ilmij iš qilātgänlä išni järmini qïlib eee čärčädim šü išdän. Bäribir endi himājä qilämäjmän deb täšäb. Bäšqä söhägä ötib ketädi. Ilmdä bunāqï jeɳllik ketmäjdi. Āɣir töšni suv āqïzmäs dijlä. Ilm öliš växti diqqätni bir žöjgä jämläb. Fäqät šü nersäni öjläš keräk. Fikri tärqāq ädämlä hiččini epläb qïlāmäjdi. Bir närsäni öqišni bāšlägän väx “bismillā” dijiš keräk. Kijin esä jā āllāh ilmimni zijödä qïgin deb bāšläš keräk. Xüdā bergän äziz ümrni bekārči išlägä särflämäj ilm äliš keräk. Ādäm pišäkdäj tüɣib täšäš Üčün dünjāgä kemägän. Insän özligini ängläši keräk. Tārtänäkdäj özini ipigä örälib jäšämäslik keräk. Bü üčün esä ilm äliš šärt. Ilm bir närbän bösä, üngä zinämä –zinä čiqällä. Hič kim birdänigä tepägä čiqāmäjdi.

Axborotchi: Ikromova Dilnoza - Sarmijon qishlog‘i. 1973-yil tug‘ilgan. Maktab o‘qituvchisi.

Kasbga mehr

Här bir ödäm özi tänlägän käspkä mehr qojiši keräk. Bir išdä čindildän, viždänän, hälāl išläsäjiz xüdā häm bäräkäsini berädi.Män büni häjātgä bibim misāligä kördim. U kiši 35 jil tiküvči bölib išlägänlä. Växtigä tiküv sexigä bāšliq bögänlä.Qančädän qančä šāgird čiqārgänlä.Bibim žilāpdän tārtib tā pältüngäčä tikib bilällä. Äsnävnāj, kelinčälä üčün zärdozi vä pätdāzi nersäläni köp tikällä. Mäsälän, källäpöš, ičikčä, sözäni, büxčäbänd, čälländigä kijäjkön köjläk pāčälä tikällä. Üzün qïš kečäläridä sändäligä ötirib, bibim mängä mökki tāqïšni örgätästilä. örgän qïzim hünärli kiši xör bölmäs dijlä.Röstän häm qïz bäčäläni beš pänjäsi hünär böliši keräk. Bäzän bibimni büjürtmälärigä jördämläšämän. Šundä his qilämän tiküvčilik qančälik öɣir iš ekänligini.Bir zäjldä egilib išlägändän šānälärim öɣräb ketädi. Lölalägä pöpäk jāpištirämän.

Körpäčälägä läblöbä qilib berämän. ägär iš växti söčlärim jājilgän bösä , bibim mäni ürüšastilä. Piččäɳni jiɣištirib,pešönäbändiɳni bāɣlä dijlä. Bibim

šögirdlärigä häm bäzän qättiq tänbeh berädilä. Ägär birörtäsi išni qïjinligidän nölisä, köpäm mäjjigä öxšämä dijlä. Biröntä käspni egälläš üčün belni mähkäm böγläš keräk. Jäxši üstöz töpib uni izidän bäriš käräk. äxïr ustöz kormägän šögird här mäqömgä jöryälär. Bibim öz käspigä mehr qājgän insönlärdän biri . Hözir 85gä kirgän bösäläjäm tinmäjlä. ägär biröntä jäqïn xešimiz tüγsä, gävöräsini üstigä jöpinčiq bilän täxpöš tikib berällä. Näberälärimgä mändän estälik qösin deb. Bibim šü käsplärini ärqäsidän 10 tä bäčälärini üj-žöjli qigänlä. üLäni jäxši žöjlägä öqitgänlä. Xülläs, me:nät qigän – rähät körädi.

Axborotchi: Ochilova Sanobar - Zarangari QFY Sariosiyo qishlog‘i 1972-yilda tug‘ilgan. Savdogar.

Bahor fasli

-Zuxrā xāla siz qäjsi fäslni köprāq jaxši köräsiz?

-Män bähārni jaxši körämän. Čünki bähār jäšäriš vä jäŋiläniš fäsli. Bähārni hämmä qattiq kütädi. Ajnïqsä bäčälägä mäzzä bölädi. Qišgä ülä üjgä zerikädi. Bähörgä čiqïb mäzzä qïlib bādbäräk üčirädi. Hämmä žājlä jäm-jäšil bölädi. Bütün täbijät üjγānädi.Däräxlä gülläjdi. bärräläni rämä-rämä qïlib čölgä ālib ketällä. Tā: qïšgäčä üläni öšerä bāqällä. inäk, gösälä,qojläjäm, āt köpäjädi. Öt serāb bölädi. Jäŋi tüγgän inäkni sütidän pällä piširib 7 tä hämsöjägä tärqätallä. Häšärlä qilib arïqlä, γulbäläni zäkäšläni tāzäläjdilä. Qizlä žörāb ālib, hämmä jerni supirädi. Āγïl bäčälä nihālčäläni ötqazib, täjigä nür(r)i bāsädi, üngä sätilčäläb sü: täšäjdi.

-Xālä , bähārdä qanäj ävqātlä köp piširilädi?

-Bähārgä eŋ köp hälisä qillälä. el-xešlägä tärqätilädi.Bündän täšqäri ismälāqdän här xel ävqātlä qïlällä. Mäsälän, kök sämsä,tänör bičäk, jänbāš bičäk tüxümbäräk.

- tuxumbäräk qanäj taxlänädi?

- tuxumbäräk piširiš üčün ün, jāγ, süt, tüxüm, sijödönä keräk bölädi. Büläni hämmäsini äräläštirib, törbürčäk xaltäčä šäkligä kesilgän xämir ičigä čājnik bilän sālällä.Xältäčäli xämirni künžäklärini qol bilän jäxšiläb bösiš keräk, tüxüm āqmäsligi üčün, ünnan zijöti qigän xämirni qajiš sālib ālällä .

(Axborotchi: Xudoyberdiyeva Zuxro - Ko‘shk qishlog‘i. 1974-yilda tug‘ilgan. Uybekasi. Yozib oluvchi Avazova Nilufar.)

“Xullas, lahjalar va shevalar tilimizdagi bitmas-tuganmas boylikdir. Ularni mumkin qadar tezroq va to‘liqroq yozib olishga harakat qilish asosiy burchimizdir”[Ражабов ,1996:294].

Biz yosh dialektologlarning vazifasi ham shu sheva so‘zlarini yo‘qolib ketmasligini ta’minlash va ushbu so‘zlarni ilmiy ommaga va jahon hamjamiyatiga

tanishtirishdir. Bizningcha, sheva so‘zlarini yig‘ganda sheva vakillari nutqini dialektal matnlar sifatida yozib olib va shu matnllarni leksik tahlil qilib, sheva so‘zlarining leksik-semantik guruhlarini shakllantirish sheva leksikasini boyitish yo‘llaridan yana biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Назаров К., Ғуломов Ё. Ўзбек диалектологияси. –Тошкент, Университет, 1993.
2. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги.-Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
3. Чориев И. Диалектал хатоларни бартараф этиш ҳақида // Ўзбек тилшунослиги масалалари. –Тошкент, Қарши, 1976.
4. Эназаров Т. Ўзбек диалектологияси фанидан амалиёт. -Тошкент, Университет, 1996.
5. Эназаров Т. Абдуллаев Х. Диалектологик амалиёт сўроқлиги. –Тошкент: Адабиёт учқунлари, 1996.

O‘ZBEK TILINING PESHKO‘ SHEVASI HAQIDA

Nutfullayeva Mohina Murodillo qizi,
Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Buxoro viloyati Peshko‘ tumani shevasi tahlilga tortilgan. Asos qilib Ashirboyev, Rajabov, Murdova, Reshetov darsliklari olindi.*

Kalit so‘zlar: *sheva, qishloq, til, buxoro, tojik, fonetika, “a”lovchi shevalar, “ɔ” lovchi shevalar.*

Annotation. *This article analyzes the dialect of Poshko district of Bukhara region. The textbooks of Ashirbaev, Rajabov, Murdova, Reshetov were taken as a basis.*

Keywords: *dialect, village, language, Bukhara, Tajik, phonetics, "a" dialect, "ɔ" dialect.*

Ma’lumki, shevalar adabiy tilning quyi bosqichi sanaladi. Aynan o‘zbek tili boshqa turkiy tillardan o‘zining ko‘p shevali ekani bilan ajralib turadi.

Taniqli olim, professor A.K.Borovkov o‘zbek shevalarini fonetik xususiyatlariga ko‘ra ikki guruhga ajratadi: 1) “a” lovchi shevalar 2) “ɔ” lovchi shevalar.

Buxoro viloyati Peshko‘ tumani sheva vakillari qarluq tillar guruhining ɔ lovchilaridir. Ushbu shevada θ, í, a, e, u, ã, ɔ, ï kabi unlilar mavjud. ɔ lashish

yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, adabiy tilimizda mavjud yashirinmoq, tashimoq, tanishmoq, qiziqmoq, talashmoq, tanimoq kabi so‘zlar ushbu shevada *jɔshïnmƆq, tƆnïšmƆq, tƆšïmƆq, qƆzïmƆq, talƆšmƆq, tƆnïmƆq* singari talaffuz etiladi. Va aksincha, adabiy tildagi so‘zlarning ba’zilaridagi Ɔ tovushi ã singari aytiladi. Opa, e’tibor qozonmoq, darrov, hovli, sovuq, boshqa, oyoq, ikkovimizga so‘zlarining *ãpã, e’tïbƆr qazƆnmƆq, dãrrãv, hãvlï, sãvuq, ikkãvïmïzgã, bãšqã, ãjƆγ* kabi aytilishi shular jumlasidandir. Aynan oyoq so‘zidagi “o” tovushi “a”ga, oxirgi “q” tovushi “g‘” bilan almashtiriladi va natijada shevadagi *ãjƆγ* so‘zi vujudga keladi.

Ushbu shevaga xos yana shunday bir xususiyat borki, bu kelishik qo‘shimchalarining biri o‘rnida ikkinchisining qo‘llanishidir. Aniqroq qilib aytganda, bu shevadagi kundalik so‘zlashuv nutqida -da o‘rin-payt kelishigidan juda ham kam foydalaniladi. Uning o‘rnida -ga jo‘nalish kelishigining qo‘llanishi faoldir. Masalan, onam uydalar emas, *nãnãm ujgãlã*(bunda jo‘nalish, yo‘nalganlik ma’nosi emas, aynan o‘rin ma’nosi nazarda tutiladi). Yoki men hozir maktabdaman o‘rnida *mãn hozír mãktãbgãmãn* shakli qo‘llaniladi.

Ushbu shevaga xos bir qancha tovush o‘zgarishlari ham kuzatiladi. Bulardan tovush almashinishiga to‘xtalamiz:

Adabiy tilda	Shevada
O‘ldi	Ɵllï
Qildi	Qïllï
Keldi	Kellï
Bo‘ldi	Bθllï

Yoki adabiy tildagi tog‘a so‘zining *tãγƆ* singari talaffuzi. Bu so‘zda ikkita tovush almashinish hodisasi mavjud. Tuproq so‘zi *tθrpƆq* shaklida, narsa so‘zi nersa shaklida talaffuz etiladi. Derdim, yonardi fe’llaridagi r tovushi y ga o‘zgaradi va *dejdïm, jƆnãjdï* ko‘rinishiga aylanadi. “Buni” so‘zidagi “b” tovushi esa “m” kabi talaffuz qilinadi va *munï* ko‘rinishiga keladi.

Shevadagi tovush tushib talaffuz etiluvchi so‘zlar: go‘sht - *gθš*, musht - *muš(muš jegãnnãn keyin θzígã kellï*), ber - *be(ãlmãnï mãŋŋã be)*, qilsam - *qïsãm*, o‘shanday - *θshãnãy*, vaqt - *vãx*, o‘tirgan - *θtígãn,* bunday - *bunãj*(so‘zdagi birinchi tovush m ga aylanib, *mundãj* so‘zi vujudga keladi va tovush tushish hodisasi ro‘y berib, bu so‘z sheva vakillari tilida *munãy* shaklida qo‘llanadi.

So‘zda nafaqat bir tovush, balki birdan ortiq tovush tushishi mumkin. Masalan, shevadagi *θjnãjlã* so‘zida dí qo‘shimchasi qo‘llanmay tashlangan.

I tovushiga ko‘proq urg’u beriladi: Olim emas, *Ɔlím*, Hakim emas, *Hãkím*, til emas, *tíl* yoki muallim emas, *mãlím* kabi.

A tovushi esa og’izda to‘la talaffuz etiladi: *ãmbã, dθstgã*.

Bunda faqat shevaga mansub so‘zlar ham talaygina. Masalan, *nãnã* (ona), *bíbí* (buvi), *pïšãk* (mushuk), *ãmbã* (amma), *dↃmↃt* (kuyov), *qãvuq* (shar), *ínãg* (sigir), *rↃstãnkí* (rostdan), *qãnↃqïn* (qanday), *θjxï* (uyqi), *θšↃqqã* (o‘sha yerda), *tãrãɳ* (rosa), *sãbïl* (qurg’ur), *hãjlↃ* (huv ana degan ma’noni beradi), *čãq-čãq* (suhbat), *γíj-γíj* (g’iybat, ig’vo), *žθrↃp* (supurgi), *Ↄxï* (axir), *nãtãq* (tovush) kabi.

Masalan:

Mãnï nãnãm- dunjↃdãkí eng zθr nãnãlã!

Bugun hãmsↃjãnï ujígã dↃmↃtčↃqïrdï bθlãjkãn.

Tãrãɳ čarčãgãn ekãnïm.

Sãbïl! Bθmãzãk bãčã ekãn u hubdur.

(Axborotchi: Mohira Ro‘ziyeva, 73 yo

U harfining θ lashishi ham aynan shu shevaga xos xususiyatlardan biri. Unda kelyapman-ku so‘zidagi u tovushi o‘ tarzida aytiladi: *kelↃmman-kθ,* bor-ku so‘zida esa birvarakayiga 2 ta tovush o‘zgarishi bo‘ladi. Bu asosdagi r tovushining tushishi va u ning o‘ ga o‘zgarishi: *bↃ-*

Ushbu shevada adabiy tilimizdagi qo‘shimchalar bilan parallel yoki sinonim qo‘llaniladigan qo‘shimchalar ham mavjud. Masalan, -dek, -day o‘xshatish qo‘shimchalariga shevadagi -daychin qo‘shimchasi misol bo‘ladi: *sãnãjčïn* (sendek), *unãjčïn* (udek), *qãnãjčïn* (qanday) kabi.

Sãnãjčïn bãčãdan xudↃ sãxlãsïn, - deydi sheva vakillari. Ya’ni, senday boladan xudo saqlasin (asrasin) degan ma’no beriladi.

So‘zning aslidan butunlay boshqacha talaffuz etiluvchi so‘zlar ham mavjud. “Devona” emas, *díjↃnã* deyishadi. “Bo‘larkanmiz” emas, *bθlãjkãník,* “yodingizda” emas, *jↃdlãrïzgã*, “degandilar” fe’li ham *díjↃdïlã* kabi talaffuz o‘zgarishiga uchraydi. “Chiqdingizmi” o‘rniga *číqtïzmï,* “to‘qson” o‘rniga *tθxsãn*, “qo‘yib” emas, *qθjíb.*

“Ketaversang” so‘zida bitta y ortirib, *ketãjversãɳ* deb, “joyingga” so‘zida g tovushining ɳ bilan almashinishi kuzatiladi. Va natijada joyingga so‘zi *žↃjíɳgã* kabi talaffuzga uchraydi. Bunday so‘zi *munↃqã* kabi talaffuz etiladi. “Kerak” so‘zidagi e tovushi i ga aylantiriladi va *kírãk* tarzida talaffuz etiladi. Aytadilar so‘zida d va i tovushlari tushirib qoldirilib, bir dona i tovushi orttirib talaffuz etiladi: *ãjtãllã* kabi.

Sheva vakillari tilida *Ↄllãkkã* degan so‘z mavjud bo‘lib, oldinga degan ma’noda foydalaniladi. *Hã deb gãp sↃtkãnchã Ↄllãkkã qara, ibi*,- deydi va bu oldinga qarasang-chi degan ma’noda keladi.

Ko‘pincha, “emas” so‘zi o‘rniga “yo‘q” so‘zi qo‘llanadi: Bu nersa *bãčãlãgã mumkín yθq.* Va bunda bu narsa bolalarga mumkin emas ma’nosi anglashiladi.

Shevada so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shib aytilish holatlaridan -jon va -cha qo‘shimchalari ahamiyatga molikdir. Bunda -jon qo‘shimchasining ismlarga, shaxslarga qo‘shib aytilishi erkalash, ko‘ndirish, kichraytirish, o‘ziga yaqin tutish maqsadida ishlatiladi:

SãlímžↃn, KãrímčↃn, xↃlažↃn, dugↃnažↃn kabi.

-cha qo‘shimchasi esa eng ko‘p ishlatiladigan qo‘shimchadir. Bunda narsa-buyumlarga, kishilarga -cha qo‘shimchasi qo‘shib aytiladi: *sumkãčã, dãftãrčã, čↃjnãkčã, ešíkčã* yoki *Ↄdãmčã, bãčãčã* singari.

Ushbu sheva gap qurilishida fe’l so‘z turkumi gap boshida ko‘p qo‘llanadi. Masalan, *Tur, ešíkčãnï jↃp* yoki *qãrã mãŋŋa* kabi. Bu gapning ma’nosini ikki karra kuchliroq yetkazib berishga xizmat qiladi. Shevada -lar ko‘pligi hurmat ma’nosida qo‘llanadi: *Nãnãmlã qerãlã*(oyim qayerda ma’nosida) gapida onalar emas, yakka ona nazarda tutilyapti. -lar qo‘shimchasi esa ko‘plik emas, aynan hurmat ma’nosida kelyapti. Ushbu sheva vakillari tomonidan o‘zidan yoshi katta kishi haqida fikr yuritilganda hamisha -lar(hurmat ma’nosida) qo‘shimchasidan foydalaniladi.

Demak, ushbu sheva qarluq tillar guruhining Ↄ lovchilar guruhiga mansub; ko‘p hollarda unlilardan í va θ harflariga urg’u tushiriladi; kelishik qo‘shimchalarining biri o‘rnida ikkinchisining qo‘llanilishi yoki umuman qo‘llanmasdan tushirib qoldirish holatlari tez-tez kuzatiladi; sheva so‘zlari fonetik o‘zgarishlarga boy.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tilining o‘ziga xos sheva xususiyatlari mavjudki, ular turli hududlarda turlicha shakl va ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Peshko‘ shevasining o‘ziga xosligi shundaki, unda o‘zbek tilining o‘g’uz hamda qarluq lahjalari, shuningdek, Buxoro tojik shevalarining ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Bu so‘z shakllaridagi tovush o‘zgarishlari, lug’aviy shakllarning qo‘llanilishida, qolaversa, kundalik so‘zlashuv nutqida ma’lum bo‘ladi.

(18.03.2022) Axborotchilar ro‘yxati:

1. Nutfulloyev Hayit (1940-yil)
2. Ro‘ziyeva Mohira (1948-yil)
3. Boboyeva Gulchiroy (1976-yil)
4. Boboyev Sobir (1957-yil)
5. Xayrullayeva Nasiba (1979-yil)

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mengliyev B. va boshqalar. Ona tili. Qomus (Maktab o‘quvchilari uchun). T., 2009, 270 b.

2. B. To‘ychiboyev, B. Hasanov. O‘zbek dialektologiyasi. Darslik. –T.: 2004. 112. B.

3. Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. Toshkent. 1962.

4. Aliyeva Y. O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. Toshkent. 1991.

TOTKENT QISHLOG‘I SHEVASI LEKSIKASINING IZOHI HAQIDA

Xolmo‘minova Aziza G‘olib qizi,
Tosh DO‘TAU talabasi

Annotatsiya. *Bu maqolada shevalarning o‘rganilish tarixiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, Totkent shevasi leksikonidan muallif bir qancha so‘zlarni tanlab izohlagan. Lug‘at maqola tayyorlashga kirishgan va ularning leksik-semantik guruhlariga e’tibor qaratilgan. Albatta, dialektal leksikografik tadqiqot uchun maqoladagi misollar lug‘at vazifasini bajaradi.*

Kalit so‘zlar*: sheva, dialektal so‘z, dialektal leksika, sheva leksikoni, shevada faol qo‘llanuvchi so‘zlar, dialektal lug‘at maqola.*

Annotation*.This article is devoted to the history of the study of dialects. The author also selected a number of words from the lexicon of the Totkent dialect. The dictionary prepares articles and focuses on their lexical-semantic groups. Of course, the examples given in the article serve as a dictionary for dialect-lexicographic research.*

Key words*: dialect, dialect word, dialect vocabulary, dialect vocabulary, words actively used in the dialect, dialect dictionary entry.*

O‘zbek dialektologiyasi masalalari va muammolari XI asrdan boshlab olimlarning e’tiborida bo‘lgan. XX asrning 20-yillaridan o‘zbek xalq shevalariga e’tibor taniqli olim Y. D. Polivanov tadqiqotlarida birinchi marta ko‘rsatilgan. Bu olim Toshkent, Turkiston shevalarining dialektal matnlarini yozib olgani kabi Samarqand shevasining dialektal matnlari ustida ham kuzatishlar olib borgan va ularni e’lon qilgan. Lekin bu viloyatning ham shevasining leksik tarkibi nomigagina o‘rganilgan (Shoimova, 2009, 70-72-betlar). Samarqand viloyati Samarqand dialektal zonasi hisoblanadi. Unda qipchoq va qarluq lahjasidagi shevalarda gaplashishadi (Abdullaev, 1957, 323-344-betlar).

Lekin, Polivanov Narpay tumani Totkent qishlog‘i haqida fikr bildirmagan. Shevamizda singarmonizm qonuni amal qiladi (Tursunov & Doniyorov, 1959, 37-44-betlar).

XX asrning 60-yillarida Nazar Rajabov (Rajabov, 1977, 3-27-betlar) va uning Samarandlik hamfikrlari Narpay tumani shevasi haqida u yoki bu

ma’lumotarni beradi. Bular shevaning fonetikasi morfologiyasi va leksikasi to‘g‘risidagi fikrlardir. Shularni e’tiborga olgan holda, biz Narpay tumani Totkent qishlog‘i shevasining xususiyatlarini amaliy tadqiq qilishga kirishdik. Tadqiq qilishda Totkent qishlog‘i sheva vakillari bilan suhbat jarayonida dialektal materiallarni yig‘dik. Men bunda shevam materiallarini so‘rab va so‘roqlik asosida to‘pladim (Ishaev, 1989, 211-betlar). Albatta, bunda ustozlarim, xususan Tolib aka Enazarovning sheva leksikasi haqidagi fikrlari turtki bo‘ldi.

E’lon qilingan ishlarning sahifalarini birma-bir ko‘rganimizda ham Narpay tumani shevasining leksikasi yuzasidan biron-bir lug‘at tayyorlanmagan. Ba’zi maqolalarda sheva leksikasidan namunalar keltirilgan, shularni e’tiborga olgan holda Narpay tumani shevasining leksikasini o‘rganishga kirishdik. Ayni vaqtda quyida berilgan dialektal so‘zlar Narpay tumani Totkent qishlog‘i shevasi leksikasidan namunalardir. Quyida maqolamiz matni keltirilmoqda.

1. Almurut ***[Almurut]*** **- nokning kichigi.** *Bobom hamma mevadan ham yerga to‘kilgan suvlikkina almurut(almurut)larni juda xush ko‘radi-da.*

2. Anqimoq ***[Anqimāq]*** **- yomon hid tutib ketmoq, sasimoq.** *[“Kechagi ovqatdan yomon hid anqiyapti (anqijapti), chiqarib tashla” - dedi onam.*

3. Barak ***[Bäräk]*** **- chuchvara.** *Bugun onam bilan barak (bäräk) bukayotganimizda, uyimizga kutilmagan mehmonlar kelib qoldi. Keyin darrov dasturxon yozib shiringina barak(bäräk)larni suzib berdik.*

4. Bacha ***[Bäčä]*** **- bola.** *Ukamni beshikda uxlatayotgan edim, ko‘chadagi bacha(bäčã)larning qiy-chuvidan uyg‘onib ketdi, ovuta olmay onamni chaqirib keldim.*

5. Betoncha ***[Betānčä]*** **- bitta ushlagichli suv va boshqa narsalarni qaynatadigan chuqur sirli idish.** *Betoncha (betānčä)dagi sutni pishirishga qo‘yibman-u, qo‘shnimiz bilan rosa gaplashib qolib ketibman. Keyin yodimga tushib borib qarasam, allaqachon pishib toshib ketibdi. Onam ko‘rib qolmasin deb tezda tozalab oldim.*

6. Bovir ***[Bāvir]*** **- jigar.** *Buvimni oldida ko‘p achchiq narsa yeb qo‘ysam, bormi?! “Senga necha marta aytganman bovir(bāvir)ingni ishdan chiqarasan, ko‘p achchiq yema!” - deb urishib beradi.*

7. Bo‘la ***[Bolä]*****- aka-ukalarning farzandlari.** *Yozgi ta’tilda hamma qishloqdagi bo‘la(bolã)lar yigilib, mazza qilib tog‘ga chiqib keldik.*

8. Darcha ***[Därčä]*** **- qishloqlarda qo‘shni uylar o‘rtasidagi kichik darvoza.** *Tovuqlarni katagiga kirgizayotgan paytimiz hammasi darcha(därčä)dan qo‘shnimiznikiga o‘tib ketib qoldi.*

9. Dostiq ***[Dāstïq]*** **- yostiq.** *Mehmonlar kelishidan oldin onam hamma uyga kirib dostiq(dāstïq)larni to‘g‘irlab chiqadigan odati bor.*

10. Gapxona ***[Gäpxānä]*****- suhbatlashish.** *Ikki dugona bir bo‘lib qolsak, qiladigan ishimiz faqat gapxona(gäpxānä).*

11. Girdixona ***[Girdixānä]*****- o‘tirish uchun ostga to‘shaladigan, 8 metrgacha bo‘ladigan to‘shak, ko‘rpacha.** *Bahor kelishi bilan uyimizdagi hamma girdixona(girdixānä)larni quyoshga yoyib qo‘yamiz.*

12. Hay ***[Häj]*** **- ho‘p. -** *Maktabdan qaytishingda buvinglarnikidan ukangni olib kel. Hay(häj)mi?*

13. Hiy ***[Hij]*** **- nega.** *Ukam uyga yig‘lab kirganini ko‘rgan onam : “ Hiy(hij) yig‘layapsan? O‘g‘il bola ham yig‘laydimi?!” , deb urishib berdi.*

14. Innan ***[Innän]*** **- keyin.** *Gullarni tagini yumshatib qo‘ydim, innan(innän) nima qilay?*

15. Kadi ***[Kädi]*** **- oshqovoq.** *Dadam kadi(kädi) solingan mantini yaxshi ko‘rganlari uchun onam har ikki kuning birida kadidan manti qiladi, biz bilan bo‘lsa hech kimning ishi ham yo‘q.*

16. Keskan osh ***[Keskan oš]*** **- ingichka qilib kesilgan xamirni qatiqqa solib tayyorlanadigan suyuq ovqat.** *Yoshligimdan to hozirgacha oshqozon og‘rig‘i qiynab keladi. Mehribon onajonim esa har gal shu kasalim bezovta qilsa, darrov muzdekkina keskan osh(keskan oš) qilib beradilar.*

17. Kunda ***[Kunda]*** **- to‘nka.** *Bolaligimizda dadamning kunda(kunda) yorishni ko‘rgan ukamning havasi kelib boltani ko‘taraman derdi-yu, lekin joyidan qo‘zg‘ata olmasdi.*

18. Lagan ***[Lagan]*** **- kir solib yuvadigan tog‘ora.** *Onam kir yuvaman deb lagan(lagan)ga solib qo‘ygan kirlarini yaqindagina ukam ko‘chadan yetaklab kelgan laycha har yoqqa sochib tashlabdi.*

19. Lali ***[Läli]*** **- asosan osh va boshqa taomlarni suzadigan likopcha.** *Lali(läli)ga solingan ovqatni kasal yotgan qo‘shnimiz Fotima xolaga olib chiqib berishni unutib qo‘yganim uchun anchagina gap eshitdim.*

20. Lo‘ltakay - ***[Loltäkäj]*** **uzunchoq yostiq.** *Kichik ukam kechqurun lo‘ltakay(loltäkäj)ini quchoqlab yotmasa hammamizni xunobimizni chiqaradi.*

21. Obdish ***[Ābdiš]*** **- qaynagan suv.** *Kasal bo‘lib qolganimizda buvim doim suv yoki choyni o‘rniga issiqina obdish ichirganlari hali ham yodimda.*

22. Og‘ayni ***[Āγäjni]*** **- qarindosh.** *To‘yni shunisi yaxshiki, uzoq-yaqin og‘ayni(āγajni)larimizning hammasini bilan diydorlashamiz.*

23. Og‘il ***[Āγil]*****- chorva mollari saqlaydigan joy.** *Yoz kelishi bilan og‘il(oγil)dagi hamma mollarni dalaga olib chiqib ketyotganda yolg‘iz qolgan govmishimni ko‘zlari jovdirab qolardi.*

24. Pamadir ***[Pamadir]*** **- pomidor.** *Polizda pishgan qip-qizil pamadir(pamadir)larga tuz sepib yeyish jonni rohatida.*

25. Pashsha ***[Pašša]*** **- chivin.** *Yozda tashqarida yotish yaxshi-ku, shu pashsha(pašša) o‘lgurlarni igna sanchgandek chaqishi yomon-da.*

26. Pidana ***[Pidänä]*** **- yalpiz.** *Bahor kelishi bilan ariq bo‘ylarida chiqib qolgan pidana(pidänä)larni yoshgina qizchalar terib yurishi go‘zal manzarani kasb etadi.*

27. Pirmiz ***[Pirmiz]*** **- ikki tarafida ushlagichi bor chuqur temir idish.** *Har kuni ertalab sutni pirmiz(pirmiz)ga solib ayvonga osib qo‘yish menga odat edi.*

28. Piyova ***[Pijävä]*** **- mastava.** *Agar shomollab qolsam, onam darrov qalampir solib piyova(pijävä) qilib beradilar.*

29. Pishak ***[Pišäk]*** **- mushuk.** *Bir qarasam ukam pishak(pišäk)ni dumidan tortib qiynayotganini ko‘rib urib beridim .*

30. Pichak ***[Pičäk]*** **- xamirni ichiga qovoq yoki ko‘kat solib tandirga yopiladigan ovqat.** *Men uchu Navro‘zda pishiriladigan eng yaxshi ovqat - ko‘k pichak(pičäk).*

31. Poycha ***[Pājča]*** **- lozim.** *Kichik singlim dugonalari bilan o‘ynagan vaqti ko‘ylaklari-yu poycha(pājča)larini kir qilib kelib onamning urishishini bilib darvozadan kira olmay o‘tirsa, ukam onamni chalig‘itib turganida kirib ketardi.*

32. Qanor ***[Qanār]*** **- odatdagidan katta qop.** *Har gal somon sotib olsak, uni qanor(qanār)lab toshish kerakligini o‘ylab charchab ketaman.*

33. Qaroli ***[Qarāli]*** **- olxo‘ri.** *Shohlari sinib ketgudek meva solib odamni ko‘zini quvnatadi-ya, bu qurg‘ur, qaroli(qarāli)*

34. Qayish ***[Qajiš]*** **- xamirni mayda qilib kesib tayyorlanadigan ovqat, shilpildoq.** *Onam uyda ovqat qilishga hech narsa qolmaganida yo‘qdan bor qilib sevimli taomimiz bo‘lgan qayish(qajiš)jonni qilib berardilar. Ayniqsa qayishga saryog‘ solib yesang, jonni rohati.*

35. Ro‘pak ***[Ropak]*** **- fartuk.** *Har gal nonga xamir qorganimda boshimga ro‘mol o‘rayman-u, belimga ro‘pak(ropak) toqish yodimdan chiqib qolishi yomonda.*

36. Satil ***[Sätil]*** **- chelak.** *Yozing issiq kunlarida qishloqda issiq yer ustiga satil(sätil)lab sepilgan suvning hidi odamga boshqacha yoqadi-da.*

37. Yavon ***[Jävān]*** **- ekinlar ekiladigan katta ochiq maydon.** *Yavon(yävān)ga chiqish navbati dadamga kelganida doim ukamni ham birga olib ketadi.*

38. Yaxtay ***[Jäxtäj]*** **- sovuq.** *Issiq kunlari ko‘chadan kelgan payting uyda yaxtay(jäxtäj)gina chalob ichish mazza.*

39. Yutamoq ***[Jütämāq]*** **- chanqamoq, suvsamoq.** *Yutab ketganimdan onam sovutishga qo‘yib qo‘ygan qatiqni ichib qo‘yibman.*

40. Zaldori ***[Zaldāri]*** **- o‘rik daraxti yoki mevasi.** *Ukam zaldori(zaldāri) teraman deb shoxdan yiqib o‘ziga ish orttirdi.*

41. Zovur ***[Zāvur]*** **- chuqurlikdagi to‘plangan suv, ko‘l.** *Yoshligimizda tushlikdan so‘ng uxlamasdan zovur(zāvur)ga cho‘milgani qochib ketardik.*

42. Zo‘g‘ata ***[Zoγata]*** **- ip o‘raladigan buyum.** *Ignani ishlatgandan so‘ng birdaniga zo‘g‘otaga(zoγata)ga tiqib qo‘ymasa, kimningdir oyog‘iga kirib ketishi tayin.*

43. G‘altak ***[γältäk]*** **- og‘ir narsalarni boshqa yoqqa o‘tkazadigan arava.** *G‘ishtlarni qo‘lda tashigandan ko‘ra g‘altak(γältäk)da oson bo‘lishini bilgan Anvar shartta qo‘shnimiznikidan g‘altak so‘rab olib kelib berdi.*

44. Shipirgi ***[Šipirgi]*** **- supurgi.** *Onam shipirgi(šipirgi)ni tik qilib bo‘yganimni ko‘rib qolsa doim urishadi. Nima emish yomo bo‘larkan. Hech kattalarni gapiga tushunmayman-da.*

45. Shulla ***[Šüllä]*** **- shovla.** *Ukam shulla(šüllä)ni yoqtirmaydi. Shullani hech oshdan kam joyi yo‘q. Qaytaga qalampir sepib yesang, qancha yesang ham to‘ymaysan.*

46. Chakki ***[Čakki]*** **- suzma.** *Yog‘liqina chakki(čakki)dan bo‘lgan qurutlarga nima yetsin.*

47. Chalop ***[Čalāp]*** **- suzma yoki qatiqdan tayyorlanadigan chanqoqbosdi ichimlik, ayron.** *Oldinlari yozda bodiring solingan chalob(čalāb)ni bozor bo‘ylab tarqatib yurardim. Issiqda rosa zo‘r ketadi-da.*

48. Chertak ***[Čertäk]*** **- uy tomining odam yura oladigan qismi.** *Eski lekin juda kerakli bo‘lgan katta bobomning kitoblari chertak(čertäk)da chang bosib yotgan ekan.*

49. Chivin ***[Čivin]*** **- pashsha.** *Yozda endigina uydagi chivin(čivin)larni quvib, pardalarni tushirib endigina o‘tirganingda bitta chivinni qolib ketishi alam qiladi.*

50. Cho‘lpi ***[Čolpi]*** **- suvda qaynatib pishiriladigan narsalarni olish uchun moslashtirilgan oshxona jihozi.** *Yotoqxonada cho‘lpi(čolpi)miz sinib qolgadan beri uni o‘rniga kapgir ishlatib yuribmiz.*

Bu dialektal so‘zlarni, ya’ni bir qishloq shevasi leksikasidagi izoleksemalarni leksik-semantik jihatdan quyidagi ma’noviy guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) ovqat nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: *[Bäräk]* Barak - chuchvara; *[Keskan oš]* Keskan osh - ingichka qilib kesilgan xamirni qatiqqa solib tayyorlanadigan suyuq ovqat; *[Ābdiš]* Obdish - qaynagan suv; *[Pijävä]* Piyova - mastava; *[Pičäk]* Pichak - xamirni ichiga qovoq yoki ko‘kat solib tandirga yopiladigan ovqat; *[Qajiš]* Qayish - xamirni mayda qilib kesib tayyorlanadigan ovqat, shilpildoq; *[Šüllä]* Shulla - shovla; *[Čakki]* Chakki -

suzma; *[Čalāp]* Chalop - suzma yoki qatiqdan tayyorlanadigan chanqoqbosdi ichimlik, ayron.

2)uy - ro‘zg‘or buyumlarini fodalovchi dialektal so‘zlar: *[Betāncä]* Betoncha - bitta ushlagichli suv va boshqa narsalarni qaynatadigan chuqur sirli idish*; [Dāstïq]* Dostiq - yostiq; *[Girdixānä]* Girdixona - o‘tirish uchun ostga to‘shaladigan, 8 metrgacha bo‘ladigan to‘shak, ko‘rpacha; *[Lagan]* Lagan - kir solib yuvadigan tog‘ora; *[Läli]* Lali - asosan osh va boshqa taomlarni suzadigan likopcha; *[Loltäkäj]* Lo‘ltakay - uzunchoq yostiq; *[Pirmiz]* Pirmiz - ikki tarafida ushlagichi bor chuqur temir idish; *[Ropak]* Ro‘pak - fartuk; *[Zoγata]* Zo‘g‘ata - ip o‘raladigan buyum; *[Šipirgi]* Shipirgi - supurgi; *[Čolpi]* Cho‘lpi - suvda qaynatib pishiriladigan narsalarni olish uchun moslashtirilgan oshxona jihozi.

3)narsa ifodalovchi dialektal so‘zlar: *[Därčä]* Darcha - qishloqlarda qo‘shni uylar o‘rtasidagi kichik darvoza; *[Kunda]* Kunda - to‘nka; *[Qanār]* Qanor - odatdagidan katta qop; *[Sätil]* Satil- chelak; *[γältäk]* G‘altak - og‘ir narsalarni boshqa yoqqa o‘tkazadigan arava; *[Čertäk]* Chertak - uy tomining odam yura oladigan qismi.

4)meva va poliz ekinlari nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: *[Almurut]* Almurut - nokning kichigi; *[Kädi]* Kadi - oshqovoq; [Pamadir] Pamadir - pomidor; *[Pidänä]* Pidana - yalpiz; *[Qarāli]* Qaroli - olxo‘ri; *[Zaldāri]* Zaldori - o‘rik daraxti yoki mevasi.

5)harakat va holatni ifodalovchi dialektal so‘zlar: *[Anqimāq]* Anqimoq - yomon hid tutib ketmoq, sasimoq; *[Gäpxānä]* Gapxona - suhbatlashish; *[Jütämāq]* Yutamoq - chanqamoq, suvsamoq.

6)qarindosh-urug‘ nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: *[Bäčä]* Bacha - bola; *[Bolä]* Bo‘la - aka-ukalarning farzandlari; *[Āγäjni]* Og'ayni – qarindosh.

7)tana azolari nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: *[Bāvir]* Bovir - jigar.

8)so‘zlashuvga oid dialektal so‘zlar: *[Häj]* Hay - ho‘p; *[Hij]* Hiy - nega; *[Innän]* Innan - keyin.

9)chorvachilikka oid dialektal so‘zlar: *[Āγil]* Og‘il - chorva mollari saqlaydigan joy.

10)hasharot uy hayvonlari nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: *[Paššа]* Pashsha - chivin; *[Pišäk]* Pishak - mushuk; *[Čivin]* Chivin - pashsha.

11)kiyim nomlarini ifodalovchi dialektal so‘zlar: *[Pājča]* Poycha - lozim.

12)dehqonchilikka oid dialektal so‘zlar: *[Jävān]* Yavon - ekinlar ekiladigan katta ochiq maydon; *[Zāvur]* Zovur - chuqurlikdagi to‘plangan suv, ko‘l.

13)harorat ifodalovchi dialektal so‘zlar: *[Jäxtäj]* Yaxtay - sovuq.

Xullas, biz Narpay tumani Totkent qishlog‘i shevasidan yig‘ilgan bir qancha dialektal so‘zlarni adabiy-orfografik so‘zlardan farqlab, ularni alohida so‘zlik sifatida olib, ularga kichik hajmli lug‘at-maqolalar tayyorladik. Bu esa kelajakda Narpay tumani shevasi lug‘atini ilmiy va nazariy jihatdan tayyorlashga asos bo‘ladi deb bilamiz. Shu o‘rinda, ta’kidlashimiz lozimki, lug‘at maqolalar tayyorlash yo‘lidagi ilk faoliyatimizning mahsuli yuqorida tahlilga tortilgan dialektal so‘zlardan iborat misollardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI:

1. Abdullaev, F. A. (1957). O‘zbek tilining qipchoq shevasi // O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. II qism. Toshkent.
2. Rajabov, N. (1977). O‘zbek tilining G‘arbiy Samarqand shevalari. Toshkent.
3. Tursunov, U., & Doniyorov, X. (1959). O‘zbek tilidagi singarmonizm haqida // Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek Davlat universitetining asarlari. Samarqand.
4. Ishayev, A. (1989). O‘zbek shevalari leksikasidan materiallar to‘plash uchun so‘roqlik. Toshkent: Fan.
5. Shoimova, N. (2009). O‘zbek shevalari leksikasini o‘rganishning dolzarb masalalariga doir (Qashqadaryo vohasi materiallari asosida) // SamDU Ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. 6(58)-soni. Samarqand.

“QIZILTOM” QISHLOG‘I SHEVASIGA OID AYRIM DIALEKTAL SO‘ZLARNING IZOHI

Erkin Erali o‘g‘li Mahammadiyev,
ToshDO‘TAU talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qiziriq tumani “Qiziltom” qishlog‘i shevasiga oid so‘zlar haqida ma’lumot keltirilgan. Bu turdagi maqolalarning yozilishidan maqsad shuki, aholisi to‘rt mingdan ortiq bo‘lgan ushbu qishloq va shunga o‘xshash qishloqlarning shevalari yo‘qolib borayotganligining oldini olishdir. Har bir sheva so‘zida unga xos ma’no, ya’ni dialektal ma’no borligi ishdagi misollar tahlilida o‘z ifodasini topgan.*

Kalit so‘zlar:*leksika, dialektologiya, sheva, dialektal so‘z, dialektal ma’no, chig‘il, tobatosh, lachir, oyanda, qurpachak, grabil, qosaba, jengsa, nonpar, nurmat, trama, beldov, urchuqboshi.*

Annotation. *This article provides information about the dialect of the village "Qiziltom" Qizirik district. The purpose of this type of article is to prevent the disappearance of the dialect of this village of more than 4,000 people and similar villages. The fact that each dialect has a specific meaning, that is, a dialectal meaning, is reflected in the analysis of case studies.*

Keywords: *lexicon, dialectology, dialect, dialectal word, dialectal meaning, chigil, tobatosh, lachir, oyanda, kurpachak, grabil, qosaba, jengsa, nonpar, nurmat, trama, beldov, urchuqboshi.*

O‘zbek xalqi o‘zining tarixiy taraqqiyot protsessida g‘oyat murakkab va turli bosqichlarni o‘z boshidan kechirdi, turli xalqlar bilan ijtimoiy, siyosiy va madaniy munosabatda bo‘lib, o‘z leksikasini boyitib keldi (Rahimov, 1985: 67). Biz so‘z yuritmoqchi bo‘layotgan shevalar adabiy til tushunchasiga kirmaydi, ammo shevalar tilning quyi shakli va tarmoqlari hisoblanib, adabiy tilni boyitish uchun xizmat qiladi. Demak, “Qiziltom” qishlog‘i shevasiga mansub so‘zlarning bir nechtasi ba’zi shevalarda ham uchrashi mumkin, ammo qo‘ldan kelgancha o‘zga shevalarga kirmaydigan so‘zlar yig‘ishga harakat qildim. “Shevalarni o‘rganish til tarixi uchun ham, xalq tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Adabiy tilda allaqachon yo‘q bo‘lib ketgan yoki ma’lum darajada o‘zgarib ketgan leksik elementlar va ayrim grammatik formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan bo‘lishi mumkin” (Rahimov, 1985: 5). Zero, qishloq shevalarini yig‘ish va ulardan turli xil lug‘atlar tuzish, shuningdek, shu orqali adabiy tilni boyitish siz uchun ham, biz uchun ham muhim va manzurdir.

Qishloq shevasi haqida so‘z yuritishdan oldin “sheva” va “dialect” atamalariga izoh berib o‘tsak. “**Sheva”**–forscha so‘z bo‘lib, “ravish”, “yo‘sin” degan ma’nolarni bildirib, fanda biror (milliy) tilning o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid (quyi) qismini anglatadi. "**Dialekt"** so‘zi grekcha, “sheva” degan ma’noni anglatib (aslida, qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan shevalarni birlashtiradi” (Rahimov, 1985: 4-5-betlar). Bundan ko‘rinib turibdiki, tilshunoslikda dialektologiya bo‘limi shevalarni o‘rganadigan bo‘limdir. Endi, “Qiziltom” qishlog‘idan yig‘gan shevaga xos so‘zlarni sizlarga ham ilinsam:

1. Ājanda // Oyanda — kelgusi yil. “Bu so‘zni hammadan ham ko‘ra turmush o‘rtig‘im ko‘p ishlatar edi”. Oyandag‘a mana shu yerga qovun-tarvuz, qolgan joyga pamidor ekamiz. Xudo oyandag‘a yog‘ingarchilikni mo‘l bersa, hosilimiz yaxshi bo‘ladi.

2. Nonpar – patirga gul soluvchi jihoz. Har doim non qilganimda patirga, nonning o‘rtasiga nonpar urardim. Nonparlangan non pishiq bo‘lar edi. Bolalarimning hammasi patirni nonparlashga qiziqar edi.

3. Tobatosh – non pishiradigan tosh. Har zamon-har zamonda tobatoshga non pishirib turardim. Chunki, tobatoshda pishgan nonning mazasi yaxshi edi. Doim yerni qazib tobatoshni o‘rnatsak, bolaligim esimga tushib ketardi.

4. Chig‘il – teshiklari katta-katta bo‘lgan elak. Uning teshiklaridan no‘xat ham sig‘ar edi. Ko‘proq bizda bug‘doyni katta-katta somondan, moshni bo‘lsa, qobig‘idan ajratishda ishlatilar edi. Bug‘doy va moshlarni birinchi chig‘ildan, keyin g‘alvirdan o‘tkazar, shundagina ularni ajratib olish oson bo‘lardi. Butun boshli ko‘chaga bitta chig‘il yetardi. Hamma qo‘ni-qo‘shnilar almashib ishlatishar edi.

5. Zombariq – qo‘ziqorin. Bahor paytlar dala va ajiriqli joylarda zombariqlar yomg‘irdan so‘ng chiqib qolar edi. Biz uni kovlab olib, zaharlimi yoki zaharsizligini tekshirib, keyin undan perashka pishirar edik.

6. Oynaxolta – yog‘och qoshiqlar solinib, ilib qo‘yiladigan xaltacha. Devorga mix qoqib, unga oynaxoltani osib qo‘yardik. Qoshiqlarning hammasini shuning ichiga solib, yana shundan olib ishlataverardik. Og‘zida bog‘i bo‘lib, tortsak yopilardi, qo‘limiz bilan kengaytirsak, ochilardi.

7. Trama – kuz. Kuzni hech kuz deb aytmasdik. Doim trama derdik. Odamlarning hammasi tramada mollarni semirtiraman, tramada sotaman deb aytardi. Ha yana yozni doim saraton der edi. Saratonning issig‘i yomon, darrov boshdan oladi.

8. Girabil – adabiy tilda xaskash. Tomorqani traktorga haydatgandan so‘ng, bizga girabil kerak bo‘ladi. Ajiriqlarni, har xil o‘tlarni girabilda tozalab chiqardik. Girabil tuproqni ham mayin qilardi.

9. Chapcha – hali pishmagan qovun. Biz ko‘p dehqonchilik bilan shug‘ullanardik. Bolalar qovun pishishini intizorlik bilan kutardi-yu lekin chapchaligidan yeb boshlar edi. Chunki u bodringdek bo‘lsa ham tam berar edi.

10. Cho‘t – adabiy tilda tesha. Pomidorlarning qatqalog‘ini yumshatishda cho‘tdan foydalanardik. Chunki, ketmon kattalik qilardi. Bundan tashqari, orqa tomonini bolg‘a sifatida ham ishlatsa bo‘lardi.

11. Qurpachak – parvarda. Doim to‘ylarda yeryong‘oq, kanfet, mayizlar bilan birga qurpachak ham sochishardi dasturxonga. Ilgarilari qurpachakni juda ko‘p iste’mol qilardik.

12. Zabir – lux va qamishlar o‘sadigan, shudgorlarning sho‘rini o‘ziga tortib oladigan kanal. Mana shu zabir bo‘lmasa, yerni oppoq qordek tuz eggalardi. Chunki, bizning tuproqlarda sho‘r ko‘p. Shuningdek, ba’zilar zabirdagi lux va qamishlarni yedirish uchun unga mol boqishadi.

13. Kilobi to‘ppa – xamirli ovqat. Kilobi to‘ppani tayyorlashda, xamir yupqa qilib yoyilib, to‘rt burchak shaklida kesiladi va qozonga yog‘, suv, masalliqlar solib qaynagach, tashlanadi. So‘ng pishgach, chakki ya’ni suzma bilan aralashtiriladi.

14. Nurmat – hayvonlarni bo‘ynidan bog‘laganda, bo‘g‘ilib qolmasligi uchun bog‘lanadigan ikki kolsali sim. Biz sigir va buzoqlarimizni shu nurmatga ishonib bog‘lab qo‘yardik. Chunki, u arqon qancha aylansa ham chirmashib qolib yiqilmasligining oldini olardi. U ikkita aylana temirning bir-biriga ulanib turishidan iborat edi.

15. Kurtpa – ustiga yopinadigan kiyim. Kelinlarning ustiga yopinib yuradigan kiyimi bo‘lib, juda ham yengil kiyimdir. Yana *minishak* degan kiyim ham bo‘lardi. U faqat adrasdan tikilardi. Bu kiyimlar avvallari ko‘p kiyilardi, hozir esa ularning nomlari ham asta-sekin esdan chiqib boryapti.

16. Chaydash – adabiy tilda choynak. Chaydash deb asosan, o‘choqqa qo‘yib qaynatiladigan choynakni nazarda tutishadi. Ko‘proq qora chaydash deyiladi.

17. Tishlovuch – ombur. Tishlovuch simlarni to‘g‘irlash, burash kabi ishlarni bajarishda qo‘l keladi. Doim supurgini tayyorlashda tishlovuchsiz bir narsa qilish qiyin edi.

18. Jengsa – non yopishda qo‘lga kiyiladigan kiyim. Nonni jengsasiz yopib bo‘lmaydi. Chunki, u qo‘lni tandirning issig‘idan saqlovchi kiyimdir. U qo‘lning tirsakkacha bo‘lgan qismini yopadi.

19. O‘rmak – gilam. O‘rmak to‘qish juda qiziq holat. Uni qilich bilan to‘qir ekan, ipni bu yoqda u yoqqa o‘tkazadilar. Shu o‘rmak jarayonida *adorg‘i* degan so‘zga ham duch kelishimiz mumkin. Adorg‘i – gilamning to‘qilishiga yordam beruvchi moslama.

20. Lachir – tobatoshda pishiriladigan yupqa non. Biz tobatoshni o‘rnatishimiz bilan lachir tayyorlashga urinish boshlanardi. Lachir yupqa holatda xamirning pishirilgan holati. Uni sho‘rvaga to‘g‘rab yer edik.

21. Gilagay – sigirning birinchi uch kunlik suti. Gilagay sutga qaraganda quyuqroq bo‘lib, uning kaloriyasi sutdan ancha yuqori. U cho‘mich bilan qo‘zg‘agan holatda pishiriladi. Bolalarimiz talashib ichishardi.

22. Qosaba – kelinlar kiyimi. To‘yning keyingi kuni barcha ayollar kelinning yuzini ochish marosimini o‘tkazadi. O‘shanda kelin qosaba kiyib chiqadi.

23. Kapa – o‘tov, qora uy. Biz shu qishloqqa ko‘chib kelganimizda sanoqli kapalar bor edi. Biz ham shunaqa kapada yashadik. Keyin uy qurish urf bo‘ldi. Kapada yashashning o‘zgacha gashti bo‘ladi.

24. Beldov – o‘tovni o‘rab turuvchi mato. Yog‘ochdan kapani qurib bo‘lgach, uni beldov bilan o‘rab chiqqanmiz. Beldov kapani salqin holda saqlab turadi. Uning o‘zidan eshik ham qilinadi. Ko‘tarilib, tushirilib qo‘yilaverardi.

25. Bultur – o‘tgan yil. Bultur un va moyning narxi juda qimmat bo‘ldi. Oyandag‘a bulturgi narx bo‘lmas-a.

26. Jupqa – xanirli ovqat. Qozonga ozroq moy solib, so‘ng o‘sha moyga o‘xlovlangan xamirni tashlab, ag‘darib pishirardik. Juda to‘yimli va shirin taomdir.

27. Bo‘mushkul – ayollar yig‘ini. Mushkulimiz oson bo‘lsin degan maqsadda, sadaqa chiqarib, duolar qilamiz.

28. Umachosh – taom. Biz xamirdan guruchday qilib chiqar, keyin esa uni sutga pishirardik. Bizning yoshlik vaqtlarimiz enam ko‘p umachosh pishirib berar edi. Biram mazali ediki, yeb to‘ymas edik.

29. Urchuqboshi – urchuqning boshidagi to‘qmori. Urchuqni urchuqboshisiz iyirib bo‘lmas edi. Bolalar doim urchuqboshini olib qochib qolar edi, biz esa izlaganimiz-izlagan edi.

30. Dap – cholg‘u asbobi. Navro‘z kelishi bilan qishloq ahli sayllar o‘tkazar va do‘mbira, chanqovuz va dap kabi asboblar chalishar edilar. Biz ham dapni juda ko‘p chalar edik. Chunki, uning ovozi kishining charchog‘ini chiqarib yuborardi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizning barcha hududlaridagi shevalarda bo‘lgani kabi, "Qiziltom" qishlog‘i shevasida ham boshqalarga tanish bo‘lmagan so‘zlar talaygina. Yuqorida shulardan ba’zilarini keltirib o‘tdik. Zero, shevaga xos so‘zlar milliy tilni boyitishga, umuman olganda, lug‘at boyligimizni oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu qishloq shevasi haqida ma’lumot beruvchilar:

Qishloqning yoshi ulug‘ ayollaridan, 1951-yil Surxondaryo viloyati Qiziriq tumani Yangiobod mahallasi “Qiziltom” qishlog‘ida tug‘ilgan Aliqulova Mengtosh momodir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Раҳимов С. Ўзбек тили Сурхондарё шевалари. –Тошкент, 1985.

2. Решетов В.В., Шоабдураҳмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент, Ўқитувчи, 1978.

3. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. –Toshkent: Nodirabegim, 2011.

“XO‘JAHAYRON” QISHLOG‘I SHEVASIGA OID DIALEKTAL SO‘ZLAR IZOHI

Nuraliyev Shohrux Yunus o‘g‘li,
ToshDO‘TAU talabasi

Annototsiya. *Ushbu maqolada turkiy hamda o‘zbek xalq shevalarini o‘rgangan Mahmud Qoshg‘ariy va boshqa dialektologlarning faoliyatiga qisqa to‘xtalingan. Ayni vaqtda to‘plangan sheva so‘zlarining kamligiga, ularning yig‘ilishiga e’tibor qaratilgan holda ko‘p dialektal so‘zlar o‘rganilmasdan qolib ketayotganligi ham ta’kidlangan. Bunga misol qilib Quyi Qashqadaryo vohasidagi Xo‘jahayron qishlog‘i shevasi leksikasidan misollar keltirilgan va ularning izohi bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Sheva, ona tili, sheva fonetikasi, sheva grammatikasi, sheva leksikasi, dialektal zona, dialektal so‘z, izoleksema, “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”, dialektal leksikografiya.*

Annotation. *This article gives a brief overview of the work of Mahmud Kashgari and other dialectologists who studied Turkish and Uzbek dialects. At the same time, it was noted that many dialectal words remain unexplored due to the lack of dialects and their accumulation. Examples are given from the dialect lexicon of the village of Khojahayron in the Lower Kashkadarya oasis, and their explanations are given.*

Keywords: *Sheva, native language, dialect phonetics, dialect grammar, dialect lexicon, dialectal zone, dialectal word, isolexema, "Dictionary of Uzbek folk dialects", dialectal lexicography.*

Shevalarimiz ona tilimizning asl mohiyatini dialektal so‘zlarini saqlab, talaffuzda ifodalaydi. O‘zbek xalq shevalari bugungina o‘rganilmagan, balki qadimdan, ya’ni Mahmud Qoshg‘ariy va boshqa alloma olimlar tomonidan o‘rganilsa-da, ammo shevalarimizning barcha leksik boyligini mukammal sheva lug‘ati yaratilmagan. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘at-it turk” nomli dialektal lug‘atida olti yarim ming dona sheva so‘zlari bor ekan. X-XX asrlarda asosiy e’tibor fonetika, grammatikaga berilganligi, qisman shevalarning leksikasi o‘rganilib kelinayotgan bo‘lsa-da, ularning fonetikasi, grammatikasi ancha o‘rganilgan holda leksikasi nomigagina o‘rganilganligini ustozlarimizdan eshitdik[Qoshg‘ariy:1-t. 500 b.; 1-t. 464 b.; 1-t. 544 b.;]. Albatta, 1971-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalarining lug‘ati”dagi to‘qqiz ming so‘zning borligi yaxshi, ammo juda kam so‘zlik yig‘ilganligini ta’kidlashni istardik[Ўзбек халқ шевалари луғати, 1971: 2-319.]. Shuning uchun shevalarimizning

leksikasiga bu maqolamizda jiddiy e’tibor qaratdik va dialektal leksikografiya masalalarini ham o‘rganishni boshladik [Ишаев: 188; 37-42.].

Shu o‘rinda ta’kidlashni istardikki, Xo‘jahayron qishlog‘i Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumani hududidagi qishloqlardan biri sanaladi. “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan darslar o‘tilayotgani uchun yaqinlarimiz va tanishlarimiz yashagan hamda yashashyotgan mazkur qishloq shevasining leksikasiga, ya’ni dialektal ma’no munosabatlari bilan jiddiy farqlanib turuvchi quyida berilgan izoleksemalariga [Джураев, 1991: 193.] e’tibor qaratishni o‘rinli deb bildik.

Qashqadaryo viloyati shevalari ikkita alohida dialektal zona guruhiga ajratilgan: 1.Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. 2.Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari[Жўраев, 1991: 160; 1969:25-31; 1966: 160-249.]. Bu hududni A’zam Shermatov[Shermatov,1972: 220;19975:130; 1978: 180; 1979: 210; 1981:64.], Bolta Jo‘rayev [Jo‘rayev, 1963: 160], Kenja Usmonov [Usmonov, 1989:140.], To‘ra Qudratov[Qudratov,1976: 37-48.], To‘ra Nafasov [Nafasov, 2011:466.], Nasiba Shoimova [Shoimova:25;140;98-100;202-204;72-73; 70-72;136; 202-204.] singari alloma olimlar tadqiq qilishgan bo‘lsa-da, ularning hamma leksikasiga jiddiy e’tibor berishmagan. Albatta, sheva leksikasi bo‘yicha ham ma’lum miqdorda ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [Adabiyotlar ro‘yxatiga qarang.].

Biz o‘rganayotgan Xo‘jahayron qishlog‘i Quyi Qashqadaryo o‘zbek shevalari tarkibiga kiradigan alohida bir shevadir. Lekin professor A’zam Shermatovning [Shermatov,1972: 220;1975:130;1978:180; 1979: 210; 1981: 64.] ilmiy ishlarida bu qishloq shevasiga oid lekik materiallarni ko‘rmadik. Chunki Quyi Qashqadaryo alohida dialektal zonalardan biri [Джураев, 1991:74-75.] sifatida ko‘p aholi punktlariga egaligi va ulardan bir nechasining o‘rganilmay qolishi ham tabiiy holdir. Mazkur shevadagi dialektal so‘zlar eshitilishi va dialektal ma’nolari bilan kishining e’tiborini o‘ziga tortadi. Bu maqola boshlagan ilmiy kuzatishlarimizning qutlug‘ debochasi sanaladi. Bunday so‘zlarni yig‘ish, jamlash, dialektal lug‘at qilish rejasmizda borligi uchun hozircha quyidagi dialektal so‘zlarni sizlarning hukmingizga havola qilishni maqsadga muvofiq deb bilamiz[Гаджиева, 1975: 3-4.].

1. Zamarrug‘ [zamarriq]– qo‘ziqorin. Bahor oylarida zamarrug‘lar bo‘y ko‘rsatishi bilan, ularni terib kelib, tuxum bilan aralashtirib, qovurib yer edik. Zamarrug‘ni tuxum bilan birga qo‘shib yeyilsa, qo‘y go‘shti va quyrug‘ining quvvatini beradi, der edi Nurali buvang.

2. Zommi [zɔmm’]– handalak. Qishlog‘imiz janubiy o‘lkalardan biri bo‘lgani sababli aprel oyi oxiri, may oyi boshlarida zommilar yetilib, qishloq

bozorida xaridorgir bo‘lardi. Zommining yoqimli hidi va shirin ta’mi haligacha esimda, kerak bo‘lsa qumsayman ham.

3. Ipay jo‘rov [ipay jorɔv]– uy supurgi. Onam va yangamlar asosan, dahliz va mehmonxonalarimizni ipay jo‘rovda supurishar edi. Biz aka-ukalar bolaligimizda uyni tozalashda ipay jo‘rovni ishlatardik.

4. Bolor [bɔlɔr]– to‘sin. Otam 5-10 yilda bolor bo‘ladi, deb hovli girdiga devorga taqab, qatorlashtirib terak ekardilar. Bolorlarni quruq joyda saqlashni ko‘p tayinlardilar.

5. Belqars [belqars]– qiyiq. Kuyovlik maqomida bo‘lgan yigitlar ustilariga chopon, boshlariga salla kiyib, bellariga qubbali belqars o‘rashadi, hozirgacha shunday davom etib kelyapti. Asosan, to‘y-hashamlarda atlas va adras matosidan qilingan belqarslar belga boylanardi. Yosh-u qari birdek belqars o‘rab yurishadi, qishlog‘imizda.

6. Julop [julɔr]– paypoq. Ota-onam qish faslida menga qalin julop olib berishardi. Yozda esa oq rangli juloplarimni kiyardim.

7. Jahay [jəhəy]– jiyak. Qishlog‘imizdagi ayollar, xotin-xalaj jahayli ishton kiyishadi. Kelinlikka sarpoga ham jahayli ishtonlar tikishadi.

8. Jelay [jeləy]– momolik marosimida o‘raladigan ro‘mol. Lochay – shu marosimda kiyiladigan kiyim. “Xo‘jahayron” qishlog‘ida shunday bir marosim borki, bu marosimda ayollar nevaralik bo‘lganida, unga jelay o‘raladi, lochay kiydiriladi. Jelay o‘rash va lochay kiydira turib, xotin-halaj nevaralik bo‘lgan momani o‘rtaga olib, o‘sha ayolni moma bo‘lgani bilan tabriklaydi.

9. Shoxa jo‘rov [shɔxa jorɔv]– hovli supurgi. Qishlog‘imizda ko‘chalarning boshi, hovli, darvozaxonalar shoxa jo‘rovda supuriladi. Qishloq hasharlarida, maktablarda shanbalik bo‘lganida, shoxa jo‘rovdan foydalanar edik. Hozir ham qishloq ahli shoxa jo‘rovdan uy-ro‘zg‘or buyumi sifatida foydalanib kel

10. Tarosha [tarɔsha] – qalin yog‘och o‘tin. Taroshalarni bir xil qilib chopib, taxlab qo‘yardik. Tandirga non, somsa, puchaylar yopish uchun onam taroshalardan ishlatardi. Qishlog‘imiz ahli sovuqda qolib, jon-jonidan o‘tib ketsa, “Taroshaday qotib qoldim”, deyishadi.

11. Tarray [tarray]– chala pishgan qovun. Yoshligimizda bahor kezlari tarraylarni sevib iste’mol qilardik. Tarraydan ko‘p yeb qo‘ysak, tirriq (ich ketish) qilardi.

12. Tikach [tikach]– nonga gul bosadigan uy-ro‘zg‘or buyumi. Bizning qishloqda non yopishdan oldin, nonning yaxshi pishishi uchun xamirga yaxshilab tikach uriladi. Yaxshi tikach urib yopilgan non mazali bo‘ladi.

13. Girdixona [girdixɔna]– ko‘rpacha. Qishlog‘imiz uylarining mehmonxonalarida uzunligi 8 metrgacha bo‘lgan astarli girdixonalar sandiqqa

taxlab qo‘yiladi. Quroqlardan naqsh solingan matolardan tikilgan girdixonalar kelin-kuyovlar sarpoliligiga ham tayyorlanadi.

14. Olado‘ppi [ɔladopp’]– kalampir naqshli do‘ppi. Otamning aziz boshidagi olado‘ppisi eskirib, sarg‘ayib ketsa ham hech yechmas edi. Boshni olado‘ppidek asraydigan narsa bor ekanmi, der edi otam.

15. Chalob [chalɔb]– ayron. “Xo‘jahayron” ahli chalobni sevib iste’mol qiladi. Ayniqsa, chalobga bodring, pomidor, yangi ko‘k sarimsoq, barra piyozlarni to‘g‘rab ichishni xush ko‘rishadi.

16. Chakki [chakk’] – suzma. Qishloq sharoitida chakki tayyorlash uchun surpdan maxsus xaltachalar tikiladi. Toshkentga kelib, bozorlarini kezib yurganimda chakkini suzma deyishganida ochig‘i, birinchi marotaba tushunmaganman.

17. Cho‘ki [chok’]– cho‘p. “Xo‘jahayron”dagilar daraxtning ingichka tanachalarini, yerda qurib yotgan cho‘plarni cho‘ki deb atashadi. Dadam olmaqand olib berganlarida, cho‘kisi uzunini tanlardim.

18. Sho‘rto‘ppa [shortoppa]– uzun shaklda kesib tayyorlangan va ustiga qovurilgan piyoz quyilgan quyuq xamir ovqat. Men bolaligimda onam tayyorlab bergan sho‘rto‘ppani mazza qilib yer edim.

19. Piyozdog‘i [piyɔzdɔg‘i]– pomidor va piyozning qizartirib pishirilgan turi. Bolalik kezlarim maktabdan qaytishda mahalla bo‘ylab yurib, ko‘chaga taralayotgan piyozdog‘ining yoqimli hididan, ehtimol shu uyda sho‘rto‘ppa pishirishayotganini katta ehtimol bilan xayol qilardim.

20. Kalos [kalɔs] – kaltakesak. Ayni jazirama issiq kunlarida, qishloqdagi paxsa devorlar ustida, dalalardagi qaqshab yotgan kesaklar orasida kaloslarni tez-tez ko‘rish mumkin. Bolaligimzda, qo‘limiz kalosga tegib ketsa pes bo‘lib qolamiz, deb rosa qo‘rqardik. Kattalar shunday deyishgan-da.

21. Keskan oshi [keskan ɔsh’] – ingichka qilib kesilgan xamirdan tayyorlangan suyuq ovqat. Muloyim va to‘yimli ovqatlardan biri bu shubhasiz keskan oshidir. “Xo‘jahayron”dagilar hatto, keskan oshi uchun xamirni kesib, quritib, g‘amlab qo‘yishadi.

22. Qaqanay/dalama [Qaqanay/dalama] – og‘uz. Sigirimiz tuqqanida momalarimiz, holalarimiz qaqanay va dalama tayyorlashadi. Echkilar yangi tuqqanida qaqanay va dalama qilishar edi. Shifobaxsh ekanligini ko‘p takrorlashar edi.

23. Qaroli [qarɔl’]– olxo‘ri. Onam qishlikka g‘amlab, behi bilan qarolidan ko‘p qiyom yopardilar. Behi bilan qaroli murabbosining rangi bir-biriga o‘xshash nopormon tusda bo‘lardi.

24. Qayish [qay’sh]– shilpildoq. Aksariyat holatlarda ro‘zg‘orda ovqat pishirish uchun masalliq qolmasa, undan xamir tayyorlab, suvda qaynatib, bordan

yo‘q degandek, onam qayish pishirib berar edilar. Qayishni ham issig‘, ham sovug‘i bir-biriga o‘xshamas betakror ta’m beradi. Unda go‘sht, sarhil sabzavotlar bo‘lmasa ham, onamning qaynoq mehri bor edi.

25. Qatim [qat’m] – ignaning ipi. Mashraboy momang tikuvchilikdan ham yaxshigina xabardor edi. Tikuv mashinasi tortmasida har xil rangdagi qatimlar bo‘lardi. Quroq ko‘rpalar tiksalar har xildagi qatimlar ishlatardilar.

26. Qanor [qanɔr] – katta qop. Qishloq dalalarida yetishtirilgan sabzi va sholg‘omlarni qanorlarga presslab joylanardi. Mol-hollarga beriladigan yemlar, somon va hashaklar ham qanorlarda saqlanardi. Ham mo‘l bo‘ladi, ham barakali bo‘ladi.

27. Quspechay [quspechay] – to‘rtburchak shakldagi mayda parvarda. Qishlog‘imizning qaysi bir xonadoniga bormang, dasturxonidagi shirinliklar orasida quspechayga ko‘zingiz tushadi. Maydakkina, muloyim va shirin quspechayni keksalar nonni suvga ivitib yeyishadi.

28. Kunda [kundə] – to‘nka. Yoshligimizda taroshalarni kunda ustida yorib, taxlardik. Qishlog‘imizdagi eng katta kunda qishloq markazidagi qassobning do‘konida bo‘lar edi.

29. Kadi [kad’]– oshqovoq. “Xo‘jahayron”da kadi solib pishirilgan qaynatma sho‘rvaning mazasi yetuk bo‘ladi. Qishlog‘imiz kattalarini bozorga tushganlarida ko‘p kuzatardim. Ular sotib olayotganda, kadini pichoq bilan qirib, rangining qizg‘ishrog‘ini va qirib yeb ko‘rib, eng shirinini tanlashar edi.

30. Kadipuchay [kad’puchay]– to‘rtburchak shakldagi qovoqli somsa. Quyrug‘ – dumba yog‘. To‘y va turli marosim tadbirlarida qarindosh-urug‘lar tog‘orasida har xil kadipuchaylar kelardi. Tandirda qizartirib pishirilgan va ichiga quyrug‘, charvi solingan, ustiga yog‘ surtilgan kadipuchayni, o‘g‘lim yemabsan, bu dunyoga kelmabsan.

31. Sachalvo [sachalvɔ] – pashmak holva. Bolaligimizda aka-ukalar shirinliklarni juda xush ko‘rar edik. Ayniqsa, sachalvoni. Sachalvoni hayit kunlari ziyoratgohlar yonidagi yoyma do‘konlardan ham xarid qilsa bo‘ladi.

32. G‘o‘lim / G‘o‘lin [G‘ol’m / G‘ol’n] – turshak, g‘o‘limova - o‘rik sharbati, birinjova – mastava. Biz yozda o‘zimizning hovlidagi o‘rik (zardoli) daraxtidan ularni terib, quritib g‘o‘lim qilardik. Ayni qahraton qishda taomlardan yorma, birinjovalarga solar edik. U taomni shirin qilardi. Yozga chiqib, qolgan g‘o‘limlardan g‘olimova qilib ichardik.

33. G‘ulva [g‘ulva] – beton quvur. Hovlimizda uyimiz yonidan o‘tgan ariqqa yotqizish uchun olib kelingan bir g‘ulva bo‘lardi. Hozirda bu g‘ulvani o‘t bosib yotgan bo‘lsa kerak?!

34. Satil [sət’l] – chelak. Hovlimizda temir va plastmassa satillar ko‘p bo‘lardi. Sho‘r suvni quduqdan ip bog‘langan temir satilda tortib, hovliga

separdik, gullarni, mollarni sug‘orar edik. Shirin suv saqlanadigan hovuzimizdan suv olib ichish uchun alohida satil ishlatardik.

35. Nopormon [nɔpɔrmɔn] – binafsharang. Momamning nopormon ko‘ylaklari bor edi. Osmon nopormon rangda ko‘rinardi.

36. Pistoqi [p’stɔq’] – yashil. Tasviriy san’at darsida svetoforning yashil rangini pistoqi qalam bilan bo‘yardim. Onam to‘y-ma’rakaga borganida, ko‘proq pistoqi ro‘molini o‘rab borar edi.

37. G‘o‘zachungul [g‘ozachungil] – paxta o‘simligining o‘tini. Paxta terish mavsumi tugab, qishloqdagilar g‘o‘zachungul g‘amlash payida bo‘lishadi. Kech kuz va erta qishda gaz ta’minoti o‘chirilgach, qishloq ahli tilichka-tilichka g‘o‘zachungulni pulga bo‘sa ham sotib olaverishadi. Hovlilarning o‘choqxonasiga ko‘z qiri bilan qarab, qishga tayyorgarligini g‘o‘zachungul g‘amlab bosilgan yerdan ham bilsa bo‘lardi. G‘o‘zachungulni suv, choy qaynatish va ovqat pishirish uchun ishlatardik.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, Xo‘jahayron qishlog‘i shevasida uchragan so‘zlarning juda ko‘pchiligi boshqa ba’zi bir shevalarda uchrashi mumkin. Biroq adabiy tilda ular juda ham kam miqdorda uchrashini hisobga olib ushbu maqolani yozdik. Zero, bir aholi punkti shevasi vakillari qo‘llaydigan leksik birliklari, ya’ni izoleksemalari ham unga yaqin bo‘lgan boshqa aholi punktlarining dialektal leksik birliklaridan farqlanishi mumkin. Bunday holni taniqli tilshunoslardan biri N.Z. Gadjieva o‘zining “Проблемы тюркской ареалной лингвистики. Среднеазиатский ареал” nomli kitobida ma’lum me’yori va talablariga asoslangan izoleksemalar tasnifida uchrashi mumkinligini ta’kidlagan [Gadjieva: 3-4.].

Bir aholi punkti shevasi vakillari qo‘llaydigan leksik birliklarga, ya’ni izoleksemalarga keltirilgan matn (gap) shaklidagi misollarni transkripsiyada yozishimizga ko‘p vaqt ketishini hisobga olib, hozirga adabiy-orfografik holatini berishni o‘rinli deb bildik. Keyingi ishlarimizda transkripssiya bilan ishlashimiz aniq. Bu yerdagi dialektal so‘zlar biz yig‘gan materiallarning o‘ndan biri sanaladi, desak, nokamtarlik bo‘lmas. Sheva so‘zlarini yig‘ish kishini charchatmas ekan, “Yana ham ko‘p so‘z to‘play”, deb harakatda bo‘lish tabiiy hol bo‘lib qolar ekan.

Demak, shevalarning dialektal so‘zlarini ustozlarning maslahati va ko‘rsatmalariga tayanib, ma’lum tizimda yig‘ib borsak, katta hamda ko‘p miqdorli dialektal so‘zlar majmui jamlanishi aniq. U kelajakda mukammal va ko‘p tomli “O‘zbek xalq shevalarining lug‘ati”ga amaliy materiallar majmudan biri bo‘lib xizmat qilgani kabi bir qishloq shevasi misolida o‘zbek shevalarining boyligini ham tasavvur etish mumkin bo‘lgani kabi yig‘ish imkoniyati ham bor.

Axborot beruvchi: Shirinov Yunus Nuraliyevich. 1969-yil 1-yanvarda Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani “Xo‘jahayron” qishlog‘ida tug‘ilgan. Kasbi: neft-gaz geologiyasi sohasida o‘qituvchi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғот-ит турк. Уч томлик. I т. -Тошкент: Фан, 1960. 500 b.

2. Ўзбек халқ шевалари луғати. -Тошкент: Фан, 1971. –Б. 2-319.

3. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. -Тошкент: Фан, 1990. 188 b.

4. Джураев А.Б. Теоретические основы ареалного исследования узбекоязычного массива. -Ташкент: Фан, 1991. –С.193.

5. Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Тошкент, 1963. 160,.

6. Шерматов А. Қуйи Қашқадарё ўзбек шевалари. Т., 1972. 220 b.

7. Жўраев Б. Ўзбек адабий тили ва диалектлари. -Тошкент, Фан, 1963. 160 b.

8.Усмонов К. Форма настоящего глагола в говорах узбекского языка. АКД. –Ташкент, 1989. 140 b.

9.Ўринова О. Қашқадарё шеваси лексикасида қорамол анатомияси ва унда учрайдиган касаллик номлари // Ўзбек тилшунослиги масалалари. Тошкент, Қарши, Насаф, 2012. 148-153-бетлар.

10.Қудратов Т. Шевалар қандай аралашадилар? // Ўзбек тилшунослиги масалалари.-Тошкент, Қарши, 1976. 37-48 b.

11. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. –Тошкент: Муҳаррир, 2011. 466 бет.

12. Ўзбек шевалари лексикаси.Т.,1956.

G‘URJOB QISHLOG‘I SHEVASIDAGI BA’ZI BIR DIALEKTAL SO‘ZLAR XUSUSIDA

Saidova Hilola – ToshDO‘TAU

ToshDO‘TAU talabasi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada “Bir sheva lug‘ati” loyihasining qanchalik to‘g‘ri ekanligi o‘z ifodasini topgan. Bu maqolada Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumani G‘urjob qishlog‘i shevasiga xos bo‘lgan bir qancha so‘zlar keltirilgan va ular izohli tahlil qilingan. Tahlil davomida dialektal leksemalar ma’lum darajada izohlashga harakat qilingan.*

Tayanch so‘zlar: *Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari. Xandakcha – tokcha. Kiyak – fartuk. Jeyak - lozimni boshi. Uviz – sut. Tov - tog‘. Enmoq – tushmoq. Lavlovi – lavlagi. Hiyy? – nimaga?*

Annotation.*This article explains how accurate the One Dictionary project is. This article contains a number of words specific to the dialect of Gurjob village, Yakkabag district, Kashkadarya region, and analyzes them. During the analysis, some attempts were made to interpret dialectal lexemes.*

Keywords: *Upper Kashkadarya Uzbek dialects. Trench - shelf. Kiyak - apron. Jayak is the beginning of what is necessary. Uviz - milk. Tov is a mountain. To fall is to fall. Beets - beets. Hiyy? - Why?*

O‘zga tillarda so‘z o‘zlashtirish jarayoni shevalarning dialektal boyligini saqlashga rahna soladi. Shuning uchun shevalarning adabiy til doirasida qo‘llanmaydigan so‘z boyligini saqlab qolishga har bir kishi o‘z hissasini qo‘shishi insoniylik burchidir. Shularni hisobga olib, shevamiz boyligi to‘g‘risida bu maqolada to‘xtaldim.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning 2016-yil 13-maydagi PF-4797-sonli farmoni bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish belgilandi.[demo.navoiy-uni.uz] Shuning bilan birgalikda ushbu universitetda qanday fakultet va kafedralar ochilishi ham belgilangan. Shunga ko‘ra, belgilangan kafedralarning ichida Folkshunoslik va dialektologiya kafedrasi ham bor edi. Lekin bu kafedra yopilib ketdi. Negaligiga tushunmadik. Ushbu universitetni tashkil etishda bir qator maqsad va vazifalar ishlab chiqildi. Belgilangan maqsad va vazifalarning eng asosiysi o‘zbek tilini yanada boyitib, uning taraqqiyotini mustahkamlashdan iborat edi. Ma’lumki, o‘zbek tilining boyishida shevalarning adabiy tilda qo‘llanmaydigan dialektal leksikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham O‘zbekiston Respublikasi bosh vaziri tomonidan “2019-yil 11-dekabrda imzolangan “O‘zbek tilining davlat tili sifatida qo‘llanilishini kengaytirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha 2019-2020-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi”da “O‘zbek shevashunoslik markazi”ni tashkil etish ko‘zda tutilgan. Shu ma’noda markaz faoliyatini yo‘lga qo‘yish va shevashunoslik bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni uyg‘unlashtirish uchun Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida “O‘zbek shevashunosligi markazi”ning ta’sis yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Markazning bosh maqsadi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot instituti hamda tashabbuskor guruhlarda o‘zbek shevalarining o‘rganilishini rejalashtirish va muvofiqlashtirishdan iborat. Shuningdek, o‘zbek shevalarining

fonetik, leksik, grammatik va sotsiolingvistik xususiyatlarini tadqiq qilish, ularning mualliflar guruhini shakllantirish, tayyorlanajak o‘zbek shevalari lug‘atlari, matnlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari, monografiya va maqolalarni muhokama qilish va nashrga tavsiya berish markazning asosiy vazifalaridan sanaladi. [O‘zbek shevashunosligi markazi ta’sis yig‘ilishi bayonnomasi].

1971-yilda nashr etilgan “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” [Ўзбек халқ шевалари луғати, 1971: 25] dan keyin ham dialektal lug‘atlar tayyorlanib, nashr etilgan. Biroq bularda har kim o‘zi bilganlarini qayd etishib, shakllangan maxsus dialektal leksikografik tamoyillarga jiddiy amal qilinmagan, ya’ni ularga nomigagina amal qilish holatlari seziladi. Mana shularni e’tiborga olgan holda biz shevamizga xos dialektal materiallar asosida quyidagi maqolamizni tayyorladik. Ushbu maqolada Qashadaryo viloyatining Yakkabog‘ tumani G‘urjob qishlog‘i shevasidagi adabiy tilda uchramaydigan leksemalarni leksik, etimologik, morfologik, fonetik va qiyosiy jihatdan tahlil qilishga harakat qildik. Maqolada keltirilgan dialektal so‘zlarni o‘quvchiga tushunarli va tartibli bo‘lishi uchun ma’lum bir guruhlarga bo‘lib chiqishni lozim topdik.

Bilamizki, sheva materiallari adabiy tilimizni fonetik, leksik va grammatik jihatlardan boyituvchi asosiy boyish manbai sanaladi. Btiz o‘rgangan sheva Yuqori Qashqadaryo o‘zbek xalq shevalaridan biri Yakkabog’ tumanidagi G‘urjob shevasiga oiddir. Bu shevaning nomi ancha vaqt G‘urjob deyilgan, lekin bugungi kunda uni Qo‘shchinor deb atashadi. Biz dialektal materiallarimizni keksa otaxonu onaxonlardan yig‘g‘qanimiz uchun qishloq nomini avvalgi nomicha saqlashni o‘rinli bilamiz. Ushbu shevani B. Jo‘rayev XX asrning 60-70-yillarida “Yuqori Qashqadaryo o‘zbek shevalari” nomi bilan maxsus o‘rgangan [Жўраев: 160-249; 202; 18.].

Shu ta’kidlash kerakki, B.Jo‘rayev Shahrisabz shevasini o‘rganganida unga chegaradosh bizning qishloq shevasidan ham materiallarini to‘plagan. Ayni vaqtda har bir qishloq, mahalla hajm va aholining ko‘pligi jihatidan bitta sheva sanalishi bor haqiqat, chunki ularda XX asrning 70-80-yillaridagiday besh olti xo‘jalik yashamaydi, balki hozirgi kunda yuz va minglab xo‘jalik vakillari yashaydi. Shuning uchun tumanlarda esa bir-biriga yaqin bo‘lgan shevalar yig‘indisi mavjud bo‘ladi. Lahjalar esa tumandan-da kattaroq hududni qamrab olgan bir-biriga yaqin va o‘zaro bir-birini to‘ldiradigan shevalar yig‘indisi. Yakkabog‘ tumanida, asosan, qipchoq lahjasi (j-lovchilar) vakillari, qisman qarluq lahjasi vakillari yashashadi, o‘g‘uz lahjasi vakillari yo‘q hisobi.

Quyida G‘urjob shevasining leksikasidan materiallar to‘pladik va ularni leksik dialektal tahlil hamda talqin qilish asosida ushbu mujaz maqolamizni bir qancha dialektal so‘zlarni keltirish, dialektal leksik tahlilni amalga oshirish bilan amalga oshirdik:

1.Xandakcha - tokcha
Buvangni chopqisi xandakchani ustiga turipti.
2.Kiyak - fartuk
Gazxonadagi mix ilgakka kiyakim turipti, bor op ke.
3.Jeyak - lozimni boshi
Ayam tikuvchiga boruvdi, jeyagi qopti hali tikilmaganidan.
4.Uviz - sut
Siyir hali to‘liq sutka kirmapri, uviz beryapti hali.
5.Tov - tog‘
Sinipdoshlaring bilan tovga qachan chiqasilaring?
6.Enmoq - tushmoq
Qishlog‘dan shaharga enib kegincha ancha yo‘l bor.
7.Buzov - buzoq
Buzov sigirdi emib qo‘yibdiku, nimaga qaramadilaring?
8.Sovsani - siyohrang
Ayam sovsani gulli ko‘ylagini yaxshi ko‘ratta!
9.Chakki - suzma
Balajonim, bor chakkini sizdirib kegin.
10.Piyova - makaron sho‘rva
Har kuni bir xil piyova ichaykammizda.
11.Bashqacha - g‘alati
Toshkenni odamlari bashqacha bo‘latta.
12.Shuvamoq - chaplamoq
Basharangni sakkiz qavat qip shuvaamasang bo‘maydima?
13.G‘ujala - aralash, chala
Hamma ishti g‘ujala qip ketkansane, to‘liq qisang bo‘mayma?
14.Ignacho‘p - to‘g‘nog‘ich
Ignacho‘ping bo‘sa berib tur, ko‘ylagimga qistirib qo‘yay.
15.Qo‘rmalcha – dastro‘mol
Balam, ko‘ylagimni kistasidan qo‘rimalchamni op chiqib yuvip qo‘y.
16.Xundi - odamovi
Ibrayim yoman xundi bachcha bo‘lli-da.
17.Qarovut qizil - to‘q qizil
Ayam obergan qarovutqizil ko‘ylagimni yaxshi ko‘ramanda
18.To‘taki - siyohrang
Bahorda hamma joyda to‘taki rangdagi gullarga to‘lib ketadi
19.Zaynavi - yashil
Barnolarni darvozasi zaynavi
20.Boratta - boradi-da

Ay, kerak bo‘sa boratta, elanaymi enni?!

21.Aptova - obdasta

Aptovaga birammattayam suv to‘ldirib qo‘ymaysilar-e!

22.Elanmoq - yalinmoq

Sen meni elantirma, bari bir senga pul bermayman

23.Gittakkina - ozgina, kamgina

Avqatti gittakkina tuzi kam bo‘pti-da.

24.Pichchi - ozgina

Pichchi sabr qisang, pishadi shu

25.Savir qi - sabr qilmoq

Savir QIsang ettaga oberaychedi-ku

26.Chichqon - sichqon

Chertakka chichqonlar shunnay uy qurib tashlapti.

27.Qismach - qozondagi kuyib-kuyib yig‘ilgan qoldiq.

Qozanni qara qannay qismach baylab ketipti, tozalasang bo‘laydi.

28.Govkalla - boshi kata.

Anavi govkalla bachchani ko‘rdingmi? O‘shada kecha sochingni tortib ketkan.

29.Govaz - katta

Dadam op kegan sigir shunnay govaz ekan, bir ichishda to‘rt paqir suv ichdi.

30.Qo‘yan - quyon

Ikki yil illay hamma qo‘yanlarimiz kasallikdan o‘lip ketti.

31.Illay - avval

Illaylari meni bo‘yim kaltaligidan, turnikka ko‘p tortinaychiydim.

32.Kesav, ko‘sav- o‘choq, tandir kovlaydigan temir asbob.

Tandirdi KESAV bilan yaxshilab kavlasang, yaxshi yonadi.

33.Xalgishtak - arg‘imchoq

Uyalmaysamma, kap-katta bachcha xalgishtak uchib vaqtingni o‘tkazgani?

34.Kasatki - kaltakesak

Vay, men kasatkidan qo‘rqaman! Devalga kasatki o‘rmalab ketyaptiykan

35.Qurvaqqa - qurbaqa

Bahordi kuniga havlini yoman qurvaqqa bosib ketaycheydi

36.Innama - indama

Innamay o‘tirsang birar joyingnga bir nassa bo‘ladima?

37.Tegimma - tegma

Heshnassaga teggimmay, jimgina avqatingni ye.

38.Tegishma - tegma

Av bachcha kerakli nassalaga tegishmay o‘ttir dedim men sengnga.

39.Shukini - o‘sha kunda
Shukini akam Toshkengnga kep-ketti.
40.Yaxlamoq - sovumoq
Tezroq ke, balam, avqating yaxlab qoladi.
41.Mo‘rcha - chumoli
Daraxitti tayidan shunnay mo‘rchalar uy qurib tashlapti.
42.Qumursqa - chumoli
Gazxonadaki shakarga qumursqa aralapti.
43.Go‘rgaydi - mayli edi
Hali apang borib janjal qip kemaysa go‘rgaydi.
44.Jiyirmoq - burushtirmoq
Yoqmagan hammaga bunnini jiyiruradi.
45.Avriydi - og‘riydi
Qarilardi hamma joyi qaxshab avriydi o‘ziyam.
46.Shuvkamoq - surtmoq
Kelin hooov kelin, bangnga qara yog‘di hamma joyiga shuvkab tayladi
47.Ang‘ib turmoq - poylab turmoq
Pishakim devaldi arqasidan ang‘ib turib chichqon tutadi.
48.Anqaymoq - angraymoq
Anqayib qolgan Toshtemir, o‘ziga kellida, suppayib turuvirdi
49.Shanqaymoq - angraymoq
Hay, shanqayma, paqir to‘lib ketti-ku?
50.Hayla - hov ana.
Hayla anaqqa oshxonani oldida turibdiku supirgi
51.Shatta – urishqoq
Ana Nappi yamonam shatta qizda
52.Chach – soch
Chachingni jiyishtirib yursang bo‘mayma
53.Jiyishtirmoq – yig‘ishtirmoq
Uyni jiyishtirmaganim uchun ayam rosa urishdi
54.Xolta – xalta, qop
Dadam bozordan bir xolta piyaz op kelli.
55.Chukri – Ravoch
Bahorda tovga borsak, bir xolta chukri terib kelamiz
56.Hasarisvand – isiriq
Enam hamma uyga hasarisvand tutatib chiqipti
57.Piyaz – piyoz
Bozorda piyaz shunnay oship ketipti, omay kellim.
58.Lavlovi – lavlagi

Ayam hovliga lavlovi ekti

59. Hiyy? – nimaga?

–bugun o‘qishga bormayman

–Hiyy?

Demak, yuqoridagi dialektal so‘zlarning izohli tahlilidan xulosa qilib aytganda, men G‘urjob qishloq shevasidan bir qancha misollarni dialektal leksika holatida keltirdim. Keltirilgan misollarning asosiy qismi adabiy tilga kirmagan, kirgan bo‘lsa ham o‘z ma’nosida emas, boshqa ma’noda qo‘llanadigan so‘zlardir. Boshqa qishloqlarning ham shevasini leksik jihatdan o‘rgansak, ona tilimiz bo‘lgan sheva so‘zlarini saqlab qolgan bo‘lamiz. Buning uchun esa ustozlarimizning ko‘rsatma va tavsiyalari bilan sheva so‘zlarini indivial va ommaviy tarzda yig‘ishga kirishishimiz lozim bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент: Фан, 1991. –В.3-407.

2. Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари лексикаси // Ўзбек шевалари лексикаси. -Тошкент: Фан,1966. -Б.160-249.

3. Джураев Б. Шахрисабзский говор узбекского языка. -Ташкент: Фан, 1964.-202 с.

4. Джураев Б. Шахрисабзский говор узбекского языка. АКД. - Ташкент, 1964. 18 с.

MUNDARIJA

1-SHU‘BA

O‘ZBEK ADABIY TILI VA SHEVA MUNOSABATLARI

1.	Shuhrat Sirojiddinov Kirish so‘zi. O‘zbek shevalarini o‘rganish yangi bosqichda	**4**
2.	Ashirboyev Samixon O‘zbek shevalarini o‘rganishning to‘ng‘ich kaliti	**6**
3.	Azimov Inomjon Jadid ziyolilarining shevalarga munosabati	**13**
4.	Abdiyev M., Rahmonov S. Samarqand o‘guzlari nutqidagi so‘z hosil bo‘lishining ayrim xususiyatlariga doir	**19**
5.	Xolmanova Zulxumor Shevalardagi lakunar birliklar – til boyligini ko‘rsatuvchi manba	**23**
6.	Enazarov Tolib Djumanazarovich O‘zbek xalq shevalarining dialektal leksikasi va leksikografiyasiga yangicha yondashuv	**28**
7.	Darvishov Ibrohim O‘zbek tilshunosligida Namangan shevalarining o‘rganilishi	**35**
8.	Ahmedova Nargiza Xorazm shevasidagi dialektizm sememalar tahlili	**39**
9.	Hasanov Abdumannon Majidovich O‘zbek shevalarining adabiy til leksikasidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish imkoniyatlari	**43**
10.	Xolova Muyassar Abdulhakimovna Boysun tumani shevasida fonetik dialektizmlar	**51**
11.	Alimardonov Elyor Xorazm dialektal zonasining turkman tilli areallarida qaratqich kelishigining qo‘llanilishi	**60**
12.	Turdialiyev Anvarbek Denov shevasining tasniflardagi o‘rni	**64**
13.	Alimbekova Vazira Xalimjon qizi Dardoq shevasida unlilarning cho‘ziq talaffuz qilinishi	**72**

2- SHU‘BA

SHEVALARNING STRUKTURA XUSUSIYATLARI

1.	Ibragimov Y.M., Musayeva E., Shevalar leksikasining taraqqiy etishida kasb-hunar terminlarining o‘rni	**76**
3.	Suvonova Rohila Akramovna	**79**

	Qipchoq shevalarida harakat fe’llari	
3.	Raxmonov Navro‘z Sattorovich O‘zbek shevalarida so‘z yasalishi (Navoiy viloyati shevalari misolida)	**81**
4.	Xidraliyeva Zoxira Iqon shevasida olmoshlar xususida	**89**
5.	Usmonov Musurmon Mamirali o‘g‘li Mingbuloq shevasining o‘ziga xos leksik xususiyatlari	**93**
6.	Сайфуллаев Бауыржан Нұрымбет ұлы Шыршық қазақ говорларының фонетикалық ерекшеліктері	**99**

3- SHU‘BA

O‘ZBEK SHEVALARINI AREAL O‘RGANISH VA TARIXIY DIALEKTOLOGIYA

1.	Jabborov Xo‘jamurod Jabborovich Bolta Jo‘rayev – Yuqori Qashqadaryo shevalarining zukko va zahmatkash tadqiqotchisi	**105**
2.	Shofqorov Abdishukur Musayevich “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi dialektal so‘zlar	**110**

4- SHU‘BA

DIALEKTOLOGIYA VA lINGVOKULTUROLOGIYA

1.	Duysabayeva Dilbar Dialektik leksikani o‘rganish – lingvomadaniyatshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biri	**115**
2.	Alimova Shahnoza Xorazm qipchoq shevalari leksikasining o‘ziga xos xususiyatlari tahlili	**119**
3	Oripova Kamolaxon Erkinjon qizi, Qudratova Shaxzoda Lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichlari	**124**

5- SHU‘BA
DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, TOPONIMIYA VA TERMINOLOGIYA

1.	Abdushukurov Baxtiyor Dialektal leksikografiya muammolari	**127**
2.	Ibragimov Yuldash Janubiy orolbo‘yi o‘zbek shevalari leksikasidagi ayrim so‘zlarning etimologik talqini	**131**
3.	Hakimova Muhayyo Qo‘qon shevasida polisemiya hodisasi	**139**

4.	Abdiyev M., Nabiyev R., Forish tumani milliy xalq o‘yinlari leksikasiga doir	**144**
5.	Chiniqulov Nurmurod “Devonu lug‘atit-turk”da mavjud bo‘lib ayrim shevalarda qo‘llanilayotgan so‘zlar xususida	**148**
6.	Rahmatov Mardon Mehmonovich Bayt intonatsion strukturasi va intonatsion kuchli pozitsiya	**152**
7.	Norboyeva Shukurjon Xaitboyevna Xorazm shevalari kasbiy leksikasi tarkibidagi ayrim so‘z yasovchi affikslar	**156**
8.	G‘aniyev Nurbek O‘ktamovich Qiziltepadagi dialektal toponimlarning etimologik, kognitiv, etnografik va tarixiy xususiyatlari	**160**
9.	Alimbekova Vazira Insonlarning tashqi qiyofasini va sifatlarini ifodalovchi leksemalar	**165**
10.	Qurbonov Nodirjon Buriboyevich Farg‘ona vodiysidagi dialektal toponimlarning izohi	**171**

6- SHU‘BA

O‘ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI

1.	Xolmonova Zulxumor, Sodiqova Feruza Sheva – tilni oziqlantiruvchi ildiz	**176**
2.	Musayeva Feruza Dialektal leksikada sinonimiya	**180**
3.	Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna Lisoniy shaxsni belgilashda dialektal omil	**184**
4.	Tojiboyev Botir Raximjonovich “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni yanada boyitish yo‘lidan	**187**
5.	Islomova Shoira Xushbokovna Qashqadaryo qipchoq shevalarida iboralarning leksik va grammatik o‘zgarishi	**191**
6.	Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna Samarqand shahar o‘zbek shevalarida qo‘llaniladigan taom nomlari to‘g‘risida	**195**
7.	Xaitov Xusniddin Xasanovich “Alpomish” dostoni leksikasidagi erkaklar va ayollar ismini anglatuvchi dialektal so‘zlar (Fozil Yo‘ldosh va Abdunazar baxshi variantlari misolida)	**198**

2-QISM
1- SHU‘BA

O‘ZBEK ADABIY TILI VA SHEVA MUNOSABATLARI

1.	Norbayeva Shukurjon Xayitbayevna, Azatova Ro‘zajon Odilbek qizi Omon Matjon ijodida dialektizmlarning o‘rni	**205**
2.	Ortiqov Ramazon O‘zbek adabiy tili va shevasida “ikkilamchi nominatsiya” hodisasining qiyosi	**210**
3.	Erkin Mohammad Aalim Afg‘oniston Taxor shevasidagi maishiy soha nomlari	**213**
4.	Aminova Feruza Matnazar Abdulhakim she'riyatida leksik dialektizmlar	**220**

2- SHU‘BA
SHEVALARNING STRUKTURA XUSUSIYATLARI

1.	Ibragimova Zamira, Abdullayeva Munisa Shevalarda laqablar etimologiyasi va ularning ijobiy, salbiy ma’noda ishlatilishi (Hazorasp tumani misolida)	**224**
2.	Yangiboyeva A.F. Amudaryo tumani shevalarida hozirgi zamon fe’l shakllari	**228**
3.	Yusupova Manzura, Orislanova Hamida Xorazm o‘g‘uz shevalari leksikasidagi eroniy tillarga oid o‘zlashmalarning ayrim mavzuiy guruhlari	**232**
4.	Abdusattorova Dilshodabegim Vodil shevasida insonlarning tashqi qiyofasini va sifatlarini ifodalovchi leksemalar	**234**
5.	Ahatova Gulchehra Tayloq tumani Yastepa qishlog‘i shevasiga doir dastlabki kuzatishlar	**241**
6.	Umarova Kamola Yangiqo‘rg‘on tumani shevasining o‘ziga xos xususiyatlari (Qorapolvon qishlog‘i shevasi misolida)	**244**
7.	Nasrullayev Oyatullo Turkovul va Beshbuloq qishloqlari shevasida turlanish	**248**
8.	Narbayeva Dildora, Abduraximova Shaxnoza Xorazm shevalaridagi uy-ro‘zg‘or leksikasining tarkibiy tahlili	**253**
9.	Asatullayeva Dilnavoz Buxoro shevalaridagi fono-morfologik hodisalar talqini	**256**
10.	Rozumbetova Xilola Umar qizi O‘g‘uz lahjasining fonetik xususiyatlari	**261**

11.	Eshboyeva Shoira Bakir qizi Bandixon tumani shevasiga oid ba’zi bir dialektal so‘zlar izohi	**265**

3- SHU‘BA

O‘ZBEK SHEVALARINI AREAL O‘RGANISH VA TARIXIY DIALEKTOLOGIYA

1.	Ibragimova Zamira, Xazirbayeva Mehribon Qoraqolpog‘istondagi turkiy xalqlar shevalarida frazelogizmlar	**271**
2.	Yo‘ldosheva Ma’rofat, Sa’dullayeva Sevara Xorazm shevalari sohaviy leksikasida gender xususiyatlarning aks etishi	**275**
3.	Bashir Ahmad Qardash Toliqon o‘zbek qipchoq shevasida ko‘plik shaklining mustaqil so‘zlarga qo‘shilish imkoniyatlar	**279**
4.	Norkozokova Munisa Farxodovna Payariq tumani Muhammadi qishlog‘idagi ba’zi dialektal so‘zlar izohi	**284**
5.	Yoqubboyeva Shoxista To‘raxon qizi O‘zbek shevalarini areal o‘rganish xususida (Namangan viloyati Chortoq tumani shevasi misolida)	**295**
6.	Avazova Lobar Aktamovna Ingichka shevasida chorvachilikka oid so‘zlarning qo‘llanilishi	**298**

4- SHU‘BA

DIALEKTOLOGIYA VA lINGVOKULTUROLOGIYA

1.	O‘ralova Fazilat Olimjon qizi Ruhiy holatni ifodalovchi so‘zlarning etimologiyasi	**304**
2.	Kurbanbayeva D.K., Qo‘ng‘irot shevasida frazeologizmlarning leksik-semantik tavsifi	**307**
3.	Ibragimova Gulsum Nurota tumani “j” lovchi shevalarida qo‘llanadigan ayrim iboralar tahlili	**311**
4.	Xurramova Charos Akmal qizi Xalq og‘zaki ijodi leksik qatlamini o‘rganilish zarurati (“Gulfarah va Shoh Ja’far” qissasi misolida)	**315**
5.	Satliqova Sevara Shoxnazarovna Xorazm xalq qo‘shiqlarining lingvomadaniy tadqiqi	**319**
6.	Azimova Yulduz Baxtiyor qizi To‘y marosim nomlari va ularning lingvomadaniy xususiyatlari	**323**

5- SHU‘BA
DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, TOPONIMIYA VA TERMINOLOGIYA

1.	Norboyeva Shukurjon Xaitboyevna, Allaberganova Sevinchoy Rashidovna Xorazm shevalari leksikasidagi omonim so‘zlar xususida (Xiva shevalari misolida)	**328**
2.	Yusupova Gulnoza Umarjonovna, Sultonova Jayrona Doniyor qizi O‘zbek tili Xorazm shevalari leksikasidagi ayrim qurilish terminlari tadqiqi	**332**
3.	Abduraxmonova Gulshan “Qora” leksemasi ishtirok etgan ayrim toponimlar haqida	**335**

6- SHU‘BA

O‘ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI

1.	Ibragimova Zamira, Hodiyeva Muhayyo O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan “xo‘ja” urug‘mi yoki diniy unvonmi?	**339**
2.	Ibragimova Zamira Yuldashevna, Yabbarbergenova Shadigul O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarining dasturxon atrofida aytiladigan ijobiy istak mazmunidagi so‘zlari	**344**
3.	Bozorboyeva M.M. O‘zbek tili shevasida kiyim-kechak leksikasining tavsifi	**348**
4.	Xidraliyeva Zoxira, Abdumalikova Zarifa Bulung‘ur tumani Yuqori qishlog‘i shevasiga oid ayrim dialektal so‘zlar xususida	**352**
5.	Usmonov Musurmon Mamirali o‘g‘li, Qosimova Shahlo Ulug‘bek qizi Shevalarda laqablar etimologiyasi va ularning ishlatilishi (mingbuloq tumani misolida)	**356**
6.	Otaboyeva N. Kattabog‘ qishlog‘i shevasida rang-tus bilan bog‘liq maqollar (Xorazm viloyati Yangiariq tumani misolida)	**361**
7.	G‘affarova L. Yangiariq shevasidagi dehqonchilikka oid ayrim so‘zlar tahlili	**364**
8.	Avazova Nilufar Oqiljon qizi G‘ijduvon tuman shevasidan matnli materiallar	**367**
9.	Nutfullayeva Mohina Murodillo qizi O‘zbek tilining Peshko‘ shevasi xususida	**374**
10.	Xolmo‘minova Aziza G‘olib qizi	**378**

	Totkent qishlog‘i shevasi leksikasining izohi haqida	
11.	Mahammadiyev Erkin Erali o‘g‘li Qiziltom qishlog‘i shevasiga oid ayrim dialektal so‘zlarning izohi	**384**
12.	Nuraliyev Shohrux Yunus o‘g‘li “Xo‘jahayron” qishlog‘i shevasiga oid dialektal so‘zlar va ularning izohi talqinlari	**389**
13.	Saidova Hilola G‘urjob qishlog‘i shevasidagi ba’zi bir dialektal so‘zlar xususida	**395**